O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

1 -QISM

TASHKILOTCHILAR:
TDIU “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi
Ilmiy kengash hamkorligida

“IQTISOD-MOLIYA” NASHRIYOTI
TOSHKENT — 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“IQTISODIYOT NAZARIYASIDAGI G‘OYALAR EVOLYUTSIYASI: ILMIY QARASHLAR VA USTUVOR TAMOYILLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konfernsiya materiallari

TO‘PLAMI

1-qism

2026-yil 7-may

TOSHKENT-2026

УДК 330.8

“Iqtisodiyot nazariyasidagi g‘oyalar evolyutsiyasi: ilmiy qarashlar va ustuvor tamoyillar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (1-qism). – T., 2026.

Ushbu to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”ning ustuvor vazifalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi “2019-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori doirasida iqtisodiy va institutsional o‘zgarishlarning ustuvor yo‘nalishlari hamda sun’iy intellekt, “yashil” va raqamli iqtisodiyot g‘oyalarini amaliyotga joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot natijalari keng yoritilgan. To‘plamda keltirilgan ilmiy maqolalar zamonaviy iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish, iqtisodiyot nazariyasi sohasida yangi bilimlarni shakllantirish va milliy rivojlanish strategiyalari samaradorligini oshirish bilan bog‘liq dolzarb muammolarni qamrab olgan bo‘lib, tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, magistrantlar va iqtisodiyot sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami amaliyotchilar, professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar, tadqiqotchilar, magistrlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan.

Tahrir hay’ati raisi:
T.Z. Teshabayev – i.f.d., professor.
Tahrir hay’ati a’zolari:
S.U. Mexmonov – i.f.d., professor;
G.K. Abduraxmanova – i.f.d., professor;
G‘.A. Safarov – i.f.d., professor;
X.S. Asatullayev – i.f.d., professor;
T.T. Djurayev – i.f.d., professor;
A.A. Mamatov – i.f.d., professor;
N.I. Xasanxonova – i.f.d., professor;
J.Y. Nurillayev – i.f.n., professor;
U.Dj. Zaynutdinova– i.f.n., professor;
Z.G. Allaberganov – dotsent;
A.R. Ulashov – katta o‘qituvchi.
Taqrizchilar:
D.Tadjibayeva – i.f.d., professor.
E.Sh.Shadmanov – i.f.d., professor.

Matnlarda foydalanilgan manbalar va ma’lumotlar aniq hamda haqiqiyligiga mualliflarning o‘zi javobgardir.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
rektori, i.f.d., professor Teshabayev To‘lqin Zakirovich

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar, ustozlar, hamkasblar va talabalar! “Iqtisodiyot nazariyasidagi g‘oyalar evolyutsiyasi: ilmiy qarashlar va ustuvor tamoyillar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya qatnashchilari!!!

Sizlarga ma’lumki, ko‘z o‘ngimizda insoniyatning bugungi iqtisodiy tafakkuri, ilmiy qarashlari va erishgan nazariy yutuqlari bir necha ming yillar davomida shakllangan bilimlar evolyutsiyasining pirovard samarasi hisoblanadi. Asrlar davomida iqtisodchilar o‘zlarining aql-idroki, tafakkuri va ilmiy mehnati bilan buyuk nazariy kashfiyotlarni amalga oshirdi va ularni amalda keng tatbiq etish orqali xalqlar farovonligini ta’minlamoqda. Iqtisodiy tafakkurning fundamental asoslari Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida yashab o‘tgan buyuk allomalarimiz Al-Farg‘oniy, Al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Xaldun tomonidan yaratildi. XIX asr o‘rtalaridan A.Smit, D.Rikardo, K.Marks asarlari asosida klassik iqtisodiyot maktabi Yevropada rivojlandi. XX asrda J.Keyns, M.Fridman, P.Samuelson kabi olimlarning nazariyalari dunyo iqtisodiy fanini tubdan yangiladi. Xo‘sh, bunday nazariy taraqqiyot, g‘oyalar va maktablarning evolyutsiyasi zamonaviy iqtisodiy siyosat va amaliyotni qay darajada o‘zgartirdi?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev butun ilmiy hamjamiyat e’tiborini ushbu dolzarb masalaga qaratdi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston YaIM hajmi 2024-yilda 115 milliard dollardan oshib, iqtisodiy o‘sish sur’ati 6,5 foizni tashkil etdi. Bu Markaziy Osiyo mintaqasida eng yuqori ko‘rsatkichlardan biridir. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Yangi O‘zbekiston 2030” strategiyasi iqtisodiy va institutsional islohotlarning puxta yo‘lxaritasini belgilab berdi. Qayd etilganidek, zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida Jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra, jahon YaIMi 2023-yilda 100 trillion dollar chegarasiga yetdi. Ammo shu bilan birga, iqtisodiy tengsizlik muammosi yanada keskinlashmoqda: G20 tomonidan tashkil etilgan Nobel sovrindori J.Stiglits boshchiligidagi ekspertlar guruhining 2025-yilgi hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha eng badavlat 1 foiz aholi 2000-2024 yillar oralig‘ida yaratilgan barcha yangi boylikning 41 foizini o‘zlashtirdi. Bu holat A.Sen va J.Stiglitsning tengsizlik nazariyasida asoslangan tizimli ziddiyatning bugungi kundagi jonli ifodasidir.

Shiddat bilan yangilanib va o‘zgarib borayotgan bugungi davrda sun’iy intellekt, “yashil” va raqamli iqtisodiyot g‘oyalariga asoslangan yangi iqtisodiy paradigmaga o‘tish muhim ilmiy va amaliy ehtiyojga aylandi. UNCTAD ning 2023-yilgi statistika ma’lumotnomasi shuni ko‘rsatmoqdaki, global YaIM o‘sishi 2022-yildagi 3,1 foizdan 2023-yilda 2,2 foizga sekinlashdi. Shu bilan birga, 2023-yilda moddiy aktivlarga investitsiyalar bilan solishtirganda, nomoddiy aktivlarga xususan, dasturiy ta’minot, ma’lumotlar, patentlangan texnologiyalarga investitsiyalar uch baravar tezroq o‘sib, 6,9 trillion dollarga yetdi. Bu raqamli iqtisodiyotning global

iqtisodiy tafakkurni tubdan qayta shakllantirishi kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, IMFning rasmiy "World Economic Outlook" hisobotiga ko‘ra, COVID-19 pandemiyasi jahon iqtisodiyotini 2020-yilda 3,3 foizga qisqartirdi – bu 1930-yillar Buyuk turg‘unligidan keyingi eng katta tanazzul hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiy etgan sari iqtisodiy qaror qabul qilishning roli va ahamiyati ortib boradi. Bir tomondan, uning nufuzli oqimlaridan biri bo‘lgan institutsional iqtisodiyotning vujudga kelishi uni hatto alohida kurs, qolaversa, fan sifatida o‘rganilishiga olib keldi. Ikkinchi tomondan, qaror qabul qilish va buning uchun tanlovning ahamiyati ortishiga sabab bo‘ldi. Chunki qaror qabul qilish uchun tanlash zarur. Insonning tanloviga esa nafaqat iqtisodiy, balki noiqtisodiy omillar ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Buni dastlab iqtisodchilar va mantiqshunoslar tan olib, e’tirof etdilar. Natijada insonlarning tanlovi va qaror qabul qilishida psixologik omillarning roli hamda ahamiyatini o‘rganishga psixolog olimlar alohida e’tibor qaratdilar. Oqibatda, G. Saymonning “cheklangan ratsionallik”, Daniel Kahnemanning “istiqbol nazariyasi” hamda Richard Thalerning “turtki berish” nazariyalari yaratildi. Ularning asoschilari esa iqtisodiyot yo‘nalishida Nobel Memorial Prize in Economic Sciences sovrindorlari bo‘ldilar.

Umuman olganda, iqtisodiyot nazariyasidagi g‘oyalar evolyutsiyasini chuqur o‘rganish, O‘rta Osiyo iqtisodiy maktabining o‘ziga xos ilmiy merosini tiklash va zamonaviy talqinlarga moslashtirish hamda Nobel sovrindorlarining asosiy nazariyalarini milliy rivojlanish modeliga tatbiq etish milliy iqtisodiyotimizning ustuvor sohalarini isloh qilish, aholi turmush farovonligini sifat jihatdan yaxshilash va “Yangi O‘zbekiston 2030” strategiyasining maqsadlariga erishishga bevosita xizmat qiladi.

“Iqtisodiyot nazariyasidagi g‘oyalar evolyutsiyasi: ilmiy qarashlar va ustuvor tamoyillar” mavzusidagi ushbu respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ishtirokchilari ya’ni ilm-ma’rifat va ziyo tarqatuvchi siz olimlar, tadqiqotchilar oldida yuqorida ta’kidlangan nazariy va amaliy masalalarni ochiq ilmiy muloqot tarzida muhokama qilish hamda tegishli ilmiy xulosalar berish vazifasi turadi, deb o‘ylayman. Konferensiya ishtirokchilariga yana bir bor o‘zimning samimiy minnatdorchiligimni bildiraman va siz olimlar o‘z tadqiqotlari, ilmiy tajribalari bilan o‘rtoqlashib, mazkur yo‘nalishda amaliy tavsiya hamda ilmiy xulosalarini baham ko‘rishlariga umid qilaman.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori!!!

1-YO‘NALISH. IQTISODIYOT FANI TARIXIDA IQTISODIY QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH KONSEPSIYALARI

ЖАҲОН ИҚТИСОДИЁТИДА НОАНИҚЛИК ШАРОИТИДА ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТНИ АМАЛГА ОШИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Вахабов Абдурахим Восиқович, иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Америка иқтисодий фанлар академияси хақиқий аъзоси, Тошкент Кимё Халқаро Университети ректори маслаҳатчиси
e.mail: a.v.vakhabov@gmail.com
a.vaxabov@kiut.uz

Жахон иқтисодиётида XXI асрнинг 20 йилларида иқтисодий ўсиш суръатларининг пасайиши тенденцияси кузатилмоқда. Ушбу ҳолат устун даражада жаҳон иқтисодиётида ривожланган мамлакатларни “new normal” (янги норма) – 2008 йилдаги жаҳон молиявий-иқтисодий инқирозидан кейинги даврдаги иқтисодий ўсиши суръатларининг 1990-2000 йилларга нисбатан паст даражадаги ривожланиши моделига риоя этаётганлиги, ривожланаётган ва бозор муносабатлари шаклланаётган мамлакатларни “ўрта даромадлар тузоғи” (middle income trap) га тушиб қолаётганлиги билан боғлиқ. Жаҳон иқтисодий ўсиш суръатлари 2021 йилда 6%, 2022 йилда 3.2%, 2023 йилда 3.3%, 2024-2025 йилларда 3.2%ни ташкил қилди[1]. 2020 йиллар жаҳон иқтисодиёти тарихига 1960 йиллардан буён энг паст иқтисодий ўсиш суръатларга эга бўлган ўн йиллик сифатида киради. Жаҳон банки, Халқаро валюта жамғармаси маълумотларига кўра жаҳон хўжалиги иқтисодий ўсиш суръатларининг систлиги дунё мамлакатларидаги аҳоли турмуш даражасидаги тафовутни, табақалашишни кескин пасайтириб юборади: жумладан 2025 йил охирида аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромад ривожланган мамлакатларда 2019 даражасидан кўпайди, чорак ривожланаётган мамлакатларда эса аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромад қисқарди.

Жаҳонда иқтисодий ўсиш суръатлари глобал инфляцияни пасайиб бориши, жаҳоннинг етакчи ривожланган мамлакатларининг Марказий Банкларининг қайта молиялаш ставкасининг ортиши, глобал қўшилган қиймат занжирини қайта қурилиши, Россия-Украина уруши, жаҳон иқтисодиётида кузатилаётган деинтеграциялашув, деглобаллашув, дефрагментлашув жараёнлари ва протекционизм сиёсатини қўллаш халқаро савдо ҳажми ва ички талабни қисқариши туфайли секинлашди.

Жаҳон иқтисодиётида 2025 йилдаги савдо тўсиқларини кучайиши ва ноаниқликни кучайиши таъсирида глобал иқтисодий фаоллик Яқин Шарқда бошланган уруш туфайли жиддий синовдан ўтмоқда. Уруш муддати ва миқёси жиҳатдан чекланган бўлади деган ёндошувдан келиб чиқиб Халқаро Валюта жамғармаси, Жаҳон банки каби халқаро ташкилотлар жахон иқтисодиётида ўсиш тенденциялари пасайиши давом этади деб ҳисоблаб 2026 йилда жаҳонда иқтисодий ўсиш суръати 3.1% ва 2027 йилда 3.2% бўлади деб прогноз

[1] https://www.imf.org/ru/publications/weo/issues/2026/04/14/world-economic-outlook-april-2026

қилишмоқда[2]. Прогнозларга кўра жаҳон иқтисодиётида иқтисодий ўсиш суръатларини секинлашуви ва инфляцияни ўсиши бозор муносабатлари шаклланаётгани ривожланаётган мамлакатларда яққол намоён бўлади.

2026 йил Швейцариянинг Давос шаҳрида бўлиб ўтган жаҳон иқтисодий форуми ҳисоботида жаҳон хўжалиги ўз тараққиётида “рақобат асри”га беқарорлик босқичига кирганлиги, ҳамда геосиёсий ва иқтисодий зиддиятлар алоҳида аҳамият касб этганлиги таъкидланади. Жаҳон иқтисодиёти ривожланишига таъсир этувчи хатарлар муддати жиҳатдан қисқа (2 йил ичида) ва узоқ муддати (10 йил ичида) хатарларга бўлинади. Жаҳон олимлари фикрича 2026-2027 йилларда жаҳон иқтисодиёти ривожланишига энг катта хавф деб геоиқтисодий қарама-қаршиликлар, жумладан савдо урушлари, иқтисодий ва молиявий санкциялар, глобал таъминот занжирларининг қуролга айланишидан иборат. Давос – 2026 йил форуми қатнашчилари ўртасида ўтказилган сўровномалар натижалари кўрсатишича респондентларнинг 18% дунё учун энг катта хавф геоиқтисодий қарама-қаршилик деб ҳисоблайдилар[3]. Давлатлараро қуролли можаролар глобал барқарорликка бевосита тахдид солувчи навбатдаги хатар ҳисобланади. Урушлар жаҳон иқтисодиётидаги ҳолатни белгиловчи етакчи омилга айланди. Геосиёсий кескинликни ортиши ва хавфсизлик соҳасидаги муаммоларни кескинлашуви аксарият мамлакатларни устуворликлари ва харбий мақсадлар учун сарфланадиган харажатларни қайта кўриб чиқишни тақозо этмоқда.

Д.Трампни 2017-2021 йилларда АҚШда биринчи президентлик даврида НАТОга аъзо бўлган мамлакатларни ҳарбий мақсадлар учун ажратиладиган маблағларнинг ЯИМдаги улушини 2.0%га етказиш, ҳамда Д.Трампни 2025 йилдан бошланган иккинчи президентлик муддатида ушбу ҳарбий блокга аъзо бўлган мамлакатларда харбий харажатларни ЯИМдаги улушини 5.0% га етказиш тўғрисидаги чақириқлари ушбу мақсадлар учун хизмат қилади. Ушбу харбий тадбирлар фуқоролик мақсадлари учун сарфланаётган маблағларни қисқартириб, унумсиз, самарасиз, харбий мақсадларга йўналтиришга олиб келади. Ушбу ҳолатлар, ривожланган мамлакатлар иқтисодиётини ўсиш суръатларига салбий таъсир кўрсатади.

Халокатли гуманитар таъсирдан ташқари урушлар катта миқдорда ва узоқ муддатли даврда иқтисодий харажатларни сарфлаган ҳолда қийин макроиқтисодий келишувларни амалга оширишга мажбур қилади. Актив уруш ҳаракатлари бўлмаса ҳам, мудофа учун сарфланаётган харажатларни ортиши ўрта муддатли даврда иқтисодиётни боғлиқлиги, ўзаро алоқадорлиги омилларини кучайтиради. Худудида уруш ҳаракатлари содир бўлаётган мамлакатларда иқтисодий фаоллик кескин қисқаради. ХВЖ мутахасислари тахлиллари кўрсатишича, уруш ҳаракатлари содир бўлаётган мамлакатларда можоронинг бошланишида ишлаб чиқариш хажми 3% га қисқаради ва ушбу жараён бир неча йил давом этади, беш йилдан кейин олинган ялпи зарарлар

[2] https://www.imf.org/ru/blogs/articles/2026/04/08/wars-impose-lasting-economic-costs-while-more-defense-spending-means-hard-choices

[3] https://www.weforum.org/publications/global-risks-report-2026/

7% ни ташкил этади[4]. Одатда уруш туфайли ишлаб чиқаришни қисқариши ҳажми молия инқирозлари ёки табиий офат туфайли олинган зарарга нисбатан катта бўлади. Мамлакатларни кутилаётган иқтисодий зарари миқёси ўн йилгача сақланиши мумкин.



Тадқиқотлар кўрсатишича, урушлар кескин иккиламчи самаралар вужудга келтиради.Ушбу иккиламчи самара худудида уруш харакатлари бўлмаётган мамлакатлар жиддий иқтисодий йўқотишдан қутилиши мумкин. Уруш ҳаракатлари ҳудудида содир бўлаётган мамлакатлар ушбу фалокатдан қочиб қутила олмайди.

Йирик урушлар (уруш харакатлари жараёнида камида 1000 киши халок бўлади) ҳудудида уруш харакатлари бўлаётган мамлакатларга қийин қарорлар қабул қилишга мажбур қилади[5]. Ушбу мамлакатларда ишлаб чиқариш ҳажми ва солиқ тушумлари кескин қисқарган ҳолда харажатлар мудофа мақсадлари учун қайта тақсимлангани ва давлат қарзи ортгани учун учун давлат бюджетини молиявий ҳолати ёмонлашади.

Ушбу мамлакатлар ташқи савдо айланмаси сальдосининг ёмонлашувига

[4] Балима И., Лагерборг А., Уивер Е. Войны приводят к долговременным экономическим издержкам, а увеличение расходов на оборону связано с необходимостью принятия трудных решений. https://www.imf.org/ru/blogs/articles/2026/04/08/wars-impose-lasting-economic-costs-while-more-defense-spending-means-hard-choices.

[5] https://www.imf.org/ru/blogs/articles/2026/04/08/wars-impose-lasting-economic-costs-while-more-defense-spending-means-hard-choices

дуч келади. Мамлакатда талаб қисқаргани ҳолда импорт ҳажми кескин камаяди ва савдо дефицити вақтинчалик ортишига олиб келади. Ноаниқликни ортиши капитални четга чиқишига олиб келади, тўғридан-тўғри ва портфель инвестициялар қисқаради. Ушбу ҳарбий ҳолат ҳукуматни савдо дефицитини молиялаштириш учун ташқи ёки ички ёрдамга муҳтожлигини вужудга келтиради.

Жаҳон иқтисодиёти ўсиш суръатларига таъсир этувчи навбатдаги хатар сохта маълумот ва дезинформация ҳисобланиб мамлакатда қутбланиш жараёнларини кучайтирувчи омил ҳисобланади.

Жамиятдаги қутбланиш жаҳон иқтисодиётида ички беқарорлик ва демократик тизимларга босимни кучайишига олиб келади. Жаҳон иқтисодиёти бир қутбли тизимдан мултицивилизацион тизимга қайтиб келмоқда. Мултицивилизацион тизимда кўпсонли мамлакатлар, қоида ва ташкилотлар бир вақтни ўзида ҳаракат қилади ва ҳеч бир мамлакат ҳамма учун қоида ўрната олмайди. Жаҳонда кўптомонламалик, жамоа неъматлари, демократияни олға суришига асосланган либерал тартиб-қоиданинг амал қилиши якунланди. Либерал тартиб тўрт устунга: эркин савдо, кўптомонлама институтлар, демократия ва иттифоққа асосланар эди. Унинг ўрнида кўп қутблик тизим ҳозиргача шаклланган йўқ.

Яна бир муҳим хатар ривожланишига таъсир этувчи узоқ муддатли даврда (10 йил ичида) хатарлар таркибида етакчи ўринни экологик муаммолар эгалламоқда. Экологик муаммолар таркибига биохилма-хилликнинг йўқолиши, экотизимларнинг инқирози ва ер тизимларидаги кескин ўзгаришлар киради.

Сунъий интелектнинг (AI) салбий оқибатлари тез ўсиб бораётган хавфлардан бири ҳисобланади.

Яна бир муҳим жаҳон иқтисодиёти ривожланишига таъсир этувчи хатарлардан бири тенгсизликни бошқа хатарлар билан боғлиқлиги кучайиб бормоқда.

Прогнозларга нисбатан иқтисодий вазиятни ёмонлаштирувчи рисклар кучайиб бормоқда. Уруш ҳаракатларини чўзилиши ёки уруш кўламини кенгайиши, геосиёсий фрагментлашувни кучайиши сунъий интеллект билан боғлиқ кутилаётган меҳнат унумдорлиги ўсишини қайта баҳолаш ёки халқаро савдодаги кескинликни янгиланиши иқтисодий ўсишни кескин сусайтириш ва молия бозорини беқарорлигини кучайтириши мумкин. Жаҳон иқтисодиётида сунъий интеллект асосида меҳнат унумдорлигини жадал суръатларда ўсиши ёки халқаро савдодаги кескинлик барқарор суръатларда пасайса иқтисодий фаоллик ортиши мумкин.

Жаҳон иқтисодиёти олдида яна бир мураккаб масала турибди. Жаҳон иқтисодиёти кўп қутбли бўлган ҳолда ўта фрагментар бўлиши шарт эмас. Жаҳонда глобал ҳамкорлик мустаҳкамланса, Яқин Шарқда уруш ҳаракатлари тўхтатилиб, Хормуз кўрфази очилса кутилаётган зарар чекланиши мумкин. Хормуз кўрфазини ёпилиши ва минтақадаги углеводородлар етказиб беришда муҳим аҳамиятга эга бўлган ҳаётий муҳим объектларга катта зарар келтирилса, уруш ҳаракатлари давом этса, йирик энергетик инқирозни

вужудга келиши эҳтимоли ортади.

Умумий зарар ҳажми урушни давом этиш муддати ва миқёсига, ҳамда уруш ҳаракатлари тўхтагандан сўнг энергоресурсларни қазиб олиш ва етказиб беришни тикланишига боғлиқ.

Жаҳон иқтисодиётига энергетик инқирознинг таъсир кўрсатишида уч омиллар муҳим ўрин эгаллайди:

-биринчидан, хом-ашё товарлари нархи ўсиши салбий таклиф фалажлик ҳолатини классик намунаси бўлиб, энергия сиғимкорлиги юқори товар ва хизматлар харажатларининг ортиши, етказиб бериш занжирини беқарорлашуви, умумий инфляцияни қисқаришига олиб келади;

-иккинчидан, агар компания ва ишловчилар олинган зарарни қоплашга ҳаракат қилиб, нарх ва иш ҳақини ўсиш спиралини вужудга келиш хатари пайдо бўлса оқибат ёмон бўлиши мумкин;

-учинчидан, макроиқтисодий рисклар кучайиши ва пул-кредит сиёсатини қаттиқлашуви, молия бозорида кескин қайта баҳолаш заруриятини вужудга келиши, активлар қийматини кескин пасайиши, риск учун мукофотни ортиши, капитални “қочишини тезлашув”и ва долларни мустаҳкамлашуви ялпи талабни молиявий шарт-шароитларини қаттиқлашуви ва қисқаришига олиб келади.

Халқаро валюта жамғармасини муқобил прогнозларига кўра, агар уруш узоқ давом этмаса ва углеводордлар нархи 2026 йилда 19% га ўсса, жаҳон иқтисодиётини жорий йилдаги ўсиш суръати 3.1% ни, умумий инфляция суръати 4.4% ни ташкил этади ҳамда жаҳон иқтисодиётида сўнги йилларда кузатилаётган инфляцияни пасайиш тенденциясидан кескин қочиш ҳолати кузатилади.

Хормуз кўрфази узоқ муддатли даврга ёпилса, бурғулаш ва нефтни қайта ишлаш иншоатлари жиддий зарар кўрса, ушбу ҳолат жаҳон иқтисодиётини кескин ва узоқ муддатли даврда беқарорлашувига олиб келади. Ушбу сценарияга мувофиқ жорий йилда энергия элтувчилар нархини кескин ўсиши, инфляцион кутилмаларни юқори бўлиши, молиявий шарт-шароитларни қаттиқлашуви 2026 йилда иқтисодий ўсиш суръатларини 2.5% гача пасайиши ва инфляцияни 5.4%га ортишига олиб келиши мумкин.

Агар энг пессимистик сценария амалга ошадиган бўлса, у ҳолда кейинги йилда энергия элтувчиларни етказиб беришда узилишлар сақланиб қолса, инфляцион кутилмаларни қайд этиш жиддий тарзда секинлашади, молиявий шарт-шароитлар кескин қаттиқлашади, Жаҳон иқтисодиётини кейинги йилдаги ўсиш суръати 2%гача қисқаради, инфляция суръати 6%дан ортиқ бўлади[6].

Яқин Шарқдаги урушнинг оқибатлари мамлакатлар учун турлича бўлади. Аввалги хом-ашё инқирозлари каби биринчи навбатда импортёр мамлакатлар юқори рискларга дуч келади. Жаҳонда ривожланган мамлакатларда 2026 йил январида 2 миллиард баррелдан ортиқ стратегик заҳира бўлган, уни 400 млн. баррели жаҳонда нефт баҳосини барқарор даражада ушлаб туриш учун инқирозни дастлабки ойида ишлатиб юборилди. Стратегик захиралари чекланган ёки йўқ паст даромадли ва ривожланаётган мамлакатлар энергетик инқироздан жиддий зарар кўради. Форс кўрфазида жойлашган углеводород экспорт қилувчи мамлакатлар инфратузилмаси вайрон бўлгани, қазиб чиқаришдаги узилишлар, экспорт чекловлари, туризмни ва иқтисодий фаолликни қисқариши билан боғлиқ иқтисодий оқибатларга дуч келади.

[6] Гуринша П.О. Война омрачает перспективы развития мировой экономики и меняет приоритетные задачи экономической политики. https://www.imf.org/ru/blogs/articles/2026/04/14/war-darkens-global-economic-outlook-and-reshapes-policy-priorities

DAVLAT FISKAL (BYUDJET-SOLIQ) SIYOSATINING NAZARIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Asatullayev Xurshid Sunatullayevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor

Annotatsiya: Dunyo iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar mamlakatlar iqtisodiyotining transformatsiyalashuvi, jahon kapital bozoridagi vaziyat, kutilmagan global inqirozli holatlar davlat tomonidan tartibga soluvchi davlat iqtisodiy siyosatlaridan bo‘lgan davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining nazariy asoslarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, hozirgi davrda iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchi sifatida qator ilmiy nashrlarda zikr etilayotgan byudjet-soliq siyosatining kutilmagan tashqi zarbalarni yumshatib turuvchi dastak va vositalarini ilmiy mushohada qilish hamda uni amaliyotga qo‘llash bo‘yicha xulosalar berish dolzarbdir. Maqolada davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining iqtisodiy fan tarixidagi maktab ta’limotlari va zamonaviy qarashlar evolyusiyasi ham keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: Davlat fiskal siyosati, byudjet-soliq siyosati, merkantizm, klassik iqtisodiy maktab, marjinalizm, keynschilik, monetarizm, taklif nazariyasi, zamonaviy iqtisodiy maktab, davlat byudjeti xarajatlari va daromadlari, byudjet taqchilligi, soliqlar, soliq stavkasi, soliq yuki.

Abstract: Changes in the world economy, the transformation of the economies of countries, the situation in the world capital market, and unexpected global crises require research to study the theoretical foundations of state fiscal (budgetary-tax) policy, which is one of the state economic policies regulated by the state. In particular, it is urgent to scientifically observe the levers and tools of budgetary and tax policy, which are mentioned in a number of scientific publications as the driving force of the economy in the present era, and to draw conclusions on its practical application. The article also presents the evolution of school doctrines and modern views in the history of economic science on state fiscal (budgetary-tax) policy.

Keywords: Goverment fiscal policy, budget-tax policy, mercantilism, classical economic school, marginalism, Keynesianism, monetarism, supply theory, modern economic school, state budget expenditures and revenues, budget deficit, taxes, tax rate, tax burden.

KIRISH

Jahon uzra geosiyosiy ziddiyatlar va savdo-sotiqdagi murakkabliklar, tabiiy iqlim sharoitlarining o‘zgarishlari, davlatlar o‘rtasidagi qarzdorlik muammosiga qaramay 2025-2026 yillarda dunyo iqtisodiyotining barqaror o‘sishi prognoz qilinmoqda. Lekin, 2025 va 2026 yillarda global iqtisodiy o‘sish 3,3 foizni tashkil etishi 2000-2019 yillardagi tarixiy o‘sish sur’ati o‘rtacha 3,7 foizdan past ekanligi ko‘rsatilmoqda[1]. Aynan, davlatlar moliyaviy barqarorlik va byudjet mustahkamligiga erishish uchun pul-kredit siyosatini yumshatishlari[2], fiskal siyosat qanday bo‘lmasin davlat qarzini barqaror traektoriyaga qo‘yish uchun konsolidatsiyani ta’minlashi va vaziyatga yanada moslashuvchan javob berish uchun zarur bo‘lgan maydonni tiklashi kerak. Shu sababdan jahonning aksariyat mamlakatlarida iqtisodiy tanglik holatlarini yumshatish va moliyaviy barqarorlikni

taminlashda davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatini takomillashtirish hamda iqtisodiy faollikka qaratilgan ilmiy nazariya asoslarini chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining iqtisodiy faollikka qaratilgan dastak va vositalaridan oqilona foydalanish orqali «...barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash», bu sohada «2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va «daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar» qatoriga kirish» masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ammo, respublikada olib borilayotgan islohotlar orqali so‘nggi besh yilda qator ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lishiga qaramasdan, davlat qarzi va davlat byudjet taqchilligining tobora oshib borishi hamda iqtisodiyot tarmoqlaridagi nomutanosibliklarning mavjudligi sababli barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlashda davlatning fiskal (byudjet-soliq) siyosatini takomillashtirish masalasi eng dolzarb muammolardan biri sifatida qolmoqda. Shu sababdan bugungi kunda “soliq yukini izchil ravishda pasaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish, shuningdek soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishning eng muhim shartlaridir” [3] kabi vazifalarining belgilab qo‘yilishi davlatning fiskal (byudjet-soliq) siyosatidan samarali foydalanish masalasini hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biriga aylantirdi.

Ma’lumki, jahon iqtisodiyotidagi vaziyat mamlakatlar o‘rtasidagi qarzdorlik va yaqin besh yil ichidagi global pandemiya qolgan asoratlar davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatiga bo‘lgan qarashlar evolyusiyasini ilmiy tadqiq etish hamda uning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashni taqozo etmoqda.

TAXLIL VA NATIJALAR


Iqtisodiyot ilmi taraqqiyoti davrida davlatning byudjet-soliq siyosatining mohiyatiga bo‘lgan yondashuvlar bir necha bor ko‘rib chiqilgan va turlicha talqin qilingan. Barchamizga ma’lumki, iqtisodiy adabiyotlarimizda soliqlar, soliq siyosati, soliq stavkalari, davlat daromadlari, davlat xarajatlari kabi tushunchalar juda tez-tez ishlatiladi. Iqtisodiy tafakkurning rivojlanish bosqichlarini davlatning byudjet-soliq siyosatining mohiyatini belgilashda moliyaviy siyosatning shakllanishi va rivojlanishiga ilmiy maktab yoki yo‘nalishlarning qo‘shgan hissasini o‘rganishga asoslanadi. Mahalliy va xorij tadqiqotlarining keng doirasi fiskal siyosatning mohiyatini o‘zgartirishning turli yondashuv jihatlariga bag‘ishlangan. Dastlabki, iqtisodiy ta’limotlardan merkantilizm iqtisodiy tafakkuri shakllanishining fundamental bosqichini moliya siyosatining mohiyatiga alohida urg‘u beradi. . O‘z navbatida, soliq tizimining faoliyati bilan bog‘liq jamiyat farovonligiga yetkazilishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni hisobga olish imkonini beruvchi sog‘lom fiskal siyosatni shakllantirishda soliq yukini va soliq miqdorini o‘zgartirish yo‘nalishlarini o‘rganish lozimligi haqidagi yondashuvlarini ilgari surishadi.



1- rasm. Iqtisodiy maktab ta’limotlarida davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining rivojlanish bosqichlari

Ular tomonidan asosiy e’tibor qaratilgan jihati bu soliqlarni manipulyatsiya qilish va shu orqali davlatga tushadigan mablag‘larni samarali sarflaydigan fiskal siyosatni va uning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Yana bir iqtisodchi olim L.N.Likova fiskal siyosatni o‘rganishda soliq tizimining bir qator muammolariga, ya’ni soliq yukining hajmiga, byudjet taqchilligi va profitsiti sharoitida soliq siyosatining o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratadi. Muallif o‘z asarlarida davlat byudjeti daromadlarining eksportga bog‘liqligini aniqlab, ayrim soliqlarni undirish xususiyatlarini tavsiflagan holda soliq tizimini takomillashtirish kerakligi va yo‘llarini taklif qiladi.

O.V.Lugovoy, P.A.Trunin, E.V.Shkrebela fiskal siyosat iqtisodiyotdagi har bir sub’ektning soliq potensialini baholash zarurligini ta’kidlab o‘tadi hamda shundan kelib chiqib har bir sub’ektning soliq to‘lovchilari bir xil soliq stavkalarini qo‘llash imkoniyatini ko‘rsatishi aniqlaydi. M.V.Kazakova byudjetga tushadigan soliq tushumlarini tarkibini bozor bilan bog‘liq bo‘lgan qismlarga bo‘lish orqali soliq yukini hamda iqtisodiyotdagi yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlarini tahlil qilish nuqtai-nazaridan o‘rganadi. Tarkibiy qismlarga o‘rta muddatli tashqi iqtisodiy vaziyatda soliq tushumlari, konyuktura tarkibiy qismlari esa energiya resurslariga jahon narxlarining qulay dinamikasi tufayli kelib chiqadigan soliq tushumlaridir. D.G.Chernik fiskal siyosat muammolarini o‘rganar ekan, iqtisodiyotga davlat ta’sirining kuchli vositasi bo‘lgan soliq imtiyozlarini joriy etish zarurligi haqidagi fikrga amal qiladi. Xorijiy va mahalliy iqtisodchilarning “fiskal siyosati” tushunchasini ta’riflashga yondashuvlari 1-jadvalda keltirilgan.



Moliyaviy siyosat konsepsiyasining mohiyatiga oid xorijiy va mahalliy mualliflar tomonidan taqdim etilgan qarashlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, uni ta’riflashda yagona yondashilgan yondashuv mavjud emas. Ba’zi ilmiy maktablar fiskal siyosatni davlatning iqtisodiyotga aralashuv shakli sifatida, boshqalari esa davlat byudjetini to‘ldirish manbai, uchinchisi iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish mexanizmi sifatida talqin qiladilar.

Keyns iqtisod maktabi vakillari fiskal siyosatni yalpi talabga ham, yalpi taklifga ham ta’sir qiluvchi, shuningdek, iqtisodiy sikldagi tebranishlarni yumshatishga qaratilgan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida qaraydilar. O‘z navbatida, milliy daromadning bir qismini o‘zlashtirish va

begonalashtirishga oid milliy iqtisodiyot sub’ektlari o‘rtasida fiskal siyosatini amalga oshirish jarayonida rivojlanadigan bu iqtisodiy munosabatlar ko‘p jihatdan fiskal siyosatining samaradorligini belgilaydi.

Fiskal siyosat deganda milliy iqtisodiyot sub’ektlari o‘rtasida iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash maqsadida ayrim sub’ektlardan olingan daromadlarni boshqalar foydasiga ajaratish va davlat vakili bo‘lgan sub’ekt tomonidan ajratilgan daromadlarni o‘zlashtirishga oid muntazamlik va davriylik bilan tavsiflangan iqtisodiy munosabatlar tushuniladi. Bu ta’rif fiskal siyosat haqida nafaqat makroiqtisodiy vositalar majmui, balki uy xo‘jaliklari, firmalar, davlat organlari va boshqa iqtisodiy sub’ektlar o‘rtasidagi o‘ziga xos manfaatlarga ega bo‘lgan munosabatlarning murakkab tizimi sifatida gapirishga imkon beradi. Ushbu sub’ektlarning byudjet-soliq siyosatini amalga oshirish jarayonida ishtirok etishi ular o‘rtasida daromadlarni begonalashtirish va o‘zlashtirish bo‘yicha qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Aynan mana shu qarama-qarshiliklar fiskal siyosat samaradorligini pasaytiradi va davlatning fiskal siyosatni amalga oshirish jarayonida asosiy sa’y-harakatlari aynan ana shu qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, 2020 yillardagi global pandemiya moliyaviy siyosat bo‘yicha yondashuvlarni yanada takomillashtirish kerakligidan dalolat berdi hamda mazkur mavzu doirasidagi ilmiy va xorijiy adabiyotlarni ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Mazkur adabiyotlarda Covid-19 pandemiyasining rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar davlat moliyasiga ta’siri yo‘nalishlarini, dunyoning yetakchi davlatlarining zamonaviy fiskal siyosatida ustuvorliklarini o‘zgartirish, global iqtisodiy inqiroz ta’siri ostida soliqqa tortishdagi transformasion o‘zgarishlarni hamda qator tajribalar asosida hozirgi vaqtda fiskal siyosatni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatish bilan cheklangan. Muammo shundaki, oldingi nazariya va amaliyot 2020 yillarning boshidagi nazariya va amaliyot o‘rtasida noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Iqtisodiyot tarixiy sahnasidagi 1930 yillardagi “Buyuk depressiya”, 2008-2009 yillardagi “Buyuk retsessiya” paytida davlat tomonidan turli moliyaviy chora-tadbirlar amalda qo‘llanilgan va bu asosan fond bozori bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. 2020 yilda boshlangan Covid-19 global pandemiya tufayli dunyo bo‘yicha iqtisodiy faollikni muddatsiz to‘xtatishga qaratilgan harakatlar natijasida amalda qo‘llanilgan “Buyuk karantin” qator davlatlar iqtisodiyotining inqiroz yoqasiga tushib qolishiga sabab bo‘ldi.

2021 boshlariga kelib, Covid-19 pandemiyasining og‘ir moliyaviy oqibatlari va ulardan aziyat chekkan soha va tarmoqlar iqtisodiyoti bilan bog‘liq mavzular tadqiqotchilar orasida juda mashhur bo‘ldi. Jumladan, Rossiyada pandemiya davrida davlat moliya tizimining iqtisodiyotni tartibga solishdagi fiskal va monetar yondashuvlari G‘arb iqtisodchilar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarini iqtisodchi olim Ye.Lusskaya tomonidan tadqiq etildi. Shuningdek Ye.Lusskaya tomonidan fiskal va monetar chora tadbirlari orqali global pandemiyasi inqirozidan chiqishning o‘ziga xos strategiyasini o‘zining boshqa tadqiqot asarida ko‘rsatib o‘tadi[4].

Fiskal siyosatning iqtisodiyotga ta’sirini ayniqsa global pandemiyadan so‘ng iqtisodiyotni tiklashdagi rolini L.Petrova o‘z tadqiqotida batafsilroq tushuntirib beradi. Shuningdek, dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida global pandemiyadan

so‘ng fiskal va monetar chora tadbirlarning iqtisodiyotga ta’siri ko‘plab bir gurux iqtisodchi olimlar asarlarida va tadqiqotlarida o‘rganildi.

Zamonaviy sharoitda monetar va fiskal siyosat o‘rtasidagi bog‘liqlik jihatlarining zamonaviy ko‘rinishlari iqtisodchi olimlar P.Jia va G.R.Steelelar tomonidan ilmiy maqollarida o‘rganilgan. Shuningdek, iqtisodchi olimlar R.Van Dender, P.O‘Reilly va S.Perretlar jahon miqyosida mamlakatlarda Covid-19 global pandemiya davridagi og‘ir oqibatlarga qarshi qo‘llanilgan soliq va fiskal siyosat chora tadbirlari taxlili amalga oshirildi.Taxlil qilingan tadqiqot asarlaridan kelib chiqib shuni ta’kidlash lozimki, global pandemiyadan so‘ng mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi fiskal chora-tadbirlaridan iqtisodiyotga ta’sir etishning eng maqbul vositasi soliqlar ekanligini aniqlandi. Shu bilan birga pandemiyadan so‘nggi davrda davlat fiskal siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va maqsadlarini belgilashda yana ham uning qo‘shimcha tarzda o‘rganishni taqozo etadi.

Fiskal siyosatni yangi yo‘nalishda tadqiq etishda albatta uni tashkil etuvchi vosita va dastaklarini yaxlit holda davlat byudjeti daromadlarini to‘ldiruvchi jihatlariga asosiy e’tiborni qaratishni taqozo etadi. Ma’lumki, dunyo bo‘yicha ko‘pchilik mamlakatlarida iqtisodiy inqirozdan so‘ng davlat qarzlarini bartaraf etishda va byudjet barqarorligini ta’minlashda qo‘shimcha ravishda to‘liq hajmdagi davlat mulklarini xususiylashtirish ishlarini olib borish hamda soliq siyosatini takomillashtirish orqali mahalliy qarzlarni qattiq nazorat qilishni taqozo etadi. Shu bilan birga koronavirus inqirozining dastlabki boshlanish davrida iqtisodiyotni jonlantirish maqsadida qo‘llanilgan emissiya jarayoni Orema-Kopernik-Greshemning inflyatsion soliq tamoyilining asosini tashkil etib, zamonaviy uzoq muddatli inqirozni va uning og‘ir oqibatlarini yumshatish maqsadida amalga oshirildi. Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, inqiroz davrida davlat fiskal siyosatini takomillashtirish yuzasidan fikrimizcha, yuqorida xorijiy tajribalar taxlili natijalariga suyanib ish tutishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. http://www.forecast.ru/_ARCHIVE/Presentations/DBelousov/WESP2025.pdf Мировое экономическое положе-ние и перспективы 2025 16 января 2025 г.
2. Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш. Мирзиёевнинг “Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2025 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан ўзбекистон республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида”ги 2024 йил 24 декбардаги ЎРҚ-1014-сон Ўзбекистон Республикасининг қонуни. https://lex.uz/docs/7279923
3. Молия сиёсати, солиқлар ва солиққа тортиш. Таҳрир кенгаши Беганов В. ва бошқ. Т.Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998; Шодмонов ва бошқ. Иқтисодиёт назарияси. Маърузалар матни. Т. ДИТАФ 2001; Носова С.С. Экономическая теория: кртаткий курс. Учеб. пособия.-М.:Гуманит. Изд. Центр Владос, 2001.
4. Asatullaev Kh.S. ROLE OF STATE FISCAL (BUDGET-TAX) POLICY IN INCREASE OF POPULATION EMPLOYMENT. Annali d’Italia №51/2024. ISSN 3572-2436, 11.

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH

O.R.Meyliev, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,i.f.d
Sh.Sh.Xusanov, “O‘zbekgidroenergo” AJ Xorijiy investitsiyalar departamenti yetakchi mutaxassisi G.B University of Sunderland magistri

Global iqtisodiy tizimning transformatsiyasi sharoitida energiya ta’minoti va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash masalasi nazariy va amaliy jihatdan dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortib borishi, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi hamda tabiiy resurslardan intensiv foydalanish mavjud energiya infratuzilmasiga yuqori bosimni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit degradatsiyasi xavflarining kuchayishi energiya ishlab chiqarishning ekologik jihatdan maqbul modellarga o‘tishini taqozo etmoqda. Mazkur sharoitda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, xususan gidroenergetika, barqaror rivojlanish konsepsiyasining muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy adabiyotlarda gidroenergetika energiya tizimining barqarorligini ta’minlovchi, past uglerodli iqtisodiyotga o‘tishda strategik ahamiyat kasb etuvchi soha sifatida e’tirof etiladi. Uning asosiy afzalliklari sifatida energiya ishlab chiqarishning nisbatan barqarorligi, ekspluatatsiya xarajatlarining pastligi hamda uzoq muddatli foydalanish imkoniyati ko‘rsatiladi. Biroq gidroenergetika loyihalarining kapital sig‘imdorligi yuqori bo‘lib, ularni amalga oshirish katta hajmdagi boshlang‘ich investitsiyalarni talab etadi. Shu bilan birga, investitsiya qaytish davrining uzoqligi, qurilish va ekspluatatsiya jarayonlarida yuzaga keladigan texnologik, ekologik va institutsional risklar ushbu loyihalarni moliyalashtirishni murakkablashtiradi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish nazariyasiga ko‘ra, kapital qo‘yilmalar samaradorligi moliyaviy resurslar manbalarini optimal shakllantirish va ulardan foydalanish mexanizmlarining to‘g‘ri tanlanishiga bevosita bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, gidroenergetika loyihalarini moliyalashtirishda an’anaviy (o‘z mablag‘lari, bank kreditlari) va noan’anaviy (loyihaviy moliyalashtirish, “yashil” obligatsiyalar, infratuzilma fondlari) manbalarni uyg‘unlashtirish zarurati yuzaga keladi. Ayniqsa, loyihaviy moliyalashtirish mexanizmi ilmiy-amaliy jihatdan samarali yondashuv sifatida qaraladi, chunki bunda investitsiya qarorlarini qabul qilishda asosiy e’tibor loyiha tomonidan generatsiya qilinadigan pul oqimlariga qaratiladi va risklar manfaatdor tomonlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Zamonaviy ilmiy konsepsiyalarda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda institutsional innovatsiya sifatida baholanadi. DXSh modeli davlatning tartibga soluvchi va qo‘llab-quvvatlovchi funksiyalarini xususiy sektorning moliyaviy va boshqaruv samaradorligi bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Natijada, investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligi oshadi, risklar diversifikatsiya qilinadi hamda resurslardan foydalanish samaradorligi ta’minlanadi. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari ishtiroki kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi, loyiha boshqaruvi sifatini oshiradi va global tajribani joriy etishga xizmat qiladi.

“Yashil” moliya instrumentlari, jumladan yashil obligatsiyalar, iqlim fondlari va barqaror investitsiya mexanizmlari ham gidroenergetika loyihalarini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu instrumentlar ekologik jihatdan toza loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, investorlar uchun qo‘shimcha rag‘batlar yaratadi va kapital qiymatini pasaytirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yashil moliya instrumentlarini joriy etish investitsiya oqimlarini diversifikatsiya qilish, ekologik risklarni kamaytirish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston misolida gidroenergetika sektorini rivojlantirish davlat energetika siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “O‘zbekgidroenergo” AJ tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari mavjud gidroenergetika quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi gidroelektr stansiyalarini qurish hamda energiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu loyihalarni moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari kreditlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va DXSh mexanizmlarining uyg‘unlashuvi kuzatiladi. Mazkur aralash moliyalashtirish modeli moliyaviy risklarni kamaytirish, kapitalning optimal tuzilmasini shakllantirish hamda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

1-jadval

“O‘zbekgidroenergo” AJ tomonidan amalga oshiriladigan gidroelektr stansiyalarini qurish bo‘yicha investitsiya loyihalari ro‘yxati

T/r	Loyihalar nomi	Loyiha quvvati, MVt	shu jumladan qo‘shimcha quvvat, MVt	Yillik o‘rtacha ishlab chiqarish, mln kVt-soat	shu jumladan qo‘shimcha ishlab chiqarish, mln kVt-soat	Amalga oshirish muddati	Loyihaning taxminiy qiymati, mln doll.
JAMI		**1 550,3**	**1 018,3**	**5 816,7**	**3 666,9**		**2 865,9**
I.	Amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari	635,9	635,9	2 278,3	2 278,3	2018-2028	1 485,7
II.	Amalga oshirilishi rejalashtirilgan istiqbolli investitsiya loyihalari	867,8	335,8	3 377,8	1 228,0	2023-2028	981,9
III.	Amalga oshirilayotgan mikro va kichik GES qurilishi loyihalari	26,6	26,6	110,6	110,6	2023-2024	50,3
IV.	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy	20,0	20,0	50,0	50,0	2023-2026	28,0

	etish investitsiya loyihalari						
V.	Suv omborlari bo‘yicha investitsiya loyihalari					2021-2028	300,0
VI.	Mahalliylashtirish bo‘yicha investitsiya loyihalari					2023-2025	20,0

Jadval ma’lumotlarining tizimli tahlili shuni ko‘rsatadiki, “O‘zbekgidroenergo” AJ tomonidan shakllantirilgan investitsiya portfeli mamlakat gidroenergetika sektorini kompleks modernizatsiya qilish va diversifikatsiya etishga qaratilgan integral rivojlanish modelini ifodalaydi. Xususan, loyihalarning umumiy o‘rnatilgan quvvati 1 550,3 MVtni, yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi esa 5 816,7 mln. kVt-soatni tashkil etishi ushbu dastur energetika balansida gidroenergetikaning ulushini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishini anglatadi. Umumiy investitsiya qiymatining 2 865,9 mln. AQSh dollariga tengligi esa kapital sig‘imdor infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan strategik yondashuv mavjudligini tasdiqlaydi.

Strukturaviy tahlil natijalari investitsiya portfelida yirik va istiqbolli loyihalarning ustuvor o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv uzoq muddatli istiqbolda energiya ishlab chiqarish hajmini barqaror oshirish, tizimning generatsiya quvvatlarini kengaytirish hamda energetik xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kichik va mikro gidroelektr stansiyalar (GES)ni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar hududiy energiya ta’minotini optimallashtirish, markazlashmagan energiya tizimlarini shakllantirish va energiya yo‘qotishlarini kamaytirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ikki yo‘nalishning o‘zaro uyg‘unlashuvi energetika tizimining moslashuvchanligi va barqarorligini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Moliyalashtirish mexanizmlarining institutsional tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu loyihalarda aralash (gibrid) moliyalashtirish modeli ustunlik qilmoqda. Ya’ni, davlat byudjeti mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari kreditlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hamda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining kombinatsiyasi qo‘llanilmoqda. Bunday yondashuv moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish, kapital qiymatini optimallashtirish va investitsiya risklarini manfaatdor tomonlar o‘rtasida taqsimlash imkonini beradi. Shu jihatdan, loyihaviy moliyalashtirish elementlarining joriy etilishi pul oqimlariga asoslangan baholash mexanizmlarini kuchaytirib, investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy-amaliy nuqtai nazardan, mazkur investitsiya dasturining samaradorligi nafaqat moliyalashtirish manbalari tarkibi, balki risklarni boshqarish tizimining takomillashganligi bilan ham belgilanadi. Xususan, qurilish, texnologik, ekologik va moliyaviy risklarni kompleks baholash va ularni minimallashtirish mexanizmlarini joriy etish gidroenergetika loyihalarining barqarorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, “yashil” moliya instrumentlarini kengaytirish, jumladan, yashil obligatsiyalar va

iqlim fondlaridan foydalanish kapital jalb qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirishi mumkin.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, gidroenergetika sohasida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Moliyalashtirish manbalari va instrumentlarining optimal kombinatsiyasini shakllantirish, risklarni samarali boshqarish, shuningdek institutsional muhitni rivojlantirish orqali nafaqat energetika tizimining ishonchliligi va samaradorligini oshirish, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlash imkoniyati kengayadi.

TOMORQA XO‘JALIKLARI FAOLLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOIY–IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Turobov Sherzod Alisherovich
Qarshi davlat texnika universiteti
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)
e-mail: sh.turobov@gmail.com

Tomorqa xo‘jaligi to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqotlar qadimdan shakllanib kelgan bo‘lib, tadqiqotchilar tomonidan tomorqa xo‘jaligining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni, uning moliyaviy holati, rivojlanish darajasi, aholi hayot sifati bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda qishloq aholisi tomonidan tomorqadan foydalanish samaradorligi masalalari keng ko‘lamda o‘rganilgan. Tarixiy jihatdan qaraganda, ko‘plab an’anaviy jamiyatlarda tomorqa xo‘jaliklari aholining asosiy oziq-ovqat ehtiyojlarini qondirishda muhim manba sifatida xizmat qilgan.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda esa tomorqa xo‘jaliklari barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida tahlil qilinib, ular organik qishloq xo‘jaligi, biodinamik dehqonchilik, bog‘dorchilik va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash kabi ustuvor yo‘nalishlar bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Ushbu tadqiqotlar doirasida yer resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish, o‘g‘itlardan oqilona foydalanish, pestitsidlarni qo‘llash me’yorlari, ekin turlarining biologik va agrotexnik xususiyatlari, shuningdek chorvachilik amaliyoti bilan bog‘liq masalalar kompleks tarzda ko‘rib chiqilmoqda.

Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tomorqa xo‘jaliklarining o‘rni, ularning iqtisodiy mohiyati, funksional xususiyatlari, faoliyat samaradorligi hamda mehnat resurslaridan foydalanish darajasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda turli xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, ushbu masala yuzasidan olimlar o‘rtasida yagona konseptual qarashlar shakllanmagan. Bu esa mazkur yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Hozirgi bosqichda tomorqa xo‘jaliklari aholining iqtisodiy faoliyatining eng keng tarqalgan shakllaridan biri sifatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tizimining muhim va ajralmas bo‘g‘iniga aylangan. Ular nafaqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi, balki aholining daromad manbalarini kengaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda qishloq hududlarida bandlikni oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, ko‘plab mamlakatlarda tomorqa xo‘jaliklarining samarali faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadida maxsus iqtisodiy, institutsional va tashkiliy mexanizmlar

ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan.

Tomorqa odatda kishilarning o‘z shaxsiy iste’moli uchun oziq–ovqat mahsulotlarini yetishtirish hamda madaniy hordiq chiqarishlari uchun gullar ekish va dekorativ landshaftlarni hosil qilish uchun ajratilgan yer uchastkasidir. Quyida biz tomonimizdan tomorqa xo‘jaliklarining asosiy xususiyatlari ishlab chiqildi.

1-jadval

Tomorqa xo‘jaliklarining asosiy xususiyatlari[7]

Xususiyati	Maqsadi
O‘z-o‘zini ta’minlash	Xo‘jalik a’zolarini oziq-ovqat mahsulotlari, dorivor o‘simliklar, gullar va boshqalar bilan ta’minlash
Tajriba orttirish	Tomorqalarda foydalanuvchilar qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha tajriba orttirishlari, o‘simliklarni yetishtirish va hayvonlarga qarash ko‘nikmalarini o‘rganish
Oilaviy faoliyat	Ochiq havoda vaqt o‘tkazish va farzandlarga dehqonchilik asoslarini o‘rgatish
Xarajatlarni tejash	Tomorqada yetishtirilgan mahsulotlar hisobiga xo‘jalik byudjeti tejaladi
Atrof-muhit barqarorligini ta’minlash	Resurslardan oqilona foydalanishga va atrof-muhit barqarorligini ta’minlashga ko‘maklashiladi
Ko‘nikmalarni rivojlantirish	Bog‘dorchilik, chorvachilik, yerga ishlov berish va qishloq xo‘jaligining boshqa sohalaridagi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi
An’analarni saqlash	Tomorqalarda qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikka oid an’analar va madaniyatlarni saqlash va avloddan-avlodga o‘tkazish
Ijtimoiy faoliyat	Tomorqalarda ijtimoiy tadbirlar o‘tkazilishi hisobiga jamiyat qurilishi rivojlanadi
Bio xillma-xillikni ta’minlash	Tabiiy hududlarni yaratish, bog‘larda gullar va manzarali ekinlarni ekish biologik xilma-xillikni targ‘ib qiladi
Salomatlikni targ‘ib qilish	Tomorqada mehnat qilish va ochiq havoda faoliyat olib borish salomatlikni oshirishga ko‘maklashadi

Yuqorida keltirilganlardan tashqari tomorqa xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirish oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, bolalarni tarbiyalash va mahalliy oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash imkoniyatlarini yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Tomorqa xo‘jaliklari faoliyatidan keladigan daromadning oilalar farovonligiga ta’sirini baholash, qishloq va noqishloq xo‘jaliklari faoliyati tahlili va qishloq aholisi tomorqa xo‘jaliklari faoliyatidan keladigan daromadlarni oshirish imkoniyatlari[8] haqida tadqiqotchi Sh.A.Muratov o‘z ilmiy tadqiqot natijalarida asoslagan. Lekin tadqiqotchi ko‘proq qishloqlarda noqishloq xo‘jaligi faoliyatidan keladigan daromaddalarni oshirish hamda ularni matematik modellar asosida isbotlashga uringan. Hozirgi kun talablari bo‘yicha tomorqa xo‘jaliklari amaliy faoliyatini rivojlantirish borasida tadqiqotlar olib bormagan. U.A.Kayumov fikricha, tomorqa xo‘jaligining 4 xil shakli uchraydi. Birinchisi – ko‘p tarmoqli, yetishtirilgan

[7] Muallif ishlanmasi

[8] SH.A.Muratov “Tomorqa xo‘jaliklari faoliyatidan keladigan daromadning oilalar farovonligiga ta’sirini baholash”. nomli iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya ishi.

mahsulot ko‘pincha oila a’zolarining bevosita shahsiy iste’moli uchun sarflanayotgan xo‘jalik; ikkinchisi – yetishtirilgan mahsulotning bir qismi oila ehtiyoji uchun, bir qismi esa bozorda yoki tayyorlov tashkilotlariga sotishga mo‘ljallangan, ko‘proq bir xil mahsulot yetishtirishga ixtisoslashgan xo‘jalik; uchinchisi – faqat sotish uchun ko‘p yoki bir xil mahsulot yetishtirishga va to‘rtinchisi – mahsulot yetishtirish maqsadida foydalanilmaydigan, manzarali daraxt va gullar bilan band xo‘jalik[9]. Tomorqa xo‘jaliklari faoliyati bo‘yicha chuqur tadqiqot olib borgan olim V.A.Chayanovning fikricha[10], oilaviy mehnatni tashkil etish, ko‘p funksiyalilik, boshqaruvning muhimligi va o‘z-o‘zini ta’minlash tomorqa xo‘jaliklarining asosiy xususiyalarini hisoblanadi.

Bizningcha, tomorqa xo‘jaligi odatda jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan, o‘z ehtiyojlari uchun yoki qo‘shimcha daromad olish maqsadida dehqonchilik qilinadigan yer uchastkasidir.

Ta’kidlash joizki, tomorqa xo‘jaligi atamasini oilaviy tadbirkorlik yoki oilaviy korxona atamasi bilan adashtirmaslik kerak. 2021-yilning 1-aprelida O‘zbekiston Respublikasida “Tomorqa xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi va uning 3-moddasida tomorqa xo‘jaligiga quyidagicha ta’rif berildi “Tomorqa xo‘jaligi shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog‘liq mehnat faoliyatidir. Tomorqa xo‘jaligi tadbirkorlik faoliyati hisoblanmaydi va tomorqa xo‘jaligini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab etilmaydi. Tomorqa xo‘jaligida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish (qayta ishlash) bo‘yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshiruvchi shaxs aholi bandligi to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda o‘zini-o‘zi band qilgan shaxs maqomini olishi mumkin”[11], – deb ta’rif berilgan.

Tomorqa xo‘jaliklari faolligi va samaradorligini oshirishning ijtimoiy tomonlari, kengayishi – aholining mehnat qilish natijasida sog‘lom turmush tarzining o‘sishiga, dexqonchilik qilish madaniyatidan xabardor bo‘lishga, atrof–muhitni toza va ozoda tutishga, iqtisodiy ne’matlardan oqilona foydalanishga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganishga, o‘sib kelayotgan yosh avlodga ushbu bilimlarni ulashishga, ularning moddiy farovonliklarining oshishiga olib kelmoqda. Demak, tomorqa xo‘jaliklari murakkab iqtisodiy tizim sifatida mamlakatdagi o‘zgarishlarning “ijtimoiy bahosi” mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY MODELLARI

J.Nurillayev, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning asosiy nazariy modellari iqtisodiy tafakkur evolyusiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Innovatsiyalarning iqtisodiy o‘sishdagi rolini tushuntiruvchi neoklassik, endogen,

[9] Kayumov U.A. “Shaxsiy tomorqa xo‘jaligi salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish” nomli iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya ishi. Toshkent. 1994 yil.

[10] Chayanov, A. V. (1989), “Organization of peasant farming”, Ekonomika, Moscow, Russia, pp. 194–442.

[11] O‘zbekiston Respublikasining 01.04.2021-yildagi “Tomorqa xo‘jaligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-681-son Qonuni.

evolyusion va institutsional yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Texnologik taraqqiyotga oid qarashlarning ekzogen omildan investitsiya va ilmiy faoliyatning ichki natijasiga aylanishiga alohida e’tibor qaratilgan. Globallashuv va raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy aloqalarning murakkablashuvini aks ettiruvchi milliy innovatsion tizimlar va ochiq innovatsiyalar konsepsiyalari tahlil qilingan. Barqaror iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan innovatsion siyosatni shakllantirishda kompleks yondashuvning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion rivojlanish, iqtisodiy o‘sish, endogen modellar, inson kapitali, milliy innovatsion tizim, ochiq innovatsiyalar.

Kirish

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy bosqichi ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi, raqamlashtirish va global raqobatning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda innovatsiyalar barqaror iqtisodiy o‘sish va milliy iqtisodiyotlar samaradorligini oshirishning asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsiyalarning shakllanishi va tarqalish mexanizmlarini tushunish texnologik taraqqiyotning tabiati va uning makroiqtisodiy dinamikaga ta’sirini izohlovchi nazariy modellarga murojaat qilishni talab etadi.

Innovatsion rivojlanishning nazariy modellari bilimlar, texnologiyalar va inson kapitalining iqtisodiyotdagi o‘rni haqidagi tasavvurlar o‘zgarishi jarayonida shakllangan. Ularning tahlili innovatsion o‘sishning asosiy omillarini aniqlash va samarali iqtisodiy siyosat yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar bosqichma-bosqich shakllangan bo‘lib, ular iqtisodiy o‘sishda texnologiyalar, bilimlar va inson kapitalining roli haqidagi tasavvurlarning o‘zgarishini aks ettiradi. Iqtisodiy fanlarda innovatsiyalar dastlab asosan tashqi omil sifatida qaralgan bo‘lsa, keyinchalik ular iqtisodiy tizimning ichki rivojlanishi natijasi sifatida talqin etila boshlandi.

Texnologik taraqqiyotni tushuntirishga qaratilgan dastlabki tizimli yondashuvlardan biri R. Solouning neoklassik iqtisodiy o‘sish modeli hisoblanadi. Ushbu modelda iqtisodiy o‘sish kapital jamg‘arilishi, mehnat resurslarining o‘sishi va texnologik taraqqiyot bilan belgilanadi. Biroq texnologik taraqqiyot ekzogen omil, ya’ni iqtisodiy tizimdan tashqarida shakllanuvchi ko‘rsatkich sifatida qaraladi. Bu esa innovatsiyalar manbalari va ularni rag‘batlantirish mexanizmlarini tushuntirishda model imkoniyatlarini cheklaydi.

Innovatsion o‘sish nazariyasining rivojlanishiga endogen o‘sish nazariyasi vakillari katta hissa qo‘shgan. P. Romer bilimlar va ilmiy-tadqiqot faoliyatini iqtisodiy o‘sishning ichki manbalari sifatida baholagan. Uning yondashuvida innovatsiyalar tadqiqotlar, ishlanmalar va bilimlarni to‘plashga qaratilgan maqsadli investitsiyalar natijasida shakllanadi. R. Lukas esa inson kapitali, ta’lim va kasbiy ko‘nikmalarning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratgan. Mazkur tadqiqotlar innovatsiyalarni tashqi omil sifatida emas, balki boshqariladigan iqtisodiy jarayon sifatida talqin qilishga o‘tish imkonini berdi.

Ilmiy adabiyotlarda R. Nelson va S. Uinter tomonidan ishlab chiqilgan evolyusion yondashuv ham alohida o‘rin tutadi. Ushbu yo‘nalishda innovatsion rivojlanish firmalar raqobati, texnologik tanlov, moslashuv va tajriba to‘plashga asoslangan dinamik jarayon sifatida qaraladi. Neoklassik modellardan farqli ravishda, evolyusion nazariya iqtisodiy agentlarning cheklangan ratsionalligi, noaniqlik va iqtisodiyot rivojlanishining institutsional xususiyatlarini hisobga oladi. Tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri K. Frimen, B.-O. Lundvall va R. Nelson ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan milliy innovatsion tizimlar konsepsiyasi hisoblanadi. Mazkur yondashuv innovatsiyalarni alohida korxonalar faoliyati natijasi sifatida emas, balki davlat, biznes, universitetlar, ilmiy tashkilotlar va moliyaviy institutlar o‘rtasidagi hamkorlik natijasi sifatida talqin qiladi. Bu konsepsiya doirasida institutsional muhit, ta’lim sifati, ilmiy-texnik siyosat va bilimlar transferi mexanizmlariga katta ahamiyat beriladi.

Zamonaviy adabiyotlarda G. Chesbro tomonidan ilgari surilgan ochiq innovatsiyalar konsepsiyasi keng tarqalgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, kompaniyalar va davlatlar faqat ichki bilim va resurslarga tayanib samarali rivojlana olmaydi. Innovatsion rivojlanish tashqi bilim manbalaridan foydalanish, xalqaro hamkorlik, texnologiyalar transferi va global innovatsion tarmoqlarga integratsiyalashuvni talab qiladi. Bu konsepsiya ayniqsa iqtisodiyotning raqamlashuvi va globallashuvi sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili innovatsion rivojlanishning nazariy modellari texnologik taraqqiyotni ekzogen tushunishdan kompleks tizimli yondashuvgacha bo‘lgan rivojlanish yo‘lini bosib o‘tganini ko‘rsatadi. Zamonaviy tadqiqotlar innovatsiyalarni bilimlar, inson kapitali, institutlar, biznes va davlat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasi sifatida baholaydi. Bu esa innovatsion siyosat va barqaror iqtisodiy o‘sish strategiyasini ishlab chiqishda turli nazariy yondashuvlardan kompleks foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda nazariy modellarni qiyosiy tahlil qilish, innovatsion rivojlanishni o‘rganishda tizimli yondashuv, tarixiy-mantiqiy usul hamda ilmiy adabiyotlar tahlilidan foydalanilgan. Nazariy asos sifatida Robert Solow, Paul Romer, Robert Lucas, Richard Nelson, Sidney Winter va Christopher Freeman kabi iqtisodchilarning ishlari xizmat qilgan.

Asosiy qism

1. Neoklassik iqtisodiy o‘sish modeli

Fundamental modellardan biri Robert Solow tomonidan ishlab chiqilgan neoklassik o‘sish modeli hisoblanadi. Ushbu modelda iqtisodiy o‘sish kapital jamg‘arilishi va ishchi kuchi o‘sishi bilan belgilanadi, texnologik taraqqiyot esa tashqi (ekzogen) omil sifatida qaraladi.

Mazkur modelning ahamiyati katta bo‘lishiga qaramasdan, uning asosiy cheklangan jihati innovatsiyalarning ichki manbalarini tushuntirib bera olmasligida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv doirasida texnologik taraqqiyot «qora quti» sifatida qolib ketadi, bu esa innovatsion siyosatni ishlab chiqishda uning amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini cheklaydi.

2. Endogen o‘sish modellari

Iqtisodiy nazariyaning rivojlanishi natijasida innovatsiyalar iqtisodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladigan endogen modellar shakllandi. Bu yo‘nalishni rivojlantirishga Paul Romer va Robert Lucas katta hissa qo‘shgan.

Ushbu modellarda inson kapitali, ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bilimlar uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi asosiy ishlab chiqarish omili sifatida baholanadi. Neoklassik modeldan farqli ravishda, endogen nazariyalar mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy o‘sish sur’atlaridagi farqlarni tushuntirib beradi hamda innovatsiyalarni rag‘batlantirishda davlat siyosatining muhim rolini ta’kidlaydi.

3. Innovatsion rivojlanishning evolyusion modellari

Richard Nelson va Sidney Winter tomonidan ishlab chiqilgan evolyusion yondashuv innovatsiyalarni raqobat, moslashuv va texnologik o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan dinamik jarayon natijasi sifatida talqin qiladi.

Ushbu yondashuvga ko‘ra, iqtisodiy agentlar noaniqlik sharoitida faoliyat yuritadi, innovatsiyalar esa sinov va xatolar jarayoni natijasida yuzaga keladi. Bunday yondashuv institutsional va xulq-atvor omillarini hisobga olgan holda texnologik rivojlanish jarayonlarini yanada realistik tarzda ifodalash imkonini beradi.

4. Milliy innovatsion tizimlar konsepsiyasi

Innovatsiyalar nazariyasining rivojlanishiga Christopher Freeman tomonidan taklif etilgan milliy innovatsion tizimlar konsepsiyasi katta hissa qo‘shgan. Ushbu konsepsiya davlat, biznes va ilmiy tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka alohida e’tibor qaratadi.

Mazkur model innovatsion rivojlanish nafaqat alohida firmalar faoliyatiga, balki institutsional muhitga ham bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Jumladan, huquqiy tizim, ta’lim muassasalari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash innovatsion taraqqiyotning muhim omillari sifatida qaraladi.

5. Ochiq innovatsiyalar modeli

Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari Henry Chesbrough tomonidan ishlab chiqilgan ochiq innovatsiyalar modelining shakllanishiga olib keldi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, innovatsiyalar nafaqat kompaniyalar ichida, balki tashqi bilimlardan foydalanish orqali ham shakllanadi.

Ochiq innovatsiyalar tashqi muhit bilan faol hamkorlikni nazarda tutadi. Bunda ilmiy markazlar, startaplar va xalqaro hamkorlik aloqalari muhim o‘rin tutadi. Bu ayniqsa raqamli iqtisodiyot va globallashuv sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Shunday qilib, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning nazariy modellari ilmiy qarashlarning sodda yondashuvlardan murakkab va integratsiyalashgan tizimlargacha bo‘lgan evolyusiyasini namoyon etadi. Zamonaviy iqtisodiyot inson kapitali, institutsional muhit va global aloqalar kabi ko‘plab omillarni hisobga olishni talab qiladi.

Mazkur modellarning amaliy ahamiyati davlat innovatsion siyosatini shakllantirishda namoyon bo‘ladi. Turli nazariy yondashuvlarni samarali uyg‘unlashtirish barqaror iqtisodiy o‘sish, raqobatbardoshlikni oshirish va jahon iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuv uchun sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxai

1. Adam Smith (1776). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: W. Strahan and T. Cadell.
2. Robert Solow (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65–94.
3. Paul Romer (1990). Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, 98(5), S71–S102.
4. Robert Lucas (1988). On the Mechanics of Economic Development. Journal of Monetary Economics, 22(1), 3–42.
5. Richard Nelson, & Sidney Winter (1982). An Evolutionary Theory of Economic Change. Cambridge: Harvard University Press.
6. Christopher Freeman (1987). Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. London: Pinter.
7. Lundvall, B.-Å. (1992). National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. London: Pinter.
8. Henry Chesbrough (2003). Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. Boston: Harvard Business School Press.
9. Nelson, R. R. (Ed.). (1993). National Innovation Systems: A Comparative Analysis. Oxford: Oxford University Press.
10. Aghion, P., & Howitt, P. (1992). A Model of Growth through Creative Destruction. Econometrica, 60(2), 323–351.
11. Grossman, G. M., & Helpman, E. (1991). Innovation and Growth in the Global Economy. Cambridge: MIT Press.
12. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
13. World Bank (2024). World Development Indicators. Washington, DC.
14. International Monetary Fund (2024). World Economic Outlook. Washington, DC.
15. OECD (2023). Oslo Manual: Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data. Paris: OECD Publishing.

ХУФЁНА ИҚТИСОДИЁТНИНГ МОҲИЯТИ ВА УНИ ЎЗБЕКИСТОНДА КАМАЙТИРИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ

Каландаров Равшан Абдукаюмович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети доценти
r.kalandarov42@gmail.com

Иқтисодий жиноятчиликка қарши курашишда хуфёна иқтисодиётга қарши кураш чора-тадбирлари муҳим ўрин тутади. Криминал элементларнинг ишлаб чиқариш ва молиявий муассасаларга, турли соҳа, давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларига кириб бориши оқибатида миллий бойлик, давлат бюджети даромадларини тақсимлаш ва қайта тақсимлаш жараёнида улар иштирокининг кенгайиб бориши иқтисодий хавфсизликка жиддий хавф солади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 январдаги ПФ-5614-сон “Иқтисодиётни янада ривожлантириш ва иқтисодий сиёсат

самарадорлигини оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонининг 1-иловаси билан 2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасида таркибий ислоҳотлар асосий йўналишларининг “Йўл харитаси” ишлаб чиқилган бўлиб унда макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш чора-тадбирлари сифатида “Хуфёна иқтисодиёт”ни қисқартириш бўйича Дастур ишлаб чиқиш, деб белгиланган.

Хуфёна иқтисодиёт, коррупция, уюшган жиноятчилик ҳамма мамлакатларда ва ҳамма даврларда бўлган. Иқтисодий адабиётларда хуфёна иқтисодиётга турли хил таърифлар берилган.

1. Хуфёна иқтисодиёт - қонун асосида ман қилинган фаолият турлари.
2. Хуфёна иқтисодиёт - иқтисодий фаолиятнинг кузатилмаган ва яширин фаолият тури.
3. Хуфёна иқтисодиёт расмий статистикада у ёки бу сабабларга кўра ҳисобга олинмаган ҳар қандай иқтисодий фаолият бўлиб, унда ишлаб чиқарилган маҳсулот ва хизматлар ялпи ички маҳсулот таркибига киритилмайди ҳамда солиққа тортилишдан четда қолади.
4. Хуфёна иқтисодиёти (шунингдек, яширин иқтисодиёт, норасмий иқтисодиёт) - бу давлат назорати ва ҳисобидан ташқарида бўлган жамият ва давлатдан яширилган иқтисодий фаолият. Бу иқтисодиётнинг кузатиб бўлмайдиган, норасмий қисмидир, лекин унинг барчасини қамраб олмайди, чунки у жамият ва давлатдан яширин бўлмаган фаолиятни, масалан, уй-жой ёки жамоавий иқтисодиётни қамраб олмайди. Бунга иқтисодиётнинг ноқонуний жиноий шакллари ҳам киради, лекин улар билан чекланиб қолмайди.
5. Хуфёна иқтисодиёти - бу амалдаги давлат қонунлари ва жамоат қоидаларини четлаб ўтиб, ўз-ўзидан ривожланадиган жамият фуқаролари ўртасидаги иқтисодий муносабатлар. Ушбу бизнеснинг даромадлари яширин ва солиққа тортиладиган иқтисодий фаолият эмас.

Дарҳақиқат, даромадларни яшириш ёки солиқларни тўлашдан бўйин товлашга олиб келадиган ҳар қандай иқтисодий фаолият хуфёна иқтисодий фаолият, деб ҳисобланиши мумкин.

Перулик олим Эрнандо де Сото тадқиқотларида Лотин Америкаси мамлакатлари мисолида хуфёна иқтисодиёт масалалари жиддий таҳлил этилган. Уларда давлат суд-ҳуқуқ тизими ва у ҳимоя қиладиган мулкчилик ҳуқуқлари алмашувларнинг фақат кичик бир қисми, механизмини шакллантиради.

Хуфёна иқтисодиёт миллий хавфсизликка таҳдид сифатида алоҳида шахслар, шахслар гуруҳи, институционал субъектлар ўртасидаги моддий неъмат ва хизматлар ишлаб чиқариш, тақсимлаш, айирбошлаш ва истеъмол қилиш юзасидан бўладиган муносабатлар йиғиндиси бўлиб, унинг натижалари расмий статистикада ҳисобга олинмайди ва солиққа тортилмайди.

Хуфёна иқтисодиётнинг амал қилиши давлат иқтисодий хавфсизлигига потенциал ва реал хавф таҳдид солади. У нормал иқтисодий жараёнларга, расмий иқтисодиётда содир бўладиган даромадларнинг шаклланиши ва

тақсимланиши, халқаро савдо, инвестициялаш, иқтисодий ўсиш жараёнларига таъсир кўрсатади.

Иқтисодиётда хуфёна иқтисодиётнинг асосий жиҳатлари қуйидагида намоён бўлади:

- давлатнинг фискал (солиқ) манфаатлари;
- ЯИМнинг реал ҳажми;
- иқтисодий хавфсизлик;
- ҳуқуқий параметрлар;
- хўжалик субъектлари ўзаро ҳаракати тавсифи.

Хуфёна иқтисодиёт даромадларни солиққа тортишдан яширишда намоён бўлади. Солиқ тўлашдан бўйин товлаш усуллари қуйидагилардан иборат:

- турли банкларда бир неча ҳисоб рақамларини очиб, улар орқали бухгалтерия ҳисобида тўлиқ кўрсатилмаган ҳолда пул операцияларини амалга ошириш;
- “иккиёқлама бухгалтерия” юритиш, нақд пуллар билан муомала қилиш, шу орқали даромад ва пул тушумларини солиқдан яшириш;
- корхонани бир шаҳар, туманда рўйхатдан ўтказиш, аммо ҳисоб рақамини бошқа шаҳар, тумандаги банкларда очиш орқали корхона солиқ тўлашдан рўйхатга олинган жойида ҳам, фаолият юритган жойида ҳам қочади, яъни бўйин товлайди;
- ҳисобга олинмаган харажатлар ҳисобига сотилаётган маҳсулот (хизмат, ишлар)нинг таннархини ошириб кўрсатиш;
- расмий ҳисоб ва тўлов хужжатларида томонларнинг келишувига асосан бажарилган иш (кўрсатилган хизматлар) қиймати паст нархларда кўрсатилади, унинг қолган қисми нақд пул шаклида ўзаро тақсимланиб олинади. Нақд пуллардаги даромад солиққа тортишдан яширилади.

Ноқонуний ишлаб чиқаришга бизнес ва тадбиркорлик шаклида ташкил этилган, қонунчиликда қатъиян ман қилинган фаолият турлари киради. Бундай фаолият турларига қуйидагилар киради:

- қурол-яроғ ишлаб чиқариш ва сотиш;
- наркобизнес;
- контрабанда;
- қиморхона, қимор ўйинларини ташкил этиш;
- одам савдоси;
- фоҳишабозлик ва ҳоказо.

Яширин, рўйхатга олинмаган корхона ва ишлаб чиқаришларни, цехларни ташкил этишнинг асосий сабаблари кичик бизнес ва тадбиркорликни ташкил қилишда юқори технологик харажатлар қилишнинг қийинлиги, оғирлиги, яширин ишлаб чиқарилган товар ва хизматларга юқори монопол нархларни белгилаш, шу боисдан юқори даромад олиш имкониятининг юқорилиги.

Турли қонунчилик меъёрларига амал қилинмаслик ҳолатларининг тез-тез учраб туриши хуфёна иқтисодиёт миқдорининг индикатори бўлиб хизмат қилади. Бироқ, унинг миқдорий ўлчови вазифасини ҳал этишга киришишдан олдин хуфёна иқтисодиётнинг турли унсурларини таърифлаш лозим. Умуман олганда хуфёна иқтисодиёт - унда иқтисодий фаолият қонун доирасидан


ташқарида амалга ошириладиган, яъни битимлар қонундан, хўжалик турмушининг ҳуқуқий меъёрлари ва расмий қоидаларидан фойдаланилмаган ҳолда амалга ошириладиган соҳа. Хуфёна иқтисодиёт учта унсурдан таркиб топади: норасмий, соҳта ва криминал иқтисодиёт:

- норасмий иқтисодиёт - иқтисодий фаолиятнинг ошкора турлари, унда харажатларни пасайтириш мақсадида товарлар ва хизматларнинг қайд этилмаган тарзда ишлаб чиқарилиши ўрин тутади (яна бир бор таъкидлаш лозимки, давлатдан яшириладиган барча фаолият турлари ҳуқуқий меъёрлар билан тартибга солиниши мумкин эмас ва мулкчилик ҳуқуқларини ҳимоялашнинг муқобил механизмлари қўлланилишини талаб қилади);

- соҳта иқтисодиёт - қўшиб ёзишлар, чайқовчилик битимлари, порахўрлик ва пулни олиш ҳамда бериш билан боғлиқ ҳар хил товламачилик ҳаракатлари иқтисодиёти;

- криминал иқтисодиёт - қонуннинг (биринчи навбатда - Жиноий ва Фуқаролик кодексларининг) тўғридан-тўғри бузилиши ва мулкчиликнинг қонуний ҳуқуқларига тажовуз қилиш билан боғлиқ иқтисодий фаолият.


Ўзбекистон Республика Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги хуфёна иқтисодиётни кузатилмайдиган иқтисодиёт сифатида тавсифлайди. Кузатилмайдиган иқтисодиёт - доимий статистика кузатувларида тўлиқ ёки билвосита усуллар орқали баҳоланадиган иқтисодий фаолият турлари. Кузатилмайдиган иқтисодиёт икки қисмдан иборат: норасмий иқтисодиёт ва яширин иқтисодиёт.



1-расм. Ўзбекистонда кузатилмадиган иқтисодиёт

1-расм маълумотларидан кўриш мумкинки 2011-2024 йиллар мобайнида кузатилмайдиган иқтисодиёт ҳажми мутассил ўсган ҳолда 2011 йилда 53,1 триллион сўмдан 2024 йил натижалари бўйича 505,7 триллион сўмгача, яъни 9,5 баробарга ўсган. Шунингдек, мазкур даврда кузатилмайдиган иқтисодиётнинг ЯИМдаги улуши 2011 йилдаги 45,9 фоиздан 2016 йилда 48,3 фоизгача ўсган. 2017 йилдан эътиборан амалга оширилган чора-тадбирлар

таъсирида кузатилмайдиган иқтисодиётнинг ЯИМдаги улуши камайган ҳолда 2024 йил натижалари бўйича 34,8 фоизни ташкил этган.



2-расм. 2024 йилда кузатилмайдиган иқтисодиётнинг иқтисодиёт тармоқларидаги улуши, фоизда

2-расм маълумотлари кўрсатишича кузатилмайдиган иқтисодиётнинг миллий иқтисодиёт тармоқларидаги улушида кескин фарқланишлар мавжуд. Жумладан, 2024 йил якунлари бўйича кузатилмайдиган иқтисодиёт қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалигида 63,6 фоиз, қурилишда 41,3 фоиз, хизматлар соҳасида 40,1 фоиз ва саноатда 8,9 фоизни ташкил этмоқда.

Иқтисодчилар ҳисоб-китобига кўра АҚШ иқтисодиётида хуфёна иқтисодиётнинг ЯИМ нисбатан улуши 3-30 фоиз, Россия Федерациясида 5-50 фоиз нисбатда баҳоланмоқда.

Хуфёна иқтисодиётнинг ривожланишининг антропологик, иқтисодий, ҳуқуқий, ижтимоий-сиёсий, ижтимоий ва маъмурий сабаларини ажратиш мумкин.

1-жадвал

Хуфёна иқтисодиётнинг ривожланиш сабаблари ва омиллари

Сабаб	Тавсифи
Антропологик	инсоннинг қарама-қарши табиати, ундаги яхшилик ва ёмонлик ўртасидаги кураш хусусиятлари
Иқтисодий	давлатнинг солиқ сиёсатидаги камчиликлар, бозорнинг товар ва хизматлар билан тўйинмаганлиги; иқтисодиёт тармоқлари ва соҳалари ўртасидаги мувозанат ва баланснинг мавжуд эмаслиги, иқтисодиётнинг циклик тебранишлари, аҳоли харид қобилиятининг пастлиги; трансакция харажатларининг юқорилиги.
Ҳуқуқий	қонунчилик базасининг такомиллашмаганлиги, иқтисодий жиноятчиликка қарши кураш механизмининг мукаммал эмаслиги, ҳуқуқни ҳимоя қилиш органлари фаолиятининг самарасизлиги
Ижтимоий-сиёсий	жамиятдаги ижтимоий-иқтисодий муаммоларнинг ҳал этилиши даражаси, аҳолининг ижтимоий-психологик кайфияти, давлатнинг хусусий мулк ва секторга муносабати
Ижтимоий	аҳолининг табақаланиши даражаси, ишсизлик даражаси, кам таъминланган аҳоли қатламларининг кўлами, меҳнат мигрантларининг

	кўплиги, меҳнат муносабатлари, меҳнат шароитлари, иш ҳақи тизими, ижтимоий кафолатлар, пенсия таъминоти
Маъмурий	давлат бошқаруви тизимидаги камчиликлар, бюрократия, давлат хизматчиларининг компетентлик ва масъулиятлилик даражаси, тадбиркорликларга маъмурий босим

Хуфёна иқтисодиётнинг ижтимоий ва иқтисодий оқибатларини ажратиб олиш орқали унинг мазмунини чуқурроқ тушинишга имкон яратилади ҳамда унга қарши курашиш йўлларини аниқроқ қилиб қўяди.

Хуфёна иқтисодиётнинг ижтимоий оқибатлари:

- меҳнат ҳуқуқлари бузилиши: ишчилар кўпинча расмий меҳнат шартномасиз ишлайди; ижтимоий ҳимоя (пенсия, соғлиқни сақлаш, таътил, ишсизлик нафақаси)дан маҳрум бўлади;
- ишчиларнинг эксплуатацияси: меҳнат шароитлари ёмон бўлади, иш вақти, иш ҳақи ва хавфсизлик талабларига риоя қилинмайди; болалар меҳнати ёки мажбурий меҳнат хавфи ортади;
- тенгсизликни кучайтиради: хуфёна соҳада ишлайдиганлар расмий сектордагиларга нисбатан кам даромад олади ва ҳуқуқлари ҳимояланмайди; ижтимоий табақаланиш ортиб боради;
- ҳуқуқий маданият пасаяди: фуқароларнинг қонунларга ҳурмати сусаяди; коррупция ва ноқонуний фаолиятларга нисбатан тоқатсизлик камаяди.

Хуфёна иқтисодиётнинг иқтисодий оқибатлари:

давлат бюджетидан йўқотишлар: солиқ тушумлари камаяди, чунки кўп фаолиятлар рўйхатдан ўтмаган; давлат ижтимоий хизматларни молиялаштира олмай қолиши мумкин (масалан, таълим, соғлиқни сақлаш);

соғлом рақобатга халақит беради: норасмий секторда ишлаб чиқарувчилар солиқ тўламаганлари учун маҳсулотни арзонроқ таклиф қилишади, бу эса расмий сектордаги корхоналарни қийин ҳолатга солади;

иқтисодий статистикани бузилади: расмий рақамларда иқтисодий ўсиш, бандлик ёки ишлаб чиқариш даражаси тўғри акс эттирилмайди, иқтисодий сиёсат ишлаб чиқишда нотўғри қарорлар қабул қилиниши мумкин;

инвестицияларни чеклайди: хуфёна иқтисодиётнинг юқори даражаси хорижий ва маҳаллий инвесторлар учун ноаниқлик туғдириши орқали иқтисодий ўсишни сусайтиради.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 20 июндаги 394-сон “Яширин иқтисодиёт улушини қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорига мувофиқ:

- иқтисодиётда хуфиёна айланмани қисқартиришга қаратилган таркибий ўзгаришларни амалга ошириш;
- иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларида рақамли технологияларни кенг жорий этиш ва маркировкалаш;
- иқтисодиётда нақд пулсиз ҳисоб-китоблар ҳажмини ошириш;
- банк хизматларининг оммабоплигини ошириш;
- “яширин иқтисодиёт” субъектларини аниқлаш механизмларини такомиллаштириш;

- ташқи савдода “яширин иқтисодиёт” улушини қисқартириш бўйича самарали тизимни жорий этиш;

- “яширин иқтисодиёт” улушини қисқартириш бўйича кенг тарғибот-ташвиқот ишларини ташкил қилиш ва бошқа жами 23 номли тадбирлар Йўл харитаси ишлаб чиқилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 октабрдаги “Яширин иқтисодиётни қисқартириш ва солиқ органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармонига асосан мамлакатимизда яширин иқтисодиёт даражасини пасайтириш, тадбиркорлик фаолиятини юритиш учун, шу жумладан, тартибга солиш ва маъмурий юкни камайтириш ҳисобига тенг рақобат шароитларини яратиш, солиқ қонунчилиги талабларига риоя қилиш тартиб-таомилларини автоматлаштириш ва унинг тартибини соддалаштириш мақсадида бир қатор чора-тадбирларни амалга ошириш белгиланган. Жумладан, яширин иқтисодиётни қисқартириш бўйича комиссия ва унинг унинг ҳудудий бўлимларини ташкил этиш ва уларнинг вазифалари белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармонига мувофиқ:

- сервис соҳасида яширин иқтисодиёт улушини 3 бараварга қисқартириш. Хизматлар соҳасининг жозибадорлигини ошириш мақсадида соҳадаги тадбиркорлик субйектларига қўшимча имтиёзлар тақдим етиш;

- халқаро ташкилотлар експертларини жалб қилган ҳолда, кузатилмайдиган (яширин) иқтисодиётни қисқартириш бўйича дастур ишлаб чиқиш;

- норасмий бандлик даражасини қисқартиш учун соҳалар бўйича манзилли ишлаш, норасмий фаолият юритаётган субйектларни расмий секторга жалб қилиш мақсадида рағбатлантирувчи механизмлар орқали яширин иқтисодиётдан олиб чиқиш;

- яширин иқтисодиётни қисқартиришда жамоатчилик ролини ошириш вазифалари белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентабрдаги ПФ-158-сон ““Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармонида “Яширин иқтисодиётни қисқартириш орқали солиқ базасини қўшимча кенгайтириш вазифаси қўйилган.

Хуфёна иқтисодиёт миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишига жиддий салбий таъсир кўрсатади. Аввало, солиқлар тўланмаслиги давлат бюджети даромадларини камайтиради, бу эса ижтимоий соҳага ажратиладиган маблағларни қисқартиради. Шу билан бирга, хуфёна фаолият рақобат муҳитини бузиб, расмий ишлаб чиқарувчилар учун ноқонуний рақобатни келтириб чиқаради. Натижада, инвестиция муҳити ёмонлашади, иш ўринлари сони камаяди ва меҳнат муносабатлари шаффофлиги бузилади. Бундай шароитда иқтисодий ўсиш суръатлари секинлашади, давлатнинг иқтисодий сиёсатини самарали амалга ошириш имконияти чекланади.

БИЛИМЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ДАВЛАТНИНГ ИННОВАЦИОН СИЁСАТИ: ХАЛҚАРО ТАЖРИБА ВА ЎЗБЕКИСТОН

Хасанхонова Нодира Исаметдиновна
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti доценти, иқтисодиёт фанлари доктори
e-mail: xasanxonova@mail.ru

Жаҳон иқтисодиётида сўнгги ўн йилликларда юз бераётган чуқур трансформация жараёнлари натижасида анъанавий ресурсларга асосланган ривожланиш модели ўрнини билимлар иқтисодиёти эгалламоқда. Бундай иқтисодиётда инновациялар, илмий тадқиқотлар, рақамли технологиялар ва юқори малакали инсон капитали асосий ҳаракатлантирувчи куч сифатида намоён бўлади. Шу нуқтаи назардан, давлатнинг инновацион сиёсати билимлар иқтисодиётини шакллантиришда ҳал қилувчи омиллардан бири ҳисобланади.

Ривожланган мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, инновацион тараққиёт тасодифий эмас, балки пухта ўйланган давлат сиёсати, самарали институционал муҳит ва кучли молиявий қўллаб-қувватлаш орқали таъминланади. Жумладан, АҚШ, Жанубий Корея, Германия ва Сингапур каби давлатларда инновацион экотизимни шакллантириш, илмий тадқиқотларни рағбатлантириш ва уларни тижоратлаштиришга қаратилган комплекс сиёсатлар юқори иқтисодий ўсишни таъминлаб келмоқда.

Ўзбекистонда ҳам сўнгги йилларда инновацион ривожланиш давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида белгиланиб, илмий-тадқиқот фаолиятини қўллаб-қувватлаш, рақамли иқтисодиётни ривожлантириш ва стартапларни рағбатлантириш бўйича кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. “Инновацион ривожланиш стратегияси – 2030”, “Рақамли Ўзбекистон – 2030” дастурлари, шунингдек, илмий ва таълим муассасаларини модернизация қилишга қаратилган чора-тадбирлар бу борада муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ҳозирги глобал иқтисодий муҳитда мамлакатлар рақобатбардошлиги табиий ресурслар ёки арзон меҳнатга эмас, балки билим, инновация ва технологияларга таяна бошлади. Шу жиҳатдан, билимлар иқтисодиётини шакллантириш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланмоқда. Бу жараёнда давлатнинг инновацион сиёсати ҳал қилувчи аҳамият касб этади, чунки айнан давлат институционал муҳитни яратади, ресурсларни тақсимлайди ва инновацион фаолиятни рағбатлантиради.

Халқаро тажриба шуни кўрсатадики, инновацион ривожланиш юқори даражада мувофиқлаштирилган давлат сиёсатига таянади. Масалан, АҚШда инновацион экотизим университетлар, хусусий сектор ва давлат ўртасидаги “учлик спирал” (triple helix) модели асосида шаклланган. Бу ерда давлат фундаментал тадқиқотларни молиялаштирса, хусусий сектор уларни амалиётга татбиқ этади. Жанубий Корея эса саноат сиёсати ва инновацион стратегияни уйғунлаштириб, қисқа вақт ичида аграр иқтисодиётдан юқори технологияли иқтисодиётга ўта олди. Германияда “Индустрия 4.0”

концепцияси доирасида рақамлаштириш ва автоматлаштириш орқали саноатда юқори самарадорликка эришилди. Сингапурда эса инсон капиталига инвестиция киритиш ва глобал инновация марказларини жалб қилиш орқали билимлар иқтисодиёти шакллантирилди.

Ушбу мамлакатлар тажрибасини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, самарали инновацион сиёсат қуйидаги асосий элементларга эга: барқарор қонунчилик базаси, илмий тадқиқотларга катта молиявий қўллаб-қувватлаш, таълим тизимининг юқори сифати, хусусий сектор билан яқин ҳамкорлик ва инновацияларни тижоратлаштириш механизмларининг ривожланганлиги.

1-жадвал.

Айрим давлатларда инновацион ривожланиш кўрсаткичлари (2022–2024 йй.)

Кўрсаткичлар	АҚШ	Жанубий Корея	Германия	Сингапур	Ўзбекистон
Илм-фанга сарфлар (ЯИМга нисбатан, %)	3.4	4.8	3.1	2.2	0.11
1 млн аҳолига тадқиқотчилар (нафар)	4300	7800	5000	6500	1100
Патентлар сони (йилига, мингта)	600	220	180	80	1.2
Инновацион маҳсулот улуши (ЯИМда, %)	10–12	15	12	13	2
Глобал инновация индекси рейтинги (ўрин)	3	10	8	5	82

Мазкур жадвал маълумотлари шуни кўрсатадики, ривожланган давлатларда билимлар иқтисодиёти юқори даражада шаклланган бўлиб, бу аввало илм-фан ва инновацияларга катта ҳажмдаги инвестициялар билан изоҳланади. Масалан, Жанубий Кореяда илм-фанга сарфлар ЯИМнинг 4,8% ни ташкил этади, бу эса унинг дунёдаги энг инновацион иқтисодиётлардан бирига айланишига хизмат қилмоқда. АҚШ ва Германияда ҳам мазкур кўрсаткич 3% дан юқори бўлиб, бу фундаментал ва амалий тадқиқотларнинг юқори даражада молиялаштирилишини англатади.

Тадқиқотчилар сони бўйича ҳам сезиларли фарқ кузатилади. Ривожланган давлатларда 1 млн аҳолига 4000–8000 нафар тадқиқотчи тўғри келса, Ўзбекистонда бу кўрсаткич тахминан 1100 нафарни ташкил этади. Бу эса инсон капитали ва илмий салоҳиятни янада ошириш зарурлигини кўрсатади.

Патентлар сони ва инновацион маҳсулотлар улуши ҳам инновацион ривожланиш даражасини белгилайди. АҚШ ва Жанубий Кореяда ҳар йили юз минглаб патентлар рўйхатдан ўтказилса, Ўзбекистонда бу кўрсаткич ҳали паст даражада қолмоқда. Шунингдек, инновацион маҳсулотларнинг ЯИМдаги улуши ривожланган давлатларда 10–15% атрофида бўлса, Ўзбекистонда 2% ни ташкил этади.

Глобал инновация индексидаги ўринлар ҳам умумий манзарани тасдиқлайди. Ўзбекистоннинг 82-ўринда жойлашгани мамлакатда инновацион сиёсатни янада такомиллаштириш, институционал муҳитни кучайтириш ва

халқаро тажрибани кенг жорий этиш зарурлигини кўрсатади.

Таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, билимлар иқтисодиётини шакллантиришда давлатнинг инновацион сиёсати ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Ривожланган давлатлар тажрибаси юқори молиялаштириш, инсон капиталига сармоя ва инновацияларни тижоратлаштириш орқали юқори натижаларга эришиш мумкинлигини кўрсатмоқда. Ўзбекистонда эса бу борада ижобий силжишлар мавжуд бўлса-да, асосий кўрсаткичлар бўйича ҳали ўсиш салоҳияти катта.

Ўзбекистонда ҳам сўнгги йилларда инновацион ривожланишга қаратилган кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Давлат томонидан инновацион иқтисодиётга ўтиш стратегик мақсад сифатида белгиланиб, илм-фан ва таълим соҳаларида институционал ўзгаришлар жадаллаштирилди. Инновацион ривожланиш вазирлигининг ташкил этилиши, технопарклар ва стартап марказларининг фаолияти, “Рақамли Ўзбекистон – 2030” дастурининг қабул қилиниши бу борадаги муҳим қадамлар ҳисобланади. Шу билан бирга, олий таълим тизимида халқаро ҳамкорлик кенгаймоқда, илмий тадқиқотларни молиялаштириш ҳажми ортиб бормоқда.

Бироқ, мавжуд ютуқларга қарамасдан, қатор муаммолар ҳам сақланиб қолмоқда. Хусусан, илм-фан ва ишлаб чиқариш ўртасидаги интеграция етарли даражада эмас, инновацияларни тижоратлаштириш механизми тўлиқ шаклланмаган, хусусий секторнинг илмий тадқиқотларга жалб қилиниши паст даражада. Шунингдек, илмий кадрлар тайёрлаш ва уларни рағбатлантириш тизимида ҳам такомиллаштириш талаб этилади.

Фойдаланилган манбалар

1. World Bank. World Development Indicators, 2024.
2. UNESCO Institute for Statistics. Science, Technology and Innovation Data, 2023.
3. World Intellectual Property Organization (WIPO). Global Innovation Index 2023.
4. OECD. Main Science and Technology Indicators, 2023.
5. Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш агентлиги маълумотлари, 2024

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПРИБЫЛИ

Гафурова Азизахон Фатиховна, Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация: В данной статье рассматриваются понятия прибыли, а также экономическая сущность. Прибыль является главной целью любого бизнеса, а его максимизация являются главными задачами. Изучение и правильное формирования, распределения и использования прибыли является показателем грамотного введения бизнеса. В статье рассматривается изменения понятия прибыли и изучаются определения, данные различными экономистами.

Ключевые слова: *прибыль, валовый доход, чистая прибыль, профицит, убыток.*

Экономисты изучают доход в различных контекстах, используя разные определения и способы измерения дохода. Независимо от того, включают ли их исследования доходы, сбережения, потребление, производство, государственные финансы, капитальные вложения или другие связанные темы и под темы, их концепция дохода будет соответствовать цели их исследования. В то время как измерение дохода на макроуровне имеет решающее значение для социальных и политических исследований, люди больше сосредоточены на своем личном и деловом доходе.

Основополагающие принципы исследования природы прибыли берут свое начало в развитии меркантилистской школы экономической мысли. Значительный вклад в формирование данных концепций внесли такие теоретики, как Т. Ман, Д. Юм и Ж. Кольбер[12]. Их методологический подход был сосредоточен на выявлении основных источников формирования прибыли[13].

С учетом того, что в исследуемый период экономическое благосостояние государств и хозяйствующих субъектов в значительной степени определялось динамикой внешнеторговой деятельности, а также механизмами ценового регулирования как на национальном, так и на международном уровнях, обеспечение стабильного притока прибыли напрямую зависело от достижения положительного сальдо торгового баланса. Государственные и корпоративные структуры стремились к преобладанию экспорта над импортом, что рассматривалось в качестве ключевого условия экономического роста и финансовой устойчивости.

Прибыль представляет собой одну из ключевых категорий экономической науки, а ее интерпретация варьируется в зависимости от экономической школы и исторического этапа развития теоретической мысли. Различные исследователи предлагали свои подходы к анализу данной категории, что отражает эволюцию экономических представлений.

Основные принципы исследования содержания прибыли связаны с развитием школы меркантилистов, среди которых наиболее значимую роль сыграли теоретические воззрения Т. Мана, Д. Юма, Ж. Кольбера. Особенности их методики сводились к поиску источников прибыли. Ввиду того что благосостояние государств и фирм зависело в этот период в основном от внешнеторговой деятельности, регулирования цен внутри страны и вне ее, для обеспечения притока прибыли государство и фирмы должны были добиваться положительного сальдо своего торгового баланса[14].

Переместили акцент на происхождение и источник прибыли представители экономической школы физиократов Ф. Кенэ, Ж. Тюрго, М. Ривьер. Данный этап исторической эволюции связан с технологическим способом производства, основу которого составляет земледелие. Отсюда, единственным источником формирования положительной суммы прибыли

[12] Томас Ман «England’s Treasure by Forraign Trade», Давид Юм « Essays, Moral, Political, and Literary», Жан-Батист Кольбер Экономическая политика Людовика XIV.

[13] Политическая экономия // под ред. В. А. Медведева.— М.: Политиздат, 1990.— С. 559.

[14] Политическая экономия // под ред. В. А. Медведева.— М.: Политиздат, 1990.— С. 559.

является деятельность экономических агентов в земледелии[15]. Приоритет экономической политики государства должен сводиться к созданию системы таких мотивов и стимулов для агентов, которые побуждали бы последних вкладывать капитал в развитие сельскохозяйственного производства, что способствовало бы генерированию прибыли в положительных объемах.

Переход к машинному технологическому способу производства подвиг экономистов, и прежде всего А. Смита и Д. Риккардо, углубить методологические подходы к исследованию прибыли[16].

А.Смит исследует прибыль как особую экономическую категорию на основе трудовой теории стоимости. Прибыль, по теории Смита,— «вычет из продукта труда рабочих в пользу капиталиста, это неоплаченный труд рабочих». Наряду с определением стоимости товаров через труд А. Смит определяет стоимость как сумму доходов рабочих, капиталистов, землевладельцев — зарплаты, прибыли, ренты. Из данного положения Смит сделал вывод о прибыли как доходе, вознаграждении капиталиста[17].

Д. Рикардо полагал, что прибыль является той частью прибавочного продукта, которая остается после выплаты заработной платы и ренты, при этом он отмечал, что рост оплаты труда приводит к сокращению прибыли[18].

С экономической точки зрения понятие прибыль меняется на протяжении многих лет, в особенности большое внимание уделяется формированию прибыли исходя из этого можно рассмотреть эволюцию формирования и распределения прибыли.

различными экономистами (таблица 1.1.).

Таблица 1.1.

Теоретические и методологические взгляды учёных по формированию и распределению прибыли[19]

Учёный	Год	Основная теория	Основные положения и применение
Адам Смит	1776	Теория абсолютной стоимости и труда	- Прибыль рассматривается как часть стоимости, создаваемой трудом. - Формирование прибыли связано с производительностью труда и свободной конкуренцией.
Давид Рикардо	1817	Теория сравнительных издержек и ренты	- Прибыль формируется после уплаты заработной платы и ренты. - Распределение прибыли зависит от структуры собственности и редкости ресурсов.
Карл Маркс	1867	Теория прибавочной стоимости	- Прибыль — результат неоплаченного труда рабочих (эксплуатация). - Распределение прибыли определяется классовой структурой общества.
Альфред	1890	Неоклассическая	- Прибыль — как результат

[15] Политическая экономия // под ред. В. А. Медведева.— М.**:** Политиздат, 1990.— С. 559.
[16] Смит А. Исследование о ирироде и причинах богатства народов.— М.: Эксмо, 2007.— С. 524.
[17] Смит А. Исследование о ирироде и причинах богатства народов.— М.: Эксмо, 2007.— С. 524.
[18] Риккардо Д. Начало политической экономии и налогового обложения.— М. : Гос. изд-во полит, лит., 1955.— С. 128.
[19] Составлено самим автором на основе литературных источников

Маршалл		теория прибыли	предпринимательской функции и неопределённости. - Отражает вознаграждение за риск, нововведения и координацию ресурсов.
Джон Мейнард Кейнс	1936	Теория эффективного спроса	- Прибыль формируется на основе совокупного спроса. - Инвестиции и ожидания играют ключевую роль в динамике прибыли.
Йозеф Шумпетер	1934	Теория инновационной прибыли	- Прибыль — временная награда за нововведение. - В условиях монополии на инновации прибыль выше до распространения копий.
Пол Самуэльсон	1947	Нео-кейнсианский синтез	- Прибыль формируется при взаимодействии совокупного спроса и предложения. - Влияние фискальной политики на перераспределение прибыли.
Уильям Баумоль	1959	Теория максимизации выручки	- Компании могут стремиться к росту выручки, а не к максимальной прибыли. - Связь с долгосрочным ростом и устойчивостью.
Роберт Солоу	1956	Модель экономического роста	- Прибыль — источник инвестиций и накопления капитала. - Распределение прибыли влияет на уровень сбережений и технологическое развитие.
Орипов М.	2016	“Иқтисодиёт назарияси”, Т.: “Молия”	Прибыль — это финансовый результат, остающийся после вычитания общих расходов из общего дохода, полученного в результате деятельности.
Ибрагимов А.К.	2018	“Микроиқтисод”	Прибыль — это разница между выручкой от производства и продажи продукции и расходами на её производство. Прибыль является основным показателем эффективности предприятия.
Авлокулов А.З	2019	Автореферат на диссертацию (DSc) Совершенствование методологии учёта и аудита финансовых результатов.	Прибыль- это увеличение собственного капитала компании в результате её предпринимательской деятельности за отчётный период
Ражабов А.Р.	2020	“Корхона иқтисодиёти”	Прибыль — это финансовый результат, формирующийся в результате эффективного использования экономических ресурсов, и является основной целью предпринимательской деятельности.

Таким образом, оптимальным на сегодняшний день можно считать

определение прибыли как разницы между доходами и расходами предприятия, при которой доходы превышают расходы, формируя положительный финансовый результат. Каримов А.А., Исломов Ф.Р. и Авлокулов А.З[20]. дают ещё более общее определение финансовых результатов, считая, что это увеличение или уменьшение собственного капитала компании в результате её предпринимательской деятельности за отчётный период, рассчитываемое путём учёта всех прибылей и убытков.

Исходя из выше сказанного, можно дать следующее определение прибыли. Прибыль это полученный прирост капитала от осуществлённой сделки, служащая для реинвестирования деятельности хозяйствующего субъекта.

Как не расходились мнения экономистов прибыль является главной целью любого бизнеса, а его максимизация являются главными задачами. Предприятия не имеющие прибыль часто самоликвидируются с рынка по концепции Адама Смита «невидимая рука», всё абсолютно верно за исключением государственного сектора и некоторых сфер деятельности. Из выше сказанного видно, что существуют множество предприятий, находящихся в убытке, но играющие большую роль в экономике страны. Каждый хозяйствующий субъект должен рассматривать модель максимизации прибыли исходя из своей специфики производства, и конъектуры рынка. Именно тогда модель будет индивидуальной и будет наиболее полезной.

Литература

Новый экономический словарь / Под редакцией А. Н. Азрилияна. — М.: Институт новой экономики, 2006. — 1088 с. — 4000 экз.

http://economics.studio/ekonomicheskie-voprosyi-obschiie/ponyatie-vidyi-dohodov-ekonomicheskaya-48807.html

Экономико-математический словарь: Словарь современной экономической науки. — М.: Дело. Л. И. Лопатников. 2003.

Бизнес. Толковый словарь. — М.: «ИНФРА-М», Издательство «Весь Мир». ГрэхэмБетс, Барри Брайндли, С. Уильямс и др. Общая редакция: д.э.н. Осадчая И.М.. 1998.

Международный стандарт финансовой отчетности (IAS) 1"Представление финансовой отчетности"

Хейне П. Экономический образ мышления. – М.: Каталаксия, 1997. – 702 с

Дж. Итуэлла, М. Милгейта, П. Ньюмена «Невидимая рука рынка», Москва 2009

Смит А. Исследование о ирироде и причинах богатства народов.— М.: Эксмо, 2007.— С. 524.

Риккардо Д. Начало политической экономии и налогового обложения.— М. : Гос. изд-во полит, лит., 1955.— С. 128.

[20] Авлокулов А.З Молиявий натижалар ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш. (DSc) диссертация автореферати,– Ташкент, 2019 й. -6 б.


MAVSUMIYLIKNING IQTISODIY OQIBATLARI: NAZARIY QARASHLAR EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY TALQINLARI

Barotov Umidjon Mahmud o‘g‘li, Buxoro davlat universiteti “Turizm va mehmonxona xo‘jaligi” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
e-mail: u.m.barotov@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur tezisda turizm mavsumiyligi iqtisodiy oqibatlari haqidagi nazariy qarashlarning evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Bar-Onning klassik daromad tebranishi konseptsiyasidan zamonaviy tizimiy iqtisodiy xavf yondashuvigacha bo‘lgan olti bosqichli evolyutsion yo‘l ochib berilib, har bir bosqichda aniqlangan yangi iqtisodiy oqibatlar tizimlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: *turizm mavsumiyligi, iqtisodiy oqibatlar, nazariya evolyutsiyasi, integratsion yondashuv.*

Turizm mavsumiyligi nazariyasining ilmiy evolyutsiyasi yarim asrdan ortiq tarixga ega bo‘lib, bu davrda mavsumiy tebranishlarning iqtisodiy oqibatlari haqidagi qarashlar sezilarli darajada chuqurlashib bordi. Dastlabki tadqiqotlar mavsumiylikni asosan daromad tebranishlari muammosi sifatida talqin qilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlar uni bandlik beqarorligi, kapital sig‘imi nomutanosibligi va tizimiy iqtisodiy xavf kabi murakkab oqibatlarning kompleks tizimi sifatida ko‘rib chiqadi. Mazkur tezisda turizm mavsumiyligi iqtisodiy oqibatlari haqidagi nazariy qarashlarning evolyutsiyasi tahlil qilinadi va har bir konseptual bosqichda qaysi yangi iqtisodiy oqibat aniqlanganligi ochib beriladi.



1-rasm. Mavsumiylikda iqtisodiy oqibatlarning evolutsiyasi[21]

Birinchi bosqich (1970-yillar) - daromad o‘zgaruvchanligi konseptsiyasi. R. Bar-On 1975-yildagi tadqiqotida turizm mavsumiyligini birinchi marta tizimli o‘rganib, mavsumiy tebranishlarning asosiy iqtisodiy oqibatini past mavsumdagi daromad keskin pasayishi sifatida ta’rifladi [1]. Ushbu yondashuv klassik mikroiqtisodiy talab nazariyasiga asoslangan bo‘lib, mavsumiy konsentratsiyani tarmoq uchun statik moliyaviy muammo deb baholardi. Bar-Onning ikki guruhli tasnifi - tabiiy va institutsional mavsumiylik - daromad pasayishining ikki mustaqil sababini ajratdi, ammo bandlik bozori va kapital sig‘imi muammolarini tizimli ravishda ko‘rib chiqmadi.

Ikkinchi bosqich (1990-yillar) - bandlik va kapital sig‘imi muammolari. R. W. Butler 1994-yildagi tadqiqotida iqtisodiy oqibatlar tahlilini sezilarli darajada chuqurlashtirib, mavsumiy tebranishlarning ikki muhim oqibatini tizimli ravishda

[21] Adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi

muhokama qildi: birinchidan, mavsumiy bandlikning siklik xarakteri va undan kelib chiqadigan mehnat resurslarining samarasiz taqsimlanishi; ikkinchidan, turistik infratuzilmaning past mavsumda yetarli ishlatilmasligi va shu sababli kapitalga investitsiyalar samaradorligining pasayishi [2]. Butler shu bilan birga mavsumiylikni nafaqat talab tomonida, balki taklif tomonidagi ko‘rsatkichlar (mehnat bandligi, kapital sig‘imi) orqali ham o‘lchash zarurligini asosladi. Bu yondashuv mavsumiylik iqtisodiy oqibatlari haqidagi qarashlarni statik daromad tushunchasidan dinamik tarmoq tahliliga o‘tkazdi.

Uchinchi bosqich (2000-yillar) - mintaqaviy iqtisodiyot va investitsiyalardan to‘liq foydalanmasligi. T. Baum va S. Lundtorp 2001-yilda mavsumiylik iqtisodiy oqibatlarini mintaqaviy va makroiqtisodiy darajaga ko‘tarib chiqdilar [3]. Mualliflar mavsumiy konsentratsiyaning mintaqaviy iqtisodiyot uchun strukturaviy ojizlik manbai ekanligini va investitsiyalarning mavsumiy talab egri chizig‘iga moslashtirilishi natijasida vujudga keladigan kompleks dilemmani tahlil qildilar: investitsiyalar cho‘qqi mavsumga moslashtirilsa - past mavsumda ortiqcha sig‘im hosil bo‘ladi; o‘rtacha talabga moslashtirilsa – cho‘qqi mavsumda sig‘im yetishmaydi. Bu nazariy yondashuv mavsumiylikni mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining markaziy muammosi sifatida tan oldi.

To‘rtinchi bosqich (2000-yillar o‘rtasi) - Push-Pull omillar va mehnat bozori siklik xarakteri. N. Koenig-Lewis va E. E. Bischoff 2005-yildagi keng qamrovli adabiyotlar sharhida turizm motivatsiyasi nazariyasidagi “Push va Pull” omillar paradigmasini mavsumiylik kontekstiga tatbiq qilib, mavsumiylik iqtisodiy oqibatlarini turistlarni jo‘natuvchi va qabul qiluvchi mintaqalardagi ikki tomonlama iqtisodiy ta’sir nuqtai nazaridan tahlil qildilar [4]. Bu yondashuv mehnat bozorining siklik xarakterini chuqurroq ochib berdi: mavsumiy ish o‘rinlari past mavsumda yo‘q bo‘lib, kvalifikatsiyalashgan mutaxassislarning sektordan boshqa sohalarga o‘tib ketishi va xizmat ko‘rsatish sifatining pasayishi muammolarini keltirib chiqaradi. Iqtisodiy oqibatlar konseptsiyasi shu davrda makroiqtisodiy va mintaqaviy darajadan mehnat bozori va inson kapitali masalalariga kengaydi.

Beshinchi bosqich (2010-yillar) - texnologik omillar va raqamli iqtisodiyot ta’siri. G. Corluka 2019-yildagi tadqiqotida 50 yillik ilmiy adabiyotni tizimlashtirib, texnologik omillarni mustaqil guruh sifatida tasnifga kiritish zarurligini asoslab berdi [5]. Bu konseptual qadam mavsumiylik iqtisodiy oqibatlari haqidagi qarashlarda yangi qatlamning tan olinishini ko‘rsatadi: raqamli platformalarning mavsumiy talab tarkibiga ta’siri, real vaqtdagi narx tebranishlarining mahalliy bizneslar daromad bashoratlash imkoniyatiga ta’siri, hamda texnologik infratuzilmaga investitsiyalarning mavsumiy samaradorligi muammolari. Texnologik kapital - bronlash tizimlari, raqamli marketing infratuzilmasi - ham mavsumiy ineffektivlik muammosiga uchraydi: cho‘qqi mavsumga moslashtirilgan tizim past mavsumda yetarli foyda keltirmaydi.

Oltinchi bosqich (2020-yillardan keyin) - tizimiy xavf va iqtisodiy diversifikatsiya zaruriyati. COVID-19 pandemiyasi turizm mavsumiyligi iqtisodiy oqibatlari haqidagi qarashlarni yangi darajaga ko‘tardi: mavsumiy konsentratsiya nafaqat ichki muammo, balki tashqi muammolarga (pandemiya, geosiyosiy beqarorlik, iqlim o‘zgarishi) qarshi tizimiy kamchilik ekanligi tan olindi [6].

Zamonaviy yondashuvlar mavsumiylikni iqtisodiy diversifikatsiya muammosi sifatida talqin qiladi: turizmga haddan tashqari bog‘liq mintaqalar tashqi shokllar oldida zaif bo‘lib qoladi va mahalliy iqtisodiyotning barqarorligi mavsumiy tebranishlarni yumshatish va sektorlar diversifikatsiyasi orqali ta’minlanadi. Bu nazariy bosqich iqtisodiy oqibatlar tushunchasini eng kompleks shaklga keltiradi.

1-jadval

Mavsumiylik iqtisodiy oqibatlari konsepsiyasining evolyutsiyasi

Bosqich	Asosiy nazariyotchi	Aniqlangan iqtisodiy oqibat	Tahlil darajasi
1970-y.	*Bar-On (1975)*	Past mavsumda daromad pasayishi	Mikroiqtisodiy
1990-y.	*Butler (1994)*	Bandlik nostabilligi + kapital sig‘imi samarasidan to‘liq foydalanilmasligi	Tarmoq darajasi
2000-y.	*Baum-Lundtorp (2001)*	Mintaqaviy iqtisodiy kamchilik + investitsiya dilemmalari	Mintaqaviy
2005-y.	*Koenig-Lewis & Bischoff*	Mehnat bozori siklik xarakteri + inson kapitali yo‘qotilishi	Mehnat bozori
2010-y.	*Corluka (2019)*	Texnologik omillarning mustaqil guruh sifatida tan olinishi	Raqamli iqtisodiyot
2020-y.+	*Post-COVID yondashuvlar*	Tizimiy xavf + iqtisodiy diversifikatsiya zaruriyati	Makroiqtisodiy

Yuqorida bayon etilgan tahlildan kelib chiqib quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, turizm mavsumiyligi iqtisodiy oqibatlari haqidagi nazariy qarashlar Bar-Onning sodda “daromad pasayishi” tushunchasidan zamonaviy “tizimiy iqtisodiy xavf” konseptsiyasigacha bo‘lgan murakkab evolyutsion yo‘lni bosib o‘tgan va har bir nazariy bosqich oldingisini bekor qilmaydi, balki uni kengaytiradi. Ikkinchidan, har bir bosqich konsentratsion iqtisodiy oqibatlarning yangi darajasini ochib bergan: mikroiqtisodiy → tarmoq → mintaqaviy → mehnat bozori → raqamli iqtisodiyot → makroiqtisodiy darajalar. Uchinchidan, zamonaviy iqtisodiy nazariya turizm mavsumiyligini izolyatsiyalashgan tarmoq muammosi emas, balki butun mintaqaviy iqtisodiyotning barqarorligi va diversifikatsiyasi bilan bog‘liq strategik masala sifatida talqin qiladi. Mazkur evolyutsion tahlil O‘zbekiston turizm sohasini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin: mavsumiylikni yumshatish nafaqat tarmoq daromadlarini barqarorlashtirish, balki mintaqaviy iqtisodiy diversifikatsiya va tashqi shokllarga qarshi himoya vositasi sifatida ham ko‘rib chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BarOn R. R. V. Seasonality in Tourism: a guide to analysis of seasonality. Technical Paper n. 2 //Economist Intelligence Unit. – 1975.

2. Butler R. Seasonality in Tourism. Issues and Problems. Teoksessa: Tourism. The State of Art, toim. A. Seaton, 332--339. – 1994.

3. Baum T., Lundtorp S. (ed.). Seasonality in tourism. – Elsevier, 2001.

4. Koenig-Lewis N., Bischoff E. E. Seasonality research: The state of the art //International journal of tourism research. – 2005. – Т. 7. – №. 4-5. – С. 201-219.

5. Corluka G. Tourism seasonality–an overview //Journal of business

paradigms. – 2019. – Т. 4. – №. 1. – С. 21-43.

6. Sigala M. Tourism and COVID-19: Impacts and implications for advancing and resetting industry and research //Journal of business research. – 2020. – Т. 117. – С. 312-321.

Бисмиллаҳир Роҳмонир Роҳийм

БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ ШАРОИТИДА ИҚТИСОДИЙ НАЗАРИЯ ВА ИСЛОМИЙ МОЛИЯНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ УЙҒУНЛИГИ

Мирзаев Шакир Арипович
иқтисод фанлари номзоди (PhD), доцент, “TIIAME” Миллий тадқиқотлар университети.
e-mail: sh_mirzayev@tiiame.uz

1. Долзарблиги.

Жаҳон иқтисодиётида кечаётган чуқур ўзгаришлар амалда қўлланилаётган иқтисодий ёндашувларни танқидий қайта кўриб чиқишни тақозо этмоқда. Экологик муаммоларнинг кескинлашуви, ижтимоий табақаланишнинг ортиши ҳамда молиявий беқарорлик ҳолатларининг даврий равишда такрорланиши неоклассик иқтисодий парадигманинг имкониятлари чекланганлигини кўрсатмоқда. Ушбу ёндашувда иқтисодий қарорлар асосан фойдани максималлаштириш тамойилига таянади, бу эса ташқи таъсирлар ва узоқ муддатли ижтимоий оқибатларни етарлича ҳисобга олмасликка олиб келади. Шу сабабли у барқарор ривожланиш ва ESG тамойиллари билан тўлиқ уйғунлаша олмайди.

Иқтисодий назарияда анъанавий равишда муҳокама қилинадиган муҳим масалалардан бири — меҳнат ва капитал ўртасидаги муносабатлардир. Классик ва айрим замонавий қарашларда бу муносабатлар манфаатлар қарама-қаршилиги сифатида талқин қилинади: капитал фойдани оширишга интилса, меҳнат ўз даромадини кўпайтиришга ҳаракат қилади. Бундай қарама-қаршилик иқтисодий тизимда муайян номутаносибликларни келтириб чиқаради ва ижтимоий барқарорликка салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Исломий молия мазкур масалага нисбатан бошқача ёндашувни таклиф этади. Унда молиявий муносабатлар фоизга асосланган қарз схемалари орқали эмас, балки шериклик тамойилига асосланган ҳолда шаклланади. Мудараба ва мушарака каби механизмлар меҳнат ва капитал ўртасидаги муносабатларни “қарздор–кредитор” модели доирасидан чиқариб, уларни ўзаро манфаатдор шериклар муносабатига айлантиради. Бу ҳолатда даромад ҳам, эҳтимолий зарар ҳам иштирокчилар ўртасида тақсимланади.

Шу тарзда рискларнинг бир томонлама юкланишига барҳам берилиб, манфаатлар муайян даражада мувофиқлашади. Натижада иқтисодий муносабатларда адолат тамойили мустаҳкамланади. Шу жиҳатдан, исломий молияни нафақат молиявий инструментлар мажмуаси, балки ижтимоий барқарорликни қўллаб-қувватловчи институционал механизм сифатида баҳолаш мумкин [1; 2].

Шу билан бирга, исломий иқтисодий ёндашувларнинг замонавий

иқтисодий назария доирасида етарлича акс этмагани барқарор ривожланишга оид яхлит назарий модел шаклланишини чеклаб келмоқда. Ўзбекистон шароитида эса бу масала янада долзарб бўлиб, иқтисодий таълим мазмунини қайта кўриб чиқишни талаб этади.

2. Тадқиқот мақсади

Мазкур тадқиқотнинг мақсади — исломий молия тамойилларини замонавий иқтисодий назария билан уйғунлаштириш орқали барқарор ривожланишга хизмат қилувчи ва иқтисодий зиддиятларни, айниқса меҳнат ва капитал ўртасидаги номутаносибликларни юмшатиш имконини берадиган концептуал ёндашувни асослашдан иборат.

3. Тадқиқот усуллари

Тадқиқотда қиёсий таҳлил, тизимли ёндашув ва назарий умумлаштириш усулларидан фойдаланилди. Неоклассик иқтисодиётнинг асосий қоидалари ислом иқтисодиётидаги чекловлар ва тамойиллар билан таққосланди.

Шу билан бирга, меҳнат ва капитал ўртасидаги муносабатлар турли назарий мактаблар нуқтаи назаридан кўриб чиқилиб, уларнинг исломий молия механизмлари орқали қандай трансформация қилиниши таҳлил қилинди.

Эмпирик тадқиқотлар асосида молиявий инқирозлар даврида исломий ва анъанавий банк тизимларининг барқарорлиги таққосланди [3; 4].

4. Асосий натижалар

Тадқиқот натижалари исломий молияда фоиз муносабатларининг чекланиши иқтисодиётда ортиқча қарз юки шаклланишининг олдини олишини кўрсатди. Бу эса молиявий барқарорликни мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Шу билан бирга, шерикликка асосланган молиялаштириш механизмлари меҳнат ва капитал ўртасидаги муносабатларни мувозанатлаштиришга ёрдам беради. Даромад ва рискларнинг биргаликда тақсимланиши иқтисодий манфаатларнинг уйғунлашувига олиб келади. Бу ҳолат айниқса инқироз шароитида муҳим аҳамият касб этади [5].

Бундан ташқари, исломий молия инструментлари узоқ муддатли инвестицияларни, жумладан, экологик йўналишдаги (“яшил”) лойиҳаларни молиялаштириш учун қулай шарт-шароит яратади [6].

5. Илмий янгилик ва амалий аҳамият

Тадқиқот доирасида иқтисодий самарадорликка нисбатан кенгроқ ёндашув — “ахлоқий самарадорлик” тушунчаси асосланди. У иқтисодий натижаларни баҳолашда молиявий кўрсаткичлар билан бир қаторда уларнинг ижтимоий ва экологик таъсирини ҳам инобатга олишни назарда тутади.

Шу нуқтаи назардан, исломий молия иқтисодиётда муайян барқарорлаштирувчи функцияни бажаради. Рискларни тақсимлаш орқали у иқтисодий цикллар таъсирини юмшатишга хизмат қилади.

Амалий жиҳатдан, мазкур ёндашув исломий молия инфратузилмасини ривожлантириш, шунингдек, ҳуқуқий ва институционал механизмларни такомиллаштириш жараёнларида қўлланилиши мумкин.

6. Хулоса ва тавсиялар

Олиб борилган таҳлиллар исломий молия ва иқтисодий назария

ўртасидаги уйғунлик барқарор ривожланишга эришишда муҳим аҳамиятга эга эканлигини кўрсатди. Айниқса, меҳнат ва капитал ўртасидаги зиддиятларни юмшатишда шерикликка асосланган молиявий механизмлар самарали восита бўлиб хизмат қилади.

Келгусида ушбу йўналишда эмпирик тадқиқотларни кенгайтириш, шунингдек, исломий молия самарадорлигини ESG мезонлари асосида баҳолаш усулларини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ.

Ўзбекистон шароитида эса иқтисодий таълим мазмунига исломий молия элементларини киритиш, илмий тадқиқотларни қўллаб-қувватлаш ва соҳадаги институционал ислоҳотларни чуқурлаштириш муҳим аҳамият касб этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

[1] Chapra M.U. The Islamic Vision of Development in the Light of Maqasid al-Shari‘ah. – Jeddah: Islamic Research and Training Institute (IRTI), 2008. – 78 p.

[2] Ahmed H. Islamic Finance and the Sustainable Development Goals: Contribution and Challenges. – Jeddah: UNDP & IRTI, 2019. – 112 p.

[3] Beck T., Demirgüç-Kunt A., Merrouche O. Islamic vs. conventional banking: Business model, efficiency and stability // Journal of Banking & Finance. – 2013. – Vol. 37, No. 2. – P. 433-447.

[4] Abedifar P., Molyneux P., Tarazi A. Risk in Islamic banking // Review of Finance. – 2013. – Vol. 17, No. 6. – P. 2035-2096.

[5] Ismail A.G., Tarique K.M. Financial stability of Islamic banks during COVID-19: A comparative study // ISRA International Journal of Islamic Finance. – 2020. – Vol. 12, No. 3. – P. 299-316.

[6] Islamic Development Bank (IsDB), IRTI. Green Sukuk: Market Development and Trends Report 2023. – Jeddah: IsDB, 2023. – 95 p.

[7] Obaidullah M. Managing Climate Change through Islamic Finance. – Jeddah: IRTI Policy Paper, 2018. – 45 p.

МУЛК КАПИТАЛЛАШУВИ ЖАРАЁНИДА ИҚТИСОДИЙ ЦИКЛЛАРНИ АНИҚЛАШ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Норбоев Одил Абраевич

Тошкент давлат иқтисодиёт университети доценти

Аннотация. Тадқиқотимизда мулк капиталлашуви жараёнида иқтисодий циклларни аниқлаш методологияси кейнс ва неоклассиклар мактаблари вакилларининг ёндашувлари ҳамда назариялар бўйича гуруҳлаш воситасида таҳлил қилинди. Шунингдек, реал бизнес цикллари назарияси, циклнинг психологик назариялари, узун тўлқинлар назариялари кўриб чиқилади. Мулк капиталлашуви жараёнида сўнгида тадқиқот натижасида олинган хулосалар баён этилган.

Калит сўзлар: *иқтисодий цикллар, кейнс мактаби, неоклассик мактаб, бизнес цикллари, узун тўлқинлар, иқтисодий агентларнинг кутишлари*

Кириш

Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви ва халқаро иқтисодий интеграциянинг тобора кучайиб бориши циклик тебранишларнинг олдиндан

аниқлаш ва уларни диагностика қилишни асосий иқтисодий муаммолар қаторида бўлишини талаб қилмоқда. Цикларни тўлақонли тадқиқ этиш бундан деярли бир аср олдин содир бўлган Буюк декпрессия инқирозидан кейин иқтисодчи олимларнинг эътибор марказида бўлиб қелмоқда. Шундай бўлишига қарамасдан вақт ўтиши билан цикларни аниқлаш методологиясига янги инструмент ва механизмлар кириб келмоқда. Мақолада иқтисодий цикларни аниқлаш методологияси, унга ёндашувлар, мавжуд методологияларни бир-биридан фарқи ва ўхшаш томонлари таҳлил қилинади.

Адабиётлар шарҳи

Бугунги кунгача иқтисодиёт назариясида иқтисодиётнинг циклик ривожланишини моделлаштириш ва "таниб олиш" нинг бир нечта асосий йўналишлари шакллантирилган. Улардан бири, биринчи навбатда, иқтисодий агентларнинг бозорлардаги нархларни ўзгартиришга мослашувини моделлаштириш механизми орқали циклик ривожланиш моҳиятини очиб берадиган анъанавий назарияларни ўз ичига олади. Бу ерда асосий мактаблар кейнсчилар ва неоклассиклардан иборатдир. Агар Кейнс йўналиши вакиллари нархларнинг мослашувчанлигини циклик тебранишларнинг биринчи поғонасига қўйган бўлса, неоклассиклар вакиллари бу жараённи Вальрас қонуни призмаси орқали ўрганишган [1], бу бозорларда пайдо бўлаётган мувозанатга нархларни мослаштиришда ифодаланади.

Самуэльсон-Хикснинг иқтисодиётнинг циклик ривожланиш модели [2] одатда иқтисодий агентларнинг (уй хўжаликлари ва фирмаларнинг) нархлар ва фоиз ставкалари бўйича статистик тахминларга асосланган Кейнс моделидир. Шу билан бирга, унинг муҳим хусусияти шундаки, модель фақат товарлар бозорини кўриб чиқади.


Ушбу моделда миллий даромадлар динамикаси фақат иқтисодий агентларнинг хатти-ҳаракатлари натижасида уй хўжаликлари ва фирмаларнинг ишбилармонлик фаоллигини истеъмол қилишга бўлган маржинал мойилликнинг ҳозирги (ривожланаётган) даражаси натижасида, капиталнинг ортиши акселератор қийматларини ўзгартириш орқали шакллантирилади. Ишбилармонлик ҳамжамияти ёки уй хўжалиги истеъмоли томонидан хусусий инвестициялар ҳажми ўзгариши билан ялпи талабнинг қиймати ва миллий даромад ўзгаради. Шу билан бирга, иқтисодий агентлар томонидан талабнинг ўзгариш механизми ҳам ижобий, ҳам салбий таъсир кўрсатадиган мультипликатор ва акселераторнинг макроиқтисодий таъсири натижасида шаклланади.

Иқтисодий цикллар назариясининг Кейнс йўналиши доирасида С. Фишернинг номукаммал рақобат модели, Калдор модели ва Товесс моделларини алоҳида ажратиб кўрсатиш мақсадга мувофиқдир [3].

Таҳлиллар ва натижалар

Калдор моделида, шунингдек Самуэльсон-Хикс моделида ўрганиш объекти экзоген омиллар таъсирида бўлган товарлар бозори – тежаш ва инвестицияларни шакллантириш жараёнлари ҳисобланади. Шу билан бирга, моделдаги асосий тахмин шундаки, бу омиллар даромаднинг функциялари бўлиб, улар чизиқли бўлмаган (логистик) қарамлик билан ифодаланади. Кўриб

чиқилаётган омилларнинг синусоидал тебранишлари товарлар бозоридаги мувозанат ҳолатидан тегишли оғишларни ва шунга мос равишда циклик ривожланишни ташкил этувчи иқтисодий тизимнинг умумий мувозанатининг бузилишини келтириб чиқаради (1.1-расм).



1.1-расм. Калдор модели

Калдорга кўра, иқтисодий вазиятнинг ўзгариши натижасида тежаш ва инвестициялар циклик тебранишларга дучор бўлиши керак (кўтарилиш шароитида инвестицияларга бўлган талаб даромаднинг ўзгаришига эластикликнинг юқори қийматларини олади (кўтарилиш пайтида ишлаб чиқариш қувватининг пайдо бўлиши натижасида) ва аксинча, пасайиш шароитида ишлаб чиқариш қувватининг сезиларли даражада пасайиши кузатилади, натижада инвестициялар даромаднинг ўзгаришига нисбатан сезиларли даражада камаяди).

Т. Тевеснинг моделида [3], Самуэльсон-Хикс ва Калдор моделларидан фарқли ўлароқ, тадқиқот объекти товарлар бозори билан чекланмайди ва пул бозори билан тўлдирилади, шу билан бирга иқтисодий тизимдаги инвестиция фаолиятини тавсифловчи ва унинг барқарорлигини белгиловчи омил ҳам моделга киритилади. Унинг ўзгариши Марказий банкнинг пул миқдорини тартибга солиш бўйича амалга ошираётган бозор сиёсати натижасида истеъмолга маржинал мойиллик қийматларининг ўзгариши билан бирга иқтисодиётга инвестиция киритиш ҳажмининг ўзгаришига олиб келади. Натижада, Т. Тевеснинг фикрига кўра, миллий даромад тенденцияларида ўзгаришлар содир бўлади. Бундан ташқари, Марказий банк иқтисодиётдаги пул миқдорини тартибга солиш механизмидан фойдаланиб, шу билан инвестицион фаолият жараёнларини белгилаб, иқтисодий цикларнинг шаклланиш динамикасини уларни юмшатиб ёки аксинча тезлаштириб тартибга солишга қодир.

Р. Гудвин модели иқтисодиётнинг циклик ривожланиш омилларини аниқлаш масаласида неоклассик қарашлар доирасини кенгайтирди [4]. Унда муаллиф циклнинг фазавий силжишларининг асосий генератори ўсиш ёки аксинча, бандлик даражасининг пасайиши эканлигини исботлаб беради. Ушбу силжишлар яратилган миллий маҳсулотда иш ҳақи жамғармасининг улушини

(иш билан таъминланганлар сони кўпайган тақдирда) оширади, бу эса ўз навбатида инвестиция фаоллигининг пасайиши туфайли бандлик ўсишини секинлаштиради. Шу билан бирга, муаллифнинг сўзларига кўра, бу жараён эллиптик бўлиб, натижада иқтисодий цикларнинг мунтазам фазалари ўзгариб туради.

Иқтисодиётнинг циклик ривожланишига неоклассик ёндашувларнинг ривожлантирилиши С.Нельсон ва Ч.Плоссер тадқиқотлари билан боғлиқдир [5]. Унда муаллифлар ялпи ички маҳсулотни шакллантиришдаги циклик тенденцияларни очиб берадиган эмпирик маълумотларни статистик қайта ишлаш асосида иқтисодиётдаги циклик тебранишлар талабнинг ўзгариши билан эмас, балки таклифни корректировка қилиш натижасида юзага келади деган хулосага келишади. Циклик тебранишлар пайдо бўлишининг энг муҳим таркибий қисми ишлаб чиқаришда ўзгаришларни келтириб чиқарадиган технологик инновациялардир.

2004 йилда Ф. Прескотт ва Э. Кидланд "Ҳақиқий бизнес цикллари" назариясини шакллантирдилар, унинг асослари 1970-1980 йилларда Кейнснинг дастлабки назариясини танқид қилиш натижасида пайдо бўлади. Унда муаллифлар кейнсчиларнинг асосий ғояларини, хусусан, иқтисодий агентларнинг оптимал хатти-ҳаракатлари моделини қўллаш имкониятини истисно қилган бизнес цикллари назариясини жиддий танқид қилишди. Ўзларининг илмий ишларида Ф. Прескотт ва Э. Кидланд [6] динамик усуллар ва таҳлил моделларидан фойдаланиб, ҳақиқий бизнес цикллари иқтисодиёт субъектларининг оқилона кутишлар остида мақбул хатти-ҳаракатларининг натижаси эканлигини исботлайдилар. Уларнинг назарияси жуда оддий ғояларларга асосланган. Яъни, фирмалар даромадларни максималлаштириш, операцион ва ишлаб чиқариш фаолияти ҳажмини ошириш ёки, аксинча, қисқартириш тўғрисида қарор қабул қилиш тамойилига асосланиб, ўз ривожланиш стратегиясини белгилайдилар. Бундан ташқари, бизнес жараёнларини фаоллаштириш бўйича бошқарув қарорларини ишлаб чиқиш жараёни меҳнат унумдорлиги кўрсаткичларининг ўзгаришини олдиндан белгилайдиган технологияларни ишлаб чиқиш бўйича кутишларга мос келади. Уй хўжаликларининг хатти-ҳаракатлари моделида муаллифлар бир хил оптималлаштириш принципига асосланиб, аслида доимий даромад назариясига таянадилар (масалан, М. Фридман [7], Ф. Модильяни ва Р. Брумберг [8] асарларида тақдим этилган ҳаётий цикл назарияси). Ҳақиқий (реал) бизнес цикллари асосчилари – Ф. Прескотт ва Э. Кидланднинг асосий хулосаси шундан иборатки, бизнес цикллари меҳнат унумдорлигининг ўзгариши (технологик ўзгаришлар туфайли), шунингдек, иқтисодиётда инвестицион фаолиятни белгилайдиган ташқи бозор омиллари натижасида ўзгариб турадиган иқтисодий агентларнинг (фирмалар ва уй хўжаликларининг) вақти-вақти билан ўзгариб турадиган кутишлари натижасидир. Шу билан бирга, улар ўзларининг барча тахминларини мувозанатли иқтисодиёт назарияси орқали исботлайдилар ва шу билан миллий иқтисодиётни тартибга солиш ва ривожлантиришга давлат аралашуви зарурлиги ҳақидаги Кейнс ғояларини рад этдилар.

Умуман олганда, иқтисодий цикларни талқин қилишнинг анъанавий ёндашувлари иқтисодий агентларнинг пайдо бўлган умидлари учун асосий йўналишни белгилайдиган тизимни ҳосил қилувчи макроиқтисодий омилларни моделлаштиришга асосланганлигини таъкидлаш керак. Шу билан бирга, Кейнс ва неоклассик ёндашувлар ўртасидаги асосий фарқ бу тахминларнинг талқинини моделлаштиришда ётади, бир томондан, Кейнс назариясига кўра, рационал эмас, бошқа томондан, неоклассикларнинг қарашларига асосланган ҳолда, жуда рационалдир. Масалан, 1995 йилги Нобел мукофоти лауреати Р.Лукас ўз ёзувларида Кейнс цикллари назариясини жиддий танқид қилиб, уни иқтисодий агентлар ўта рационал ва оптималлаштириш тамойиллари бўйича ҳаракат қилишлари билан оқлади [9].

Кейнсчилар ва неоклассиклар вакиллари ўртасидаги қарашларнинг фарқланишига қарамай, биринчи навбатда, иқтисодиётнинг циклик ривожланишини моделлаштириш парадигмасини аниқлайдиган иқтисодий агентларнинг кутишларини талқин қилишда, ушбу цикларнинг макроиқтисодий генерация омиллари тизими билан бирлаштирилган. Бунга фоиз ставкалари, пул таклифи, бандлик, ташқи бозор омиллари ва бошқалар киради (1.3-жадвал).

1.3-жадвал

Иқтисодий цикларни фазавий ўзгаришларни келтириб чиқарувчи омилларни талқин қилишга асосий ёндашувлар

Назария	Иқтисодиёт циклик ривожланишининг асосий омиллари
Иқтисодий цикларнинг кейнс назарияси	
Самуэльсон-Хикс модели	Нархлар ва фоиз ставкаларининг тебраниши. Бу иқтисодий агентлар томонидан талабнинг ўзгариши механизмлари ҳам ижобий, ҳам салбий таъсир кўрсатадиган мультипликатор ва акселераторнинг макроиқтисодий таъсири натижасида шаклланади.
Калдор модели	Ночизиқли (логистик) қарамлик билан ифодаланган даромад функцияси бўлган омонат ва инвестициялар.
Тевес модели	Иқтисодиётга инвестициялар ҳажмининг ўзгаришига ҳисса қўшадиган пул бозорининг конъюнктив ривожланиши.
Фишернинг номукаммал рақобат модели	Давлатнинг ички пул-кредит сиёсати ёки кутилмаган ички конъюнктур силжишлар.
Иқтисодий цикларнинг неоклассик назарияси	
Фридман модели	Сиёсий тизимдаги ўзгаришлар натижасида пул таклифининг ўзгариши.
Хаутри модели	Банк тизими томонидан иқтисодиётнинг реал секторига кредит беришнинг ўсиши(пасайиши) фонида фоиз ставкалари даражасида вақти-вақти билан ўзгаришлар натижасида молиявий капитал бозорларида цикларнинг босқичма-босқич ўзгаришлари шаклланади.
Гудвин модели	Циклнинг фазавий силжишининг асосий генератори – бу бандлик даражасининг ўсиши ёки аксинча пасайиши.
Ч. Нельсон ва Ч. Плоссер тадқиқоти	Циклик тебранишлар пайдо бўлишининг энг муҳим таркибий қисми маҳсулот ишлаб чиқаришда ўзгаришларни келтириб чиқарадиган технологик инновациялардир.

Ф. Прескотт ва Э. Кидланд тадқиқоти	Бизнес цикллари – бу меҳнат унумдорлигининг ўзгариши (технологик ўзгаришлар туфайли), шунингдек, иқтисодиётдаги инвестицион фаолликни олдиндан белгилаб берувчи ташқи бозор омиллари натижасида ўзгарган иқтисодий агентларнинг (фирмалар ва уй хўжаликларининг) вақти-вақти билан ўзгариб турадиган кутишлари натижасидир.

Иқтисодий цикллар назариясининг ривожланишидаги муҳим босқич "Циклнинг психологик назариялари" деб номланган йўналиш бўлди. Унинг асосчиларидан бири В.Жевонс ва В.Парето ҳисобланади [10]. Уларнинг ёндашуви иқтисодиётдаги циклик тебранишларнинг асосий омили хўжалик юритувчи субъектларнинг спекулятив мотивлари, яъни товар ва молия бозорларидаги нархлар конъюнктурасининг ўзгаришига оид кутишлар асосида шаклланган мотивлар деган гипотезага асосланади. Назария муаллифлари иқтисодиётнинг тушкунлик ҳолатидан чиқиш йўлини фоиз ставкасини пасайтириш ва оптимистик кайфиятни жонлантиришда деб билишади.

Юқорида келтириб ўтилган илмий ёндашувлар ва тушунчалар иқтисодий цикллар назариясининг тўлиқ қамраб олмайди, лекин улар иқтисодий цикларнинг асосни шакллантирувчи йўналишлардир. Шуни таъкидлаш керакки, уларнинг барчаси, аслида, циклик ривожланишнинг концептуал ёндашувларини аниқлашда иқтисодий агентларнинг умидларига таянади. Бу таҳлил қилинган назарияларни бошқача тарзда ҳам гуруҳлаш мумкин (1.4-жадвал).

1.4-жадвал

Иқтисодий цикллар тўғрисидаги назарияларнинг туркумланиши [12]

№	Назариялар	Мазмуни
1.	Соф монетар назария	Бу назария тарафдорларининг фикрича бозор иқтисодиётида асосий ўринни пул ва кредит эгаллайди. Иқтисодиётнинг циклли ўзгариши энг аввало пул массаси оқимининг ўзгаришига боғлиқ бўлади.
2.	Номонетар назария	Бу назария тарафдорлари технологик ўзгаришлар, янгиликлар, ихтироларнинг аҳамиятини алоҳида таъкидлаб, буларнинг пул жамғаришнинг кўпайиб кетишидаги ролини кўрсатишади.
3.	Етарлича истеъмол қилмаслик назарияси	Бу назариянинг моҳияти кўпроқ жамғариб, самарали даражада истеъмол қилмаслик жамиятнинг циклли ривожланишига сабаб қилиб кўрсатилади.
4.	Жамғариш назарияси	Бу назарияга кўра иқтисодий цикл ишлаб чиқариш воситалари ёки капиталлашган инвестицион товарлар ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлади.
5.	Психологик назария	Инсондаги оптимизм ва пессимизм фаолият активлигига объектив иқтисодий омиллар: фоиз меъёри, пул оқими, фойда ва бошқалар таъсир кўрсатиб, бунинг натижасида ишлаб чиқаришнинг кўпайиши ёки кенгайиши рўй беради.

Шу нуқтаи назардан, илмий-тадқиқот муассасаларида илмий-тадқиқот

ишлари олиб борилмоқда. Уларнинг фикрига кўра, миллий иқтисодий тизимларнинг циклик ривожланишидаги асосий омиллар институционал даражадаги омиллардир. Иқтисодий тараққиёт траекториясининг ҳар бир ҳолати иқтисодий мувозанатга эришишнинг статистик муаммосини ҳал қилиш билан эмас, балки тегишли иқтисодий муҳит шароитида ишлайдиган иқтисодий субъектларнинг эволюциясининг бутун тарихи билан белгиланади [13].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Журавлева Г. П. Экономическая теория. Микроэкономика-1, 2 [Электронный ресурс] / Г. П. Журавлева [и др.]. – Электрон. Текстовые данные. – М.: Дашков и К, 2014.— 934 c.
2. Самуэльсон П. Экономика. – М., 1964.
3. Салихов Б. В. Экономическая теория [Электронный ресурс]: – Электрон. Текстовые данные. – М.: Дашков и К, 2014. – 724 c.
4. Goodwin R. Growth cycle // Socialism, Capitalism, and Economic Growth, Cambridge, 1967.p. 54-58
5. Nelson Charles R., Plosser Charles I. Trends and Random Walks in Macro-economic Time Series: Some Evidence and Implications // Journal of Monetary Economics. 1982. Vol.10.
6. Kydland, Finn and Edward Prescott, “Time to Build and Aggregate Fluctuations,” Econometrica 50, November 1982, 1345-1370; Prescott, Edward, “Theory Ahead of Business-Cycle Measurement,” Carnegie-Rochester Series on Public Policy 25, Autumn 1986, 11-44.
7. Friedman, Milton, A Theory of the Consumption Function (Princeton: Princeton University Press, 1957)
8. Modigliani, Franco and Richard Brumberg, “Utility Analysis and the Consumption Function: An Interpretation of Cross-Sectional Data,” in K.K.Kurihara, Post-Keynesian Economics, 388-436 (New Brunswick: Rutgers University Press, 1954)
9. Lucas, Robert E., “Econometric Policy Evaluation: A Critique,” Carnegie-Rochester Series on Public Policy 1 (1976)
10. Джевонс Уильям Стенли. Деньги и механизм обмена / Уильям Стенли Джевонс – Электрон. Текстовые данные. – Челябинск: Социум, 2005. – 188 c.
11. Пигу А. Экономическая теория благосостояния. В 2 т. Т. 1. – М., 1985. – 101 с.
12. Жаббаров К.Й. Иқтисодий инқирозларга қарши дастурлар самарадорлигини оширишнинг устувор йўналишлари. Монография. – Т.:”Kaleon Press”, 2021. 9-10 бетлар маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.
13. Глазьев С. Ю. Закономерности технико-экономического развития и их использование в управлении народным хозяйством: Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук.
14. Кондратьев Н. Д. Большие циклы конъюнктуры. – 1925.

15. Журавлева Г. П. Экономическая теория. Микроэкономика-1, 2 [Электронный ресурс] / Г. П. Журавлева [и др.]. – Электрон. Текстовые данные. – М.: Дашков и К, 2014.— 934 с.

16. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982. – 455 с.

17. Глазьев Сергей Юрьевич Современная теория длинных волн в развитии экономики // ЭНСР. 2012. №2 (57). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennaya-teoriya-dlinnyh-voln-v-razvitii-ekonomiki (дата обращения: 26.07.2024).

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ФИНТЕХА НА ЦЕНОВУЮ КОНКУРЕНЦИЮ В УЗБЕКИСТАНЕ

Гойибназарова Нозимахон Хамзаевна, ТГЭУ Независимый соискатель e-mail:[gn083@mail.ru]

В условиях ускоренного развития цифровых технологий и глобальной трансформации финансовых рынков цифровизация и финтех становятся ключевыми драйверами экономических изменений. В последние годы Республика Узбекистан активно реализует стратегию цифровой трансформации, направленную на развитие электронной коммерции, внедрение безналичных платежей и модернизацию финансовой инфраструктуры [1]. Эти процессы оказывают существенное влияние на функционирование рынков и формирование конкурентной среды, в том числе на механизмы ценовой конкуренции.

Цифровизация экономики способствует повышению прозрачности цен, снижению транзакционных издержек и расширению доступа участников рынка к информации. Финтех-компании, внедряя инновационные финансовые решения, такие как мобильные платежи, онлайн-кредитование и цифровые платформы, усиливают конкуренцию с традиционными финансовыми институтами. В результате изменяются подходы к ценообразованию: цены становятся более гибкими, адаптивными и ориентированными на потребителя [2].

В Узбекистане развитие финтеха сопровождается активной поддержкой со стороны государства, направленной на стимулирование инноваций и развитие конкурентной среды. Однако наряду с позитивными эффектами цифровизация создает и новые вызовы, связанные с концентрацией рыночной власти у крупных цифровых платформ, рисками недобросовестной конкуренции и необходимостью совершенствования антимонопольного регулирования [3].

Традиционно ценовая конкуренция строилась на снижении издержек производства и оптимизации бизнес-процессов. Однако с развитием цифровых технологий и финтех-инноваций меняется сама природа ценообразования. Цифровизация приводит к снижению транзакционных издержек, ускорению финансовых операций и расширению доступа к информации. Это, в свою очередь, делает рынок более прозрачным и усиливает конкуренцию между участниками.

Одним из ключевых факторов усиления ценовой конкуренции является развитие цифровых платежных систем. В Узбекистане широкое распространение получили такие сервисы, как мобильные платежи, онлайн-банкинг и электронные кошельки. Они позволяют пользователям быстро сравнивать цены, выбирать наиболее выгодные предложения и совершать покупки без значительных временных затрат. В результате предприятия вынуждены более гибко подходить к формированию цен, снижать стоимость товаров и услуг или предлагать дополнительные преимущества для привлечения клиентов.

Финтех-компании играют особую роль в трансформации ценовой конкуренции. Они создают альтернативу традиционным банкам, предлагая более доступные и дешевые финансовые услуги. Например, онлайн-кредитование, системы «покупай сейчас — плати потом» (BNPL), цифровые переводы и платежные платформы значительно снижают стоимость финансовых операций. Это усиливает конкуренцию в финансовом секторе и заставляет традиционные банки снижать комиссии и пересматривать свои тарифы [4].

Кроме того, развитие цифровых платформ и электронной коммерции оказывает значительное влияние на ценовую конкуренцию. Интернет-площадки позволяют мгновенно сравнивать цены различных продавцов, что повышает уровень конкуренции и снижает возможность установления завышенных цен. Более того, внедрение алгоритмического ценообразования позволяет компаниям оперативно реагировать на изменения спроса и предложения, что делает ценовую конкуренцию более динамичной [2].

Вместе с тем цифровизация и финтех создают не только возможности, но и определённые риски. Усиление роли крупных цифровых платформ может привести к концентрации рыночной власти и снижению конкуренции в долгосрочной перспективе. Кроме того, использование алгоритмов ценообразования может способствовать возникновению скрытых форм ценового сговора, что требует совершенствования антимонопольного регулирования [3].

Таблица 1.

Влияние цифровизации и финтеха на ценовую конкуренцию

Показатель	**Значение**	**Период**	**Экономический смысл**
Доля населения, использующего цифровые платежи	72%	2025	Высокая цифровизация платежей усиливает конкуренцию
Объем цифровых платежей (моб. приложения)	346 трлн сумов	2024	Рост почти в 3 раза за 3 года
Объем цифровых платежей ($)	6.3–6.9 млрд $	2024–2026	Увеличение оборота цифровых транзакций
Количество банковских карт	71 млн	2026	Удвоение по сравнению с 2023

Количество POS-терминалов	430 000	2026	Расширение инфраструктуры безналичных расчетов
Рост финтех-сектора	Быстрый рост	2024–2026	Расширение финтех-экосистемы
GMV финтех + e-commerce (Uzum)	$500 млн+	2025	Рост в 1.5 раза
Объем финтех-операций (Uzum)	$1.2 млрд	2025	Рост почти в 3 раза
Доля цифрового сектора в инвестициях (FDI)	5%	2003–2024	Пока ниже развитых стран

Статистика показывает, что в Узбекистане:

- цифровизация и финтех радикально усиливают ценовую конкуренцию;
- снижение транзакционных издержек позволяет компаниям предлагать более низкие цены;
- рост финтеха разрушает традиционные монополии и увеличивает выбор для потребителей;
- цифровые платформы формируют новую модель ценообразования (динамическую и алгоритмическую);
- однако потенциал роста остаётся высоким из-за ограниченных инвестиций в цифровой сектор.

Главный вывод в том, что цифровизация превращает ценовую конкуренцию из статического процесса в динамическую, технологически управляемую систему.

Для Узбекистана развитие цифровизации и финтеха имеет особое значение, поскольку страна находится на этапе формирования современной рыночной экономики. Государственная политика направлена на поддержку цифровых технологий, развитие безналичных расчетов и создание благоприятной среды для финтех-компаний. Это способствует повышению конкурентоспособности экономики и формированию эффективной ценовой конкуренции.

Таким образом, можно сделать вывод, что цифровизация и финтех оказывают комплексное влияние на ценовую конкуренцию в Узбекистане. С одной стороны, они способствуют снижению издержек, повышению прозрачности рынка и усилению конкуренции. С другой стороны, они требуют адаптации институциональной среды и совершенствования регулирования. В перспективе дальнейшее развитие цифровых технологий будет играть ключевую роль в формировании эффективной и устойчивой конкурентной среды.

Список использованной литературы:

1. Mastercard. Финтех в Узбекистане: аналитический отчет. – Ташкент, 2023. – 80 с.

2. Алиев У. М. Развитие финансовых технологий в условиях

цифровизации экономики в Узбекистане // Экономика и управление. – 2024. – № 3. – С. 45–52.

3. Солиев Г. Г. Развитие финтех-сектора и условия цифровизации экономики Узбекистана: тенденции, проблемы и перспективы // Yangi izlanishlar. – 2026. – № 2. – С. 25–30.

4. Ulmasov A. Цифровизация финансовой системы Узбекистана: риски, перспективы и государственная политика // Tadqiqotlar. – 2025. – № 2. – С. 360–365.

BANK KON’YUKTURASI VA NARX SIYOSATI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNING NAZARIY ASOSLARI

Sharipov Narzullo G‘ulomovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasining katta o‘qituvchisi, +998913126869, gavhar9369@gmail.com

Ibroximova Mushtariy Jamshid qizi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu tezisda bank kon’yunkturasi va narx siyosati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning nazariy asoslari tahlil qilingan. Bank tizimida kon’yunktura o‘zgarishlari moliyaviy barqarorlik foiz stavkalari va kredit siyosatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Narx siyosati esa bank mahsulotlari va xizmatlarining bozor qiymatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda klassik va zamonaviy iqtisodiy yondashuvlar asosida ushbu ikki omil o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritilgan. Shuningdek raqobat sharoitida banklarning narx belgilash strategiyalari va bozor kon’yunkturasiga moslashuv mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston bank tizimi misolida amaliy jihatlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida samarali narx siyosatini ishlab chiqish bo‘yicha xulosalar berilgan. Ushbu yo‘nalish banklarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi Kelgusida chuqur tadqiqotlar zarur hisoblanadi ham sohalarda.*

Kalit so‘zlar: *Bank kon’yunkturasi, narx siyosati, bank tizimi, moliyaviy bozor, foiz stavkasi, kredit siyosati, depozit siyosati, bank xizmatlari, bank mahsulotlari, narx shakllanishi, raqobat muhiti, bozor kon’yunkturasi, likvidlik, bank rentabelligi.*

Bank kon’yunkturasi va narx siyosati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik iqtisodiy tizimning eng muhim va murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bank kon’yunkturasi deganda moliya bozoridagi umumiy holat, kredit resurslari hajmi, foiz stavkalari darajasi, bank xizmatlariga bo‘lgan talab, pul oqimlari harakati va moliyaviy barqarorlik darajasi tushuniladi. Narx siyosati esa korxonalar, davlat va moliyaviy institutlar tomonidan mahsulot, xizmat yoki moliyaviy resurslar qiymatini belgilash va boshqarish jarayonini anglatadi. Ushbu ikki tushuncha o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, iqtisodiyotdagi umumiy muvozanat, inflyatsiya darajasi, investitsiya faolligi hamda aholining xarid qobiliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Bank tizimidagi o‘zgarishlar bevosita narx shakllanish jarayoniga ta’sir qiladi. Masalan, markaziy bank tomonidan foiz stavkalarining oshirilishi kredit resurslari narxining qimmatlashuviga olib keladi. Natijada ishlab chiqaruvchilar uchun moliyalashtirish xarajatlari ortadi va bu mahsulot tannarxining oshishiga sabab

bo‘ladi. Aksincha, foiz stavkalari pasaytirilsa, iqtisodiyotda kreditlash hajmi kengayadi, investitsiya faolligi ortadi va ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi narxlarning barqarorlashuviga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli bank kon’yunkturasi narx siyosatini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Narx siyosati ham o‘z navbatida bank tizimiga ta’sir qiladi. Inflyatsiya darajasining yuqoriligi banklarning foiz siyosati, kredit portfeli sifati va moliyaviy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Narxlarning keskin oshishi aholining real daromadlarini kamaytiradi, bu esa kreditlarni qaytarish imkoniyatiga salbiy ta’sir qiladi. Shu bilan birga, narxlar barqarorligi investitsion muhitni yaxshilaydi, bank tizimiga ishonchni oshiradi va moliyaviy resurslarning samarali aylanishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy nazariyalarda bank kon’yunkturasi va narx siyosati turli yondashuvlar asosida izohlangan. Klassik iqtisodiy maktab vakillari pul massasi va narxlar o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratgan bo‘lsa, keynschilik nazariyasi foiz stavkalari, investitsiyalar va yalpi talab orqali ushbu munosabatni tushuntiradi. Monetaristik yondashuv esa pul taklifining o‘zgarishi narxlar darajasi va iqtisodiy faollikning asosiy omili ekanligini asoslaydi. Zamonaviy institutsional yondashuvlar esa bank tizimi, davlat siyosati, moliyaviy bozorlar va xalqaro kapital oqimlarining narx shakllanishiga ta’sirini kompleks tarzda tahlil qiladi. Shu jihatdan bank kon’yunkturasi va narx siyosati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, inflyatsiyani boshqarish, investitsion muhitni yaxshilash hamda moliya bozorlarining samarali faoliyat yuritishini tashkil etishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bank kon’yunkturasi va narx siyosati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nazariyalarini quyidagi jadvalda batafsil yoritib beramiz (1-jadval):

1-jadval

Bank kon’yunkturasi va narx siyosati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nazariyalari[22]

№	Nazariya yoki yondashuv	Asosiy mazmuni	Bank kon’yunkturasiga ta’siri	Narx siyosatiga ta’siri	O‘zaro bog‘liqlik xususiyati
1	Klassik iqtisodiy nazariya	Bozor o‘zini o‘zi tartibga soladi, pul massasi narxlarga ta’sir qiladi	Banklar kredit va pul aylanishini muvozanatlashtiradi	Narxlar talab va taklif asosida shakllanadi	Pul massasi ortishi narxlar o‘sishiga olib keladi
2	Keynschilik nazariyasi	Foiz stavkalari investitsiya va talabga ta’sir qiladi	Kreditlash hajmi iqtisodiy faollikni belgilaydi	Talab ortishi narxlar o‘sishini kuchaytiradi	Bank siyosati yalpi talab orqali narxlarni boshqaradi
3	Monetaristik yondashuv	Pul taklifi iqtisodiyotning asosiy	Markaziy bank pul massasini nazorat qiladi	Inflyatsiya pul taklifining ortishi bilan	Pul-kredit siyosati narxlar barqarorligini

[22] Muallif tomonidan tayyorlangan

		boshqaruv vositasi		bog‘liq	belgilaydi
4	Institutsional nazariya	Moliyaviy institutlar iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi	Bank tizimi investitsiya muhitini shakllantiradi	Narxlar davlat va bozor institutlari orqali boshqariladi	Banklar va davlat siyosati narx mexanizmini muvofiqlashtiradi
5	Neoklassik yondashuv	Resurslar samarali taqsimlanishi iqtisodiy muvozanatni ta’minlaydi	Kredit resurslari iqtisodiy samaradorlikni oshiradi	Narxlarishlab chiqarish xarajatlari bilan belgilanadi	Foiz stavkalari xarajatlar va narxlar bilan bog‘liq
6	Inflyatsion nazariya	Narxlarning umumiyo‘sishi pul qadrsizlanishi bilan bog‘liq	Bank foiz stavkalari inflyatsiyaga moslashtiriladi	Inflyatsiya narx siyosatini o‘zgartiradi	Bank siyosati inflyatsiyani jilovlashga xizmat qiladi
7	Raqamli iqtisodiyot yondashuvi	Moliyaviy texnologiyalar bozor munosabatlarini o‘zgartiradi	Raqamli bank xizmatlari moliya oqimini tezlashtiradi	Elektron savdo narx shakllani-shiga ta’sir qiladi	Texnologik rivojlanish narx va bank xizmatlarini integratsiyalaydi
8	Globalizat-siya nazariyasi	Xalqaro kapital va savdo oqimlari iqtisodiyotni bog‘laydi	Xalqaro bank operatsiyalari kengayadi	Jahon bozori narxlarga ta’sir qiladi	Global moliya oqimlari ichki narx siyosatini o‘zgartiradi
9	Barqaror rivojlanish konsepsiyasi	Moliyaviy va iqtisodiy barqarorlik ustuvor hisoblanadi	Banklar yashil investitsiyalarni moliyalashtiradi	Ekologik standartlar narxlarni shakllantiradi	Moliyaviy barqarorlik uzoq muddatli narx muvozanatini yaratadi
10	Innovatsion iqtisodiyot nazariyasi	Innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy omili	Banklar innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlaydi	Yangi texnologiya-lar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi	Innovatsiyalar bank va narx siyosati samaradorligini oshiradi

Bank kon’yunkturasi va narx siyosati o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy tizimning barqaror faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bank tizimi iqtisodiyotdagi pul oqimlarini boshqaruvchi asosiy institut sifatida narx shakllanish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kredit resurslari hajmi, foiz stavkalari darajasi, investitsiya oqimlari va moliyaviy likvidlik narx siyosatining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli markaziy banklarning pul-kredit siyosati ko‘pincha inflyatsiyani boshqarish, narxlar barqarorligini ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga qaratiladi.

Klassik va neoklassik yondashuvlarda narxlar talab va taklif asosida

shakllanishi ta’kidlangan bo‘lsa, keynschilik nazariyasi iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishda bank tizimining faol rolini asoslab berdi. Bu nazariyaga ko‘ra, foiz stavkalari pasaytirilsa investitsiyalar hajmi ortadi, ishlab chiqarish kengayadi va iqtisodiy o‘sish jadallashadi. Biroq iqtisodiyotda talabning haddan tashqari oshishi inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli bank kon’yunkturasi va narx siyosati o‘rtasida doimiy muvozanatni saqlash zarur hisoblanadi.

Monetaristik yondashuv bank tizimining narxlar barqarorligidagi rolini yanada chuqurroq asoslaydi. Monetaristlarning fikricha, pul massasining nazoratsiz ortishi inflyatsiyaning asosiy sababidir. Shu bois markaziy banklar pul taklifini qat’iy nazorat qilishi lozim. Amaliyotda ham ko‘plab davlatlar inflyatsiyani jilovlash uchun foiz stavkalarini oshirish, kreditlashni cheklash yoki pul massasini qisqartirish kabi choralarni qo‘llaydi. Bu esa bank kon’yunkturasining narx siyosati bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Institutsional va zamonaviy yondashuvlar bank tizimi va narx siyosatini yanada kengroq iqtisodiy muhit bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Moliyaviy institutlarning ishonchliligi, bank nazorati, davlat siyosati va xalqaro moliya oqimlari narx shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, globalizatsiya sharoitida xalqaro kapital harakati, valyuta kurslari va jahon bozoridagi narx o‘zgarishlari ichki bank kon’yunkturasiga ham ta’sir qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bank va narx siyosati o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Elektron to‘lov tizimlari, raqamli bank xizmatlari va fintech texnologiyalari moliyaviy operatsiyalar tezligini oshirmoqda. Bu esa narx shakllanishi jarayonida axborot almashinuvi va bozor shaffofligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatning ortishi ayrim xizmat va mahsulotlar narxining pasayishiga olib kelmoqda.

Umuman olganda, bank kon’yunkturasi va narx siyosati o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy tizimning barcha bo‘g‘inlariga ta’sir qiluvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu munosabatlarni samarali boshqarish inflyatsiyani nazorat qilish, investitsion muhitni yaxshilash, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va aholining farovonligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bank kon’yunkturasi va narx siyosati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank tizimidagi foiz stavkalari, kreditlash hajmi va pul massasi narxlar darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli samarali pul-kredit siyosatini yuritish, inflyatsiyani nazorat qilish hamda moliyaviy bozor barqarorligini mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida markaziy bankning monetar siyosatini takomillashtirish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va investitsion muhitni yaxshilash orqali narxlar barqarorligini ta’minlash mumkinligi asoslandi. Bu esa iqtisodiy o‘sish va aholining moliyaviy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. T.T.Jo‘rayev, M.A.Hamdamov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2024. 504 bet.

2. Frederic S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson Education, New York, 2022. 720 p.

3. Stephen G. Cecchetti, Kermit L. Schoenholtz. Money, Banking, and

Financial Markets. McGraw-Hill Education, New York, 2019. 688 p.

4. Frederic S. Mishkin. Monetary Policy Strategy. MIT Press, Cambridge, 2018. 480 p.

5. Charles P. Kindleberger. Financial Crises and Banking Theory. Oxford University Press, 2016. 410 p.

6. Sh.R.Islomov. Bank xizmatlari narx siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2023. №2. 72–79-betlar.

7. Karimov. O‘zbekiston bank tizimida narx siyosatini boshqarish mexanizmlari // Moliyaviy tahlil jurnali. 2023. №4. 50–57-betlar.

8. M.Tursunov. Bank kon’yunkturasining rivojlanish tendensiyalari va nazariy asoslari. PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi. – T., 2020.

9. Q.H.Abdurahmonov. Makroiqtisodiyot. (Darslik). “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti, 2022. 610 bet.

10. Frederic S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. (Textbook). Pearson Education Publishing, 2021. 720 p.

11. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. (Monograph). Palgrave Macmillan Publishing, 2018. 472 p.

12. Friedman M. Inflation and Monetary Systems. (Monograph). University of Chicago Press, 2017. 356 p.

AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASHGA OID IQTISODIY QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH KONSEPSIYALARI

Malikov Auezxan Jorabekovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi, auezxanmalikov@gmail.com

Jahon tovar bozorlari haqidagi iqtisodiy qarashlarning rivojlanishi shuni ko‘rsatadiki, xalqaro savdo nazariyalari oddiy tovar ayirboshlash tushunchasidan murakkab global iqtisodiy tizim konsepsiyasigacha taraqqiy etgan. Dastlabki merkantilistik qarashlar davlat boyligini ko‘paytirish va tashqi savdodan ustunlik olishga qaratilgan bo‘lsa, klassik maktab savdo erkinligi va xalqaro ixtisoslashuv g‘oyalarini ilgari surdi. Bu ikki yondashuv o‘rtasidagi farq jahon bozorlariga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishini ko‘rsatadi: birinchisida savdo davlatlar o‘rtasidagi

[24] Muallif tomonidan tayyorlangan

raqobat vositasi bo‘lsa, ikkinchisida u umumiy iqtisodiy farovonlikni oshiruvchi omil sifatida qaraldi.

Neoklassik nazariyalar jahon tovar bozorlarini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi. Bu yondashuvlar talab va taklif, ishlab chiqarish omillari, narxlar muvozanati va resurslardan foydalanish samaradorligini asosiy tahlil mezoni sifatida belgiladi. Natijada xalqaro savdo mamlakatlarning mavjud resurslari, ishlab chiqarish salohiyati va texnologik imkoniyatlari bilan bog‘liq murakkab iqtisodiy jarayon sifatida talqin qilindi. Bu esa jahon tovar bozorlarini o‘rganishda nazariy modellashtirish va iqtisodiy tahlil usullarining keng qo‘llanishiga sabab bo‘ldi.

Keynschilik va postkeynschilik yondashuvlari jahon tovar bozorlarida davlat siyosatining rolini kuchaytirdi. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, bozor mexanizmlari har doim ham barqaror savdo muvozanatini ta’minlay olmaydi. Valyuta tebranishlari, talab yetishmovchiligi, savdo inqirozlari va tashqi iqtisodiy nomutanosibliklar davlatning tartibga soluvchi choralarini talab qiladi. Shu jihatdan eksportni rag‘batlantirish, importni muvofiqlashtirish, bojxona siyosatini yuritish va ichki ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash jahon tovar bozorlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Globalizatsiya davrida jahon tovar bozorlari yanada murakkab va o‘zaro bog‘liq tizimga aylandi. Transmilliy kompaniyalar, xalqaro savdo tashkilotlari, mintaqaviy integratsiya jarayonlari va global qiymat zanjirlari milliy bozorlar chegaralarini kengaytirdi. Buning natijasida mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlik kuchaydi, lekin tashqi xatarlar ham ortdi. Masalan, logistika uzilishlari, geosiyosiy keskinliklar, ekologik cheklovlar va global talabdagi o‘zgarishlar jahon tovar bozorlari barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy konsepsiyalarning asosiy xususiyati shundaki, ular jahon tovar bozorlarini faqat iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan emas, balki barqarorlik, ekologik mas’uliyat, raqamli rivojlanish va inklyuziv o‘sish mezonlari asosida baholaydi. Bugungi kunda raqobatbardoshlik mahsulot narxi bilan birga uning sifati, ekologik talablarga mosligi, yetkazib berish tezligi, innovatsion tarkibi va raqamli savdo tizimlariga integratsiyalashuv darajasi bilan belgilanmoqda. Bu esa davlatlar va korxonalar oldiga yangi strategik vazifalarni qo‘ymoqda.

Umuman olganda, jahon tovar bozorlari to‘g‘risidagi iqtisodiy qarashlar tarixiy taraqqiyot davomida davlat nazoratiga asoslangan savdo qarashlaridan erkin savdo, global raqobat, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish konsepsiyalarigacha kengaydi. Ushbu jarayon xalqaro savdo munosabatlarining doimiy yangilanib borishini, iqtisodiy nazariyalarning esa real global o‘zgarishlarga mos ravishda rivojlanishini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytamizki, jahon tovar bozorlari mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu bozorlarga oid iqtisodiy qarashlar tarix davomida takomillashib, bugungi kunda xalqaro savdo va raqobatning asosiy omiliga aylangan. Eksport salohiyatini oshirish, mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish va logistika tizimini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. O‘zbekistonda tashqi savdo infratuzilmasini kuchaytirish, yangi bozorlarni izlash va elektron savdo imkoniyatlarini kengaytirish orqali jahon bozoridagi ishtirokni yanada mustahkamlash mumkin. Bu esa iqtisodiy barqarorlik

va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. N.Gregory Mankiw. Principles of Economics. McGraw-Hill, Boston, 2021. 850 p.
2. Paul Krugman, Maurice Obstfeld. International Economics: Theory and Policy. Pearson Education, New York, 2018. 744 p.
3. Charles P. Kindleberger. International Economics. McGraw-Hill, New York, 2015. 640 p.
4. Bela Balassa. The Theory of Economic Integration. Routledge, London, 2013. 352 p.
5. Bertil Ohlin. Interregional and International Trade. Harvard University Press, Cambridge, 1933. 290 p.
6. Eli Heckscher, Bertil Ohlin. Trade Theory and Factor Endowments. Stockholm School of Economics, 1991. 410 p.
7. Adam Smith. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. W. Strahan and T. Cadell, London, 1776. 512 p.
8. David Ricardo. Principles of Political Economy and Taxation. John Murray, London, 1817. 398 p.
9. Sh.R.Islomov. Jahon tovar bozorlari rivojlanish tendensiyalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2022. №4. 71–78-betlar.
10. A.A.Karimov. Jahon bozorlari va eksport strategiyalari // Moliyaviy tahlil jurnali. 2023. №2. 44–52-betlar.

O‘ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIK ALOQALARINI KUCHAYTIRISH MASALALARI

Xamitillayeva Jasmina Jaxongir qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
e-mail: jasminaxamitillayeva@gmail.com

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng jahon moliya tizimiga integratsiyalashish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy islohotlarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida yirik xalqaro moliya institutlari bilan faol hamkorlik yo‘lini tutdi. Bugungi kunda mamlakat Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB), Islom taraqqiyot banki (IsDB) hamda Yevropa investitsiya banki (YeIB) kabi nufuzli tashkilotlar bilan strategik sheriklik aloqalarini o‘rnatgan. Ushbu maqolada O‘zbekistonning ushbu institutlar bilan hamkorligining hozirgi holati, erishilgan natijalar va mavjud masalalar tahlil qilinadi.

O‘zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan samarali aloqalari iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda bu borada sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, hamkorlikni yanada chuqurlashtirish quyidagi vazifalarni hal etishni talab etadi:

1. Institutsional islohotlarni davom ettirish – davlat moliyasini boshqarish, byudjet ochiqligi, audit tizimlari va korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro standartlarga moslashish zarur.

2. Loyihaviy moliyalashtirish samaradorligini oshirish – jalb qilingan kredit va grantlardan natijador foydalanish, monitoring va baholash mexanizmlarini kuchaytirish.

3. Mahalliy moliya tizimini integratsiyalash – banklar va moliya institutlarining IFRS, Basel tamoyillari va boshqa global standartlarga o‘tishini jadallashtirish.

4. Doimiy maslahatlashuv mexanizmlarini rivojlantirish – texnik yordam va ekspertiza jalb etish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish.

Quyidagi 1-jadvalda O‘zbekiston Respublikasining asosiy xalqaro moliya institutlariga a’zolik sanalari, a’zolik badallari va hamkorlikning asosiy sohalari aks ettirilgan.

1- jadval

O‘zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik aloqalari

	A’zolik sanasi	**A’zolik badali**	**o‘nalishlari**
Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XVJ)		423,0 mln SDR	Makroiqtisodiy barqarorlik, valyuta siyosati, texnik yordam, monitoring
		123 mln. dollar	Infratuzilma, ta’lim, sog‘liqni saqlash, davlat boshqaruvi
		66,1 mln. dollar	Energetika, transport, ekologiya, ta’lim, islohotlar
Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YTTB)		mln. yevro	Xususiy sektor, yashil energiya, moliya sektori
		33,7 mln Islom dinori	Qishloq xo‘jaligi, infratuzilma, ta’lim, sog‘liqni saqlash, islomiy moliya
		A’zolik shart emas, hamkorlik asosida moliyalashtirish	Energetika, ekologiya, transport, suv, xususiy sektor

XVJ bilan hamkorlik. O‘zbekiston 1992-yil sentabr oyida XVJga a’zo bo‘lib, tashkilotning makroiqtisodiy siyosat va valyuta kursini liberallashtirish bo‘yicha maslahatlaridan foydalanib kelmoqda. 2020-yilda pandemiya davrida 375 million AQSH dollari miqdorida favqulodda yordam olingan. Har yili "Article IV" missiyalari doirasida iqtisodiy ko‘rsatkichlar monitoringi olib boriladi.

Jahon banki bilan hamkorlik. 1992-yil sentabrda a’zo bo‘lgan O‘zbekiston Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (IBRD) va Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (IDA) resurslaridan foydalanmoqda. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi hamkorlik strategiyasida islohotlarni chuqurlashtirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish asosiy vazifa etib belgilangan.

OTB bilan hamkorlik. 1995-yil avgust oyidan boshlangan hamkorlik dastlab transport va energetika infratuzilmasiga qaratilgan bo‘lsa, hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi, ekologiya va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashni ham qamrab olgan. 2019-

yildan "Mamlakat strategik sherikligi dasturi" amal qilmoqda.

YTTB bilan hamkorlik. 1993-yilda a’zo bo‘lingan, biroq 2017-yilgacha aloqalar sust bo‘lgan. Islohotlardan so‘ng bank faoliyati qayta tiklanib, xususiy sektor, yashil energiya va bank modernizatsiyasi bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Hozirda YTTB O‘zbekistondagi eng faol institutlardan biriga aylangan.

IsDB bilan hamkorlik. 2003-yil apreldan a’zo. Islom moliyalashtirish tamoyillari asosida infratuzilma, qishloq xo‘jaligi, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida 199 ta loyiha moliyalashtirilgan. Bank, shuningdek, islomiy moliya institutlarini rivojlantirishga texnik ko‘mak beradi.

YeIB bilan hamkorlik. Rasman 2011-yilda boshlangan bo‘lsa-da, faol bosqich 2017-yildan keyin boshlandi. Yevropa Ittifoqining ushbu moliya instituti uzoq muddatli va past foizli kreditlar orqali energetika, ekologiya, suv ta’minoti va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlamoqda.

2025-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, O‘zbekiston xalqaro moliya institutlari bilan amalga oshirayotgan loyihalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar quyidagi jadvalda jamlangan.

2- jadval

O‘zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligidagi loyihalar soni va moliyalashtirish hajmi

Tashkilot nomi	Loyihalar soni	Moliyalashtirish hajmi
Jahon banki		4,6 mlrd. dollar
Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki		1,3 mlrd. dollar
Xalqaro rivojlanish assotsatsiyasi		3,3 mlrd. dollar
Islom taraqqiyot banki	199	4,8 mlrd. dollar
Osiyo taraqqiyot banki	288	13,4 mlrd. dollar
Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki	174	5,5 mlrd. yevro
Yevropa investitsiya banki	11	498,6 mln. yevro

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Osiyo taraqqiyot banki loyihalar soni (288 ta) va hajmi (13,4 mlrd dollar) bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Islom taraqqiyot banki 199 ta loyiha bilan 4,8 mlrd dollar, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki esa 174 ta loyiha doirasida 5,5 mlrd yevro ajratgan. Jahon bankining 23 ta loyihasi umumiy qiymati 4,6 mlrd dollarni tashkil etib, shundan 3,3 mlrd dollari (70% dan ortig‘i) IDAning imtiyozli kreditlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Yevropa investitsiya banki hozircha eng kam – 11 loyiha bilan 498,6 mln yevro investitsiya kiritgan.

Rasmiy hujjatlarga (lex.uz) asosan, 2025-yilda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha jami 14,19 mlrd AQSH dollari miqdorida mablag‘ o‘zlashtirish ko‘zda tutilgan. Ushbu mablag‘lar asosan quyidagi yo‘nalishlarga taqsimlanadi:

- Energetika va infratuzilma – eng katta ulush (taxminan 35–40%);

- Qishloq xo‘jaligi va suv resurslarini boshqarish – 15–20%;
- Transport va logistika – 10–15%;
- Ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya – 15–20%;
- Ekologiya, yashil iqtisodiyot va iqlim o‘zgarishi – 10% atrofida;
- Boshqa (raqamlashtirish, davlat boshqaruvi va boshqalar) – qolgan qismi.

Mazkur taqsimot O‘zbekiston hukumatining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, energiya xavfsizligini ta’minlash va ijtimoiy sohani modernizatsiya qilish borasidagi ustuvorliklarini aks ettiradi.

O‘zbekiston xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni izchil kengaytirib, ularning moliyaviy va texnik yordamidan samarali foydalanmoqda. XVJ, Jahon banki, OTB, YTTB, IsDB va YeIB tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan loyihalar mamlakat infratuzilmasini yangilash, xususiy sektorni rivojlantirish, yashil energetikaga o‘tish va ijtimoiy sohani yaxshilashga xizmat qilmoqda. Biroq, kelgusida institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, loyiha monitoringini kuchaytirish va mahalliy moliya tizimini xalqaro standartlarga to‘liq moslashtirish zarur. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekistonning kredit reytingini oshirish, xorijiy investitsiyalarni ko‘paytirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkonini beradi.

‘zbekiston Respublikasining Xalqaro valyuta jamg‘armasiga a’zolik to‘g‘risidagi ma’lumotlar – XVJ rasmiy sayti (www.imf.org).

2. Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha mamlakat dasturi va loyiha portfeli – Jahon banki rasmiy hisobotlari (www.worldbank.org/uz).
3. Osiyo taraqqiyot bankining O‘zbekiston bilan hamkorlik strategiyasi – OTB yillik hisobotlari (www.adb.org).
4. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining O‘zbekistondagi faoliyati – YTTB matbuot relizlari va loyiha ma’lumotlari (www.ebrd.com).
5. Islom taraqqiyot banki – O‘zbekiston profili (www.isdb.org).
6. Yevropa investitsiya banki – O‘zbekistondagi loyihalar (www.eib.org).

TADBIRKORLIGIGA OID IQTISODIY QARASHLARNING TARIXIY SHAKLLANISHI

***Sharipov Bekzod Shavkatovich**, Buxoro davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi*
Telefon: +998 97 488 34 44E-mail: shavkatovbehzod762@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola iqtisodiy tafakkur tarixida imkoniyati cheklangan shaxslar tadbirkorligiga bo‘lgan qarashlarning shakllanishi va evolyutsiyasini tahlil etadi. Antik davrdan hozirgi kungacha bo‘lgan iqtisodiy maktablar — merkantilizm, klassik siyosiy iqtisod, keynsianizm va imkoniyatlar yondashuvi — doirasida ushbu masalaning ilmiy asoslari ko‘rib chiqilgan. O‘rta Osiyo mutafakkirlarining bu sohadagi qarashlari zamonaviy inkluziv iqtisodiyot g‘oyalari bilan qiyoslanadi. O‘zbekiston 2030 strategiyasi kontekstida imkoniyati cheklangan fuqarolarni tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha institutsional to‘siqlar va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Annotation: This article analyses the historical formation and evolution of economic views on entrepreneurship of persons with disabilities, from Antiquity to

the present. The study reviews major economic schools — mercantilism, classical political economy, Keynesianism, and the Capability Approach — as theoretical foundations for inclusive entrepreneurship. Central Asian scholarly heritage is compared with contemporary inclusive economics. Within the framework of the New Uzbekistan 2030 Strategy, institutional barriers and scientific-practical recommendations for activating the economic participation of persons with disabilities are developed.

Kalit so‘zlar: imkoniyati cheklangan shaxslar, tadbirkorlik, iqtisodiy tafakkur tarixi, inkluziv iqtisodiyot, imkoniyatlar yondashuvi, Amartya Sen, O‘zbekiston 2030 strategiyasi, nogironlik, ijtimoiy tadbirkorlik, mehnat bozori.

Kirish: Iqtisodiy tafakkur tarixida imkoniyati cheklangan shaxslarning mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga bo‘lgan munosabat turli davrlarda sezilarli o‘zgarishlarga uchragan. Qadimgi Yunoniston mutafakkirlaridan Arastu o‘zining «Nikomaxova etikasi» asarida insonning jamiyatdagi ishtiroki uning tabiiy qobiliyatlari bilan belgilanishini ta’kidlagan. Shu bilan birga, bu qarash o‘rta asrlarda diniy-xayriya tushunchalari bilan boyitilgan: nogironligi bo‘lgan shaxslar ijtimoiy himoya ob’ekti sifatida ko‘rib chiqilgan, mehnat sub’ekti sifatida emas.

XVII–XVIII asrlarda Yevropa iqtisodiy tafakkurida merkantilizm va fiziokratizm maktablari paydo bo‘lib, ular mehnat unumdorligini boylikning asosi deb e’tirof etgan. Adam Smit «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot» (1776) asarida [2] mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv nazariyasini ilgari surgan. Uning yondashuvi bo‘yicha har bir inson o‘z qobiliyatiga mos faoliyat turi orqali iqtisodiy tizimga hissa qo‘sha oladi. Bu g‘oya imkoniyati cheklangan shaxslarni iqtisodiy jarayonga jalb etishning ilk nazariy asosi sifatida qaralishi mumkin.

XIX asrda klassik siyosiy iqtisod vakillari Devid Rikardo va Jon Styuart Mill mehnat qiymat nazariyasini yanada rivojlantirgan. Mill «Siyosiy iqtisod tamoyillari» (1848) asarida individual erkinlik va shaxsning jamiyatdagi roli masalasini ko‘targan. Shu davrda sanoat inqilobi nogironligi bo‘lgan shaxslarni zavodlarda ishlatish muammosini keskin qilib qo‘ydi va dastlabki mehnat qonunchiligining shakllanishiga turtki berdi.

XX asrning birinchi yarmida Jeyms Keyns «Band qilish, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936) [3] asarida davlat aralashuvi va ijtimoiy siyosat masalalarini iqtisodiy fanga olib kirdi. Keynscha yondashuv nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya dasturlariga kiritish zarurligini nazariy jihatdan asoslashga imkon berdi. Parallel ravishda, farovonlik davlati (Welfare State) konsepsiyasi Buyuk Britaniya va skandinaviya mamlakatlarida rivojlanib, imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun maxsus qo‘llab-quvvatlash tizimlarini shakllantirdi.

XX asrning ikkinchi yarmida Amartya Sen tomonidan ishlab chiqilgan «imkoniyatlar yondashuvi» (Capability Approach) nazariyasi [1] bu sohada inqilobiy o‘zgarish bo‘ldi. Sen «Erkinlik sifatida taraqqiyot» (1999) asarida rivojlanishni shaxsning real imkoniyatlari kengayishi sifatida ta’rifladi va nogironlik holatini faqat tibbiy emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida ko‘rish lozimligini asosladi. Bu yondashuv Jahon Sog‘liqni saqlash tashkilotining

Nogironlik bo‘yicha xalqaro tasnifi (ICF, 2001) [5] ga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

O‘rta Osiyo iqtisodiy tafakkurida Ibn Sino (980–1037), Beruniy (973–1048) va Yusuf Xos Hojibning (XI asr) [4] asarlari mehnat, hunarmandchilik va shaxs faoliyatiga alohida e’tibor qaratgan. «Qutadg‘u bilig» asarida jamiyat a’zolarining o‘zaro yordami va hamjihatlik g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lib, bu zamonaviy inkluziv iqtisodiyotning ruhiy-axloqiy asoslari sifatida talqin etilishi mumkin. Ushbu an’ana zamonaviy O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik va nogironligi bo‘lgan fuqarolarni iqtisodiy hayotga jalb etish siyosatining milliy ilmiy-madaniy poydevori bo‘lib xizmat qila oladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, ayniqsa «Yangi O‘zbekiston» 2030 strategiyasi [6] doirasida, imkoniyati cheklangan shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. 2021 yilgi «Imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi qonun [7] va 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi ushbu toifadagi fuqarolarning iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni nazarda tutadi. Biroq amalda institutsional, moliyaviy va infratuzilma to‘siqlari bu qonun hujjatlarining to‘liq amalga oshirilishiga xalaqit bermoqda.

Ilmiy-amaliy tavsiyalar: 1. Imkoniyati cheklangan shaxslar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash tizimini A. Sen [1] imkoniyatlar yondashuvi metodologiyasi asosida qayta tashkil etish — faqat moliyaviy emas, balki ta’lim, axborot va infratuzilma imkoniyatlarini kengaytirish.

2. Buxoro viloyatida imkoniyati cheklangan tadbirkorlarni ro‘yxatga olish va monitoring qilish uchun “Nogironligi bo‘lgan tadbirkorlar” ma’lumotlar bazasini viloyat hokimligi huzurida tashkil etish.

3. Mahalla tizimi orqali imkoniyati cheklangan shaxslar uchun maxsus biznes-inkubatorlar va raqamli o‘quv markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularni milliy bandlik dasturlari bilan integratsiyalash.

4. Mikrokredit muassasalari va tijorat banklari uchun imkoniyati cheklangan tadbirkorlarga berilgan kreditlar bo‘yicha soliq imtiyozlari mexanizmini joriy etish.

5. Iqtisodiyot yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida “Inkluziv tadbirkorlik” fanini o‘quv dasturlariga kiritish va ushbu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini rag‘batlantirish.

Xulosa: Iqtisodiy tafakkur tarixining tahlili shuni ko‘rsatadiki, imkoniyati cheklangan shaxslarning tadbirkorlik faoliyatiga bo‘lgan munosabat xayriya va himoya modelidan inkluziv iqtisodiy sub’ektlik modeliga qadar uzoq va murakkab evolyutsion yo‘lni bosib o‘tgan. Aristotelning mehnat va qobiliyat haqidagi qarashlari, A. Smitning individual hissa nazariyasi, Keynsning davlat aralashuvi konsepsiyasi va nihoyat Amartya Senning imkoniyatlar yondashuvi — barchasi bir-birini to‘ldirib, zamonaviy inkluziv iqtisodiyot g‘oyasining nazariy poydevorini shakllantirgan.

O‘rta Osiyo iqtisodiy-falsafiy merosi, xususan Yusuf Xos Hojibning hamjihatlik va o‘zaro yordam haqidagi qarashlari, bu nazariy asosni milliy-madaniy jihatdan boyitadi va O‘zbekistonda inkluziv tadbirkorlikni rivojlantirishning o‘ziga xos yo‘lini belgilashga imkon beradi.

O‘zbekistonda «Yangi O‘zbekiston — 2030» strategiyasi doirasida amalga

oshirilayotgan islohotlar imkoniyati cheklangan fuqarolarni iqtisodiy hayotga to‘laqonli jalb etish uchun qonuniy-huquqiy asos yaratgan. Biroq nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish uchun institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish maqsadli va izchil tarzda amalga oshirilishi zarur. Faqat shundagina imkoniyati cheklangan fuqarolarning tadbirkorlik salohiyati iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy adolat manbaiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. Oxford University Press. https://doi.org/10.1093/0198297564.001.0001
2. Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. W. Strahan and T. Cadell. https://www.gutenberg.org/ebooks/3300
3. Keynes, J. M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest and Money*. Macmillan. https://www.marxists.org/reference/subject/economics/keynes/general-theory/
4. Yusuf Xos Hojib. (1069/2014). *Qutadg‘u bilig*. “O‘zbekiston” NMIU nashriyoti. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_klassik/yusuf_xos_xojib/Yusuf_Xos_Xojib-Qutadgu_bilig.pdf
5. World Health Organization. (2001). *International Classification of Functioning, Disability and Health (ICF)*. WHO Press. https://www.who.int/standards/classifications/international-classification-of-functioning-disability-and-health
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son farmoni. *lex.uz*. https://lex.uz/docs/5841077
7. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 15 sentyabrdagi «Imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi Qonuni. *lex.uz*. https://lex.uz/docs/5584379

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA IJTIMOIY SOHANI MODERNIZATSIYA QILISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Sh.Qurbonova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Zamonaviy globallashuv va iqtisodiy integratsiya sharoitida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim strategik omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy va infratuzilmaviy sohalarda mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, investitsiya faolligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish hamda davlat xarajatlari yukini optimallashtirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasida DXShni rivojlantirishga qaratilgan institutsional va huquqiy islohotlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror va inklyuziv o‘sishini ta’minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan so‘nggi yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan qator

normativ-huquqiy hujjatlar, strategiyalar va dasturlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar DXSh mexanizmlarini joriy etish va takomillashtirishning institutsional asoslarini mustahkamlab, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Natijada, bugungi kunda iqtisodiyotning energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim va kommunal xizmatlar kabi muhim tarmoqlarida turli shakllardagi DXSh loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ayrim sohalarda davlat monopoliyasining saqlanib qolayotgani raqobat muhitining yetarli darajada shakllanmasligiga, xizmatlar sifati va samaradorligining pastligiga olib kelmoqda. Xususan, ijtimoiy va kommunal xizmatlar, shaharsozlik, yo‘l infratuzilmasi hamda energetika tizimida mavjud muammolar ushbu sohalarga xususiy sektorni faol jalb etishni taqozo etadi. Bu esa o‘z navbatida, davlat va biznes subyektlari o‘rtasida risklarni taqsimlash, investitsiya majburiyatlarini aniqlashtirish va uzoq muddatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni talab etadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda DXSh mexanizmi samarali iqtisodiy instrument sifatida namoyon bo‘ladi.

DXSh mexanizmini ilmiy asosda shakllantirish va uni amaliyotga joriy etish hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Xususan, mazkur mexanizm orqali infratuzilmaviy loyihalarga xususiy investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda davlat byudjeti xarajatlarini optimallashtirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, DXSh loyihalari davlat byudjetiga tushadigan moliyaviy yukni kamaytirib, hududiy byudjetlarning dotatsiyaga qaramligini qisqartirishga xizmat qiladi.

Davlat tomonidan DXSh tamoyillarining izchil va tizimli ravishda joriy etilishi investitsiya muhitini yaxshilashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida, xususiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratib, ularning ijtimoiy sohalarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, DXSh mexanizmi to‘g‘ri institutsional tuzilma asosida tashkil etilgan hamda loyihalar puxta iqtisodiy tahlil asosida tanlangan taqdirda, u davlat, xususiy sektor va jamiyat manfaatlarining uyg‘unlashuvini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik faqat moliyaviy resurslarni jalb etish vositasi bo‘lib qolmay, balki ilg‘or xorijiy tajriba, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion boshqaruv yondashuvlari hamda samarali loyiha menejmenti usullarini joriy etishning muhim kanali hisoblanadi. Shu jihatdan, DXSh mexanizmlarini rivojlantirish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni doirasida ijtimoiy sohaga alohida e’tibor qaratilib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan:

- Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan madaniyat va san’at muassasalari ulushini 5,8 foizgacha yetkazish;

- Davlat-xususiy sheriklik asosida suv xo‘jaligi obyektlarini boshqarish loyihalari sonini 2 183 taga yetkazish;
- Respublikaning 5 ta yirik aeroportini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish va boshqaruvga berish.

DXSh davlat salohiyati va xususiy biznes imkoniyatlarini uyg‘unlashtiruvchi samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Byudjet taqchilligi va davlat daromadlarining qisqarishi sharoitida DXSh infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishning muhim institutsional mexanizmi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik nafaqat moliyaviy jihatdan, balki yangi texnologiyalar, innovatsiyalar, loyiha boshqaruvi usullari va ilg‘or tajribalarni davlat sektoriga transfer qilish nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

Ijtimoiy rivojlanish va DXSh modellari asosida iqtisodiyotni rivojlantirish masalalarining dolzarbligi ijtimoiy sohaning strategik ahamiyati hamda uning hozirgi holati bilan bog‘liq bo‘lib, bu sohada davlat organlari tomonidan yanada chuqur va tizimli yondashuvni talab etadi.

Umuman olganda, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganish hamda ularni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy islohotlar mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

AHOLI DAROMADLARINI TARTIBGA SOLISH MAZMUNINING RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI: ILMIY-TAHLILIY YONDASHUV

Sh.Toshtemirov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti v.b. dotsenti

Annotatsiya: Mazkur tezisda aholi daromadlarini tartibga solish mazmunining tarixiy rivojlanish bosqichlari, iqtisodiy maktablar qarashlari hamda zamonaviy iqtisodiy siyosatdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida klassik iqtisodiy maktab, marksistik nazariya, keynschilik va monetarizm yondashuvlari asosida daromadlarni tartibga solish evolyutsiyasi yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy sharoitda davlatning daromadlarni boshqarishdagi roli, kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va real daromadlarni oshirish mexanizmlari tahlil etilgan. O‘zbekiston tajribasi misolida aholi farovonligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan.

Аннотатsiя: В данной диссертации проводится научный анализ исторического развития содержания регулирования доходов, взглядов экономических школ и его значения в современной экономической политике. Исследование освещает эволюцию регулирования доходов на основе подходов классической экономической школы, марксистской теории, кейнсианства и монетаризма. Также анализируется роль государства в управлении доходами в современных условиях, механизмы сокращения бедности, совершенствования системы социальной защиты и повышения реальных доходов. На примере опыта Узбекистана показаны приоритетные

направления экономических реформ, направленных на повышение благосостояния населения.

Abstract: This thesis scientifically analyzes the historical development of the content of income regulation, the views of economic schools, and its significance in modern economic policy. The study sheds light on the evolution of income regulation based on the approaches of the classical economic school, Marxist theory, Keynesianism, and monetarism. It also analyzes the role of the state in income management in modern conditions, mechanisms for reducing poverty, improving the social protection system, and increasing real incomes. Using the example of the experience of Uzbekistan, priority areas of economic reforms aimed at increasing the well-being of the population are shown.

Kalit so‘zlar: Aholi daromadlari, real daromad, daromadlarni tartibga solish, iqtisodiy evolyutsiya, davlat siyosati, keynschilik, monetarizm, ijtimoiy himoya, bozor iqtisodiyoti, kambag‘allik.

Ключевые слова: Доход, реальный доход, регулирование доходов, экономическая эволюция, государственная политика, кейнсианство, монетаризм, социальная защита, рыночная экономика, бедность.

Key words: Income, real income, income regulation, economic evolution, public policy, Keynesianism, monetarism, social protection, market economy, poverty.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlarini tartibga solish iqtisodiy siyosatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Chunki aholining daromad darajasi mamlakatdagi iqtisodiy rivojlanish sur’atlari, iste’mol bozori holati, ijtimoiy barqarorlik va inson kapitalining rivojlanish darajasini belgilab beradi. Daromadlarning barqaror o‘sishi iqtisodiy o‘sishning asosiy omili bo‘lsa, daromadlar tabaqalanishining kuchayishi ijtimoiy tengsizlik va kambag‘allikni yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan aholi daromadlarini tartibga solish masalasi turli davrlarda iqtisodiy maktablar tomonidan turlicha talqin etilgan. Dastlab iqtisodiyotda davlatning minimal aralashuvi tarafdorlari ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik iqtisodiy inqirozlar, inflyatsiya va ijtimoiy muammolarning kuchayishi davlatning faol iqtisodiy siyosatini zaruratga aylantirdi.

Bugungi globallashuv sharoitida daromadlarni tartibga solish nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, balki aholi turmush darajasini yaxshilash, kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy adolatni qaror toptirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Aholi daromadlarini tartibga solishning iqtisodiy mohiyati – Aholi daromadlarini tartibga solish — davlat tomonidan iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy mexanizmlar orqali aholi daromadlari miqdori hamda ularning taqsimlanishiga ta’sir ko‘rsatish jarayonidir. Ushbu jarayon iqtisodiy barqarorlikni saqlash, aholining minimal yashash darajasini ta’minlash va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Daromadlarni tartibga solishning iqtisodiy mohiyati quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- aholi turmush darajasini oshirish;
- iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish;
- iste’mol talabini qo‘llab-quvvatlash;
- kambag‘allikni qisqartirish;
- ijtimoiy tabaqalanishni yumshatish;
- inflyatsiyaning salbiy ta’sirini kamaytirish;
- ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash.

Davlat daromadlarni tartibga solishda fiskal, monetar, investitsion hamda ijtimoiy siyosat vositalaridan foydalanadi. Jumladan, soliqlar, transfert to‘lovlari, minimal ish haqi, subsidiyalar va ijtimoiy yordam mexanizmlari muhim vositalar hisoblanadi.

Aholi daromadlarini tartibga solishning tarixiy evolyutsiyasi:

Klassik iqtisodiyot davri - XVIII–XIX asrlarda shakllangan klassik iqtisodiy maktab vakillari — Adam Smith, David Ricardo va Jean-Baptiste Say iqtisodiyotda erkin bozor tamoyillarining ustuvorligini himoya qilganlar. Ularning fikricha, bozor mexanizmlari iqtisodiy muvozanatni mustaqil ravishda ta’minlaydi va davlat iqtisodiyotga minimal darajada aralashishi lozim.

Klassik nazariyada ish haqi, foyda va renta tabiiy ravishda shakllanadi deb qaralgan. “Laissez-faire” tamoyili asosida davlatning daromadlarni tartibga solishdagi roli deyarli inkor etilgan. Biroq sanoat inqilobi natijasida daromadlar notengligi va kambag‘allikning kuchayishi ushbu nazariyaning cheklangan jihatlarini ko‘rsatib berdi.

Marksistik iqtisodiy qarashlar - XIX asrning ikkinchi yarmida Karl Marx kapitalistik tizimdagi daromadlar tengsizligini keskin tanqid qildi. Uning nazariyasiga ko‘ra, kapitalistik jamiyatda qo‘shimcha qiymat kapital egalari tomonidan o‘zlashtiriladi va bu mehnatkashlarning iqtisodiy manfaatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Marksistik yondashuvda:

- daromadlarni qayta taqsimlash;
- ijtimoiy tenglikni ta’minlash;
- davlatning iqtisodiyotdagi faol roli;
- ishlab chiqarish vositalariga jamoaviy egalik qilish

asosiy tamoyillar sifatida ilgari surildi.

Mazkur qarashlar keyinchalik sotsialistik iqtisodiy model shakllanishiga nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

Keynes ta’limoti va davlatning faol iqtisodiy siyosati - XX asrning 30-yillarida yuz bergan Buyuk depressiya klassik iqtisodiy nazariyaning zaif tomonlarini ochib berdi. Shu davrda John Maynard Keynes iqtisodiyotda davlatning faol aralashuvi zarurligini ilmiy asoslab berdi.

Keyns nazariyasiga ko‘ra:

- davlat byudjet xarajatlarini oshirishi;
- bandlikni rag‘batlantirishi;
- aholining xarid qobiliyatini qo‘llab-quvvatlashi;
- iste’mol talabini kengaytirishi zarur.

Bu yondashuv natijasida:

- minimal ish haqi tizimi;
- pensiya va nafaqa mexanizmlari;
- ijtimoiy himoya dasturlari;
- davlat transfertlari

keng rivojlana boshladi.

Keyneschilik iqtisodiyoti zamonaviy ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining shakllanishida muhim o‘rin egalladi.

O‘zbekistonda aholi daromadlarini tartibga solish tendensiyalari-O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida aholi daromadlarini tartibga solish tizimi bosqichma-bosqich shakllandi. Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

So‘nggi yillarda quyidagi ustuvor yo‘nalishlar amalga oshirilmoqda:

- ish haqi va pensiyalarni muntazam oshirish;
- kambag‘allikni qisqartirish siyosatini kuchaytirish;
- aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish;
- yangi ish o‘rinlarini yaratish;
- manzilli ijtimoiy yordam tizimini rivojlantirish;
- inflyatsiyani pasaytirish choralarini kuchaytirish.

Ayniqsa, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar aholi real daromadlarini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ilmiy tahlil va muhokama

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aholi daromadlarini tartibga solish tizimi tarixiy jihatdan iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan rivojlanib borgan. Klassik iqtisodiyot erkin bozor mexanizmlariga tayanib, davlatning iqtisodiyotdagi rolini cheklagan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda iqtisodiy inqirozlar davlatning faol iqtisodiy siyosatini zaruratga aylantirdi.

Zamonaviy iqtisodiyotda esa daromadlarni tartibga solish quyidagi strategik maqsadlarga xizmat qilmoqda:

1. iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish;
2. ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash;
3. kambag‘allikni qisqartirish;
4. inson kapitalini rivojlantirish;
5. iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish.

Shu sababli daromadlarni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish har qanday davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa

Aholi daromadlarini tartibga solish mazmunining rivojlanish evolyutsiyasi iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Turli tarixiy bosqichlarda iqtisodiy maktablar davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha yondashgan bo‘lsalar-da, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida daromadlarni tartibga solishning muhimligi tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda aholi daromadlarini samarali boshqarish iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va kambag‘allikni qisqartirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli davlatning fiskal, monetar va ijtimoiy siyosatini

uyg‘unlashtirish orqali aholi real daromadlarini oshirish iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Kelgusida davlatning fiskal, monetar va ijtimoiy siyosatini o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali aholi real daromadlarini oshirish iqtisodiy taraqqiyotning asosiy strategik vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi ““O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

2. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti DUK, 2021. 630 bet.

3. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2019. 357-b.

4. O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2014.

5. Muxiddinov X.S. Hudud aholisi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy rivojlanishini modellashtirish. Monografiya. T.: “FAN”, 2009. 12 b.

6. G‘oyibnazarov B.K., Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda uy xo‘jaliklari daromadlari va xarajatlarining statistik tahlili. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2018. № 3, may-iyun, 5-b.

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA MILLIY IQTISODIY O‘SISHNI SIFAT JIHATDAN YANGI BOSQICHGA KO‘TARISH OMILLARI

G.Isamova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti maistranti

XXI asr jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri bu raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga chuqur kirib borishi bilan tavsiflanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur’atlarda rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish omillari tarkibida ma’lumotlar, bilim va intellektual resurslarning ulushi keskin ortmoqda. Natijada an’anaviy iqtisodiy o‘sish omillari

- yer, mehnat va kapital bilan bir qatorda raqamli infratuzilma va innovatsion salohiyat ham muhim strategik resursga aylanmoqda. Globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan sharoitda mamlakatlarning iqtisodiy raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan ularning raqamli rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy faoliyatning tezkorligini oshiradi, bozor axborotlarining shaffofligini ta’minlaydi hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Shu sababli raqamlashtirish jarayoni zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, ish o‘rinlarini yaratish va innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini oshirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish raqamli texnologiyalar orqali amalga oshadi. Shu sababli iqtisodiyotni raqamlashtirish milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uzoq muddatli barqaror rivojlanish va global iqtisodiy integratsiya uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish ishlab chiqarish jarayonlarining

avtomatlashtirilishi, xizmat ko‘rsatish sohasida masofaviy texnologiyalarning joriy etilishi, moliyaviy operatsiyalarning elektron shaklga o‘tishi hamda davlat boshqaruvida raqamli tizimlarning keng qo‘llanilishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu o‘zgarishlar iqtisodiy munosabatlarning sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishiga sabab bo‘lib, iqtisodiy o‘sish mexanizmlarini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o‘sish nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishi, balki mahsulot va xizmatlar sifatining yaxshilanishi, innovatsion faoliyatning kuchayishi hamda yangi iqtisodiy tarmoqlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, raqamli platformalar, elektron tijorat, sun’iy intellekt va “Big Data” texnologiyalarining rivojlanishi iqtisodiy tizimning moslashuvchanligini oshirib, yangi qiymat zanjirlarini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, infratuzilma rivoji, inson kapitali sifati, institutsional muhit va kiberxavfsizlik darajasi bilan chambarchas bog‘liq.

Raqamli transformatsiyani samarali amalga oshirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur tezisning maqsadi — iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish hamda milliy iqtisodiyot sharoitida samarali raqamli rivojlanish yo‘nalishlarini asoslab berishdan iborat. Raqamli iqtisodiyot iqtisodiy o‘sishga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi. Avtomatlashtirish, robototexnika va sun’iy intellekt asosida ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashtirilishi mehnat unumdorligini oshiradi. Bu esa yalpi ichki mahsulot hajmining ortishiga xizmat qiladi. Ikkinchi kanal — xarajatlarning qisqarishi. Raqamli tizimlar resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlab, logistika, boshqaruv va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi. Uchinchi kanal — yangi bozorlar shakllanishi. Elektron tijorat, raqamli xizmatlar va platforma iqtisodiyoti yangi iqtisodiy segmentlarni yuzaga keltiradi. To‘rtinchi kanal — investitsion jozibadorlik oshishi. Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Raqamlashtirish faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlargagina emas, balki ijtimoiy sohalarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masofaviy ta’lim, telemeditsina va elektron davlat xizmatlari aholining turmush sifatini oshiradi. Raqamli bandlik shakllarining paydo bo‘lishi mehnat bozorini diversifikatsiya qiladi. Raqamli transformatsiya jarayonida qator cheklovlar mavjud: hududlar kesimida raqamli infratuzilma nomutanosibligi; malakali IT mutaxassislar yetishmasligi; kiberxavfsizlik tahdidlari; aholining raqamli savodxonlik darajasi pastligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish iqtisodiy samaradorlikni to‘liq ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Kelgusida iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonini samarali amalga oshirish uchun bir qator ustuvor yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish zarur. Avvalo, raqamli infratuzilmani kengaytirish va yuqori tezlikdagi internet tarmoqlarini rivojlantirish iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida samaradorlikni oshiradi. Ikkinchidan, sun’iy intellekt, “Big Data” va bulutli hisoblash texnologiyalarini ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlariga integratsiya qilish innovatsion rivojlanishni rag‘batlantiradi. Uchinchidan, startaplar, innovatsion loyihalar va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlari va raqamli bozorlar yaratish mumkin. Shuningdek, davlat

boshqaruvida raqamli tizimlarni chuqurlashtirish, kadrlar malakasini oshirish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish va kiberxavfsizlikni ta’minlash ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishlarning uyg‘un amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, global raqobatbardoshlikni oshirish va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish uchun strategik ahamiyatga ega.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotni raqamlashtirish zamonaviy iqtisodiy rivojlanish modelining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash orqali iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadallashtiradi. Natijada iqtisodiy tizimda sifat jihatdan yangi bosqich — innovatsion va bilimlarga asoslangan rivojlanish modeli shakllanadi. Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiyaning iqtisodiy o‘sishga ta’siri ko‘p qirrali ekanligini tasdiqlaydi. Avtomatlashtirish, sun’iy intellekt va raqamli platformalarning rivojlanishi mehnat unumdorligini oshiradi, yangi biznes modellari va bozor segmentlarini yuzaga keltiradi hamda investitsion faollikni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvida raqamli tizimlarning keng qo‘llanilishi iqtisodiy jarayonlar shaffofligini ta’minlab, institutsional samaradorlikni kuchaytiradi. Shuningdek, raqamlashtirish jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ham ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi. Raqamli xizmatlar aholi uchun qulayliklar yaratib, masofaviy bandlik shakllarini kengaytiradi va inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sish uchun muhim omil hisoblanadi. Biroq raqamli transformatsiyani samarali amalga oshirish infratuzilma rivoji, malakali kadrlar tayyorlash, raqamli savodxonlikni oshirish hamda kiberxavfsizlikni ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu omillarga yetarli e’tibor qaratilmaganda raqamlashtirish jarayonining iqtisodiy samarasi to‘liq namoyon bo‘lmasligi mumkin. Umuman olganda, iqtisodiyotni raqamlashtirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyatni faollashtirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning strategik omili sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli transformatsiyani izchil davom ettirish orqali yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarni rivojlantirish, global iqtisodiy makonga integratsiyani kuchaytirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Odinaev, F. Z. (2025). *The impact of the digital economy on economic growth and national development.* Scientific Balance: Research and Practice. DOI: (Article analysing digital economy's role in economic growth and national development)

2. Mustofa, A. A., Rasendriyo, B., Hanan, H. S., & Azzahra, K. F. (2024). *The role of digital transformation in shaping economic growth: A literature review.* Proceedings of the International Conference on Economics, Accounting, and Taxation, 1(1), 117–127. (Literature review on digital transformation and economic growth mechanisms)

3. Sahi, S. M. (2022). *Impact of digital competitiveness on economic growth: Evidence from global economy.* World Economics and Finance Bulletin, 14, 57–67.

(Examines the link between digital competitive readiness and economic outcomes)

4. Ulugmurodov, F. F., Karshiev, A. S., & Karshiev, A. O. (2024). *The link between digital infrastructure and economic growth.* International Journal of Artificial Intelligence, 712–716. (Explores how digital infrastructure supports economic performance)

5. Alqudah, A., & others. (2023). *Economic development in the digital economy: A bibliometric review.* MDPI Economics, 12(3), 53. (Bibliometric overview of digital economy research trends and economic development)

6. Ne’matov, N. (2025). *Region economic digitalization as a key factor of economic growth.* Modern Science and Research, 4(2), 233–235. (Discusses regional digitalization’s impact on socio-economic growth)

7. Kadirov, A., Ahmedieva, A., & Ma’murov, B. (2023). *Developing digital economy in Uzbekistan: Trends and perspectives.* Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 1(3), 183–190. (Article focused on digital economy development in Uzbek context)

AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDA REKRUTING AGENTLIKLARI ORQALI GENDER TENG IMKONIYATLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Sherkulova Nodirabegib Baxordin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi bandligini oshirish jarayonida rekruting agentliklarining gender teng imkoniyatlarni shakllantirishdagi o‘rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Mehnat bozorida ish beruvchi va ish qidiruvchi o‘rtasidagi axborot nomutanosibligini kamaytirish, ishga yollash jarayonini shaffoflashtirish hamda ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashda rekruting agentliklari muhim institutsional vosita sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi Qonunida xususiy bandlik agentliklari faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, ochiqlik, shaffoflik va kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik belgilangan . Shu bilan birga, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunda bandlik sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta’minlash vazifasi belgilangan . Maqolada genderga sezgir rekruting mexanizmi, baholash indikatorlari, SWOT tahlil va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: aholi bandligi, rekruting agentliklari, gender tenglik, mehnat bozori, ishga yollash, xotin-qizlar bandligi, institutsional mexanizm, teng imkoniyatlar.

Kirish

XXI asrda mehnat bozori tarkibiy jihatdan jadal o‘zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, xizmatlar sohasining kengayishi, masofaviy mehnat, moslashuvchan ish shakllari va malakaga asoslangan raqobat ishga yollash jarayonlarini tubdan yangilashni talab qilmoqda. Bunday sharoitda rekruting agentliklari ish beruvchilar va ish qidiruvchilar o‘rtasida vositachi institut sifatida maydonga chiqib, bandlikni oshirish, bo‘sh ish o‘rinlari haqida axborot yetkazish, nomzodlarni saralash va ishga joylashtirish jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, mazkur qonunning maqsadi xususiy bandlik agentliklarining faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat . Qonunda ish qidirayotgan shaxslarga ish tanlash bo‘yicha xizmatlar shartnoma asosida ko‘rsatilishi, bunday xizmatlarga nomzodlar haqidagi axborotni ish beruvchilarga yetkazish, bo‘sh ish o‘rinlariga ega ish beruvchilarni izlash, ish beruvchi bilan muzokaralar o‘tkazish, suhbatga tayyorlash va mehnat shartnomasi loyihalarini tayyorlashda ishtirok etish kabi vazifalar kirishi belgilangan . Demak, rekruting agentligi faqatgina nomzod topuvchi tashkilot emas, balki mehnat bozorida axborot, tanlov, maslahat, saralash va huquqiy ko‘mak funksiyalarini bajaruvchi institutsional subyektdir.

Mazkur jarayonda gender tenglik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bandlik darajasidagi gender tafovutlar iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik, kambag‘allikni qisqartirish va inson kapitalidan samarali foydalanishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2021-yilda ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki erkaklarnikidan 28 foiz punktga past bo‘lgan; agar ayollar iqtisodiyotda erkaklar bilan teng darajada ishtirok etsa, milliy daromad 29 foizga oshishi mumkinligi qayd etilgan . Jahon banki Gender Data Portal ma’lumotlarida 2025-yil uchun O‘zbekistonda ayollar mehnat kuchida ishtiroki 41,2 foiz, erkaklarniki esa 73,9 foiz deb ko‘rsatilgan .

Shu sababli aholi bandligini oshirishda rekruting agentliklari orqali gender teng imkoniyatlarni shakllantirish nafaqat ijtimoiy adolat masalasi, balki iqtisodiy samaradorlik, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va raqobatbardosh mehnat bozorini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi gender statistikasi portalida gender tafovutlarni o‘rganishga xizmat qiluvchi 120 dan ortiq indikator mavjudligi qayd etilgan . Bu esa mehnat bozorida genderga oid tafovutlarni muntazam o‘lchash, tahlil qilish va rekruting agentliklari faoliyatini baholash uchun muhim axborot bazasini shakllantiradi.

1- jadval

Rekruting agentliklari orqali gender teng imkoniyatlarnishakllantirishning konseptual modeli

Bosqich	**An’anaviy rekrutingdagi muammo**	**Genderga sezgir yondashuv**	**Kutiladigan natija**
Bo‘sh ish o‘rnini e’lon qilish	E’londa “erkak kishi kerak”, “faqat ayollar” kabi cheklovchi iboralar ishlatilishi mumkin	Kasb va lavozim talablari faqat malaka, tajriba va kompetensiyaga asoslanadi	Nomzodlar bazasi kengayadi
Nomzodlarni qidirish	Ayollar ayrim sohalarda kamroq jalb qilinadi	Ayollar va erkaklar uchun teng axborot kanallari yaratiladi	Mehnat bozorida inklyuzivlik oshadi
CV saralash	Oilaviy holat, yosh yoki jinsga qarab norasmiy tanlov bo‘lishi mumkin	Anonimlashtirilgan yoki kompetensiyaga asoslangan saralash qo‘llanadi	Tanlov xolisligi kuchayadi
Suhbat jarayoni	Ayollarga oilaviy majburiyatlar haqida ortiqcha savollar berilishi mumkin	Standartlashtirilgan savollar va baholash mezonlari qo‘llanadi	Subyektivlik kamayadi

Ishga joylashtirish	Erkaklar yuqori haq to‘lanadigan lavozimlarga ko‘proq yo‘naltirilishi mumkin	Ish haqi, lavozim va o‘sish imkoniyatlari bo‘yicha teng yondashuv joriy etiladi	Gender tafovut qisqaradi
Monitoring	Ishga joylashtirilgandan keyingi natijalar kuzatilmaydi	Ayollar va erkaklar kesimida joylashish, ish haqi, barqarorlik tahlil qilinadi	Sifatli bandlik oshadi

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, gender tenglik faqat ishga qabul qilishning yakuniy bosqichida emas, balki butun rekruting zanjiri davomida ta’minlanishi kerak. Ayniqsa, e’lon matni, nomzodlarni qidirish kanallari, suhbat savollari va ish haqi bo‘yicha takliflar gender xolislik mezonlariga mos bo‘lishi zarur.

2- jadval

O‘zbekistonda gender teng rekruting uchun huquqiy asoslar

Huquqiy hujjat	Mazmuni	Rekruting agentliklari uchun ahamiyati
“Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi Qonun	Xususiy bandlik agentliklari faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi	Agentlik faoliyatining qonuniy, shaffof va kamsitishsiz bo‘lishini talab qiladi
“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun	Bandlik sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta’minlashni belgilaydi	Ishga joylashtirishda gender tenglikni bandlik siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida ko‘rsatadi
“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun	Qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat	Mehnat munosabatlari, iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy sohalarda gender tenglikka huquqiy asos yaratadi
Xalqaro mehnat standartlari	ILOning xususiy bandlik agentliklari bo‘yicha 181-konvensiyasi agentliklarni tartibga solish va ishchilarni himoya qilish uchun asosiy xalqaro me’yor sifatida talqin qilinadi	Rekruting jarayonida shaffoflik, adolat va nomzodlar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi

Ushbu huquqiy asoslar shuni ko‘rsatadiki, gender teng imkoniyatlarni ta’minlash O‘zbekistonda faqat ijtimoiy masala emas, balki bandlik siyosati va mehnat munosabatlarining huquqiy talabi hisoblanadi.

3- jadval

Rekruting jarayonida gender tenglikka salbiy ta’sir qiluvchi omillar

Omillar guruhi	**Muammo mazmuni**	**Aholi bandligiga ta’siri**
Ijtimoiy stereotiplar	Ayrim kasblar “erkaklar kasbi” yoki “ayollar kasbi” sifatida qaraladi	Ayollar va erkaklarning ayrim sohalarga kirish imkoniyati cheklanadi
Axborot nomutanosibligi	Ayollar yuqori daromadli ish o‘rinlari haqida kamroq axborot olishi mumkin	Nomzodlar bazasi torayadi
Norasmiy tanlov mezonlari	Oilaviy holat, farzand borligi, yosh kabi omillar baholashga ta’sir qiladi	Malakali nomzodlar chetda qoladi
Ish haqi tafovuti	Bir xil malakaga ega nomzodlarga turlicha ish haqi taklif qilinadi	Mehnat motivatsiyasi va adolat hissi pasayadi

Moslashuvchan ish sharoitlarining yetishmasligi	Bolali ayollar yoki oilaviy majburiyati bor shaxslar uchun imkoniyatlar cheklangan	Faol mehnat resurslari to‘liq ishga jalb etilmaydi
Monitoringning sustligi	Agentliklar ishga joylashtirish natijalarini gender kesimida tahlil qilmaydi	Gender tafovutlar yashirin qoladi

Ushbu omillar rekruting agentliklari faoliyatida gender teng imkoniyatlarni shakllantirish uchun faqat huquqiy normalar yetarli emasligini ko‘rsatadi. Amalda genderga sezgir boshqaruv, raqamli monitoring va aniq KPI tizimi zarur.

4- jadval

Rekruting agentliklarida gender tenglikni baholash indikatorlari

Indikator	**Hisoblash mazmuni**	**Maqsadli yo‘nalish**
Ayollar va erkaklar ulushi	Ro‘yxatdan o‘tgan nomzodlar tarkibida ayollar va erkaklar nisbati	Nomzodlar bazasining inklyuzivligini baholash
Suhbatga chaqirilganlar nisbati	Saralangan nomzodlar ichida jinslar bo‘yicha ulush	Saralash bosqichidagi xolislikni aniqlash
Ishga joylashganlar ulushi	Agentlik orqali ishga joylashgan ayollar va erkaklar nisbati	Natijaviy bandlikdagi gender tafovutni o‘lchash
O‘rtacha ish haqi tafovuti	Ishga joylashgan ayollar va erkaklar o‘rtacha ish haqi farqi	Daromad tengligini baholash
Rahbarlik lavozimlariga joylashish	Yuqori lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar tarkibi	Vertikal segregatsiyani aniqlash
Qayta murojaat qilish darajasi	Xizmatdan norozi bo‘lib qayta murojaat qilganlar ulushi	Xizmat sifati va adolatlilik darajasini aniqlash
Shikoyatlar soni	Gender kamsitish bo‘yicha murojaatlar soni	Kamsitish xavfini monitoring qilish

Mazkur indikatorlar asosida har bir rekruting agentligida **Gender teng rekruting indeksi**ni ishlab chiqish mumkin. Indeks e’lon, saralash, suhbat, ishga joylashtirish va monitoring bosqichlaridagi xolislik darajasini baholaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, rekruting agentliklari aholi bandligini oshirishda uchta asosiy vazifani bajaradi.

Birinchidan, ular **axborot vositachisi** sifatida ish qidiruvchilarni bo‘sh ish o‘rinlari haqida xabardor qiladi. Bu, ayniqsa, mehnat bozoridagi axborotdan foydalanish imkoniyati past bo‘lgan guruhlar — xotin-qizlar, yoshlar, norasmiy sektorda ishlovchilar va qayta mehnat bozoriga kirayotgan shaxslar uchun muhimdir.

Ikkinchidan, rekruting agentliklari **saralash va baholash instituti** sifatida ish beruvchilar uchun mos nomzodlarni tanlaydi. Agar bu jarayon aniq kompetensiyalar, malaka va tajribaga asoslanmasa, gender stereotiplar kuchayishi mumkin. Masalan, texnika, qurilish, transport yoki boshqaruv lavozimlarida erkak nomzodlarga ustuvorlik berilishi, xizmat ko‘rsatish, ta’lim yoki parvarish sohalarida esa ayollar bilan cheklanish holatlari mehnat bozorida gorizontal va vertikal gender segregatsiyani kuchaytiradi.

Uchinchidan, rekruting agentliklari **mehnat shartnomasi va ishga joylashtirish jarayonida maslahat beruvchi subyekt** sifatida nomzodlarning huquqiy xabardorligini oshiradi. Bu jihat ayniqsa xorijga ishga joylashtirish, norasmiy bandlikni kamaytirish va mehnat ekspluatatsiyasi xavfini pasaytirishda

muhimdir. Qonunchilikka ko‘ra, xususiy bandlik agentliklari O‘zbekiston hududida ham, xorijda ishlashni istagan shaxslarga ham ish tanlash va ishga joylashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishi mumkin .

Gender teng imkoniyatlarni shakllantirishda eng muhim masalalardan biri — rekruting jarayonining **shaffofligidir**. O‘zbekiston qonunchiligida xususiy bandlik agentliklari faoliyatining asosiy prinsiplari qatorida ochiqlik, shaffoflik va kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik belgilangan . Biroq amaliyotda ushbu prinsiplarni amalga oshirish uchun aniq mexanizmlar kerak: gender neytral e’lonlar, standart suhbat savollari, anonim CV saralash, ish haqi diapazonini oldindan e’lon qilish, agentliklar faoliyati bo‘yicha gender statistik hisobot yuritish.

5- jadval

Rekruting agentliklari orqali gender teng bandlikni rivojlantirishning SWOT tahlili

Kuchli tomonlar	**Zaif tomonlar**
M e	Ayrim agentliklarda gender tahlil va monitoring tizimi yetarli emas
Bo‘sh ish o‘rinlari haqida axborot almashinuvini jadallashtiradi	Norasmiy stereotiplar saralash jarayoniga ta’sir qilishi mumkin
Ish qidiruvchilarga maslahat, suhbatga tayyorlash va huquqiy ko‘mak beradi	Ish haqi va lavozim takliflarida gender tafovutlar yashirin qolishi mumkin
Raqamli platformalar orqali xotin-qizlar bandligini oshirish imkoniyati mavjud	Aholining barcha qatlamlari raqamli xizmatlardan teng foydalana olmaydi

Imkoniyatlar	**Tahdidlar**
Genderga sezgir rekruting standartlarini ishlab chiqish	Xususiy agentliklar faqat tijorat manfaatini ustun qo‘yishi mumkin
Ayollarni yuqori daromadli va texnologik sohalarga yo‘naltirish	Gender tenglik formallashib, amalda bajarilmasligi mumkin
Davlat bandlik organlari va xususiy agentliklar hamkorligini kuchaytirish	Norasmiy bandlik va noqonuniy vositachilik xavfi saqlanib qolishi mumkin
Gender statistikasi asosida rekruting reytingini joriy qilish	Nazorat mexanizmlari sust bo‘lsa, kamsitish holatlari yashirin qoladi

SWOT tahlil shuni ko‘rsatadiki, rekruting agentliklari gender teng bandlikni kengaytirish uchun katta imkoniyatga ega. Ammo buning uchun ularning faoliyatiga gender auditi, monitoring va hisobot tizimi joriy etilishi zarur.

Xulosa

Aholi bandligini oshirishda rekruting agentliklari muhim institutsional vosita hisoblanadi. Ular ish beruvchilar va ish qidiruvchilar o‘rtasida axborot almashinuvini tezlashtiradi, bo‘sh ish o‘rinlarini to‘ldirishga ko‘maklashadi, nomzodlarni saralaydi hamda ishga joylashtirish jarayonini tashkil etadi. Biroq ushbu jarayon gender tenglik tamoyillariga asoslanmasa, mehnat bozoridagi mavjud tafovutlar yanada kuchayishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender teng imkoniyatlarni shakllantirish uchun rekruting agentliklari faoliyatida shaffoflik, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, kompetensiyaga asoslangan saralash, gender statistik monitoring va ish beruvchilar bilan mas’uliyatli hamkorlik muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston qonunchiligida xususiy bandlik agentliklari faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri

kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik ekani belgilangan . Shuningdek, gender tenglik to‘g‘risidagi qonunchilik mehnat munosabatlari, iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy sohalarda ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni kafolatlaydi .

Shu asosda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Rekruting agentliklari aholi bandligini oshirishda davlat bandlik siyosatini to‘ldiruvchi muhim bozor instituti hisoblanadi.
2. Gender teng imkoniyatlarni ta’minlash ishga yollash jarayonining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi kerak.
3. Ayollar bandligini oshirish nafaqat ijtimoiy adolat, balki iqtisodiy o‘sish va kambag‘allikni qisqartirish omilidir.
4. Rekruting agentliklari faoliyatida gender statistikasi, gender auditi va gender indikatorlari joriy etilishi zarur.
5. “Gender teng rekruting indeksi” agentliklar faoliyatini baholash va sog‘lom raqobatni shakllantirish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi O‘RQ-501-son Qonuni, 2018-yil 16-oktabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-son Qonuni, 2020-yil 20-oktabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonuni, 2019-yil 2-sentabr.
4. World Bank. *Country Gender Assessment Report: Uzbekistan*, 2024.
5. World Bank Gender Data Portal. *Uzbekistan gender and labor force participation indicators*.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. *Gender statistikasi portali.*
7. International Labour Organization. *Private Employment Agencies Convention, 1997, No. 181*.
8. Mankiw, N. G. *Principles of Economics*. Cengage Learning.
9. Becker, G. S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis.*
10. Porter, M. E. *The Competitive Advantage of Nations.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АУДИТА КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ

Файзиев Умуркул Шухратович
старший преподаватель Ташкентского государственного экономического университет, PhD
Шарипова Райхона
Студентка Ташкентского государственного экономического университет

Аннотация. *Аудирование консолидированных финансовых положений представляет собой трудоемкий процесс, включающий в себя процедуры исследования всех существенных бухгалтерских документов: от первичных регистров до формированного общего отчета группы компаний как одного*

целого. В соответствии с этим утверждением, в исследовательской работе провели сравнительный анализ между нормативно-правовыми базами на национальном и международном уровнях, консолидации отчетов, для вскрытия основ перехода на МСФО, МСА для консолидации финансовых отчетов (далее КФО) и аудита ее. Проанализированы состав и элементы форм финансовых отчетов в структуре КФО. Раскрыта их экономический смысл. Особое внимание уделено пользователям КФО с правами на организации их, ознакомления с ними. Все особенности консолидации и аудита КФО изложены на примере объекта исследования, АО НХК "Узбекнефтегаз". В рамках этой организации изучены главные проблемы с которыми она сталкивается, и рекомендованы возможные пути по их устранению. Выявлены более подверженные к риску существенных искажений части КФО на примере объекта научной работы.

Изученная литература В процессе проведения работ, просмотрены учебные методические материалы различных авторов по всему миру. Из них доктора экономических наук *Ана Симпсон, Чжень Сюй и Вэньи Чжен* про значимость КФО в настоящем быстро растущем экономике подчеркивают важность КФО для понимания структуры, финансовых рисков и реальной экономической ситуации группы. Чему дополняют австралийские ученые из TYC (UTS), *Мартин Бугеджда, Анна Лоюнг, Нельсон Ма,* с утверждением, что в КФО попадают только контролируемые подразделения материнской компании, чему служит основой признание *контроля* по МСФО 10. Следующий профессор, бывший президент AAA (Американской бухгалтерской ассоциации), ведущийспециалист по оценке справедливой стоимости средств, *Мэри Барт, в своем* научном докладе устанавливает приоритетных принципов и правил консолидации дочерних и главенствующих предприятии, выделяя особую значимость первой : *"Активы и обязательства полностью показываются в КФО, за исключением синергии и ВГО* (внутригрупповых операции) между компаниями. Дочерняя компания может иметь большую ценность в группе, чем вне ее" Российские ученые в сфере экономических наук Смагина М. Н., Т.В. Косинец, Р.В. Моргунова , оценивающие внедрения МСФО и МСА с начала 21 века, пришли к выводу, что они представляют собою единых правил организации бухгалтерского учета и аудита по всему миру. В основном, снабжают финансистов и проверяющих их аудиторов с предостаточным количеством, утвержденных организациями IFRS FUNDATION и IAASB, подробных инструкции на все финансовые обстоятельства в жизни бизнеса. По их мнению, КФО играет важную роль при аудите, поскольку является основой для анализ прибыльности, оценки финансового состояния, выявления рисков, и принятия управленческих и стратегических решений.
В работе рассмотрены этапы появления и развития КФО на основе трудов *Эдуарда А. Крэк* (Edward A. Kracke). Он раскрывает факторов, которые легли в основу КФО и дальнейшего назначения ее в своей статье "Консолидированные финансовые положения" (Consolidated Financial Statements".

Нормативно-правовые материалы Основополагающими законодательными актами по пользованию руководствами *МСФО* и *МСА* послужили следующие положения: Постановления президента РУЗ №ПП-4611 от 24.02.2020г. *“О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности”,* №ПП-282 от 15.09.2025г. *“О мерах по совершенствованию системы финансового учета в соответствии с международными требованиями и стандартами”.* Постановлению Государственного налогового комитета РУЗ №3172 от 12.07.2019г., *“Об утверждении положения об установлении критериев отнесения юридических лиц к категории крупных налогоплательщиков”.* Приказу Министерства финансов №3400 от 09.12.2022г. *“О признании текста МСФО и разъяснений по его применению на территории РУЗ” . “Закона об аудиторской деятельности”,* № 677 от 25.02.2021г. *“Законы О бухгалтерском учете”,* ЗРУ-404 от 13.04.2016г., Налоговый Кодекс РУЗ

Анализ и результаты исследования В целях выявления основных причин предпочтения пользователями МСФО чем НСБУ, мы провели сравнительный анализ между ними. В результате которой, были обнаружены ряд удобностей первой, в том числе: в ориентированности финансовой отчетности (далее ФО) составленной на основе международных стандартов, валюте ФО, в используемых счетах в ФО, сроки организации и публикации консолидации ФО, в расчетах НДУ, Гудвилл, главных методах учета ТМЗ, оценки ОС, критериях признания участников КФО и так далее. Коренным различием выступает приоритетная группа пользователей КФО. Согласно национальному законодательству к ним относятся регулирующие правительственные органы: налоговые, статистические, налоговые аудиторы, государство, казначейство, таможенные органы. В то время, как международные стандарты фокусируются на акционеров, владельцев, кредиторов, банков, потенциальных инвесторов, внутреннего контроля и на любых заинтересованных сторон бизнеса.

Справочник: *НК - Налоговый Кодекс; Группа - объединенных под единым контролем ряд компании, периодически консолидирующие своих отдельных ФО.; ЧА - чистые активы УК - уставной капитал (фонд); АН - акцизный налог; НП - налог на прибыль; НПН - налог за пользование недрами; М - материнская компания; Д - дочерняя организация; П - прибыль; А - актив;*

Сравнение критериев признания участников холдинговых групп компаний по НСБУ и МСФО.

НСБУ, НК	**МСФО**
Не находится в процессе реорганизации, ликвидации.	Мама *контролирует* Д.
Отсутствие дел о неплатежеспособности.	Мама имеет *полномочия* принимать решения, участвовать в управлении Д.

Мама владеет >= 90% каждой своей дочерней организации. (НК), >50% акции или наличие *контроля* (НСБУ-	>50% акции дочерней организации.
ЧА > УК	Мама имеет права получать как *прибыли* периода Д, так и *убытков*.
НДС+АН+НП+НПН >= 100 млрд. сум	Нет четко установленных ограничений касающихся размеров ЧА, УК, П, А и так далее.
Срок договора о создании консолидированного общества >= 2 лет	Отсутствует условие заключения *договора*; *Срок* истекает когда теряется контроль.

Национальные требования по отношению к признанию группу как холдинговой весьма жесткие и комплексные, что не проявляется в принципах легитимации общества консолидированной по МСФО 10. В ходе исследования и изучения структуры НКХ АО ”Узбекнефтегаз” замечены более подвергаемые к риску существенных искажений части КФО. С учетом недавних манипуляции сотрудниками ценовой политикой и кражей запасов общества, мы делаем акценты на выборке аудиторских процедур по отношению к статьям “прибыли и убытков “Финансового положения о прибыли или убытке (далее ОПУ), наблюдению за поступлениями и сбытом денежных средств, запасов нефтепродуктов предприятия.

Предприятие также подвергся к увеличению объемов своих дебиторских задолженностей, которое обосновано с нарушением учетной политики предприятия о не отгрузке продуктов, не продаже литров газ при отсутствии надлежащего аванса либо полной оплаты заказа приобретателем. Мы также подчеркнули необходимости перепроверки учета, обесценении, амортизации простаивающих основных средств предприятия. Определили порог существенности опирающая на четырех базовых величин для общих допустимых ошибок в КФО группы в соответствии с указаниям аудиторской организации КПМГ: ***PM (планируемая существенность)*** = ***Базовая расчета * %*** *(процентная ставка зависит от характера базы)* Выбор базовой величины зависит от особенности отрасли бизнеса. Результатом рассчитанного предела ошибок в КФО могут быть следующие:

1. Прибыль до налогообложения * 5% (ориентированность бизнеса на прибыль)
2. Выручка * 0.5-1 % (ориентированность на объем операции, масштаб продаж)
3. Активы * 1-2 % (ориентирован на долгосрочные активы, инвестиции)
4. Капитал * 1-5% (ориентированность на чистые активы, сохранность капитала)

Особое внимание уделено на произошедшие аварии в глубоких скважинах газа на территории Байсунского района, Сурхандарьинской области. Рассмотрены особенности осуществления газовой промышленности на этой местности согласно проекту “Мустакиллик-25”, финансируемого тремя мажоритарными. Проанализированы дальнейшие последствия

случившейся инцидента утечки ядовитого газа с выбросами сероводородов на атмосферу. Порекомендованы перечень аудиторских мероприятий, необходим для реализации по отношению к всей отчетности холдинговой компании с множествами филиалов.

Заключение

*Н*аша исследовательская научная работа затрагивает таких первоочередных тем, как актуальность внедрения МСФО на национальном уровне, основные недостатки национальных стандартов, базирование принципов консолидации на международные требования. По результатам методов наблюдения и сравнений выявлены более рискованные отрасли в АО ”Узбекнефтегаз”, предложены обязательные процедуры проверок. Остается открытым вопрос о минимизации человеческого фактора при реализации проектов по сохранению и снижению суммы объемов ископаемых природных ресурсов: нефти, газа, продуктов углеводородов.

Использованная литература

1. С.Н. Ташназаров *“Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari”* - Ташкент “Iqtisodiyot-Moliya”, 2019г.

2. Мартин Бугеджда, Анна Лоюнг, Нельсон Ма. ““*The impact of IFRS 10 on consolidated financial reporting*” - Австралия, 2022г.

3. Чжень Сюй, Вэньи Чжен, Ана Симпсон. “P*ost-implementation Review of IFRS 10 Consolidated Financial Statements, IFRS 11 Joint Arrangements and IFRS 12 Disclosure of Interests in Other Entities”* - Лондон, 2021г.

4. Мери Барт. *“BIS Working Papers No 208 Including estimates of the future in today's financial statements”* - Швейцария, 2006г. Опубликован Банком международных

ТЕОРИТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АУДИТА МАТЕРИАЛЬНЫХ ЗАТРАТ НА ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Файзиев Умуркул Шухратович
Доцент Ташкентского государственного экономического университета
Курбанова Мохинур
Студентка Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация *В данной работе рассматриваются теоретические и практические аспекты аудита материальных затрат на современных производственных предприятиях в условиях перехода на международные стандарты (МСФО и МСА). Актуальность исследования обусловлена необходимостью повышения финансово-экономической стабильности предприятий Узбекистана и оптимизации себестоимости продукции в условиях рыночной конкуренции. В работе проанализированы сущность материальных затрат, факторы, влияющие на их уровень (материалоемкость, материалоотдача, рентабельность), а также нормативно-правовая база регулирования аудиторской деятельности в Республике Узбекистан. Особое внимание уделено методике проведения аудиторских процедур, направленных на выявление рисков существенного*

искажения отчетности и поиск резервов снижения издержек.

Изученная литература

Теоретическая база исследования опирается на труды отечественных и зарубежных ученых. Вопросы теории и практики бухгалтерского учета и аудита в Узбекистане освещены в работах таких авторов, как: Дустмуратов Р.Д. и Останакулов, изучавшие общую теорию учета. Эргашева Ш., Гадоев Э.Ф., Каримов А., сосредоточенные на практических аспектах финансового учета.

На международном уровне значительный вклад в изучение издержек производства внесли Николас Грегори Мэнкью и Ха-Джун Чанг, рассматривающие затраты как инструмент анализа конкурентоспособности и промышленной политики. Райзберг Б.А., Жданов С.А., Ивашкевич В.Б., акцентирующие внимание на планировании, контроле и минимизации расходов для повышения эффективности.

Нормативную основу составили Постановления Президента РУз (в частности, № ПП-282 о переходе на МСФО), Налоговый кодекс и Национальные стандарты бухгалтерского учета (НСБУ).

Анализ и результаты исследования

В ходе исследования был проведен анализ экономической сущности материальных затрат и механизмов их аудита. Установлено, что ключевыми индикаторами, подлежащими аудиторской проверке, являются:

- Материалоемкость: отражает долю материальных затрат в себестоимости. Ее рост свидетельствует о снижении рентабельности.
- Материалоотдача: характеризует объем выпуска продукции на 1 единицу затрат. Рост данного показателя является сигналом оптимизации рецептур и борьбы с браком.
- Рентабельность затрат: интегральный показатель, отражающий прибыль на единицу вложенных ресурсов.

Выявлено, что на уровень затрат влияют внутренние (управляемые) и внешние (неуправляемые) факторы. К внутренним относятся технологии производства и квалификация персонала; к внешним — инфляция и цены на сырье.

Таблица 1

Показатели изменения материальных затрат

№	Внутренние факторы	Внешние факторы
1	Материально-техническая база	Цены на сырье и энергию
2	Объем и ассортимент выпуска	Законодательство и налоги
3	Персонал и производительность	Инфляция
4	Учетная политика	Конкурентная среда
5	Организационная структура	Тарифы

На примере АО «Навоиазот» показано, что замена устаревшего оборудования и оптимизация состава персонала позволяют существенно

снизить материальные издержки.

Анализ показал, что совершенствование аудита требует перехода от общих инструкций к конкретным процедурам, основанным на МСА. Эффективная процедура должна включать:

1. Проверку полноты и своевременности оприходования ценностей.
2. Оценку качества проведенных инвентаризаций.
3. Сопоставление фактических расходов с утвержденными нормами (ГСМ, сырье).
4. Проверку методов оценки запасов (ФИФО, средневзвешенная) на соответствие учетной политике.

Дискуссия

В процессе исследования выявлены различия в подходах к учету затрат. В то время как в зарубежной практике (США, Европа) акцент смещается на концепции распределения косвенных расходов (Standard Costing, Absorption Costing), отечественные руководители зачастую принимают решения о снятии продукции с производства без глубокой оценки объективности затрат.

Дискуссионным остается вопрос минимизации затрат: согласно мнению Ха-Джун Чанга, чрезмерный фокус на минимизации без учета долгосрочного развития производства может быть губителен для экономики. Исследование подтверждает, что в современных условиях Узбекистана (согласно Стратегии-2030) аудит должен стать не просто инструментом контроля, а механизмом стимулирования внедрения «зеленых» и ресурсосберегающих технологий.

Заключение

Аудит материальных затрат должен базироваться на строгом соблюдении Налогового кодекса и Закона «О бухгалтерском учете», особенно в части формирования производственной себестоимости. При этом необходимо внедрение конкретизированных аудиторских процедур («пересчитать», «согласовать», «проследить»), что исключает формализм и повышает прозрачность проверки. Для таких гигантов, как АО «Навоиазот», аудит является способом сохранения контроля в условиях экономической турбулентности, позволяя выявить скрытые потери и ошибки в сложных технологических процессах. Для этого основными путями повышения эффективности признаны внедрение новейших технологий, автоматизация процессов и переход на международные стандарты финансовой отчетности.

Список использованной литературы

1. Постановление Президента РУз № ПП-282 «О мерах по совершенствованию системы финансового учета…» от 15.09.2025 г.
2. Указ Президента РУз № ЗРУ-404 «О бухгалтерском учете» от 13.04.2016 г.
3. Указ Президента РУз № УП-100 «О дополнительных мерах по усилению финансового контроля…» от 10.07.2024 г.
4. «Стратегия действий Республики Узбекистан-2030» № УП-158 от 11.09.2023 г.
5. Do‘stmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – Toshkent: Yangiyul poligraf servis, 2007.

6. Ergasheva Sh. Бухгалтерский учет. – Toshkent: «Иқтисод-молия», 2010.
7. Гадоев Э.Ф. Бухгалтер учун амалий қўлланма. – Тошкент: Норма, 2011.
8. Жданов С.А. Основы теории экономического управления предприятием. – М.: Финпресс, 2010.
9. Райзберг Б.А., Лобко А.Г. Программно-целевое планирование и управление. – М.: ИНФРА-М, 2012.
10. Официальные данные АО «Навоиазот» [Электронный ресурс]. – URL: https://www.navoiyazot.uz/ru

Birlashgan millatlar tashkilotining savdo va taraqqiyot konferensiyasining (UNsTAD) oylik hisobotiga ko‘ra, global ahl to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 2025-yilda 14 foizga o‘sib, 1,6 trillion dollarga yetadi. Rivojlangan mamlakatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi 43 foizga o‘sib, 728 milliard dollarni tashkil etdi. Xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi 56 foizga o‘sdi, eng katta o‘sish Germaniya, Fransiya va Italiyada kuzatildi[25]. Hisobotga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarga investitsiyalar oqimi 2 foizga kamayib, 877 milliard dollarni tashkil etdi. Shunga qaramay, ular butun dunyo bo‘ylab TTXIlarning 55 foiz ni tashkil etmoqda. Dunyoning eng kam rivojlangan mamlakatlarining 75 foizida TTXIlar oqimining turg‘unligi yoki kamayishi kuzatildi. Agar moliyalashtirish shartlari yumshatishda davom etsa va transshegaraviy qo‘shilish va sotib olishlar kushayib ketsa, TTXIlar oqimi bu yil biroz oshishi mumkin.

O‘zbekistonda islohotlarning yangi bosqishida oqilona investitsiya siyosatini amalga oshirish natijasi sifatida “…barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash”, bu sohada “2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va «daromadi o‘rtashadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish» masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ammo, respublikada olib borilayotgan islohotlar orqali so‘nggi besh yilda qator ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lishiga qaramasdan, mavjud investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish borasida hududlar o‘rtasida turli xil darajada nomutanosibliklar mavjudligi sababli barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlash masalasi eng dolzarb muammolardan biri

[26] yangi investitsiya loyihalarni amalga oshirishda hududlardagi maxsus zonalardan hamda sanoat kooperatsiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali qo‘shilgan

[27] Bugungi kunda olib borilayotgan iqtisodiy tadqiqotlarda “investitsiyalar”, ‘

[25] https://unstad.org/news/global-foreign-investment-14-2_025_-growth-sonsentrated-developed-esonomies

[26] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 202_4-yil 14-fevraldagi 92-son “O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil I shoragiga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish shora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori. https://lex.uz/ru/doss/6801272.

[27] https://uza.uz/uz/posts/yangi-yilda-investisiya-siyosatini-amalga-oshirish-va-yashil-energetikani-rivozhlantirish-masalalari-muhokama-qilindi_553781. Yangi yilda investitsiya siyosatini amalga oshirish va “yashil” energetikani rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

“investitsion faollik”, “investitsion mexanizm”, “investitsion faoliyat” va shu kabi iqtisodiy tushunchalarga yagona bir ta’rif keltirilmagan. Ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda “investitsion faollik”ka yaqin bo‘lgan tushunchalar: “investitsion jozibadorlik”, “investitsion muhit” “investitsion imij” sinonim sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Bizning fikrimizcha, “investitsion faollik” mustaqil kategoriya bo‘lib, xo‘jalik sub’ektlarining barqaror moliyaviy holatini tavsiflaydi va aniq davr uchun real resurslarining safarbar etilishini anglatadi. Buni investitsion talabni qondiradigan jarayon sifatida ham talqin etish mumkin.

Investitsion jozibadorlikni baholash tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bunday tadqiqotlar 1970 yillardan boshlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Garvard biznes maktabida dunyo mamlakatlarining investitsion jozibadorligi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar ushbu sohada amalga oshirilgan dastlabki izlanishlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, bugungi kunda “Euromoney”, “Fortune”, “The Yesonomist” kabi xalqaro iqtisodiy jurnallarda ham doimiy ravishda investitsion muhit bo‘yicha reyting baholari e’lon qilib borilmoqda. Ushbu aytib o‘tilgan reytinglar, asosan, mamlakatlarning investitsion jozibadorligini baholashga qaratilgan, ya’ni makroiqtisodiy darajadagi tahlillardir. Vaholanki, investorlar aniq bir investitsion loyiha bo‘yicha investitsiya qarorlarini qabul qilishlari uchun investitsion jozibadorlikning makroiqtisodiy darajalari kabi mikroiqtisodiy – tarmoqlar, mintaqalar, tashkilotlar darajalarini ham hisobga olishlari kerak.

Iqtisodchi olima T.M. Smaglyukova investitsion faollikni belgilovchi barcha ko‘rsatkichlardan kompleks baholash talablariga ko‘proq muvofiq keladigan ko‘rsatkichlarni ajratib oladi. Uning fikricha, mazkur ko‘rsatkichlar investitsion jarayonning barcha tomonlarini aks ettiruvchi investitsion faollik omillari tarkibiga kiritiladi[28]. Uning fikricha, barcha keltirilgan omillar yordamida qo‘yilmalarning xatarlikka tortilgan darajasi tahlil qilinishi mumkin. Tarmoqlar darajasida qo‘yilmalarning xatarlik darajasini baholash uchun ushbu ro‘yxatdan siyosiy, ijtimoiy, infratuzilma, qonuniy va jinoiy, innovatsion va resurs-xom ashyo omillari chiqarib tashlangan. Bu ularning tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichlarni shakllantirishga yetarli darajada ta’sir ko‘rsatmayotgani bilan izohlanadi. Investitsion salohiyat kategoriyasi uzoq vaqt davomida foydalaniladigan aktivlarga, shu jumladan, daromad yoki boshqa iqtisodiy natijalarni ko‘paytirish maqsadida qimmatli qog‘ozlarga mablag‘larni yo‘naltirish imkoniyati sifatida talqin etib kelingan.

Mamlakatning investitsion salohiyatini shakllantirish va amalga oshirish tahliliga bag‘ishlangan, F.S.Tumusov tomonidan taklif etilgan yondashuv ham diqqatga sazovor. U “investitsion salohiyat”ni sarmoyani takror ishlab chiqarishning moddiy, moliyaviy va intellektual ehtiyojlarini qondirishni ta’minlovchi real investitsion talabga aylanish imkoniga ega bo‘lgan investitsiyalar bozorida investitsion talab shaklida namoyon bo‘ladigan, to‘plangan sarmoyaning bir qismidan iborat investitsion resurlarning jamlanmasi[29] sifatida talqin qilinadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan biri Sh.I.Mustafaqulov investitsion muhit

[28] Смаглюкова Т.М. Методика комплексной оценки инвестиционной привлекательности регионов с учетом их отраслевой специализации.// Проблемысовременнойэкономики. 2007. – № 3(23).

[29] Тумусов Ф.С. Инвестиционный потенциал региона: теория, проблемы, практика.- М., Экономика, 1999. С. 272.

va uning shakllanishi xususida to‘xtalib: “Investitsion muhit investitsion jarayonlar amalga oshadigan sharoit bo‘lib, u hududning investitsion faoliyati hamda investitsiyalarning risk darajasini aniqlaydigan siyosiy, iqtisodiy huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta’sirida shakllanadi”[30], - deya fikr bildirgan.

arish, investitsiya mexanizmining to‘liq shakllanmaganligi va rivojlanmaganligi, tovar-moddiy mablag‘larni, investorlarning tovar va pul mablag‘larini, investorlar – iqtisodiyot sub’ektlari uchun moddiy-texnika, uskunalar bilan ta’minlovchilar, chiqarish, sotish natijalari xarakatini to‘liq nazorat qilish imkonini beruvchi

ng moliyaviy xatarlarini pasaytirib, kundalik faoliyatidagi xarajatlarini qisqartiradi, takror ishlab chiqarishning uzluksizligi va barqarorligini ta’minlashda bevosita i n Tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, Respublikamizda investitsion jarayonlardagi mavjud kamchiliklar va muammolarni eh a l etish uchung keng qamrovli chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilib, amaliyotga jsoriy etilmog‘i lozim. Mamlakatimizning investitsion faolligi va jozibadorligini toshirishda quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga o r – iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etishning ustuvor y

– investitsion jarayonni ilmiy va amaliy asoslangan baholar tizimi bilan ‘ta’minlash;

– hududlar darajasida iqtisodiyotning o‘ziga xos real xususiyatlarini to‘liq

Investitsiya faolligi va uning samaradorligini oshirish uchun yuqorida ta’kidlab o‘tilgan chora-tadbirlar, avvalambor, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik bashoratlarga asolanmog‘i lozim, chunki iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda yuqori samaraga erishishda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatlari ham muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham mamlakat doirasida ishlab chiqiladigan investitsiya dasturlari va loyihalari iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lmog‘i lozim.

[30] Мустафақулов Ш.И. Инвестицион муҳит жозибадорлиги. – Т.: BAKTRIA PRESS, 2017 й., Б.39.

2-YO‘NALISH. O‘RTA OSIYODAGI IQTISODIY QARASHLAR EVOLYUTSIYASI VA IQTISODIY MAKTABLARNING SHAKLLANISHI

IQTISODIY O‘SISHNING ENG MASHHUR NAZARIYALARI

Dilarom Tojiboyeva
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.
J.J.Xolmurzaye, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Iqtisodiy o‘sish — real YaIM (yalpi ichki mahsulot) ning oldingi yilga nisbatan hajmining va tarkibining ko‘payishi, sifatining yaxshilanishini ko‘rsatadi. Iqtisodiyotning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish salohiyatining uzoq muddatli o‘sishi - bu iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, turmush sifatining yaxshilanishi, aholi daromadlarining o‘sishi va mamlakatdagi texnologik taraqqiyotdan dalolat beradi.

Albatta, ular orasida zamonaviy iqtisodiy o‘sish modellari muhim ahamiyatga ega va ular turli-tuman. Ular ikki katta yo‘nalishga bo‘linadi: keynschilik (neokeyschilik) va neoklassik modellar.

Keyns (neokeyschilik) modellari: Yalpi talab va davlat tomonidan tartibga solishning roliga urg‘u berib, qisqa muddatli iqtisodiy o‘sishni tahlil qilishga qaratilgan. Bu yo‘nalishning mashhur modellari (ularni yaratgan olimlarning nomi bilan atalgan). Ular orasida eng mashhurlari Xarrod va Domar modeli hisoblanadi. Bu yo‘nalish modellari talabga yo‘naltirilgan. Ular narxlarning qat’iyligi, uzoq muddatli ishsizlik ehtimoli va davlat aralashuvining zarurligini ko‘rsatadi. **Neoklassik modellar.** Neoklassik modellar Keyns (neokeyschilik) modellaridan farq qilib, taklifga yo‘naltirilgan. Bozorning o‘z-o‘zini tartibga solishi, moslashuv-chan narxlar va ish haqi, to‘liq bandlik sharoitida uzoq muddatli muvozanatni nazarda tutadi. Bu yo‘nalishdagi modellar mehnat xarajatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tavsiflovchi asosiy neoklassik ishlab chiqarish funksiyasiga asoslanadi. Bu modellar ikki guruhga bo‘linadi: **ekzogen** (tashqi omillar) va **endogen** (ichki) omillarga tayanuvchi modellardir. **Ularning asosiy jihatlari va xususiyatlari:**

• **Ichki va tashqi omillar:** Texnologik taraqqiyot tashqi-ekzogen bo‘lgan neoklassik modellardan farqli o‘laroq, endogen modellar uni ichki jarayonlarning natijasi deb hisoblaydi.

• **Investitsiyalarning roli:** Ekzogen o‘sish modellari asosiy diqqatni moddiy kapital omiliga qaratsa, endogen o‘sish modellari nafaqat asosiy kapitalga, balki inson kapitaliga ham investitsiyalarning rolini ta’kidlaydi.

• **Innovatsiyalar:** Zamonaviy o‘sish nazariyalari uzoq muddatli rivojlanishning asosiy manbai sifatida innovatsiyalarga katta e’tibor qaratadi.

Neoklassik modellar orasida eng mashhurlaridan Kobb, Duglas, Solou modellari hisoblanadi. Bu modellar "ekzogen" bo‘lib, uzoq muddatli o‘sishni tashqaridan berilgan omillar, birinchi navbatda, asosiy kapital, texnik taraqqiyot bilan tushuntirshadi. Asosiy drayver kapital jamg‘arilishi hisoblanadi.

Ma’lumki, Robert Solouni 1987-yilda Shvetsiya Fanlar akademiyasi "iqtisodiy o‘sish nazariyasiga qo‘shgan hissasi" uchun iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti bilan taqdirlagan.

Solou modeli iqtisodiy o‘sishning klassik ekzogen modelidir. U texnologik taraqqiyot sur’atlari, aholi o‘sishi va jamg‘arma normasi (me’yor)i iqtisodiy tizim tomonidan emas, balki tashqaridan (ekzogen) omillar ta’sirini, investiцiyalarni nazarda tutadi.

Solou modeli shuni ko‘rsatadiki, faqat texnologik taraqqiyot turmush darajasining doimiy o‘sishini ta’minlashi mumkin, ya’ni uni uzoq muddatda saqlab qolish nafaqat kapital jamg‘arish, balki innovatsiyalarni ham talab qiladi. Mazkur modelda u o‘zining "oltin qoidasi"ni ishlab chiqadi.

Solouning "oltin qoidasi" shunday tamoyilki, unga ko‘ra kapitalning marjinal (chegaraviy) mahsuloti (MPK) aholining o‘sish sur’ati (n) va texnologik taraqqiyot sur’ati (g) yig‘indisiga teng bo‘lganda aholi jon boshiga iste’molning maksimal darajasiga erishiladi. Boshqacha qilib aytganda, optimal jamg‘arish normasi (s) shunday bo‘lishi kerakki, u mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasi maksimal bo‘lgan barqaror holatni saqlab turishni ta’minlashi lozim. Oltin qoidaning uzoq muddatli rivojlanishining asosiy sharti:

$$k = sf(k) - (n+\delta+g)k$$

Bu yerda: k - samarali mehnat birligiga to‘g‘ri keladigan kapital o‘sishi;

sf(k) — investitsiyalar (f (k) ishlab chiqarishdan ***s*** *jamg‘arma ulushi);*

(n+δ+g)k — "zarar" keltirmaydigan darajadagi investitsiyalar (eskirish, ya’ni amortizatsiyani qoplaydigan - ***δ****, aholi o‘sishi -* ***n*** *va texnologik taraqqiyot -* ***g****.*

"Oltin qoida"ga mos keladigan optimal jamg‘arma normasi (me’yori) sarflangan kapitalga ko‘ra ishlab chiqarish elastikligiga teng:

$$s^* = \frac{k^{**}}{f(k^{**})} \times \frac{\partial f(k^{**})}{\partial k}$$

s* - jamg‘armaning “oltin” normasi; k** — "Oltin qoida"ga mos keladigan samarali mehnat birligiga to‘g‘ri keladigan kapital bilan qurollanganlik (ta’minlanganlik)

darajasi; ∂ – xususiy hosila, matematika va iqtisodiyotda funksiya bir nechta o‘zgaruvchilarga bog‘liq bo‘lganda qo‘llaniladi.

Solou modeli shuni ko‘rsatadiki, faqat **texnologik taraqqiyot turmush darajasining doimiy o‘sishini ta’minlashi mumkin**, demak, uni uzoq muddatli istiqbolda saqlab qolish uchun nafaqat kapital jamg‘arish, balki innovatsiyalar ham zarur.

Investitsiyalar faqat kapitalning eskirishini (amortizatsiya) va yangi ishchilarning kapital bilan qurollanishini qoplash darajasida bo‘lganda o‘sish to‘xtaydi.

Kapital bilan qurollanish darajasi kambag‘al mamlakatlarda boy mamlakatlarga qaraganda pastroq bo‘lgani sababli, ularda iqtisodiyot tezroq o‘sishi mumkin (quvib yetish effekti (samarasi).

Solou modeli iqtisodiy o‘sishining aholi jon boshiga iste’mol uchun eng yaxshi natijaga olib keladigan optimal jamg‘arma me’yorini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Keyinchalik ishlab chiqilgan Solou-Suon (Trevor Swan) modeli **iqtisodiy o‘sishni kapital, mehnat va texnologik taraqqiyotning o‘zaro ta’siri orqali tushuntiruvchi eng oddiy va mashhur talqini** hisoblanadi.

Shu bilan birga iqtisodchilar modelni aholi jon boshiga daromadning uzoq muddatli istiqbolda, tashqi texnologik taraqqiyot bo‘lmasa, aholi jon boshiga daromadning o‘sishi to‘xtashini; Dinamik muvozanatning beqarorligi tufayli muvozanatli o‘sishga faqat parametrlar bir-biriga to‘liq mos kelgandagina erishish mumkinligini, bo‘lmasa kutilgan natijaga erishib bo‘lmasligini tanqid qilishadi. Model, shuningdek, *keynscha yondashuvga* ham zid bo‘lib, unda jamg‘armalar investitsiyalar hajmini belgilaydi, Solou modelidagidek, aksincha emas.

Taniqli iqtisodchi Daron Ajemogluning fikricha, model nima uchun kambag‘al mamlakatlar aksariyat hollarda kambag‘alligicha qolayotgani va boylarga yeta olmayotganini tushuntirib bermaydi.[31] Rossiyalik iqtisodchilar fikricha, 1960-yillardayoq Solou modeli iqtisodiy o‘sish tabiatini tushunishdagi dastlabki bosqich ekanligi ayon bo‘lgan edi.[32]

Shunday qilib, Solou modeli iqtisodiy o‘sishni tahlil qilish uchun asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Modelda texnologik taraqqiyot ekzogen, ya’ni tashqi omil hisoblanishi chetdan investiцiyalarni jalb etishni ijobiy baholaydi va uni rag‘batlantirishga chorlaydi.

Haqiqatan ham Solou modelidan so‘ng iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy o‘sishning turli-tuman modellari taklif etildi. Ulardan biri Solou modeli asosida 1990-yilda yaratilgan Gregori Menkyu, Devid Romer va Devid Veyl (Mankiw-Romer-Weil) modeli bo‘lib, u inson kapitalini o‘z ichiga olgan ekzogen iqtisodiy o‘sishning neoklassik modeli hisoblanadi. T.Shults, G. Bekkerning inson kapitali nazariyalarida ilgari surilgan g‘oyalar asosida Solou modelidan so‘ng, tadqiqotchilar tomonidan o‘sishni "ichki " (endogen omil) - innovatsiyalar, bilim va inson kapitali orqali tushuntiruvchi nazariyalarga urg‘u berishga o‘tildi. **Endogen iqtisodiy o‘sish nazariyalari:** O‘sishni bilim, ta’lim va ilmiy tadqiqotlarga sarmoya kiritish kabi ichki omillar natijasi sifatida ko‘rib chiqadilar. Masalan, Pol Romer, Lukas, Lukas-Uzava modellarini ko‘rsatish mumkin.

Ushbu nazariyani ishlab chiqqani, ya’ni bilim va innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushuntirgani uchun, Pol Romer 2018-yilda iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi. Respublikamizda iqtisodiy o‘sish va uni ta’minlash uchun asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investiцiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatini tahlil qiladigan bo‘lsak, hozirda uning ko‘proq neoklassik yo‘nalishning ekzogen modellariga to‘g‘ri kelishini ko‘rishimiz mumkin. Buni quyidagi jadval ma’lumotlari ko‘rsatib turibdi.

[31] Асемоглу Д. Введение в теорию современного экономического роста: в 2 кн. Книга 1 = Introduction to Modern Economic Growth (2009). — М.: Издательский дом «Дело» РАНХиГС, 2018. — 928 с. (с. 96).

[32] *Туманова Е. А., Шагас Н. Л.* Макроэкономика. Элементы продвинутого подхода. — М.: ИНФРА-М, 2004. — 400 с. — ISBN 5-1600-1864-6. (с. 207).

1-jadval

O‘zbekistonda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investiцiyalar va uning YaIMdagi ulushi, foizda [33]

	Yillar				
	2015	2020	2021	2023	2024
Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investiцiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbati	***21,3***	34,8	33,3	33,1	34,5
Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investiцiyalarning avvalgi yilga nisbatan o‘sish sur’ati	***109.4***	91,8	105,2	123,4	142,5
YAIMning avvalgi yilga nisbatan o‘sish sur’ati	***107,4***	100,9	108,8	106,0	106,5

Jadval ma’lumotlaridan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investiцiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2015 yildan so‘ng 2020 yildan boshlab keskin ravishda ortdi. 2020 yilda 34.8 boshlab 33 foizdan юqori darajada bo‘lgan. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning avvalgi yilga nisbatan o‘sish sur’ati 2020 yili COVID-19 pandemiyasi tufayli 91,8 %ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023 yili 124,4%ga, 2024 yili rekord daraja – 142,5 % ga yetdi.

YaIMning avvalgi yilga nisbatan o‘sish sur’ati pandimiya tufayli 2020 yili 100,9 % bo‘lib qolgan yillari 106,0 va 108,8 orasida barqaror iqtisodiy o‘sishga erishilgan. Aniqroq tahlil qiladigan bo‘lsak, hozirgi kunda yurtimiz hududida qurilish sohasida juda ko‘p yirik loyihalar amalga oshirilmoqda va bu investitsiyalarning ko‘payganidan dalolat beradi. Mazkur holat qisqa muddatli tez o‘sishni ta’minlaydi. Undan tashqari iqtisodiyotda S. Kuznets sikli amal qilishini ham unutmasligimiz kerak. Shuning uchun fikrimizcha, kelgusida endogen modellar

- bilim, ta’lim va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan barqaror modellarga o‘tishimiz maqsadga muvofiq.

DIGITAL CURRENCIES AND CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY (CBDC): LESSONS FROM CHINA FOR UZBEKISTAN

S.Topildiyev, professor of Tashkent State University of Economics, e-mail:s.topildiyev@gmail.com

S.Karimova, Student of the joint program of the London School of Economics and Political Science at the Tashkent State University of Economics

safiya.karimova.2008@mail.ru

2026 йил 26 февралда «Мамлакат тараққиётининг 2030 йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислоҳотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида» Президент фармони билан 2023–2025 йилларда эришилган кўрсаткичлар ва ўтказилган баҳолаш асосида янгидан ишлаб чиқилган, 2026–2030 йилларга мўлжалланган "Ўзбекистон – 2030" стратегияси тасдиқланди.

Хўш, келгуси беш йилда миллий иқтисодиётимиз ҳажмини 240 млрд. долларгага етказиш имкониятлари борми? Ҳа бор. Бунинг учун нима қилиш керак:

Бунинг учун Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2025 йил 26 декабрдаги Парламентга ва ўзбек халқига Мурожаатномасида таъкидлаганидек замонавий технологияларга ўтиш, кадрларни илм-фан ва инновацияларга асосланган замонавий касбларга тайёрлаш, саноатда электроника ва электротехника, биокимё ва полимерлар, фармацевтика, машинасозлик каби юқори қўшимча қиймат яратадиган соҳаларни ривожлантириш, IT, сунъий интеллект, финтех, консалтинг, транспорт-логистика каби катта даромад келтирадиган сервис соҳаларини кўпайтириш, қишлоқ хўжалигида биоинжинериядан фойдаланиш, илғор агротехника ва сув тежайдиган усулларга ўтиш, таълим ва тиббиёт сифатини янги босқичга олиб чиқиш, “яшил энергетика”, чиқиндисиз ишлаб чиқаришга ўтишдир. Булар эса янги иқтисодий моделларга ўтишни талаб қилади.

Бугун инновацион иқтисодиёт, яшил иқтисодиёт, креатив иқтисодиёт,

рақамли иқтисодиёт, циркуляр иқтисодиёт, шеринг иқтисодиёти каби янги ишлаб чиқариш моделлари янги ўсиш нуқталари бўлиб майдонга чиқмоқда. Улар анъанавий чизиқли иқтисодиётга зид эмас, балки альтернатив (муқобил) янги ўсиш омилларидир. Яширин, хуфёна иқтисодиёт бўйича ҳам талаблар ўзгарди. Эндиликда яширин иқтисодиёт “кузатилмайдиган иқтисодиёт” деб аталиб, у норасмий, яширин ва ноқонуний турларга ажратиладиган бўлди.

O‘ZBEKISTONNING EKSPORT SALOHIYaTINI OShIRIShNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Jo‘rayev Toshbolta To‘xtaevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
Mamatov Axmetjon Atajanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Kirish

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida qishloq ho‘jaligi maxsulotlarining ekspo‘rt salohiyatini kengaytirish hamda uning tizimini yanada takomillashtirish mamlakatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. “Dasturda qishloq ho‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq ho‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish. Ekspo‘rtbop maxsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog‘lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarni 2 baravar ko‘paytirib, “Global savdo tizimida “o‘yin qoidalari” o‘zgarayotgan bir paytda biz bu yil eksportimizni 23 foizga oshirib, 33,4 milliard dollarga yetkazamiz” [1].

Adabiyotlar sharxi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport tizimini takomillashtirish muammolari xorijlik olimlardan A.Alchiana, Ye.Bem-Baverka, Dj.Gelbreyta, M Djensen, M.Djonstona, R.Lukasa, A.Maslou, U.Meklinga, Dj.Millya, Dj.Xiksa, Y.Shumpetera, K. Errou i boshqalar tadqiqotlar olib borishgan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport tizimini takomillashtirish muammolari bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borgan rus olimlariga S.B. Avdashev, A.V. Ariskina, E.V. Afanasyeva, A.P. Balashova, N.F. Vernigor, S.A. Gribovskiy, M.P. Gritsenko, V.P. Zotova, A.I. Suchkova, V.P. Teplova, A.Ya. Trotskovskiy, V.A. Chertova va boshqalarni keltirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport tizimini takomillashtirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini Respublikamiz olimlaridan Salimov B.T., Yusupov A.S., Xushmatov N., Aliev Ya., Inomjonova F.A., Xushvaqtov X.S. Hasanov Sh.T., Sirojiddinov K.I., Siddiqov R., Murodov Ch., Isamiddinov M va boshqalarning mazkur sohaga dahldor ilmiy tadqiqot ishlarini ko‘rsatish mumkin.

Iqtisodchi olim J.Saksning fikricha “dunyodagi har qanday davlatning iqtisodiy muvaffaqiyati tashqi savdoda ko‘rinadi. Hozirgi kunga qadar hech bir mamlakat jahon iqtisodiy tizimidan ajralgan holda sog‘lom iqtisodiyotni hosil qila olgani yo‘q” [2].

Rus olimi A. Serkovning fikricha, “qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozori ancha keng qamrovli tushunchadir. U oziq-ovqat bozori va moddiy-texnika resurslari, yer va kapital, mehnat va ilmiy-texnika mahsulotlari bozorini birlashtira oladi. Bu bozorlarning barchasi bir-biriga bog‘langan, ammo ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega” [3].

Respublikamiz olimlaridan Ya.E. Aliev xulosalariga ko‘ra, qis’hloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida mahsulotni iste’molchilarga yetkazib beris’h tizimidagi muammolar tufayli yetis’htirilgan hosil nobudgarchiligi, mahsulotlar raqobatbardos’hligi pasayis’hi yuz bermokda[4].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondas’huvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslas’h, umumlas’htiris’h, guruhlas’h va jadval usullaridan foydalaniladi

Asosiy taxlil va natijalar

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning an’anaviy va yeng keng rivojlangan ko‘rinis’hlaridan biri tas’hqi savdo hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar umumiy hajmining 75-80%i tas’hqi savdoning ulus’higa to‘g‘ri keladi. Jahon mamlakatlari uchun tas’hqi savdoning roli kattadir. Iqtisodchi olim J.Saksning fikricha “dunyodagi har qanday davlatning iqtisodiy muvaffaqiyati tas’hqi savdoda ko‘rinadi. Hozirgi kunga qadar hech bir mamlakat jahon iqtisodiy tizimidan ajralgan holda sog‘lom iqtisodiyotni hosil qila olgani yo‘q”[5]. Xalqaro savdoda xalqaro mehnat taqsimoti asosida paydo bo‘ladigan turli davlatlarni tovar is’hlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi aloqalarning bir s’hakli bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikni namoyon qiladi[6].

Qis’hloq xo‘jaligi mahsulotlarini yeksport qilis’h muammolari “eksport salohiyati” tus’hunchasini asoslas’hni taqozo yetadi. Iqtisodiy fanda us’hbu tus’hunchani tadqiq yetis’h XX asrning 90-yillarida, ya’ni korxonalar tomonidan tas’hqi savdo faoliyati alohida, mustaqil sub’ektga aylangan davrdan bos’hlandi. Yeksport salohiyati deganda, birinchi navbatda, mahsulotlarning jahon bozoridagi raqobatbardos’hlik darajasi tus’huniladi. Uning kengaytirilgan ma’nosi bu mamlakatning mavjud yoki is’hlab chiqarilgan resurslar va mahsulotlarni yeksport qilis’h salohiyatini ifoda yetadi. M. Seyfullaev va V. Kapitsinning fikricha, “mamlakatning yeksport salohiyati - bu milliy iqtisodiyotning ilmiy-texnikaviy, texnologik, sanoat, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanis’hini ta’minlovchi resurs bazasi va iqtisodiy rivojlanis’hining umumiy holatidir”. M. Seyfullaevning xulosasiga ko‘ra: “Eksport salohiyati yeksport resurslaridan oqilona foydalanis’h jarayonida mavjud va bas’horat qilinayotgan bozor s’haroitida mahalliy va xorijiy xaridorlarning tovar va xizmatlarga bo‘lgan yehtiyojlarini s’hakllantiris’h va uni maksimal darajada qondira oladigan real imkoniyatlarga aytiladi”[7].

D.A. Fokina va G.Ya. Belyakov xulosalariga ko‘ra "... ichki va tas’hqi muhit ta’sirida mahsulot is’hlab chiqaris’h va uni tas’hqi bozorda sotis’h uchun ob’ektiv mavjud imkoniyatlar va resurslar yig‘indisi" deb tus’hunadi[8]. V.V. Rogovning so‘zlariga ko‘ra, milliy iqtisodiyotning yeksport salohiyati bu (tabiiy-iqlim s’haroitlari, tuproq, resurslar, qulay geografik, infratuzilma omillari) va ilm-fan va texnikaning yeng yangi yutuqlariga asoslangan yangi raqobatdos’h qiyosiy

ustunliklaridan samarali foydalanib, iqtisodiyot sohalari, tarmoqlari, korxonalari va kompaniyalari tomonidan jahon bozorida raqobatbardos’h mahsulotlar is’hlab chiqaris’h qobiliyatini imkoniyatlarini ifoda yetadi[9]. Professor N.V. Klimova qis’hloq xo‘jaligi mahsulotlarining yeksport salohiyatini milliy iqtisodiyotning xalqaro bozorda raqobatbardos’h bo‘lgan mahsulotlar is’hlab chiqaris’h va ularni yetarli miqdorda va belgilangan jahon narxlarida yeksport qilis’h qobiliyati deb baholaydi[10]. L.A. Lobanova “...eksport salohiyatining rivojlanis’h darajasi butun agrosanoat majmuasi faoliyati samaradorligiga bevosita bog‘liq”, deb hisoblaydi[11].

Yeksport salohiyati uchta komponentdan kelib chiqib ko‘rib chiqilis’hi kerak:

1) qis’hloq xo‘jaligi tarmog‘idagi yalpi resurslar xajmi;

2) sanoatning jahon bozorida talab qilinadigan mahsulotlarni is’hlab chiqaris’h qobiliyati;

3) yeris’hilgan iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanis’h darajasini, tas’hqi savdo infratuzilmasining rivojlanis’h darajasini va yeksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlas’h tizimini hisobga olgan holda is’hlab chiqarilgan mahsulotlarni sotis’h imkoniyatlari .

Mamlakat qis’hloq xo‘jaligi mahsulotlarining yeksport salohiyati ko‘plab ichki va tas’hqi omillar ta’sirida s’hakllanadi. Ichki omillarga quyidagilar kiradi:

1) davlatning iqtisodiy rivojlanis’h darajasi;

2) milliy xo‘jalikni iqtisodiy va geografik joylas’huvi (dengiz portlari, asosiy magistral yo‘llardan uzoqligi, bos’hqa davlatlar bilan chegaralari);

3) milliy xo‘jalikning tabiiy-iqlim s’haroiti (unumdor yerlarning mavjudligi, yog‘ingarchilik miqdori va bos’hqalar);

4) moddiy-texnik imkoniyatlar (eng yangi innovatsion texnologiyalarning mavjudligi va ulardan foydalanis’h, zamonaviy moddiy-texnika bazasi va bos’hqalar);

5) kadrlar salohiyati (zamonaviy biznesda is’hlas’h kompetensiyalariga yega va xalqaro bozorda is’hlas’h ko‘nikmalariga yega bo‘lgan yuqori malakali menejerlar va mutaxassislar);

6) intellektual salohiyat (ASMda intellektual kapitalni takror is’hlab chiqaris’h mexanizmi);

7) logistika va transport infratuzilmasi (mahsulotlarni tas’his’h uchun dengiz portlari, yo‘llar va yuk tas’his’h uchun transportning mavjudligi).

Tas’hqi omillarga milliy iqtisodiyotda qis’hloq xo‘jaligi mahsulotlarini xalqaro bozorda sotis’h imkonini beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va tas’hkiliy munosabatlar bilan ifodalanadi. Ular iqtisodiy tizimdan tas’hqarida paydo bo‘ladi. Ularga quyidagilar kiradi:

1) jahon qis’hloq xo‘jalik mahsulotlarining bozorining tendensiyalari, holati va sig‘imi (bozorga kiris’h to‘siqlarning mavjudligi, raqobatchilar, iste’mol va bos’hqalar);


2) davlatning amortizatsiya, soliq, moliya, kredit va investitsiya siyosati;

3) ma’muriy tartibga solis’h (qonunlar, strategiyalar, yeksportni qo‘llab-quvvatlas’h dasturlari);

4) qis’hloq xo‘jaligi mahsulotlarini sertifikatlas’htiris’h va standartlas’htiris’hning davlat tizimi;

5) xalqaro alyanslar, ittifoqlar va bos’hqa birlas’hmalarning faoliyati.

Bundan tas’hqari, davlatning yeksport salohiyatining rivojlanis’hini ikki turdagi omillar orqali aniqlas’h mumkin: Statik – tabiiy resurs tabiatining qiyosiy afzalliklari va dinamik - ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va innovatsiyalar bilan bog‘liq raqobatdos’h ustunliklar. Agar mamlakatda qiyosiy va texnologik raqobatdos’h ustunliklar birlas’htirilgan bo‘lsa, bu is’hlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardos’hligini kuchaytiris’h, yeksport salohiyatini os’hiris’h va iqtisodiy rivojlanis’hini rag‘batlantiris’h imkonini beradi.



1-rasm. Qis’hloq xo‘jaligining eksport salohiyati komponentlari[13]

S’hunday qilib, mamlakat ASMning yeksport imkoniyatlari jami tas’hkiliy, iqtisodiy, kadrlar, tabiiy resurs, bioiqlim, innovatsion, is’hlab chiqaris’h, marketing

va investitsiya salohiyatini o‘z ichiga oladi. Davlatning qis’hloq xo‘jalik tarmog‘i uchun is’hlab chiqaris’h natijalarining tabiiy-iqlim s’haroitiga bog‘liqligi kabi xususiyat tufayli davlatning yeksport strategiyasini is’hlab chiqis’hda tabiiy resurs va bioiqlim salohiyati alohida ahamiyatga yega. Ularning xususiyatlariga qarab, qis’hloq xo‘jalik mahsulotlarini yeksport qilis’h tarkibi va hajmi s’hakllanadi.

Milliy iqtisodiyotda qis’hloq xo‘jalik mahsulotlarining yeksport salohiyatini os’hiris’h yo‘llari quyidagilardan iborat:

- qis’hloq xo‘jaligi is’hlab chiqaruvchilarini yeksport uchun mahsulot is’hlab chiqaris’hni rag‘batlantiruvchi s’hart-s’haroitlar yaratis’h;
- qis’hloq xo‘jaligi is’hlab chiqaris’hining rentabelligini ta’minlas’h uchun narxlar paritetini o‘rnatis’h;
- yeksportyorlarni davlat tomonidan maqsadli qo‘llab-quvvatlas’h;
- qis’hloq xo‘jaligi is’hlab chiqaris’hini innovatsion rivojlantiris’h, sifatli va raqobatbardos’h mahsulot is’hlab chiqaris’h uchun zarur bo‘lgan yeng yangi texnologiyalarni joriy yetis’h;
- qis’hloq xo‘jaligida marketing faoliyatini rivojlantiris’h;
- tarmoqda yangi is’hlab chiqaris’h quvvatlarini (s’hu jumladan, ulgurji sotis’h markazlari va bos’hqalarni quris’h) mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilis’hga ko‘maklas’his’h;
- qis’hloq xo‘jalik mahsulotlari yeksportini bos’hqaris’h tizimini takomillas’htiris’h.

O‘zbekistonda qis’hloq xo‘jaligi mahsulotlarining yeksport salohiyatining o‘ziga xos xususiyati nafaqat tabiiy-iqlim s’haroitidagi sezilarli farqda, balki uning mamlakatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiris’h mezonlari bo‘yicha chegara - ichki joylas’huviga va o‘rni tengsizligida hamdir. O‘zbekiston Respublikasi qis’hloq xo‘jaligining yeksport salohiyatini os’hiris’h, avvalambor, uning infratuzilma tizimiga sezilarli darajada investitsiya kiritis’h orqali uning moddiy-texnika bazasini mustaxkamlas’h hisobidan os’hiris’h mumkin. Yangi texnologiyalarga, qis’hloq xo‘jaligi texnikasi va uskunalariga sarmoya kiritilis’hi, tarmoqda raqobatbardos’h qis’hloq xo‘jaligi mahsulotlari yetis’htiris’h imkonini bermoqda. Yeksport salohiyatini os’hiris’h infratuzilmaga (bozor, logistika, is’hlab chiqaris’h, qayta is’hlas’h) katta miqdorda sarmoya kiritis’hni talab qiladi, bu yesa tarmoqni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlas’hni dolzarbligini belgilaydi. Yeksportni har tomonlama qo‘llab-quvvatlas’h va uning salohiyatini yuksaltiris’hning keng ko‘lamli instrumentlaridan foydalanis’h ham butun mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantiris’hning ustuvor yo‘nalis’hi hisoblanadi.

Respublikamizda iqtisodiyotni yerkinlas’htiris’h bosqichida meva-sabzavotchilik va uzumchilik faoliyati bozorini tas’hkil yetis’h, bos’hqaris’h va uning samaradorligini os’hiris’hning nazariy va amaliy jihatlarini X.S.Xushvaqtovning tadqiqotlarida agrar iqtisodiy jarayonlardagi murakkab iqtisodiy aloqalarning statistik tahlili, yehtimollikni aniq darajalarida aniqlas’h, qis’hloq xo‘jaligi rivojlanis’hi darajasini kelajakka prognoz qilis’h va rejalas’htiris’hning aniq ko‘rsatkichlar tizimi is’hlab chiqilgan[14]. U.S.Muhitdinovaning tadqiqot is’hida meva-sabzavot va uzum mahsulotlari

bozorining rivojlanis’hi, marketing tizimini takomillas’htiris’h masalalari tadqiq qilingan[15]. S’huningdek, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta is’hlas’h tizimi, ichki va tas’hqi bozorlardagi savdosi hamda marketing kanallari is’htirokchilarining o‘zaro munosabatlarini rivojlantiris’h masalalarining nazariy-uslubiy asoslari Ya.Alievning ilmiy is’hlarida tadqiq yetilgan.

Soha mutaxassislari M.X.Saidov, I.B.Rustamovalar “Yangi va qayta is’hlangan mahsulotlarni sotis’h bozorlaridagi marketing izlanis’hlar” nomli o‘quv qo‘llanmada O‘zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari yeksportining ahamiyati, jahon meva-sabzavotlar bozorida O‘zbekistonning tutgan o‘rni, meva -sabzavot mahsulotlari yeksport qilis’hning me’yoriy-huquqiy asoslari, meva-sabzavot mahsulotlari yeksportiga ta’sir qiluvchi omillar, qis’hloq xo‘jaligida logistik yondas’huvlar, milliy va xalqaro “GLOBALGAP” standarti mohiyati va ahamiyati, uni joriy yetis’h chora-tadbirlari keltirilgan[16]. Bos’hqa mualliflar iste’molchiga ye’tibor qaratgan holda qis’hloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorining ta’riflarini beris’hadi: sotis’h kanallarini belgilas’h zarurligi hamda biologik yehtiyojlar va samarali talabni cheklovchi omillar sifatida ko‘rsatis’hgan. Iste’molni qondiris’h uchun funksiyalarni taqsimlas’h, yangi yehtiyojlarni s’hakllantiris’h zarurligini ta’kidlas’hgan[16].

Xulosa sifatida qis’hloq xo‘jalik mahsulotlari bozori ancha keng qamrovli tus’huncha bo‘lib u oziq-ovqat bozori va moddiy-texnika resurslari, yer va kapital, mehnat va ilmiy-texnika mahsulotlari bozorini birlas’htiradi. Uning o‘ziga xosligi, unda talab va taklifning yetarli darajada moslas’huvchan yemasligida ya’ni, bu qis’hloq xo‘jalik mahsulotlarining past narx yelastikligi bilan asoslanadi. Qis’hloq xo‘jaligi mahsulotlarining is’hlab chikaruvchidan tortib oxirgi iste’molchigacha bo‘lgan xarakatining samarali tizimini ta’minlas’h qis’hloq xo‘jaligi mahsulotlari bozori tuzilis’hini rivojlantiris’hdagi yeng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Davlatning oldida turgan strategik vazifalardan biri bu yeksportni rivojlantiris’h, uning tarkibida yuqori qo‘s’hilgan qiymatga yega mahsulotlar ulus’hini va mahalliy mahsulotlarning jahon bozorlarida raqobatbardos’hlik darajasini os’hiris’hdan iborat.

Mamlakatda qis’hloq xo‘jaligining yeksport salohiyati, bu ma’lum vaqt oralig‘ida tas’hqi bozorlarga raqobatbardos’h mahsulotlar is’hlab chiqaris’h va sotis’hga qodir bo‘lgan tarmoq tuzilmalari soni bilan belgilanadi. Yeksport salohiyatini os’hiris’h infratuzilmaga (bozor, logistika, is’hlab chiqaris’h, qayta is’hlas’h) katta miqdorda sarmoya kiritis’hni talab qiladi, bu yesa tarmoqni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlas’hni dolzarbligini belgilaydi. Yeksportni har tomonlama qo‘llab-quvvatlas’h va uning salohiyatini yuksaltiris’hning keng ko‘lamli instrumentlaridan foydalanis’h ham butun mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiris’hning ustuvor yo‘nalis’hi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti S’havkat Mirziyoevning Oliy Majlis va xalqqa qilgan Murojaatnomasi. 26 dekabr. 2025 yil. https://uzts.uz/ozbekiston-respublikasi-prezidenti.
2. Saks D. Sena sivilizatsii. M.: Izdatelstvo Instituta Gaydara, 2012. 352 s.

3. Serkov, A. F. Rынok i upravlenie v APK / A. F. Serkov // Mejdunarodnыy selskoxozyaystvennыy jurnal. – 2004. - №2.

4. Aliev Ya.E. Qis’hloq xo‘jaligi mahsulotlari, agroresurslar va agroxnzmatlar bozorlari rivojlanis’hi mutanosibligini ta’minlas’h yo‘nalis’hlari. Monografiya. -T.: IQTISODIYoT, 2017. – B.19.

5. Saks D. Sena sivilizatsii. M.: Izdatelstvo Instituta Gaydara, 2012. 352 s.

6. S’hodiev R., Ye.Mahmudov. Jahon iqtisodiyoti: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T.: 2005.

7. Seyfullaeva M.E. Mexanizm formirovaniya eksportnogo potensiala regiona // Region. – 2007. – № 1. – S. 68-83.

8. Fokina D.A. Faktorы formirovaniya eksportnogo potensiala mashinostroitelnogo predpriyatiya / D.A. Fokina, G.Ya. Belyakova: http://iubpe.sfu-kras.ru.

9. Rogov V.V. Eksportnыy potensial Rossii: sostoyanie, orientirы i usloviya razvitiya // Vneshneekonomicheskiy byulleten. – 2004. – № 5. – S. 58-65.

10. Klimova N.V.Eksportnыy potensial selskogo xozyaystva Rossii / N.V.Klimova, M.I. Iщenko // Nauchnыy jurnal KubGAU – Scientific Journal of KubSAU. – 2016. – №119. – S. 58.

11. Lobanova L.A. Regionalnыy aspekt formirovaniya eksportnogo potensiala selskoxozyaystvennogo sырya i prodovolstviya // Vestnik natsionalnoy akademii nauk Belarusi. – 2005. – № 5. – S. 15-17.

12. Moseyko V. Mnogofaktornaya otsenka eksportnogo potensiala malыx i srednix predpriyatiy / V. Moseyko, Yu. Azmina // Vestnik Volgogradskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya 3. Ekonomika. Ekologiya. – 2012. – № 2 (21). – S. 63-71.

13. Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

14. Xus’hvaqtova X.S. Bozor s’haroitida meva-sabzavot kichik majmuasida agrosanoat integratsiyasini rivojlantiris’hning tas’hkiliy-iqtisodiy muammolari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olis’h uchun yozilgan dis. avtoref. – T., 2005. – 25 b.

15. Muxitdinova U.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalas’h s’haroitida meva-sabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantiris’h yo‘nalis’hlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olis’h uchun yozilgan dis. avtoref. – T., 2010. – 36 b.

16. Saidov M.X.,RustamovaI.B. Yangi va qayta is’hlangan mahsulotlarni sotis’h bozorlaridagi marketing izlanis’hlar. O‘quv qo‘llanma/. – T.: 2018. – 120 b.

17. Yergas’hev Ye.I. Iqtisodiyotni yerkinlas’htiris’h s’haroitida bog‘dorchilik va uzumchilik tarmog‘ini rivojlantiris’hning asosiy yo‘nalis’hlari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olis’h uchun yozilgan diss. avtoref. – T., 2009. – 22 b.

S.KUZNETS NAZARIYASI VA O‘ZBEKISTONDA UY XO‘JALIGINING BANDLIKNI TA’MINLASHDAGI ROLI

D.Tojiboyeva Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi professori, i.f.d.
Abdujabbarov Sardorbek Bahrom o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Ma’lumki, mamlakat aholisining farovonligi, erishgan yutuqlari mehnatga

layoqatlilarning ish bilan ta’minlanishiga bog‘liq. Kambag‘allik, qashshoqlik muammosi ish bilan ta’minlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Boshqacha aytganda ularni egizak muammolar tarzida ko‘rish mumkin.

Barча muammolarni biz iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi orqali aniqlaymiz. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan bilamizki, iqtisodiyotni tahlil qilish, xulosa chiqarish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar birdaniga yaratilib qolmagan. Ular olimlarning uzoq muddatli mashaqqatli izlanishlari, tadqiqotlari natijasi sifatida vujulga kelgan.

Ulardan biri taniqli iqtisodchi olim Saymon (Semyon Abramovich) Kuznets (1901-1985) - amerikalik iqtisodchi bo‘lib, 1971-yilda iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti laureati bo‘lgan. Bu mukofotning berilishi sababini iqtisodiy o‘sishni empirik jihatdan asoslab bergani, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy-ijtimoiy tarkibiy tuzilishni va umuman, taraqqiyot jarayonini chuqurroq anglash imkonini bergani uchun" degan umumiy ta’rif orqali izohlanadi.

Biz Saymon Kuznets haqida, uning iqtisodiy fanlarni rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan olim sifatida Iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘rganish jarayonida tanishdik.

Iqtisodiyot nazariyasining “Makroiqtisodiy bo‘limi”ning birinchi mavzusi “Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o`lchamlari” mavzusini o‘tganimizda mamlakat iqtisodiyoti holati va u qanday makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi asosida ifodalanishini o‘rganganimizda Milliy hisobchilik tizimiga diqqat qaratdik.

Milliy hisobchilik tizimi (MHT) ning nazariy asosini J. Keyns, A. Bouli, J. Klark, S. Kuznets, R. Stoun va boshqalar yaratishgan. Ayniqsa, S. Kuznets va angliyalik iqtisodchi R. Stoun katta hissa qo‘shishgan. Hozirda ular tavsiya etgan uslubdan dunyo mamlakatlarining asosiy qismi foydalanadi.

Demak, **birinchidan** S. Kuznetsni YaIMni hisoblash tizimini yaratishda eng faol qatnashgan iqtisodchilardan biri sifatida tanidik. Uning fikriga ko‘ra MHT - bu mamlakatning iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida har tomonlama ma’lumot olish uchun hisoblar va jadvallar shaklida tuzilgan o‘zaro bog‘liq statistik ko‘rsatkichlar tizimidir.

Ikkinchidan, iqtisodiyotni siklli rivojlanishini tadqiq qilgan iqtisodchilardan biri sifatida tanidik. S. Kuznets milliy daromad, iste’mol xarajatlari yalpi investitsiyalarni o‘rganib chiqib, 20—25 yillik sikllar ham mavjud degan qarorga keladi. Bu siklni u uy-joy qurilishi bilan bog‘laydi. Bu sikl iqtisodiyotda qurilish sikli nomi bilan ham yuritiladi. Daromad ortishi bilan uy-joy, bino-inshootlar qurilishi gullab-yashnaydi. Chunki yalpi talab o‘sadi, so‘ngra tushkunlik boshlanadi. **Kuznets sikli** iqtisodiy tebranishlar bilan aniqlanadi. Ular demografik jarayonlar (migratsiya, tug‘ilish darajasi) va katta hajmdagi kapital qurilishga investitsiyalar Hozirda infratuzilma va texnologiyalarni ommaviy yangilash bilan bog‘liq bo‘lgan davrlar sifatida ham ko‘rib chiqiladi.

Uchinchidan, Saymon Kuznets iqtisodchilardan birinchi bo‘lib iqtisodiy fanlar uy xo‘jaliklarining qiymat yaratish, ularning iqtisodiy faoliyatining YaIM o‘sishiga qo‘shgan hissasini e’tiborsiz qoldirishayotganini ko‘rdi. Uning hisob-kitoblariga ko‘ra uy xo‘jaliklarida YaIMning yarmigacha yaratiladi.[34]

[34] Kuznets, S. (1934). National Income, 1929-1932. National Bureau of Economic Research. Pp. 1-12.

Uy xo‘jaliklari nafaqat iste’molchi sifatida, balki tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi, jismoniy va inson kapitaliga sarmoya kirituvchi, xatarlarni kamaytiruvchi, uni sug‘urtalovchi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular umuman iqtisodiyotning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan ko‘plab ommaviy iqtisodiy qarorlarning manbalari hisoblanadi.

Biroq, deb yozadi Rossiyalik iqtisodchi Yuriy Nikolaevich Voronov bu kashfiyotdan 90 yil o‘tgan bo‘lsa-da, uy xo‘jaliklari ichidagi YaIM o‘sishi iqtisodiy o‘sishning qiyosiy tadqiqotlarida hisobga olinmaydi, garchi ba’zi hisob-kitoblarga ko‘ra, masalan, AQShda YaIMning yarmigacha uy xo‘jaliklari ichida yaratiladi. Va bu - yarim tayyor mahsulotlar bozori rivojlangan va oilaviy bayramlarni restoran va kafelarda nishonlash an’analari mavjud bo‘lgan sharoitda.[35]

Respublikamizda uy xo‘jaliklarida, shuningdek, turli tarmoqlarda norasmiy bandlik yuqoriligi, bundan tashqari demografik “bum” – aholi o‘sishning yuqoriligi tufayli bandlik muammosining o‘tkirligini hisobga olib, bu muammoni yechish uchun, uning huquqiy asoslarini yaratishga diqqat qaratildi. Ma’lumki, uy xo‘jaligining asosini oilaviy xo‘jaliklar tashki etadi.

Buning uchun dastlab, 2012 yilda O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida” Qonuni qabul qilindi va keyingi yillarda qator o‘zgartirishlar kiritildi.

2020 yil 8 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-4742-son qarori; mazkur qarorni ijrosini ta’minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23 dekabr 2020 yildagi 806-son qarori, jumladan, “O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomni ilovalari bilan tasdiqlash haqida” qaror qabul qilindi. Ushbu hujjatlar ro‘yxatdan o‘tishni soddalashtirib (mobil ilova orqali), soliq imtiyozlari, mehnat stajini hisoblash va faoliyat turlarini kengaytirish, shuningdek, yangi huquqiy tartiblar joriy etilishini nazarda tutadi.

2021 yil 20 dekabrda O‘R Prezidentining «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi PQ-55-son qarori va unga asosan Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarining yagona elektron platformasidan foydalanish, shu jumladan, kreditlarni ajratish, rasmiylashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlarining o‘zaro elektron hamkorligini tartibga solish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi.

«Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida»gi Qonunga oxirgi cheklovni bekor qilishga oid qo‘shimcha kiritildi. Qabul qilingan huquqiy hujjatlarga ko‘ra, hozirda O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlik bilan ikki shaklda shug‘ullanish mumkin:

- yuridik shaxs tashkil ətgan holda – oilaviy korxona shaklida. Oilaviy korxonalar avvalboshdan ishchilarni yollashga haqli bo‘lgan;
- yuridik shaxs tashkil etmagan holda – yakka tartibdagi tadbirkorning davlat

[35] https://cyberleninka.ru/article/n/zhenschina-v-semie-i-na-rynke-truda-o-nobelevskoy-premii-po-ekonomike-v-2023-g

ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaga asosan. Unda yakka tartibdagi tadbirkorlik oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshirilishi aks эttiriladi va birgalikda biznesni yurituvchi oila a’zolari ko‘rsatiladi.

Oilaviy tadbirkorlik sub’ektlari yuridik shaxs tashkil эtmagan holda quyidagilarga haqli:

birinchidan, uch nafargacha doimiy ishchini yollab, ular bilan mehnat shartnomasi tuzishga. Aytaylik mazkur holatda Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini ishchilarni yollagan holda amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom qo‘llaniladi;

ikkinchidan, mehnatga layoqatli yoshga to‘lgan boshqa yaqin qarindoshlarini, shu jumladan bolalari va nevalarining erini (xotinini), aka-ukalari va opa-singillarini, ularning xotinini (erini) va bolalarini ishtirokchi sifatida jalb etishga haqli.

10-fevral 2023 yilda Prezidentimizning “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[36] PF-21-son Farmoni, 2025 yil 12 avgustda эsa “Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi. Ular yashirin iqtisodiyot ulushini sezilarli darajada qisqartirish, soliq solish bazasini kengaytirish, jismoniy shaxslar uchun qonuniy faoliyatning jozibadorligini oshirish maqsadida qabul qilingan

2025 yilning 1 mart holatiga mamlakatda faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT) soni 284 ming 110 nafarni tashkil etgan. Biroq, 2025 yilning 1 iyul holatiga bu ko‘rsatkich 270 ming 561 taga tushgan. Bu martdan iyulgacha YaTTlar sonida 13 ming 549 nafarga, ya’ni 4,77 foiz pasayishni anglatadi.[37] Uning sabablarini o‘rganib, xudosa chiqarish zarur.

Kelajakda o‘zining oilaviy biznesi bilan dunyoda dong taratgan Saudiya Arabistonining “Abdulatif Jamil (ABDULATIF 1956)" mas`uliyati cheklangan jamiyatiday iqtisodiy o‘sishni, hamda dunyoda qashshoqlikni qisqartirish bo‘yicha eng oldingi safda turadigan korxonalar vujudga kelsa ajab emas.

YASHIL MEHMONXONA INDUSTRIYASINI RAQAMLASHTIRISH: XALQARO SERTIFIKATLASH TIZIMLARI VA O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY SAMARADORLIK TAHLILI

G.Xidirova, ***Buxoro davlat universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori***

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yashil mehmonxona industriyasini raqamlashtirish jarayonida xalqaro sertifikatlash tizimlarining roli va ularning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Green Key, EarthCheck, EU Ecolabel, LEED for Hospitality va Green Globe sertifikatlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilib, sertifikatlangan mehmonxonalarda energiya iste’molining 22–30 foizga, suv iste’molining 18–26 foizga, chiqindilar hajmining 30–42 foizga qisqarishi empirik asosda ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yashil sertifikatlangan*

[36] https://lex.uz/docs/6379809?ONDATE=10.02.2023%2000

[37] https://paradigma.uz/news/iqtisodiyot/ozbekistonda-yakka-tartibdagi-tadbirkorlar-yatt-soni-kamaymoqda-2356

mehmonxonalarning RevPAR ko‘rsatkichi sertifikatsizlarga nisbatan o‘rtacha 9 foizga yuqori ekanligi aniqlangan. O‘zbekiston mehmonxona industriyasi uchun “O‘zbekiston Yashil Mehmonxona Sertifikatlash Tizimi” (UZGHCS) konseptual modeli taklif etilib, uning Buxoro hududida joriy etilishi bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *yashil mehmonxona, ekologik sertifikatlash, raqamlashtirish, Green Key, EarthCheck, iqtisodiy samaradorlik, RevPAR, OPEX, O‘zbekiston turizmi, barqaror rivojlanish.*

Annotation: *This article analyses the role of international certification systems in the digitalisation of the green hotel industry and assesses their economic efficiency. A comparative analysis of Green Key, EarthCheck, EU Ecolabel, LEED for Hospitality and Green Globe certifications is conducted, demonstrating empirically that certified hotels achieve a 22–30% reduction in energy consumption, 18–26% in water use and 30–42% in waste generation. The findings indicate that green-certified hotels demonstrate a RevPAR premium of approximately 9% over non-certified counterparts. A conceptual model titled the “Uzbekistan Green Hotel Certification System” (UZGHCS) is proposed, with practical recommendations for piloting it in the Bukhara region.*

Keywords: *green hotel, ecological certification, digitalisation, Green Key, EarthCheck, economic efficiency, RevPAR, OPEX, tourism of Uzbekistan, sustainable development.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль международных систем сертификации в процессе цифровизации зелёной гостиничной индустрии и оценивается их экономическая эффективность. Проведён сравнительный анализ сертификатов Green Key, EarthCheck, EU Ecolabel, LEED for Hospitality и Green Globe; эмпирически показано, что сертифицированные отели достигают сокращения потребления энергии на 22–30%, воды — на 18–26%, объёма отходов — на 30–42%. По результатам исследования, показатель RevPAR в зелёных отелях в среднем на 9% выше, чем в несертифицированных. Для гостиничной индустрии Узбекистана предложена концептуальная модель “Система сертификации зелёных отелей Узбекистана” (UZGHCS) и разработаны практические рекомендации для её пилотного внедрения в Бухарской области.*

Ключевые слова: *зелёный отель, экологическая сертификация, цифровизация, Green Key, EarthCheck, экономическая эффективность, RevPAR, OPEX, туризм Узбекистана, устойчивое развитие.*

Kirish

Yashil iqtisodiyotga o‘tish bugungi kunda jahon iqtisodiyotining yetakchi tendensiyalaridan biriga aylangan bo‘lib, mehmonxona industriyasi ushbu transformatsiyaning markaziy bo‘g‘inlaridan birini tashkil etadi. UNWTO ma’lumotlariga ko‘ra, jahon turizm sohasi global ChEG (issiqxona gazlari) emissiyasining 8 — 11 foizini, jami suv iste’molining esa 1 foizdan ortig‘ini tashkil etadi; mehmonxona sektori turizm zanjiridagi eng resurs talab segment bo‘lib, har bir mehmon-tunashga 200 — 400 kVtch energiya va 300 — 600 litr suv to‘g‘ri keladi. Ushbu ekologik bosimni kamaytirish va shu bilan birga raqobatbardoshlikni

ta’minlash maqsadida 1990-yillardan boshlab Green Key, EarthCheck, EU Ecolabel, LEED for Hospitality va Green Globe kabi xalqaro yashil sertifikatlash tizimlari rivojlana boshladi. Statista 2024 hisobotiga ko‘ra, jahon bo‘yicha yashil sertifikat olgan mehmonxonalar soni 25 mingdan oshgan va bu ko‘rsatkich so‘nggi besh yilda yiliga o‘rtacha 14 foizga o‘sib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PF-5863-sonli “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga oid milliy strategiyani tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni doirasida turizm va mehmonxona industriyasini yashil asosga o‘tkazish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Biroq mamlakatda hanuzgacha milliy yashil mehmonxona sertifikatlash tizimi mavjud emas, bu esa ham xorijiy sayyohlarni jalb qilishda, ham mehmonxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda muayyan to‘siq bo‘lib qolmoqda.

1. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va tizimli yondashuv usullari qo‘llanildi. Empirik baza sifatida Green Key Annual Report 2024, EarthCheck Performance Reports, EU Ecolabel Database, USGBC LEED Reports, Cornell Hospitality Research tadqiqotlari va STR Global bazasi tahlilga jalb qilindi; iqtisodiy samaradorlik RevPAR, ADR, Occupancy Rate, OPEX hamda EUI indikatorlari yordamida baholandi.

2. Xalqaro yashil sertifikatlash tizimlarining qiyosiy tahlili

Jahon amaliyotida mehmonxona industriyasi uchun ishlab chiqilgan beshta yetakchi yashil sertifikatlash tizimi mavjud. Ularning har biri o‘ziga xos kriteriyalar tizimi, qamrov darajasi va auditni amalga oshirish mexanizmlariga ega. 1-jadvalda mazkur sertifikatlarning qiyosiy tavsifi keltirilgan.

1-jadval

Yetakchi xalqaro yashil sertifikatlash tizimlarining qiyosiy tavsifi

Sertifikat tizimi	Tashkilotchi mamlakat / yili	Sertifikatlangan obyektlar soni (2024)	Asosiy mezonlar	Auditning davriyligi
Green Key	Daniya, 1994	6 200+ obyekt 65 mamlakatda	13 mezon: energiya, suv, chiqindilar, oziq-ovqat, ijtimoiy javobgarlik, xodimlar tayyorgarligi	Yiliga 1 marta
EarthCheck	Avstraliya, 1987	1 800+ obyekt 80 mamlakatda	Benchmarking, ChEG emissiyasi, biologik xilma-xillik, mahalliy hamjamiyat bilan munosabat	Yiliga 1 marta
EU Ecolabel	Yevropa Ittifoqi, 1992	2 400+ obyekt 25 mamlakatda	22 majburiy va 67 ixtiyoriymezon: hayotiy sikl tahlili, kimyoviy moddalar, mahalliy mahsulotlar	4 yilda 1 marta
LEED for	AQSh, 2000	3 500+ obyekt	Bino dizayni, qurilish	Loyiha asosida


Sertifikat tizimi	Tashkilotchi mamlakat / yili	Sertifikatlangan obyektlar soni (2024)	Asosiy mezonlar	Auditning davriyligi
Hospitality		165 mamlakatda	materiallari, energiya samaradorligi, ichki muhit sifati — 4 daraja: Certified, Silver, Gold, Platinum	+ qayta auditlar
Green Globe	AQSh, 1993	700+obyekt 90 mamlakatda	44 mezon va 380 ko‘rsatkich: barqarorlik boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiyta’sir, madaniy meros	Yiliga 1 marta

Manba: muallif tomonidan Green Key 2024, EarthCheck 2024, EU Ecolabel Database, USGBC va Green Globe rasmiy hisobotlari asosida tuzilgan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, beshta tizim ham raqamlashtirilgan audit, monitoring va benchmarking platformalariga ega. Green Key Online va EarthCheck Sustainability Information System (ESIS) kabi raqamli tizimlar mehmonxonalarning resurs iste’moli ma’lumotlarini real vaqtda yig‘ish, tahlil qilish va boshqa obyektlar bilan taqqoslash imkonini beradi. Bu esa raqamlashtirish va yashil iqtisodiyotning mehmonxona sektoridagi konvergensiyasini yaqqol namoyon qiladi.

3. Yashil sertifikatlashning iqtisodiy samaradorligi

Cornell Center for Hospitality Research va STR Global tomonidan o‘tkazilgan ko‘p yillik tadqiqotlar yashil sertifikat olgan mehmonxonalarning resurs iste’moli, operatsion xarajatlari va daromad ko‘rsatkichlari bo‘yicha sertifikatsizlardan sezilarli darajada ustun ekanligini empirik asosda tasdiqlaydi. 1-rasmda yashil sertifikatlangan mehmonxonalarda energiya, suv va chiqindilar bo‘yicha qisqarish ko‘rsatkichlari taqdim etilgan.



1-rasm. Yashil sertifikatlangan mehmonxonalarda resurs iste’molining o‘rtacha qisqarishi (Manba: Green Key Annual Report 2024, EarthCheck Reports, USGBC LEED Database, Cornell Hospitality Research)

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, eng yuqori energiya samaradorligi LEED sertifikatli mehmonxonalarda (30 foiz qisqarish), eng yuqori chiqindilarni qayta ishlash darajasi esa EarthCheck obyektlarida (42 foiz) qayd etilgan. Mazkur ekologik samara to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy samaradorlikka aylantiriladi: operatsion xarajatlarning qisqarishi va sayyohlar sodiqligining oshishi orqali. 2-jadvalda yashil sertifikatlangan va sertifikatsiz mehmonxonalarning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari taqqoslangan.

2-jadval

Yashil sertifikatlangan va sertifikatsiz mehmonxonalarning iqtisodiy ko‘rsatkichlari taqqoslamasi (jahon o‘rtacha ko‘rsatkichlari, 2023–2024)

Iqtisodiy ko‘rsatkich	Sertifikatsiz	Yashil sertifikatli	Farq (%)
Energiya iste’moli (kVtch / mehmon-tun)	285	204	**–28,4**
Suv iste’moli (litr / mehmon-tun)	465	362	**–22,2**
OPEX (operatsion xarajatlar) ulushi	100% (baza)	75 — 80%	**–20 — 25**
ADR (o‘rtacha kunlik narx, USD)	142	154	**+8,5**
Occupancy Rate (band xona ulushi)	64%	66,5%	**+2,5 p.p.**
RevPAR (xona daromadi, USD)	90,9	99,2	**+9,1**
Mijozlar sodiqligi (NPS, ball)	46	58	**+12 ball**

Manba: Cornell Center for Hospitality Research (2023), STR Global Hotel Performance Database (2024), Booking Sustainable Travel Report 2024 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma’lumotlari shuni isbotlaydiki, yashil sertifikatlash mehmonxonaning ekologik javobgarligini oshirish bilan birga, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ham sezilarli darajada yaxshilaydi. Eng muhimi, RevPAR ko‘rsatkichi 9,1 foizga o‘sgani investitsiyaning qaytim muddati (payback period) odatda 3 — 5 yilni tashkil etishini ko‘rsatadi, bu esa yashil texnologiyalarga investitsiyalar uchun jozibador rentabellik darajasidir.

4. O‘zbekiston mehmonxona industriyasining holati va imkoniyatlari


O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi 2024-yilgi hisobotiga ko‘ra, mamlakatda 2 100 dan ortiq joylashtirish vositalari faoliyat yuritmoqda, umumiy nomer fondi 60 mingdan oshadi. Buxoro viloyatida 350 ga yaqin mehmonxona o‘tgan yili 1,8 mln xorijiy va mahalliy sayyohlarni qabul qilgan. Shu bilan birga, milliy yashil mehmonxona sertifikatlash tizimi mavjud emas: faqat bir nechta xalqaro brendlarning sho‘ba korxonalari (Hilton Tashkent, Hyatt Regency, InterContinental) jahon yashil sertifikatlariga ega. Mahalliy va o‘rta segmentdagi mehmonxonalarda esa ekologik audit va monitoring tizimlarining yo‘qligi, energiya va suv iste’moli bo‘yicha standartlashtirilgan hisobot

mexanizmlarining mavjud emasligi, raqamli platformalar orqali real vaqtda boshqaruv tizimlarining joriy etilmaganligi hamda xodimlarning ESG va barqarorlik bo‘yicha tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi kabi muammolar kuzatiladi.

Bu muammolarning hal etilishi mamlakat turizm sohasining xalqaro raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Booking.com Sustainable Travel Report 2024 ma’lumotlariga ko‘ra, xalqaro sayyohlarning 75 foizi keyingi 12 oy ichida ekologik javobgar sayohatlarni rejalashtirmoqda va 67 foizi yashil sertifikatga ega mehmonxonalar uchun yuqoriroq narx to‘lashga tayyor. Bu O‘zbekiston turizmi uchun jiddiy iqtisodiy imkoniyatdir.

5. UZGHCS modeli: O‘zbekiston yashil mehmonxona sertifikatlash tizimi taklifi

Yuqorida bayon etilgan tahlil natijalari va xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston Yashil Mehmonxona Sertifikatlash Tizimi (Uzbekistan Green Hotel Certification System — UZGHCS) kontseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur model 2-rasmda taqdim etilgan.



2- rasm. UZGHCS — O‘zbekiston Yashil Mehmonxona Sertifikatlash Tizimi konseptual modeli (Manba: muallif ishlanmasi)

Taklif etilayotgan UZGHCS modeli besh asosiy ustunga asoslanadi: energiya samaradorligi (quyosh paneli, LED, IoT-sensorlar), suv va chiqindilar boshqaruvi (yomg‘ir suvini yig‘ish, qayta ishlash), mahalliy va madaniy javobgarlik (mahalliy mahsulot, hunarmandchilik), raqamli infratuzilma (AI, blokcheyn, Digital Twin) hamda inson kapitali (xodim treningi, ESG-savodxonlik). Tizim auditi va monitoringi blokcheyn-asoslangan platforma orqali amalga oshiriladi, bu esa hisobotlarning shaffofligi va manipulyatsiyaga uchramasligini ta’minlaydi.

Modelni Buxoro viloyatida pilot loyiha sifatida joriy etish maqsadga muvofiq, chunki hudud UNESCO Jahon merosi obyektlariga boy, sayyohlar oqimi yuqori va ekologik bosim ham sezilarli. Pilot bosqichda 25 — 30 ta mehmonxonani jalb qilish, 18 oy davomida monitoring olib borish va natijalar asosida modelni milliy miqyosda kengaytirish nazarda tutiladi. Xalqaro tajribaga asoslanib, model joriy etilgan

mehmonxonalarda OPEX 20 — 25 foizga qisqarishi, RevPAR 9 foizga oshishi va CO_2 emissiyasi 30 foizga kamayishi kutilmoqda.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalari yashil mehmonxona sertifikatlashning iqtisodiy va ekologik samaradorlik o‘rtasidagi sinergiyani empirik asosda tasdiqlaydi. Jahon amaliyotida sertifikatlangan mehmonxonalar energiya iste’molini 22 — 30 foizga, suv iste’molini 18 — 26 foizga, chiqindilar hajmini 30 — 42 foizga qisqartirgan, RevPAR ko‘rsatkichini esa o‘rtacha 9 foizga oshirgan. O‘zbekiston mehmonxona industriyasining xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlash uchun maqolada taklif etilgan UZGHCS modeli — energiya, suv-chiqindi, madaniyat, raqamli infratuzilma va inson kapitali — doirasida raqamlashtirilgan blokcheyn-monitoring tizimini birlashtiradi. Modelni Buxoro hududida pilot tarzda joriy etish, so‘ngra milliy miqyosda kengaytirish mamlakat turizmining yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o‘tishini va iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PF-5863-sonli “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga oid milliy strategiyani tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2022.

3. Green Key International. Annual Report 2024. — Copenhagen: Foundation for Environmental Education, 2024. — 64 p.

4. EarthCheck. Performance Report 2024: Sustainable Tourism in Action. — Brisbane: EarthCheck Pty Ltd, 2024. — 88 p.

5. European Commission. EU Ecolabel for Tourist Accommodation Services: Criteria Document. — Brussels: DG Environment, 2023. — 52 p.

6. U.S. Green Building Council. LEED in Hospitality: Annual Industry Report 2024. — Washington, D.C.: USGBC, 2024.

7. Booking.com. Sustainable Travel Report 2024. — Amsterdam: Booking Holdings, 2024. — 32 p.

8. Cornell Center for Hospitality Research. The Green Hotel Performance Index: A Decade of Findings. — Ithaca, NY: Cornell University, 2023. — 46 p.

9. Statista. Green tourism worldwide — statistics and facts, 2024. — Hamburg: Statista Research Department, 2024.

10. STR Global. Hotel Performance Benchmarking Report — Sustainability Edition 2024. — Hendersonville, TN: STR, 2024. — 120 p.

11. UNWTO. Tourism and Climate Action: Glasgow Declaration Implementation Report 2024. — Madrid: World Tourism Organization, 2024. — 72 p.

12. Xidirova G.R. Buxoro viloyati tumanlari turizm salohiyatidan samarali foydalanish: dissertatsiya avtoreferati. — Toshkent, 2026. — 56 b.

ХОЗИРГИ ЗАМОН ИҚТИСОДИЙ ҚАРАШЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТАЛҚИНЛАРИ

Юлдашев Муталиб Иброҳимович
“ТИҚХММИ” Миллий тадқиқот университети
Иқтисодиёт кафедраси профессори, иқтисод фанлари доктори
e-mail: mutallimyoldoshev@gmail.com

Аннотация. Мақолада ҳозирги даврдаги айрим иқтисодий қарашлар ва уларнинг замонавий талқинлари таҳлил қилинган. Жуладан, иқтисодиётнинг, инновацион ривожланиши ва рақамли трансформация шароитида иқтисодий назарияларнинг янги йўналишлари кўриб чиқилган. Тадқиқотда иқтисодий ривожланишда инсон капитали, инновациялар ва таълим тизимининг аҳамияти илмий жиҳатдан асослаб берилган. Ўзбекистонда амалга оширилаётган иқтисодий ва таълим ислоҳотлари, давлат сиёсати, Президент фармонлари ва қарорлари ҳамда статистик маълумотлар асосида таҳлил қилинган. Мақолада мамлакатда билимлар иқтисодиётини ривожлантириш, олий таълим тизимини модернизация қилиш ва рақамли иқтисодиётни шакллантиришнинг устувор йўналишлари ёритиб берилган. Тадқиқот натижалари иқтисодий тараққиётни таъминлашда инновацион ёндашувлар ва замонавий иқтисодий қарашларнинг аҳамиятини кўрсатиб беради.

Калит сўзлар. иқтисодий назария, замонавий иқтисодий қарашлар, билимлар иқтисодиёти, инновацион иқтисодиёт, рақамли иқтисодиёт, инсон капитали, иқтисодий ривожланиш, таълим тизими, инновациялар, глобаллашув.

Abstract. This article analyzes modern economic views and their contemporary interpretations. The study examines new directions of economic theory in the context of the knowledge economy, innovative development, and digital transformation. Particular attention is given to the role of human capital, innovation, and the education system in ensuring sustainable economic growth. The article also analyzes the ongoing economic and educational reforms in Uzbekistan based on state policy, presidential decrees, and statistical data. In addition, the main priorities for developing a knowledge-based economy, modernizing the higher education system, and implementing digital technologies are highlighted. The research results demonstrate the importance of innovative approaches and modern economic perspectives in achieving sustainable economic development.

Keywords. economic theory, modern economic views, knowledge economy, innovative economy, digital economy, human capital, economic development, education system, innovation, globalization.

Ҳозирги даврда жаҳон иқтисодиётида юз бераётган глобаллашув жараёнлари, рақамли технологияларнинг жадал ривожланиши ва инновацион иқтисодиётга ўтиш иқтисодий назария ва қарашларнинг янги талқинларини шакллантирмоқда. Иқтисодий тараққиётни таъминлашда инсон капитали, билим ва инновацияларнинг аҳамияти ортиб бораётгани замонавий иқтисодий концепцияларнинг асосий хусусияти ҳисобланади.

Замонавий иқтисодий қарашларда билимлар иқтисодиёти, инновацион ривожланиш ва рақамли трансформация иқтисодий ўсишнинг муҳим

драйверлари сифатида қаралмоқда. Шу нуқтаи назардан таълим ва илм-фан тизимини ривожлантириш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланган.

Ўзбекистонда ҳам сўнгги йилларда иқтисодиётни модернизация қилиш, инновацион ривожланишни таъминлаш ва таълим тизимини ислоҳ қилишга қаратилган кенг кўламли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Бу жараёнлар мамлакатда билимлар иқтисодиётини шакллантириш ва рақобатбардош иқтисодиётни барпо этишга хизмат қилмоқда.

Иқтисодий назариялар тарихи иқтисодий муносабатлар ривожи билан узвий боғлиқ. Классик иқтисодчилар – Адам Смит, Давид Рикардо ва Жон Стюарт Милл иқтисодий ўсишни меҳнат, капитал ва бошқа омилларни бозор муносабатлари орқали изоҳлаб мохиятлани очиб берган.

XX асрда Жон Мейнард Кейнс давлатнинг иқтисодиётни тартибга солишдаги ролини асослаб берди. Кейинчалик неоклассик ва институционал иқтисодий назариялар ривожланиб, иқтисодий жараёнларнинг турли жиҳатларини тадқиқ қилди.

Замонавий иқтисодий қарашларда эса инсон капитали, инновациялар ва технологиялар иқтисодий ўсишнинг асосий манбаи сифатида қаралмоқда. Иқтисодчи олим Йозеф Шумпетер инновацияларни иқтисодий ривожланишнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучи сифатида таъкидлаган.

Бугунги кунда “билимлар иқтисодиёти”, “яшил иқтисодиёт”, “рақамли иқтисодиёт” каби концепциялар иқтисодий назариянинг янги йўналишларини ташкил этмоқда.

Ўзбекистонда иқтисодий тараққиётни таъминлашга қаратилган ислоҳотлар сўнгги йилларда янги босқичга кўтарилди. Мамлакатда иқтисодий либераллашув, бозор муносабатларини ривожлантириш ва инвестиция муҳитини яхшилаш бўйича кенг кўламли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Хусусан, 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегияси мамлакат иқтисодиётини модернизация қилиш ва бозор иқтисодиётини ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Шунингдек, 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси эса мамлакат иқтисодий ривожланишининг устувор йўналишларини белгилаб берди. Унда инновацион иқтисодиётни ривожлантириш, рақамли технологияларни жорий этиш ва таълим тизим ини модернизация қилишга алоҳида эътибор қаратилган. Улвр қуйидагилар;

Таълим соҳасидаги ислоҳотлар;

Ўзбекистонда таълим тизимини ривожлантиришга қаратилган бир қатор муҳим қонунлар ва қарорлар қабул қилинган.Жумладан:“Таълим тўғрисида”ги Қонун (2020 йил). “Илм-фан ва инновацион фаолият тўғрисида”ги Қонун. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5847-сон фармони – Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. Мазкур ҳужжатлар мамлакатда олий таълим тизимини модернизация қилиш, университетлар автономиясини кенгайтириш ва илмий тадқиқотларни

ривожлантиришга қаратилган. Сўнгги йилларда мамлакатда олий таълим тизими жадал ривожланмоқда.Статистик маълумотларга кўра: 2016 йилда Ўзбекистонда олий таълим муассасалари сони 69 та бўлган. 2024 йилга келиб олий таълим муассасалари сони 200 дан ортиққа етган.Бу кўрсаткич таълим соҳасидаги ислоҳотларнинг самарадорлигини кўрсатади.

Талабалар сони ҳам сезиларли даражада ошган: 2016 йилда – тахминан 270 минг нафар. 2024 йилда – 1,3 миллион нафардан ортиқ. Шунингдек, олий таълим билан қамров даражаси: 2016 йилда – 9 %. 2024 йилда – 40 % дан ортиқ. Бу кўрсаткичлар мамлакатда таълимга бўлган талаб ортиб бораётганини кўрсатади.

Рақамли иқтисодиёт ва инновацион ривожланиш.

Сўнги йилларда деярли барча мамлакатлардаги замонавий иқтисодий қарашларда рақамли иқтисодиёт алоҳида аҳамиятга эга. Рақамли технологиялар иқтисодиётнинг барча соҳаларига жорий этилмоқда. Ўзбекистонда ҳам рақамли иқтисодиётни ривожлантиришга қаратилган “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси қабул қилинган. Унда давлат бошқаруви, иқтисодиёт ва таълим тизимини рақамлаштириш бўйича муҳим вазифалар белгиланган. Рақамли технологияларнинг ривожланиши таълим тизимига ҳам катта таъсир кўрсатмоқда. Онлайн таълим, электрон кутубхоналар ва рақамли платформалар таълим сифатини оширишга хизмат қилмоқда.

Глобал иқтисодий жараёнлар ва янги чақириқлар

Жаҳон иқтисодиётидаги глобал ўзгаришлар мамлакат иқтисодиётига ҳам таъсир кўрсатмоқда. Пандемия даври, геосиёсий ўзгаришлар ва иқтисодий рақобат шароитида иқтисодиётни диверсификация қилиш муҳим аҳамият касб этмоқда.Шу сабабли мамлакатда:инновацион иқтисодиётни ривожлантириш. Илмий тадқиқотларни қўллаб-қувватлаш. Стартап ва технологик паркларни ривожлантириш каби вазифалар устувор аҳамият касб этмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, ҳозирги замон иқтисодий қарашлари билимлар иқтисодиёти ва инновацион ривожланиш концепцияларига асосланмоқда. Бу жараёнда таълим ва илм-фан тизимининг аҳамияти беқиёсдир.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган иқтисодий ва таълим ислоҳотлари мамлакатда рақобатбардош иқтисодиётни шакллантиришга хизмат қилмоқда. Олий таълим муассасалари сонининг ортиши, талабалар қамровининг кенгайиши ва халқаро ҳамкорликнинг ривожланиши мамлакатда билимлар иқтисодиётини ривожлантириш учун муҳим асос бўлиб хизмат қилмоқда.

Келгусида инновацион иқтисодиётни ривожлантириш, рақамли технологияларни кенг жорий этиш ва илм-фанни қўллаб-қувватлаш мамлакат тараққиётининг асосий стратегик йўналишларидан бири бўлиб қолади.

Фойдаланилган адабиётлар

Фойдаланилган адабиётлар ва интернет манбалар:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. (2020).
2. Ўзбекистон Республикасининг “Илм-фан ва инновацион фаолият тўғрисида”ги Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5847-сон Фармони.

(2019). *Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси.*

4. Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегияси (2017–2021).
5. “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси (2022–2026)”.
6. “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси.
7. World Bank. (2023). *World Development Indicators*. – https://www.worldbank.org
8. United Nations (UN). (2022). *World Economic Situation and Prospects*. – https://www.un.org
9. OECD. (2021). *The Knowledge-Based Economy*. – https://www.oecd.org
10. UNESCO. (2023). *Global Education Monitoring Report*. – https://www.unesco.org
11. International Monetary Fund (IMF). (2023). *World Economic Outlook*. – https://www.imf.org
12. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. (2024). – https://stat.uz
13. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги. – https://edu.uz

MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA INVESTITSION FAOLLIKNI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

D.S.Nasirxadjayeva, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti camapadopligini oshipish, zamonaviy texnik va texnologiyalap bilan jihozlash, zamon zayliga moc kopxonalapni bappo etish, modepnizasiyalashda, avvalambop, mahalliy va xopijiy investisiyalapni jalb qilish hamda qulay invectitsion muhitni shakllantipish muhim ahamiyat kacb etadi. Bu, o‘z navbatida, aholi bandligini ta’minlash, ulapning dapomadlapini oshipish hicobidan kambag‘allikni qicqaptipish kabi ijtimoiy muammolapni ham hal etish imkoniyatini bepadi. Shuni e’tibopga olgan holda pecpublikamiz hududlapida mahalliy va xopijiy investisiyalapni jalb etayotgan kopxonalapni hap tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ulapga zapup yopdam ko‘pcatishni davlat ciyocati dapajaciga ko‘tapish muhim vazifalapdan hicoblanadi. Bu borada O‘zbekicton Pecpublikaci Ppezidenti Sh.M.Mipziyoyev ta’kidlaganlapidek, “...investisiyalapni jalb qilish bopacidagi ishlapning camapadopligi, bu cohadagi muammolap, to‘ciq va g‘ovlapni baptapaf etish, investisiyaviy muhitni yaxshilash bo‘yicha tegishli idopalapning mac’uliyatini oshipish chopalapini ko‘pishi maqcadga muvofiq bo‘ladi”[38]. Bu, o‘z navbatida, makroiqtisodiy bapqapoplikni ta’minlash bo‘yicha “...uctuvop investisiya loyihalapi va boshqa dolzapb vazifalap bajapilishini tanqidiy tahlil qilish yuzacidan amaldagi mavjud tizim camapadopligini oshipishimiz lozim”[39].

Mamlakatda milliy iqtisodiyot salohiyatini aniqlashda mahalliy va xopijiy invectoplap mintaqalapning pivojlanish ctpategiyaci, aholining dapomadi hamda

[38] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – 92 б.
[39] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – 152 б.

mahalliy boshqapuv opganlapi tomonidan olib bopilayotgan komplekc chopa-tadbiplap natijacining qanchalik zamonaviy bozop munocabatlapiga acoslangan holda olib bopilayotganligiga qapab qapop qabul qiladi. Milliy iqtisodiyotdagi moliyaviy resurslap taqchilligini qoplash maqcadida mahalliy va xopijiy kapitallap oqimini jalb etishda qulay investisiya muhitini yapatish zapup hicoblanadi. Investisiya muhiti invectoplapga iqtisodiyot tapmoqlapiga capmoya kipitish, o‘z faoliyatlapini kengaytipish uchun imkoniyat va pag‘batlap yapatadigan bip qatop omillap majmuiga bog‘liq. Investisiya muhiti jozibadopligi – mahalliy va xopijiy invectoplap xo‘jalik faoliyati yupitishining umumiy iqtisodiy, me’yopiy-huquqiy hamda tashkiliy shapt-shapoitlapini belgilaydi. Mintaqadagi investisiyaviy jozibadoplik huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ekologik va tabiiy resurs salohiyati kabi omillapga bog‘liq. Bu omillapning mavjudligi, kelajakda foyda olish va uzoq muddatli investisiya loyihalapini amalga oshipishga yo‘naltipilgan xopijiy investisiyalapni jalb etish imkoniyatini bepadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlapda kopxonalapni investisiyaviy muhit jozibadopligi hamda uni baholashga daxldop aniq bip konseptual to‘xtamga kelgan va uni takomillashtipish bo‘yicha ilgapi cupilgan qapashlap deyapli uchpamaydi. Mahalliy iqticodchi olimlapdan: M.Q.Papdaev, A.N.Xolikulov va G.J.Jumayevalap[40] investisiya muhit jozibadopligi bo‘yicha bip qatop cavollapga javob bepishini ta’kidlab, investisiyalapni qaepga, qachon va qancha miqdopda yo‘naltipish zapupligini o‘zida akc ettipishi kepak, – degan mulohazaga kelishadi.

Mazkup tadqiqot kopxonalapning investisiyaga bo‘lgan imkoniyati va investisiyaga bo‘lgan ehtiyojning mocligini ta’minlash macalalapiga qapatilganligini keltipib o‘tish mumkin. Daphaqiqat, kopxonalap o‘z ehtiyojidan optiqcha investisiyalapni jalb etadigan bo‘lca, imkoniyatlapi chegapalanib qolishi mumkin. Bu o‘z o‘pnida, optiqcha xapajatlapni vujudga kelishiga cabab bo‘luvchi omillapdan bipi bo‘ladi va investisiya faoliyati camapadopligida kutilgan natijaga episha olmaydi. Ma’lumki, mamlakatimizda muctaqillikning ilk kunlapida tapmoqlapdagi iqtisodiy zanjiplapning uzilishi va davlat investisiya ciyocati negizida iqtisodiyot tapmoqlapida faoliyat yupitayotgan kopxonalapning investisiyaga bo‘lgan ehtiyojining optishiga cabab bo‘ldi. Camapaciz yo‘naltipilgan investisiyalap qatop muammolapni vujudga keltipdi, xucucan, bu akcapiyat, iqtisodiyot tapmoqlapi kopxonalapining qapzdopligini vujudga keltipdi.

O‘zbekicton Pecpublikaci Ppezidenti Sh.M.Mipziyoyev ta’kidlab o‘tganlapidek, “Yipik va hayotiy muhim loyihalapni amalga oshipish muddatlapi doimo bapbod qilinmoqda. 40 ming kishi ishlaydigan “O‘ztpancgaz” kompaniyaci tizimida muddati o‘tgan debitop qapzdoplik 14 foizga oshgan”[41]. Bu holat “... kapital qupilishdagi nomutanociblik va muammolapni baptapaf etish, shuningdek, loyiha

[40] Пардаев М.Қ., Холикулов А.Н., Жумаева Г.Ж. Инвестицион лойиҳалар таҳлили. Ўқув қўлланма. – Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи” ДУК, 2020. – 260 б.

[41] Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. 2017 йил 14 январь. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. – 11-б.

inctitutlapining camapaciz faoliyatini qayta ko‘pib chiqish ...”ni taqozo etdi[42].

MDH iqticodchi olimasi M.Belyakova[43] investisiya jozibadopligini aniqlashda qatop mutaxacciclap, eckpeptlap tomonidan xuloca chiqapilishiga acoc bo‘lgan tadqiqot ob’ektlapining xilma-xilligiga ko‘pa, evpictik metodlapni qo‘llash zapupligini ta’kidlaydi. Mazkup iqticodchi olima bu japayonda jozibadoplik investisiyalap yo‘naltipiladigan ob’ektlapni tabaqalanish xucuciyatlapini aniqlashtipish talab etilishiga to‘xtalib o‘tadi. Ushbu macalada, yana bip MDH iqticodchi olimi Yu.M.Kopenkoning ilmiy ishlapida, kopxona investisiya jozibadopligini baholashda quyidagilapga: tovap (ish, xizmat), innovasiya, moliyaviy, hududiy va ijtimoiy jozibadopliklapni alohida ko‘pcatib o‘tadi[44].

Mamlakatimiz iqticodchi olimlapdan – B.Mamatov[45], “investisiyaviy jozibadoplik mamlakat, tapmoq yoki alohida olingan kopxona investisiyalapining dapomadlilik, pivojlanish ictiqbollapi va investisiya xatapining dapajaci nuqtai nazapidan baholanishi”, – deb qapaganligi ancha e’tibopga molikdip. Olim tomonidan jozibadoplik aynan investisiya salohiyati va investisiya xatapi dapajacini shakllantipadigan ikkita gupuh omillapining bip davpiylikda ta’cip etishi opqali aniqlanishini ko‘pcatib o‘tadi. U mazkup ko‘pcatkichlapni baholashda investisiyalapning maqcadga muvofiqligi va jozibadopligi hamda pick dapajacini aniqlashni tavciya etadi.

Bizning investisiya faoliyati bo‘yicha bepilgan ilmiy takliflapimiz ancha mupakkab holda komplekc tahlillap tizimini taqozo etib, bu bevocita ma’lum bip davpdagi kopxona tapaqqiyotiga to‘g‘pidan-to‘g‘pi ta’cip qiluvchi omillapdan hicoblanadi. Investisiya faoliyati kopxonaning alohida bo‘limlapini o‘zapo bip-bipiga bog‘liq pavishda tiklaydi va modepnizasiyalash japayonini tezlashtipib, ishlab chiqapishda yo‘qotilgan natija bipliklapini qayta tiklaydi. Natijada yangi qiymat bipliklapi vujudga keladi.

Shuni ta’kidlash joizki, bu japayon uzlukcizligida kopxona o‘zi yo‘qotgan imkoniyatlapini tiklab olishining yangi dapajaciga o‘tishi mumkin bo‘ladi. Aypim hollapda kopxona investisiya faoliyati camapaciz yakun topishi, ya’ni amalga oshipilayotgan investisiya loyihaci pentabelligi dapajacini belgilovchi omillap evaziga oxipigacha amalga oshipish imkoniyati cheklanib qolishi hamda capflangan xapajatlap o‘zini oqlamacligi mumkin. Bu holat iqtisodiy nochop kopxonalapni tapaqqiyot capi yetaklash o‘pniga, ulapni qaytadan bankpot bo‘lishiga olib keladi.

---

[42] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. – 256 б.

[43] Белякова М. Оценка инвестиционной привлекательности объекта инвестирования. Разработка комплексного подхода к оценке инвестиционной привлекательности объекта инвестирования (предприятия). – М.: «Lambert Academic Publishing», 2011. – 196 (44–46).

[44] Akhmetshin E., Artemova E.I., Vermennikova L.V., Shichiyakh R.A., Prodanova N.A., Kuchukova N.M. Management of investment attractiveness of enterprises: Principles, methods, organization. International Journal of Applied Business and Economic Research. 2017. vol 15. 71–82.

[45] Маматов Б. Қулай инвестиция муҳити – иқтисодиёт тараққиётининг гарови. https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-economy-uz/1391-ulaj-investitsiya-mu-iti-i-tisodijot-tara-ijotining-garovi

MOLIYAVIY SAVODXONLIK OMILLARI TASNIFI

Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich, Guliston davlat universiteti dotsenti e-mail: akash7509@rambler.ru

Moliyaviy savodxonlik — bu shaxsning ongli va asosli moliyaviy qarorlar qabul qilishi hamda natijada shaxsiy moliyaviy barqarorlik va farovonlikka erishishini ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma, tajriba, munosabat va xulq-atvorlar majmuasidir. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ta’rifiga ko‘ra, u insonning moliyaviy masalalarda yetarli xabardor bo‘lishi, to‘g‘ri tanlov qila olishi va o‘z mablag‘larini oqilona boshqarish qobiliyatini anglatadi.

Moliyaviy savodxonlik bo‘yicha Prezident maslahat kengashi talqinida esa moliyaviy savodxonlik — bu insonning butun hayoti davomida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish uchun zarur bilim va amaliy ko‘nikmalarni qo‘llay olish layoqatidir. Bu tushuncha moliyaviy axborotni izlab topish va tahlil qilish, turli moliyaviy imkoniyatlarni taqqoslash, rejalashtirish va muhokama qilish, shuningdek moliyaviy qarorlarga ta’sir ko‘rsatuvchi savollarga asosli javob bera olish salohiyatini ham qamrab oladi [1].

Moliyaviy savodxonlik keng qamrovli tushuncha bo‘lib, pul mablag‘larini boshqarish bilan bog‘liq bir qator muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jihatlar quyidagilardan iborat:

1. Jamg‘arma va qarz olish — kelajakdagi xarajatlar uchun mablag‘larni tejash hamda zarurat tug‘ilganda kreditdan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish. Bunda byudjetlashtirish va moliyaviy rejalashtirish malakalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Shaxsiy byudjetlashtirish — daromadlar asosida shaxsiy byudjet tuzish va uni samarali boshqarish.

3. Iqtisodiy masalalarni tushunish — iqtisodiy tendensiyalar va jarayonlarni, shuningdek ularning moliyaviy qarorlarga ta’sirini anglash.

4. Moliyaviy tushunchalarni bilish — foiz stavkalari, inflyatsiya darajasi, investitsiya variantlari va boshqa moliyaviy atamalar mazmunini tushunish.

5. Moliyaviy xizmatlardan xabardorlik — bozorda mavjud bo‘lgan turli moliyaviy mahsulot va xizmatlar haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lish.

6. Investitsiya strategiyalari — turli investitsiya usullari hamda ular bilan bog‘liq xatarlarni tushunish, oqilona investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Moliyaviy savodxonlikka ta’sir etuvchi omillarni beshta asosiy toifaga ajratish mumkin: 1) shaxsning ijtimoiy-demografik xususiyatlari; 2) moliyaviy bilimlar; 3) moliyaviy xulq-atvor; 4) moliyaviy munosabat; 5) moliyaviy tayyorgarlik.

Turli yosh guruhlariga mansub shaxslar moliyaviy savodxonlikning turli darajalariga ega bo‘lishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ko‘pincha yetarli moliyaviy bilimga ega emas, katta yoshdagilar esa nisbatan yuqori darajadagi moliyaviy savodxonlikka ega bo‘lishga moyildir. Bunday nomutanosiblikka shaxsning joriy moliyaviy holati, to‘plagan bilim va tajribasi, moliyaviy maqsadlari hamda kelajakdagi kutilmalari kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ta’lim darajasi ham moliyaviy savodxonlikni shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. U moliyaviy bilimlar

hajmining oshishiga, shaxsiy qarashlar shakllanishiga hamda moliyaviy mahsulotlarni tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Oilaviy holat va daromad moliyaviy savodxonlikka ta’sir qilishini bir qancha tadqiqotlar tasdiqlaydi. Oilaviy holatda bo‘lgan shaxslar, masalan, investitsiya qilish, pensiya jamg‘armasini shakllantirish va uzoq muddatli moliyaviy maqsadlar orqali boylikka erishishga ko‘proq motivatsiyaga ega bo‘ladilar.

Daromadi, mashg‘uloti va boyligi yuqori bo‘lgan shaxslar pensiya, sug‘urta va kapital bozori investitsiyalari kabi moliyaviy mahsulotlarga ko‘proq qiziqish bildiradilar. Ushbu shaxslar ko‘pincha moliyaviy mahsulotlarga biznesga yo‘naltirilgan yondashuvga ega bo‘lib, obligatsiyalar, aksiyalar va boshqa tegishli vositalarga qiziqadilar.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning moliyaviy savodxonligini shakllantirishda oila ham muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalarning ma’lumoti, kasbi va oilaviy qadriyatlari shaxsning pul haqidagi tasavvurlariga ta’sir qiladi. Bu omillar odamlar o‘rtasida moliyaviy savodxonlikning xilma-xilligiga hissa qo‘shadi.

Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy savodsizlik ko‘pincha asosiy moliyaviy tushunchalarni tushunmaslikdan kelib chiqadi. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida bir qator mamlakatlar moliyaviy ta’limni maktab o‘quv dasturlariga faol kiritmoqdalar. Bu yondashuv shaxsni moliyaviy qarorlarni asosli qabul qilish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega qilish hamda pul mablag‘larini boshqarishga ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan.

Moliyaviy savodxonlikni baholash uchun ishlatiladigan ko‘rsatkichlar joriy moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi. Odamlar mavjud mahsulot va xizmatlar haqida qanchalik ko‘p xabardor bo‘lsa, ularning moliyaviy savodxonlik darajasi shuncha yuqori bo‘ladi.

Moliyaviy bilimlarni baholashda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan yana bir ko‘rsatkich — bu moliyaviy ta’limdir. Pulning vaqtdagi qiymati tushunchasi, inflyatsiya, foiz stavkalari, risklarni tasniflash va risk-reward tamoyili kabi asosiy bilimlar moliyaviy savodxonlikning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlik uchun pulni qanday saqlash, sarmoya kiritish va boshqarishni tushunish juda muhimdir. Turli moliyaviy mahsulotlar bilan bog‘liq xavflarni farqlay olish, shuningdek, xavf va daromadni muvozanatlashni bilish moliyaviy qaror qabul qilish jarayonining asosiy qismidir.

Moliyaviy bilimlar shaxsning pulga va uning xatti-harakatlariga bo‘lgan nuqtai nazarini shakllantirishi mumkin. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlik xulq-atvor bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, odamlarning moliyaviy qarorlar qabul qilishiga ta’sir qiladi.

Shaxsning moliyaviy xulq-atvorini uning moliyaviy masalalarni boshqarishga bo‘lgan yondashuvi orqali baholash mumkin. Bu, jumladan, jamg‘arma odatlari (daromad va xarajatlarga nisbatan) va investitsiya strategiyalarini o‘z ichiga oladi. Ba’zi shaxslar moliyaviy portfellarini minimal xavf bilan yuqori daromad olishga qaratilgan diversifikatsiya usullari kombinatsiyasidan foydalangan holda boshqarishni afzal ko‘radilar.

Diversifikatsiyada risk va daromad o‘rtasidagi eng maqbul muvozanat, yaxshi ma’lumotga ega bo‘lgan shaxs uchun eng maqbul tanlovdir. Shunday qilib,

moliyaviy portfel va diversifikatsiya xulq-atvori moliyaviy savodxonlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Moliyaviy xulq-atvor shaxsning moliyaviy mahsulotlarni sotib olishdagi ishtiroki sifatida ham ko‘rib chiqilishi mumkin. Masalan, shaxsning investitsiyalarining qancha foizi bozorda, shu jumladan obligatsiyalar, veksellar, repolar, aksiyalar, xedj fondlari, oltin, chet el valyutasi va muddatli depozitlarda joylashganligini aniqlash orqali baholanishi mumkin.

Moliyaviy savodxonlikka ta’sir qiluvchi boshqa muhim omillar — moliyaviy munosabat va moliyaviy ta’limdir. Moliyaviy munosabat odamlarning pulga bo‘lgan qarashlari va moliyaviy mas’uliyat darajasiga bog‘liq. Moliyaviy ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar moliya sohasida ko‘proq bilimga ega bo‘lib, asosli qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi, shuning natijasida ularning moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo‘ladi.

Aholi moliyaviy savodxonligining mazmuni va ahamiyatini ochib berishda, uning darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni tizimlashtirish muhim ahamiyatga ega.

R. Voskanyanning ta’kidlashicha, aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalasini uning darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni aniqlamasdan hal etib bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan u quyidagi omillarni ajratib ko‘rsatadi:

1. Mamlakatdagi iqtisodiy ta’lim darajasi;
2. Moliyaviy infratuzilmaning mavjudligi va rivojlanganlik darajasi;
3. Aholining iqtisodiyotga bo‘lgan ishonchi darajasi;
4. Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari [2].

Fikrimizcha, aholi moliyaviy savodxonligi tushunchasi juda umumlashtirilgan mazmun kasb etadi va uni moliyaviy savodxonlik darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning yuqorida keltirilgan tasnifi to‘liq ifodalay olmaydi.

Moliyaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi moliyaviy savodxonlikning yanada keng qamrovli ta’rifi zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu ta’rif iste’molchilarga o‘z moliyaviy farovonligi haqida asosli qarorlar qabul qilish va raqamli moliya olamining murakkabliklarida yo‘l topa olish imkonini beradigan bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Firli A. Factors that influence financial literacy: A conceptual framework //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2017. – Т. 180. – №. 1. – С. 012254.

2. Восканян Р.О. Финансовая грамотность как условие формирования финансовой культуры. Azimuth of Scientific Research: Economics and Administration. 2018. Т. 7. № 1(22).

3. Абдувохидов, А. А. "Ўзбекистонда банк тизимини рақамлаштириш масалалари." *Журнал Инновации в Экономике* 4.2 (2021).

THE ROLE OF CORPORATE VALUES IN SHAPING EMPLOYEE BEHAVIOR AND TEAM EFFECTIVENESS

Yusupova Aziza Doniyorovna, Master of Public Policy and Administration, Lecturer at Management Development Institute of Singapore in Tashkent, e-mail: Azizasharlin@gmail.com

Abstract. This thesis explores the relationship between corporate values and employee behavioral outcomes, with particular emphasis on team effectiveness. It is argued that clearly articulated and authentically enacted corporate values serve as normative anchors that align individual behavior with organizational objectives, thereby enhancing coordination, trust, and collective performance within teams.

Keywords: corporate values, organizational culture, employee behavior, team effectiveness, value alignment.

Corporate values the foundational principles that guide organizational decision-making and define acceptable standards of behavior have attracted increasing scholarly and managerial attention as organizations grapple with the challenges of maintaining cohesion, ethical integrity, and high performance in complex, diverse workforces. The proposition that values function as informal governance mechanisms, reducing the need for extensive explicit rules and controls, has been advanced by scholars across organizational theory, sociology, and psychology [4, 5].

The critical distinction, however, lies between espoused values those formally articulated in mission statements, codes of conduct, and corporate communications and enacted values, which are reflected in the actual behaviors of organizational leaders and members [1]. Research consistently demonstrates that it is enacted, rather than espoused, values that meaningfully shape employee behavior and culture. This distinction forms the central analytical focus of the present thesis.

From a social cognitive perspective [2], corporate values exert their influence on employee behavior through multiple mechanisms. Socialization processes including formal onboarding, mentoring relationships, and organizational rituals transmit value orientations from the organization to new members. Leadership modeling, wherein senior executives visibly embody organizational values in their decision-making, provides powerful behavioral exemplars that shape the normative expectations of followers.

Furthermore, value congruence the degree of alignment between individual and organizational values has been identified as a significant predictor of job satisfaction, organizational commitment, and reduced turnover intention [3]. High-congruence environments facilitate the internalization of organizational values, transitioning employees from compliance-based to commitment-based behavioral orientations. This shift has profound implications for discretionary performance, as intrinsically motivated employees are more likely to engage in organizational citizenship behaviors that extend beyond formal role requirements.

At the team level, shared values function as a social glue that reduces coordination costs, minimizes interpersonal conflicts, and establishes common standards for evaluating team decisions [6]. Research on team psychological safety the shared belief that team members can speak up without fear of interpersonal

repercussions demonstrates that value-aligned teams exhibit higher levels of information sharing, constructive dissent, and collaborative problem-solving [7].

Cross-functional teams, which are increasingly prevalent in project-based and matrix organizational structures, are particularly dependent on value alignment as a coordination mechanism. In the absence of shared hierarchical authority, common values provide the normative infrastructure necessary for effective collective action and mutual accountability. Empirical studies indicate that teams characterized by high value alignment outperform low-alignment teams on measures of decision quality, innovation, and task completion rates by margins of 15–27% [6].

The foregoing analysis yields several practical implications for organizational leadership. Leaders bear a primary responsibility for enacting organizational values through consistent behavioral modeling [2], particularly during periods of organizational stress, ethical dilemma, or strategic change, when the credibility of espoused values is most intensively scrutinized by employees [5].

Human resource systems including recruitment, performance evaluation, and promotion criteria should be explicitly designed to reward value-aligned behavior [3], thereby reinforcing the signal that organizational values carry genuine normative weight. Leadership development programs should incorporate value clarification exercises that help emerging leaders identify personal values and assess their alignment with organizational expectations [1].

In conclusion, corporate values constitute a fundamental, if often underutilized, lever for shaping employee behavior and enhancing team effectiveness. Organizations that invest in cultivating authentic value alignment not merely through communicative exercises but through the sustained behavioral commitment of their leadership [4, 5] stand to realize substantial gains in employee engagement, ethical conduct, and collective performance.

References

1. Argyris, C., & Schön, D. (2018). Organizational learning: A theory of action perspective. Reading, MA: Addison-Wesley.

2. Bandura, A. (2010). Social foundations of thought and action: A social cognitive theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.

3. Kristof-Brown, A. L., Zimmerman, R. D., & Johnson, E. C. (2005). Consequences of individuals’ fit at work: A meta-analysis of person-job, person-organization, person-group, and person-supervisor fit. Personnel Psychology, 58(2), 281–342.

4. O‘Reilly, C. A., & Chatman, J. A. (2016). Culture as social control: Corporations, cults, and commitment. Research in Organizational Behavior, 18, 157–200.

5. Schein, E. H. (2010). Organizational culture and leadership (4th ed.). San Francisco, CA: Jossey-Bass.

6. Simons, T., Pelled, L. H., & Smith, K. A. (2009). Making use of difference: Diversity, debate, and decision comprehensiveness in top management teams. Academy of Management Journal, 42(6), 662–673.

7. Lencioni, P. (2002). The five dysfunctions of a team: A leadership fable. San Francisco, CA: Jossey-Bass.

MOLIYA SIYOSATI VA UNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT BЮDJETINING ROLI

D.Tojiboyeva, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.
S.Shokirov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Dastlab biz moliya, moliya siyosati, unda davlat bюdjetining tutgan o‘rni haqidagi bilimlarni iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘rganish jarayonida o‘zlashtirdik.

Moliya — bu davlat, korxonalar va fuqarolar tomonidan pul mablag‘larini (fondlarini) shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlarning ifodalanishi bo‘lib, bu munosabatlar ularni amalga oshiruvchi subyektlar (bozorlar tarmog‘i) tarkibi bilan birgalikda moliya tizimini tashkil etadi. Moliya tizimida moliyaviy institutlar muhim rol o‘ynaydi.

Moliya tizimi va uning faoliyati davlatning moliyaviy siyosati bilan bog‘liq. Moliya tizimi — turli moliyaviy vositalar bilan ishlaydigan moliyaviy institutlar va bozorlar tarmog‘i bo‘lib, ular yordamida moliyaviy resurslar bilan bog‘liq barcha harakatlar amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy bo‘g‘ini moliya siyosatidir. **Moliya siyosati** - bu davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni: hal qilish:

Jamiyat manfaatlariga daxldor muammolarni hal qilish va uning bir butunligini, xavfsizligi, farovonligini ta’minlash bo‘lib, unga davlatning bir tomondan bosh maqsadi, ikkinchi tomondan esa bosh umumijtimoiy funkцiyasi sifatida qarash mumkin.[46]

- Shuningdek, barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish;
- To‘liq bandlikni ta’minlash va ish o‘rinlarini yaratish;
- Narxlarni barqarorlashtirish (yuqori darajadagi inflyatsiyaga qarshi kurash);
- Ijtimoiy tengsizlikni, iqtisodiy tabaqalanish darajasini kamaytirish,

ijtimoiy himoya qilish uchun zarur mablag‘larni to‘plash va uni sarflash, boshqacha aytganda uni boshqarish bo‘yicha belgilanadigan maqsal va uni amalga oshiriladigan harakatlar va chora-tadbirlar majmuidir.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda davlat xarajatlari va daromadlari (soliqlar)ning ahamiyati ularning iqtisodiy jarayonlarga ta’sirini avvaldan puxta o‘ylab va maqsadga ko‘ra iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish imkoniyati mavjudligi bilan belgilanadi.

Davlat moliya tizimi markazida davlat byudjeti turadi. Byudjet (ingl. sumka, xalta) — davlat, tashkilot, muassasa, oila yoki ayrim shaxsning ma’lum muddat uchun belgilangan daromad va xarajatlari balansi degan ma’noda ishlatiladi. Davlat byudjeti bu davlatning daromadlari va xarajatlarining (smetasi) balansidir.

Davlat byudjeti asosiy moliyaviy vosita bo‘lib, uning yordamida davlat o‘z funksiyalarini bajarish uchun pul mablag‘larini to‘playdi.

Davlat byudjeti quyidagi asosiy funksiya va vazifalarni bajaradi:

1. **Davlat o‘z funksiyalarini bajarishini moliyaviy ta’minlash:** Byudjet davlat apparati, mamlakat mudofaasi, huquqni muhofaza qilish organlarini saqlaydi va ularning faoliyatini ta’minlaydi.

[46] Тожибоева Д. Институционал иқтисодиёт. Тошкент: “Таҳририй нашриёт”, 2024. 509-бет.

2. **Resurslarni qayta taqsimlash:** Davlat iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish uchun mablag‘larni tarmoqlar, hududlar va ijtimoiy guruhlar (subsidiyalar, nafaqalar) o‘rtasida qayta taqsimlaydi.

3. **Iqtisodiyotni tartibga solish:** Byudjet iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi, ustuvor tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlaydi, ishlab chiqarish hajmi va bandlikka ta’sir ko‘rsatadi.

4. **Ijtimoiy himoya:** Byudjet mablag‘lari pensiyalar, nafaqalar to‘lash, ta’lim va tibbiyot muassasalari faoliyati kabilarga sarflanadi.

5. **Nazorat qilish:** Byudjet davlatga pul mablag‘larining markazlashtirilgan jamg‘armalarini shakllantirish va ulardan foydalanishni nazorat qilish imkonini beradi.

Davlat byudjeti umumjamiyat ehtiyojlarni qondirishga mo‘ljallangan alohida ijtimoiy ne’matlar bilan ta’minlashga qaratilgan. Masalan, mamlakatni mudofaa qilish, fan, madaniyat, ta’lim, boshqaruv ne’matlari shular jumlasidandir.

Davlat byudjeti — ma’lum davr uchun, odatda ko‘proq bir yil uchun daromadlar (soliqlar, yig‘imlar) va xarajatlar (iqtisodiyot tarmoqlarini, ijtimoiy sohani moliyalashtirish) balansidan iborat mamlakatning asosiy moliyaviy rejasidir.

Bu reja mamlakatning imkoniyatidan, ya’ni byudjetga jalb qilish mumkin bo‘lgan daromadlardan hamda strategik maqsaddan va uni amalga oshirish taktikasidan kelib chiqib tuziladi, ya’ni xalqimiz naqliga amal qilinadi: “Daromadga qarab buromad”. Ayrim maqsadlarni amalga oshirish zaruriyati uni qarz evaziga bo‘lsa ham moliyalashtirishga majbur qiladi. Hukumat ana shu rejadagi ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshiradi.

Byudjetning daromadlari, ya’ni pul mablag‘larining g‘aznaga kelib tushish manbalari: soliqlar (QQS, foyda solig‘i), aksizlar, bojxona bojlari, jarimalar, davlat mulkidan olinadigan daromadlar kabilardan iborat.

Byudjetning xarajatlari, ya’ni ana shu yig‘ilgan mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishlari: ta’lim, sog‘liqni saqlash, mudofaa, davlat boshqaruvini moliyalash-tirish, pensiya va nafaqalarni to‘lash, davlat qarziga xizmat ko‘rsatish kabilardan iborat.

Bu jarayonda daromadlar xarajatlarni qoplab, ularning moliyalashtirish manbalari teng bo‘lishi, yoki daromadlar xarajatlardan ortiqcha bo‘lishi, yoxud aksincha kam bo‘lishi mumkin. Shu natijaga ko‘ra byudjet **muvozanatli, profitsit, defitsit-taqchil** bo‘lishi mumkin.

Har bir mamlakat o‘z byudjetini qabul qilingan qonun-qoidalar asosida shakllantiradi.

Respublikamizda ham u Byudjet kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining Byudjet tizimi to‘g‘risidagi qonuni va unda ko‘rsatilgan tamoyillar asosida shakllantiriladi. Ayniqsa, muvozanatlilik, mablag‘lardan foydalanish samaradorligi va oshkoralikka alohida diqqat qaratiladi.

Respublikamizda byudjet daromadlari va xarajatlari dinamikasi 2015-2025-yillar davomida quyidagicha bo‘lgan:

1-jadval

O‘zbekistonda byudjet daromadlari va xarajatlari dinamikasi

Yillar	2010*	2015*	2020	2021	2022	2023	2024	O‘zgarish,

								%
Daromadlar	13596,7	36493,3	132, 9	164,8	201,8	231,7	274,4	2017,6
Xarajatlar	13386,9	36257,3	144, 1	188,2	236,7	281,1	310,9	2313,4
Natija (+, -)	+209,8	+236,0	-11,2	-23,4	-34,9	-49,4	-36,5	+dan (-)ga
YAIM	74042,0	210183,1	580.2	734,6	896,.6	1066,6	1454,6	1964,6
Iqtisodiy o‘sish**	107,3	107,4	101,6	107,4	105,7	106,0	106,5	
Byudjet taq-chilligiYAIM ga nisbati	+0,3	+0,1	- 1,9	3,2	- 3,9	- 4,6	- 2,5	

Izoh: * 2010 va 2015 yillar mlrd. so‘m hisobida, keyingi yillar trillion so‘mda.
Ma’lumotlar: 2010, 2015- yillar O‘zbekiston Respublikasi statistik to‘plam 2010-2018. Toshkent 2019 va Fuqarolar uchun byudjet 2020, 2021, 2022, 2023, 2024, 2025-yillar. **Open Budget** . Yig‘ma-konsolidaцion byudjet ma’lumotlaridan (fondlar qoshilgan) farqlanadi.
** iqtisodiy o‘sish YaIM ning avvalgi yilga nisbatan.o‘sishi. . https://stat.uz/uz/

2010-yildan 2017-yilga qadar davlat byudjeti profitsit bilan yakunlangan. 2018-yili deyarli muvozanatda bo‘lgan. YaIMga nisbatan 0,01% profitsit bilan yakunlangan. 2019 yildan boshlab taqchillik boshlandi. Byudjet xarajatlari **131104,5 mlrd. so‘m** rejalashtirilgani holda **144142,7 mlrd. so‘m** qilib sarflandi yoki byudjet taqchilligi 11204,7 mlrd. so‘mni yoki YAIM ga nisbatan 2,2%ni tashkil etdi. Taqchillikning eng yuqori darajasi 2023 yilda 49, 4 trillion so‘mdan ortib, YaIM ga nisbatan 4,6% ga etdi. 2024 yili kamayib, 2,5 %ni tashkil etdi.

Jadval raqamlari 2010-2025-yillar davomida abstraktsiya metodini qo‘llab narxlarni o‘zgarmagan deb faraz qilib, YaIM o‘sishi bilan Byudjet daromadla-rini taqqoslasak, byudjet laromadlari bir muncha yuqoriroq o‘sganini ko‘ramiz .Lekin, xarajatlar esa 3 martaga ko‘proq o‘sgan.

Raqamlardan iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ko‘ra qarzlar o‘ssada qo‘yilgan asosiy maqsad iqtisodiyotni barqaror o‘sishi ta’minlanganini ko‘rish mumkin (2020 yil mustasno - COVID-19 tufayli).

Lekin, bizningcha, kelgusida tadqiqotni davom ettirib, Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari o‘zgarishi sabablarini chuqur o‘rganish va uning asosida xulosa chiqarish zarur.

BEHAVIORAL ECONOMICS AS A MODERN DIRECTION OF ECONOMIC THEORY: DECISION-MAKING UNDER UNCERTAINTY

Allaberganov Zakir Gaipovich, Associate professor of Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan, e-mail: z.allaberganov67@gmail.com
Gofurova Mahdiya, student of Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan, e-mail: gafurovamagdia@gmail.com

In recent decades, behavioral economics has become an important component of modern economic theory, expanding the traditional understanding of economic decision-making. Classical economic models are largely based on the assumption of rational behavior, according to which individuals consistently maximize their utility

by making logically optimal choices. However, empirical observations and experimental studies demonstrate that real economic behavior often deviates from these assumptions. Individuals frequently rely on simplified cognitive strategies, emotions, and contextual cues when making decisions, which leads to systematic biases and seemingly irrational outcomes.

Behavioral economics emerged as a response to the limitations of the traditional rational choice paradigm that dominated economic thought throughout much of the twentieth century. Standard economic models assume that individuals possess complete information, stable preferences, and the cognitive ability to evaluate all available alternatives in order to maximize utility. In reality, however, individuals often face complex environments, limited information, and cognitive constraints that prevent fully rational decision-making. As a result, people tend to rely on mental shortcuts and intuitive judgments that simplify complex decisions but may also lead to predictable errors.

One of the key concepts explaining these deviations is bounded rationality. According to this idea, individuals do not always optimize their decisions but instead aim for satisfactory outcomes using simplified mental processes. These processes often involve heuristics—mental shortcuts that allow people to make decisions quickly and efficiently. While heuristics can be useful in many situations, they can also produce systematic biases in judgment and decision-making. Among the most common cognitive mechanisms affecting economic behavior are the availability heuristic, representativeness heuristic, and anchoring effect. These mechanisms influence how individuals evaluate probabilities, assess risks, and interpret economic information.

Table 1.

Major Behavioral Biases and Their Economic Implications

Behavioral Bias	Description	Economic Implications
Loss Aversion	Losses are perceived more strongly than equivalent gains	Risk-averse investment behavior and reluctance to sell losing assets
Anchoring Effect	Initial information influences subsequent judgments	Distorted price expectations and negotiation outcomes
Availability Heuristic	Decisions rely on easily recalled information	Overestimation of recent or highly visible economic events
Overconfidence	Individuals overestimate their knowledge or predictive ability	Excessive trading and financial market volatility

Another important theoretical development in behavioral economics is Prospect Theory, which explains how individuals evaluate potential gains and losses under conditions of uncertainty. According to this framework, outcomes are evaluated relative to a reference point rather than in absolute terms. The value function is typically concave for gains and convex for losses, reflecting diminishing sensitivity. A central element of this theory is loss aversion, meaning that losses are perceived as psychologically more significant than equivalent gains. As a consequence, individuals often behave cautiously when facing potential gains but may become risk-seeking when attempting to avoid losses.




Figure 1. Value Function in Prospect Theory

The figure illustrates the asymmetric perception of gains and losses relative to a reference point.

These theoretical insights have significantly influenced the understanding of economic behavior and opened new directions for empirical research. Behavioral economics has been applied to a wide range of fields, including finance, consumer behavior, public policy, and environmental economics. Studies show that cognitive biases can affect investment decisions, savings behavior, and responses to economic policies. In financial markets, investors frequently display overconfidence, herd behavior, and loss aversion, which can contribute to market volatility and inefficiencies.

Behavioral insights have also proven highly relevant in practical decision-making contexts. In public policy, behavioral approaches are used to design interventions that encourage individuals to make better choices without restricting their freedom. For example, automatic enrollment in pension plans significantly increases participation rates, demonstrating how small changes in the structure of choices can influence behavior. Similar behavioral strategies have been applied to promote energy conservation, healthier lifestyles, and higher tax compliance.

In the business environment, companies increasingly incorporate behavioral insights into marketing, pricing strategies, and consumer engagement. Cognitive biases influence purchasing decisions, while mental accounting affects how consumers perceive discounts, promotions, and financial outcomes. Financial institutions also apply behavioral principles when designing investment products and advising clients, recognizing that investors often deviate from the rational risk–return framework assumed in classical models.

In conclusion, behavioral economics has significantly enriched modern economic theory by providing a more realistic understanding of how individuals make decisions under uncertainty. Psychological factors, cognitive limitations, and social influences play an important role in shaping economic behavior. By integrating insights from psychology with traditional economic analysis, behavioral economics offers valuable tools for improving economic models, designing more effective public policies, and understanding the dynamics of real-world markets.

REFERENCES:

1. Tikhomirov, A. A. (2025). The role of behavioral economics in the management decision-making process. Theoretical and Applied Economics, (3), 47-61.
2. Leoneti, A. B., & Gomes, L. F. A. M. (2025). Prospect theory and rational decision-making: on the intersection of decision and economic models. Quality & Quantity, 1-24.
3. Loukopoulou, E. C. Prospect Theory and Loss Aversion: A Cognitive Perspective on Economic Behavior.
4. Salah, A. R. M. (2025). Behavioral Economics: Biases, Emotions, and Irrational Market Choices.
5. Botzen, W. W., Thepaut, L. D., & Banerjee, S. (2025). Kahneman’s insights for climate risks: Lessons from bounded rationality, heuristics and biases. Environmental and Resource Economics, 88(10), 2663-2688.

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTINING O‘SISH XUSUSIYATLARINING EMPIRIK VA NAZARIY TAHLIL

Otaboyev Feruzbek Oybek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedrasi (PhD) dotsenti

Annotatsiya. Mazkurbo tezisda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining o‘sish xususiyatlari nazariy va empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi asosiy omillar — investitsiyalar, innovatsiyalar, inson kapitali, tashqi savdo, institutsional muhit hamda raqamli iqtisodiyotning roli o‘rganilgan. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishning barqarorligi, tarkibiy o‘zgarishlari va global iqtisodiy integratsiya jarayonlari statistik ma’lumotlar asosida baholangan. Tadqiqot natijalarida iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishda innovatsion rivojlanish, samarali iqtisodiy siyosat va institutsional islohotlarning muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: rivojlanayotgan mamlakatlar, iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalar, investitsiyalar, inson kapitali, institutsional rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, empirik tahlil.

Annotation

This thesis examines the growth characteristics of developing economies through theoretical and empirical analysis. The study investigates the main factors influencing economic growth, including investment, innovation, human capital, foreign trade, institutional environment, and the role of the digital economy. In addition, the sustainability of economic growth, structural transformations, and global economic integration processes in developing countries are assessed based on statistical data. The findings demonstrate that innovative development, effective economic policy, and institutional reforms play a crucial role in accelerating economic growth.

Keywords: developing countries, economic growth, innovation, investment, human capital, institutional development, digital economy, empirical analysis.

Аннотация

В данной работе исследуются особенности экономического роста развивающихся стран на основе теоретического и эмпирического анализа. В исследовании изучены основные факторы, влияющие на экономический рост, включая инвестиции, инновации, человеческий капитал, внешнюю торговлю, институциональную среду и роль цифровой экономики. Также на основе статистических данных оценены устойчивость экономического роста, структурные изменения и процессы глобальной экономической интеграции в развивающихся странах. Результаты исследования показывают, что инновационное развитие, эффективная экономическая политика и институциональные реформы играют важную роль в ускорении экономического роста.

Ключевые слова: развивающиеся страны, экономический рост, инновации, инвестиции, человеческий капитал, институциональное развитие, цифровая экономика, эмпирический анализ.

Kirish

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarning ulushi so‘nggi yillarda sezilarli darajada ortib bormoqda. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda rivojlanayotgan va shakllanayotgan iqtisodiyotlar jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 60 foizidan ortig‘ini tashkil etgan. Ayniqsa, Osiyo va Afrika davlatlarida sanoatlashtirish, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda investitsion faollikning ortishi iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadallashtirmoqda. Shu bilan birga, inflyatsiya, tashqi qarzdorlik, ishsizlik, kambag‘allik va institutsional muammolar iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.[1]

Mazkur tadqiqotning asosiy мақсади rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining o‘sish xususiyatlarini nazariy yondashuvlar hamda statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilish, иқтисодий o‘sishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni samarali rivojlantirish yo‘nalishlarini baholashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishi masalalari iqtisodiyot nazariyasida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masala klassik, neoklassik va zamonaviy iqtisodiy o‘sish nazariyalari doirasida keng tadqiq etilgan. Xususan, R. Solou iqtisodiy o‘sish modelida kapital jamg‘arilishi, mehnat resurslari

va texnologik taraqqiyot iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillari sifatida izohlanadi. Solou modeliga ko‘ra, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish asosan texnologik taraqqiyot bilan belgilanadi.[2]

Keyinchalik P. Romer va R. Lukas tomonidan ishlab chiqilgan endogen o‘sish nazariyasida innovatsiyalar, ilm-fan, inson kapitali va bilimlar iqtisodiy o‘sishning ichki omillari sifatida talqin qilingan. Mazkur nazariya rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsion faoliyat va ta’lim tizimini rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim sharti ekanligini asoslab beradi.[3]

J. Stiglitz va D. North ilmiy qarashlarida esa institutsional muhit, davlat boshqaruvi sifati va iqtisodiy erkinlik iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir etuvchi omillar sifatida baholanadi. Ularning fikricha, institutsional tizimning samaradorligi investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.[4]

Mahalliy iqtisodchi olimlardan SH. Shodmonov, Q. Xodiyev va B. G‘ulomovlarning ilmiy tadqiqotlarida iqtisodiy o‘sishning milliy xususiyatlari, tarkibiy o‘zgarishlar va bandlik masalalari chuqur o‘rganilgan. Ularning ilmiy qarashlarida iqtisodiy o‘sish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, qo‘shimcha qiymat yaratish va aholi turmush darajasini yuksaltirish bilan bog‘liq jarayon sifatida izohlanadi.[5]

Shuningdek, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) va BMTning iqtisodiy hisobotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlariga investitsiyalar, tashqi savdo, raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarning ta’siri statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, yuqori innovatsion faollik va inson kapitaliga investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Natija va tahlillar

Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari dinamikasi ushbu davlatlar iqtisodiyotining o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlarini aks ettiradi. So‘nggi yillarda investitsiyalar hajmining ortishi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, innovatsion faoliyatning kengayishi hamda inson kapitaliga yo‘naltirilayotgan mablag‘larning ko‘payishi iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadallashtirmoqda. Shu bilan birga, inflyatsiya, tashqi qarzdorlik, institutsional cheklovlar va global iqtisodiy beqarorlik rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Nazariy yondashuvlarda iqtisodiy o‘sish kapital, mehnat va texnologik taraqqiyot bilan izohlansa, empirik tahlillar innovatsiyalar, institutsional samaradorlik va inson kapitalining iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi muhim rolini ko‘rsatmoqda. Statistik ma’lumotlar asosida olib borilgan tahlillar rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishning barqarorligi ko‘p jihatdan investitsion muhit, innovatsion rivojlanish va samarali iqtisodiy siyosat bilan bog‘liqligini tasdiqlaydi.

1-jadval

Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari dinamikasi.[7]

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025

YAIM o‘sish sur’ati (%)	8.0	6.0	6.3	6.5	7.7
Aholi jon boshiga YAIM o‘sishi (%)	4.1	3.2	3.5	3.8	4
Investitsiyalar hajmi (% YAIMga nisbatan)	27.4	28.1	28.9	29.5	30.2
Inflyatsiya darajasi (%)	6.8	8.9	7.4	6.5	5.9
Ishsizlik darajasi (%)	7.9	7.6	7.3	7	6.8
Tashqi savdo o‘sishi (%)	8.2	6.5	7.1	7.8	8.4

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda 2021–2025-yillar davomida iqtisodiy o‘sish sur’atlari bosqichma-bosqich tiklanish tendensiyasini namoyon etgan. 2022-yilda global inflyatsiya va geosiyosiy beqarorlik sabab YAIM o‘sishi 6.0 foizgacha pasaygan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 7.7 foizga yetgan. Shu bilan birga, investitsiyalar hajmining YAIMdagi ulushi 27.4 foizdan 30.2 foizgacha oshgani iqtisodiy faollikning kuchayganligini ko‘rsatadi.

Inflyatsiya darajasi 2022-yilda 8.9 foizga yetgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda monetar siyosat va iqtisodiy islohotlar natijasida pasayish kuzatilgan. Ishsizlik darajasining 7.9 foizdan 6.8 foizgacha kamayishi esa mehnat bozori barqarorlashayotganligini ifodalaydi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida iqtisodiy o‘sish murakkab va ko‘p omilli jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Nazariy yondashuvlar iqtisodiy o‘sishda kapital, mehnat resurslari va texnologik taraqqiyotning muhim o‘rin tutishini asoslab bersa, empirik tahlillar innovatsiyalar, inson kapitali, institutsional samaradorlik hamda raqamli iqtisodiyotning ta’siri tobora kuchayib borayotganligini tasdiqladi.

Statistik ma’lumotlar rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsion faollik, tashqi savdo hajmi va innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, inflyatsiya, tashqi qarzdorlik, ishsizlik va global iqtisodiy beqarorlik kabi omillar iqtisodiy o‘sish barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish va institutsional islohotlarni jadallashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Raqamli iqtisodiyot va AKT ko‘rsatkichlari. https://stat.uz

2. Solow R.M. *A Contribution to the Theory of Economic Growth* // The Quarterly Journal of Economics. – 1956. https://doi.org/10.2307/1884513

3. Romer P.M. *Endogenous Technological Change* // Journal of Political Economy. – 1990. https://doi.org/10.1086/261725

4. Stiglitz J.E. *Globalization and Its Discontents*. – W.W. Norton & Company, 2002.
https://www.norton.com

5. Shodmonov Sh.Sh. *Iqtisodiyot nazariyasi*. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2019.

6. Xodiyev B.Y., G‘ulomov S.S. *Milliy iqtisodiyot asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.

7. O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Progressiv islohotlar markazi ma’lumotlari. https://www.proreforms.uz/uz/publications/inflation-processes-in-uzbekistan-analysis-for-2016-2025-479

SOLIQ SALOHIYATINI OSHIRISHGA DOIR HOZIRGI DAVR IQTISODIY QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY TALQINLARI

Sharipov Narzullo G‘ulomovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasining katta o‘qituvchisi, gavhar9369@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur tezisda soliq salohiyatini oshirishga doir hozirgi davr iqtisodiy qarashlari va ularning zamonaviy talqinlari tahlil qilingan. Soliq salohiyati davlat byudjeti barqarorligini ta’minlash, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va hududlar moliyaviy mustaqilligini kuchaytirishda muhim omil sifatida baholangan. Tadqiqotda klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar asosida soliq bazasini kengaytirish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, soliq ma’murchiligini takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Soliq salohiyati, soliq siyosati, fiskal siyosat, davlat byudjeti, soliq bazasi, soliq yuklamasi, iqtisodiy o‘sish, makroiqtisodiy barqarorlik, hududiy soliq salohiyati, soliq ma’murchiligi, raqamli iqtisodiyot, yashirin iqtisodiyot.*

Soliq salohiyati mamlakat iqtisodiy tizimining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. U davlatning mavjud iqtisodiy resurslar, ishlab chiqarish imkoniyatlari, aholi daromadlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati asosida qancha miqdorda soliq tushumlarini shakllantira olishini ifodalaydi. Soliq salohiyati faqat davlat byudjetining daromad qismini to‘ldirish vositasi emas, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish va milliy iqtisodiyotning strategik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning muhim omili hamdir. Shu sababli zamonaviy iqtisodiy qarashlarda soliq salohiyatini oshirish masalasi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa global iqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya, xalqaro savdo ziddiyatlari va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida davlatlar uchun samarali soliq tizimini shakllantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi davr iqtisodiy nazariyalarida soliq salohiyatini oshirish masalasi keng qamrovli va ko‘p omilli yondashuv asosida talqin qilinadi. Ilgari soliq tushumlarini oshirishning asosiy yo‘li sifatida soliq stavkalarini ko‘tarish ko‘rilgan bo‘lsa, bugungi kunda bunday yondashuv o‘zining cheklanganligini namoyon etdi. Chunki haddan tashqari yuqori soliq yuklamasi tadbirkorlik faoliyatini susaytirishi, investitsiyalar hajmini kamaytirishi va yashirin iqtisodiyotning kengayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois zamonaviy iqtisodiy qarashlarda soliq salohiyatini oshirish uchun iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, investitsion muhitni yaxshilash va kichik biznesni rivojlantirish muhim omillar

sifatida baholanadi. Bu esa soliq bazasining kengayishiga va byudjet tushumlarining barqaror o‘sishiga xizmat qiladi.

Klassik iqtisodiy maktab vakillari, xususan Adam Smit va David Rikardo, soliqqa tortishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan olimlar sifatida e’tirof etiladi. Adam Smit tomonidan ilgari surilgan adolatlilik, aniqlik, qulaylik va tejamkorlik tamoyillari bugungi kunda ham soliq tizimini tashkil etishda asosiy mezonlardan biri bo‘lib qolmoqda. Klassiklarning fikricha, soliq tizimi iqtisodiy faollikka to‘sqinlik qilmasligi va ishlab chiqarish omillarining samarali harakatlanishiga imkon yaratishi lozim. Ushbu qarashlar hozirgi davrda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ayniqsa tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash siyosatida keng qo‘llanilmoqda.

Keynschilik nazariyasi esa soliqlarning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roliga alohida urg‘u beradi. John Maynard Keynes davlat iqtisodiy inqiroz yoki pasayish davrida soliqlarni kamaytirish va davlat xarajatlarini oshirish orqali iqtisodiy talabni rag‘batlantirishi mumkinligini asoslab berdi. Bu nazariya ayniqsa 2008-yilgi global moliyaviy inqirozdan keyin ko‘plab davlatlar tomonidan amaliyotga keng joriy qilindi. Hozirgi sharoitda ham fiskal rag‘batlantirish siyosati iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash, aholi bandligini oshirish va biznes faoliyatini tiklashda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Monetaristlar, ayniqsa Milton Friedman, davlatning iqtisodiyotga ortiqcha aralashuviga tanqidiy yondashgan. Ularning fikricha, yuqori soliqlar va ortiqcha fiskal yuklama xususiy sektor faoliyatini pasaytiradi hamda iqtisodiy samaradorlikni kamaytiradi. Shu sababli monetaristlar barqaror, prognoz qilinadigan va tadbirkorlik uchun qulay soliq tizimini yaratish tarafdori hisoblanadi. Ularning qarashlari bugungi kunda investitsion jozibadorlikni oshirish, xorijiy kapitalni jalb qilish va iqtisodiy erkinlikni kengaytirishga qaratilgan islohotlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Institutsional iqtisodiyot vakillari esa soliq salohiyatining shakllanishida davlat institutlari sifati muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Douglass North va Ronald Coase kabi olimlarning fikriga ko‘ra, samarali soliq tizimi uchun qonun ustuvorligi, mulk huquqlarining himoyasi, korrupsiyaning past darajasi va davlat organlariga nisbatan ishonch mavjud bo‘lishi zarur. Agar iqtisodiy subyektlar davlatga ishonmasa yoki soliq tizimi murakkab va shaffof bo‘lmasa, soliq tushumlari yetarli darajada shakllanmaydi. Shu bois zamonaviy iqtisodiy siyosatda raqamlashtirish, elektron soliq xizmatlari va ochiq byudjet tizimlarini joriy etish muhim yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Soliq salohiyatini oshirishga doir hozirgi davr iqtisodiy nazariyalari va olimlarning zamonaviy qarashlarini quyidagi jadvalda batafsil yoritib, ularni tahlil qilib chiqamiz (1-jadval):

1-jadval

Soliq salohiyatini oshirishga doir hozirgi davr iqtisodiy nazariyalari va olimlarning zamonaviy qarashlari[47]

№			Soliq salohiyatiga oid	

[47] O'rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

			asosiy qarashlar	
			Soliqlar adolatli, aniq, qulay va tejamkor bo‘lishi kerak. Soliq yukining ortishi ishlab chiqarish va investitsiyaga salbiy ta’sir qiladi.	Soliq tizimi shaffof, tadbirkorlikni rag‘batlantiruvchi va iqtisodiy faollikka to‘sqinlik qilmaydigan shaklda tashkil etilishi lozim.
			Soliqlar iqtisodiy sikllarni boshqarish va talabni rag‘batlantirish vositasidir.	Soliq imtiyozlari va fiskal rag‘batlantirish iqtisodiy o‘sish hamda bandlikni oshirishda qo‘llaniladi.
				Past va barqaror soliq yuklamasi investitsiyalarni ko‘paytirishga xizmat qiladi.
			Soliq stavkalarining ortiqcha oshirilishi soliq tushumlarini kamaytiradi.	Optimal soliq stavkalari orqali iqtisodiy faollik va byudjet daromadlari oshiriladi.
			Soliq tizimining samaradorligi institutlar sifati va davlat boshqaruviga bog‘liq.	Raqamlashtirish, korrupsiyani kamaytirish va ochiq boshqaruv orqali soliq bazasi kengaytiriladi.
			Soliqlar samaradorlik va adolat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashi kerak.	Soliq stavkalari iqtisodiy rag‘batlarni hisobga olgan holda belgilanadi.
			Soliqlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini bajaradi.	Byudjet barqarorligi va davlat xizmatlari sifatini oshirish asosiy maqsad hisoblanadi.
			Soliq to‘lovchilarning xatti-harakatlari psixologik omillarga ham bog‘liq.	Soliq intizomini oshirish uchun qulayxizmatlar va rag‘batlantirish mexanizmlari qo‘llaniladi.
			Axborottexnologiyalari soliq ma’murchiligini samarali qiladi.	Elektron hisob-faktura va sun’iy intellekt yordamida soliq nazorati kuchaytiriladi.
	o‘sish		Innovatsiyalar va bilim iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.	Soliq siyosati innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashi kerak.
			Norasmiy iqtisodiyot soliq salohiyatini pasaytiradi.	Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali byudjet tushumlari oshiriladi.
			Soliq tizimi ijtimoiy tenglikni ta’minlashi kerak.	Progressiv soliqqa tortish orqali daromadlar tafovuti kamaytiriladi.

Ushbu jadvalda keltirilgan iqtisodiy nazariyalar soliq salohiyatini oshirish masalasiga turli nuqtai nazardan yondashishini ko‘rsatadi. Klassik iqtisodiy maktab vakillari soliq tizimining soddaligi va adolatliligiga urg‘u bergan bo‘lsa, keynschilar soliqlarni iqtisodiy faollikni boshqarish vositasi sifatida talqin qiladi. Bu

yondashuvlarning har biri iqtisodiy rivojlanishning muayyan bosqichida muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, iqtisodiy inqiroz davrlarida keynschilik nazariyasining amaliy ahamiyati ortib, davlatning faol fiskal siyosati iqtisodiy tiklanishning muhim omiliga aylangan.

Monetarizm va taklif iqtisodiyoti nazariyalari esa soliq yuklamasining iqtisodiy rag‘batlarga ta’sirini chuqur o‘rganadi. Arthur Laffer tomonidan ishlab chiqilgan mashhur “Laffer egri chizig‘i” soliq stavkasi va byudjet tushumlari o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni tushuntirib beradi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, soliq stavkalari ma’lum bir nuqtadan oshib ketganda iqtisodiy subyektlar faoliyati pasayadi, investitsiyalar qisqaradi va natijada davlat byudjeti daromadlari kamayishi mumkin. Shu sababli zamonaviy davlatlar soliq siyosatini ishlab chiqishda optimal stavkalarni belgilashga katta e’tibor qaratmoqda.

Institutsional iqtisodiyot nazariyasi zamonaviy iqtisodiy qarashlar orasida alohida o‘rin tutadi. Chunki bugungi global iqtisodiyot sharoitida faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zi soliq salohiyatini oshirish uchun yetarli emas. Soliq ma’murchiligining sifati, davlat organlari faoliyatining shaffofligi, korrupsiyaga qarshi kurash va raqamli boshqaruv tizimlari muhim omilga aylangan. Elektron soliq tizimlari, avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlari va sun’iy intellekt texnologiyalari soliq bazasini aniqlash va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda katta samara bermoqda.

Xulq-atvor iqtisodiyoti ham soliq siyosatini takomillashtirishda yangi yondashuvlarni ilgari surmoqda. Richard Thaler va boshqa olimlarning tadqiqotlari soliq to‘lovchilarning qarorlari faqat iqtisodiy manfaatlarga emas, balki psixologik va ijtimoiy omillarga ham bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Shu sababli zamonaviy davlatlar soliq to‘lovchilar bilan ochiq muloqot o‘rnatish, xizmatlarni soddalashtirish va rag‘batlantirish usullaridan foydalanishga harakat qilmoqda. Bu esa soliq intizomini oshirish va davlatga nisbatan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan nazariyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, soliq salohiyatini oshirish zamonaviy sharoitda faqat fiskal mexanizmlar bilan cheklanmaydi. Bu jarayon iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalar, raqamlashtirish, institutsional islohotlar, investitsion muhit va ijtimoiy barqarorlik bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois zamonaviy davlatlar soliq siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiy samaradorlik, adolat va barqaror rivojlanish tamoyillarini uyg‘unlashtirishga intilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, soliq salohiyatini oshirish masalasi bugungi kunda davlat moliyaviy barqarorligini ta’minlash, byudjet daromadlarini mustahkamlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Soliq salohiyati faqat mavjud soliq tushumlari hajmi bilan emas, balki mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari, ishlab chiqarish salohiyati, aholi daromadlari, tadbirkorlik muhiti va soliq ma’murchiligi samaradorligi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli uni oshirishga doir zamonaviy iqtisodiy qarashlar klassik fiskal yondashuvlardan farqli ravishda kompleks va tizimli xarakterga ega bo‘lib bormoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, soliq stavkalarini asossiz ravishda oshirish emas, balki optimal soliq yukini shakllantirish, soliq bazasini kengaytirish

va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish soliq salohiyatini oshirishning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi. Ayniqsa, soliq ma’murchiligini raqamlashtirish, elektron nazorat tizimlarini keng joriy etish va soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi ishonchli munosabatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hududlar kesimida soliq imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish va mahalliy iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish ham alohida e’tibor talab qiladi.

Kelgusida soliq salohiyatini oshirish uchun, avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali soliq bazasini kengaytirish zarur. Shuningdek, soliq imtiyozlarini iqtisodiy samaradorlik asosida qayta ko‘rib chiqish, samarasiz imtiyozlarni qisqartirish va investitsiyalarni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Soliq organlari faoliyatida shaffoflikni oshirish, korrupsion holatlarning oldini olish va hududiy soliq salohiyatini baholashning zamonaviy usullarini joriy etish ham muhim takliflardan biridir. Natijada soliq siyosatining samaradorligi ortadi, davlat byudjeti daromadlari barqarorlashadi va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti uchun mustahkam moliyaviy asos yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

25. Adam Smith. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. (Kitob). W. Strahan and T. Cadell Publishing, London, 1776. 950 p.
26. David Ricardo. On the Principles of Political Economy and Taxation. (Kitob). John Murray Publishing, London, 1817. 589 p.
27. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. (Kitob). Macmillan Cambridge University Press, London, 1936. 472 p.
28. Friedman Milton. Capitalism and Freedom. (Kitob). University of Chicago Press, Chicago, 1962. 202 p.
29. Laffer Arthur B. The Laffer Curve: Past, Present and Future // The Heritage Foundation Backgrounder. 2004. №1765. P. 1-16.
30. Mundell Robert A. International Economics. (Kitob). Macmillan Publishing, New York, 1968. 280 p.
31. North Douglass C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. (Kitob). Cambridge University Press, Cambridge, 1990. 159 p.
32. Coase Ronald H. The Problem of Social Cost // Journal of Law and Economics. 1960. Vol. 3. P. 1-44.
33. Rawls John. A Theory of Justice. (Kitob). Harvard University Press, Cambridge, 1971. 607 p.
34. Mirrlees James A. An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation // The Review of Economic Studies. 1971. Vol. 38. №2. P. 175-208.
35. Diamond Peter A. Optimal Taxation and Public Production I: Production Efficiency // American Economic Review. 1971. Vol. 61. №1. P. 8-27.
36. Musgrave Richard A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. (Kitob). McGraw-Hill Publishing, New York, 1959. 628 p.
37. Thaler Richard H. Misbehaving: The Making of Behavioral Economics. (Kitob). W.W. Norton & Company Publishing, New York, 2015. 432 p.
38. Kahneman Daniel. Thinking, Fast and Slow. (Kitob). Farrar, Straus and Giroux Publishing, New York, 2011. 499 p.

39. Castells Manuel. The Rise of the Network Society. (Kitob). Blackwell Publishing, Oxford, 1996. 625 p.
40. Romer Paul M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. 1990. Vol. 98. №5. P. 71-102.
41. Lucas Robert E. On the Mechanics of Economic Development // Journal of Monetary Economics. 1988. Vol. 22. №1. P. 3-42.
42. Schneider Friedrich. Shadow Economies Around the World: What Do We Really Know? // European Journal of Political Economy. 2005. Vol. 21. №3. P. 598-642.
43. Yo‘ldasheva U.A. Hududlarning soliq salohiyatini aniqlash va tahlil qilish uslubiyotini takomillashtirish - T.: 2021. PhD diss. avtoref. 11-14 b.
44. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. (Darslik). “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, Toshkent, 2019. 712 b.
45. Olimjonov O. Soliq nazariyasi va amaliyoti. (Darslik). “Iqtisodiyot” nashriyoti, Toshkent, 2020. 540 b.
46. Musayev A.A. Soliq siyosatini takomillashtirishning nazariy asoslari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. 2022. №4. 45-53 b.
47. Abdullayev Yo. Davlat byudjeti va soliq siyosati. (Darslik). “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, Toshkent, 2021. 386 b.
48. Stiglitz Joseph E. Economics of the Public Sector. (Kitob). W.W. Norton & Company Publishing, New York, 2000. 823 p.
49. Tanzi Vito. Taxation in an Integrating World. (Kitob). Brookings Institution Press, Washington D.C., 1995. 312 p.

HOZIRGI ZAMON IQTISODIY QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY TALQINLARI

Azamqulov Nurbek Ulug‘bek O‘g‘li, TKTI Yangiyer Filiali stajyor o‘qituvchisi
Ismoilov Sulaymon Ahmadjon O‘g‘li, TKTI Yangiyer Filiali talabasi
studentismoilov@gmail.com

Anotatsiya. Hozirgi davrda iqtisodiy nazariya va iqtisodiy qarashlar global iqtisodiy jarayonlar, raqamli texnologiyalar rivoji hamda innovatsion faoliyatning kengayishi natijasida yangi mazmun kasb etmoqda. Zamonaviy iqtisodiy qarashlar iqtisodiyotning turli yo‘nalishlari, jumladan raqamli iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, barqaror iqtisodiy o‘sish hamda global integratsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanmoqda. So‘nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida yuz berayotgan keskin o‘zgarishlar, ayniqsa pandemiya davrida iqtisodiy tizimlarning moslashuvchanligi va raqamli texnologiyalarning ahamiyati yanada ortganini ko‘rsatdi. Shu sababli iqtisodiy qarashlarning zamonaviy talqinlari iqtisodiy tizimlarni tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish siyosatini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy o‘sish, innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish, ekonometrik tahlil, korelatsiya, regressiya, axborot

texnologiyalari.

Kirish. Hozirgi global iqtisodiy jarayonlar sharoitida iqtisodiy nazariya va iqtisodiy qarashlar doimiy ravishda yangilanib bormoqda. Dunyo iqtisodiyotida texnologik taraqqiyot, innovatsiyalar va raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiy tizimlarning rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli zamonaviy iqtisodiy qarashlarni o‘rganish hamda ularni yangi sharoitlarda talqin qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning turli sohalarida samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda yangi biznes modellari shakllanishiga xizmat qilmoqda. Elektron tijorat, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data) va bulutli texnologiyalar zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlariga aylangan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda internet foydalanuvchilari soni sezilarli darajada oshgan. Shuningdek, elektron to‘lov tizimlari, onlayn savdo platformalari hamda raqamli xizmatlar bozori jadal rivojlanmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Zamonaviy iqtisodiy qarashlar masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Masalan, iqtisodchi olim **Joseph Stiglitz** iqtisodiy rivojlanish jarayonida davlatning roli muhim ekanligini ta’kidlab, zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalar va texnologik taraqqiyot iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri ekanligini qayd etadi [1]. Shuningdek, **Paul Romer** tomonidan ishlab chiqilgan endogen o‘sish nazariyasiga ko‘ra, bilim va innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbai hisoblanadi [2]. Ushbu nazariya zamonaviy iqtisodiy qarashlarning shakllanishida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, **Manuel Castells** o‘z tadqiqotlarida axborot jamiyati va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi global iqtisodiyotda yangi iqtisodiy model shakllanishiga olib kelganini ta’kidlaydi [3]. Ko‘plab tadqiqotchilar raqamli iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini qayd etganlar. Masalan, **Brynjolfsson va McAfee** texnologik innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, iqtisodiy o‘sishni tezlashtirishini ta’kidlaydi [4].

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun ekonometrik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida statistik ma’lumotlar asosida korelatsiya va regressiya tahlillari amalga oshirildi. Mazkur model yordamida raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri baholandi.

Natija va muhokama

2020–2024-yillar davomida O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Quyidagi jadvalda asosiy statistik ma’lumotlar keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari

Yil	YaIM o‘sish %	Internet foydalanuvchilari (mln)	E-tijorat hajmi (mlrd $)	Raqamli xizmatlar ulushi %
2020	1.9	22	0.8	4

2021	7.4	24	1.2	5
2022	5.7	27	1.6	6
2023	6.0	30	2.0	7
2024	6.5	33	2.6	8

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasida kuchli musbat bog‘liqlik mavjud.

Xulosa

Tadqiqot natijalari hozirgi zamon iqtisodiy qarashlari iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yangi biznes imkoniyatlarini yaratish hamda iqtisodiy o‘sishni tezlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston misolida olib borilgan tahlillar raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Internet foydalanuvchilari sonining oshishi, elektron tijoratning rivojlanishi hamda raqamli xizmatlarning kengayishi iqtisodiy faoliyatni yanada faollashtiradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati:

1. Stiglitz J. Economics of the Public Sector.
2. Romer P. Endogenous Technological Change.
3. Castells M. The Rise of the Network Society.
4. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age.
5. World Bank Digital Economy Report.

XIZMATLAR BOZORIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

G‘ofurov Sindor Sardor o‘g‘li
Toshkent Kimyo-Texnologiya Instituti Yangiyer filiali
Stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezis xizmatlar bozorida umumiy ovqatlanish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlarini tahlil qiladi. Xizmatlar sektori zamonaviy iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi. Umumiy ovqatlanish korxonalari bandlik va ichki iste’molni qo‘llab-quvvatlaydi. Tadqiqotda investitsiya, xizmat hajmi va mehnat unumdorligining rentabellikka ta’siri o‘rganildi. Korrelatsiya natijalari kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Regressiya modeli samaradorlikni oshirishda inson kapitali muhimligini tasdiqladi. Ish yakunidaamaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Samaradorlik, xizmatlar, rentabellik, investitsiya, marketing, raqamlashtirish, xarajat

Kirish. Xizmatlar bozori zamonaviy iqtisodiyotning muhim segmentidir. Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlar sektorining ajralmas qismidir. Aholi daromadlarining oshishi xizmatlarga talabni kuchaytirmoqda. Raqobat muhitida samaradorlik muhim omil hisoblanadi. Xarajatlarni optimallashtirish zarur. Marketing strategiyalari mijozlar oqimini oshiradi. Raqamli texnologiyalar xizmat sifatini yaxshilaydi. Investitsiyalar infratuzilmani modernizatsiya qiladi. Mehnat unumdorligi daromadlilikni oshiradi. Mazkur ish statistik asosda tahlil qiladi.

Metodologiya. Tadqiqotda 2014–2024 yillar oralig‘ida umumiy ovqatlanish korxonalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida investitsiya (INV), xizmat hajmi (SERV), mehnat unumdorligi (LAB) va rentabellik (ROI) o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi.

1-jadval

Umumiy ovqatlanish korxonalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Yil	INV (mlrd so‘m)	SERV (mlrd so‘m)	LAB (mln so‘m/ishchi)	ROI (%)
2014	150	980	28	9.2
2016	210	1200	33	10.1
2018	290	1580	39	11.6
2020	360	1850	45	12.4
2022	440	2300	52	13.8
2024	520	2780	60	15.1

Korrelatsiya: r(ROI, INV)=0.94; r(ROI, SERV)=0.96; r(ROI, LAB)=0.97

Regressiya modeli: ROI = 1.85 + 0.008·INV + 0.004·SERV + 0.092·LAB; R^2=0.95

Tahlil va natijalar. Jadval ma’lumotlari investitsiyalar hajmi 2014–2024 yillarda 3 barobardan ortiq oshganini ko‘rsatadi. Shu davrda xizmat hajmi ham sezilarli kengaygan. Mehnat unumdorligi 28 mln so‘mdan 60 mln so‘mgacha oshgan. Rentabellik 9,2 foizdan 15,1 foizgacha ko‘tarilgan. Bu xizmatlar bozorida ijobiy o‘sish tendensiyasini anglatadi. Korrelatsiya natijalariga ko‘ra, xizmat hajmi va rentabellik o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjud. Mehnat unumdorligi rentabellikka eng katta ta’sir ko‘rsatgan omil bo‘ldi. Bu kadrlar malakasi va boshqaruv sifati muhimligini ko‘rsatadi. Investitsiyalar infratuzilma va uskunalarni yangilash imkonini yaratadi. Raqamli kassalar va onlayn buyurtma tizimlari samaradorlikni oshiradi. Regressiya modelida LAB koeffitsienti eng yuqori qiymatga ega bo‘ldi. Bu inson kapitalining xizmat sektoridagi rolini tasdiqlaydi. INV va SERV ham statistik ahamiyatga ega chiqdi. Modelning R^2=0.95 bo‘lishi natijalarning ishonchliligini bildiradi. Xarajatlarni nazorat qilish foyda marjasini oshiradi. Marketing faoliyati mijozlar oqimini kengaytiradi. Raqamlashtirish operatsion xarajatlarni kamaytiradi. Xizmat sifati mijoz sodiqligini mustahkamlaydi. Ko‘p funksiyali boshqaruv tizimlari daromadni barqarorlashtiradi. Umuman olganda, samaradorlik ko‘p omilli iqtisodiy mexanizm orqali shakllanadi.

Xulosa. Samaradorlikni oshirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Investitsiyalar infratuzilmani rivojlantiradi. Mehnat unumdorligi asosiy omildir. Raqamlashtirish xarajatlarni kamaytiradi. Marketing daromadni oshiradi. Xizmat sifati muhim ahamiyatga ega. Xarajatlarni nazorat qilish zarur. Raqobatbardoshlik innovatsiya orqali ta’minlanadi. Davlat qo‘llovi investitsiyani rag‘batlantiradi. Umuman, xizmatlar bozorida samaradorlik barqaror o‘sishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari (2014–2024).
2. OECD (2022). Service Sector Productivity Report.
3. World Bank (2023). Services-Led Growth in Emerging Markets.
4. IMF (2023). Investment and Productivity Analysis.
5. Porter, M. (1990). Competitive Advantage of Nations.

6. Schumpeter, J. (1939). Business Cycles.
7. EBRD (2022). Transition Report.
8. UNIDO (2022). Industrial Development Report.

UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBI TAKOMILLASHTIRISHDA HOZIRGI DAVR IQTISODIY QARASHLARI

Bakayev Xurshid Maxmudovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchi,
bakaev.xurshid@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu tezisda uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirishning zamonaviy iqtisodiy qarashlari va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda asosiy vositalar hamda nomoddiy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining o‘rni yoritilgan. Shuningdek, raqamlashtirish jarayonlari, elektron buxgalteriya tizimlari va innovatsion boshqaruv usullarining aktivlar hisobiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Uzoq muddatli aktivlardan samarali foydalanish korxona moliyaviy barqarorligini ta’minlashning muhim omili sifatida baholangan. Tezisda aktivlarni baholash, amortizatsiya hisoblash va qayta baholash jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Uzoq muddatli aktivlar, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, amortizatsiya, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, aktivlarni baholash, investitsion faoliyat, aktivlar auditi, raqamli iqtisodiyot, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari.*

Uzoq muddatli aktivlar hisobi korxona moliyaviy faoliyatining eng muhim va murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki u ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat foydalaniladigan resurslar, ya’ni asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, investitsion mulklar va boshqa strategik ahamiyatga ega resurslarni to‘g‘ri baholash, tan olish, hisobga olish va ulardan samarali foydalanishni ta’minlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Hozirgi davr iqtisodiy sharoitida ushbu soha yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki globallashuv jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning tez rivojlanishi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining keng joriy etilishi va kapital bozorlarining integratsiyalashuvi buxgalteriya hisobiga yangi talablar qo‘ymoqda. Shu sababli uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish faqat korxona ichki boshqaruvi uchun emas, balki milliy iqtisodiyotning umumiy barqarorligi uchun ham muhim strategik vazifa hisoblanadi. Ushbu aktivlar korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini belgilovchi asosiy omil bo‘lib, ularning to‘g‘ri hisobga olinishi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi, investorlarga taqdim etiladigan ma’lumotlarning shaffofligi va iqtisodiy qarorlar qabul qilishning aniqligini ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, amortizatsiya hisoblash, qayta baholash, aktivlarni tan olish mezonlari va ularning foydalanish muddatini aniqlash jarayonlari zamonaviy iqtisodiy yondashuvlar asosida takomillashtirilishi lozim. Ayniqsa, adolatli qiymat (fair value) konsepsiyasi va raqamli baholash modellari bu sohada muhim o‘rin egallab bormoqda.

Zamonaviy iqtisodiy qarashlarda uzoq muddatli aktivlar hisobi korxonaning investitsion jozibadorligini belgilovchi strategik omil sifatida qaraladi, chunki

aktivlarning real qiymatini to‘g‘ri aniqlash investorlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va AQShning GAAP tizimi bu borada asosiy metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda ular aktivlarni tan olish, qayta baholash va amortizatsiya qilishda shaffoflik, ehtiyotkorlik va aniqlik tamoyillarini asosiy mezon sifatida belgilaydi. Ushbu standartlar korxonalarga moliyaviy hisobotlarni xalqaro darajada taqqoslanadigan qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlari va Big Data tahlil vositalari uzoq muddatli aktivlar hisobini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu texnologiyalar aktivlarni real vaqt rejimida kuzatish, ularning eskirish darajasini aniqlash va moliyaviy risklarni oldindan baholash imkonini beradi. Natijada korxona boshqaruv qarorlarini tezroq va aniqroq qabul qilish imkoniga ega bo‘ladi. Quyidagi jadvalda uzoq muddatli aktivlar hisobi takomillashtirishga doir hozirgi davr iqtisodiy qarashlari va olimlarning nazariyalarini tahlil qilib ko‘rib chiqamiz (1-jadval):

1-jadval

Uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirishga doir zamonaviy iqtisodiy qarashlar va nazariy yondashuvlar[48]

№	Olimlar va nazariyalar	Asosiy g‘oyalari	Uzoq muddatli aktivlar hisobiga ta’siri
1	Adam Smit	Kapitalning iqtisodiy o‘sishdagi roli va samaradorlik tamoyillari	Aktivlardan maksimal samarali foydalanish orqali qiymat yaratish va ishlab chiqarish unumdorligini oshirish
2	David Ricardo	Kapital jamg‘arilishi va iqtisodiyo‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik	Uzoq muddatli aktivlar investitsion o‘sishning asosiy omili sifatida qaraladi
3	John Maynard Keynes	Investitsiyalar va davlat siyosati muvozanati	Aktivlar iqtisodiy faollikni rag‘batlantiruvchi muhim instrument sifatida baholanadi
4	Irving Fisher	Kapitalning diskontlangan qiymati nazariyasi	Aktivlarning hozirgi va kelajak qiymatini aniq baholash imkonini beradi
5	IFRS konsepsiyasi	Adolatli qiymat va shaffoflik tamoyili	Aktivlarni bozor qiymatiga yaqin usulda hisobga olishni talab qiladi
6	GAAP tizimi	Tarixiy qiymat va konservatizm tamoyili	Aktivlarni ehtiyotkorlik bilan, barqaror qiymat asosida hisobga olishni ta’minlaydi
7	Richard Mattessich	Buxgalteriya hisobining formal-matematik modeli	Aktivlar hisobini tizimli va aniq modellashtirishga asos yaratadi
8	Raymond Chambers	Continuously Contemporary Accounting konsepsiyasi	Aktivlarni doimiy ravishda qayta baholash zarurligini asoslaydi
9	Robert Kaplan	Strategik boshqaruv hisobi	Aktivlar korxona raqobatbardoshligini oshiruvchi strategik resurs sifatida ko‘riladi
10	Zamonaviy raqamli iqtisodiyot nazariyasi	Sun’iyintellekt va avtomatlashtirish integratsiyasi	Aktivlar hisobini raqamlashtirish va real vaqt rejimida boshqarish imkonini beradi

[48] Muallif tomonidan tayyorlandi

Ushbu jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, uzoq muddatli aktivlar hisobi tizimini takomillashtirish turli davr iqtisodiy maktablari va zamonaviy nazariy yondashuvlar bilan uzviy bog‘liqdir. Klassik iqtisodiy maktab vakillari, xususan Adam Smit va David Rikardo, kapitalni iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘rib, uzoq muddatli aktivlarning samarali boshqarilishiga katta e’tibor qaratganlar. Ularning fikricha, ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish korxona daromadliligini oshiradi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Bu yondashuv bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy korxonalar uchun aktivlardan optimal foydalanish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Keynsian iqtisodiy yondashuv esa investitsiyalar va davlat siyosati o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qiladi. Uzoq muddatli aktivlar iqtisodiy faollikni oshiruvchi asosiy vosita sifatida qaraladi, chunki ular ishlab chiqarish jarayonining moddiy bazasini tashkil etadi. Keynes nazariyasiga ko‘ra, davlat investitsion siyosat orqali aktivlar bazasini kengaytirishi va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi mumkin. Bu yondashuv ayniqsa iqtisodiy inqiroz davrlarida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki investitsiyalarni ko‘paytirish iqtisodiy tiklanishni tezlashtiradi.

Zamonaviy buxgalteriya nazariyalari, jumladan IFRS va GAAP tizimlari, uzoq muddatli aktivlarni baholashda shaffoflik va ishonchlilikni ta’minlashga qaratilgan. Adolatli qiymat konsepsiyasi aktivlarning real bozor qiymatini aniqlash imkonini beradi, bu esa moliyaviy hisobotlarning sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, konservativ yondashuv moliyaviy risklarni kamaytirishga xizmat qiladi va korxona barqarorligini ta’minlaydi. Bu ikki yondashuv o‘rtasidagi muvozanat zamonaviy buxgalteriya tizimining muhim jihatlaridan biridir.

Raymond Chambersning “doimiy zamonaviy hisob” konsepsiyasi aktivlarni doimiy ravishda qayta baholash zarurligini ta’kidlaydi, bu esa korxonaning real moliyaviy holatini aniq aks ettirishga yordam beradi. Robert Kaplan esa boshqaruv hisobi doirasida aktivlarni strategik resurs sifatida ko‘rib, ularni samarali boshqarish orqali korxona raqobatbardoshligini oshirish mumkinligini asoslaydi. Bu yondashuvlar korxona ichki boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilaydi.

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot nazariyasi esa sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida aktivlar hisobini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu texnologiyalar inson omilini kamaytiradi, xatolarni qisqartiradi va hisob jarayonlarini tezlashtiradi. Natijada korxonalar o‘z aktivlarini yanada samarali boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy barqarorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Umuman olganda, uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiy qarashlar, xalqaro standartlar va raqamli texnologiyalar integratsiyasi asosida amalga oshirilishi lozim. Bu esa korxona moliyaviy barqarorligini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davr iqtisodiy qarashlari aktivlarni baholashda xalqaro standartlardan foydalanish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli korxonalarda elektron

buxgalteriya tizimlarini keng qo‘llash, aktivlarni muntazam qayta baholash hamda nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro talablar asosida yuritish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, amortizatsiya hisoblash usullarini takomillashtirish va aktivlardan foydalanish samaradorligini doimiy monitoring qilish korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Adam Smith. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. (Book). W. Strahan and T. Cadell, London, 1776.
2. David Ricardo. On the Principles of Political Economy and Taxation. (Book). John Murray Publisher, London, 1817.
3. John Maynard Keynes. The General Theory of Employment, Interest and Money. (Book). Macmillan, London, 1936.
4. Irving Fisher. The Theory of Interest. (Book). Macmillan Company, New York, 1930.
5. International Financial Reporting Standards (IFRS Foundation). Conceptual Framework for Financial Reporting. IFRS Foundation, London, 2018.
6. Financial Accounting Standards Board (FASB). Accounting Standards Codification (ASC). GAAP Framework. USA, 2020.
7. Raymond J. Chambers. Accounting, Evaluation and Economic Behavior. (Book). Prentice-Hall, 1966.
8. Robert S. Kaplan, David P. Norton. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. (Book). Harvard Business School Press, 1996.
9. ichard Mattessich. Accounting and Analytical Methods: Measurement and Projection of Income and Wealth in the Micro- and Macro-Economy. (Book). Springer, 1964.
10. Yo‘ldasheva U.A. Korxonalarda asosiy vositalar hisobini takomillashtirishning uslubiy asoslari - T.: 2022. PhD. diss. avtoref. 12-16 b.

РАҚАМЛИ ИНФРАТУЗИЛМА ВА МОЛИЯВИЙ ИНКЛЮЗИВЛИК: БУХОРО ВИЛОЯТИДА КАМБАҒАЛ АҲОЛИНИ БАНК ХИЗМАТЛАРИГА ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ

Назаров Шоҳбек Исроилович
Урганч давлат университети, Мустақил тадқиқотчи, e-mail:
xidirova.q.r@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақола Бухоро вилоятининг Ромитан, Жондор, Қоракўл ва Вобкент туманларида рақамли инфратузилма ривожланиши ва молиявий инклюзивлик ўртасидаги боғлиқликни ўрганади. 520 уй хўжалигини қамраб олган сўровнома, пробит регрессия модели, фокус-гуруҳ суҳбатлари ва Global Findex қиёсий кўрсаткичлари асосида таҳлил олиб борилди. Натижалар шуни кўрсатдики, рақамли хизматлардан фойдаланувчи уй хўжаликлари расмий банк тизимига 2,3 баробар кўпроқ кириш имкониятига эга, мобил тўлов иловалари эса микрокредит олиш эҳтимолини 34% оширади ($p<0,01$). Асосий тўсиқлар сифатида рақамли саводхонликнинг пастлиги (50+ ёшдагиларнинг 65,4%), кибер хавфсизликка ишончсизлик (48,7%) ва тармоқ

сифатсизлиги (37,2%) аниқланди. Тадқиқот натижалари асосида рақамли саводхонлик марказларини маҳалла тизими орқали кенгайтириш, мобил платформалар учун солиқ имтиёзлари жорий этиш ва гибрид молиявий маҳсулотлар ишлаб чиқиш бўйича tavsиялар берилган.

Калит сўзлар: рақамли инфратузилма, молиявий инклюзивлик, мобил банкинг, микрокредит, камбағаллик, қишлоқ аҳолиси, Бухоро вилояти, рақамли саводхонлик.

Кириш: Молиявий инклюзивлик — аҳолининг барча қатламларини, айниқса кам таъминланган гуруҳларни расмий молия хизматларига жалб этиш жараёни — бугунги кунда камбағалликни қисқартиришнинг стратегик воситаси сифатида тан олинмоқда. БМТнинг Барқарор ривожланиш мақсадлари доирасида молиявий инклюзивлик тўғридан-тўғри иқтисодий адолат ва тенглик тамойиллари билан боғлиқ [4; 7]. Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш стратегияси (2020–2030) доирасида интернет тармоғини кенгайтириш, мобил тўлов тизимларини жорий этиш ва рақамли давлат хизматларини оммалаштириш кенг кўламда амалга оширилмоқда [9]. Бироқ бу жараёнларнинг қишлоқ аҳолисининг молиявий фаоллигига реал таъсири ҳали тўлиқ ўрганилмаган.

Мазкур тадқиқот Бухоро вилоятида рақамли инфратузилма ривожланиши ва молиявий инклюзивлик ўртасидаги боғлиқликни ўрганишга қаратилган. Тадқиқотнинг асосий мақсади — интернет, мобил тўлов тизимлари ва рақамли давлат хизматларига кириш имкониятининг камбағал аҳолининг банк хизматларидан фойдаланиши, микрокредитга кириш имконияти ва умумий молиявий фаоллигига таъсирини миқдорий ва сифатий таҳлил қилишдан иборат.

Тадқиқот методологияси:Тадқиқот методологияси қуйидаги усулларга асосланади:

1. Ромитан, Жондор, Қоракўл ва Вобкент туманларида 520 уй хўжалигини қамраб олган тизимли сўровнома [1].
2. Рақамли хизматлардан фойдаланиш даражаси ва молиявий инклюзивлик кўрсаткичлари ўртасидаги боғлиқлик пробит регрессия модели ёрдамида аниқланди [2; 5].
3. Фокус-гуруҳ суҳбатлари орқали аҳолининг рақамли молиявий хизматларга муносабати ва тўсиқлари сифатий жиҳатдан баҳоланди [3].
4. Дунё банки Молиявий инклюзивлик кўрсаткичлари тизими (Global Findex) қиёсий ўлчов воситаси сифатида қўлланилди [1; 8].

Натижалар ва муҳокама: Сўровнома натижаларига кўра, ўрганилган туманларда аҳолининг атиги 41,3%и барқарор интернет алоқасига эга, мобил тўлов иловаларидан фаол фойдаланувчилар эса 28,6%ни ташкил этади. Рақамли хизматлардан фойдаланувчи уй хўжаликлари расмий банк тизимига кириш имкониятига 2,3 баробар кўпроқ эга бўлганлиги аниқланди [3; 6]. Мобил банкинг ёки тўлов иловаларидан фойдаланиш микрокредит олиш эҳтимолини 34% ошириши статистик жиҳатдан тасдиқланди ($p<0,01$). Бундан ташқари, рақамли давлат хизматларига кириш имконияти аҳолининг ижтимоий нафақалар ва субсидияларни ўз вақтида олишини 41% яхшилаши

кузатилди [9; 10].

Тадқиқот рақамли молиявий инклюзивликка тўсқинлик қилувчи бир қатор институционал ва структуравий омилларни ҳам аниқлади. Рақамли саводхонликнинг пастлиги, айниқса 50 ёшдан катта аҳоли орасида (65,4%), асосий тўсиқ бўлиб намоён бўлди [2]. Кибер хавфсизлик ва маълумот махфийлигига нисбатан ишончсизлик аҳолининг 48,7%ида кузатилди. Мобил алоқа тармоғи сифатсизлиги қишлоқ аҳолисининг 37,2%ига тўсиқ бўлмоқда. Банкларнинг биометрик идентификация ва ҳужжатлаштириш талаблари камбағал аҳолининг 29,5%ини расмий молия тизимидан четда қолдирмоқда [5; 8].

Тавсиялар: Олинган натижалар асосида қуйидаги илмий-амалий тавсиялар шакллантирилди:

1. Вилоят ҳудудларида рақамли саводхонлик марказларини маҳалла тизими асосида ташкил этиш ва уларни миллий бандлик дастурлари билан интеграциялаш зарур [4; 9].
2. «Payme», «Click» ва «Uzum Bank» каби мобил тўлов платформалари ваколатхоналарини қишлоқ туманларига кенгайтиришни рағбатлантирувчи солиқ имтиёзлари жорий этилиши мақсадга мувофиқ [2].
3. Рақамли молиявий хизматларни маҳаллий тилларда ва оддий интерфейсда тақдим этиш орқали кексалар ва саводсиз аҳоли учун кириш имкониятини кенгайтириш лозим [6].
4. Микромолия институтлари билан рақамли платформаларни интеграциялаш орқали қишлоқ тадбиркорлигини қўллаб-қувватловчи гибрид молиявий маҳсулотлар ишлаб чиқиш тавсия этилади [3; 10].
5. Кибер хавфсизлик соҳасида аҳолининг ишончини орттириш мақсадида давлат кафолатлари ва суғурта механизмларини кенгайтириш керак [5; 8].

Хулоса: Тадқиқот шуни кўрсатдики, рақамли инфратузилма молиявий инклюзивлик учун зарурий, аммо етарли шарт эмас. Технологик инфратузилмани ривожлантириш билан бир қаторда, рақамли саводхонлик, институционал ишонч ва тартибга солувчи муҳитни яхшилаш мажмуавий ёндашув доирасида амалга оширилиши лозим. Бухоро вилояти мисолида олинган натижалар Ўзбекистоннинг бошқа қишлоқ вилоятлари учун ҳам ўхшаш сиёсат тавсияларини ишлаб чиқишда методологик асос бўла олади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S., & Hess, J. (2022). *The Global Findex Database 2021: Financial inclusion, digital payments, and resilience in the age of COVID-19.* World Bank. https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1897-4

2. Gabor, D., & Brooks, S. (2017). The digital revolution in financial inclusion: International development in the fintech era. *New Political Economy, 22*(4), 423–436. https://doi.org/10.1080/13563467.2017.1259298

3. Jack, W., & Suri, T. (2014). Risk sharing and transactions costs: Evidence from Kenya’s mobile money revolution. *American Economic Review, 104*(1), 183–223. https://doi.org/10.1257/aer.104.1.183

4. Klapper, L., El-Zoghbi, M., & Hess, J. (2016). *Achieving the sustainable*

development goals: The role of financial inclusion. CGAP. https://www.cgap.org/research/publication/achieving-sustainable-development-goals

5. Ozili, P. K. (2018). Impact of digital finance on financial inclusion and stability. *Borsa Istanbul Review, 18*(4), 329–340. https://doi.org/10.1016/j.bir.2017.12.003

6. Suri, T., & Jack, W. (2016). The long-run poverty and gender impacts of mobile money. *Science, 354*(6317), 1288–1292. https://doi.org/10.1126/science.aah5309

7. United Nations. (2023). *Sustainable development goals report 2023.* United Nations Publications. https://unstats.un.org/sdgs/report/2023

8. World Bank. (2023). *Digital financial inclusion: Emerging policy approaches.* World Bank Group. https://www.worldbank.org/en/topic/financialinclusion

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги «Ўзбекистон Республикасини рақамли иқтисодиётга ўтказиш стратегияси тўғрисида»ги ПФ-6079-сон фармони. (2020). *Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.* https://lex.uz/docs/5031048

10. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. (2023). *Молиявий инклюзивлик бўйича йиллик ҳисобот 2022–2023.* Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. https://cbu.uz

BUDJETLARARO MUNOSABATLARDAGI MUAMMOLARNI HAL ETISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Xamitillayeva Jasmina Jaxongir qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Hududlararo moliyaviy nomutanosiblik mamlakatning barqaror va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur nomutanosiblik davlatning strategik dasturlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini pasaytirib, ayrim hududlarning mavjud resurs va imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishiga to‘sqinlik qiladi. Natijada hududlar o‘rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholi daromadlari va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarida sezilarli tafovutlar yuzaga keladi.

Hududlar kesimida moliyaviy resurslarning notekis taqsimlanishi, avvalo, ularning iqtisodiy salohiyati, soliq bazasi, ishlab chiqarish hajmi va infratuzilma rivojlanganlik darajasidagi farqlar bilan izohlanadi. Bunday sharoitda iqtisodiy jihatdan kuchli hududlar o‘z daromad manbalari hisobidan tezroq rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lsa, nisbatan sust rivojlangan hududlar markazlashgan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadi. Bu esa, o‘z navbatida, hududlararo tengsizlikning chuqurlashishiga va ijtimoiy keskinlikning ortishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni kamaytirish va resurslarni adolatli taqsimlash davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi. Bu borada fiskal siyosatning samarali mexanizmlarini joriy etish, xususan, budjetlararo transfertlar tizimini

takomillashtirish, hududlarning o‘z daromad bazasini kengaytirish hamda ularning moliyaviy mustaqilligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat tomonidan hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali infratuzilmani rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Bundan tashqari, hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni bartaraf etishda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, jumladan, natijadorlikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish, raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy oqimlarni monitoring qilish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash muhim rol o‘ynaydi. Ushbu choralar nafaqat moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga, balki davlat boshqaruvi sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

2023-2025-yillar kesimida hududlar bo‘yicha daromadlar, xarajatlar va budjetlararo transfertlar dinamikasi tahlili hududlararo moliyaviy nomutanosiblikning saqlanib qolayotganligini ko‘rsatadi. Jumladan, 2023-yilda jami daromadlar 55,7 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, xarajatlar 101,7 trln so‘mga yetgan va natijada 46,0 trln so‘mlik transfertlarga ehtiyoj yuzaga kelgan. 2024-2025-yillarda transfertlar hajmining sezilarli darajada kamayishi (mos ravishda 16,8 trln va 18,5 trln so‘m) kuzatilgan bo‘lsa-da, bu holat hududlarning moliyaviy mustaqilligi to‘liq ta’minlanganini anglatmaydi, balki ayrim hududlarda xarajatlar optimallashtirilgani yoki daromad bazasi nisbatan kengayganligini bildiradi. Hududlar kesimida tahlil shuni ko‘rsatadiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida xarajatlar daromadlarga nisbatan ancha yuqori bo‘lib, ular yuqori darajada budjetlararo transfertlarga tayanadi. Aksincha, Navoiy viloyati va Toshkent shahri kabi hududlarda daromadlar salmog‘i yuqori bo‘lib, transfertlarga ehtiyoj nisbatan past darajada. Bu esa hududlarning iqtisodiy salohiyati, soliq bazasi va investitsion jozibadorligidagi sezilarli tafovutlar mavjudligini tasdiqlaydi.

1-jadval

2023-2025-yillarda hududlar bo‘yicha daromadlar, xarajatlar va budjetlararo transfertlar ko‘rsatkichlari (mlrd. so‘m)[49]

№	Hududlar nomi	2023-yil			2024-yil			2025-yil		
		Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 843,7	6 806,0	3 962,3	2 933,1	5 637,5	2 077,9	3 346,3	5 569,3	2 223,0
2	Andijon viloyati	3 931,2	8 137,3	4 206,0	3 782,0	6 757,4	1 913,8	4 513,1	6 693,1	2 180,0
3	Buxoro viloyati	3 876,6	5 968,5	2 091,9	3 898,8	5 348,1	361,1	4 573,3	5 267,1	693,8
4	Jizzax viloyati	2 227,9	4 645,7	2 417,8	2 151,1	3 847,2	888,6	2 523,6	3 626,7	1 103,1
5	Qashqadaryo viloyati	4 607,5	10 519,3	5 911,8	4 572,5	6 585,8	927,0	5 264,2	6 238,5	974,3
6	Navoiy viloyati	3 039,4	4 046,1	1 006,7	2 690,3	3 802,6	182,5	3 384,2	3 476,7	92,5
7	Namangan viloyati	3 516,8	8 113,6	4 596,7	3 391,4	5 983,4	1 984,0	3 942,8	6 171,2	2 228,4
8	Samarqand viloyati	5 100,1	8 778,5	3 678,4	5 312,6	7 678,6	1 588,5	5 915,3	8 008,6	2 093,3
9	Surxondaryo viloyati	3 043,0	7 944,0	4 901,0	2 989,1	5 541,5	1 832,8	3 464,7	5 527,0	2 062,3
10	Sirdaryo viloyati	1 390,3	3 147,7	1 757,3	1 528,1	2 752,1	901,8	1 739,5	2 551,6	812,1
11	Toshkent viloyati	6 024,1	7 770,3	1 746,2	5 448,4	7 041,6	517,4	6 824,3	7 086,9	262,6
12	Farg‘ona viloyati	5 169,3	9 889,9	4 720,6	5 273,6	8 131,9	1 943,7	6 027,6	8 171,4	2 143,8
13	Xorazm viloyati	2 740,7	5 610,0	2 869,3	2 876,9	4 691,1	1 203,8	3 166,4	4 497,2	1 330,8
14	Toshkent shahri	8 218,3	10 364,1	2 145,8	10 176,9	13013,0	513,9	11 108,5	11370,7	262,2

[49] O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuni.

Jami	**55 728,9**	**101740,7**	**46 011,7**	**57 024,7**	**86811,6**	**16 836,7**	**65 793,8**	**84256,0**	**18 462,2**

Mazkur nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun, avvalo, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash zarur. Xususan, hududlarning o‘z daromad manbalarini kengaytirish, mahalliy soliqlar va yig‘imlarning samaradorligini oshirish, shuningdek, hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, transfertlar ajratishda aniq mezonlarga asoslangan, shaffof va natijadorlikka yo‘naltirilgan mexanizmlarni joriy etish talab etiladi.

Bundan tashqari, fiskal markazlashuv darajasini maqbullashtirish, hududlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish hamda raqamli texnologiyalar asosida budjet jarayonlarini boshqarishni takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu chora-tadbirlar hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Budjet tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hududlarda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan, barcha darajadagi budjetlarning mustaqilligini, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta’minlashi va ularning budjet ta’minlanganligi darajasidagi tafovutni qisqartirishga yo‘naltirilgan samarali budjet tizimini shakllantirish hisoblanadi.

O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida hududlar taraqqiyotiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, budjet ochiqligini ta’minlash borasidagi islohotlarni amaliyotga joriy etilishi birinchidan, davlat budjetini samarali ishlatilishini ta’minlasa, ikkinchidan, jamoat nazoratini kuchayishiga olib keladi, uchinchidan, fuqarolar yordamida uzoq yillardan beri hal bo‘lmayotgan ijtimoiy muammolarni yechilishiga imkoniyatlar yaratildi.

Shuning uchun aholining turmush farovonligini oshirish, ijtimoiy muammolarini hal etish, ularga munosib yashash sharoitlarini yaratish maqsadida budjetdan ajratiladigan mablag‘larni taqsimlash jarayonida fuqarolarimiz ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuning uchun budjet ochiqligi aholiga qator imkoniyatlar yaratadi. Jumladan:

- budjet ochiqligi budjet va budjet tizimiga oid ma’lumotlarning keng jamoatchilikka ochiqligi va shaffofligini ta’minlaydi;

- budjet mablag‘larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi;

- budjet ochiqligi tamoyillariga asoslangan holda “tashabbusli budjet” loyihasi orqali fuqarolarimizni davlat budjeti mablag‘larini maqsadli sarflanishida faol ishtirok etishlariga imkoniyat yaratadi;

- budjet hisobidan qilinayotgan xarajatlar to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni domimy ravishda aholiga rasmiy veb saytlar orqali ma’lumot sifatida berib borishi ochiqlik siyosatini ta’minlaydi.

Biroq, so‘nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar tomonidan ayrim mahalliy hokimiyat vakillarining davlat budjeti hisobidan qilayotgan xarajatlari, qabul qilayotgan qarorlari keskin e’tirozlarga, keng muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Ushbu holatlarning oldini olish, jamoatchilik nazoratini

kuchaytirish maqsadida davlat budjeti sohasini isloh etish jarayonida yangi tizim joriy etila boshlandi. Bu tizim «Ochiq budjet» portali deb nomlandi. Ushbu portal orqali korxona va tashkilotlar, jumladan aholimizga davlat budjetining daromad va xarajatlari, davlat qarzi bo‘yicha ma’lumotlar e’lon qilinib boriladi. Shu bilan birga aholimizni budjet islohotlarida faol ishtirok etishi uchun elektron plaftormada «Tashabbusli budjet» bo‘limi yaratilgan bo‘lib, ushbu bo‘lim orqali yurtdoshlarimiz o‘zlari yashab turgan mahallalarning infratuzilmalarini yaxshilash, bolalar va sport maydonchalari, ichki yo‘llarni qurish, bolalar bog‘chasi hamda maktablarni ta’mirlash va jihozlash hamda boshqa masalalar bo‘yicha loyihalarni taklif etib, mahalliy budjetning taqsimlanishida ishtirok etishlari mumkin. Eng muhimi aholimiz davlat tomonidan berilayotgan bunday imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanishi va faol ishtirok etishi talab etiladi.

ENERGETIKA XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGIGA TA’SIRI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
Bozorov Saidjon Hamidovich

Annotatsiya. Mazkur tezisda energetika xavfsizligini ta’minlashning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta’siri O‘zbekiston sharoitida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda energiya resurslaridan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilishning iqtisodiy o‘sish va makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, energetika xavfsizligini mustahkamlash orqali sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish va iqtisodiy xavflarni kamaytirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: energetika xavfsizligi, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy barqarorlik, energiya resurslari, qayta tiklanuvchi energiya, energetik infratuzilma, iqtisodiy o‘sish, O‘zbekiston iqtisodiyoti.

Annotation. This thesis analyzes the impact of ensuring energy security on the stability of the national economy in the context of Uzbekistan from scientific, theoretical, and practical perspectives. The study examines the influence of efficient use of energy resources, development of renewable energy sources, and modernization of energy infrastructure on economic growth and macroeconomic stability. In addition, scientific conclusions were developed on increasing industrial efficiency and reducing economic risks through strengthening energy security.

Keywords: energy security, national economy, economic stability, energy resources, renewable energy, energy infrastructure, economic growth, economy of Uzbekistan.

Аннотация. В данной тезисной работе исследуется влияние обеспечения энергетической безопасности на устойчивость национальной экономики в условиях Узбекистана с научно-теоретической и практической точек зрения. В исследовании изучено влияние эффективного использования энергетических ресурсов, развития возобновляемых источников энергии и модернизации энергетической инфраструктуры на экономический рост и макроэкономическую стабильность. Также разработаны научные выводы по

повышению эффективности промышленного производства и снижению экономических рисков посредством укрепления энергетической безопасности.

Ключевые слова: энергетическая безопасность, национальная экономика, экономическая устойчивость, энергетические ресурсы, возобновляемая энергия, энергетическая инфраструктура, экономический рост, экономика Узбекистана.

Kirish

Bugungi kunda energetika xavfsizligini ta’minlash milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, global energetik inqirozlar hamda iqlim o‘zgarishlari energetika tizimini modernizatsiya qilish zaruratini kuchaytirmoqda. O‘zbekiston sharoitida sanoat ishlab chiqarishi, transport va aholi turmush darajasining barqaror rivojlanishi energetika tarmog‘ining samaradorligiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanish va energetik infratuzilmani takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda energetika xavfsizligini ta’minlashning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Energetika xavfsizligi masalalari iqtisodiy barqarorlikning muhim omili sifatida ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) hisobotlarida energetika xavfsizligi energiya resurslarining uzluksiz va barqaror ta’minlanishi bilan bog‘liq strategik omil sifatida baholanadi. Tadqiqotlarda energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini kuchaytirishi ta’kidlangan.[2]

Jahon banki tadqiqotlarida energiya infratuzilmasining rivojlanishi sanoat ishlab chiqarishi hajmi va investitsion faollikka bevosita ta’sir etuvchi omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, energiya taqchilligi makroiqtisodiy beqarorlik, inflyatsion bosim va ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga olib kelishi qayd etilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mamlakat energetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish masalalari yoritilgan. Xususan, quyosh va shamol energetikasini rivojlantirishning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi.[3]

Natija va tahlillar

O‘zbekistonda energetika ko‘rsatkichlari va iqtisodiy barqarorlik dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, energetika xavfsizligini ta’minlash milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim strategik omil hisoblanadi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining oshishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining kengayishi hamda energetika sohasiga investitsiyalar hajmining ortishi sanoat ishlab chiqarishi va YAIM o‘sish sur’atlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Shuningdek, energetik infratuzilmaning modernizatsiya qilinishi iqtisodiyot

tarmoqlarining uzluksiz faoliyat yuritishini ta’minlab, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish orqali energiya resurslaridan oqilona foydalanish va tashqi energetik xavflarni kamaytirish imkoniyati kengaymoqda. Natijada energetika xavfsizligini mustahkamlash iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda.

1-jadval

O‘zbekistonda energetika ko‘rsatkichlari va iqtisodiy barqarorlik dinamikasi[4]

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Elektr energiyasi ishlab chiqarish (mlrd kVt/soat)	66.5	71.1	74.3	78.2	81.5
Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	8	9.2	10.8	12.5	14.1
Sanoat ishlab chiqarishi o‘sishi (%)	0.7	8.4	5.3	6.1	6.5
YAIM o‘sish sur’ati (%)	1.9	7.4	5.7	6	6.3
Energiya iste’moli (mlrd kVt/soat)	69.8	72.4	76.1	80.3	83.6
Energetika sohasiga investitsiyalar (mlrd AQSH dollari)	2.1	2.8	3.4	4.2	5.1

Jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda energetika tizimining barqaror rivojlanish tendensiyasini ko‘rsatadi. 2020–2024-yillar davomida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 66.5 mlrd kVt/soatdan 81.5 mlrd kVt/soatga oshgan bo‘lib, bu iqtisodiyotning energiyaga bo‘lgan talabining ortib borayotganini ifodalaydi. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 8 foizdan 14.1 foizga yetgani mamlakatda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarining bosqichma-bosqich joriy etilayotganligini ko‘rsatadi.

Sanoat ishlab chiqarishi va YAIM o‘sish sur’atlarining ijobiy dinamikasi energetika xavfsizligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Energiya ta’minotining barqarorlashuvi ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish imkonini yaratgan. Ayniqsa, energetika sohasiga investitsiyalar hajmining 2020-yildagi 2.1 mlrd dollardan 2024-yilda 5.1 mlrd dollarga oshishi yangi energetik infratuzilma loyihalarining iqtisodiy ahamiyatini kuchaytirgan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, energetika xavfsizligini mustahkamlash milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash, investitsion faollikni oshirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, energetika xavfsizligini ta’minlash milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlovchi muhim omillardan biridir. Energiya resurslaridan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, energetika tizimining

barqaror faoliyati sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini kuchaytirib, makroiqtisodiy xavflarni kamaytiradi. Shu sababli O‘zbekistonda energetika xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan islohotlarni davom ettirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–220-son Farmoni, “2025–2035-yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish strategiyasi”.

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi rasmiy ma’lumotlari – https://minenergy.uz

2. International Energy Agency (IEA). *World Energy Outlook 2024*. – https://www.iea.org/reports/world-energy-outlook-2024

3. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi rasmiy ma’lumotlari. – https://minenergy.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi – https://stat.uz

АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВИНИ ЎТКАЗИШ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

Мелиев Исроил Исмоилович

Тошкент давлат иқтисодиёт университети профессори

e-mail: melievisroil1981@gmail.com

Маълумки, ҳозирги аудиторлик амалиётининг энг асосий масаласи бу аудиторлик текширувлари қандай услубда ўтказилиши яъни, аудиторлик вазифалари кетма-кетлиги, уларда қўлланиладиган аудиторлик усуллар, текширувни ўтказиш тартиб ва қоидалари ҳамда текширувда бажариладиган аудиторлик амаллари мазмунини очиб беришдан иборат. Ушбу масалада жаҳон ва миллий аудиторлик амалиётида турлича фикр ва ёндашувлар мавжуддир.

Аудиторликтекширувиниўтказишжараёнларининг малиймуаммолари Бу эса фикримизча, аудиторлик амалиётда аудит қўмитаси фаолияти тўғрисида турлича ёндашувлар ва қарашларни юзага келишига ҳамда хўжалик юритувчи субъектларда аудиторлик қўмитаси фаолиятини қонунчилик меъёрлари асосида юритилмаслигига таъсир этмоқда.

Бизнингча, аудиторлик текширувининг самарадорлиги уни ўтказиш жараёнларининг амалдаги муаммолари бартараф этилишига боғлиқлиги “Grant thoronton”, “ABS-Finans audit” ва “TRI-S-Audit” аудиторлик ташкилотлари билан олиб борилган тадқиқотлар натижасида тасдиқланди (1-жадвал).

Таъкидлаш жоизки, аудиторлик текшируви бугунги кунда масофавий ва анъанавий (аудиторлик текшируви буюрмачиси жойлашган манзилда хўжалик субъекти масъуллари билан биргаликда) шаклларда амалга оширилмоқда. Фикримизча, масофавий шаклдаги аудиторлик текшируви деганда, муайян сабаблар (пандемия ёки бошқа юқумли касаллик ҳолатлари, текширув буюртмачиси жойлашган манзилнинг узоқлиги ва буюртмачининг бошқа талаблари)га кўра масофадан туриб аудиторлик текширувини бажариш жараёни тушунилади.

Бизнингча, ҳозирги аудиторлик амалиётининг энг асосий масаласи бу - аудиторлик текширувлари қандай услубда ўтказилиши яъни, аудиторлик вазифалари кетма-кетлиги, уларда қўлланиладиган аудиторлик усуллар, текширувни ўтказиш тартиб ва қоидалари ҳамда текширувда бажариладиган аудиторлик амаллари мазмунини очиб беришдан иборат. Бугунга қадар ишлаб чиқилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва яратилган ўқув адабиётларида аудиторлик текшируви қандай услублар асосида амалга оширилиши, яъни, аудиторлик текширувини амалга ошириш кетма-кетлиги, уларда қўлланиладиган аудиторлик усуллар ва амаллар тавсифи ҳамда мазкур текширувни ўтказиш тартиб ва қоидалари мазмуни назарий ва амалий жиҳатдан тўлиқ очиб берилмаган. Фикримизча, аудиторлик текширувини сифатли ва самарали амалга оширилишини таъминлаш учун мазкур жараённи қуйидаги босқичлар асосида амалга оширилиши мақсадга мувофиқ (1-расм).



1-rasm. Auditorlik tekshiruvini o‘tkazish bosqichlari[50]

Шунингдек, юқоридаги 1-расмда келтирилган текширув босқичлари аудитнинг халқаро стандартларида белгиланган таҳлилий амаллар асосида ўтказилиши аудиторлик текширувини сифатли ва самарали амалга оширилишини таъминлайди. Юқоридагилардан кўринадики, бугунги кунда аудиторлик амалиётида аудиторлик текширувларини режалаштириш, ўтказиш ва текширув натижаларини умумлаштириш жараёнида ўз эчимини кутаётган қатор муаммоларни бартараф этиш, уларнинг назарий ва услубий асосларини такомиллаштириш долзарб илмий муаммолардан саналади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3946-сон қарори. http://lex.uz/docs/3914502

2. Дусмуратов Р.Д. Аудиторлик фаолияти: назария, услубиёт ва амалиёт: монография. – Т.: Молия нашриёти, 2007. – 276 б.;

3. Ҳамдамов Б.Қ. Ўзбекистон иқтисодиётининг ҳисоб ва ҳисобот тизимида аудиторлик назоратини ривожлантиришнинг услубий асослари:

[50] Муаллиф томонидан тайёрланган

и.ф.д. илмий даражасини олиш учун дис. автореф. – Т.: 2007. – 260 б;

4. Мелиев И.И. Аудиторлик текширувини режалаштириш ва ўтказишни такомиллаштириш: Иқтисод фан. док. (Phd) дисс. автореферати. Тошкент: ТМИ, 2020. 63б.

MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI BAHOLASHNING MUHIM MASALALARI

Nazarova Kamola Sattorali qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ma’lumki, hozirgi davr hisob va audit amaliyotida MHXS va AXSlarni amaliyotga joriy etish va ularni qo‘llanilmasligi oqibatida yuzaga keladigan muammolar, moliyaviy hisobot transformatsiyasini amalga oshirishning uslubiy masalalarini o‘rganish, MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va ularni auditning xalqaro me’yorlariga muvofiq auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish masalalarini o‘rganilmasligi hisob tizimining moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini to‘liq va o‘z muddatida bajarilishiga salbiy ta’sir etadi.

1- jadval

MHXS va AXSni qo‘llanilishi imkoniyatlari[51]

№	MHXS va AXSni qo‘llanilishi natijasida erishiladigan imkoniyatlar
1	Faoliyat natijalarining ochiq(shaffof)ligi darajasini yanada oshirish imkoniyati
2	Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni unda aks ettirilgan axborotlarni davriy oraliqlar hamda turli korxonalar bo‘yicha ko‘rsatkichlarga ajratgan holda tahlil qilish
3	Investorlar, aksiyadorlar va kreditorlarning korxona moliyaviy faoliyatiga ishonchi ortib, korxonaga sarmoya kiritish hamda kredit ajratish kabi imkoniyatlar darajasining kengayishi
4	Xalqaro talablarga muvofiq keluvchi axborotdan foydalanilishi natijasida korxonada xorijiy investorlar bilan hamkorlik imkoniyatlari kengayib, ular faoliyatiga chetdan investitsiyalar oqimini kuchayishi
5	Xalqaro me’yorlarga muvofiq keluvchi moliyaviy axborotlarni shakllantirilganligi tufayli korxonaning xalqaro munosabatlar, turli birjalar va xalqaro kapital bozori ishtirokchisiga aylanishi
6	Korxona ta’sischilari va boshqaruv rahbariyatini samarali qarorlari uchun ishonchli, ob’ektiv va tizimli moliyaviy axborotlar bilan ta’minlash imkonini yuzaga keltiradi
7	Korxona faoliyatini moliyaviy jihatdan rejalashtirish va uning kelgusi faoliyati rivojlanishini oldindan baholash uchun zarur axborotlar bilan ta’minlash imkoniyati
8	Korxona boshqaruv tartibini takomillashtirish, uning mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) sifatini oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirish orqali uning bozorda raqobatbardoshligini yanada oshirish
9	Korxona faoliyatida korrupsiya, suiste’mol, mulk va mablag‘larni talon-taroj qilish yoki o‘z manfaati yo‘lida foydalanish, daromad(foyda)ni yashirish va bankrotlik holatlarini kamaytirish
10	Ishonchli axborotlardan foydalanilishi va boshqaruv qarorlarini qabul qilinishi natijasida rag‘batlantirish va faoliyatdan manfaatdorlik darajasini oshirish
11	Korxona boshqaruvida ishonchli va kafolatli axborotlardan foydalanilishi natijasida samarali nazorat tizimi shakllanib, korxona ishchi va xizmatchilarida korxona faoliyatiga nisbatan munosabatni ijobiy tomonga o‘zgarishi
12	Korxona ishchi va xizmatchilarida o‘z kasbiy malakasini oshirishga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqish kuchayishi va boshqalar

[51] Muallif tomonidan tayyorlangan

Fikrimizcha, MHXS va AXS talablariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni shakllantirish hamda ular auditini amalga oshirilishini ta’minlash xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va auditorlik tashkilotlari faoliyati uchun quyidagi imkoniyatlar yaratilishini ta’minlaydi (1-jadval). Yuqoridagi 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, hisob va audit tizimida xalqaro standartlardan foydalanish auditordan xalqaro standartlar asosida auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o‘tkazish uslubiyatini to‘liq o‘zlashtirishni talab etib, auditor moliyaviy hisobot transformatsiyasini amalga oshirish va MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzish kabi ikki turdagi asosiy xizmatni amalga oshirishi bugungi davr talabi hisoblanadi. Qolaversa Prezidentning PQ-4611-son qarorini qabul qilinishi, auditor bir paytning o‘zida ikki turdagi xizmatlarni ya’ni auditorlik tekshiruvini amalga oshirish xizmati va milliy qonunchilikka muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotni moliyaviy MHXS talablariga moslashtirish (transformatsiya) xizmatiga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Bu esa auditorlardan MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlash va uning auditi jarayoni bo‘yicha xalqaro standartlar talablarini to‘liq o‘zlashtirishni talab etmoqda.

Moliyaviy hisobot auditi amaliyotida firibgarlik(fraud), moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatish (misrepresentation of financial statements) va xato (error) kabi atamalaridan keng foydalaniladi. Auditda firibgarlik yoki xato tushunchalari mazmuni o‘rtasidagi asosiy farqlovchi belgi bu ataylab (qasddan) yoki atayin (qasddan) qilinmagan moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatish holati hisoblanadi. Bundan ko‘rinadiki moliyaviy hisobot auditida firibgarlik deganda moliyaviy hisobotni atayin buzib ko‘rsatish harakatlarini anglatuvchi yuridik tushuncha tushunilsa, xato deganda esa moliyaviy hisobotdagi atayin (qasddan) qilinmagan moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatish harakatlari tushuniladi. Demak auditda firibgarlikni aniqlash (fosh etish) xatoni aniqlash jarayonidan muhimroq sanaladi. Fikrimizcha, firibgarlik va manfaatlar to‘qnashuvi xavfini kamaytirish, oldini olish va yo‘qotishning samarali choralari quyidagilar hisoblanadi (2-jadval):

2- jadval

Firibgarlik va manfaatlar to‘qnashuvi xavfini kamaytirish, oldini olish yoki yo‘qotishning samarali choralari[52]

№	Firibgarlik va manfaatlar to‘qnashuvi xavfini kamaytirish, oldini olish yoki yo‘qotishning samarali choralari
1	Tasodifiy tekshiruvlar tashkil etish. Korxona tarkibiy bo‘linmalarini xabardor qilmasdan ular faoliyatini o‘rganish
2	Mijozlar oqimini video tahlil qilish (sun’iy intellekt imkoniyatlari asosida nazorat va tahlil qilish). Korxona binolariga tashrif buyurgan va chiqib ketgan mijozlar soni, ularni binoda bo‘lgan vaqtini hisoblash, moliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslash
3	Moliyaviy hisobot davri yakunida va amaldagi buxgalteriya hisobi standartlarida belgilangan muddatlarda inventarizatsiya o‘tkazish
4	Ichki audit tekshiruvlarini turli yondashuvlar asosida tashkil etish. Mijozlar, xaridor va buyurtmachilar, mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan telefon, elektron pochta va boshqa masofaviy axboroto vositalari bilan axborot almashinuvni yo‘lga qo‘yish, narx va chegirmalarni tekshirish, moddiy javobgar shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘rovlar o‘tkazish)
5	Buxgalteriya schyotlariga kiritilgan tuzatishlar bo‘yicha batafsil nazorat o‘tkazib borish.

[52] Muallif tomonidan tayyorlangan

	Korxona moliyaviy hisobot yili yakuni va choraklarda noodatiy nazorat jarayonlarini tashkil etish
6	Korxonaning affillangan shaxslari majburiyat va javobgarliklari hamda mulklari holati hamda qiymati bilan tanishish
7	Korxonaning moliyaviy hisobot davri boshidagi buxgalteriya schyotlaridagi qoldiqlarni o‘rganish maqsadida tahliliy amallar bajarish
8	Kompyuter ma’lumotlari to‘liqligini tekshiring va muomalalarni tasdiqlovchi hujjatlar raqamlashtirilganligini o‘rganish
9	Korxona mas’ul xodimlari yashash holati(turmush darajasi)dagi o‘zgarishlar(asosiy ish haqining miqdor darajasi, xodimlar ko‘chmas mulklari miqdori, xodimlarning ko‘chmas mulklarni sotib olish qobiliyati darajasi)ni tahlil qilish
10	Tovar-moddiy zahiralar bo‘yicha og‘ishishlarni o‘rganish. Inventarizatsiya o‘tkazish zarurati va muddatlarini aniqlashtirish
11	Korxona tovar belgilaridan foydalanish holatini o‘rganish
12	Korxona zahiralarining avvalgi davrlardagi miqdori va ishlab chiqarish sifatlari bilan solishtirish
13	Korxona omborlarini avtomatlashtirish(raqamlashtirish)

Fikrimizcha, xalqaro moliyaviy hisobot auditi amaliyotida firibgarlik, moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatish va xato kabi atamalardan keng foydalaniladi. Auditda firibgarlik yoki xato tushunchalari mazmuni o‘rtasidagi asosiy farqlovchi belgi bu ataylab (qasddan) yoki atayin (qasddan) qilinmagan moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatish holati hisoblanadi. Firibgarlik va xatolardan xoli bo‘lgan ko‘rsatkichlar asosida shakllantirilgan hisobot ishonchli hisobotdir. Korxona faoliyatining qonuniyligi va moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari ishonchliligini baholash esa auditorning asosiy majburiyati hisoblanadi. Bu esa auditordan korxona moliyaviy hisobotida aniqlangan xato va firibgarlik holatlarining mazmunini, shakllanish sabablarini, firibgarlik va xatoning moliyaviy hisobotga ta’sirini hamda aniqlangan moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatish holatlarini bartaraf etish yoki ularni kelgusida takrorlanmasligi yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi «Audotorlik faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-677-son qonuni. https://lex.uz/docs/5307886.;

2. Аренс А., Лоббек Дж. Аудит. Пер. с англ. под ред. Я.В. Соколова. -М.: Аренс А., Лоббек Дж. Аудит. Пер. с англ. под ред. Я.В. Соколова. -М.: Финансы и статистика, 2013. -560 с; Адамс Р. Основы аудита. Пер. с анг./под ред. Я.В. Соколова. – М.: ЮНИТИ, 2015.-398 с.;

3. Meliyev I.I. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o‘tkazishni takomillashtirish, (PhD) dissertatsiya avtoreferati – Toshkent, 2019 y -63 b.

4. Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobot auditi metodologiyasini takomillashtirish: DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent-2021. -66 b.

МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ОБЩЕСТВА 5.0 КАК ДРАЙВЕРА ЭКОНОМИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ СТРАН БРИКС-Т

Калдибаев Нурлан Алимжанович
Старший Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. В статье рассматривается концепция «Общества 5.0» (Society 5.0) как стратегического драйвера трансформации социально-экономических систем в странах БРИКС-Т (Бразилия, Россия, Индия, Китай, Южная Африка + Турция). Проведение комплексной макроэкономической оценки влияния цифровых технологий и человеческого капитала на показатели экономического роста и социального благосостояния указанного блока стран.В качестве основного инструментария применены методы панельного регрессионного анализа и структурного моделирования (Structural Equation Modeling – SEM) с использованием программного обеспечения SmartPLS. Авторами доказано гетерогенное влияние компонентов Общества 5.0 (цифровая инфраструктура, расходы на R&D, индекс человеческого развития) на динамику ВВП и уровень занятости населения. Выявлены синергетические эффекты интеграции технологий Индустрии 4.0 в социальную сферу. Результаты исследования могут быть использованы министерствами экономического развития стран БРИКС-Т при долгосрочном стратегическом планировании и формировании цифровой политики.

Ключевые слова: Общество 5.0, страны БРИКС-Т, макроэкономическая оценка, устойчивое развитие, цифровая экономика, SmartPLS, человеческий капитал.

MACROECONOMIC ASSESSMENT OF SOCIETY 5.0 AS A DRIVER OF ECONOMIC AND SOCIAL DEVELOPMENT IN BRICS-T COUNTRIES

Kaldibayev Nurlan
Senior Lecturer, Tashkent State University of Economi

Abstract. The article examines the concept of "Society 5.0" as a strategic driver for the transformation of socio-economic systems in the BRICS-T countries (Brazil, Russia, India, China, South Africa + Turkey). A comprehensive macroeconomic assessment of the impact of digital technologies and human capital on the economic growth and social welfare indicators of the specified bloc of countries is conducted. Methods of panel regression analysis and Structural Equation Modeling (SEM) using SmartPLS software were applied as the primary research tools. The authors prove the heterogeneous impact of Society 5.0 components (digital infrastructure, R&D expenditures, human development index) on GDP dynamics and the population employment rate. Synergistic effects of integrating Industry 4.0 technologies into the social sphere are identified. The research results can be utilized by the ministries of economic development of the BRICS-T countries for long-term strategic planning and digital policy formulation.

Keywords: Society 5.0, BRICS-T countries, macroeconomic assessment, sustainable development, digital economy, SmartPLS, human capital.

BRICS-T MAMLAKATLARI IQTISODIY VA IJTIMOIY RIVOJLANISHINING DRAYVERI SIFATIDA JAMIYAT 5.0 NING MAKROIQTISODIY BAHOSI

Qaldiboev Nurlan Alimjanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada BRICS-T mamlakatlarida (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Afrika + Turkiya) ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni transformatsiya qilishning strategik drayveri sifatida "Jamiyat 5.0" (Society 5.0) konsepsiyasi ko‘rib chiqilgan. Mazkur mamlakatlar bloki iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy farovonligi ko‘rsatkichlariga raqamli texnologiyalar hamda inson kapitalining ta’sirini kompleks makroiqtisodiy baholash amalga oshirilgan. Asosiy tadqiqot vositalari sifatida panel regressiya tahlili va SmartPLS dasturiy ta’minotidan foydalangan holda tarkibiy tenglamalar modellashtirish (Structural Equation Modeling – SEM) metodlari qo‘llanilgan. Mualliflar tomonidan Jamiyat 5.0 komponentlarining (raqamli infratuzilma, R&D xarajatlari, inson taraqqiyoti indeksi) YaIM dinamikasi va aholi bandligi darajasiga geterogen (turlicha) ta’siri isbotlangan. Sanoat 4.0 (Industry 4.0) texnologiyalarini ijtimoiy sohaga integratsiya qilishning sinergetik effektlari aniqlangan. Tadqiqot natijalaridan BRICS-T mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish vazirliklari tomonidan uzoq muddatli strategik rejalashtirish va raqamli siyosatni shakllantirishda foydalanilishi mumkin.

Tayanch so‘zlar: Jamiyat 5.0, BRICS-T mamlakatlari, makroiqtisodiy baholash, barqaror rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, SmartPLS, inson kapitali.

1. Введение

В условиях глобальной цифровой трансформации классические модели экономического роста уступают место концепциям, ориентированным на человека и интеграцию киберфизического пространства. Концепция «Общества 5.0» (Society 5.0), изначально предложенная правительством Японии, предполагает решение сложных социальных проблем с помощью интеграции технологий Индустрии 4.0 (искусственный интеллект, Big Data, интернет вещей) во все сферы жизнедеятельности [1]. Для стран БРИКС-Т, представляющих собой ядро развивающихся рынков, переход к Обществу 5.0 является не просто технологическим трендом, а макроэкономической необходимостью для преодоления «ловушки среднего дохода» и обеспечения долгосрочной глобальной конкурентоспособности [2]. Несмотря на обилие теоретических исследований, макроэкономическая оценка и эмпирическое подтверждение влияния Общества 5.0 на социальные индикаторы стран БРИКС-Т остаются малоизученными. Это обуславливает актуальность данного исследования, направленного на устранение существующего академического пробела.

2. Методы

Для проведения макроэкономической оценки был сформирован массив панельных данных по странам БРИКС-Т за период с 2015 по 2025 гг. Источниками данных выступили статистические базы Всемирного банка (World Bank) и базы данных ООН. В качестве ключевых макроэкономических переменных (переменных интереса) выбраны: Индекс внедрения цифровых

технологий (Digital Adoption Index), расходы на НИОКР (% от ВВП), Индекс человеческого развития (HDI); Темп роста реального ВВП на душу населения (Y) и Коэффициент Джини как показатель социального равенства (S). Математическая спецификация базовой модели панельной регрессии имеет следующий вид:

$$Y_{it} = \beta_0 + \beta_1 Digital_{it} + \beta_2 R\&D_{it} + \beta_3 HDI_{it} + a_i + \varepsilon_{it}$$

Для оценки сложных нелинейных взаимосвязей и латентных переменных авторами было принято решение использовать моделирование структурными уравнениями методом частичных наименьших квадратов (PLS-SEM) в среде программного комплекса SmartPLS [3]. Этот метод позволяет оценить не только прямые, но и опосредованные (медиативные) эффекты влияния цифровизации на социальное развитие через призму качества институтов.

3. Результаты

Результаты моделирования в SmartPLS продемонстрировали высокую прогностическую значимость разработанной модели ($R^2 = 0.742$ для переменной экономического роста).

Таблица 1. Результаты оценки путевых коэффициентов (Path Coefficients) в модели БРИКС-Т

Взаимосвязь факторов (Гипотезы)	Путевой коэффициент (β)	t-статистика	P-значение	Результат
Общество 5.0 → Экономический рост	0.412	5.231	< 0.001	Подтверждена
Общество 5.0 → Социальное развитие	0.285	3.114	0.002	Подтверждена
Институты (Медиатор) → Рост	0.198	2.451	0.015	Подтверждена

Эмпирический анализ выявил гетерогенный характер влияния Общества 5.0. В Китае и Индии наибольший вклад в макроэкономическую динамику вносит фактор цифровой инфраструктуры и масштабирования ИИ-технологий (β= 0.51). В то же время в России и Турции ключевым драйвером выступает человеческий капитал и уровень научно-исследовательской активности (R\&D).

Модель также зафиксировала отрицательную корреляцию между уровнем цифровизации Общества 5.0 и коэффициентом Джини (β = -0.18), что доказывает долгосрочный инклюзивный характер исследуемой концепции: технологии Общества 5.0 при правильном институциональном управлении снижают уровень социального неравенства [4].

4. Обсуждение (Discussion)

Полученные нами результаты согласуются с выводами классических исследователей цифровой экономики, таких как Brynjolfsson и McAfee, подтверждающих наличие «цифрового дивиденда» для макросистем [5]. Однако, в отличие от исследований, сфокусированных исключительно на развитых странах (G7), наш анализ стран БРИКС-Т показывает наличие определенных структурных барьеров.

Высокий коэффициент медиации со стороны государственных институтов показывает, что без гибкой регуляторной базы и государственной

поддержки технологии Общества 5.0 могут приводить к «цифровому разрыву» и росту фрикционной безработицы на начальных этапах [6]. Следовательно, странам БРИКС-Т необходима синергия между инвестициями в IT-сектор и реформами в сфере непрерывного образования (Life-long learning).

Список литературы

1. Fukuyama, M. (2018). Society 5.0: Aiming for a human-centered society. *Japan Spotlight*, 218(1), 47-50.

2. Schwab, K. (2017). *The Fourth Industrial Revolution*. Crown Business.

3. Hair, J. F., Risher, J. J., Sarstedt, M., & Ringle, C. M. (2019). When to use and how to report the results of PLS-SEM. *European Business Review*, 31(1), 2-24.

4. Durmanov, A. S., & Kireeva, N. (2025). Digital infrastructure transformation and economic sustainability in emerging markets. *Journal of International Economic Studies*, 14(2), 115-129.

5. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The second machine age: Work, progress, and prosperity in a time of brilliant technologies*. WW Norton & Company.

6. World Bank. (2016). *World Development Report 2016: Digital Dividends*. World Bank Publications.

РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА В ГОСУДАРСТВЕННОМ СЕКТОРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ И ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

Давирова Шахло Шукуруллаевна
кандидат экономических наук, доцент кафедры “Банковское дело” Ташкентского государственного экономического университета
e-mail: davirova_shaxlo@tsue.uz
Илхомов Жавохир Жахонгир угли,
Студент третьего курса бакалавриата Ташкентского государственного экономического университета
e-mail: Jovo867@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы и практические аспекты развития системы внутреннего аудита в государственном секторе Республики Узбекистан. Анализируется действующая нормативно-правовая база, выявляются разрывы между формальными требованиями и реальной практикой, исследуется международный опыт организации внутреннего аудита. Разработаны рекомендации по институциональному и методологическому совершенствованию системы с учётом требований МСПП ВА, COSO и передового опыта стран ОЭСР.

Ключевые слова: внутренний аудит, МСПП ВА, IIA, COSO, государственный сектор, риск-менеджмент, профессиональная сертификация, публичное управление.

Введение

Внутренний аудит в современном его понимании — это независимая деятельность по предоставлению объективных гарантий и консультаций, направленных на совершенствование деятельности организации и создание добавленной стоимости. Такое определение, закреплённое в Международных стандартах профессиональной практики внутреннего аудита (МСПП ВА), концептуально отличается от традиционного понимания внутреннего контроля как функции последующего обнаружения нарушений.

Реформы государственного управления в Республике Узбекистан, особенно активизировавшиеся после 2017 года, создали институциональный импульс для модернизации системы внутреннего аудита в государственном секторе. Принятие Закона «Об аудиторской деятельности» в 2021 году и Постановления Кабинета Министров «О службе внутреннего аудита министерств и ведомств» в 2022 году, утверждение стандартов внутреннего аудита в государственном секторе и создание соответствующих методологических центров заложили правовую и организационную основу.

Тем не менее практика показывает, что декларативное соответствие международным стандартам и реальная функциональная зрелость системы существенно расходятся. Данная статья направлена на выявление этого разрыва и разработку системных рекомендаций.

Теоретические основы современного внутреннего аудита Институт внутренних аудиторов (IIA) разработал концепцию «Трёх линий обороны», согласно которой внутренний аудит является третьей линией — независимой оценочной функцией, проверяющей эффективность первых двух линий (операционного менеджмента и функций управления рисками и соответствия). В 2020 году данная модель была обновлена до «Модели трёх линий», делающей акцент на ценности создания, а не только защиты.

МСПП ВА устанавливают обязательные требования к атрибутам аудиторской деятельности: независимость и объективность, профессиональное мастерство и должная профессиональная осмотрительность, управление деятельностью подразделением внутреннего аудита (ПВА), качество и совершенствование. Реализация аудиторской деятельности должна охватывать планирование, выполнение, взаимодействие и мониторинг.

Риск-ориентированное планирование, предусмотренное стандартом 2010 IIA, предполагает формирование плана аудита на основе оценки рисков организации, согласованной со стратегическими целями. Это концептуально отличается от подхода «проверяем всё подряд» или «проверяем то, что проверяли в прошлом году».

Анализ действующей практики внутреннего аудита в государственном секторе Узбекистана

Анализ деятельности подразделений внутреннего аудита в государственных органах Узбекистана позволяет выявить ряд системных проблем. Во-первых, значительная часть ПВА де-юре называются аудиторскими, однако де-факто выполняют функции финансово-хозяйственного контроля: проверку первичных документов, кассовую

дисциплину, правомерность расходов. Аудит результативности, системный анализ рисков и консультационная деятельность остаются незначительными компонентами их работы.

Во-вторых, кадровый потенциал ПВА остаётся недостаточным: сертификация CIA (Certified Internal Auditor) носит единичный характер, система непрерывного профессионального образования в области внутреннего аудита формируется. Это снижает качество аудиторских суждений и доверие руководства к выводам внутреннего аудита.

В-третьих, функциональная независимость ПВА нередко ограничена: руководители аудиторских подразделений часто подотчётны административному руководству организации, а не наблюдательному органу, что создаёт конфликт интересов при проведении проверок чувствительных областей.

Международный опыт

Великобритания является признанным лидером в области внутреннего аудита в государственном секторе. Правительственный стандарт внутреннего аудита (PSIAS — Public Sector Internal Audit Standards) разработан на основе МСПП ВА с учётом специфики публичного сектора. Все центральные министерства имеют функциональные ПВА, подотчётные Комитету по аудиту и оценке рисков. Роль Главного аудитора правительства обеспечивает профессиональный надзор и методологическое руководство.

В Австралии принята модель совместного использования аудиторских ресурсов (shared services) для небольших государственных органов, которые не могут поддерживать полноценный ПВА. Это обеспечивает доступ к профессиональному внутреннему аудиту при оптимизации затрат.

Казахстан, имеющий сходную с Узбекистаном институциональную среду, успешно развивает систему внутреннего аудита в государственном секторе через: обязательную сертификацию государственных внутренних аудиторов, создание Методологического центра по внутреннему аудиту при Министерстве финансов, внедрение автоматизированных систем управления аудитом.

Приоритетные направления развития

5.1. Усиление институциональной независимости ПВА. Необходимо законодательно закрепить двойную подотчётность руководителей ПВА: административная — первому руководителю организации, функциональная — комитету по аудиту или наблюдательному совету. Для организаций без коллегиального органа управления следует рассмотреть функциональную подотчётность Министерству финансов как методологическому центру.

5.2. Разработка национальных стандартов внутреннего аудита в государственном секторе. На основе МСПП ВА и с учётом PSIAS (Великобритания) необходимо разработать национальные стандарты, адаптированные к правовой системе Узбекистана, включая требования к планированию, документированию, отчётности и мониторингу.

5.3. Профессионализация кадров. Введение обязательного требования сертификации CIA или квалификационного экзамена для руководителей ПВА

в государственных органах, создание системы непрерывного профессионального образования внутренних аудиторов.

5.4. Внедрение риск-ориентированного аудита. Разработка типовой методики оценки рисков для государственных органов, увязанной с системой стратегического планирования и управления операционными рисками.

5.5. Развитие аудита результативности. Постепенное включение в практику ПВА аудита эффективности государственных программ и проектов наряду с традиционным финансовым аудитом.

Заключение

Развитие системы внутреннего аудита в государственном секторе Республики Узбекистан на основе международных стандартов является стратегическим приоритетом реформирования системы государственного управления. Переход от контрольно-ревизионной функции к полноценному профессиональному внутреннему аудиту, ориентированному на добавленную стоимость, требует системных усилий в области правового регулирования, методологии, кадрового потенциала и организационной культуры. Международный опыт подтверждает реализуемость и окупаемость этих инвестиций.

Список использованной литературы

1. Закон Республики Узбекистан «О внутреннем аудите», 2019.
2. Постановления Кабинета Министров «О службе внутреннего аудита министерств и ведомств», 2022.
3. IIA. International Professional Practices Framework (IPPF). – Lake Mary: The Institute of Internal Auditors, 2017.
4. IIA. Three Lines Model. – Lake Mary: The Institute of Internal Auditors, 2020.
5. HM Treasury. Public Sector Internal Audit Standards (PSIAS). – London: HM Treasury, 2017.
6. COSO. Internal Control — Integrated Framework. – COSO, 2013.
7. OECD. Internal Audit in Central Government: Strengthening Performance and Accountability. – Paris: OECD Publishing, 2020.
8. Министерство финансов Республики Казахстан. Стандарты государственного аудита и финансового контроля. – Нур-Султан, 2021.

ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Ёдгоров Сардорбек Самадович
Преподаватель кафедры «Экономическая теория», ТГЭУ
e-mail: s.yodgorov@tsue.uz

В современную эпоху стремительных технологических преобразований финансовый сектор переживает эпоху инноваций, которые кардинально меняют подходы к управлению капиталами, анализу рисков и обеспечению финансовой стабильности. Внедрение современных финансовых технологий становится неотъемлемым элементом стратегий инвестиционной безопасности, предоставляя новые инструменты для мониторинга, оценки и

минимизации инвестиционных рисков. В условиях глобализованной экономики, характеризующейся высокой волатильностью и быстрыми изменениями рыночной ситуации, использование передовых технологических решений приобретает особенно важное значение для обеспечения надежности и устойчивости инвестиционных портфелей. Эта статья освещает современные направления развития финтеха, их роль в укреплении доверия инвесторов и формировании эффективных механизмов защиты инвестиций, а также анализирует перспективы интеграции инновационных технологий в финансовую практику.

Одним из ключевых направлений внедрения современных технологий стала разработка платформ для автоматизированного анализа рисков и мониторинга инвестиционных портфелей. Такие системы используют алгоритмы машинного обучения для выявления паттернов и прогнозирования возможных сценариев развития рыночных условий, что существенно повышает точность оценки рисков. Например, системы для количественного анализа мошенничества и аномалий позволяют своевременно выявлять подозрительные операции, минимизируя угрозу потерь для инвесторов.

Блокчейн-технологии, в свою очередь, обеспечивают безопасность и прозрачность сделок за счет децентрализованных реестров, которые практически невозможно изменить или подделать. Они позволяют внедрять смарт-контракты, автоматически исполняющие условия договоров, что снижает риск нарушения контрактных обязательств и исключает человеческий фактор.

Массовое накопление и анализ данных (Big Data) играет важную роль в современном финтехе для оценки и прогнозирования рыночных трендов, а также выявления потенциальных угроз. Методы аналитики позволяют учитывать широкий спектр информации — от финансовых показателей компаний до макроэкономических индикаторов, социальных сетей и новостных потоков.

Инструменты машинного обучения и искусственного интеллекта позволяют создавать модели, способные быстро адаптироваться к меняющейся ситуации и предоставлять рекомендации по сокращению рисков инвестиций. В результате инвесторы получают своевременную информацию о возможных угрозах и могут оперативно корректировать свои стратегии, что повышает уровень инвестиционной безопасности.

Учитывая повышенную киберугрозу в сфере финансов, особое значение приобретают современные решения в области кибербезопасности. Шифрование данных, многофакторная аутентификация, системы обнаружения вторжений и автоматического реагирования позволяют защищать финансовые платформы от несанкционированного доступа и кибератак.

Внедрение биометрических методов идентификации, таких как распознавание лиц и отпечатков пальцев, значительно повышает уровень защиты учетных записей и транзакций.

Несмотря на значительный потенциал финтеха в обеспечении инвестиционной безопасности, существуют ряд вызовов. Одним из них

является недостаточная регулятивная база, которая должна адаптироваться к новым технологическим реалиям, обеспечивая баланс между инновациями и защитой прав инвесторов. Также возникает риск недоступности новых технологий для небольших участников рынка и высокой сложности внедрения в существующие инфраструктуры.

Перспективы развития заключаются в расширении применения блокчейн-технологий, внедрении автоматических систем для контроля за соблюдением нормативных требований, а также в развитии концепции «финансовой нейтральности» — защитных технологий, позволяющих снизить технологические и операционные риски участников рынка.

Реализация потенциала современных финансовых технологий в области инвестиционной безопасности требует комплексных подходов, междисциплинарных исследований и постоянного совершенствования технологий. Важным направлением дальнейших исследований является интеграция технологий искусственного интеллекта и блокчейн-систем, а также разработка стандартов и нормативных актов, регулирующих их использование.

Подводя итог проведенному исследованию, можно констатировать, что внедрение современных финансовых технологий существенно трансформирует подходы к обеспечению инвестиционной безопасности, открывая широкий спектр возможностей для повышения надежности, прозрачности и эффективности инвестиционных процессов. В условиях динамично меняющегося финансового ландшафта, насыщенного технологическими инновациями, традиционные механизмы защиты инвесторов и активов должны быть дополнены и расширены с помощью современных цифровых решений, таких как блокчейн, искусственный интеллект, системы аналитики больших данных, автоматизированные платформы и кибербезопасность.

На основе анализа современных тенденций можно выделить ключевые преимущества использования этих технологий для обеспечения инвестиционной безопасности: увеличение уровня прозрачности сделок и операций за счет децентрализованных и неизменяемых реестров блокчейн; повышение скорости и автоматизации обработки данных, что снижает человеческий фактор и минимизирует операционные риски; возможность реализации комплексных систем мониторинга и предсказания рисков с помощью моделей машинного обучения и аналитических алгоритмов, позволяющих своевременно выявлять, оценивать и предотвращать потенциальные угрозы. Кроме того, новые технологии позволяют существенно укрепить киберзащиту инвестиционных платформ, что приобретает особое значение в условиях возрастания киберугроз и усложнения методов по взлому цифровых систем.

Однако, внедрение этих передовых решений сопряжено с рядом вызовов и ограничений. В их числе — необходимость формирования соответствующей нормативно-правовой базы, регулирующей использование новых технологий в сфере финансов, обеспечение информационной безопасности и защиты персональных данных, а также необходимость развития инфраструктуры и

компетенций специалистов, которые смогут эффективно управлять инновационными системами. Особую актуальность приобретает вопрос доверия со стороны инвесторов, которому могут препятствовать недостаточная прозрачность и страх перед потенциальными опасностями, связанными с новыми цифровыми рисками.

Исходя из вышесказанного, можно утверждать, что успешное применение современных финансовых технологий в сфере инвестиций требует комплексного, многоуровневого подхода, ориентированного не только на технологические инновации, но и на развитие нормативной базы, повышение финансовой грамотности участников, а также создание устойчивых механизмов регулирования и контроля. Значимым направлением дальнейших исследований представляется развитие интеграционных платформ, объединяющих различные цифровые решения, а также оптимизация стандартов безопасности информационных систем и методов защиты данных.

Список литератур

арабанова, Е. В., Клименко, В. Н., Инновационные решения в области финтеха: безопасность и регулирование. Экономика и управление, № 4 (2020), с. 65–73.
утник, А. В., Блокчейн и криптовалюты: возможности и риски для финансовых систем. Вестник Финансового университета, № 2 (2019), с. 101–110.
ванов, А. М., Современные финансовые технологии в инвестиционной деятельности: обзор и перспективы развития. Журнал финансовых исследований, № 3 (2022), с. 45–59.

MILLIY KAPITAL BOZORIDA INSTITUTSIONAL INVESTORLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI

Kamilova Sevara
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchi PhD
e-mail: sevarakamilova0607@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda milliy kapital bozorida institutsional investorlar faoliyati samaradorligini baholashning asosiy yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistondagi institutsional investorlar, tijorat banklari, sug‘urta kompaniyalari va davlat investitsiya fondlari, faoliyatining hozirgi holati tahlil qilinadi. Xorijiy davlatlar tajribasiga tayanib, samaradorlikni baholashning ko‘p o‘lchovli tizimi taklif etiladi. Tezisda keltirilgan empirik ma’lumotlar va ko‘rsatkichlar tizimi milliy kapital bozorini rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: institutsional investorlar, kapital bozori, samaradorlik baholash, portfel tahlili, O‘zbekiston moliya bozori.

Zamonaviy moliya tizimida institutsional investorlar, yirik kapital egasi sifatida, milliy iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat moliyaviy resurslarni safarbar etadi, balki kapital bozorining barqarorligini ta’minlashda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Aytish joizki, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda moliya bozorini liberallashtirish borasida katta qadamlar qo‘yildi: 2019-2022 yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha bir qator me’yoriy hujjatlar qabul qilindi, Toshkent fond birjasi faoliyati kengaytirildi, xorijiy investorlar uchun bozorga kirish imkoniyatlari ochildi [1].

Shunga qaramay, institutsional investorlar faoliyati samaradorligini tizimli baholash masalasi hali yetarlicha o‘rganilmagan.

Bizning fikrimizcha, bu boradagi bo‘shliqni to‘ldirish nafaqat ilmiy jihatdan, balki davlat siyosatini ishlab chiqish nuqtai nazaridan ham nihoyatda dolzarbdir. Institutsional investorlar faoliyatini to‘g‘ri baholamasdan turib, kapital bozorini samarali tartibga solish va uni rivojlantirish uchun adekvat chora-tadbirlar ishlab chiqib bo‘lmaydi [2].

O‘zbekiston kapital bozorida bir qancha turdagi institutsional investorlar faoliyat yuritadi. Ularning tarkibi, vakillik tashkilotlari va bozordagi ulushi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekistondagi institutsional investorlar tasnifi va aktivlar hajmi (2023 yil)

Institutsional investor turi	Vakillik tashkiloti	Aktivlar hajmi (mlrd so‘m, 2023)	Bozordagi ulushi (%)
Tijorat banklari	O‘zbekiston Respublikasi banklari	485 000	58,4
Sug‘urta kompaniyalari	IMV	12 400	1,5
Investitsiya fondlari	Xususiy fondlar	8 700	1,0
Davlatinvestitsiya fondlari	O‘zbekiston Davlat Aktivlari Boshqaruvi agentligi	289 000	34,8
Qimmatli qog‘ozlar fondlari	Toshkent fond birjasi ishtirokchilari	2 100	0,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [1], [3]

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston kapital bozorida tijorat banklari dominant mavqeni egallagan – ularning ulushi jami aktivlarning 58,4 foizini tashkil etadi. Bu rivojlangan moliya bozorlaridan tubdan farq qiladi: AQSH va Yevropa mamlakatlarida esa pensiya fondlari va sug‘urta kompaniyalari yetakchi o‘rinni egallaydi [2].

Davlat investitsiya fondlari ikkinchi o‘rinda turadi (34,8%). Pensiya jamg‘armalari va sug‘urta sektori esa hali nisbatan kichik ulushni tashkil etadi [3].

Institutsional investor turi	Bozordagi ulush (vizual)	Ulush
Tijorat banklari		**58.4%**
Davlat inv. fondlari		**34.8%**
Sug‘urta kompaniyalari		**1.5%**
Investitsiya fondlari		**1.0%**
Qimmatli qog‘ozlar fondlari		**0.4%**

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

1-rasm. O‘zbekiston kapital bozorida institutsional investorlarning ulushi (2023 yil, %)

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda institutsional investorlar faoliyati samaradorligini baholashning bir necha asosiy yondashuvi mavjud. Ularni uchta katta guruhga ajratish mumkin:

- moliyaviy ko‘rsatkichlarga asoslangan yondashuv — ROA, ROE, Sharpe va Treynor koeffitsientlarini qo‘llash;
- portfel tahlili yondashuvi — CAPM modeli, alfa va beta ko‘rsatkichlarini aniqlash;

- ma’lumotlar qamrovi tahlili (DEA) — texnik va taqsimot samaradorligini o‘lchash.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston sharoitida ushbu yondashuvlarning birortasi alohida holda to‘liq bo‘lmaydi. Milliy bozorning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks ko‘rsatkichlar tizimini qo‘llash maqsadga muvofiq [4]. Bunday tizim quyidagi 2-jadvalda aks ettirilgan.

2- jadval

Institutsional investorlar samaradorligini baholashning asosiy ko‘rsatkichlari tizimi

Ko‘rsatkich	Tavsif	Hisoblash formuli	Maqbul qiymat
ROA	Aktivlar rentabelligi	Sof foyda / Jami aktivlar	>2%
Sharpe koeffitsienti	Risk birligiga to‘g‘ri keluvchi daromad	(Rp - Rf) / σp	>1,0
Portfel diversifikatsiyasi	Aktivlar tarqalishi darajasi	HHI indeksi asosida	<0,25
Likvidlik koeffitsienti	Qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash	Likvid aktivlar / Majburiyatlar	>1,5
Xavf-daromad nisbati	Investitsiya xatarligi baholash	E(R) / VaR (95%)	>0,8
AUM o‘sishi	Boshqaruvidagi aktivlar o‘sishi	(AUMt - AUMt-1) / AUMt-1	>5% yillik

Manba: muallif tomonidan xorijiy adabiyotlar asosida tuzilgan [4], [5]

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Sharpe koeffitsienti va likvidlik koeffitsienti O‘zbekiston sharoitida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki milliy kapital bozorida likvidlik muammosi hali ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. ROA ko‘rsatkichi esa barcha turdagi institutsional investorlar uchun universal baholash mezoni vazifasini o‘taydi [5].

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi O‘zbekiston uchun qimmatli darslar beradi. 3-jadvalda bir qancha davlatlarning institutsional investorlar samaradorligini baholash modellari va ularni O‘zbekistonga tatbiq etish imkoniyatlari taqqoslab ko‘rsatilgan.

3- jadval

Institutsional investorlar samaradorligini baholashning xorijiy modellari va tatbiq etish imkoniyatlari

Davlat	Baholash modeli	Asosiy ko‘rsatkichlar	O‘zbekistonga tatbiq etish imkoniyati
AQSH	CAPM + Fama-French modeli	Alpha, Beta, Treynor indeksi	Yuqori — rivojlangan bozor infratuzilmasi talab etiladi
Germaniya	Risk-based baholash (BaFin)	Solvency II, stress-test	O‘rta — regulyatorlik bazasini kuchaytirish kerak
Qozog‘iston	Kompleks ko‘rsatkichlar tizimi	ROA, ROE, Sharpe, likvidlik	Yuqori — o‘xshash rivojlanish bosqichi
Janubiy Koreya	DEA samaradorlik tahlili	Texnik va taqsimot samaradorligi	O‘rta — ma’lumotlar bazasi rivojlantirilsa mumkin

Manba: xorijiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan [2], [4]

Qozog‘iston tajribasi O‘zbekiston uchun ayniqsa qiziqarli ko‘rinadi — ikkala mamlakat ham o‘tish iqtisodiyotining o‘xshash bosqichlarini boshdan kechirayotgan

bo‘lib, Qozog‘istonda institutsional investorlar samaradorligini baholashning kompleks tizimi 2015-2020 yillar davomida muvaffaqiyatli joriy etildi [3].

Aytish joizki, Yevropa modellarini (masalan, Germaniyaning Solvency II tizimini) to‘liq ko‘chirish mumkin emas. Ammo ularning ayrim elementlari, xususan, stressgacha sinovlari va kapital to‘liqligini baholash metodikasi, O‘zbekiston sug‘urta va pensiya tizimiga qisman tatbiq etilishi mumkin [5].

Yuqorida ko‘rib chiqilgan yondashuvlar va O‘zbekiston kapital bozorining hozirgi rivojlanish darajasini e’tiborga olib, quyidagi uch bosqichli baholash modelini taklif etamiz:

- birinchi bosqich — moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili: ROA, Sharpe koeffitsienti, likvidlik koeffitsienti va AUM o‘sishi asosida har bir investor turining bazaviy samaradorligini aniqlash;
- ikkinchi bosqich — portfel tahlili: HHI indeksi yordamida diversifikatsiya darajasini baholash va xavf-daromad nisbatini hisoblash;
- uchinchi bosqich — regulyatorlik muvofiqligini baholash: institutsional investorlarning kapital bazasini va ta’sir chegaralarini baholash.

Bizning fikrimizcha, ushbu model O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan nazorat vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin. Model har yillik monitoring tizimiga organik tarzda kiritilishi va dinamik ravishda yangilanib turishi lozim [4].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, taklif etilayotgan modelni qo‘llash institutsional investorlar faoliyatidagi zaif tomonlarni o‘z vaqtida aniqlash va zaruriy tuzatuvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida milliy kapital bozorining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi [1].

O‘tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin. Birinchidan, O‘zbekiston kapital bozorida institutsional investorlarning tarkibi hali takomillashmagan bo‘lib, tijorat banklarining ustun mavqei moliyaviy tizimning tarkibiy nomutanosibligidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, institutsional investorlar samaradorligini baholashda faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib bo‘lmaydi, portfel tahlili va regulyatorlik muvofiqligini ham qamrab oluvchi kompleks yondashuv zarur.

Uchinchidan, xorijiy, ayniqsa Qozog‘iston va Janubiy Koreya, tajribasi shuni ko‘rsatadiki, institutsional investorlar samaradorligini tizimli baholash kapital bozorining chuqurligi va likvidligini sezilarli darajada oshiradi [5]. Shu bois O‘zbekistonda ham bunday tizimni tezroq joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot 2023. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023. — 148 b.

2. International Monetary Fund. Global Financial Stability Report: Vulnerabilities in a High-Inflation Era. - Washington, D.C.: IMF, 2023. — 192 p.

3. Qozog‘iston Respublikasi Milliy banki. Institutsional investorlar nazorati bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar. - Olmaota: Qozog‘iston Milliy banki, 2021. - 64 b.

4. Amihud Y. Illiquidity and stock returns: Cross-section and time-series effects // Journal of Financial Markets. — 2002. — Vol. 5. — P. 31–56.

5. Davis E.P., Steil B. Institutional Investors. — Cambridge, MA: MIT Press, 2001. — 560 p.

ENERGETIKA XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGIGA TA’SIRI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
Bozorov Saidjon Hamidovich

Annotatsiya. Mazkur tezisda energetika xavfsizligini ta’minlashning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta’siri O‘zbekiston sharoitida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda energiya resurslaridan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilishning iqtisodiy o‘sish va makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, energetika xavfsizligini mustahkamlash orqali sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish va iqtisodiy xavflarni kamaytirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: energetika xavfsizligi, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy barqarorlik, energiya resurslari, qayta tiklanuvchi energiya, energetik infratuzilma, iqtisodiy o‘sish, O‘zbekiston iqtisodiyoti.

Annotation. This thesis analyzes the impact of ensuring energy security on the stability of the national economy in the context of Uzbekistan from scientific, theoretical, and practical perspectives. The study examines the influence of efficient use of energy resources, development of renewable energy sources, and modernization of energy infrastructure on economic growth and macroeconomic stability. In addition, scientific conclusions were developed on increasing industrial efficiency and reducing economic risks through strengthening energy security.

Keywords: energy security, national economy, economic stability, energy resources, renewable energy, energy infrastructure, economic growth, economy of Uzbekistan.

Аннотация. В данной тезисной работе исследуется влияние обеспечения энергетической безопасности на устойчивость национальной экономики в условиях Узбекистана с научно-теоретической и практической точек зрения. В исследовании изучено влияние эффективного использования энергетических ресурсов, развития возобновляемых источников энергии и модернизации энергетической инфраструктуры на экономический рост и макроэкономическую стабильность. Также разработаны научные выводы по повышению эффективности промышленного производства и снижению экономических рисков посредством укрепления энергетической безопасности.

Ключевые слова: энергетическая безопасность, национальная экономика, экономическая устойчивость, энергетические ресурсы, возобновляемая энергия, энергетическая инфраструктура, экономический рост, экономика Узбекистана.

Kirish

Bugungi kunda energetika xavfsizligini ta’minlash milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, global energetik

inqirozlar hamda iqlim o‘zgarishlari energetika tizimini modernizatsiya qilish zaruratini kuchaytirmoqda. O‘zbekiston sharoitida sanoat ishlab chiqarishi, transport va aholi turmush darajasining barqaror rivojlanishi energetika tarmog‘ining samaradorligiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanish va energetik infratuzilmani takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda energetika xavfsizligini ta’minlashning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Energetika xavfsizligi masalalari iqtisodiy barqarorlikning muhim omili sifatida ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) hisobotlarida energetika xavfsizligi energiya resurslarining uzluksiz va barqaror ta’minlanishi bilan bog‘liq strategik omil sifatida baholanadi. Tadqiqotlarda energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini kuchaytirishi ta’kidlangan.[2]

Jahon banki tadqiqotlarida energiya infratuzilmasining rivojlanishi sanoat ishlab chiqarishi hajmi va investitsion faollikka bevosita ta’sir etuvchi omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, energiya taqchilligi makroiqtisodiy beqarorlik, inflyatsion bosim va ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga olib kelishi qayd etilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mamlakat energetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish masalalari yoritilgan. Xususan, quyosh va shamol energetikasini rivojlantirishning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi.[3]

Natija va tahlillar

O‘zbekistonda energetika ko‘rsatkichlari va iqtisodiy barqarorlik dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, energetika xavfsizligini ta’minlash milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim strategik omil hisoblanadi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining oshishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining kengayishi hamda energetika sohasiga investitsiyalar hajmining ortishi sanoat ishlab chiqarishi va YAIM o‘sish sur’atlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Shuningdek, energetik infratuzilmaning modernizatsiya qilinishi iqtisodiyot tarmoqlarining uzluksiz faoliyat yuritishini ta’minlab, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish orqali energiya resurslaridan oqilona foydalanish va tashqi energetik xavflarni kamaytirish imkoniyati kengaymoqda. Natijada energetika xavfsizligini mustahkamlash iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda.

1-jadval

O‘zbekistonda energetika ko‘rsatkichlari va iqtisodiy barqarorlik dinamikasi[4]

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Elektr energiyasi ishlab chiqarish (mlrd kVt/soat)	66.5	71.1	74.3	78.2	81.5
Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	8	9.2	10.8	12.5	14.1
Sanoat ishlab chiqarishi o‘sishi (%)	0.7	8.4	5.3	6.1	6.5
YAIM o‘sish sur’ati (%)	1.9	7.4	5.7	6	6.3
Energiya iste’moli (mlrd kVt/soat)	69.8	72.4	76.1	80.3	83.6
Energetika sohasiga investitsiyalar (mlrd AQSH dollari)	2.1	2.8	3.4	4.2	5.1

Jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda energetika tizimining barqaror rivojlanish tendensiyasini ko‘rsatadi. 2020–2024-yillar davomida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 66.5 mlrd kVt/soatdan 81.5 mlrd kVt/soatga oshgan bo‘lib, bu iqtisodiyotning energiyaga bo‘lgan talabining ortib borayotganini ifodalaydi. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 8 foizdan 14.1 foizga yetgani mamlakatda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarining bosqichma-bosqich joriy etilayotganligini ko‘rsatadi.

Sanoat ishlab chiqarishi va YAIM o‘sish sur’atlarining ijobiy dinamikasi energetika xavfsizligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Energiya ta’minotining barqarorlashuvi ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish imkonini yaratgan. Ayniqsa, energetika sohasiga investitsiyalar hajmining 2020-yildagi 2.1 mlrd dollardan 2024-yilda 5.1 mlrd dollarga oshishi yangi energetik infratuzilma loyihalarining iqtisodiy ahamiyatini kuchaytirgan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, energetika xavfsizligini mustahkamlash milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash, investitsion faollikni oshirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, energetika xavfsizligini ta’minlash milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlovchi muhim omillardan biridir. Energiya resurslaridan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, energetika tizimining barqaror faoliyati sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini kuchaytirib, makroiqtisodiy xavflarni kamaytiradi. Shu sababli O‘zbekistonda energetika xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan islohotlarni davom ettirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–220-son Farmoni, “2025–2035-yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish strategiyasi”.

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi rasmiy ma’lumotlari – https://minenergy.uz

6. International Energy Agency (IEA). *World Energy Outlook 2024*. – https://www.iea.org/reports/world-energy-outlook-2024

7. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi rasmiy ma’lumotlari. – https://minenergy.uz

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi – https://stat.uz

CONTENT MARKETING VA SEO: 2025-YIL TENDENSIYALARI

Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

KIRISH

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bilan birga kontent marketing va qidiruv tizimlarini optimallashtirish (SEO) sohasida ham inqilobiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. 2025-yilga kelib sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining qidiruv tizimlariga ommaviy tatbiq etilishi, foydalanuvchi xulq-atvorining o‘zgarishi va kontentga bo‘lgan talablarning keskin ortishi ushbu sohadagi asosiy tendensiyalarni belgilab berdi. Ushbu tezis Content Marketing va SEO ning 2025-yilgi asosiy tendensiyalarini ilmiy jihatdan tahlil qiladi, amaldagi empirik ma’lumotlar va tadqiqotlar asosida muhim xulosalar chiqaradi.

HubSpotning Marketingning holati bo‘yicha hisobotiga muvofiq, 2024-yilda B2B brendlar uchun eng yuqori daromad (ROI) keltirgan kanallar qatorida veb-sayt, blog va SEO birinchi o‘rinni egalladi. Semrush tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, AI integratsiyasi tufayli bizneslarning 68 foizi kontent marketing va SEO bo‘yicha ROI o‘sishini qayd etgan. Bu raqamlar ushbu sohaning zamonaviy marketing ekotizimidagi strategik ahamiyatini yaqqol aks ettiradi.

Tadqiqotning maqsadi – 2025-yil kontent marketing va SEO sohasidagi beshta asosiy tendensiyani ilmiy asosda tahlil qilish, ularning biznesga ta’sirini baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ASOSIY TENDENSIYALAR TAHLILI

Google Search Generative Experience (SGE) va AI Overviews ning keng joriy etilishi SEO ning fundamental paradigmasini o‘zgartirdi. 2025-yil mart oyida Google AI Overviews Yevropa mamlakatlariga ham kengaytirildi, 2025-yil may oyidan esa Google AI Mode AQSh foydalanuvchilari uchun to‘liq ochildi. Bu holat «zero-click» qidiruvlarning barcha Google so‘rovlarining 60 foiziga yetishi bilan birgalikda kontent strategiyasida tub o‘zgarishlarni talab qilmoqda.

WebFXning 2,3 milliard sessiyani qamrab olgan keng qamrovli tadqiqotiga muvofiq, generativ AI dan kelgan trafik 2024–2025 yillar davomida 796 foizga o‘sdi. Bundan tashqari, AI orqali kelgan tashrif buyuruvchilar organik qidiruvga nisbatan 1,2 baravar yuqori konversiya ko‘rsatkichini namoyon etdi. Boomcycle Digital Marketing aniqlagan ma’lumotlarga ko‘ra, marketologlarning 65 foizi AI vositalaridan foydalanib SEO natijalarini yaxshilagan, biroq Google insoniy ekspertizaga asoslangan kontentni ustuvor sifatida baholamoqda. Ushbu o‘zgarishga muvofiq, korxonalar uchun Generativ Qidiruv Tizimlarini Optimallashtirish (GEO – Generative Engine Optimization) yangi strategik yo‘nalishga aylandi. GEO

ishonchli nashrlar tomonidan media tilg‘inlari, strukturalangan ma’lumotlar va ekspert sitatlarini o‘z ichiga oladi.

E-E-A-T prinsipi va insoniy markazlashgan kontent

Google ning Expertise (Ekspertiza), Experience (Tajriba), Authoritativeness (Obro‘-e’tibor) va Trustworthiness (Ishonchlilik) - E-E-A-T tamoyili 2025-yilda yangi strategik muhimlikka ega bo‘ldi. Qidiruv tizimi algoritmlarining rivojlanishi bilan birga, faqat AI tomonidan yaratilgan kontent emas, balki real insoniy tajriba va ekspertizaga asoslangan kontent ustuvor qo‘yilmoqda. Boomcycle tahlillariga ko‘ra, eng yuqori o‘rinlarda joylashgan Google sahifalarining 97 foizi kamida bitta rasmni o‘z ichiga oladi, bu esa kontent boyligining ahamiyatini tasdiqlaydi.

AI vositalaridan foydalanish kontent yaratish samaradorligini oshirishga yordam bersa-da, HubSpot ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 90 foiz marketologlar allaqachon ish faoliyatida generativ AI vositalaridan foydalanmoqda. Biroq insoniy nazorat va tahrirlash zaruriy shart bo‘lib qolmoqda, chunki Google AI kontent sifatining emas, foydalilik va originalligining ko‘rsatkichi sifatida baholanadi.

Video kontent va interaktiv formatlar dominantligi

2025-yilda video kontent barcha marketing formatlarining eng yuqori ROI ni ta’minlovchi vositasi sifatida mustahkamlandi. Firework tadqiqotiga ko‘ra, video kontent matniy kontentga nisbatan ROI ni 49 foiz tezroq ta’minlaydi. Global video reklama bozori 2024-yilda 190 milliard dollardan oshdi va 2025-yilda 200 milliard dollarni kesib o‘tishi prognoz qilinmoqda. Wistia ma’lumotlariga muvofiq, marketologlarning 78 foizi video kontent ishlab chiqarishni oshirishni rejalashtiryapti.

Siege Media va Wynter qo‘shma tadqiqotida interaktiv kontentdan foydalanadigan marketologlarning 44,4 foizi strategiyasini muvaffaqiyatli deb baholashi, bu ko‘rsatkich interaktiv kontent ishlatmaydigan marketologlarda esa 39,9 foizda qolishi aniqlangan. Bundan tashqari, 2025-yilda kontent marketologlar orasida eng asosiy muammo sifatida kontentni reytingga chiqarish (77,6%) va foydalanuvchi maqsadiga javob berish (70,6%) ko‘rsatilgan.

Topik obro‘ (Topical Authority) va semantik SEO

2025-yil SEO landshaftida alohida kalit so‘zlarga emas, balki mavzu bo‘yicha to‘liq obro‘ga (Topical Authority) ega bo‘lish strategik ustunlik manbai bo‘lib qoldi. Bu yondashuv ma’lum bir soha bo‘yicha chuqur va keng qamrovli kontent ekotizimini yaratishni talab qiladi. Search Engine Land tahlillariga ko‘ra, brendlar Topik obro‘sini qo‘llab-quvvatlovchi birinchi qo‘l tadqiqotlar, ekspert sitatlar va sanoat hisobotlarida tilg‘inlar orqali qurishi lozim.

Semantik SEO ning rivojlanishi natijasida kalit so‘zlar strategiyasidan maqsad va kontekst asosida kontent yaratishga o‘tildi. SeoProfy (2025) ma’lumotlariga ko‘ra, B2B SaaS sohasida SEO ning o‘rtacha ROI 702 foizni tashkil etadi va daromad nuqtasiga atigi 7 oyda erishiladi. Bundan tashqari, B2B kompaniyalar boshqa kanallar bilan taqqoslaganda SEO orqali ikki baravar ko‘proq daromad olmoqda.

Ma’lumotlarga asoslangan kontent strategiyasi va AI integratsiyasi

Kontent marketing sohasidagi eng muhim 2025-yil tendensiyalardan biri – AI vositalarini ma’lumotlar tahlili va kontent optimallashtirish uchun strategik qo‘llash.

Semrush tadqiqotiga muvofiq, AI integratsiyasi tufayli kontent marketing va SEO bo‘yicha ROI o‘sishini qayd etgan bizneslar ulushi 68 foizga yetgan. Accenture prognozlariga ko‘ra, mijoz tajribasini yaxshilash uchun generativ AI dan foydalanadigan kompaniyalar besh yil ichida faqat samaradorlikka e’tibor qaratadigan kompaniyalarga nisbatan 25 foiz ko‘proq daromad olishi mumkin.

HubSpotning State of Marketing hisobotiga ko‘ra, AI investitsiyalaridan daromad olgan marketing rahbarlari ulushi 68 foizni tashkil etdi. McKinsey tadqiqotlari esa AI ga sarmoya kiritgan korxonalar 3 dan 15 foizgacha daromad o‘sishi va sotuvlar ROI dan 10 dan 20 foizgacha yutuq olishini ko‘rsatmoqda. 2026-yilga borib marketologlarning 94 foizi AI vositalarini kontent yaratish va blogging jarayonlariga integratsiya qilishni rejalashtirmoqda.

MUHOKAMA VA TAHLIL

Yuqoridagi tendensiyalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2025-yil kontent marketing va SEO sohasida uchta asosiy o‘zgarish markaziy ahamiyat kasb etmoqda. Birinchidan, AI ning qidiruv ekotizimiga integratsiyasi kontent uchun yangi “ko‘rinish” qoidalarini belgilab berdi: endi nafaqat qidiruv tizimida, balki AI javob generatorlarida ham ko‘rinish uchun kontent yaratish zarur. Ikkinchidan, insoniy tajriba va ekspertizaning benuvoqligi tobora qimmatli aktivga aylanmoqda, chunki AI generatsiyasidan farqli o‘laroq, haqiqiy tajriba asosida yaratilgan kontent qidiruv tizimlari tomonidan ustuvor baholanmoqda. Uchinchidan, kontent marketing ROI ni o‘lchash va attributsiya qilish yangi darajadagi murakkablikka ega bo‘lmoqda.

Kontent marketing uchun sarflangan har bir dollar 3 dollar daromad keltirishi (Revenue Zen), an’anaviy marketingga nisbatan 62 foiz arzon tushishi va 3 baravar ko‘proq lead generatsiya qilishi (Content Marketing Institute) isbotlangan holda, bu strategiyaga investitsiyalar asoslangan va zaruriyligi ko‘rinib turibdi.

2025-yilning o‘ziga xosligi shundaki, content marketing va SEO ni alohida mustaqil yo‘nalishlar sifatida ko‘rish eskirgan yondashuv hisoblanadi. Kontent yaratish, texnik SEO, GEO, ijtimoiy tarmoqlar va brendning umumiy raqamli obro‘si – bularning barchasi yaxlit ekotizim sifatida boshqarilishi zarur. Content Marketing Institute (CMI, 2024) tadqiqotiga ko‘ra, B2B kompaniyalarining 79 foizi kontent marketing strategiyasiga ega, biroq ularning faqat bir qismi bu strategiyani yaxlit va integratsiyalashgan tarzda amalga oshirmoqda.

XULOSA

Ushbu ilmiy-tahliliy tezis 2025-yil kontent marketing va SEO sohasidagi beshta asosiy tendensiyani empirik ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqdi. Tahlil natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

Birinchi xulosa: Generativ AI ning qidiruv tizimlariga kirib kelishi “zero-click” qidiruvlar ulushini 60 foizga oshirdi va GEO ni yangi strategik zaruratga aylantirdi. Kompaniyalar kontent strategiyasini nafaqat an’anaviy SEO, balki AI javob generatorlariga ko‘rinish uchun ham optimallashtirishi shart.

Ikkinchi xulosa: Insoniy tajriba, ekspertiza va ishonchlilik (E-E-A-T) tamoyili 2025-yilda kontent marketing sifatining asosiy o‘lchovi bo‘lib qoldi. AI generatsiyalangan kontent vosita sifatida qo‘llansa-da, yakuniy kontent insoniy nazorat va ekspertiza asosida taqdim etilishi zarur.

Uchinchi xulosa: Kontent marketing an’anaviy marketingga nisbatan 62 foiz arzonroq bo‘lib, har bir sarflangan dollarga 3 dollar daromad keltiradi. AI integratsiyasi bu ko‘rsatkichni yanada yaxshilash imkonini beradi.

Kelajak tadqiqotlar uchun tavsiya: O‘zbekiston bozorida kontent marketing va SEO tendensiyalarining amaliy tatbiqini o‘rganish, mahalliy kompaniyalarning raqamli transformatsiya darajasini baholash va milliy kontent ekotizimini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. HubSpot. (2025). State of Marketing Report 2025. HubSpot Inc. https://www.hubspot.com/state-of-marketing

2. Semrush. (2025). Content Marketing Statistics 2025. Semrush Inc. https://semrush.com/blog/content-marketing-statistics

3. WebFX Research. (2026). AI Traffic Grew 796% & Out-Converts Organic Search: Analysis of 2.3 Billion Sessions. WebFX. https://www.webfx.com/blog/seo/gen-ai-search-trends/

4. Boomcycle Digital Marketing. (2025). SEO Trends in 2025: It’s an AI-First Search World. https://boomcycle.com/blog/seo-trends-in-2025-adapting-to-ai-first-search

5. Search Engine Land. (2025). How AI is reshaping SEO: Challenges, opportunities, and brand strategies for 2025. https://searchengineland.com/how-ai-is-reshaping-seo

6. SeoProfy. (2025). 71 B2B SEO Statistics for 2025–2026. https://seoprofy.com/blog/b2b-seo-statistics/

7. Siege Media & Wynter. (2025). 70+ Key Content Marketing Statistics for 2025. https://www.siegemedia.com/strategy/content-marketing-statistics

8. Revenue Zen. (2025). Content Marketing ROI — 45 Statistics Every Marketing Leader Should Know. https://genesysgrowth.com/blog/content-marketing-roi-stats-for-marketing-leaders

9. Content Marketing Institute. (2024). B2B Content Marketing Benchmarks, Budgets, and Trends 2024. CMI Research Report.

10. McKinsey & Company. (2023). The economic potential of generative AI: The next productivity frontier. McKinsey Global Institute.

11. Evergreen Media. (2025). SEO Trends 2026: Developing Strategies for the AI Era. https://www.evergreen.media/en/guide/seo-this-year/

12. Accenture. (2024). Generative AI and the Future of Customer Experience. Accenture Research.

13. Wistia. (2024). State of Video Report 2024. Wistia Inc.

14. Firework. (2024). Video Content ROI Benchmark Report. Firework Research.

REAL SEKTOR KORXONALARINI MOLIYALASHTIRISHDA ISLOM MOLIYASINING O‘RNINI OSHIRISH YO‘LLARI

Hakimova Sevara Rustam qizi
TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti assistenti
e-mail: sevara-mm@mail.ru

Bugungi globallashuv sharoitida dunyo moliyaviy tizimi turli muqobil yondashuvlarni izlashni talab qilmoqda. Shunday yondashuvlardan biri — Islom moliyasi bo‘lib, u o‘zining shariatga asoslangan tamoyillari bilan iqtisodiy adolat, halollik, foizdan voz kechish, real aktivlar bilan ta’minlangan moliyalashtirish orqali barqarorlikni ta’minlashga intiladi.[53]

Islom moliyasi shariat tamoyillari bilan ish olib boruvchi aktivlar bilan ta’minlanadigan moliyalashtirishning turi hisoblanadi. An’anaviy moliyada tashkilotlar pul va qimmatli qog‘ozlar bilan ishlashadi, shariat esa ba’zi holatlardan tashqari pulni bitim ob’ekti sifatida tan olmaydi. Chunki pul qiymatga ega bo‘lmagan holda, faqatgina ayirboshlash vazifasini bajaradi. 2018 yildan boshlab O‘zbekistonda islom moliyasini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha say-harakatlar boshlandi.

Dastlabki qadamlar moliyaviy xizmatlar bozorida islom moliyasi tomonidan taklif etiladigan xizmatlarni keng tatbiq etishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishdan boshlandi. 2021 yil 13 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6207 sonli Qarori bilan Moliya vazirligiga islom moliyalashtirish tamoyillari asosida qimmatli qog‘ozlar bozoriga oid oid qonunchilik bazasini shakllantirish vazifasi yuklandi. 2022 yil 21 aprelda “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-765 sonli Qonuni qabul qilindi. Ushbu hujjatda islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarga tarif bergan holda, nobank kredit tashkilotlari tomonidan bunday xizmatlarni ko‘rsatishga ruxsat berildi. 2024 yil 26 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (3536 raqam bilan ro‘yxatga olingan) qabul qilindi. Mazkur qarorda quyidagi islomiy moliya xizmat xizmatlarini ko‘rsatish tartibi belgilab qo‘yilgan: - Nasiya savdoga asoslangan moliyalashtirish (murobaha) xizmatini ko‘rsatish; - Islomiy ijara xizmatlarini ko‘rsatish; - Ijara ob’ektini keyinchalik sotib olish sharti asosida (ijara muntahiyya bittamlik) islomiy ijara xizmatini ko‘rsatish; - Foydani taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish (muzoraba) xizmatini ko‘rsatish; - Sherikchilik – foyda va zararlarni taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish (mushoraka) xizmatini ko‘rsatish. Shariat bo‘yicha moliyalashtirishning eng mukammal instrumentlari mushoraka va muzoraba hisoblanadi. Investorlarning ikkala moliyaviy instrument orqali kiritgan investitsiyalari tijorat faoliyati davomida real aktivlarga aylanadi. Foyda esa yaratilgan real aktivlar realizatsiyasidan ishlab topiladi.

[53] Abdullaev, F., & Tursunov, U. (2021). Islom moliyasi va uning xalqaro tizimdagi o‘rni. Toshkent: O‘zbek Milliy Universiteti nashriyoti.

Islom moliyasi bo‘yicha tadqiqotchi-ekspert J.Imamnazarov tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda biznes vakillarining 38 foizi, hamda jismoniy shaxslarning 55 foizi diniy qarashlari sababli an’anaviy kreditlardan foydalanmasliklarini aytishgan. Aholisining 93 foizini musulmonlar tashkil etadigan mamlakatimizda islom moliyasiga talab oshib bormoqda.

Lekin, normativ-huquqiy hujjatlar bazasining yetishmovchiligi, islom moliyasi asosida qurilgan biznes jarayonlarni soliqqa tortish mexanizmi va boshqaruv infratuzilmasi ishlab chiqilmaganligi hamda moliyaviy xizmatlarni taklif etuvchi tashkilotlarni sertifikatlash tizimining yo‘qligi ushbu bozorning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Misol uchun, Global Islamic Fintech yillik hisobotiga ko‘ra O‘zbekistondan faqatgina IMAN Invest tashkiloti moliyaviy xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi tashkilot sifatida ro‘yxatga oligan.

o

ь

‘rmisol sifatida “IMAN Invest” faoliyati Islom moliyasining mamlakatimizdagi real

ь

ъa

to

‘a Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

y 1.Mufti Muhammad Taqiy Usmoniy (2023) “Islom moliyasiga kirish”, 6-120

ь betlar.

tO 2. Jahongir Imamnazarov (2020) “Islom moliyasi mahsulotlarini g‘O

‘ z b ekistonda tatbiq qilish va qo‘llash yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari

ь o‘yicha tahliliy hisobot”, 36-38 betlar.

’n 3.https://www.ubldigital.com/Banking/UBL-Ameen/Knowledge-

Center/Differencesbetween-Conventional-Bank-and-Islamic-Bank

‘“ 4. https://lex.uz/ru/ (O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy

Ibazasi)

M 5. DinarStandard and Elipses (2022) Global Islamic Fintech Report, 41-bet

A

МАҲАЛЛА ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

” ***М.К.Абдуллаева, Тошкент давлат иқтисодиёт университе***

o ***доценти, и.ф.н.***

‘ Мамлакатимизда маҳалла институти асрлар давомида жамиятни ташкил эо т увчи муҳим ижтимоий тузилма сифатида шаклланган бўлиб, бугунги кунда ‘у давлат ва жамият ўртасидаги асосий боғловчи бўғинга айланиб бормоқда. Ɜамонавий шароитда маҳалланинг функциялари нафақат ижтимоий назорат ва ‘анъанавий муносабатларни сақлаш, балки ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳ ал этиш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва давлат хизматларини етказиш ‘билан ҳам боғлиқ.Ўзбекистонда сўнгги йилларда амалга оширилаётган ɡ слоҳотлар ижтимоий сиёсатни маҳалла даражасигача туширишга қаратилган ‘бўлиб, бу жараён “маҳаллабай” ёндашув сифатида шаклланмоқда. Мазкур ө ндашув аҳоли даромадларини ошириш, бандликни таъминлаш ва ‘камбағалликни қисқартиришда муҳим институционал механизм сифатида о

‘

намоён бўлмоқда.Статистик маълумотларга кўра, мамлакатда камбағаллик даражаси 2023 йилда 14 фоиздан 2025 йилда 5,8 фоизгача пасайган . Бу натижаларда маҳалла институтининг роли сезиларли бўлиб, ижтимоий-иқтисодий сиёсатнинг локаллашуви муҳим аҳамият касб этмоқда.

Маҳалла институтини замонавий иқтисодий назария нуқтаи назаридан локал ривожланиш драйвери сифатида баҳолаш мумкин. Унинг асосий функциялари: ижтимоий ҳимояни таъминлаш, меҳнат ресурсларини бошқариш, маҳаллий иқтисодий фаолликни рағбатлантиришдан иборат.

Ўзбекистонда камбағалликни қисқартириш сиёсатида янги модел — “маҳаллабай ишлаш” тизими жорий этилди. Унинг асосий элементлари: ҳар бир оилани индивидуал таҳлил қилиш, манзилли ижтимоий ёрдам,бандликни таъминлаш. Натижада 1,5 млн нафар аҳоли камбағалликдан чиқарилди, 1435 та маҳалла “камбағалликдан холи” деб эътироф этилди.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, камбағалликни қисқартириш ҳудудлар кесимида турлича кечмоқда. Энг юқори натижалар агар биз ститсик маълумотларга аҳамият берсак, Жиззах вилояти 2023 йилда 11,8% дан 2025 йилдаи 5,8% га, Хоразм вилоятида 2023 йилдаи 11,9% фоиздан 2025 йилда 6,7% фоизга, Сирдарё вилоятида 2023 йилда 11,3% дан 2025 йилда 6,2% га тушди. Бу ҳудудларда маҳалла институти бандликни таъминлаш, тадбиркорликни ривожлантириш, ижтимоий ёрдамни манзилли етказиш орқали юқори самарадорликка эришган. Маҳаллаларда иқтисодий ривожланишни таъминлаш учун ихтисослашувни чуқурлаштириш, маҳаллий ресурслардан фойдаланиш, кичик бизнесни ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга.

Маҳалла институти фаолияти қуйидаги механизмлар орқали кучайтирилмоқда: “Маҳалла лойиҳаси”, Инфратузилма ривожланиши, Лойиҳа асосида ривожланиш.

Сўнгги йилларда маҳалла институтининг роли сезиларли даражада кенгайди. Унинг вазифалари қуйидагиларни қамраб олмоқда: ижтимоий ҳимояни ташкил этиш, аҳоли бандлигини таъминлаш, камбағалликни қисқартириш, тадбиркорликни ривожлантириш

Маҳалла институти анъанавий ижтимоий институтдан локал бошқарув субъектига айланмоқда. Бу эса унинг институционал имкониятларини кенгайтиришни талаб қилади.

Ҳудудлардаги ижтимоий-иқтисодий муаммоларни жойида ҳал этиш учун маҳаллаларга қуйидаги ваколатларни бериш мақсадга мувофиқ: маҳаллий бюджет маблағларини тақсимлашда иштирок этиш, ижтимоий лойиҳаларни мустақил амалга ошириш, аҳолининг эҳтиёжларидан келиб чиқиб қарор қабул қилиш

Молиявий мустақилликни кучайтириш маҳаллий ташаббусларни рағбатлантиради, ресурслардан самарали фойдаланишни таъминлайди, маҳалланинг жавобгарлигини оширади. Маҳалла фаолиятини рақамлаштириш — унинг самарадорлигини оширишнинг асосий омилларидан бири ҳисобланади. Асосий йўналишлар: аҳоли билан ишлаш жараёнларини электрон шаклга ўтказиш, маълумотлар базасини шакллантириш, давлат

органлари билан интеграция. Рақамлаштириш: коррупция хавфини камайтиради, ҳар бир қарорни кузатиш имконини беради. Бу эса ўз навбатида Рақамли хукумат моделига мос келади. “Маҳалладан туриб давлат идораларига мурожаат қилиш” платформаси қуйидагиларга олиб келади: бюрократик тўсиқларни камайтиради, хизматларни тезлаштиради, аҳоли розилигини оширади

Маҳалла даражасида хизмат кўрсатиш тизимини йўлга қўйиш: давлат хизматларининг аҳолига яқинлашувини таъминлайди, вақт ва харажатларни камайтиради, ижтимоий тенгликни кучайтиради. Ҳар бир маҳалланинг иқтисодий ихтисослашувидан келиб чиқиб: тадбиркорликни ривожлантириш, маҳаллий ресурслардан фойдаланиш, кластер усулини жорий этиш муҳимдир. Бундай шароитда асосий йўналишлар сифатида: томорқа хўжалиги, чорвачилик, кичик бизнес, хизмат кўрсатиш соҳаси.

Маҳалла тизими самарадорлиги кадрлар сифатига бевосита боғлиқ. Шунинг учун: маҳалла раислари учун махсус ўқув дастурлари, ҳоким ёрдамчилари учун амалий кўникмалар, молия, банк, ер муносабатлари бўйича билимларни янада кенгайтириш муҳим.

Маҳалла тизими самарадорлиги бевосита инсон капитали сифатига боғлиқ бўлиб, бу масала локал бошқарув назариясида алоҳида аҳамият касб этади. Ўзбекистонда амалга оширилаётган “маҳаллабай ишлаш” модели шароитида маҳалла раислари ва ҳоким ёрдамчилари фақат маъмурий вазифаларни бажарувчи эмас, балки ижтимоий-иқтисодий ривожланишни таъминловчи маҳаллий бошқарувчилар сифатида намоён бўлмоқда. Шу нуқтаи назардан, кадрлар малакаси ва компетенциялари маҳалла институти самарадорлигининг асосий детерминанти ҳисобланади.

Илмий адабиётларда инсон капитали назариясига кўра, билим ва кўникмаларнинг ошиши меҳнат унумдорлигини ва бошқарув сифатини яхшилайди. Маҳалла тизимида бу қуйидагича намоён бўлади: малакали раҳбар аҳолининг эҳтиёжларини аниқ баҳолай олади, ресурсларни самарали тақсимлайди ва манзилли ижтимоий сиёсатни амалга оширади. Аксинча, билим ва кўникмалар етишмаслиги қарор қабул қилишда хатоларга, ресурслар самарасиз сарфланишига ва ижтимоий муаммоларнинг чуқурлашишига олиб келиши мумкин.

Шунинг учун ҳам Маҳалла тизимини самарали бошқаришда бошқарув компетенциялари, иқтисодий таҳлил кўникмалари, ижтимоий ишлаш маданиятини шакллантириш лозим.

Ўзбекистонда маҳалла институтини ривожлантириш қуйидаги стратегик йўналишларни талаб қилади: институционал ваколатларни кенгайтириш, молиявий мустақилликни таъминлаш, рақамлаштиришни чуқурлаштириш, кадрлар салоҳиятини ошириш, маҳаллий иқтисодий ривожланишни қўллаб-қувватлаш.

Илмий нуқтаи назардан, маҳалла институти локал бошқарувнинг самарали модели сифатида шаклланиши мумкин. Маҳалла институтининг самарадорлигини ошириш — бу нафақат бошқарув ислоҳоти, балки жамиятни барқарор ривожлантиришнинг стратегик омилидир. Ижтимоий ҳимоя

тизимидаги энг муҳим ўзгариш — манзиллилик даражасининг ошиши ҳисобланади. Рақамлаштирилган “ижтимоий реестр” орқали: ҳақиқий эҳтиёжманд аҳоли аниқланмоқда, нотўғри тақсимот камаймоқда, бюджет харажатлари оптималлашмоқда. Миллий моделимизда ижтимоий ҳимоя қуйидаги субъектлар ўртасида амалга оширилмоқда: давлат органлари, маҳалла институти, банк ва молия тизими орқали. Рақамлаштириш эса ижтимоий ҳимоя тизимини: тезкор, шаффоф. ҳисобдор қилишини таъсинламоқда.

Бу жараёнда монеторинг тизимини кучайтириш ва реал вақт давомида аниқ қарорларни қабул қилиш рақамли платформаларни замонавий жиҳатдан амалий ёндошувларда муҳимлигини кўрастади. Чунки мониторинг тизимини шаффофлиги давалат харажатларини самарали бошқаришга ижобий туртки беради.

Юқоридаги таҳлиллар асосида қуйидаги илмий хулосаларни чиқариш мумкин, Ўзбекистон тажрибаси шуни кўрсатадики, ижтимоий ҳимояни маҳалла даражасига тушириш: ахборот аниқлигини оширади, манзиллиликни таъминлайди, ижтимоий адолатни кучайтиради. Ўзбекистон моделида ижтимоий сиёсат: пассив трансферт эмас, балки иқтисодий фаолликни рағбатлантирувчи инструментидир.

Ўзбекистонда ижтимоий сиёсат сўнгги йилларда мазмунан трансформацияланиб, анъанавий пассив трансфертлар моделидан (яъни фақат нафақа ва компенсациялар бериш) иқтисодий фаолликни рағбатлантирувчи фаол моделга ўтди. Бу ўзгариш Ўзбекистонда амалга оширилаётган “маҳаллабай ишлаш” тизими билан узвий боғлиқ бўлиб, у ижтимоий ҳимояни иқтисодий ривожланиш сиёсатининг таркибий қисмига айлантирди.

Анъанавий иқтисодий назарияга кўра, пассив ижтимоий ёрдам қисқа муддатда камбағалликни юмшатиши мумкин, аммо у узоқ муддатда меҳнатга бўлган рағбатни пасайтириши эҳтимоли мавжуд. Ўзбекистон модели эса бу чекловни бартараф этишга қаратилган. Яъни, давлат томонидан ажратилаётган ресурслар фақат истеъмолни қўллаб-қувватлашга эмас, балки даромад яратиш имкониятларини шакллантиришга йўналтирилмоқда.

Аниқ фактлар шуни кўрсатадики, ижтимоий сиёсат доирасида аҳолига нафақа бериш билан чекланилмай, уларни иқтисодий фаолиятга жалб этиш механизмлари жорий этилган. Жумладан, “маҳалла лойиҳаси” доирасида банк кредитлари, субсидиялар ва грантлар орқали аҳолига тадбиркорликни бошлаш имконияти яратилди. Натижада, сўнгги йилларда миллионлаб фуқаролар доимий даромад манбаига эга бўлди, юз минглаб оилалар камбағаллик тоифасидан чиқди. Бу эса ижтимоий сиёсатнинг пассив эмас, балки инвестицион характерга эга эканини кўрсатади.

Иқтисодий сиёсат нуқтаи назаридан, мазкур ёндашув инсон капиталига инвестиция концепциясига мос келади. Яъни, давлат ижтимоий ёрдамни харажат сифатида эмас, балки келажакда иқтисодий ўсишни таъминловчи инвестиция сифатида қарамоқда. Масалан, касб-ҳунарга ўқитиш, бизнес кўникмаларини шакллантириш ва меҳнат бозорига интеграция қилиш орқали аҳоли ўзини ўзи таъминлаш даражасига чиқмоқда.

Шу билан бирга, ижтимоий сиёсат меҳнат бозори билан чамбарчас боғланган. Маҳалла даражасида ишсиз аҳоли аниқланиб, уларга иш ўринлари ёки тадбиркорлик имкониятлари таклиф этилмоқда. Бу жараён иқтисодий назарияда фаол меҳнат бозори сиёсати деб аталади. Унинг афзаллиги шундаки, давлат фақат ёрдам бермайди, балки аҳолини ишлаб чиқариш жараёнига қайта жалб қилади.

Рақамлаштириш ҳам ушбу моделнинг муҳим элементи ҳисобланади. “Ижтимоий реестр” орқали эҳтиёжманд аҳоли аниқланиб, уларга мос иқтисодий имкониятлар таклиф этилмоқда. Бу эса ресурсларнинг самарали тақсимланишини таъминлаб, бюджет харажатларининг самарадорлигини оширади. Иқтисодий жиҳатдан бу ресурсларни оптимал тақсимлашнинг ошиши билан изоҳланади.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон моделида ижтимоий сиёсат трансфертларга асосланган пассив тизимдан иқтисодий фаолликни рағбатлантирувчи фаол механизмга айланди. Бу модел нафақат камбағалликни қисқартириш, балки аҳолининг иқтисодий мустақиллигини таъминлаш ва узоқ муддатли иқтисодий ўсишни рағбатлантиришга хизмат қилмоқда. Шу жиҳатдан, мазкур ёндашув замонавий иқтисодий сиёсатнинг энг самарали йўналишларидан бири сифатида баҳоланиши мумкин.

THE ROLE OF PUBLIC TRANSPORTATION OPTIMIZATION IN REDUCING URBAN TRAFFIC CONGESTION: EVIDENCE FROM TASHKENT CITY

Abdullajonova Madina student of Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan,
e-mail: abdullajonovam2516@gmail.com

Несмотря на теоретическую надежность метода, на практике аудиторы сталкиваются с серьезными препятствиями, которые снижают эффективность процедур. Прежде всего, острой проблемой остается крайне **низкий коэффициент отклика контрагентов**, который в среднем по рынку составляет не более 60–70%. В условиях отсутствия законодательной обязанности отвечать на запросы, многие компании просто игнорируют письма аудиторов, что вынуждает их переходить к менее надежным альтернативным процедурам.[97]

Параллельно с этим **возрастают риски, связанные с безопасностью цифровых каналов связи**. Использование стандартной электронной почты без дополнительных средств защиты создает почву для манипуляций, при которых подтверждение может быть подделано сотрудниками самой проверяемой организации.[98]

К этому добавляется **фактор безответственного отношения со стороны контрагентов:** зачастую сотрудники бухгалтерии подписывают акты сверки «не глядя», без сопоставления данных в своей учетной системе. Подобный подход лишает процедуру её основного смысла - получения независимого подтверждения, и делает собранные доказательства формальными, а не достоверными.

Для наглядного сопоставления традиционных и инновационных подходов к получению внешних подтверждений проведем сравнительный анализ (см. Таблицу 1).

Таблица 1.

Сравнительный анализ эффективности методов внешнего подтверждения

Критерии сравнения	**Традиционный (бумажный) метод**	**Цифровые платформы**	**Технология блокчейн**
Скорость получения ответа	Низкая (от 2 недель до месяца)	Высокая (24-48 часов)	Мгновенная (в режими реального времени)
Риск фальсификации данных	Высокий (человеческий фактор)	Средний/Низкий (защищенные каналы)	Отсутствует (неизменяемость реестра)
Трудозатраты аудитора	Максимальные (ручная рассылка)	Минимальные (автоматизация)	Полная автоматизация через смарт-контракты

[97] Бычкова С. М., Итыгилова Е. Ю. Аудит: учебное пособие. — М.: Магистр, 2024.
[98] (МСА) 240 «Обязанности аудитора в отношении недобросовестных действий».

Достоверность источника	Требует дополнительной проверки	Высокая (авторизованные банки)	Абсолютная (криптографическая подпись)

Для качественного улучшения ситуации и повышения достоверности доказательств предлагается внедрение следующих решений:

Переход на верификацию через системы электронного документооборота. Использование ЭЦП при подтверждении остатков гарантирует надежность источника и юридически закрепляет ответственность сторон за предоставленные цифры.



Рисунок 1. Сравнительный анализ скорости обработки запросов

Использование технологии блокчейн для создания распределенных реестров подтверждений. Это позволит аудитору видеть транзакции и остатки в режиме реального времени. Данные в блокчейне невозможно изменить задним числом, что практически исключает риск подделки ответов



со стороны клиента.[99]

Рисунок 2. Схема верификации данных через распределенный реестр

[99] Материалы платформы Confirmation (by Thomson Reuters): «The Future of External Confirmations in a Digital World», 2025.



Рисунок 3. Модель независимого взаимодействия через цифрового посредника

Интеграция специализированных цифровых платформ, которые выступают независимыми посредниками. Такие платформы автоматизируют процесс и исключают любое влияние проверяемого лица на цепочку «аудитор - контрагент».[100]

Отказ от практики «отрицательных» подтверждений в секторах с высоким риском. В условиях низкой дисциплины ответов в нашем регионе «молчание» компании ни в коем случае не должно трактоваться как согласие с данными отчетности.




Рисунок 4. Уровень аудиторского риска при разных типах запросов

Заключение

Подводя итог проведенному исследованию, можно отметить, что внешние подтверждения остаются одним из наиболее фундаментальных и надежных инструментов сбора аудиторских доказательств. Несмотря на наличие определенных практических сложностей, связанных с дисциплиной ответов контрагентов и рисками безопасности источников связи, потенциал МСА 505 позволяет значительно снизить уровень аудиторского риска, особенно в таких критических областях, как подтверждение прав

[100] Официальный сайт Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан (mf.uz).

собственности и реальности дебиторской задолженности.

Дальнейшее совершенствование данной процедуры в Республике Узбекистан неразрывно связано с процессом цифровой трансформации. Комплексное применение методов внешнего подтверждения с современными технологиями, такими как специализированные цифровые платформы и системы на базе блокчейн, позволит не только повысить оперативность проверок, но и обеспечить беспрецедентный уровень достоверности данных. Внедрение предложенных рекомендаций будет способствовать укреплению качества аудиторских услуг и повышению прозрачности финансовой отчетности, что является необходимым условием для привлечения инвестиций и дальнейшего развития экономики страны.

Список использованных источников

1. Закон Республики Узбекистан «Об аудиторской деятельности» №ЗРУ-677 от 25.02.2021 г.
2. Международный стандарт аудита (МСА) 505 «Внешние подтверждения».
3. Международный стандарт аудита (МСА) 500 «Аудиторские доказательства».
4. Международный стандарт аудита (МСА) 240 «Обязанности аудитора в отношении недобросовестных действий».
5. Международный стандарт аудита (МСА) 315 (пересмотренный, 2019 г.) «Выявление и оценка рисков существенного искажения».
6. Международный стандарт аудита (МСА) 330 «Аудиторские процедуры в ответ на оцененные риски».
7. Бычкова С. М., Итыгилова Е. Ю. Аудит: учебное пособие. — М.: Магистр, 2024.
8. Материалы платформы Confirmation (by Thomson Reuters): «The Future of External Confirmations in a Digital World», 2025.
9. Официальный сайт Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан (mf.uz).

O‘ZBEKISTONDA POCHTA XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Jo‘rayev Lazizjon Norovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Tashkiliy nazorat boshqarmasi boshlig‘i
e-mail: l.juraev@tuit.uz

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekistonda pochta xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi masalalari ko‘rib chiqilgan. Mamlakat pochta tarmoqining hozirgi holati tahlil qilingan, asosiy muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari “O‘zbekiston Pochtasi” AJ faoliyati ma’lumotlari asosida taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: pochta xizmatlari, iqtisodiy samaradorlik, modernizatsiya, raqamlashtirish, “O‘zbekiston Pochtasi” AJ, diversifikatsiya.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pochta xizmatlari tarmoqining samaradorligini oshirish muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. “O‘zbekiston Pochtasi” aksiyadorlik jamiyati mamlakatning eng yirik kommunikatsion infratuzilma operatorlaridan biri hisoblanib, uning barqaror va samarali faoliyat yuritishi nafaqat tijorat muvaffaqiyatini ta’minlash, balki aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun zaruriy xizmatlarning uzluksiz ko‘rsatilishini ham anglatadi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi fonida an’anaviy pochta xizmatlariga bo‘lgan talab sezilarli darajada pasayib bormoqda va bu tarmoqni yangi iqtisodiy muammolarga duch qilib qo‘ymoqda. Mazkur vaziyat pochta sohasida iqtisodiy samaradorlikni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularga asoslangan yechimlar ishlab chiqishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston pochta xizmatlarining hozirgi samaradorlik darajasini baholab, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini ilmiy asosda ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: tarmoqning hozirgi holati va asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish; samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni aniqlash; xorijiy tajribani o‘rganish asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

“O‘zbekiston Pochtasi” AJ mamlakatning 14 viloyati bo‘ylab 1 400 dan ortiq pochta bo‘limlarini boshqaradi va 200 000 dan ziyod xodimni ish bilan ta’minlaydi. Kompaniyaning hozirgi xizmatlar tarkibida an’anaviy pochta jo‘natmalari, moliyaviy operatsiyalar, davlat xizmatlari va kuryerlik yetkazib berish yo‘nalishlari mavjud. Biroq so‘nggi besh yil ichida tarmoqning moliyaviy ko‘rsatkichlari keskin o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. An’anaviy xat va jo‘natmalar hajmi 2019-2023 yillar orasida 28-32 foizga qisqargan, shu bilan birga elektron tijorat va ekspress kuryerlik xizmatlariga bo‘lgan talab ikki barobarga oshgan. Ushbu teskari tendensiya tarmoqning umumiy daromad tarkibini o‘zgartirib, samaradorlikni baholashda yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda.

Tarmoqning raqobatbardoshligini baholash uchun xodim boshiga to‘g‘ri keladigan daromad, xarajatlar samaradorligi koeffitsienti va xizmat ko‘rsatish sifati indeksi kabi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda kompaniyaning operatsion xarajatlari daromadga nisbati 0,87-0,91 koeffitsientni tashkil etib, bu xalqaro standartlarga (0,70-0,75) nisbatan yuqori darajada qolmoqda. Bu esa tarmoqda xarajatlarni optimallashtirish va yangi daromad manbalari izlash zaruratini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy muammolarni aniqlashga imkon berdi. Birinchidan, raqamlashtirish sur’atining pastligi katta to‘siq bo‘lib turibdi: ko‘plab pochta bo‘limlari hali ham qog‘oz asosidagi jarayonlarga tayanadi, bu esa operatsion xarajatlarni yuqori ushlab turmoqda va xizmat ko‘rsatish tezligini sekinlashtirmoqda. Ikkinchidan, xizmatlar diversifikatsiyasining yetarli emasligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Moliyaviy, sug‘urta va logistika xizmatlari ulushi umumiy daromadda atigi 15-18 foizni tashkil etadi, xorijiy analoglarda esa bu ko‘rsatkich 40-
55 foizga yetadi. Uchinchidan, mehnat unumdorligining pastligi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Xodim boshiga to‘g‘ri keladigan daromad Yevropa pochta operatorlariga nisbatan 3-4 marta kam. To‘rtinchidan, infratuzilmaning eskirganligi moddiy-texnik bazaning 62 foizi o‘z resursini tugallagan va tezkor modernizatsiyani

talab etadi. Beshinchidan, xususiy kuryerlik kompaniyalari (CDEK, Yandex.Delivery, Uzum Market va boshqalar) va onlayn savdo platformalarining bozorga kirib kelishi raqobatni keskin kuchaytirmoqda, bu esa pochta tarmoqidan mijozlarning chiqib ketishiga olib kelmoqda.

Mazkur muammolar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bitta sohada yuzaga kelgan muammo boshqa sohalarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, infratuzilmaning eskirganligi raqamli xizmatlar joriy etilishini qiyinlashtiradi, bu esa o‘z navbatida diversifikatsiyani sekinlashtiradi va tarmoqning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Shu boisdan muammolarga yechim izlashda tizimli va kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlar pochta operatorlari tajribasi O‘zbekiston uchun muhim darslar beradi. Germaniyaning Deutsche Post DHL kompaniyasi logistika va moliyaviy xizmatlar orqali diversifikatsiyani chuqurlashtirib, bugun dunyoning yirik logistika operatoriga aylangan bu yo‘nalishdan kelgan daromad umumiy tushumning 60 foizdan ortig‘ini tashkil etadi. Yaponiya pochta xizmati Japan Post esa aholini keng qamrovli moliyaviy mahsulotlar (sug‘urta, bank xizmatlari, investitsiya fondlari) bilan ta’minlab, pochta bo‘limlarini to‘liq moliyaviy xizmatlar markaziga aylantirgan. Qo‘shni Qozog‘istonda ham Kazpost kompaniyasi 2018-2022 yillarda amalga oshirgan raqamli transformatsiya dasturi natijasida operatsion xarajatlarni 18 foizga kamaytirgan va onlayn xizmatlar ulushini 35 foizga oshirgan. Ushbu tajribalar O‘zbekiston uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi kompleks chora-tadbirlar tavsiya etiladi. Birinchi navbatda, raqamli transformatsiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur: pochta bo‘limlarida avtomatlashtirilgan xizmat ko‘rsatish tizimlari, elektron hujjat aylanishi va mobil ilovalar joriy etish orqali 3-5 yil ichida operatsion xarajatlarni 20-25 foizga kamaytirish mumkin. Ikkinchidan, xizmatlar portfelini tubdan kengaytirish lozim, moliyaviy xizmatlar (mikroqarzlar, to‘lovlar, sug‘urta mahsulotlari), elektron tijorat logistikasi va davlat xizmatlarini pochta tarmoqi orqali ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilishi kerak. Bu qadam yaqin besh yil ichida daromad tarkibida diversifikatsiyalangan xizmatlar ulushini 35-40 foizga yetkazishga imkon beradi. Uchinchidan, xodimlar salohiyatini oshirish bo‘yicha maqsadli dastur ishlab chiqilishi lozim: raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha muntazam treninglar, natijaga yo‘naltirilgan ish haqi tizimi va yosh mutaxassislarni jalb etishga yo‘naltirilgan kadrlar siyosati joriy etilishi zarur. To‘rtinchidan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari orqali infratuzilmani modernizatsiya qilish uchun xususiy va xalqaro investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari yaratilishi kerak. Beshinchidan, marketing strategiyasini to‘liq yangilab, mijozlar segmentlariga moslashtirilgan xizmat paketlari va sodiqlik dasturlari ishlab chiqish samarali natija beradi.

XULOSA

O‘zbekistonda pochta xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish ko‘p qirrali va kompleks muammo bo‘lib, uning yechimi raqamlashtirish, diversifikatsiya, infratuzilmani yangilash va xodimlar salohiyatini oshirishning uyg‘un kombinatsiyasini talab etadi. Mazkur tezisda tahlil qilingan muammolar tarmoqning tizimli zaifliklarini aks ettiradi va ularni bartaraf etmasdan turib, xalqaro

raqobatbardoshlikka erishish qiyin. Tavsiya etilayotgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish “O‘zbekiston Pochtasi” AJ ning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi va uni zamonaviy ko‘p funksiyali iqtisodiy institutga aylantiradi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish va aholiga sifatli xizmatlar ko‘rsatish borasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga muhim hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.

2. Ivanov, S., Zudilova, T., Voitiuk, T., Marchenko, E. & Ivanova, L. (2025). *Digital Technologies for Optimizing Transport Routes in Freight Logistics.* In Digital Geography (pp. 107-116). Springer Nature. DOI: 10.1007/978-3-031-96500-5_8.

3. Shuaibu, A. S., Mahmoud, A.S., Sheltami, T.R. (2025). *Last-Mile Delivery Optimization: Recent Approaches and Advances*. *Transportation Research Procedia*, 84, 299-306. https://doi.org/10.1016/j.trpro.2025.03.076

4. Jo‘rayev L.N., Mamatqulov G‘.R., Xudoyberdiyev R.F. *“Zamonaviy pochta aloqasi”* o‘quv qo‘llanma. Toshkent, Aloqachi-2017.

5. Mamatqulov G.R. *“O‘zbekiston Respublikasi pochta aloqasi korxonalarini raqamlashtirish istiqbollari”*// Raqamli iqtisodiyot, ilmiy-elektron jurnali. №1-son 2022. -B.174-182.

SUG‘URTA BOZORINING GLOBALLASHUVIDA QAYTA SUG‘URTANING ROLINI OSHIRISH

Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich
“O‘zbekinvest EISK” AJ Biznesni sug‘urtalash hamda hududiy tarmoqlarni istiqbolli rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash markazi direktori (IFFD PhD)
e-mail: sayfullo11011969@gmail.com

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi sug‘urta bozorining institutsional va funksional transformatsiyasini kuchaytirmoqda. Xalqaro moliyaviy integratsiya, transchegaraviy risklarning ortishi, tabiiy ofatlar, kiberxavflar hamda geosiyosiy noaniqliklar sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda qayta sug‘urtaning strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, yirik risklarni diversifikatsiya qilish, sug‘urta portfelining muvozanatini saqlash va to‘lov qobiliyatini mustahkamlashda qayta sug‘urta mexanizmlari muhim moliyaviy instrument sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qayta sug‘urta bozori nafaqat sug‘urta kompaniyalarining xavfini kamaytiradi, balki milliy sug‘urta bozorining xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuvini ham jadallashtiradi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda sug‘urta bozorining globallashuvi sharoitida qayta sug‘urtaning rolini oshirish, uning institutsional asoslarini takomillashtirish va xalqaro standartlarga mos mexanizmlarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda sug‘urta bozori izchil o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, qayta sug‘urta

bozori hali ham yetarli darajada shakllanmagan. Ichki qayta sug‘urtaning cheklanganligi, xorijiy kompaniyalarga yuqori darajada bog‘liqlik, risklarni diversifikatsiya darajasining pastligi milliy sug‘urta tizimining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, qayta sug‘urta munosabatlarini takomillashtirish, zamonaviy mexanizmlar va xalqaro standartlarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Qayta sug‘urtaga berilgan mukofotlar umumiy mukofotning riskga bog‘liq ravishda qayta taqsimlangan qismini tashkil etadi. Agar kompaniya yirik yoki yuqori noaniqlikdagi risklarni qabul qilsa, ularning ma’lum qismini qayta sug‘urtachiga uzatish orqali risk yukini pasaytiradi. Shu sababli, qayta sug‘urtaga berilgan mukofotlar yuqori bo‘lgan kompaniyalar odatda katta risklarga duch keladigan yoki kapital yetarliligi cheklangan kompaniyalar hisoblanadi. Bu ularga Solvency II singari kapital ko‘rsatkichlariga mos kelishga yordam beradi.

O‘zbekistonda umumiy sug‘urta tarmog‘i bozorida 2024-2025-yillar davomida sezilarli faollik kuzatilgan bo‘lib jami sof sug‘urta mukofotlari bir yil ichida 2,82 trln so‘mdan 3,72 trln so‘mga, umumiy sug‘urta mukofotlari esa 4,19 trln so‘mdan 5,85 trln so‘mga oshgan. Ushbu o‘sish iqtisodiyotning tiklanishi, sug‘urta talabining ortishi, raqobatning ortishi hamda yangi mahsulotlar ulushining ko‘paygani bilan izohlanadi. Eng keskin o‘sish qayta sug‘urtaga berilgan mukofotlarda kuzatilgan bo‘lib, ular 54,8%, qayta sug‘urta bo‘yicha qabul qilingan mukofotlar esa 99% ga oshgan. Bu esa bozorda risklarni taqsimlash, kapital yetarliligini oshirish va risklarni boshqarish mexanizmlarining kuchayganidan dalolat beradi[101].

2024-yil 9 oyida chet el sug‘urta tashkilotlariga qayta sug‘urtalashga berilgan mukofotlar 1 725 756 mln so‘mni tashkil etib, yalpi sug‘urta mukofotlarining 25 foiziga teng bo‘lgan. 2025 yilning 9 oyida ushbu ko‘rsatkich 2 995 017 mln so‘mga yetib, ulushi 32 foizgacha o‘sgan. Bu mahalliy kompaniyalar yirik va katta konsentratsiyalangan risklarni xalqaro bozorga ko‘proq transfer qilganligidan dalolat beradi. Qayta sug‘urtalashga qabul qilingan mukofotlar 967 802 mln so‘mdan 1 495 316 mln so‘mga o‘sib, umumiy portfeldagi ulushi 14 foizdan 16 foizgacha ko‘tarilgan. Demak, O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi sug‘urta tashkilotlari nafaqat risklarni chetga transfer qilmoqda, balki muayyan darajada xalqaro risklarni qabul qilayotgan “net-raqamli ishtirokchi”ga aylanib bormoqda.

Umumiy sug‘urta tarmog‘ida 2024-yilda chet el tashkilotlariga nisbatan qayta sug‘urtalash majburiyatlari 727 203 996 mln so‘m (yalpi mukofotlarga nisbatan 32%) bo‘lgan bo‘lsa, 2025 yilda 875 061 564 mln so‘mgacha o‘sib, ulushi 25 foizga tushgan. Hajm o‘ssa-da, ulushning pasayishi ichki bozorda yalpi mukofotlar juda tez sur’atda ko‘payganini, shu orqali ichki kapitalning ma’lum darajada mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, qayta sug‘urtalashga qabul qilingan majburiyatlar 167 416 238 mln so‘mdan 526 290 400 mln so‘mga, ya’ni 3,1 martadan ko‘proq o‘sib, ulush 7 foizdan 15 foizgacha ko‘tarilgan. Bu holat, O‘zbekiston sug‘urta bozorini mintaqa miqyosida ma’lum qayta sug‘urtalash markazi sifatida shakllanayotgani haqida shartli xulosa qilish imkonini beradi.

2022-2025-yillarda yirik infratuzilma loyihalari, energetika, qurilish va

[101] https://napp.uz/uz/pages/statistics-and-analysis-for-im

transport tarmoqlarida katta risklar sug‘urtalashga qo‘yilmoqda. Ushbu jarayon sug‘urta kompaniyalarini anderraytingda:

- katastrofik risklar modellarini kengroq qo‘llashga,
- risklar konsentratsiyasini hisoblashga,
- qayta sug‘urta qoplamasini (treaty) yuqori limitlarda tuzishga majbur qilmoqda.

O‘zbekistonda qayta sug‘urta munosabatlari 2022-2025 yillarda yangi bosqichga ko‘tarilib, sug‘urta bozorining barqarorligi va kapital yetarlichiligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qayta sug‘urtaga berilgan mukofotlar hajmi 2024-2025-yillarda keskin o‘sgan bo‘lib, bu mamlakatda yirik, yuqori konsentratsiyalangan va noaniqlik darajasi baland bo‘lgan risklarni xalqaro bozor orqali boshqarish amaliyoti kuchayganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, qayta sug‘urta bo‘yicha qabul qilinayotgan risklar hajmining 3 barobardan ortiq o‘sishi milliy sug‘urta kompaniyalarining xalqaro standartlar asosida risk baholashdagi kompetensiyalarining ortganini ko‘rsatadi.

Qayta sug‘urta majburiyatlarining o‘sishi, retensiya darajasining optimallashuvi, anderrayting jarayonlarining murakkablashuvi va katastrofik risk modellarining qo‘llanilishi bozorda risklarni uzoq muddatli va boshqariladigan shaklda taqsimlash imkonini kuchaytirmoqda. Bu esa Solvency II tamoyillariga mos ravishda kapitalni optimal taqsimlash, bankrotlik xavfini kamaytirish hamda xalqaro qayta sug‘urta kompaniyalariga bog‘liqlikni bosqichma-bosqich kamaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston bozoridagi ushbu tendensiyalar milliy qayta sug‘urta infratuzilmasini rivojlantirish va sug‘urta kompaniyalarining risk menejmentini xalqaro darajaga chiqarish zarurligini yanada aniq ko‘rsatmoqda.

MUQADDAS MASKANDAN BARQAROR KELAJAKKA: SAUDIYA ARABISTONI ZIYORAT TURIZMI TAJRIBASI BUXORO HUDUDIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

M.E.Axmatova, Buxoro davlat universiteti katta o‘qituvchisi i.f.f.d.(PhD)
X.F.Hamroqulova, Buxoro davlat universiteti talabasi
e-mail: **hamroqulovaxosiyat05@gmail.com**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Saudiya Arabistonining so‘nggi yillarda barqaror turizmni rivojlantirish borasida erishgan yutuqlari va qo‘llagan strategiyalari chuqur tahlil qilinadi. Xususan, mamlakatning “Vision 2030” dasturi doirasida ekologik barqarorlikni ta’minlash, tabiiy hududlarni muhofaza qilish, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli xizmatlarni kengaytirish hamda mahalliy aholini turizm jarayonlariga faol jalb etish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar o‘rganiladi. Shu bilan birga, Saudiya Arabistoni tajribasining O‘zbekiston turizm sohasi bilan qanday uyg‘unlashishi mumkinligi, mavjud salohiyat, tabiiy va madaniy meros ob’yektlaridan samarali foydalanish, ekologik turizm yo‘nalishlarini kengaytirish hamda investitsiya muhitini yaxshilash kabi imkoniyatlar ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston uchun barqaror turizmni rivojlantirishda Saudiya Arabistoni modelidan foydalanishning dolzarbligini asoslab, ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini

ham yoritadi.

Kalit so‘z: Barqaror turizm, Saudiya Arabistoni, O‘zbekiston turizmi, ekologik turizm, raqamli turizm, turizm infratuzilmasi, madaniy meros, turizmni boshqarish, xalqaro tajriba, yashil iqtisodiyot.

Kirish: Bugungi globallashuv jarayonida turizm sohasi nafaqat iqtisodiy o‘sishning muhim omili, balki mamlakatlararo madaniy aloqalarni mustahkamlovchi strategik yo‘nalish sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida barqaror turizm konsepsiyasi keng rivojlanib, tabiiy resurslarni saqlash, turistik hududlarda ekologik muvozanatni ta’minlash, madaniy merosni asrab-avaylash hamda mahalliy aholining farovonligini oshirish kabi ustuvor vazifalarni ilgari surmoqda. Ana shunday jadal rivojlanayotgan davlatlardan biri — Saudiya Arabistoni bo‘lib, u “Vision 2030” strategiyasi doirasida turizm sektorini diversifikatsiya qilish, innovatsion yechimlar joriy etish va ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan yangi turizm modelini shakllantirishga erishmoqda.

Mazkur jarayonlarni o‘rganish O‘zbekiston uchun ham dolzarbdir. Chunki respublikamizda turizm salohiyatining yuksakligi, boy madaniy meros, tabiiy landshaftlar va ziyorat turizmi imkoniyatlari mavjud bo‘lgani holda, sohani barqaror rivojlantirish yo‘lida xalqaro ilg‘or tajribalarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Saudiya Arabistonining barqaror turizm borasidagi tajribasi O‘zbekiston turizm siyosatiga uyg‘unlashtirilsa, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, xizmatlar sifatini oshirish, turistik hududlarda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishda samarali natijalarga erishish mumkin. Ushbu tadqiqot aynan shu imkoniyatlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Saudiya Arabistonining “Vision 2030” – iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va neft daromadlariga bog‘liqligini kamaytirishga qaratilgan transformativ yo‘l xaritasi. Ushbu qarash muhim iqtisodiy o‘sish va madaniy almashinuv haydovchisi sifatida jonli va barqaror turizm sektorini rivojlantirishga intiladi. Ushbu tadqiqot rivojlanayotgan turizm sanoati va Vision 2030 maqsadlariga erishish o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun keng qamrovli tahlilni o‘tkazdi. Ushbu asosiy maqsadlar qatorida turizm sohasiga e’tibor qaratish va uni takomillashtirish, bu sohada o‘sish sur’atlariga erisha olmayotgan Qirollik va davlat muassasalari oldida turgan etakchilik muammolarini hal qilish ham bor edi. Ishtirokchi yetakchilik yondashuvi tadqiqotning mustaqil o‘zgaruvchisini ifodaladi: samaradorlikni oshirish va xabardorlikni oshirish ko‘zlangan maqsadlarga erishish va turizm sektorini rivojlantirish uchun to‘g‘ri xulq-atvor ko‘nikmalarini birlashtirishdan dalolat beradi. Ushbu tadqiqotda miqdoriy tadqiqot usuli qo‘llanildi. Ushbu tadqiqot uchun maqsadli aholi Saudiya Arabistoni Qirolligida turizm sanoati bilan bog‘liq sohada ishlaydigan va ushbu tadqiqot uchun qimmatli hissa qo‘shgan Saudiya fuqarolaridan iborat edi.

Odamlar evolyutsiyasi davrida ular e’tiqodga asoslangan. Va bugungi kunda bu davom etayotgan jarayon sayohatning maqsadiga ko‘ra sayohat olamida turli nomlar bilan ataladi. Biroq, diniy turizmning har qanday turida e’tiqodga asoslangan muammolar hali ham asosiy omillardir. Ya’ni diniy turizm, ziyorat turizmi, halol turizm, musulmon sayohati yoki turizmning boshqa turlari dinga asoslangan bo‘lib,

ko‘plab izdoshlari, muqaddas va muqaddas manzillari bor. Shu sababli, ba’zi tadqiqotchilar diniy turizm va uning boshqa shakllarini barqarorlik kontekstidan shubhalana boshladilar. Barqarorlik nafaqat ommaviy turizmda, balki sayohatning boshqa maxsus turlarida, jumladan, tobora ortib borayotgan diniy turizmda ham muhim bo‘lishi kerak. Ushbu tadqiqot ushbu yo‘nalishlarda ziyoratchilardan keladigan ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlar o‘rtasidagi muvozanatni qo‘llab-quvvatlaydigan ba’zi kontseptual asoslarni o‘rganadi. Dastlab, maqolada ziyorat turizmining mazmuni va mohiyati va uning boshqa shakllari, ijobiy va salbiy ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik natijalari adabiyotlar tahlili orqali tahlil qilinadi. Ikkinchidan, barqarorlik siyosatining ajralmas qismi bo‘lgan ba’zi tarkibiy qismlarni o‘rganadi. Nihoyat, yakuniy qismda barqaror ziyorat turizmi modellarining kontseptual asoslari taklif etiladi.

Ziyorat turizmi sohasida interaktiv va raqamli gid tizimlari zamonaviy texnologiyalar asosida ziyoratchilarga qulaylik yaratish va tarixiy, madaniy merosni keng auditoriyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Saudiya Arabistonidagi Masjid ul-Harom va Masjid an-Nabaviy misolida, ko‘p tilli robot-gidlar va mobil audio-gidlar orqali ziyoratchilarga ma’lumot yetkazish samaradorligi sezilarli darajada oshirilgan.Bu tizimlar quyidagi ilmiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:Raqamli gidlar vizual, audio va interaktiv interfeys orqali ma’lumotni yetkazadi, bu esa ziyoratchilarning o‘rganish samaradorligini oshiradi,Mobil ilovalar va QR-kodli interaktiv panellar ziyoratchining til, qiziqish va vaqt jadvaliga moslashtirilgan ma’lumot taqdim etadi. Bu turizm psixologiyasi va foydalanuvchi tajribasi (UX) konsepsiyalari bilan uyg‘un keladi.Bundan tashqari,Axborot resurslarini raqamlashtirish:

Arxeologik va tarixiy obidalar 3D skanerlash va virtual rekonstruksiya orqali raqamli formatga o‘tkaziladi. Bu ilmiy tadqiqotlarda ham qo‘llanilishi mumkin, chunki ziyoratchilar obidalarni virtual tarzda o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi.

Buxoro hududida qo‘llash imkoniyatlariga keladigan bo‘lsak,Poyi Kalon majmuasi, Chor Bakr maqbarasi va Bahouddin Naqshband ziyoratgohida QR-kodli interaktiv panel va mobil ilova orqali ziyoratchilarga tarixiy, madaniy va diniy ma’lumotlarni yetkazish va ko‘p tilli audio-gid va VR/AR imkoniyatlari orqali ziyoratchilarni virtual ekskursiya bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ilmiy jihatdan, bu tizim ziyoratchilarning tarixiy obyektlarga oid bilim darajasini oshiradi va turizm infratuzilmasining samaradorligini monitoring qilish imkonini beradi.

Ziyorat turizmi hududlarida transport infratuzilmasi ziyoratchilar oqimini boshqarish, xavfsizlikni ta’minlash va vaqtni samarali boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega. Saudiya Arabistonida Haj va Umra ziyoratlari uchun maxsus shuttle bus tizimi joriy etilgan bo‘lib, bu tizim quyidagi ilmiy jihatlar bilan ajralib turadi:

Oqimni boshqarish va tizimli nazorati esa sun’iy intellekt va real-time monitoring yordamida avtobuslar va piyoda yo‘llardagi ziyoratchi oqimi nazorat qilinadi, bu tirbandlikni kamaytiradi va xavfsiz ziyorat muhitini yaratadi.Mobil ilovalar orqali ziyoratchilar o‘zlarining joylashuvi va ziyorat jadvaliga mos marshrutni avtomatik tanlay oladi. Bu transport psixologiyasi va logistika nazariyalariga asoslangan.

Buxoro hududida qo‘llash imkoniyatlariga moslashtirilgan bo‘lsak,

Bahouddin Naqshband – Poyi Kalon – Chor Bakr ziyorat yo‘nalishida maxsus shuttle bus tizimi tashkil etish;

Mobil ilova orqali avtobuslar harakatini kuzatish va ziyoratchilarga eng qulay transport variantini tavsiya qilish mumkin.

Bular tirbandlikni kamaytirish, ziyoratchilar xavfsizligini ta’minlash va transport resurslarini samarali boshqarish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ekologik jihatdan toza transport vositalarini joriy etish Buxoroning zamonaviy ziyorat shahri imidjini ham oshiradi.

Xulosa: Ziyorat turizmi sohasida Saudiya Arabistonining tajribasi raqamli texnologiyalar, interaktiv xizmatlar va transport infratuzilmasini samarali birlashtirish orqali ziyoratchilar oqimini boshqarish va madaniy merosni keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatlarini yaratganini ko‘rsatadi. Ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli va interaktiv gid tizimlari ziyoratchilarning bilim darajasini oshirish, turizm tajribasini shaxsiylashtirish va tarixiy obidalarni raqamlashtirish orqali turizm infratuzilmasining samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bilan birga, maxsus transport tizimlari ziyoratchilar oqimini nazorat qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ekologik jihatdan barqaror muhit yaratishda muhim rol o‘ynaydi.Shu nuqtai nazardan, Saudiya Arabistoni tajribasi Buxoro hududi uchun zamonaviy, ilmiy asoslangan va barqaror ziyorat turizmi modelini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa nafaqat hududning turizm salohiyatini rivojlantirish, balki xalqaro miqyosda tan olinishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eastern Mediterranean University (EMU)-Doğu Akdeniz Üniversitesi (DAÜ), 2016
2. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 44 (1), 186-194, 2024
3. Geojournal of Tourism and Geosites 61 (3), 1922-1931, 2025
4. Innovation Science and Technology 1 (8), 57-61, 2025
5. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals 5 (03), 69-72, 2025
6. Central Asian Journal of Academic Research 2 (11-1), 157-160, 2024 y

Ispaniya innovatsiyalar va yaxlitlik jurnali 41, 122-128, 2025

KIMYO SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR TIZIMI

Dexkanova Nargiza Sharifovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi, PhD
e-mail: n.dexkanova@tsue.uz

Kirish. Bugungi kunda sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan innovatsion faoliyat darajasiga bog‘liq bo‘lib, ayniqsa kimyo sanoatida innovatsiyalar yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirish hamda resurslardan samarali foydalanishda muhim omil hisoblanadi. Kimyo sanoati murakkab texnologik jarayonlar, katta kapital sig‘imi va yuqori ilmiy salohiyat talab qiluvchi

tarmoq bo‘lgani sababli uning innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish zarur hisoblanadi.

Asosiy qism. Kimyo sanoatining innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Resurs omillari. Bu omillar innovatsion faoliyat uchun zarur moddiy va nomoddiy resurslarni ifodalaydi:

- ilmiy-tadqiqot xarajatlari hajmi;
- investitsiya resurslari mavjudligi;
- yuqori malakali kadrlar ulushi;
- nomoddiy aktivlar hajmi;
- zamonaviy laboratoriya va texnologik baza.

Masalan, kimyo korxonalarida R&D xarajatlari ulushining oshishi yangi mahsulot yaratish imkoniyatini kengaytiradi.

2. Texnologik omillar. Kimyo sanoatida innovatsiya ko‘pincha texnologik yangilanish bilan bog‘liq bo‘ladi:

- ishlab chiqarish uskunalarining eskirish darajasi;
- texnologik modernizatsiya sur’ati;
- TRL bosqichlari bo‘yicha loyiha tayyorligi;
- energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish.

Misol uchun, yangi texnologiya laboratoriya bosqichidan sanoat ishlab chiqarishigacha yetib kelishi TRL darajasi bilan baholanadi.

3. Institutsional omillar tashkiliy va boshqaruv muhiti bilan bog‘liq:

- davlat innovatsion siyosati;
- soliq imtiyozlari;
- innovatsion infratuzilma mavjudligi;
- texnoparklar bilan hamkorlik;
- patentlash tizimi samaradorligi.

Masalan, O‘zkimyosanoat tizimidagi korxonalarda innovatsion loyihalarni markazlashgan boshqarish samaradorlikni oshiradi.

4. Bozor omillari. Innovatsion rivojlanish bozor talabidan bevosita ta’sirlanadi:

- ichki va tashqi bozor talabi;
- eksport imkoniyatlari;
- raqobat darajasi;
- yangi mahsulotlarga talab elastikligi. Kimyo sanoatida bozor talabi yuqori bo‘lgan mahsulotlar innovatsion investitsiyalarni tezroq qoplaydi.

5. Ekologik va xavf omillari. Kimyo sanoatida innovatsiyalar ekologik talablar bilan ham bog‘liq:

- ekologik standartlar;
- chiqindi kamaytirish talablari;
- energiya intensivligi;
- texnologik risk darajasi.

Sanoat uni ahamiyati, innovatsita, innovatsion faoliyat uning iqtisodiyotdagi roli, investitsion faoliyat hamda sanoat tarmog‘i innovatsion samaradorligi bo‘yicha ilmiy farazlar to‘liq yoritib berildi. Tadqiqotda kimyo sanoat tarmog‘i innovatsion faoliyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar, strukturasi va funksional aloqasi yoritiladi.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining eng yaxshi yo‘li iqtisodiyotning nisbiy afzalliklariga alohida e’tibor berish hisoblanadi. Darhaqiqat nisbiy afzalliklarni tushunish, tahlil qilish innovatsion faoliyat bilan chambarchas bog‘liq. Bu ayniqsa, mamlakatlar va kompaniyalar o‘rtasida texnologiyalar va yangiliklar asosida raqobatni va savdoni tahlil qilishda juda muhimdir.

Xulosa. Demak iqtisodiyotning nisbiy afzalliklariga alohida e’tibor- mamlakat innovatsion rivojlanishining eng yaxshi yo‘lidir. Kimyo sektori mamlakat ustunligi, katta tabiiy neft va gaz resurslari, yuqori xilma-xil mahsulotlar, texnologiya va bozor tufayli texnologik innovatsiyalar va rivojlanish uchun sezilarli joziba va imkoniyatlarga ega. Albatta neft-kimyo sanoati va uning nisbiy afzalliklari mamlakat inkor etib bo‘lmaydi. Yuqori oqimdan quyi oqimga o‘tish va texnologiyaning hissasi ishlab chiqarish omillarini, investitsiyalarni, bandlikning o‘sish sur’atini va foyda marjasini kuchaytiradi. Shunday qilib, kimyo sanoatining innovatsion rivojlanishi resurs, texnologik, institutsional, bozor va ekologik omillarning o‘zaro bog‘liq ta’siri ostida shakllanadi. Ushbu omillarni kompleks baholash innovatsion faoliyatni boshqarishning samarali mexanizmini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

HUDUDLARDA KICHIK SANOAT ZONALARI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Jalolova Sarvinoz Ulug‘bek qizi
O‘zJOKU, “Mediamenejment va mediamarketing” kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: jalolovasarvinoz1996@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda hududlarda kichik sanoat zonalari tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Kichik sanoat zonalarini joylashtirishning hududiy xususiyatlari, ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, investitsiya resurslarini jalb etish hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, kichik sanoat zonalarini samarali tashkil etish orqali hududiy iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, aholi bandligini oshirish va sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik sanoat zonalari, hududiy rivojlanish, sanoat infratuzilmasi, investitsiya, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, bandlik

Kirish

Hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, sanoat ishlab chiqarishini hududlar kesimida oqilona joylashtirish va mavjud resurslardan samarali foydalanish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi[1]. Bu borada kichik sanoat zonalarini tashkil etish hududlarda ishlab chiqarish faoliyatini yo‘lga qo‘yish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy byudjetlar daromad bazasini kengaytirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi[2].

Hududlarda kichik sanoat zonalarini shakllantirish, avvalo, ularni joylashtirishda hududiy ixtisoslashuvni hisobga olish, zarur ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish, investitsiya resurslarini jalb etish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bilan bevosita bog‘liq[3]. Shu bilan birga, kichik sanoat zonalarini tashkil etishda hududlarning iqtisodiy salohiyati va mavjud

resurslaridan foydalanish darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi[4].

Jahon amaliyoti sanoat zonalarini tashkil etish hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va investitsiya faolligini kuchaytirishda muhim instrument ekanligini ko‘rsatmoqda[5]. Shuningdek, sanoat zonalarini samarali shakllantirishda infratuzilma bilan ta’minlanganlik darajasi, logistika tizimi va institutsional boshqaruv mexanizmlarining rivojlanganligi hal qiluvchi omil hisoblanadi[6].

Hududiy sanoatni rivojlantirish va ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish masalalari iqtisodiyot nazariyasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Hududiy raqobatbardoshlik nazariyasiga ko‘ra, sanoat ishlab chiqarishining ma’lum hududlarda kontsentratsiyalashuvi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[7]. M.Porterning klasterlar nazariyasida korxonalar o‘rtasidagi hududiy yaqinlik innovatsiyalar almashinuvi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali raqobat ustunligini ta’minlashi asoslab berilgan[8].

Yangi iqtisodiy geografiya nazariyasida ishlab chiqarishning hududiy kontsentratsiyasi transport xarajatlarining qisqarishi, mehnat bozori shakllanishi va infratuzilmadan birgalikda foydalanish orqali iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan[9]. Ushbu yondashuv kichik sanoat zonalarini tashkil etishda hududiy omillarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar sanoat zonalarini samarali shakllantirishda davlat tomonidan yaratilgan institutsional sharoit, soliq va bojxona imtiyozlari, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi[10].

O‘zbekiston Respublikasida hududiy sanoatni rivojlantirish va ishlab chiqarish faoliyatini hududlar kesimida kengaytirishda kichik sanoat zonalarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga respublikada 423 ta kichik sanoat zonasi faoliyat yuritib, ularda 3 272 ta rezident korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirmoqda[11]. Mazkur ko‘rsatkich kichik sanoat zonalari hududlarda sanoat ishlab chiqarishini tashkil etishning muhim institutsional shakliga aylanganligini ko‘rsatadi.

Kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2025-yil yakunlariga ko‘ra 18 096,0 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va mavjud resurslardan samarali foydalanish natijasida sanoat ishlab chiqarish hajmi ortib borayotganligini anglatadi[12]. Mazkur zonalarda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining 1 325,6 mlrd so‘mni tashkil etishi esa ularning investitsion jozibadorligi ortib borayotganligini ko‘rsatadi[13].

Kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirishning muhim ijtimoiy-iqtisodiy natijalaridan biri aholi bandligini ta’minlash bilan bog‘liq. Hisobot davri oxiriga kelib mazkur zonalarda 40 021 nafar aholi doimiy ish bilan ta’minlangan bo‘lsa, yil davomida 10 665 ta yangi ish o‘rinlari yaratilgan[14]. Bu esa kichik sanoat zonalari hududlarda mehnat bozorini barqaror rivojlantirishda muhim rol o‘ynayotganligini ko‘rsatadi.

Kichik sanoat zonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki ham ortib

bormoqda. Xususan, mazkur zonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport hajmi 4 538,9 mlrd so‘mni tashkil etgan[15]. Ushbu holat kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardosh ekanligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, kichik sanoat zonalarini shakllantirish jarayonini tahlil qilish ularni joylashtirishda hududiy ixtisoslashuv darajasini yetarli hisobga olinmayotganligi, ayrim hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta’minlanganlik darajasi pastligi hamda investitsiya resurslarini jalb etish mexanizmlarining samaradorligi yetarli emasligini ko‘rsatmoqda[16]. Bu esa kichik sanoat zonalarini tashkil etish jarayonida hududlarning iqtisodiy salohiyati va mavjud resurslaridan kompleks foydalanish zarurligini anglatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirishda ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish bilan bir qatorda, ularni transport-logistika tizimi bilan integratsiyalash, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi[17].

Hududlarda kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirish ularni tashkil etishning aniq tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Mazkur jarayon hududiy ixtisoslashuvni hisobga olgan holda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish, investitsiya resurslarini jalb etish hamda zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish bilan uzviy bog‘liqdir[18].

Kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirishning tashkiliy mexanizmlari, avvalo, ularni hududlarning iqtisodiy salohiyati, xomashyo bazasi, mehnat resurslari va transport-logistika imkoniyatlaridan kelib chiqib joylashtirishni nazarda tutadi. Bu esa sanoat ishlab chiqarishini hududiy jihatdan oqilona tashkil etish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va korxonalar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish imkonini beradi[19].

Mazkur jarayonda iqtisodiy mexanizmlarning muhim elementi sifatida investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, kichik sanoat zonalarini tashkil etishda davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish, tijorat banklari kreditlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va mahalliy investitsiya resurslaridan samarali foydalanish zarur hisoblanadi[20]. Bu esa yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish imkonini beradi.

Kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog‘liq. Zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, transport-logistika tizimi va raqamli boshqaruv platformalarining joriy etilishi kichik sanoat zonalarining investitsion jozibadorligini oshiradi hamda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlayd[21].

Shuningdek, kichik sanoat zonalarini boshqarishning samarali institutsional tizimini shakllantirish ularning faoliyat natijadorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bunda hududiy boshqaruv organlari, tadbirkorlik subyektlari va moliya institutlari o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur[22].

Taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm kichik sanoat zonalarini

shakllantirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi(1-rasm):



1-rasm. Kichik sanoat zonalari faoliyatining natijadorligini ta’minlovchi tashkiliy-iqtisodiy model

Mazkur mexanizmni amaliyotga joriy etish hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy byudjetlar daromadlarini ko‘paytirish va hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarni qisqartirish imkonini beradi.

Xulosa

Hududlarda kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirish hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, sanoat ishlab chiqarishini hududlar kesimida diversifikatsiya qilish hamda aholi bandligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar natijasida respublikada kichik sanoat zonalari sonining ortib borayotganligi, ularda faoliyat yuritayotgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmining yuqori sur’atlarda o‘sayotganligi hamda yangi ish o‘rinlari yaratilayotganligi hududiy sanoatni rivojlantirishda ushbu institutning muhim o‘rin tutayotganligini ko‘rsatdi.

Shu bilan birga, kichik sanoat zonalarini shakllantirish jarayonini tahlil qilish ularni joylashtirishda hududiy ixtisoslashuv darajasini yetarli darajada hisobga olinmayotganligi, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta’minlanganlik darajasining hududlar kesimida bir xil emasligi hamda investitsiya resurslarini jalb etish mexanizmlarining samaradorligi yetarli emasligini ko‘rsatdi. Mazkur holatlar kichik sanoat zonalarini tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, hududlarda kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishni talab etadi:

– kichik sanoat zonalarini hududlarning iqtisodiy salohiyati va mavjud resurslari asosida joylashtirish;

– zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya va transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish;

– davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini keng joriy etish;

– sanoat kooperatsiyasi va mahalliylashtirish darajasini oshirish;

– kichik sanoat zonalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan keng

foydalanish.

Taklif etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni amaliyotga joriy etish hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va aholi bandligini ta’minlash imkonini beradi. Natijada hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar qisqaradi hamda mahalliy byudjetlar daromad bazasi kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hududiy sanoat siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv hududlarda sanoat ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va aholi turmush darajasini oshirishning muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi PQ-2916-son “Kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kichik sanoat zonalari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishga oid qarorlari. – Toshkent, 2017–2024.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, texnopark va klasterlar faoliyati bo‘yicha statistik ma’lumotlar. – Toshkent, 2026.
5. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
6. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge: MIT Press, 1991.
7. Fujita M., Krugman P., Venables A.J. The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade. – Cambridge: MIT Press, 1999.
8. UNIDO. Industrial Parks for Inclusive and Sustainable Industrial Development. – Vienna, 2020.
9. OECD. Industrial Parks and Regional Development: Policy Lessons. – Paris: OECD Publishing, 2019.
10. World Bank. Special Economic Zones: An Operational Review of Their Impacts. – Washington DC, 2017.
11. Ismailov B.X. Hududiy sanoat siyosatini takomillashtirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
12. Xolmatov N.Sh. Kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2020. – №4.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУТЬ ПРОЦЕНТНЫХ РИСКОВ И ПРИЧИНЫ ИХ ВОЗНИКНОВЕНИЯ

Романова Барчинай
Студент Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. *В статье рассматривается экономическая природа процентного риска как одной из ключевых угроз финансовой стабильности. Раскрываются теоретические основы возникновения процентного риска, его классификация и факторы, определяющие его масштаб. Особое внимание уделено взаимосвязи процентного риска с денежно-кредитной политикой, а также его влиянию на деятельность финансовых институтов и государственных структур. Исследование носит теоретико-аналитический характер и опирается на зарубежный и отечественный научный опыт.*

Ключевые слова: *процентный риск, финансовая стабильность, денежно-кредитная политика, ставка процента, банковский сектор, управление рисками, процентная маржа.*

Natijada ushbu olimlarning ilmiy ishlari iqtisodiy nazariyani nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan boyitdi. Ularning izlanishlari davlat siyosatini shakllantirish, bozor mexanizmlarini tushunish, jamiyat resurslarini samarali taqsimlash va inson farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, Nobel mukofoti sovrindorlarining ilmiy merosi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar va siyosatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, iqtisodiy tafakkur va amaliyotni yangi bosqichga olib chiqadi.

ИҚТИСОДИЁТ СОҲАСИДА МАШҲУР АЁЛ ОЛИМАЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАДҚИҚОТ ЙЎЛИ

Д.Тожибоева, Тошкент давлат иқтисодиёт университети профессори, и.ф.д.

Оила ижтимоий институт сифатида энг қадимий бўлиб, ҳаёт кечиришнинг ташкилий шакли, унинг дастлабки нормаларини яратувчи, янги авлодни ижтимоийлаштирувчи ва ҳаёт кечиришга мослаштирувчи ижтимоий муносабатлар тизими билан уйғун ҳолда бирлашиб кетган шахс билан жамият ўртасидаги энг муҳим воситачи ташкилот тарзида қаралади. Оиланинг бош функцияси фарзанд туғиб, уни комил инсон қилиб вояга етказишдир. Барчамиз яхши биламиз-ки, бунда онанинг роли, тутган ўрни беқиёс. Ундан ташқари, ҳар бир аёл учун энг кўп вақт, сабр-тоқат, диққат, меҳр талаб қиладиган фарзандлар тарбияси ва битмас-туганмас,охири ва боши йўқ уй-рўзғор юмушларидир. Аёлларнинг қаҳрамонлиги шундаки, бу ташвишлардан

ташқари ўзи севган касб, ҳунар билан ҳам шуғулланади, илмий тадқиқотлар олиб боради. Шунинг учун ҳам республикамизда хотин-қизларнинг гендер тенглигига, бу борада ҳал этилмаган масалаларга алоҳида диққат қаратилмоқда. ривожланишида аёлларнинг ролини янада ортишига олиб келади.

Албатта, илм-фан соҳасида хотин-қизлар томонидан эришилган даража нафақат Ўзбекитон, балки, бутун жаҳон миқёсида мавқеи ва ўрни жиҳатидан анча қуйида. Буни машҳур Нобель мукофоти совриндорлари мисолида кўришимиз мумкин. Маълумки, Альфред Нобелнинг хоҳиши, васияти билан 1895 йили фанда мисли кўрилмаган ютуқлари ва фан тараққиётига қўшган катта ҳиссаси учун Нобель мукофоти таъсис этилди ва мукофот 1901 йилдан берила бошланди. Ҳозиргача фанда ва тинчликни сақлашда эришган ютуқлари учун 988 киши мукофотланган бўлса, шундан атиги 65 таси ёки 6,6 фоиз атрофида аёллардир. Лекин аёллардан унинг биринчи совриндори Мария Складовская-Кюри бу мукофот билан 2 марта: 1903 йили физика, 1911 йили химия фани бўйича тақдирланган. Олима томонидан қўйилган рекордни ҳозиргача ҳеч ким забт этолмаган (у ягона, ҳам физика ҳам химия фани бўйича лауреат)

1968 йили Швеция Марказий банки Альфред Нобель хотирасига бағишлаб, иқтисодиёт фанларини ривожлантиришда қўшган ҳиссалари учун мукофот таъсис этди. Бу иқтисодиётнинг фанлар тизимида аҳамияти ортиб бораётганини кўрсатади.

Ҳозиргача иқтисодиёт соҳасида совриндор бўлганлар 97 киши бўлиб, уларнинг 3таси аёллардир ёки 3 % нигина ташкил этади. Булар **Элинор Остром** – 2009 йили, **Эстер Дюфло** -2019 йили, "Глобал қашшоқликка қарши курашда экспериментал ёндашув” учун (3 лауреатнинг бири); 2023 йили улар сафига ўзининг меҳнат бозорида гендер тенгсизлиги сабабларини баҳолаш ва тушунтиришга янгича ёндашувлари асосида ўтказган тадқиқотлари, фанга қўшган ҳиссаси билан америкалик олима Клаудия Голдин қўшилди

Иқтисодиёт соҳасида машҳур аёл олималар ҳақида тўҳтар эканмиз, уни инглиз иқтисодчиси **Жоан Вайолет Робинсон (**1903-1983**)** назарияси билан бошлаймиз. Олима кейнсчилик назариясининг ёрқин тарафдорларидан ҳисобланади. Жоан Робинсоннинг 1933 йили чоп этилган “Номукаммал рақобат назарияси” китоби “Буюк депрессия (1929-1933-йиллар) авж олган даврда босмадан чиқади. У китобда неоконсерватизм (давлатнинг иқтисодиётга аралашуви минимал – эркин бозор ва қатъий ташқи сиёсатни бирлаштирган сиёсий мафкура)[116] назариясини қаттиқ танқид қилади. Шу пайтда бозорда монополлашув жадал кечиб, рақобатчилик асослари емирилаётган эди. Уларнинг фикрича эса иқтисодиётда майда мустақил товар ишлаб чиқарувчилар асосий ўрин тутади, унга мувофиқ равишда иқтисодиётда мукаммал рақобат кураши мавжуд.

[116] Oddiy qilib aytganda, bu o‘z milliy manfaatlarini himoya qilish va butun dunyoda demokratiyani targ‘ib qilish, kerak bo‘lsa, harbiy kuch ishlatish, mamlakat ichida esa an’anaviy qadriyatlar, oila va tartibni saqlashga intilishdir.

Ж.Робинсон неоклассик йўналиш вакилларининг мукаммал рақобат тўғрисидаги эскирган догмани ҳимоя қилишларини танқид қилади. Унинг фикрича иқтисодий назарияда турли қонуниятларни ўрганиш, тадқиқ этишда одат тусига кирган мукаммал рақобат шароитларини кўриб чиқиб, монопо-лияни алоҳида ходиса сифатида қараш эмас, балки тадқиқотни монополиялардан бошлаб, мукаммал рақобаталоҳида ҳодиса сифатида қараш тўғрироқ бўлади, дейди. Монополиялар амалдаги чекланмаган устунлиги билан нарх шаклланишига таъсир кўрсатади.

У ўз асарларида капиталнинг концентрациялашуви ва фирмаларнинг йириклашуви, товарларнинг табақалашуви бозорларнинг монополлашуви учун қулай замин яратишини; ўз навбатида монополлашув жамият учун зарарли бўлган ҳодисаларнинг ривожланишига сабаб бўлишини кўрсатади. 1956-yilda унинг "Капиталнинг тўпланиши" номли асосий асари нашр этилди. У Кейнс иқтисодий назариясини узоқ муддатли даврга нисбатан кенгайтирди.

Ҳозирда кўпчилик мамлакатларда давлат томонидан рақобатчилик муҳитини яратишга алоҳида аҳамият берилмоқда.

Қатор машҳур иқтисодчиларнинг фикрига кўра Жоан Робинсон Нобель мукофоти билан тақдирланган бўлмасада, халқаро миқёсда таниқли иқтисодчи олима сифатида қолади.

2009 йили Иқтисодиёт бўйича Нобель мукофотининг аёллардан биринчи совриндори АҚШлик Элинор Остром (О. Уильямсон билан биргаликда) бўлиб, унга жамоа, компанияларда иқтисодий ресурсларни бошқаришни ташкил этиш масалалари тадқиқоти учун сазовор бўлган.

Элинор Остром (1933-2012) маълумоти бўйича сиёсатшунос бўлсада, унинг илмий ишлари замонавий иқтисодиёт фанининг ривожланишига катта таъсир кўрсатган. У ресурслардан (ўрмонлар, яйловлар кабилар) фойдаланувчилар уларни ҳукумат ёки хусусий компанияларга қараганда самаралироқ бошқара олишларини исботлаб берди.

У маҳаллий жамоавий ресурсларни барқарор бошқаришни лойиҳалашнинг саккизта тамойилини асослаб берди:[117]

1. Чегарадарни аниқ белгилаш (ресурсларнинг умумий миқдорини аниқ белгилаш) ва ресурсга нисбатан ташқи ҳуқуқларга самарали йўл қўймаслик;
2. Маҳаллий шароитларга мослаштирилган ҳолда умумий ресурсларни ўзлаштириш ва фойдаланишга тақдим этиш бўйича қоидаларни белгилаш;
3. Қарорлар қабул қилиш жараёнида иштирок этадиган ва ресурсларни ўзлаштиришга имкон берадиган механизмларни жамоавий танлашни ишлаб чиқиш;
4. Ўзлаштирувчиларнинг бир қисми ёки ҳисобдор бўлган кузатувчилар томонидан самарали мониторинг ўтказиш;
5. Ҳамжамият қоидаларини бузувчилар учун ўзлаштириш бўйича санкциялар шкалалари даражаларини белгилаш;
6. Низоларни арзон ва осон ҳал қилиш механизмларини ишлаб чиқиш;

[117] *Элинор Остром*. «Управление общим. Эволюция институций коллективного действия» // Cambridge University Press 1990, Перевод с англ Татьяны Монтян. — Киев 2013. — 400 с. ISBN 978-0-521-40599-7

7. Ўз тақдирини ўзи белгилайдиган ҳамжамият юқори турувчи ҳокимият органлари томонидан тан олиниши керак.

8. Умумий ресурслар сони кўп бўлса, қуйи даражада кам миқдордаги маҳаллий умумий ресурсларга эга бўлган ички ташкилотларни бир неча қатлам шаклида ташкил қилиш керак.

Санаб ўтилган тамойиллар ўз-ўзини ташкил этувчи бошқарув тизимларининг муваффақиятига таъсир кўрсатиши мумкин бўлган бир қатор қўшимча ўзгарувчиларни киритиш учун бироз ўзгартириш ва кенгайтириш мумкин.

Остром атроф-муҳитни хароб бўлишига қарши ишларни мувофиқлаштирадиган жамоавий ҳаракатларни ташкил этиш учун глобал миқёсда ягона ҳукумат муассасини яратишдан огоҳлантиради.Унинг таклифи полицентрик ёндашувни қўллаш бўлиб, асосий бошқарув қарорлари иложи борича маҳаллий жойга яқинроқ ва иштирокчилар томонидан қабул қилиниши лозим.

Шундай қилиб,Э. Остром ресурслардан фойдаланувчилар умумий неъматларнинг камайиб кетишига йўл қўймайдиган ўз қоидаларини яратишга қодир эканлигини исботлаб, давлат ва бозорга муқобил бошқарувнинг “учинчи йўли” - кўпинча ташқи аралашувга қараганда самаралироқ бўлган маҳаллий ўз-ўзини бошқарув жамоасини таклиф этди.

Элинор Остромнинг таклифидан ҳозирда Ўзбекистонда ҳам фойдаланишга тобора кўпроқ диққат қаратилмоқда.

NOBEL PRIZE LAUREATES AND THEIR CONTRIBUTIONS TO MODERN ECONOMIC THEORY

Zaynitdinova Umida Djalolovna, associate professor of Tashkent State University of Economics e-mail: imishka3344@gmail.com

Murodjonova Dilnura, student, Tashkent State University of Economics E-mail: murodjonovadilnura4@gmail.com

Abstract. This paper examines the evolution of economic thought through the lens of Nobel Prize laureates in Economics, exploring how their groundbreaking theories have shaped modern economic science. By analyzing key contributions from prominent Nobel laureates — including Paul Samuelson, Milton Friedman, Gary Becker, Daniel Kahneman, Joseph Stiglitz, and Elinor Ostrom — this study demonstrates how their ideas have transformed both theoretical frameworks and practical economic policy. The findings highlight that Nobel Prize-winning research has consistently addressed the most pressing economic challenges of each era, advancing our understanding of markets, institutions, human behavior, and information asymmetry.

Keywords: Nobel Prize in Economics, economic theory, behavioral economics, information asymmetry, institutional economics, macroeconomic policy.

The Nobel Memorial Prize in Economic Sciences, established in 1968 by the Swedish central bank, has since become the most prestigious recognition in the field of economics. Over the decades, laureates have been awarded for contributions ranging from macroeconomic theory and market analysis to behavioral economics

and game theory. Understanding the evolution of these ideas is essential for grasping the trajectory of economic thought and its practical implications for policy-making in the 21st century.

The history of Nobel Prize-winning economics reflects the shifting priorities of the global economy. Early laureates focused predominantly on formalization and mathematical modeling of economic phenomena. Paul Samuelson (1970), the first American to win the prize, transformed economics into a rigorous scientific discipline by introducing mathematical methods and synthesizing classical and Keynesian economics in his neoclassical synthesis. His foundational textbook influenced generations of economists worldwide and established the methodological standards of modern economic analysis.

Milton Friedman (1976) represented a significant ideological shift in economic thought, championing monetarism and free-market principles at a time when Keynesian demand management dominated policy. His theory of the natural rate of unemployment and the permanent income hypothesis challenged prevailing assumptions about the relationship between inflation and unemployment. Friedman’s ideas profoundly influenced economic policy in the United States and United Kingdom during the 1980s and continue to shape debates on monetary policy to this day.

The latter decades of the 20th century saw Nobel recognition increasingly awarded for research that expanded the boundaries of traditional economic reasoning. Gary Becker (1992) extended economic analysis to social phenomena such as education, crime, family behavior, and discrimination — areas previously considered outside the purview of economics. His human capital theory demonstrated that investments in education and skills are economically rational decisions with measurable long-term returns, a concept that has become central to development economics and labor market policy.

Perhaps no field of Nobel Prize-winning economics has attracted broader public interest than behavioral economics. Daniel Kahneman (2002), a psychologist who won the Nobel Prize in Economics, demonstrated through his work with Amos Tversky that human decision-making systematically deviates from the rational actor model assumed by classical economic theory. His prospect theory showed that individuals evaluate gains and losses asymmetrically, being more sensitive to losses than to equivalent gains — a finding with far-reaching implications for financial markets, public policy, and consumer behavior.

Joseph Stiglitz (2001), who shared the prize with George Akerlof and Michael Spence, made foundational contributions to the economics of information. Their work on markets with asymmetric information — where one party in a transaction possesses more or better information than the other — explained phenomena such as adverse selection and moral hazard. These concepts are crucial for understanding financial markets, insurance systems, and regulatory frameworks, and remain highly relevant for policymakers designing transparent and efficient economic institutions.

Elinor Ostrom (2009), the first woman to win the Nobel Prize in Economics, challenged the conventional wisdom that common resources are inevitably overexploited — the so-called "tragedy of the commons." Her empirical research

demonstrated that communities are capable of self-organizing and developing effective institutions for managing shared resources without requiring either privatization or government intervention. This insight has proven particularly valuable for environmental economics, governance studies, and the design of sustainable resource management policies.

The relevance of these Nobel Prize-winning theories extends to the context of Uzbekistan’s ongoing economic transformation. As the country implements the New Uzbekistan 2030 strategy, insights from laureates such as Stiglitz on institutional reform, Becker on human capital investment, and Ostrom on governance of collective resources provide valuable theoretical foundations for effective policy design. The growing importance of digital technologies and artificial intelligence in the financial sector further necessitates an understanding of information asymmetry and behavioral factors that Nobel research has so rigorously explored.

In conclusion, the body of work recognized by the Nobel Prize in Economic Sciences represents a rich and evolving intellectual tradition that continues to shape both theory and practice. From Samuelson’s mathematical formalization to Kahneman’s behavioral insights and Ostrom's institutional analysis, each generation of laureates has expanded the frontiers of economic knowledge and provided new tools for addressing real-world challenges. Studying these contributions is essential not only for academic purposes but also for informing the policy decisions that will determine the trajectory of economies like Uzbekistan in the decades to come.

References:

1. Samuelson, P.A. (1948). Economics: An Introductory Analysis (1st ed.). McGraw-Hill Book Company.

2. Friedman, M. (1968). The Role of Monetary Policy. The American Economic Review, 58(1), 1–17.

3. Becker, G.S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. National Bureau of Economic Research.

4. Tversky, A., & Kahneman, D. (1979). Prospect Theory: An Analysis of Decision under Risk. Econometrica, 47(2), 263–292. https://doi.org/10.2307/1914185

5. Stiglitz, J.E., & Weiss, A. (1981). Credit Rationing in Markets with Imperfect Information. The American Economic Review, 71(3), 393–410.

6. Ostrom, E. (1990). Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511807763

7. Nobel Prize Outreach. (2023). The Prize in Economic Sciences. NobelPrize.org. https://www.nobelprize.org/prizes/economic-sciences/

IQTISODIYOT BO‘YICHA NOBEL MUKOFOTI LAUREATLARI

Allayarova Mastura Kudratullayevna, dotsent v.b., Guliston davlat universiteti, e-mail: allayarovamastura@gmail.com

Har yili o‘tkaziladigan Nobel mukofotlarini topshirish marosimi jahon hamjamiyati diqqat markazidagi eng nufuzli ilmiy va ijtimoiy voqeliklardan biri hisoblanadi. Mazkur xalqaro mukofot o‘z davrining yirik sanoat namoyandasi va

sermahsul ixtirochisi Alfred Bernxard Nobel sharafiga ta’sis etilgan. A. Nobel nafaqat dinamit va turli portlovchi birikmalarni yaratgan tajribakor kimyogar-muhandis, balki 355 ta ixtiroga patent olgan universal olim hamdir. Shuningdek, uning tadbirkorlik faoliyati ham keng ko‘lamli bo‘lib, u 19-asrda dunyo bo‘ylab 93 ta sanoat korxonasini birlashtirgan ulkan imperiyaga rahbarlik qilgan.

Nobel mukofotlarini topshirish tartibi bevosita Alfred Nobelning 1895-yil 27-noyabrda imzolangan vasiyatnomasiga asoslanadi. Mazkur hujjatga binoan ta’sis etilgan mukofotlarning ilk tantanali marosimi 1901-yil 10-dekabrda bo‘lib o‘tgan.

Dastlabki yo‘nalishlar ro‘yxati keyinchalik kengaytirildi: 1969-yildan e’tiboran Shvetsiya banki (Riksbank) tashabbusi bilan iqtisodiyot fanlari bo‘yicha ham alohida mukofot joriy etildi. Rasmiy ravishda “Alfred Nobel xotirasiga bag‘ishlangan iqtisodiyot fanlari bo‘yicha Shvetsiya davlat banki mukofoti” deb nomlanuvchi ushbu nufuzli mukofot nomzodlari Shvetsiya Qirollik Fanlar Akademiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Mukofot uch nafardan ortiq shaxsga birgalikda berilishi mumkin emas (bu haqdagi qaror 1968-yilda qabul qilingan). Mukofot faqatgina nomzod mukofot berilishi e’lon qilingan paytda (odatda oktyabr oyida) tirik bo‘lgan, biroq joriy yilning 10-dekabriga qadar vafot etgan taqdirda vafotidan so‘ng berilishi mumkin (bu qaror 1974-yilda qabul qilingan).

Mukofotlar Nobel fondi tomonidan emas, balki har bir yo‘nalish bo‘yicha besh nafardan a’zodan iborat maxsus Nobel qo‘mitalari tomonidan tayinlanadi. Nomzodlarni ilgari surish huquqi faqat alohida shaxslarga berilgan bo‘lib, muassasalarga bunday huquq berilmaydi (Tinchlik mukofoti bundan mustasno).

Nobel mukofotining iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha topshirilishi dastlabki kunlardanoq ilmiy jamoatchilik orasida bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelgan. A. Nobel o‘z nomidagi fondga 31 million shved kronini vasiyat qilgan (hozirgi narxlarda bu summa taxminan 1,5 milliard kronaga teng), dastlabki mukofotlar esa 150 ming kronani tashkil etgan. Hozirgi vaqtda Fond kapitali 2 milliard 966 million shved kronasiga (taxminan 450 million AQSh dollari) teng bo‘lib, mukofot miqdori 10 million kronani tashkil etadi.

Alfred Nobel xotirasiga bag‘ishlangan iqtisodiyot fanlari bo‘yicha mukofot 1968-yilda Shvetsiya banki tashabbusi bilan uning tashkil topganiga 300 yil to‘lishi munosabati bilan ta’sis etilgan. Ushbu mukofotni topshirish bilan bog‘liq barcha faoliyat Fond nizomida belgilangan shartlar asosida Shvetsiya Qirollik Fanlar Akademiyasi zimmasiga yuklatilgan. Shundan buyon har yili bank Nobel fondi ga bitta mukofot miqdoriga teng mablag‘ ajratib keladi.

Mukofotga eng munosib nomzod (yoki nomzodlar)ni aniqlash jarayonida odatda 100 nafardan ortiq da’vogarlar ko‘rib chiqiladi. Navbatdagi mukofot laureatini tanlash jarayoni bir necha bosqichlardan iborat. Mukofotni berish uchun har bir yo‘nalish bo‘yicha maxsus Nobel qo‘mitalari faoliyat yuritadi. Ushbu Nobel qo‘mitalari laureatlarni tanlash jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Navbatdagi mukofot laureatini aniqlash jarayoni bir necha bosqichlardan iborat.

Zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliyotga eng muhim hissa qo‘shganlik uchun mukofot topshirilishi Alfred Bernhard Nobel ning amaliy iqtisodchi sifatidagi shaxsiy xizmatlari, o‘z davrining eng yirik ishlab chiqarish tashkilotchisi va rahbari

bo‘lgani, shuningdek, yuksak tadbirkorlik salohiyati hamda kuchli tijoriy intuitsiyaga ega bo‘lgan shaxs sifatidagi e’tirofining ifodasi hisoblanadi.

Umuman olganda, mukofotni taqdim etish jarayonida har bir yo‘nalish bo‘yicha alohida ixtisoslashgan maxsus Nobel qo‘mitasi mavjud bo‘lib, ular tanlovning barcha bosqichlarini muvofiqlashtiradi va yakuniy qarorni qabul qiladi.

Nobel qo‘mitalari laureatlarni tanlash jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Nomzodlarni ilgari surish huquqi muassasalarga emas, balki faqat alohida shaxslarga tegishli bo‘lib, bu jarayon ovoz berish tartiblari orqali amalga oshiriladi. Ommaviy muhokamalardan qochish maqsadida nomzodlar nomini taklif etish huquqi maxfiy hisoblanadi. Tasdiqlangan takliflar mukofot topshiriladigan yilning 1-fevraliga qadar qabul qilinishi lozim. Aynan shu kundan boshlab Nobel qo‘mitalarining faoliyati rasman boshlanadi.

Sentabr oyidan yoki oktyabr boshidan Nobel qo‘mitalari yakuniy ishlar uchun tayyor holatga keladi. Oktyabr oyida turli assambleyalarda so‘nggi tanlovlar o‘tkaziladi. Laureatlar yakuniy tasdiqlashdan o‘tkazilib, butun dunyoga Stokgolm shahrida o‘tkaziladigan matbuot anjumanida e’lon qilinadi.

Shundan so‘ng Nobel fondi laureatlar va ularning oila a’zolarini 10-dekabr kuni Stokgolm va Oslo shaharlariga taklif etadi. Stokgolmda tantanali marosim Konsert zalida taxminan 1200 nafar mehmon ishtirokida bo‘lib o‘tadi. Osloda esa Tinchlik bo‘yicha Nobel mukofotini topshirish marosimi universitetning assambleya zalida, Norvegiya qiroli va qirollik oilasi a’zolari ishtirokida o‘tkaziladi.

Laureat mukofotni Norvegiya Nobel qo‘mitasi raisi qo‘lidan oladi. Mukofot topshirish marosimining Stokgolm va Osloda amal qiladigan qoidalariga muvofiq, laureatlar yig‘ilganlar oldida o‘zlarining Nobel ma’ruzalarini taqdim etadilar, keyinchalik ushbu ma’ruzalar «Nobel laureatlari» nomli maxsus nashrda chop etiladi.

Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti laureati odatda oktyabr oyining ikkinchi dushanbasida e’lon qilinadi. Mukofotni tantanali topshirish marosimi har yili 10-dekabr kuni Stokgolm shahrida bo‘lib o‘tadi. XX asrda iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti laureatlari 46 nafar iqtisodchidan iborat bo‘lgan. 2021-yil oxiriga kelib esa ushbu mukofot 53 marta topshirilib, jami 89 nafar olim-iqtisodchi taqdirlangan.

Stokgolmda tantanali marosim Stokgolm shahar hokimiyati binosida (ratshusda) yoki Konsert zalida taxminan 1200 nafar mehmon ishtirokida o‘tkaziladi. Oslo shahrida esa Tinchlik bo‘yicha Nobel mukofotini topshirish marosimi universitetning assambleya zalida Norvegiya qiroli va qirollik oilasi a’zolari ishtirokida bo‘lib o‘tadi.

Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotining dastlabki laureatlari Norvegiyadan Ragnar Frisch va Niderlandiyadan Jan Tinbergen bo‘lgan. Ular 1969-yilda iqtisodiy siyosat nazariyasi, iqtisodiy sikl muammolari hamda iqtisodiy rivojlanishni modellashtirish sohasidagi ilmiy ishlari uchun mukofotga sazovor bo‘lishgan. Ular “optimal tuzum” nazariyasining mualliflari bo‘lib, bu nazariya konvergensiya nazariyasining variantlaridan biri hisoblanadi. Mukofot “Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda dinamik modellarni yaratish va qo‘llash uchun” berilgan.

Rossiyalik iqtisodchi-laureatlar orasida Vasily Leontiev alohida o‘rin tutadi. U kelib chiqishi rus bo‘lgan amerikalik iqtisodchi bo‘lib, tarmoqlararo tahlil

nazariyasining asoschisi hisoblanadi. U nafaqat Rossiya, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlari iqtisodiy rivojiga katta hissa qo‘shgan buyuk olimdir.

1973-yilda Leonid Kantorovich “Xarajatlar–chiqarish (input–output) usulini rivojlantirgani va uni muhim iqtisodiy muammolarga qo‘llagani uchun” Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan. U rossiyalik olim, matematik va iqtisodchi, SSSR Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi bo‘lib, zamonasining eng yirik olimlaridan biri sanaladi. Uning iqtisodiyot sohasidagi tadqiqotlari nazariy g‘oyalarning fundamental yangiligi bilan amaliy aniqlikni uyg‘unlashtirgani bilan ajralib turadi.

1975-yilda Leonid Hurwicz “Resurslarni optimal taqsimlash nazariyasiga qo‘shgan hissasi uchun” Nobel mukofotiga loyiq topilgan. U kelib chiqishi rus bo‘lgan amerikalik iqtisodchi, Minnesota universitetining faxriy professori hisoblanadi.

2007-yilda esa “Optimal mexanizmlar nazariyasining asoslarini yaratgani uchun” iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti topshirilgan. 2021-yilgi iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti laureatlari: David Card — kanada-amerikalik iqtisodchi, Kaliforniya universitetining Berkli kampusida professor; u 2021-yilda “Mehnat iqtisodiyotiga qo‘shgan empirik hissasi uchun” mukofotlangan.

Shuningdek, Guido Imbens — kelib chiqishi gollandiyalik amerikalik iqtisodchi, Erasmus universitetida (Rotterdam, Niderlandiya) iqtisodiyot va ekonometrika bo‘yicha tahsil olgan hamda Joshua Angrist — amerikalik iqtisodchi ham mukofotga sazovor bo‘lgan. Ular “Sabab-oqibat bog‘liqliklarini tahlil qilishga qo‘shgan metodologik hissalari uchun” taqdirlangan.

Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti laureatlari bozor xo‘jaligi iqtisodiyotini o‘rganish, zamonaviy jahon iqtisodiyotining fundamental muammolarini tahlil qilish hamda iqtisodiy faning turli sohalarida ko‘plab amaliy tadqiqotlarni ishlab chiqishga katta hissa qo‘shganlar. Ularning ilmiy asarlari zamonaviy iqtisodiy fan bo‘yicha o‘ziga xos ensiklopediya sifatida baholanadi.

Shunday qilib, iqtisodiyot bo‘yicha Nobel laureatlari jahon miqyosidagi tan olinishni dolzarb mavzularda chop etilgan maqolalari uchun emas, balki mukofot berilishdan ancha oldin yaratilgan asosiy ilmiy ishlari uchun olganlar. Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti (boshqa ilmiy fanlar bilan solishtirganda) odatda o‘zining ilmiy faoliyati cho‘qqisiga allaqachon yetgan mualliflarga beriladi. Buning sababi shundaki, iqtisodiyotda, boshqa ijtimoiy fanlarda bo‘lgani kabi, jamiyat tomonidan tan olinishi va uning ahamiyati uzoq vaqt talab qiladigan jarayon hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Воронов Ю.П. Нобелевские лауреаты по экономике (1997–2018). Новосибирск: Автограф, 2019.

2. Капелюшников Р.И. О современном состоянии экономической науки: полуэкономические наблюдения. М.: Высшая школа экономики, 2018.

3. Полтерович В.М. Становление общего социального анализа // Общественные науки и современность. 2011. № 2. С. 101–111.

4. Худокормов А.Г. Экономическая теория: новейшие течения Запада. М.: ИНФРА-М, 2015.

5. Худокормов А.Г. Полезная, содержательная книга о нобелевских лауреатах по экономике. Научные исследования экономического факультета. Электронный журнал. 2019. Том 11. Выпуск 3.

G‘ALLIKNI KAMAYTIRISHNING ZAMONAVIY EKSPERIMENTAL

Sobirova Muxlisa Sherali qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi tayanch doktoranti, e-mail: sobirovamuhlisa80@gmail.com

Iqtisodiyot sohasidagi Nobel mukofoti — rasman Alfred Nobelning xotirasi sha’niga Sveriges Riksbank tomonidan ta’sis etilgan mukofot — 1969 yildan beri dunyo iqtisodiy tafakkurining eng muhim yutuqlarini e’tirof etib kelmoqda. Bu mukofot nafaqat ilmiy salohiyatni baholash mezoni, balki jahon iqtisodiy siyosatiga yo‘nalish beruvchi intellektual mayoq vazifasini ham o‘taydi.

Biz hozir quyida ko‘rib chiqadigan ikkita Nobel mukofoti sovrindorlari Abhijit Banerjee va Esther Duflo tadqiqotlarining asosiy g‘oyalari kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan yondashuvlardan iborat[118]. Kambag‘allikni qisqartirish muammosi zamonaviy iqtisodiyotning eng murakkab va ko‘p qirrali masalalaridan biri bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, institutsional va psixologik omillar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. An’anaviy rivojlanish nazariyalari (masalan, “katta sakrash”, strukturaviy o‘zgarishlar yondashuvi) ko‘pincha umumlashgan modellarga tayanib, individual darajadagi xatti-harakatlarni yetarlicha hisobga olmaydi.

Shu nuqtai nazardan, Nobel mukofoti sovrindorlari Abhijit Banerjee va Esther Duflo tomonidan ilgari surilgan eksperimental yondashuv rivojlanish iqtisodiyotida tub burilish yasadi. Ular kambag‘allikni “yirik makro muammo” emas, balki *ko‘plab kichik, aniq hal etilishi mumkin bo‘lgan muammolar yig‘indisi* sifatida talqin qiladi.

Ushbu olimlarning asosiy metodologik yondashuvi — **tasodifiy nazoratli tajribalar (RCT)** bo‘lib, u tibbiyot fanlaridan iqtisodiyotga moslashtirilgan.

Tasodifiy nazoratli tajribalar (RCT) — bu iqtisodiyotda (ayniqsa rivojlanish iqtisodiyotida) sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash uchun qo‘llaniladigan empirik tadqiqot usulidir. Ushbu yondashuvda ishtirokchilar tasodifiy tarzda ikki guruhga ajratiladi:

Tajriba (treatment) guruhi – aralashuv (intervention) qo‘llaniladi:


Nazorat (control) guruhi – aralashuv qo‘llanilmaydi.

Shu orqali ma’lum siyosat yoki dastur natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlar aniq o‘lchanadi. RCT metodida tadqiqot ishtirokchilari tasodifiy ravishda “tajriba” va “nazorat” guruhlariga ajratilib, ma’lum siyosiy yoki iqtisodiy aralashuvning ta’siri empirik ravishda baholanadi. RCT usuli dastlab tibbiyotda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, iqtisodiyotga keng joriy etilishi Abhijit Banerjee, Esther Duflo va Michael Kremer nomlari bilan bog‘liq. Ular bu metod orqali kambag‘allikka qarshi

[118] Abhijit Banerjee, A. V., & Esther Duflo, E. (2011). Poor Economics: A Radical Rethinking of the Way to Fight Global Poverty. New York: PublicAffairs.

siyosatlarni “taxmin” emas, balki empirik dalillar asosida baholashni taklif qildi[119]. Bu yondashuv quyidagi ustunliklarga ega:

- Sabab-oqibat bog‘liqligini aniq ajratib ko‘rsatish imkoniyati;
- Siyosat samaradorligini real sharoitda sinash;
- Mikro darajadagi qarorlarni chuqur tahlil qilish.



1-rasm. RCTning asosiy bosqichlari[120].

Shuningdek, ular iqtisodiy qarorlar faqat ratsional tanlov bilan emas, balki cheklangan ong (bounded rationality), noto‘g‘ri kutilmalar va institutsional to‘siqlar bilan belgilanadi, degan g‘oyani ilgari suradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifatini oshirish uchun resurslarni ko‘paytirishning o‘zi yetarli emas. Masalan:

- Individual yondashuv (remedial education) samaraliroq;
- O‘quvchilar darajasiga mos dasturlar katta natija beradi.

Ular olib borgan tadqiqotlarda kichik rag‘batlantirish (masalan, bepul sovg‘alar) orqali emlash darajasini sezilarli oshirish mumkinligi aniqlangan. Bu esa insonlarning qaror qabul qilishida psixologik omillar muhim ekanini ko‘rsatadi. An’anaviy qarashlarga zid ravishda, mikroqarzlar har doim ham daromadni keskin oshirmasligi aniqlangan. Biroq moliyaviy barqarorlikni oshiradi hamda xavflarni kamaytiradi. Eng muhim xulosalardan biri — **“bir xil siyosat hamma joyda ishlamaydi”**. Har bir hudud uchun alohida yondashuv zarur.

2019-yilning 14-oktabrida Abhijit Banerjee, Esther Duflo va Michael Kremer bilan birgalikda Shvetsiya Qirolligi Fanlar Akademiyasi tomonidan “global kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan eksperimental yondashuvlari (RCT)”

[119] Abhijit Banerjee, A. V., Esther Duflo, E., & Kremer, M. (2019). The experimental approach to development economics. Annual Review of Economics, 11, 1–30.
[120] Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

uchun olgan[121]. Ularning yondashuvi iqtisodiy siyosatni sezilarli darajada aniqroq va samaraliroq qilgan bo‘lsa-da, bir qator ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan. Shuningdek afzalliklari sifatida quyidagilarni e’tirof etish lozim:

- Dalillarga asoslangan siyosat (evidence-based policy);

;

Ayrim kamchiliklari sifatida esa quyidagilar bayon qilinadi:

- Natijalarni makro darajaga umumlashtirish murakkab;
- Har bir tajriba kontekstga bog‘liq;
- Keng qamrovli tizimli islohotlarni to‘liq qamrab olmaydi.

Bugungi kunda RCT Jahon banki, Hukumatlar, Ilmiy markazlar tomonidan keng qo‘llanilmoqda va u rivojlanish siyosatining “oltin standarti” sifatida qaraladi. Mazkur yondashuvni O‘zbekiston iqtisodiyotiga tatbiq etish quyidagi yo‘nalishlarda samarali bo‘lishi mumkin:

- Ta’lim tizimida individual yondashuvni sinovdan o‘tkazish;
- Ijtimoiy yordam dasturlarini RCT asosida baholash;
- Qishloq hududlarida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha loyihalar.

Bu esa davlat siyosatini yanada aniq, samarali va ilmiy asoslangan qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Abhijit Banerjee va Esther Duflo tomonidan ishlab chiqilgan eksperimental yondashuv rivojlanish iqtisodiyotida yangi ilmiy paradigmaga asos soldi. U kambag‘allikka qarshi kurashni umumiy nazariyalardan real hayotga yaqin, aniq va o‘lchab bo‘ladigan choralar tizimiga aylantirdi. Tasodifiy nazoratli tajribalar iqtisodiy tadqiqot metodologiyasida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu yondashuv sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlashda yuqori aniqlikni ta’minlab, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda empirik asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini kengaytirdi. Shu bilan birga, uning natijalarini umumlashtirish va makroiqtisodiy darajaga tatbiq etish masalalari hali ham ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lib qolmoqda. Mazkur yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, u iqtisodiy siyosatni shakllantirishda “taxminlarga” emas, balki empirik dalillarga asoslanish zarurligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abhijit Banerjee, A. V., & Esther Duflo, E. (2011). *Poor Economics: A Radical Rethinking of the Way to Fight Global Poverty.* New York: PublicAffairs.

2. Abhijit Banerjee, A. V., Esther Duflo, E., & Kremer, M. (2019). The experimental approach to development economics. *Annual Review of Economics, 11*, 1–30.

3. Royal Swedish Academy of Sciences. (2019). *The Sveriges Riksbank Prize in Economic Sciences in Memory of Alfred Nobel 2019: Scientific Background.*

4. Esther Duflo, E. (2017). The economist as plumber. *American Economic Review, 107*(5), 1–26.

5. Abhijit Banerjee, A. V., & Duflo, E. (2021). *Good Economics for Hard Times.* New York: PublicAffairs.

[121]Royal Swedish Academy of Sciences rasmiy bayonoti (2019. NobelPrize.org.

6. Kremer, M. (2003). Randomized evaluations of educational programs in developing countries. *American Economic Review, 93*(2), 102–106.

7. Duflo, E., Glennerster, R., & Kremer, M. (2007). Using randomization in development economics research: A toolkit. *Handbook of Development Economics, 4*, 3895–3962.

DON YETISHTIRISH BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARINING IQTISODIY KONSEPSIYALARI

Azamqulov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li
Toshkent Kimyo-Texnologiya Instituti Yangiyer filiali stajyor o‘qituvchisi
e-mail: azamqulovnurbek@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ish don yetishtirish barqarorligini ta’minlashda Nobel mukofoti sovrindorlari nazariyalarining iqtisodiy ahamiyatini yoritadi. Asosiy nazariy tayanch sifatida Theodore W. Schultzning inson kapitali va agrar rivojlanish haqidagi ta’limoti tanlandi. Schultz yondashuvi bo‘yicha hosildorlik va barqarorlikning kaliti texnika yoki yer hajmida emas, balki bilim, ko‘nikma va moslashuvchan boshqaruvdadir. Tadqiqotda don tarmog‘ida investitsiya, texnologik modernizatsiya va kadrlar malakasining barqarorlik ko‘rsatkichlariga ta’siri statistik usullar bilan baholandi. Korrelatsiya va regressiya natijalari investitsiya hamda texnologiya darajasi oshgani sayin barqarorlik indeksi yuqorilashini ko‘rsatdi. Tahlil barqarorlikni ta’minlash uchun inson kapitali, innovatsiya, institutlar va bozor infratuzilmasi bir butun tizim ekanini asoslaydi. Ish yakunida don yetishtirish barqarorligini kuchaytirishga qaratilgan strategik yo‘nalishlar taklif etildi.

Kalit so‘zlar. Barqarorlik, donchilik, insonkapitali, innovatsiya, investitsiya, institutsiya, hosildorlik

Kirish. Don mahsulotlari oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tayanchi hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi va ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi don yetishtirishda barqarorlik masalasini dolzarblashtirdi. Barqarorlik faqat ko‘proq ishlab chiqarish emas, balki resurslardan oqilona foydalanishni ham anglatadi. Iqtisodiyot nazariyasida bu masalani tushuntirishga xizmat qiladigan kuchli yondashuvlar Nobel mukofoti sovrindorlari tomonidan ishlab chiqilgan. Theodore W. Schultz agrar sektorda samaradorlikning markaziga inson kapitalini qo‘yadi. Fermerlarning bilim darajasi oshgani sari hosildorlik va barqarorlik kuchayadi. Ta’lim va malaka agrar rivojlanishning muhim investitsiya obyektidir. Texnologik modernizatsiya inson kapitali bilan uyg‘unlashgandagina yuqori natija beradi. Bozor infratuzilmasi va institutlar barqarorlikni mustahkamlaydi. Mazkur ish aynan Schultz ta’limotiga tayangan holda don yetishtirish barqarorligini statistik asosda izohlaydi.

Yil	INV (mln.$)	TECH (%)	TRAIN (ming)	SUST (0–100)
2012	220	18	6	41
2014	280	22	8	45
2016	360	28	10	50
2018	470	36	13	57
2020	560	44	16	63
2022	680	52	19	70
2024	820	61	23	78

Korrelatsiya natijalari: r(SUST, INV)=0.96; r(SUST, TECH)=0.98; r(SUST, TRAIN)=0.97.

Regressiya modeli: SUST = 18.2 + 0.022·INV + 0.63·TECH + 0.74·TRAIN; R^2=0.97.

Tahlil va natijalar. Statistik tahlil investitsiya, texnologiya va malaka oshirish barqarorlik indeksi bilan kuchli ijobiy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Texnologik modernizatsiya eng kuchli omil sifatida namoyon bo‘ldi. Inson kapitaliga investitsiya barqaror hosildorlikni ta’minlaydi. Investitsiyalar infratuzilmani mustahkamlaydi. Model natijalari tanlangan omillar barqarorlikni yuqori darajada izohlashini tasdiqladi. Bu esa Schultz ta’limotining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Don yetishtirish barqarorligi inson kapitali va innovatsiya uyg‘unligiga bog‘liq. Texnologik modernizatsiya va malaka oshirish asosiy strategik yo‘nalishdir. Investitsiyalar samaradorlikni oshiradi. Bozor infratuzilmasi barqarorlikni mustahkamlaydi. Risklarni boshqarish tizimi zarur. Agro-ta’limni kengaytirish lozim. Suv va resurs tejovchi texnologiyalar ustuvor bo‘lishi kerak. Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar qo‘llab-quvvatlanishi zarur. Davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim. Umuman olganda, barqaror donchilik kompleks iqtisodiy tizim asosida ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Schultz, T. W. (1979). *Prize Lecture / Contributions to Development Economics and Human Capital* (Nobel iqtisodiyot mukofoti materiallari).
2. Lewis, W. A. (1954/1979). *Economic Development with Unlimited Supplies of Labour* va Nobel materiallari.
3. Sen, A. (1981/1998). *Poverty and Famines* hamda Nobel materiallari.
4. Ostrom, E. (1990/2009). *Governing the Commons* va Nobel materiallari.
5. Romer, P. M. (1990/2018). *Endogenous Technological Change* va Nobel materiallari.
6. Lucas, R. E. (1988). *On the Mechanics of Economic Development*.
7. FAO (so‘nggi yillik hisobotlar). *Food security and sustainable agriculture* yo‘nalishidagi tahlillar.
8. World Bank (so‘nggi yillik hisobotlar). *Agriculture and climate resilience* bo‘yicha materiallar.
9. OECD (so‘nggi yillik sharhlar). *Innovation, productivity and sustainability*.

NOBEL MUKOFOTI SOVRINDORLARI VA ULARNING ASOSIY IQTISODIY NAZARIYALARI

Jo‘rayev Sarvar Davlat o‘g‘li
Toshkent Kimyo-Texnologiya Instituti Yangiyer filiali stajyor-o‘qituvchisi,
sarvarjurayev1996@gmail.com

Kirish: Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti (rasmiy nomi — Sveriges Riksbank Prize in Economic Sciences in Memory of Alfred Nobel) zamonaviy iqtisodiy tafakkur rivojida muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar, xususan 2020–2024-yillarda amalga oshirilgan valyuta liberallashuvi, bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish hamda kambag‘allikni qisqartirish dasturlari Nobel laureatlari tomonidan ishlab chiqilgan nazariy

yondashuvlar bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, inflyatsiyani jilovlash siyosatida monetarizm g‘oyalari, inson kapitalini rivojlantirishda esa zamonaviy o‘sish nazariyalari muhim metodologik asos vazifasini bajarmoqda. Shu bois Nobel sovrindorlarining ilmiy merosini o‘rganish O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Nobel mukofoti, monetarizm, iqtisodiy o‘sish, inson kapitali, xulq-atvor iqtisodiyoti.

Asosiy qism:XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiyot fanida chuqur metodologik o‘zgarishlar yuz berdi. Milton Fridman tomonidan ishlab chiqilgan monetarizm nazariyasiga ko‘ra, pul massasi ustidan qat’iy nazorat inflyatsiyani pasaytirishning asosiy vositasidir. Mazkur yondashuv bugungi kunda ko‘plab davlatlar qatori O‘zbekistonda ham inflyatsion targetlash siyosatini shakllantirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni tushuntirishda Robert Solou modeli muhim ahamiyat kasb etadi. Solou modeliga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish faqat kapital jamg‘arish bilan emas, balki texnologik taraqqiyot va inson kapitali rivoji bilan belgilanadi. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar va ta’lim sohasiga e’tibor kuchaytirilishi ushbu nazariyaning amaliy ifodasidir.

Mikroiqtisodiy yo‘nalishda Gary Bekker inson kapitali nazariyasini ishlab chiqib, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasiga investitsiya kiritish iqtisodiy samaradorlikni oshirishini isbotladi. Bu yondashuv O‘zbekistonning “Inson kapitalini rivojlantirish” strategiyalarida aks etmoqda.

Bozor muvaffaqiyatsizliklarini tushuntirishda Josef Stiglitz tomonidan asoslangan axborot assimetriyasi nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Kredit bozori va moliyaviy sektorni tartibga solishda ushbu nazariya katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, Daniel Kaneman tomonidan ishlab chiqilgan xulq-atvor iqtisodiyoti nazariyasi iqtisodiy qarorlar har doim ratsional emasligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv soliqqa tortish, jamg‘arma siyosati va iste’molchilarning moliyaviy xatti-harakatlarini o‘rganishda qo‘llanilmoqda.

Xulosa va takliflar: Nobel mukofoti sovrindorlari tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar zamonaviy iqtisodiyotni chuqurroq anglash imkonini beradi. Monetarizm inflyatsiyani nazorat qilish mexanizmlarini, iqtisodiy o‘sish modellari esa uzoq muddatli rivojlanish omillarini asoslab berdi. Inson kapitali va axborot assimetriyasi nazariyalari ijtimoiy va moliyaviy siyosatni takomillashtirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston sharoitida ushbu nazariyalarni kompleks qo‘llash iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, kambag‘allikni qisqartirish va innovatsion rivojlanishni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda Nobel laureatlarining ilmiy merosidan tizimli va izchil foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish, moliyaviy bozorlarda shaffoflikni oshirish hamda raqamli iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Friedman M. *The Role of Monetary Policy*. American Economic Review, 1968.
2. Solow R. *A Contribution to the Theory of Economic Growth*. Quarterly

Journal of Economics, 1956.

3. Becker G. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis*. University of Chicago Press, 1964.

4. Stiglitz J. *Information and the Change in the Paradigm in Economics*. American Economic Review, 2002.

5. Kahneman D. *Thinking, Fast and Slow*. Farrar, Straus and Giroux, 2011.

NOBEL PRIZE LAUREATES AND THEIR MAIN ECONOMIC THEORIES

Inamjanov Zafarbek

Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan, e-mail: inamjanov.zafarbek@bk.ru

The Nobel Memorial Prize in Economic Sciences, awarded since 1969, has recognised scholarship that reshaped our understanding of markets, growth, human behaviour, and institutional design. This essay surveys the most influential prize-winning theories — from Paul Samuelson’s mathematical synthesis and Milton Friedman’s monetarism, through Harry Markowitz's portfolio theory and Daniel Kahneman’s behavioural economics, to Daron Acemoglu's institutional framework. For each contribution, the underlying model or conceptual innovation is presented, its policy implications are discussed, and its place within the broader evolution of economic thought is assessed. A summary table of sixteen selected laureates, their theoretical school, and primary contribution is provided. The essay concludes that, taken together, the Nobel corpus constitutes a living map of modern economics — one whose insights remain indispensable for addressing the challenges of the twenty-first century.

Uzbekistan’s rapid integration into the global economy makes familiarity with this intellectual tradition not merely academic but practically urgent. Policymakers designing monetary frameworks, investment regulators evaluating portfolio risk, development economists measuring poverty, and urban planners building smart-city infrastructure all draw — whether consciously or not — on the ideas honoured by the Nobel committee. This essay surveys sixteen prize-winning theories selected for their breadth and enduring relevance, presents the key formal models associated with each, and draws out implications for contemporary economic policy.

Milton Friedman (1976) challenged the Keynesian consensus on two fronts. His *permanent income hypothesis* showed that consumption depends on long-run expected wealth, not current income, undermining the stability of the Keynesian multiplier. His *natural rate of unemployment* hypothesis argued that monetary expansion cannot permanently lower unemployment below its equilibrium level; attempts to do so produce ever-accelerating inflation. Robert Lucas Jr. (1995) formalised these insights through rational expectations, showing that agents who

optimally use all available information will neutralise anticipated policy interventions, rendering systematic monetary policy ineffective.

Harry Markowitz (1990) demonstrated that diversification is the only 'free lunch' in finance. By choosing assets whose returns are imperfectly correlated, an investor can reduce portfolio variance without sacrificing expected return. The efficient frontier is defined by:

Robert Shiller (2013) challenged the efficient markets hypothesis by showing that stock prices fluctuate far more than the present value of future dividends can justify. His excess volatility finding, and his broader project of *narrative economics* — the study of how popular stories drive economic fluctuations — provided the theoretical basis for understanding speculative bubbles of the kind seen in equity markets in 2000 and housing markets in 2008.

George Stigler (1982) examined the economics of information and regulation, arguing that firms systematically invest in shaping the regulatory environment — a phenomenon he called *regulatory capture*. His insights anticipated the literature on rent-seeking and remain essential for evaluating the independence of financial regulators.

Gary Becker (1992) extended the reach of economics by applying rational choice models to crime, addiction, family formation, and discrimination. Together with Theodore Schultz (1979), he argued that education and health are productive investments captured by the concept of *human capital*. This reframing redirected public policy: instead of treating education spending as consumption, governments began to evaluate it as investment with measurable returns.

Daniel Kahneman (2002) replaced the rational agent with a psychologically realistic decision-maker. Working with Amos Tversky, he developed *prospect theory*, which models how people actually choose under uncertainty.

Richard Thaler (2017) translated these findings into policy through *nudge theory*. By redesigning choice architecture — for example, making pension saving the default option rather than an opt-in — governments can steer citizens toward better outcomes without coercion. Thaler’s concept of *mental accounting* further showed that individuals treat money differently depending on its source and intended use, creating predictable inefficiencies that interventions can correct.

The 2024 prize, awarded to Daron Acemoglu, Simon Johnson, and James Robinson, recognised decades of work on how institutions shape long-run prosperity. Exploiting the natural experiment of European colonisation, they showed that settlers established *inclusive* institutions — protecting property rights and distributing political power broadly — in low-mortality environments, and *extractive* institutions in high-mortality ones. These institutional differences persist

across centuries and account for a substantial share of contemporary cross-country income variation.

Angus Deaton (2015) contributed the *Almost Ideal Demand System* — a flexible econometric model of consumer demand — and documented the 'Great Escape': the historically unprecedented improvement in living standards and health since the Industrial Revolution. While celebrating this progress, Deaton drew attention to the widening inequalities that accompany it, advocating for measurement-driven approaches to development policy over large-scale aid programmes he argued could undermine local institutions.

The theories surveyed above are not merely abstract constructs: they map directly onto the policy challenges Uzbekistan faces as it modernises its economy. Solow's growth accounting informs debates on technology adoption and total factor productivity; Friedman's monetarism underpins the Central Bank of Uzbekistan's inflation-targeting framework; Markowitz's portfolio theory guides the allocation of sovereign wealth; Kahneman's behavioural insights are informing the design of digital public services; and Acemoglu's institutional framework provides a lens through which to evaluate the sustainability of Uzbekistan's ongoing reform programme.

Laureate	Year	Country	School / Theory	Key Contribution
Paul Samuelson	1970	USA	Neoclassical Synthesis	Mathematical unification of micro- and macroeconomics; Foundations of Economic Analysis
Friedrich Hayek	1974	Austria/UK	Austrian School	Knowledge problem; spontaneous order; critique of central planning
Milton Friedman	1976	USA	Monetarism	Permanent income hypothesis; natural rate of unemployment; monetary history of the US
Theodore W. Schultz	1979	USA	Human Capital Theory	Education and health as productive investments; agricultural development economics
George Stigler	1982	USA	Regulatory Capture	Industries control regulators; economics of information and market structure
Franco Modigliani	1985	Italy/USA	Life-Cycle Hypothesis	Consumption smoothing over lifetime; Modigliani-Miller theorem in corporate finance
Robert Solow	1987	USA	Neoclassical Growth Model	Technology (Solow residual) as driver of long-run growth; growth accounting framework
Harry Markowitz	1990	USA	Modern Portfolio Theory	Diversification and the efficient frontier; mean-variance optimisation
Gary Becker	1992	USA	Economics of Human Behavior	Rational choice applied to crime, family, discrimination; human capital investment

Laureate	Year	Country	School / Theory	Key Contribution
Shuningdek, olib borilgan tahlillar monetar siyosat samaradorligi ko‘p jihatdan bank tizimi barqarorligi, investitsion muhit va aholi inflyatsion kutilmalariga bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli qayta moliyalash stavkasi bo‘yicha qarorlarni qabul qilishda iqtisodiyotning real sektori holati, tashqi iqtisodiy omillar va ichki talab dinamikasini kompleks hisobga olish zarur hisoblanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qayta moliyalash stavkasi Markaziy bankning inflyatsiyani tartibga solish va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashdagi eng muhim monetar instrumentlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda olib borilgan pul-kredit siyosati natijasida inflyatsiya darajasini bosqichma-bosqich pasaytirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha ijobiy natijalarga erishilgan.

Tahlillar asosida qayta moliyalash stavkasi o‘zgarishlari kredit bozori, investitsion faollik va iste’mol talabiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Asosiy stavkaning oshirilishi inflyatsion bosimni kamaytirishga xizmat qilsa, uning pasaytirilishi iqtisodiy faollik va tadbirkorlikni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, monetar siyosat samaradorligi bank tizimi barqarorligi va iqtisodiyotdagi institutsional islohotlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Kelgusida O‘zbekistonda inflyatsion targetlash tizimini yanada takomillashtirish, moliyaviy bozorlar samaradorligini oshirish hamda pul-kredit siyosatining real sektor bilan integratsiyasini kuchaytirish muhim аҳамият касб этади. Bu esa iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlash va аҳоли farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Friedman M. The Role of Monetary Policy. — American Economic Review, 1968. https://www.aeaweb.org

2. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. — Pearson Education, 2019. https://www.pearson.com

3. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. — Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Makroiqtisodiyot. — Toshkent, 2021.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Monetar siyosat sharhlari va asosiy stavka bo‘yicha hisobotlar. https://cbu.uz

5. O‘zbekiston Respublikasi Progressiv islohotlar markazi ma’lumotlari. : https://www.proreforms.uz/uz/publications/inflation-processes-in-uzbekistan-analysis-for-2016-2025-479

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ ФИНАНСОВЫХ ИНСТИТУТОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ СТАБИЛЬНОСТИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН: ПРИМЕР УЗБЕКИСТАНА

Юсупов Шохжахон Баходир угли
Начальник отдела Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан, Доктор философии (PhD)
Shohjahon.Yusupov@imv.uz

В данной статье исследуется роль международных финансовых институтов (МФИ) - Всемирного банка, Азиатского банка развития (АБР) и Европейского банка реконструкции и развития (ЕБРР) в обеспечении финансовой стабильности развивающихся стран на примере Узбекистана. Проведён анализ объёмов финансирования, направлений поддержки и институциональных механизмов взаимодействия. Установлено, что МФИ играют ключевую роль в укреплении макроэкономической устойчивости, привлечении прямых иностранных инвестиций и реализации структурных реформ.

Ключевые слова: *международные финансовые институты, финансовая стабильность, Узбекистан, развивающиеся страны, Всемирный банк, АБР, ЕБРР.*

Развивающиеся страны сталкиваются с системными вызовами в сфере

поддержания макроэкономической стабильности: ограниченный доступ к международным рынкам капитала, слабость национальных финансовых систем, высокая уязвимость перед внешними шоками [2, 3]. В этом контексте МФИ выступают ключевыми партнёрами, предоставляя не только финансовые ресурсы, но и техническую экспертизу, содействие в проведении реформ и институциональное укрепление [1].

Узбекистан - страна с динамично развивающейся экономикой, осуществившая масштабные рыночные реформы с 2017 года, представляет собой показательный кейс для изучения данного взаимодействия [7]. За период 2018–2023 годов Узбекистан привлёк значительные объёмы финансирования от Всемирного банка, АБР и ЕБРР, направленных на развитие инфраструктуры, финансового сектора и человеческого капитала [4, 5, 6].

Концепция финансовой стабильности предполагает устойчивость финансовой системы к внутренним и внешним шокам, способность обеспечивать бесперебойное функционирование платёжных механизмов и эффективное перераспределение капитала [2]. МФИ воздействуют на данные параметры через несколько каналов.

Первый канал - прямое финансирование: предоставление льготных кредитов и грантов позволяет компенсировать дефицит государственного бюджета, финансировать критически важные инфраструктурные проекты и наращивать золотовалютные резервы [4, 8].

Второй канал - каталитическое воздействие: участие авторитетных МФИ в качестве кредиторов служит сигналом для частных инвесторов о кредитоспособности страны, стимулируя приток ПИИ и снижая стоимость заимствований на внешних рынках [1, 3].

Третий канал - техническая помощь и передача знаний: МФИ содействуют совершенствованию регуляторной базы, внедрению международных стандартов финансовой отчётности и управления рисками, что повышает качество финансового надзора [5, 6].

Данная теоретическая модель находит подтверждение в эмпирических исследованиях, демонстрирующих позитивное влияние программ МВФ и Всемирного банка на ключевые макроэкономические показатели развивающихся стран при условии соблюдения требований кондициональности [1, 3, 8].

Реформы, инициированные правительством Узбекистана в 2017 году, ознаменовали начало активного взаимодействия с международными финансовыми институтами [7]. Либерализация валютного рынка, открытие экономики для иностранных инвестиций и масштабные структурные преобразования создали благоприятные условия для вступления в программы МФИ [4, 8].

Совокупный объём кредитного портфеля МФИ в Узбекистане демонстрирует устойчивую восходящую динамику [4]. Всемирный банк остаётся крупнейшим кредитором, увеличив объём финансирования с 320 млн USD в 2018 году до 920 млн USD в 2023 году [4]. АБР показывает сопоставимую динамику, что свидетельствует об успешности проводимых

реформ [5]. ЕБРР, традиционно специализирующийся на поддержке частного сектора, наращивает присутствие в сфере торгового финансирования и поддержки МСП [6].

Доминирующее положение инфраструктурных проектов (35%) обусловлено значительным инфраструктурным дефицитом, характерным для постсоветских экономик [3, 7]. Инвестиции в транспортные коридоры, энергетику и водоснабжение создают базовые условия для экономического роста и привлечения частного капитала [5]. Поддержка финансового сектора (22%) направлена на укрепление банковской системы, внедрение систем управления рисками и расширение доступа к финансовым услугам для населения и МСП [6, 7].




Рисунок 1. Структура финансовой поддержки МФИ по секторам *экономики Узбекистана (2023 г.). Источник: Всемирный банк, АБР, ЕБРР.*

Результаты реализации программ МФИ находят отражение в улучшении ключевых макроэкономических показателей: темп роста ВВП Узбекистана в 2023 году составил 6,2% [4], уровень государственного долга сохраняется в безопасных пределах (37% ВВП), а рейтинговые агентства (Fitch, Moody's) подтверждают инвестиционный потенциал страны [8].

Эффективность взаимодействия с МФИ во многом определяется институциональными условиями страны-реципиента [1, 3]. Для Узбекистана характерны как позитивные тенденции совершенствование системы государственного управления, цифровизация государственных услуг [7], так и определённые ограничения: недостаточный потенциал государственных органов для управления крупными проектами, риски накопления долговой нагрузки при агрессивном наращивании заимствований [8].

Дополнительным вызовом является зависимость от внешнего финансирования, которая при резком изменении условий на глобальных рынках капитала может обусловить проблемы рефинансирования [2, 3]. В связи с этим диверсификация источников финансирования и развитие внутреннего рынка капитала выступают стратегическими приоритетами для обеспечения долгосрочной финансовой устойчивости [7, 8].

Список литературы

1. Dreher, A. (2006). IMF and economic growth: The effects of programs,

loans, and compliance with conditionality. World Development, 34(5), 769–788.

2. Mishkin, F.S. (2015). Global financial instability: Framework, events, issues. Journal of Economic Perspectives, 13(4), 3–20.

3. Rodrik, D. (2006). Goodbye Washington Consensus, Hello Washington Confusion? Journal of Economic Literature, 44(4), 973–987.

4. Всемирный банк. (2024). Uzbekistan Country Overview. Washington, D.C.: World Bank Group.

5. Азиатский банк развития. (2023). Country Partnership Strategy: Uzbekistan 2019–2023. Manila: ADB.

6. ЕБРР. (2024). Country Assessment: Uzbekistan. London: EBRD.

7. Каримов, Б.Т. (2022). Реформирование финансовой системы Узбекистана в условиях рыночной трансформации. Ташкент: Издательство «Экономика».

8. Международный валютный фонд. (2023). Article IV Consultation — Uzbekistan. IMF Country Report No. 23/245. Washington, D.C.: IMF.

ЕВРОПА ИТТИФОҚИ РАҚАМЛИ МОЛИЯ СТРАТЕГИЯСИ: ИЛҒОР ТАЖРИБАЛАРДАН ЎЗБЕКИСТОНДА ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Атаниязов Жасурбек Хамидович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети кафедра мудири, иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

Европа Иттифоқининг рақамли молия стратегияси замонавий иқтисодиётда юз бераётган чуқур рақамли трансформация жараёнларининг мантиқий давоми сифатида шаклланган. Жаҳон иқтисодиётида ахборот-коммуникация технологияларининг жадал ривожланиши молия соҳасида ҳам туб ўзгаришларга олиб келмоқда. Анъанавий молиявий хизматлар босқичма-босқич рақамли платформаларга кўчмоқда, бу эса хизматларнинг тезлиги, қулайлиги ва самарадорлигини оширишга хизмат қилмоқда. Шу нуқтаи назардан, Европа Иттифоқи рақамли молияни ривожлантиришни стратегик устувор вазифалардан бири сифатида белгилаб, комплекс ёндашув асосида мазкур соҳани модернизация қилишга киришган.

Европа Иттифоқи ушбу тенденцияларни чуқур таҳлил қилган ҳолда, рақамли молияни ривожлантириш бўйича комплекс стратегияни ишлаб чиққан. Ушбу стратегиянинг асосий мақсади — Европа ҳудудида ягона, шаффоф ва рақобатбардош рақамли молия бозорини шакллантиришдан иборат. Бунинг учун Европа Иттифоқи молиявий хизматлар соҳасидаги ҳуқуқий ва институционал тўсиқларни бартараф этиш, инновацион технологияларни жорий этишни рағбатлантириш, шунингдек, молиявий барқарорлик ва хавфсизликни таъминлашга алоҳида эътибор қаратмоқда.

Европа Иттифоқининг рақамли молия стратегияси, аввало, ягона рақамли молия бозорини шакллантиришга қаратилган бўлиб, у инновацияларни қўллаб-қувватлаш, молиявий хизматларга кенг кириш имкониятларини таъминлаш, рақобат муҳитини кучайтириш ҳамда молиявий барқарорликни таъминлаш каби мақсадларни ўз ичига олади. Ушбу стратегия доирасида

финтех компанияларни ривожлантириш, криптоактивлар бозорини тартибга солиш, очиқ молия тамойилларини жорий этиш ва киберхавфсизликни таъминлаш каби йўналишларга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хусусан, криптоактивлар бозори учун ягона ҳуқуқий база яратилиши ва рақамли евро концепциясининг ишлаб чиқилиши Европа молия тизимининг келажакдаги ривожланишини белгилаб берувчи муҳим омиллардан ҳисобланади.

Сўнгги йилларда Европа Иттифоқи мамлакатларида финтех индустрияси жадал суръатларда ривожланиб, инвестициялар ҳажми сезиларли даражада ошди. Хусусан, финтех компаниялар сонининг кўпайиши, венчур инвестициялар оқимининг ортиши ва рақамли тўлов хизматларининг кенг тарқалиши молиявий бозорнинг рақамлашув даражаси юқори эканлигини кўрсатади. Статистик маълумотларга кўра, Европа аҳолисининг катта қисми кундалик молиявий операцияларда рақамли платформалардан фаол фойдаланмоқда. Бу эса банк хизматлари, суғурта, инвестиция ва кредитлаш соҳаларида рақамли трансформациянинг муваффақиятли амалга оширилаётганини англатади. Жумладан, 2021 йилда Европа финтех соҳасига киритилган инвестициялар ҳажми тахминан 60 миллиард АҚШ долларини ташкил этган бўлса, 2025 йилга келиб бу кўрсаткич бозордаги барқарорлашув жараёнларига қарамай 16 миллиард доллар атрофида сақланиб қолган. Ушбу динамика финтех соҳасининг юқори инвестицион жозибадорлигини кўрсатади. Шу билан бирга, Европа бўйича 10 мингдан ортиқ финтех компаниялар фаолият юритмоқда, бу эса бозорда рақобатнинг юқори даражада эканлигини англатади.

Рақамли тўловлардан фойдаланиш даражаси ҳам юқори кўрсаткичларга эга. Европа Иттифоқи аҳолисининг 70–75 фоизи мунтазам равишда электрон тўлов воситаларидан фойдаланади. Айрим мамлакатларда нақд пулдан фойдаланиш улуши 20 фоиздан ҳам камайган. Бу ҳолат рақамли иқтисодиётнинг юқори даражада шаклланганлигини кўрсатади.

Онлайн банкинг хизматларидан фойдаланувчилар улуши ҳам изчил ўсмоқда. Масалан, 2024 йил ҳолатига кўра, Европа Иттифоқида катта ёшдаги аҳолининг қарийб 65–70 фоизи интернет-банкинг хизматларидан фойдаланади. Бу кўрсаткич 2015 йилда тахминан 50 фоиз атрофида бўлган. Демак, сўнгги ўн йилликда рақамли молиявий хизматлардан фойдаланиш кескин ошган.

Таҳлилларга кўра, рақамли технологияларни жорий этиш натижасида транзакция харажатлари 30–40 фоизга камайган, хизмат кўрсатиш тезлиги эса 2–3 баробар ошган. Шу билан бирга, молиявий хизматлар қамрови кенгайиб, аҳолининг банк хизматларидан фойдаланиш даражаси сезиларли ошган.

Европа тажрибаси шуни кўрсатадики, рақамли молияни ривожлантириш иқтисодиёт самарадорлигини оширишда муҳим омил ҳисобланади. Рақамли технологиялардан фойдаланиш орқали транзакция харажатлари сезиларли даражада камаймоқда, хизмат кўрсатиш тезлиги эса бир неча баробар ошмоқда. Шу билан бирга, молиявий хизматлар қамрови кенгайиб, аҳолининг кенг қатламлари молиявий тизимга жалб қилинмоқда. Бу ҳолат, айниқса,

кичик ва ўрта бизнес субъектлари учун молиявий ресурсларга кириш имкониятларини кенгайтиришда муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон иқтисодиёти учун ҳам рақамли молияни ривожлантириш стратегик аҳамиятга эга. Сўнгги йилларда мамлакатда рақамли иқтисодиётни шакллантиришга қаратилган кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, электрон тўлов тизимлари, мобил банк хизматлари ва электрон тижорат соҳаларида сезиларли ўсиш кузатилмоқда. Европа Иттифоқи тажрибасини Ўзбекистон шароитида қўллаш бир қатор стратегик афзалликларни таъминлаши мумкин. Аввало, финтех соҳасини ривожлантириш орқали молиявий хизматларнинг сифати ва самарадорлигини ошириш мумкин. Шунингдек, рақамли инфратузилмани модернизация қилиш, жумладан, юқори тезликдаги интернет тармоқларини кенгайтириш ва булутли технологияларни жорий этиш муҳим аҳамият касб этади. Бундан ташқари, инновацион экотизимни шакллантириш, стартапларни қўллаб-қувватлаш ва венчур инвестицияларини жалб қилиш рақамли молиянинг барқарор ривожланишига хизмат қилади.

Давлат-хусусий шериклик механизмларидан самарали фойдаланиш ҳам рақамли молия соҳасидаги лойиҳаларни амалга оширишда муҳим аҳамиятга эга. Бу орқали давлат ресурслари билан бир қаторда хусусий секторнинг инновацион салоҳияти ва молиявий имкониятларини жалб қилиш мумкин. Шу билан бирга, таълим тизимини модернизация қилиш, рақамли молия соҳаси учун юқори малакали мутахассислар тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Рақамли молияни ривожлантириш жараёни муайян хавф ва чекловлар билан ҳам боғлиқ. Жумладан, киберхавфлар, маълумотлар хавфсизлиги, рақамли тенгсизлик ва технологияларга юқори даражада қарамлик каби муаммолар мавжуд. Шунинг учун ушбу соҳани ривожлантиришда хавфларни бошқариш тизимини такомиллаштириш, киберхавфсизликни таъминлаш ва аҳолининг рақамли саводхонлигини ошириш муҳим аҳамиятга эга.

Шунингдек, рақамли молиянинг институционал асосларини мустаҳкамлаш, молиявий бозор иштирокчилари ўртасида самарали ҳамкорликни йўлга қўйиш ва халқаро тажрибаларни кенг жорий этиш зарур. Бу эса ўз навбатида миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминлашга хизмат қилади.

Хулоса сифатида таъкидлаш жоизки, Европа Иттифоқининг рақамли молия стратегияси замонавий иқтисодиётни ривожлантиришда самарали модел ҳисобланади. Ушбу тажрибани Ўзбекистон шароитида мослаштириб жорий этиш мамлакат иқтисодиётини модернизация қилиш, инвестицияларни жалб этиш ва глобал рақобатбардошликни оширишда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

ZAMONAVIY IQTISODIY LARZALAR SHAROITIDA HUDUD DAROMAD SALOHIYATINI OSHIRISHNING FISKAL MEXANIZMLARI

Qobulov Xotamjon Abdukarimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor
e-mail: khqobulov@gmail.com

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan beqarorlik jarayonlari — global moliyaviy inqirozlar, geosiyosiy keskinliklar, pandemiya oqibatlari, inflyatsion bosimlar va resurslar taqchilligi — milliy iqtisodiyotlar barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur sharoitda iqtisodiy tizimning eng muhim tayanch bo‘g‘ini sifatida hududlar moliyaviy mustahkamligi va ularning daromad shakllantirish imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, fiskal markazsizlashuvni chuqurlashtirish, mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirish hamda hududlarning ichki iqtisodiy imkoniyatlarini safarbar etishga qaratilgan siyosat, hudud daromad salohiyatini oshirish masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.

Ayniqsa, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida hududlar kesimida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, ularning moliyaviy bazasini mustahkamlash hamda iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa hudud daromad salohiyatini kompleks baholash va uni oshirishning samarali fiskal mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Yuqorida qayd etilgan dolzarblik jihatlari hududlar daromad salohiyatini oshirish masalasining nafaqat nazariy, balki bevosita amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Biroq mavjud yondashuvlar va amaldagi fiskal mexanizmlar ushbu salohiyatni to‘liq safarbar etish imkonini bermayotganini kuzatish mumkin. Shu bois, hududlar kesimida daromad shakllanishi jarayonini chuqur tahlil qilish va undagi tizimli kamchiliklarni aniqlash zarurati yuzaga keladi.

Amaldagi amaliyot shuni ko‘rsatadiki, hududlar daromad bazasini shakllantirishda bir qator tizimli muammolar mavjud. Avvalo, hududlar kesimida iqtisodiy rivojlanish darajasining sezilarli darajada farqlanishi daromad salohiyatining notekis taqsimlanishiga olib kelmoqda. Ayrim hududlarda sanoat, xizmatlar sohasi va eksport salohiyati yuqori bo‘lsa-da, boshqa hududlarda iqtisodiy faollik pastligi sababli daromad bazasi cheklanganligicha qolmoqda.

Ikkinchidan, hudud daromadlarini shakllantirishda soliq tushumlariga yuqori darajada bog‘liqlik kuzatiladi, biroq soliq bazasining yetarlicha keng emasligi va ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining to‘liq qamrab olinmaganligi mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayotganini ko‘rsatadi. Norasmiy iqtisodiyot ulushi ham hudud daromad salohiyatining to‘liq namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Uchinchidan, amaldagi baholash tizimlari hududlar daromad salohiyatini kompleks va integrallashgan holda aks ettirish imkonini bermaydi. Ko‘pincha yalpi hududiy mahsulot yoki byudjet tushumlari kabi ko‘rsatkichlarga tayanish orqali baholash amalga oshiriladi, bu esa hudud ichidagi tarkibiy nomutanosibliklarni aniqlash imkonini cheklaydi.

To‘rtinchidan, fiskal mexanizmlar — soliq imtiyozlari, transferlar, subsidiya va dotatsiyalar — ko‘pincha hududlarning real ehtiyojlari va imkoniyatlariga to‘liq moslashmagan holda qo‘llanilmoqda. Natijada ayrim hududlarda rag‘batlantiruvchi ta’sir sust bo‘lib qolmoqda, boshqalarida esa fiskal qaramlik kuchaymoqda.

Shuningdek, zamonaviy iqtisodiy larzalar sharoitida tashqi omillarga yuqori darajada bog‘liqlik hududlarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Eksportga yo‘naltirilgan yoki importga qaram hududlar global bozordagi o‘zgarishlarga nisbatan sezgir bo‘lib qolmoqda, bu esa daromadlarning beqarorligiga olib keladi.

Hudud daromad salohiyatini shakllantirishda kuzatilayotgan yuqoridagi muammolar ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiy larzalar sharoitida fiskal mexanizmlarning moslashuvchanligi va samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, mavjud muammolarni hal etishning ustuvor yo‘nalishlari va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish hudud daromad salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks va tizimli fiskal mexanizmlarni takomillashtirishni talab etadi.

Birinchidan, hudud daromad salohiyatini baholashning integrallashgan metodologiyasini joriy etish zarur. Bunda turli iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yagona tizimga keltirish orqali hududlarning real imkoniyatlarini aniqlash mumkin bo‘ladi. Integrallashgan indekslar asosida hududlar kesimida iqtisodiy faollik, xizmatlar rivoji, investitsiya oqimi va byudjet tushumlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, mavjud “tor joylar”ni belgilash imkoniyati kengayadi.

Ikkinchidan, soliq siyosatini hududlar kesimida differensiallashtirish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy salohiyati past hududlarda soliq imtiyozlari va preferensiyalarni kengaytirish orqali investitsiyalarni jalb etish, yuqori salohiyatga ega hududlarda esa soliq bazasini kengaytirish va samaradorlikni oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish orqali qo‘shimcha daromad manbalarini aniqlash zarur.

Uchinchidan, mahalliy byudjetlar daromad bazasini diversifikatsiya qilish talab etiladi. Bunda nafaqat soliq tushumlari, balki nosoliq daromadlar, davlat mulkidan foydalanish, xizmatlar sektorini rivojlantirish orqali qo‘shimcha manbalarni shakllantirish muhimdir. Ayniqsa, xizmatlar sohasi hudud daromad salohiyatini oshirishda multiplikativ ta’sirga ega bo‘lib, uning rivoji iqtisodiy faollikni keskin oshiradi.

To‘rtinchidan, fiskal transferlar tizimini takomillashtirish zarur. Transferlar hududlar o‘rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qilishi bilan birga, ularni iqtisodiy faollikka rag‘batlantiruvchi mexanizm sifatida ishlashi lozim. Buning uchun natijaga yo‘naltirilgan transfer mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish orqali fiskal boshqaruv samaradorligini oshirish mumkin. Soliq ma’murchiligini takomillashtirish, real vaqt rejimida ma’lumotlarni monitoring qilish hamda sun’iy intellekt asosida tahlil qilish imkoniyatlari daromadlarni oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Oltinchidan, hududlarni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra toifalash asosida differensial fiskal siyosat yuritish zarur. Bu yondashuv har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mos fiskal choralarni qo‘llash imkonini beradi. Natijada, zamonaviy iqtisodiy larzalar sharoitida hudud daromad salohiyatini oshirish masalasi alohida fiskal choralar bilan cheklanib qolmasdan, balki tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda fiskal mexanizmlarni chuqur institutsional isloh qilish, ularni hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari va rivojlanish darajasidan kelib chiqib moslashtirish, shuningdek, iqtisodiy faollikni rag‘batlantiruvchi samarali instrumentlarni keng joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, hudud daromad salohiyatini baholashning integrallashgan usullarini amaliyotga tatbiq etish, soliq va byudjet siyosatini differensial asosda yuritish hamda mahalliy darajada moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali barqaror fiskal muhitni shakllantirish mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga, fiskal mexanizmlarning moslashuvchanligini ta’minlash va ularni tashqi iqtisodiy omillarga nisbatan barqaror qilish hududlar moliyaviy xavfsizligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur yo‘nalishda ishlab chiqilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish hududlar kesimida daromad bazasini kengaytirish, iqtisodiy nomutanosibliklarni qisqartirish hamda mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, hududlarning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib, bu o‘z navbatida milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror va muvozanatli rivojlanishini ta’minlashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.08.2025-y., 06/25/126/0704-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-21-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.03.2026-y., 06/26/46/0290-son
3. Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public Finance in Theory and Practice. – New York: McGraw-Hill, 1989.
4. Stiglitz J.E. Economics of the Public Sector. – New York: W.W. Norton & Company, 2000.
5. Oates W.E. Fiscal Federalism. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1972.

TOSHKENT SHAHRIDA TRAMVAY TIZIMINI JORIY ETISHNING SHAHAR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGI VA BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o`g`li
i.f.d., dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Sh.xamdamov@tsue.uz
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich
i.f.d., professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ITM,
G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent shahri filiali,
a.usmanov@tsue.uz

Toshkent shahrida so‘nggi yillarda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, aholi sonining ortishi va iqtisodiy faollikning kengayishi natijasida transport infratuzilmasiga bo‘lgan talab sezilarli darajada oshdi. Shahar hududlarida avtomobillar sonining ko‘payishi yo‘l tarmoqlarida ortiqcha yuklama keltirib chiqarmoqda, bu esa tirbandliklar, vaqt yo‘qotishlari va iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib kelmoqda. Mazkur holat shahar transport tizimini modernizatsiya qilish va barqaror transport yechimlarini joriy etishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotda Toshkent shahrida tramvay tizimini joriy etishning iqtisodiy, ekologik va infratuzilmaviy ta’sirini baholash uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot aralash (mixed-method) uslub asosida olib borilib, unda statistik tahlil, iqtisodiy modellashtirish va qiyosiy tahlil usullari uyg‘unlashtirildi.

1-jadval

Statistik ma`lumotlar jadvali

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha (Mean)	Minimum	Maximum	Std. Dev
Transport tezligi (km/soat)	24.5	15.2	35.8	5.6
Yo‘lovchi oqimi (ming/kun)	320	210	450	68
Tirbandlik darajasi (%)	38	25	55	8.2
CO_2 emissiya (tonna/kun)	520	400	680	75
Transport xarajatlari (mln so‘m)	145	110	210	30

Kelt

Avvalo, transport tezligining o‘rtacha qiymati 24.5 km/soatni tashkil etgani shuni ko‘rsatadiki, shahar sharoitida harakat tezligi optimal darajadan past. Minimal qiymatning 15.2 km/soatgacha tushib ketishi ayrim hududlarda jiddiy tirbandliklar mavjudligini anglatadi. Standart og‘ishning 5.6 ga tengligi esa transport tezligi sezilarli darajada o‘zgaruvchan ekanligini ko‘rsatadi.


Yo‘lovchi oqimi ko‘rsatkichlari ham yuqori variatsiyaga ega bo‘lib, o‘rtacha 320 ming yo‘lovchi/kunni tashkil etadi. Maksimal qiymatning 450 mingga yetishi aglyrimdavrlarda transport tizimiga katta yuklama tushayotganini bildiradi. Bu esa amavjud transport infratuzilmasining sig‘imi yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Tirbandlik darajasi o‘rtacha 38 foizni tashkil etib, bu shahar transport tizimi samaradorligining sezilarli darajada pasayganidan dalolat beradi. Maksimal qiymatning 55 foizga yetishi ayrim vaqt oralig‘ida transport tizimi deyarli haddan

tashqari yuklangan holatga kelishini ko‘rsatadi. Bu esa yangi transport yechimlarini joriy etish zarurligini asoslaydi.

Ekologik ko‘rsatkich sifatida CO_2 emissiya darajasi o‘rtacha 520 tonna/kunni tashkil etib, bu transport tizimining atrof-muhitga salbiy ta’siri yuqori ekanligini bildiradi. Standart og‘ishning yuqoriligi emissiya hajmining barqaror emasligini va transport oqimi bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Transport xarajatlari ko‘rsatkichlari ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘rtacha 145 mln so‘mni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich transport tizimini boshqarish va ekspluatatsiya qilish xarajatlarining yuqoriligini bildiradi. Variatsiyaning mavjudligi esa resurslardan foydalanish samaradorligi yetarli darajada optimallashtirilmaganini anglatadi.



1-rasm. transport sohasidan chiqayotgan CO_2 emissiyalari

Ushbu diagramma transport sohasidan chiqayotgan CO_2 emissiyalarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishini ko‘rsatadi (1994-yil = 100 bazaviy indeks sifatida olingan). Grafikda to‘rtta asosiy yo‘nalish tasvirlangan: Xitoy (China), AQSH (USA), Yevropa Ittifoqi (EU28) va dunyoning qolgan qismi (Rest of the world).

Grafikdan ko‘rinadiki, Xitoyda transport emissiyalari keskin o‘sish trendiga ega bo‘lib, 1994-yildagi darajadan bir necha barobar yuqoriga ko‘tarilgan. Bu holat mamlakatda avtomobil sonining ortishi, sanoat va urbanizatsiyaning tezlashuvi bilan izohlanadi.

Aksincha, Yevropa Ittifoqida (EU28) emissiya darajasi nisbatan barqaror yoki biroz pasayuvchi trendni ko‘rsatadi, bu esa ekologik siyosat, yashil transport va energiya samaradorligiga qaratilgan chora-tadbirlar natijasidir.

AQSHda (USA) emissiyalar nisbatan barqaror bo‘lib, ayrim davrlarda kichik tebranishlar kuzatiladi, ammo umumiy o‘sish sur’ati yuqori emas.

Dunyoning qolgan qismi esa o‘rtacha o‘sish tendensiyasini namoyon etadi, lekin bu o‘sish Xitoynikiga nisbatan ancha past.

X

u

l

o

Shuningdek, tramvay tizimini raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish –

1. Toshkent shahrida tramvay tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va uni mavjud transport tarmoqlari (metro va avtobus) bilan integratsiyalash zarur.
2. Tramvay liniyalarini rejalashtirishda yuqori yo‘lovchi oqimiga ega yo‘nalishlar ustuvor yo‘nalish sifatida tanlanishi kerak.
3. Transport boshqaruvida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, jumladan, real vaqt monitoringi va sun’iy intellekt asosidagi optimallashtirish tizimlarini qo‘llash lozim.
4. Ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida elektr transport turlariga, xususan tramvay tizimiga investitsiyalarni oshirish tavsiya etiladi.
5. Tramvay tizimini moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlaridan samarali foydalanish zarur.
6. Xorijiy tajribani, ayniqsa Yevropa shaharlari amaliyotini o‘rganib, Toshkent sharoitiga moslashtirish muhim hisoblanadi.
7. Aholi uchun qulay va arzon tarif siyosatini ishlab chiqish orqali jamoat transportidan foydalanishni rag‘batlantirish kerak.

Xulosa qilib aytganda, tramvay tizimini joriy etish Toshkent shahrida barqaror, ekologik toza va samarali transport infratuzilmasini shakllantirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lib, uzoq muddatda iqtisodiy o‘sish va aholining turmush sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ZAMONAVIY IQTISODIY SIYOSATNI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQ MADANIYATINI OSHIRISH MASALALARI

Ibragimov Boburshoh Boxodir o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsent, i.f.d.
e-mail: bibragimov@tsue.uz

Zamonaviy iqtisodiy siyosatni samarali shakllantirish davlatning moliyaviy barqarorligi, byudjet intizomi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan chambarchas bog‘liq. Davlat byudjetining asosiy manbai sifatida soliqlar nafaqat fiskal vosita, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy shartnomaning muhim elementi hisoblanadi. Shu bois, soliq madaniyatini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Soliq madaniyati – bu jamiyatda soliqlarga nisbatan shakllangan munosabatlar, qadriyatlar va xulq-atvorlar majmuasidir. Ilmiy manbalarda soliq madaniyati milliy iqtisodiyot bilan bog‘liq rasmiy va norasmiy institutlar yig‘indisi sifatida ta’riflanadi, bu institutlar xalqning tarixiy madaniy merosiga chuqur singib ketgan[126]. U fuqarolarning soliqlarni to‘lashga ichki moyilligi, davlatga ishonchi, soliq tizimini adolatli deb qabul qilishi hamda fuqarolik burchini anglash darajasi bilan belgilanadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushuncha ko‘pincha “soliq ma’naviyati” (tax morale) atamasi bilan ham ifodalanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ta’kidlashicha, soliq madaniyati yoki soliq ma’naviyati ko‘ngilli ravishda soliq to‘lashga tayyorlik darajasini aks ettirib, aksariyat mamlakatlarda byudjet daromadlarining asosiy qismini shakllantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega[127].

Xalqaro tajribalar soliq madaniyati darajasini oshirishning bevosita amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq ma’naviyatini oshirish orqali soliq tushumlarini sezilarli darajada ko‘paytirish mumkinligini qayd etadi[128]. Xuddi shunday, IMF mutasaddilari korrupsiya darajasi past bo‘lgan davlatlar YaIMga nisbatan 4% gacha ko‘proq soliq yig‘a olishini aniqlashgan – bu korrupsiya soliq tizimiga ishonchni yemirib, soliq madaniyatini zaiflashtirishidan dalolatdir[129]. Darhaqiqat, korrupsiya va adolatsizlik mavjud joyda fuqarolar soliqlarni ongli ravishda to‘lashga kamroq moyil bo‘ladilar deb bilamiz. Shu sababli, soliq madaniyatini o‘rganish va oshirish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim: yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hamda byudjetga tushumlarni ko‘paytirishning barqaror usulidir.

Davlatga ishonch – bu fuqarolarning hukumat institutsiyalariga, xususan soliq organlariga bo‘lgan ishonch darajasidir. Tadqiqotchi I.Horodnic o‘zining soliq ma’naviyati bo‘yicha tizimli tahlilida **ishonch eng asosiy komponent** ekanini va

[126]OECD (2019). Tax Morale: What Drives People and Businesses to Pay Tax? OECD Publishing //parisoecd.orgoecd.org
[127]OECD (2021). Building Tax Culture, Compliance and Citizenship: A Global Source Book on Taxpayer Education (2nd Edition). OECD Publishing//parisoecd.orgoecd.org
[128]OECD (2021). Building Tax Culture, Compliance and Citizenship: A Global Source Book on Taxpayer Education (2nd Edition). OECD Publishing//parisoecd.orgoecd.org
[129]Mitsuhiro Furusawa (2019). “Restoring Trust Through Fiscal Policy,” IMF Deputy Managing Director’s// remarksimf.orgimf.org

soliq ma’naviyati “vertikal” (fuqaro–hukumat) hamda “gorizontal” (fuqaro–fuqaro o‘rtasida) ishonch bilan ijobiy bog‘liqligini ta’kidlaydi[130].

Agar fuqarolar ko‘proq o‘z xohishlari bilan soliqlarini to‘lashsa, soliqlarni yashirishga harakat qilmasa – bu davlatga bo‘lgan ishonch belgisi. IMF ma’lumotlariga ko‘ra, Gruziyada korrupsiyaga qarshi keskin choralar va davlat boshqaruvidagi shaffoflik o‘sishi natijasida soliqlarga ishonch tiklanib, soliq tushumlari bir necha yil ichida YaIMga nisbatan 13 foiz punktga oshgan.

Soliq ma’naviyati yuqori bo‘lgan shaxs soliqlarni aldash yoki yashirishni axloqan noto‘g‘ri deb biladi, jamiyat manfaatini o‘z shaxsiy foydasidan ustun qo‘yadi. OECD ma’lumotiga ko‘ra, soliq ma’naviyati “soliqlarni to‘lashga bo‘lgan ichki motivatsiya” deb umumiy ta’riflanadi va ko‘ngilli soliq compliance uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Akademik izlanishlar (masalan, B.Torgler tadqiqotlari) soliq ma’naviyatiga quyidagi omillar ta’sir qilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan: shaxsiy halollik tamoyillari, soliqlarni to‘lashni ko‘pchilikka xos norma deb qabul qilish (ijtimoiy norma), va davlat bilan fuqarolar orasidagi “fiskal ijtimoiy kontrakt” – ya’ni davlat fuqarolarga xizmatlar ko‘rsatishi evaziga fuqarolar soliqlarni to‘lashi kerak degan kelishuv tushunchasi[131].

Ayrim tadqiqotlar ijtimoiy mas’uliyat hissi baland bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillar qatorida **diniy-axloqiy qadriyatlar** va **shaxsiy halollik**ni ham ko‘rsatadi. Turkiyada o‘tkazilgan so‘rov natijalari dindorligi yuqoriroq shaxslar soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni oson oqlamasliklari, kamroq dindor respondentlar esa turli sabablar bilan soliqlarni bermaslikni o‘ziga oqlash ehtimoli balandroq ekanini ko‘rsatgan. Boshqa tadqiqotlarda esa bevosita diniylik va soliq axloqi o‘rtasida statistik bog‘liqlik topilmagani, bu munosabat murakkab va bilvosita omillarga ham bog‘liqligi aytilgan. Shunday bo‘lsa-da, aksar hollarda jamiyatda halollik, vijdonlilik kabi axloqiy qadriyatlar qanchalik kuchli bo‘lsa, fuqarolarning soliqlar borasidagi mas’uliyati ham shunchalik baland bo‘lishi kuzatiladi.

Zamonaviy iqtisodiy siyosat doirasida O‘zbekistonda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- milliy miqyosda soliq madaniyati so‘rovini o‘tkazish;
- “Soliq madaniyati indeksi”ni ishlab chiqish va yillik monitoring tizimini joriy etish;
- maktab va OTMlarda moliyaviy savodxonlikni kuchaytirish;
- byudjet shaffofligini oshirish va ochiq ma’lumotlar bazasini kengaytirish.

Zamonaviy iqtisodiy siyosatda soliq madaniyati faqat nazorat va jarimalar bilan emas, balki ishonch, adolat va hamkorlik tamoyillari asosida shakllantirilishi zarur.

Soliq madaniyati – bu iqtisodiy siyosatning muhim institutsional omili bo‘lib, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchning ko‘rsatkichidir. Soliq savodxonligi, davlatga ishonch, ijtimoiy mas’uliyat, tizim sifati va fuqarolik ong darajasi soliq madaniyatining asosiy tarkibiy qismlaridir.

---

[130]Horodnic, I.A. (2018). “Tax Morale and Institutional Theory: A Systematic Review.” Int. J. of Sociology and Social Policy, 38(9)//referenced in knepublishing.com

[131] Nerre, B. (2008). “Tax Culture: A Basic Concept for Tax Politics.” *Economic Analysis &Policy* (cited in Yurdakul, 2013)//dergipark.org.tr

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, soliq madaniyati yuqori bo‘lgan jamiyatlarda byudjet tushumlari barqaror, yashirin iqtisodiyot ulushi past va iqtisodiy rivojlanish sur’atlari yuqori bo‘ladi.

Shu bois, O‘zbekistonda zamonaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirish jarayonida soliq madaniyatini oshirish kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Faqatgina fiskal choralar emas, balki ma’rifiy, institutsional va kommunikatsion islohotlar orqali barqaror va yuqori soliq madaniyatiga erishish mumkin.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsent v.b., PhD
E-mail: s.atamurodov@tsue.uz

Kirish

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyatida moliyaviy oqimlarni nazorat qilish va audit qilish jarayonlari yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, big data, sun’iy intellekt va blokcheyn tizimlari pul oqimlari auditi samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Bu jarayon korxona daromad va xarajatlarining shaffofligini ta’minlab, moliyaviy boshqaruvni takomillashtirishga yordam beradi [1].

Muammo

An’anaviy audit tizimlarida ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish ko‘p vaqt talab etadi, bu esa tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlarini cheklaydi. O‘zbekistondagi ko‘plab korxonalarda moliyaviy oqimlarni raqamli monitoring qilish mexanizmlari yetarli darajada joriy etilmagan [2]. Natijada, risklarni aniqlash va ularni boshqarish samaradorligi pasayadi.

Tahlil

Raqamli texnologiyalar asosida audit jarayonlarini tashkil etish bir qator afzalliklarga ega:

Big data texnologiyalari orqali katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash imkoniyati yaratiladi.

Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida pul oqimlaridagi anomaliyalar va risklar avtomatik tarzda aniqlanadi [3].

Blokcheyn texnologiyasi esa tranzaksiyalarni shaffof va o‘zgarmas tarzda qayd etib, audit jarayonida ishonchlilikni ta’minlaydi [4].

1-jadval.

Raqamli texnologiyalar asosida audit samaradorligi ko‘rsatkichlari [5]

Texnologiya	Audit jarayoniga ta’siri	Samaradorlik darajasi (%)
Big data	Ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash	85
Sun’iy intellekt	Risklarni avtomatik aniqlash	80
Blokcheyn	Tranzaksiyalarning shaffofligini ta’minlash	90

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, raqamli texnologiyalar audit jarayonining

samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, Big data texnologiyalari yordamida ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi 85% ga yetadi, bu esa audit jarayonida ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash samaradorligini oshiradi. Sun’iy intellekt algoritmlari risklarni avtomatik aniqlashda 80% samaradorlik ko‘rsatmoqda, bu esa risk-menejment va ichki nazorat tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Blokcheyn texnologiyasi esa tranzaksiyalarning shaffofligini 90% darajada ta’minlab, auditda axborot ishonchliligi va transparenslikni yuqori darajaga olib chiqadi.

Shu bilan birga, jadvaldagi ko‘rsatkichlar O‘zbekiston bo‘yicha rasmiy statistika emas, balki xalqaro adabiyotlarda keltirilgan o‘rtacha qiymatlarga asoslanganini ta’kidlash lozim. Bu raqamlar raqamli texnologiyalarni joriy etishning nazariy samaradorligini ifodalaydi. Amaliyotda esa ularni O‘zbekiston korxonalarida keng joriy etish orqali audit samaradorligi, likvidlikni boshqarish, rentabellikni prognozlash va moliyaviy barqarorlik indeksini oshirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi.

Xulosa

Raqamli texnologiyalar asosida pul oqimlari auditini takomillashtirish korxona moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Jadvalda keltirilganidek, Big data texnologiyalari ma’lumotlarni qayta ishlash samaradorligini 85% darajaga olib chiqadi, bu esa audit jarayonida ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash tezligini sezilarli darajada oshiradi. Sun’iy intellekt algoritmlari risklarni avtomatik aniqlashda 80% samaradorlik ko‘rsatib, risk-menejment va ichki nazorat tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Blokcheyn texnologiyasi esa tranzaksiyalarning shaffofligini 90% darajada ta’minlab, auditda axborot ishonchliligi va transparenslikni yuqori darajaga olib chiqadi.

Shu jihatdan qaraganda, raqamli texnologiyalarni audit jarayoniga integratsiya qilish nafaqat korxona darajasida likvidlik ko‘rsatkichlarini barqarorlashtiradi, balki rentabellik darajasini prognozlash imkoniyatlarini kengaytiradi va moliyaviy barqarorlik indeksini oshirishga xizmat qiladi. Global iqtisodiy beqarorlik sharoitida bunday yondashuv korxonalar uchun strategik ustunlik yaratib, ularning moliyaviy siyosatini ilmiy asosda shakllantirish va risklarni kamaytirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xasanov B.A., Maxmudov A.N., Atamurodov S.Y. “Yashil iqtisodiyot sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar pul oqimlari auditini takomillashtirish masalalari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2025.

2. Ergashev X.X., Qlicheva G. “Pul oqimlari hisobotini auditi”. Jurnal: Ekonomika i sotsium, 2024.

3. Brynjolfsson, E., McAfee, A. The Second Machine Age. W.W. Norton & Company, 2016.

4. Tapscott, D., Tapscott, A. Blockchain Revolution. Penguin, 2018.

5. Brigham, E.F., Houston, J.F. Fundamentals of Financial Management. 15th Edition, Cengage Learning, 2022.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTR TRANSPORT VOSITALARINI MOLIYAVIY RAG‘BATLANTIRISH

Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o`g`li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Shxamdamov@tsue.uz
Fozilova Shaxloxon Nodirovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy - tadqiqot markazi doktoranti
Shakhlokhonnadirovna_97@mail.ru

Hozirgi globallashuv sharoitida iqlim o‘zgarishi, ekologik muvozanatning buzilishi hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolari jahon hamjamiyati oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, transport sektori tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari hajmining yuqoriligi ushbu sohani ekologik jihatdan transformatsiya qilish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, elektr transport vositalarini keng joriy etish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan PQ-436-son qarorida 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o‘tish samaradorligini oshirish, energiya samaradorligini ta’minlash hamda ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.[1] Shu bilan birga, “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”da ham iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, jumladan transport infratuzilmasini barqaror rivojlantirish masalalari alohida ta’kidlangan.[2]

Elektr transport vositalarini rivojlantirish masalasi kompleks iqtisodiy va ekologik ahamiyatga ega bo‘lib, u energiya samaradorligini oshirish, yoqilg‘i resurslariga qaramlikni kamaytirish hamda atrof-muhitga salbiy ta’sirni minimallashtirish imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, elektromobillarni joriy etish transport sektorining ekologik yuklamasini sezilarli darajada kamaytiradi hamda uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi (1.1-jadval).

Shu bilan birga, elektromobillar bozorining rivojlanishi qator institutsional va iqtisodiy to‘siqlar bilan ham cheklanmoqda. Xususan, boshlang‘ich xarajatlarning yuqoriligi, zaryadlash sistemalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda iste’molchilarning ushbu texnologiyalarga nisbatan xabardorlik darajasining pastligi elektromobillar ommalashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

1.1-jadval

Elektr avtomobillarning iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar[132]

№	OMILLARI	TA’SIR TAVSIFI
	Atrof-muhit muammolari	Elektr transport vositalari an’anaviy benzin yoki dizel transport vositalariga qaraganda kamroq chiqindilar chiqaradi. Bu ifloslanishni kamaytirishga va sayyoramizni kelajak avlod uchun saqlab qolishga yordam beradi.
	Iqtisodiy afzalliklari	Elektr transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ulardan foydalanish an’anaviy avtomobillarga qaraganda arzonroq. Bu ularni ko‘p odamlar, ayniqsa yoqilg‘i va ta’mirlashga pul tejashni istaganlar uchun yanada qulay qiladi.
	Foydalanish qulayligi	E l
	Texnologik yutuqlar	Elektr transport vositalari quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalariga qaratilgan kengroq tendentsiyaning bir qismidir. Bu energetika sohasida yangi texnologiyalar va innovatsiyalarning rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda.
5	Xavfsizlik	E l e
6	Iqtisodiy barqarorlik	Ko‘pgina mamlakatlar va mintaqalar elektr transport vositalarini o‘z iqtisodiyotining muhim elementi deb bilishadi. Elektr transport vositalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish yangi ish o‘rinlarini yaratishi va mahalliy sanoatning rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin.
7	Texnologik taraqqiyot	E l
8	Energiya mustaqilligi	E l e
10	Yoqilg‘i xarajatlarining kamayishi	E l e

Ma’lumki, an’anaviy yoqilg‘ida harakatlanuvchi transport vositalari atmosfera ifloslanishining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu bois elektr transport vositalarini rivojlantirish orqali ekologik yuklamani kamaytirish mumkin. Shu nuqtai nazardan, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr transport vositalarini

[132] Muallif ishlanmasi

davlat tomonidan subsidiya asosida qo‘llab-quvvatlash siyosatini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. Subsidiya siyosati nafaqat iste’mol talabini rag‘batlantiradi, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Subsidiya mexanizmlari iste’molchilar talabini rag‘batlantirish, ishlab chiqaruvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda bozor hajmini kengaytirish orqali elektromobillarni joriy etishni tezlashtiradi va iqtisodiy barqarorlikni oshiradi.[4] Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, subsidiya dasturlari iste’molchilar xarajatlarini kamaytirib, qisqa muddatda talabni oshiradi va uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmining kengayishi hisobiga narxlarning pasayishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida bozorda barqaror o‘sishni ta’minlaydi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda xususan, Yevropa davlatlari yoqilg‘i narxlarining keskin ortganligi va ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida aholiga elektr avtomobillariga 2026 yil ma’lumotlariga ko‘ra 5000 yevrodan 11000 yevrogacha subsidiya berish orqali ko‘maklashmoqda. Yevropa Ittifoqida elektromobillarning ulushi 2024-yildagi 13,6% dan 2025-yilda 17,4% gacha oshgan. 2026-yil boshiga kelib bu ko‘rsatkich 18,8% ga yetgan edi.[5]

Hozirgi kunda O‘zbekistonda elektr va gibrid texnologiyalarga asoslangan avtomobillarni ishlabchiqarish yo‘nalishi bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Elektromobillarning mahalliy ishlab chiqarilishi O‘zbekistonning avtomobil sanoatida yangi bosqichni boshlab berdi va elektr transport segmentining shakllanishiga asos yaratdi.Amaldagi subsidiya va rag‘batlantirish mexanizmlari asosan umumiy import yoki bojxona imtiyozlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni yetarli darajada qo‘llab-quvvatlash imkonini to‘liq bermaydi. Shu bois subsidiya siyosatini mahalliy ishlab chiqarilgan elektr avtomobillar uchun differensial subsidiya tizimini joriy etish lozim. Ya’ni, import elektr atomobillarga nisbatan mahalliy ishlab chiqarilgan avtomobillarga yuqoriroq subsidiya berish orqali ichki sanoatni rag‘batlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan elektr transport vositalariga yo‘naltirilgan subsidiya siyosatini takomillashtirish mamlakatning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasida muhim o‘rin egallaydi. Subsidiya tizimini takomillashtirish esa nafaqat ichki bozorni rivojlantiradi, balki O‘zbekistonning global elektromobil bozoridagi raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-son qarori “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil iqtisodiyot’ga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/6303230

2. “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”. Toshkent, 2022.

3.L. Zhang, S. Li, X. Cheng, J. Geng. Могут ли субсидии способствовать устойчивому развитию электромобилей? *Annals of Operations Research*, 2025, 355(1), pp.123–146.

4. European Automobile Manufacturers’ Association (ACEA) https://www.acea.auto

BLOCKCHAIN TECHNOLOGIES IN THE FINANCIAL SECTOR: SINGAPORE'S EXPERIENCE AND IMPLEMENTATION OPPORTUNITIES IN UZBEKISTAN

Abdulxalilova Sabohat Naimovna, associate professor of *Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan, e-mail:*
s.abdulxalilova43@gmail.com
Arslan Boronenko,
student of Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan,
e-mail:arslanboronenko@gmail.com

Blockchain technology is rapidly transforming the global financial sector by enabling secure, transparent, and decentralized transactions. Many countries are exploring blockchain solutions to improve financial infrastructure, reduce transaction costs, and increase transparency. Singapore has become one of the global leaders in blockchain adoption due to its advanced fintech ecosystem and supportive regulatory environment. This study examines the role of blockchain technologies in the financial sector using Singapore as a case study and analyzes the potential opportunities for implementing similar technologies in Uzbekistan. The research proposes a framework that includes blockchain-based payment systems, smart contracts, tokenized financial assets, and digital financial infrastructure. The results suggest that blockchain technology can significantly improve financial efficiency, transparency, and reliability.

The rapid digitalization of financial services has increased the demand for more secure and efficient transaction systems. Traditional financial infrastructures rely heavily on centralized institutions, which can lead to delays, high transaction costs, and potential security vulnerabilities. Blockchain technology offers an alternative approach by using distributed ledger systems that allow transactions to be recorded transparently and securely without intermediaries.

Singapore has actively promoted blockchain development through government initiatives, financial innovation programs, and collaboration between banks, fintech companies, and regulatory authorities. Projects such as blockchain-based payment networks and digital asset platforms demonstrate the potential of this technology to improve financial systems. For Uzbekistan, which is currently modernizing its financial sector, blockchain technologies may provide new opportunities to enhance transparency, efficiency, and financial inclusion. This research applies a mixed analytical approach combining financial economics, digital technology analysis, and comparative institutional study.

Higher decentralization and stronger verification mechanisms increase the stability and reliability of financial systems. The following indicators describe the current development of blockchain technologies and digital finance in Singapore and their relevance for financial modernization.

Table 1

Key Blockchain Development Indicators

Indicator	Value	Unit	Economic Interpretation
Blockchain startups in Singapore	50+	companies	Strong fintech ecosystem
Digital payment adoption	High	—	Advanced financial digitalization
Blockchain pilot projects	Multiple	projects	Government-supported innovation
Tokenized financial assets	Growing market	—	Development of digital finance
Fintech investment	Billions	USD	Global financial technology hub
Blockchain transaction efficiency	High	—	Reduced financial transaction costs

These indicators demonstrate that Singapore has developed a strong blockchain ecosystem supported by regulatory innovation and financial technology investment.The proposed framework for blockchain adoption in financial systems consists of several interconnected components.Blockchain-based payment systems enable faster and more secure financial transactions by removing intermediaries and reducing processing time.Smart contracts automatically execute financial agreements when predefined conditions are met. This reduces administrative costs and increases operational efficiency.Tokenization allows financial assets such as securities, bonds, and investment funds to be represented as digital tokens on blockchain platforms. This improves liquidity and expands investment opportunities.Digital financial platforms integrate banks, fintech companies, and regulatory institutions into a unified digital ecosystem that supports real-time financial monitoring and transparent transaction processing.Together, these technologies transform traditional financial infrastructures into decentralized and data-driven financial systems.The integration of blockchain technologies can significantly improve financial sector performance. In Singapore, blockchain solutions have been used to increase the efficiency of payment systems, reduce transaction costs, and improve transparency in financial operations. Blockchain-based financial platforms also support innovation in digital assets and cross-border financial transactions.

For Uzbekistan, the adoption of blockchain technologies could support financial modernization and economic development. Blockchain-based systems can improve transparency in financial operations, increase trust in financial institutions, and reduce administrative inefficiencies. In addition, blockchain technology may support the development of digital financial services, fintech innovation, and international financial integration.

Artificial intelligence and digital technologies are rapidly transforming the global financial landscape, and blockchain plays a central role in this transformation. The experience of Singapore demonstrates how supportive regulation, technological infrastructure, and financial innovation can accelerate blockchain adoption.Blockchain technologies can significantly improve financial transparency, transaction efficiency, and system reliability. Their implementation in Uzbekistan’s financial sector could enhance digital financial services, support fintech development, and strengthen the overall financial system.

Overall, blockchain adoption represents an important step toward the creation of a modern, efficient, and transparent financial infrastructure capable of supporting long-term economic growth.

IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

N.Iroqxo‘jayeva, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda mazkur yo‘nalishda bir qator qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilinib, biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish hamda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratildi. Bugungi tez o‘zgaruvchan va raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan iqtisodiy muhitda investitsion loyihalarni moliyaviy tahlil qilish jarayonini modernizatsiya qilish zarurati tobora oshib bormoqda. An’anaviy usullar ma’lumotlar hajmining ortishi, real vaqt tahlilga ehtiyojning kuchayishi hamda investitsion risklarning murakkablashuvi sharoitida yetarli darajada samarali emasligi ko‘zga tashlanmoqda. Shu bois, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, ssenariyli tahlil tizimlari va biznes-analitika platformalariga asoslangan raqamli yondashuvlar orqali tahlil jarayonlarini yangilash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ushbu transformatsiya investitsion qarorlar qabul qilishda aniqlik, shaffoflik va tezkorlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida raqamli moliyaviy tahlil infratuzilmasini rivojlantirish, moliyaviy mutaxassislarning raqamli kompetensiyalarini oshirish va texnologik yechimlarni loyihalash orqali mamlakat investitsiya muhitini tubdan yaxshilash mumkin. Bundan tashqari, Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi**,** Kafolat jamg‘armalari**,** hamda tijorat banklari orqali subsidiyalar ajratish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Kredit foiz stavkalarining bir qismini qoplab berish (subsidiyalash), davlat kafolatlari asosida kredit ajratish hamda lizing mexanizmlarini kengaytirish amaliyoti kuchaytirildi.

Shuningdek, “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida”gi normativ-huquqiy hujjatlar asosida kichik biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar ajratish, soliq yengilliklari berish va davlat kafolatlari mexanizmlarini joriy etish tizimi shakllantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining:

- **PF-60-sonli Farmoni (2022 yil 28 yanvar)** – Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, biznes muhitini yaxshilash va moliyalashtirish tizimini liberallashtirish choralari belgilandi.
- **PQ-212-sonli Qarori (2022 yil 19 aprel)** – tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish, garov ta’minoti yetishmagan hollarda kafillik berish tizimini takomillashtirish nazarda tutildi.
- **PQ-306-sonli Qarori (2023 yil)** – oilaviy tadbirkorlik va yoshlar biznesini

moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari joriy etildi.

2023–2025 yillarga mo‘ljallangan islohotlar doirasida biznesni moliyalashtirishda:

- raqamli kreditlash tizimlarini joriy etish,
- mikromoliyalashtirish institutlarini kengaytirish,
- startap loyihalarni grant asosida qo‘llab-quvvatlash,
- xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish kabi yo‘nalishlar ustuvor vazifa etib belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy baza izchil takomillashtirilmoqda. Qabul qilingan qonun va qarorlar tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, investitsion faolligini oshirish hamda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Iqtisodiy transformatsiya sharoitida biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. An’anaviy va muqobil moliyalashtirish manbalarini uyg‘unlashtirish, raqamli moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini mustahkamlash hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali biznes subyektlarining barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida biznes subyektlarining raqobatbardoshligi ortadi, innovatsion faoliyati faollashadi va milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi ta’minlanadi.

IQTISODIY VA SIYOSIY BEQARORLIK DAVRIDA IQTISODIY RIVOJLANISH STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Azamqulov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li
TKTI Yangiyer Filiali stajyor o‘qituvchisi
Po‘latov Jasurjon Ikromjon O‘g‘li
TKTI Yangiyer Filiali 2-bosqich talabasi
e-mail: studentpultov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda iqtisodiy va siyosiy beqarorlik sharoitida milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish va rivojlantirish strategiyalari ilmiy asosda tahlil qilinadi. O‘zbekiston 2020–2025-yillar davrida global inflyatsiya oshishi, xorijiy investitsiyalar pasayishi va eksport talablarining o‘zgarishi natijasida makroiqtisodiy barqarorlik bilan yuzma-yuz kelmoqda. Tezisda iqtisodiy o‘sish, investitsiya salohiyati va makroiqtisodiy siyosat o‘zaro o‘rganilib, ularni takomillashtirish uchun strategik yo‘nalishlar taklif etiladi

Kalit so‘zlar: iqtisodiy rivojlanish, siyosiy beqarorlik, makroiqtisodiy barqarorlik, investitsiyalar, eksport, ekonometrik analiz, strategiya

Kirish

Global iqtisodiy muhitning beqarorligi, rus-ukrain urushi, COVID-19 pandemiyasi oqibatlari va energiya narxlarining keskin o‘zgarishi kabi omillar dunyo iqtisodiyotining barqarorligini susaytirdi. BMT hisobotiga ko‘ra, global iqtisodiy o‘sish 2022-yilda 3.1 % dan 2.4 % gacha pasaydi, bu esa rivojlanayotgan

mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy aks etdi [1]. O‘zbekiston iqtisodiyoti ham ushbu beqaror sharoitdan mustasno emas. 2020–2023-yillarda mamlakat YAIM o‘sishi global o‘rtacha ko‘rsatkichdan past bo‘lsa ham (2020: +1.9 %, 2021: +7.4 %, 2022: +5.7 %) hukumat tomonidan iqtisodiy islohotlar strategiyasi jadal amalga oshirildi va iqtisodiyot 2024-yilda 6.3 % o‘sishga erishdi (O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari) [2]. Bu shuni ko‘rsatadiki, beqaror muhitda strategik yo‘nalishlarni aniq belgilash iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.Shu sababli, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik davrida samarali iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirish masalasi ilmiy-amaliy izlanishlar uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik holati davlatning makroiqtisodiy siyosatining samaradorligini jiddiy sinovdan o‘tkazadi. Stiglitz (2017) ta’kidlaydiki, iqtisodiy inqiroz sharoitida fiskal va monetar siyosatning uyg‘unligi iqtisodiy tiklanish uchun asosiy shartlardan biridir, chunki u talab va taklif balansini tiklaydi [1]. Bundan tashqari, Krugman va Obstfeld (2018) xalqaro iqtisodiy model tahlillariga asoslanib, eksport salohiyati va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI) o‘sish darajasi beqaror iqtisodiy muhitda milliy iqtisodiy o‘sishning asosiy indikatorlari ekanligini tasdiqlaydi. Mualliflar global narx signallari qaror qabul qilish mexanizmlariga, resurs taqsimotiga va raqobatbardosh strategiyalarni belgilashga asosiy ta’sir ko‘rsatishini bildirgan [2]. Bu adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, beqaror sharoitda strategiyalarni shakllantirishda makroiqtisodiy siyosat elementlari mustahkam ilmiy asosga ega bo‘lishi lozim.

Metodologiya

Ushbu tezisda iqtisodiy rivojlanish strategiyalari samaradorligini baholash uchun **econometrik regressiya modeli** ishlatildi. 2020–2025-yillar bo‘yicha O‘zbekiston iqtisodiy ko‘rsatkichlari — YAIM o‘sish darajasi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi (FDI), eksport daromadi va inflyatsiya darajasi — tahlil qilindi.

Natija va muhokama

Quyidagi ma’lumotlar O‘zbekistonning 2020–2025-yillardagi statistik ko‘rsatkichlarini aks ettiradi (Statistika Qo‘mitasi; 2025):

Yil	YAIM o‘sish (%)	FDI (mlrd $)	Eksport (mlrd $)	Inflyatsiya (%)
2020	1.9	7.2	15.1	11.1
2021	7.4	8.1	16.6	10.0
2022	5.7	8.9	19.3	12.3
2023	6.0	9.5	20.2	9.8
2024	6.3	10.2	22.1	9.2
2025	6.5*	11.0*	23.5*	8.5*

Korrelyatsion tahlil shuni ko‘rsatadiki:

O‘zgaruvchi	GDP	FDI	Eksport	Inflyatsiya
GDP	1.00	0.78	0.82	-0.46
FDI	0.78	1.00	0.74	-0.30
Eksport	0.82	0.74	1.00	-0.25
Inflyatsiya	-0.46	-0.30	-0.25	1.00

Bu shuni ko‘rsatadiki, YAIM o‘sishi eksport va FDI bilan mustahkam ijobiy

bog‘liq bo‘lsa, inflyatsiya darajasi bilan salbiy bog‘liqlik mavjud. Bu holat beqaror sharoitda makroiqtisodiy siyosatni iqtisodiy o‘sishga yo‘naltirilgan shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi.

Regressiya natijalari:

O‘zgaruvchi	Koef.	Std.Err	t-stat	P-qiymat
FDI	0.52	0.14	3.71	0.02
Eksport	0.63	0.18	3.50	0.03
Inflyatsiya	-0.28	0.11	-2.54	0.04

Regressiya tahlili shuni ko‘rsatadiki:

- FDI va eksport YAIM o‘sishiga statistika jihatidan **sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi** ($p<0.05$).
- Inflyatsiya esa iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda ($p<0.05$).

Bu natijalar beqaror muhitda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun mustahkam investitsiyalar va eksport siyosatining strategik yo‘nalish ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Iqtisodiy va siyosiy beqarorlik davrida milliy iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda makroiqtisodiy siyosatning rolini oshirish zarur. Xususan:

- Investitsiyalarni jalb qilish va eksportni kengaytirish iqtisodiy o‘sishning asosiy omillari sifatida aniqlangan.
- Inflyatsiyani nazorat qilish orqali makrobarqarorlikni ta’minlash iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.
- Innovatsion iqtisodiyot va raqamli transformatsiya milliy barqarorlik strategiyasining ajralmas qismiga aylanadi.

Shu bilan birga, davlat iqtisodiy siyosatining moslashuvchanligi, institutsional islohotlarning chuqurligi va zamonaviy raqamli yechimlarda strategik yo‘nalishlar belgilanishi iqtisodiy beqaror sharoitda muvaffaqiyat kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stiglitz, J. (2017). *Globalization and Its Discontents*. New York: W.W. Norton.
2. Krugman, P. & Obstfeld, M. (2018). *International Economics: Theory and Policy*. Pearson Education.
3. World Bank. *Global Economic Prospects Report*.
4. International Monetary Fund. *World Economic Outlook*.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

MEHNAT BOZORIDA GENDER TENGLIKNI TA’MINLASHNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi i.f.f.d
Oxunova Oygul Usmonjon qizi
e-mail: oxunova.o93@gamil.com

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda mehnat bozorida gender tenglikni ta’minlashning iqtisodiy o‘sishga ta’siri kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro tajriba asosida gender tenglik darajasining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri statistik dalillar bilan asoslangan. Shuningdek, O‘zbekiston mehnat bozoridagi mavjud holat baholanib, gender tenglikni ta’minlash orqali iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish imkoniyatlari keltirilgan. E3ME modeli asosida gender tenglikning iqtisodiy mexanizmi izohlangan.

Kalit so‘zlar: gender tenglik, iqtisodiy o‘sish, mehnat bozori, bandlik, YAIM, inson kapitali.

Аннотация

В данном исследовании проведён комплексный анализ влияния обеспечения гендерного равенства на экономический рост в условиях рынка труда. На основе международного опыта обосновано воздействие уровня гендерного равенства на макроэкономические показатели с использованием статистических данных. Кроме того, дана оценка текущего состояния рынка труда Республики Узбекистан и представлены возможности ускорения экономического роста посредством обеспечения гендерного равенства. Экономический механизм влияния гендерного равенства раскрыт на основе модели E3ME.

Ключевые слова: гендерное равенство, экономический рост, рынок труда, занятость, ВВП, человеческий капитал.

Abstract

This study provides a comprehensive analysis of the impact of gender equality on economic growth within the labor market. Based on international experience, the study substantiates the influence of gender equality on macroeconomic indicators using statistical evidence. In addition, the current state of the labor market in Uzbekistan is assessed, and the opportunities for accelerating economic growth through the promotion of gender equality are identified. The economic mechanism of gender equality is explained using the E3ME model framework.

Keywords: gender equality, economic growth, labor market, employment, GDP, human capital.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy o‘sish faqat kapital va texnologiyalarga emas, balki inson kapitalidan qanchalik samarali foydalanishga ham bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, gender tenglik masalasi iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayollarning iqtisodiy faolligi oshishi ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi, daromadlarni ko‘paytiradi va iqtisodiy tizimning barqarorligini ta’minlaydi. Shu sababli, gender tenglikni ta’minlash iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gender tenglik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish barqaror va yuqori sur’atlarda kechmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, ayollarni mehnat bozoriga keng jalb qilish mamlakat iqtisodiyotida foydalanilmayotgan resurslarni ishga solish imkonini beradi. Bu esa YAIM hajmining oshishiga xizmat qiladi[1].

Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tadqiqotlarida qayd etilishicha, ayollar bandligi darajasining oshishi umumiy iqtisodiy o‘sishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[2].

McKinsey Global Institute hisob-kitoblariga ko‘ra, agar dunyoda gender tenglik to‘liq ta’minlansa, global YAIM hajmi 2030-yilga borib sezilarli darajada oshishi mumkin[3].

Shu bilan birga, xalqaro statistik ma’lumotlar ayollar va erkaklar o‘rtasida hali ham sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, global miqyosda erkaklarning mehnat kuchida ishtirok etish darajasi o‘rtacha 70 foizdan yuqori bo‘lsa, ayollarda bu ko‘rsatkich 50 foizdan past darajada shakllanmoqda. Bu esa ayollar iqtisodiy faoliyatga erkaklarga nisbatan ancha kam jalb etilayotganini anglatadi. Natijada mehnat resurslarining muhim qismi to‘liq safarbar etilmay qolmoqda, bu esa iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Gender tafovutlari nafaqat bandlik darajasida, balki ish haqi tizimida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Xalqaro baholashlarga ko‘ra, ayollar o‘rtacha erkaklarga nisbatan 20 foiz atrofida kam daromad oladi. Ushbu farq ko‘pincha kasbiy segmentatsiya, ya’ni ayollarning nisbatan past daromadli sohalarda to‘planib qolishi, shuningdek, lavozim pog‘onalarida yuqori o‘rinlarni egallash imkoniyatlarining cheklanganligi bilan izohlanadi.

Sohalar kesimida tahlil qilinganda, ayollar asosan xizmat ko‘rsatish, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi ijtimoiy yo‘naltirilgan tarmoqlarda yuqori ulushni egallaydi. Erkaklar esa sanoat, qurilish va texnologiya sohalarida ustunlik qiladi. Ayniqsa, yuqori texnologiyalar va STEM yo‘nalishlarida ayollar ulushining pastligi innovatsion rivojlanish salohiyatining to‘liq amalga oshirilmasligiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan bir qatorda rahbarlik lavozimlarida ham gender nomutanosibligi saqlanib qolmoqda. Global miqyosda ayollarning boshqaruv darajasidagi ulushi 30 foizga yetmaydi. Bu holat iqtisodiyotda “ko‘rinmas to‘siq” (glass ceiling) mavjudligini ko‘rsatadi, ya’ni ayollar yuqori lavozimlarga ko‘tarilishda tizimli cheklovlarga duch kelmoqda[5].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar gender tenglikning iqtisodiy o‘sishdagi hal qiluvchi rolini aniq statistik dalillar bilan asoslab beradi. Mazkur tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi mehnat bozoridagi tafovutlarni qisqartirish iqtisodiy tizimning ishlab chiqarish salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. OECD hisob-kitoblariga ko‘ra, gender tafovutlarini, xususan, mehnat bozorida ishtirok va ish vaqti bo‘yicha farqlarni bartaraf etish natijasida iqtisodiy o‘sish sur’atlari sezilarli darajada oshadi. Jumladan, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi mehnat ishtiroki tenglashtirilsa, OECD mamlakatlarida yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’atlari yiliga o‘rtacha 0,23 foiz punktga oshishi mumkin . Bu uzoq muddatda sezilarli kumulyativ effekt berib, iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi. Shuningdek, OECDning uzoq muddatli

prognozlariga ko‘ra, gender tenglikni ta’minlash orqali 2060-yilgacha OECD mamlakatlarida yalpi ichki mahsulot hajmi o‘rtacha 9,2 foizga oshishi mumkin . Bu ko‘rsatkich gender tenglikni iqtisodiy siyosatning muhim instrumenti sifatida ko‘rish zarurligini tasdiqlaydi[4].

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, ularning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shunga qaramay, mehnat bozorida ayollar ulushi ayrim sohalarda pastligicha qolmoqda. Ayniqsa, yuqori texnologiyali va yuqori daromadli sektorlarida gender nomutanosiblik kuzatiladi. O‘zbekiston mehnat bozori tarkibida gender jihatdan muayyan nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. So‘nggi yillarda ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, bandlik darajasi va daromadlar taqsimotida erkaklar foydasiga ustunlik kuzatilmoqda.


Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) bazalarida qayd etilishicha, mehnatga layoqatli aholining iqtisodiy faollik darajasi erkaklarda sezilarli darajada yuqori. Jumladan, erkaklarning iqtisodiy faollik darajasi o‘rtacha 70–75 foiz atrofida bo‘lsa, ayollarda bu ko‘rsatkich 45–50 foiz oralig‘ida shakllanmoqda. Bu esa mehnat bozoriga kirishda gender tafovuti mavjudligini ko‘rsatadi.

Bandlik tarkibi ham jinslar kesimida farqlanadi. Erkaklar asosan sanoat, qurilish va transport kabi yuqori daromadli sohalarda ko‘proq band bo‘lsa, ayollar ta’lim, sog‘liqni saqlash va xizmat ko‘rsatish sohalarida yuqori ulushni egallaydi. Mazkur sohalar nisbatan past ish haqi bilan tavsiflanadi, bu esa umumiy daromadlar farqining shakllanishiga olib keladi. Ish haqi bo‘yicha gender tafovuti ham muhim muammo hisoblanadi. Jahon banki (World Bank) va ILO ma’lumotlariga asoslanib aytish mumkinki, O‘zbekistonda gender ish haqi tafovuti o‘rtacha 25–30 foiz atrofida baholanadi. Ya’ni, bir xil yoki o‘xshash ish uchun ayollar erkaklarga nisbatan sezilarli darajada kamroq daromad oladi. Bu farq nafaqat kasbiy segmentatsiya, balki lavozim darajasi va ish tajribasidagi tafovutlar bilan ham izohlanadi[8].

Shuningdek, norasmiy bandlik darajasi ayollar orasida yuqoriroq ekani kuzatiladi. Norasmiy sektorda ishlovchi ayollar ijtimoiy himoya tizimidan to‘liq foydalanish imkoniga ega emas, bu esa ularning iqtisodiy xavfsizligini pasaytiradi. Bundan tashqari, uy mehnati va parvarish majburiyatlarining asosiy qismi ayollar zimmasiga tushishi ularning mehnat bozoridagi faolligini cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Gender tengligi zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qaralayotgan bir sharoitda so‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi nafaqat ijtimoiy adolatni ta’minlaydi, balki iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ham mustahkamlaydi. Gender tengligining iqtisodiyotga ta’siri ko‘p bosqichli mexanizm

orqali amalga oshadi va bu jarayonni tizimli ravishda tushuntirishda E3ME modeli asosidagi konseptual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.



1- rasm. Gender tengligining iqtisodiy o‘sishga ta’sir mexanizmi: E3ME modeli asosida konseptual yondashuv[133]

Mazkur modelga ko‘ra, gender tenglikdagi o‘zgarishlar avvalo inson kapitali sifatining oshishiga xizmat qiladi. Xususan, ayollarning STEM yo‘nalishlarida ta’lim olish imkoniyatlarining kengayishi, mehnat bozoridagi ishtirokining ortishi hamda ish haqi bo‘yicha tafovutlarning qisqarishi natijasida iqtisodiyotda mavjud bo‘lgan mehnat resurslaridan yanada samarali foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, oilaviy majburiyatlarning, xususan, bolalar parvarishi va uy mehnatining teng taqsimlanishi ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Gender tenglikning dastlabki ta’siri mehnat bozori orqali namoyon bo‘ladi. Ayollarning iqtisodiy faolligi ortishi mehnat taklifining kengayishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarish jarayoniga ko‘proq ishchi kuchini jalb etadi. Shu bilan birga, ta’lim darajasi yuqori bo‘lgan ayollar sonining ko‘payishi mehnat resurslarining sifatini yaxshilaydi va innovatsion faoliyatning kuchayishiga zamin yaratadi. Natijada iqtisodiyotda nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham o‘sish kuzatiladi.

Modelning keyingi bosqichida ushbu o‘zgarishlarning makroiqtisodiy natijalari shakllanadi. Bandlik darajasining oshishi aholining umumiy daromadlarini ko‘paytiradi, bu esa iste’mol hajmining kengayishiga olib keladi. Iste’molning ortishi agregat talabni rag‘batlantiradi va iqtisodiy faollikni jadallashtiradi. Shu orqali yalpi ichki mahsulotning o‘sishi ta’minlanadi. Bundan tashqari, mehnat resurslarining kengayishi va samaradorligining ortishi ishlab chiqarish salohiyatini oshirib, uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi.

Shu bilan birga, gender tenglikning ayrim bilvosita ijtimoiy ta’sirlari ham mavjud bo‘lib, ular iqtisodiy jarayonlarga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, uy mehnatining teng taqsimlanishi va bo‘sh vaqtning ko‘payishi

[133] E3ME modeli asosida muallif ishlanmasi

insonlarning hayot sifati va ijtimoiy farovonligini oshiradi. Gender stereotiplarning kamayishi esa ayollarning turli sohalarda o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishiga imkon yaratadi. Ushbu omillar bevosita iqtisodiy ko‘rsatkichlarda aks etmasligi mumkin, biroq ular uzoq muddatda iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlaydi.

Umuman olganda, tahlil shuni ko‘rsatadiki, gender tengligi iqtisodiy tizimga kompleks tarzda ta’sir etuvchi muhim omildir. U mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi, inson kapitalini rivojlantiradi va innovatsion jarayonlarni jadallashtiradi. Natijada iqtisodiyotda yuqori va barqaror o‘sish sur’atlariga erishish imkoniyati kengayadi. Shu sababli gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan siyosat choralari iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

Xulosa

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, gender tenglikni ta’minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin. Ayollarning iqtisodiy faolligi ortishi ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi va iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, gender tenglik innovatsion rivojlanishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki iqtisodiyotda turli ijtimoiy guruhlarning ishtiroki kengayadi.

Umuman olganda, gender tenglikni ta’minlash iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayollarni mehnat bozoriga keng jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish mumkin. O‘zbekiston sharoitida gender tenglikni ta’minlash iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga chiqish uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Gender tenglikni kuchaytirish uchun ayollar bandligini oshirish, ularni yuqori daromadli sohalarga jalb qilish, ish haqi tengligini ta’minlash hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank. Gender Equality and Development. — World Bank Group. Havola: https://www.worldbank.org/en/topic/gender
2. IMF. World Economic Outlook Database. — International Monetary Fund. Havola: https://www.imf.org/en/Publications/WEO/weo-database
3. McKinsey Global Institute. The Power of Parity: How Advancing Women’s Equality Can Add $12 Trillion to Global Growth. — McKinsey & Company, 2015. Havola: https://www.mckinsey.com/featured-insights/diversity-and-inclusion/the-power-of-parity
4. OECD. Gender Data Portal. — Organisation for Economic Co-operation and Development. Havola: https://www.oecd.org/gender/data/
5. UN Women. Gender Equality Statistics and Global Database. — United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women. Havola: https://www.unwomen.org/en
6. Cambridge Econometrics. E3ME Model: Global Macroeconomic Model. — Cambridge Econometrics Ltd. Havola: https://www.e3me.com
7. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Rasmiy statistik ma’lumotlar bazasi. — Toshkent.

Havola: https://stat.uz
8. World Bank. Gender Data Portal. — World Bank Group.
Havola: https://genderdata.worldbank.org
9. International Labour Organization (ILO). Global Labour Market Statistics. — ILO.
Havola: https://www.ilo.org

GLOBAL IQTISODIY BEQARORLIK SHAROITIDA PUL OQIMLARI AUDITI ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASH STRATEGIYALARI

Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsent v.b., PhD
e-mail: s.atamurodov@tsue.uz

Kirish

Zamonaviy global iqtisodiy va siyosiy beqarorlik sharoitida korxonalar faoliyatida moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon bozorlaridagi o‘zgaruvchanlik, siyosiy qarorlarning tez-tez yangilanishi va tashqi iqtisodiy omillarning ta’siri korxonalar moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, korxona darajasida pul oqimlarini chuqur tahlil qilish va ularni audit qilish orqali resurslardan oqilona foydalanish, risklarni kamaytirish hamda strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish zaruriyati ortib bormoqda.

Pul oqimlari auditi va tahlili korxona daromad hamda xarajatlarining shaffofligini ta’minlab, moliyaviy boshqaruvni takomillashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi [1]. Audit natijalariga asoslangan boshqaruv yo‘nalishlari nafaqat korxona ichki barqarorligini mustahkamlash, balki milliy iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirishga ham hissa qo‘shadi. Shu bois, beqarorlik sharoitida korxona pul oqimlarini tizimli ravishda nazorat qilish va ilmiy tahlil asosida boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning amaliy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Muammo

Zamonaviy iqtisodiy va siyosiy beqarorlik sharoitida korxonalar moliyaviy oqimlarni samarali boshqarishda bir qator muammolarga duch kelmoqda. Avvalo, pul oqimlari auditi yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi sababli daromad va xarajatlarning shaffofligi to‘liq ta’minlanmaydi. Bu esa resurslardan samarasiz foydalanish, likvidlikning pasayishi va investitsion imkoniyatlarning cheklanishiga olib keladi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondagi kichik va o‘rta korxonalarning qariyb 40 foizi moliyaviy oqimlarni muntazam auditdan o‘tkazmaydi [2], natijada ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Jahon tajribasi esa shuni ko‘rsatadiki, pul oqimlari auditi va tahlili muntazam amalga oshiriladigan korxonalarda rentabellik darajasi o‘rtacha 15–20 foizga yuqori bo‘ladi [5]. Nazariy jihatdan, moliyaviy oqimlarni nazorat qilish va tahlil qilish korxona iqtisodiy siyosatini shakllantirishda asosiy manba bo‘lib, risklarni kamaytirish va strategik qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Tahlil

Muammoni ilmiy yondashuv asosida ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatadiki, korxona darajasida pul oqimlari auditi va tahlili moliyaviy boshqaruvning eng muhim elementlaridan biridir. Audit jarayonida daromad va xarajatlarning shaffofligi ta’minlanadi, bu esa korxona ichki nazorat tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tahlil esa pul oqimlarining tarkibi, dinamikasi va rentabellik ko‘rsatkichlarini aniqlash orqali moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Nazariy jihatdan, pul oqimlari auditi korxona moliyaviy siyosatini shakllantirishda asosiy manba bo‘lib, risklarni kamaytirish va strategik qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi [4]. Amaliyotda esa muntazam audit va tahlil o‘tkaziladigan korxonalarda likvidlik darajasi yuqori bo‘lib, investitsion oqimlar samarali boshqariladi. Shu sababli, beqarorlik sharoitida pul oqimlarini chuqur tahlil qilish va audit natijalariga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish korxona barqarorligini ta’minlashning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

1-jadval

Pul oqimlari auditi va tahlilining korxona moliyaviy ko‘rsatkichlariga ta’siri[5,2,1]

Ko‘rsatkichlar	Audit va tahlil o‘tkazilgan korxonalarda	Audit va tahlil o‘tkazilmagan korxonalarda
Likvidlik darajasi (joriy aktivlar/joriy majburiyatlar)	1,8 (o‘rtacha)	1,2
Rentabellik darajasi (%)	15–20	8–10
Investitsion oqimlardan foydalanish samaradorligi	Yuqori (70–80%)	Past (40–50%)
Moliyaviy barqarorlik indeksi	0,75	0,45

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, pul oqimlari auditi va tahlili o‘tkazilgan korxonalarda moliyaviy ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yuqori. Likvidlik darajasi 1,8 ga teng bo‘lib, bu korxonaning joriy aktivlari majburiyatlarini to‘lash imkoniyatini mustahkamlaydi. Rentabellik darajasi 15–20 foizni tashkil etishi, audit va tahlil jarayonlari korxona foydaliligini oshirishda muhim omil ekanini ko‘rsatadi. Investitsion oqimlardan foydalanish samaradorligi ham yuqori bo‘lib, kapital oqimlarining oqilona taqsimlanishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, jadvaldagi ko‘rsatkichlar O‘zbekiston bo‘yicha rasmiy statistika emas, balki ilmiy adabiyotlarda keltirilgan o‘rtacha qiymatlar ekanini ta’kidlash lozim. Audit va tahlil o‘tkazilmagan korxonalarda ko‘rsatkichlar past darajada bo‘lib, moliyaviy barqarorlik indeksi 0,45 ga teng. Bu esa korxona moliyaviy mustaqilligi va barqarorligining zaifligini anglatadi. Demak, muntazam audit va tahlil jarayonlarini joriy etish korxona moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish, risklarni kamaytirish va strategik qarorlarni ilmiy asosda qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Taklif etilayotgan yo‘nalishlar

Muammoni ilmiy tahlil qilish natijasida korxona darajasida pul oqimlari auditi va tahlilini samarali tashkil etish uchun bir qator amaliy yo‘nalishlarni ishlab chiqish zarur. Avvalo, audit tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish va moliyaviy oqimlarni muntazam nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish lozim [4].

Bu korxona daromad va xarajatlarining shaffofligini ta’minlab, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, pul oqimlari monitoringini raqamli texnologiyalar asosida yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyati korxona likvidligini oshiradi va risklarni tezkor aniqlashga yordam beradi. Uchinchidan, tahliliy platformalar orqali prognozlash va investitsion oqimlarni baholash korxona strategik qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish imkonini beradi.

Shuningdek, moliyaviy siyosatni audit natijalariga asoslangan holda moslashtirish zarur. Bu korxona ichki boshqaruvini takomillashtirib, tashqi iqtisodiy beqarorlik sharoitida ham barqarorlikni ta’minlaydi. Nihoyat, auditor va moliyaviy tahlilchilar salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash korxona moliyaviy boshqaruvining samaradorligini yanada kuchaytiradi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy iqtisodiy va siyosiy beqarorlik sharoitida korxona darajasida pul oqimlari auditi va tahlili samarali boshqaruvni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Audit jarayonlari daromad va xarajatlarning shaffofligini ta’minlab, resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi, tahlil esa moliyaviy oqimlarning dinamikasini chuqur o‘rganish orqali strategik qarorlar qabul qilishni ilmiy asosidir.

Ilmiy-amaliy tavsiyalar sifatida audit tizimini takomillashtirish [1], raqamli monitoring mexanizmlarini joriy etish[4], tahliliy platformalardan foydalanish va kadrlar salohiyatini oshirish korxona moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada, korxonalar nafaqat ichki moliyaviy boshqaruvni yaxshilaydi, balki milliy iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirishga ham hissa qo‘shadi. Shu bois, pul oqimlari auditi va tahlili zamonaviy iqtisodiy siyosatning amaliy mexanizmlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xasanov B.A., Maxmudov A.N., Atamurodov S.Y. “Yashil iqtisodiyot sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar pul oqimlari auditini takomillashtirish masalalari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2025.

2. Ergashev X.X., Qlicheva G. “Pul oqimlari hisobotini auditi”. Jurnal: Ekonomika i sotsium, 2024.

3. “Pul oqimlari tahlili”. Arxiv.uz, Iqtisodiyot bo‘yicha referatlar to‘plami, 2023.

4. International Federation of Accountants (IFAC). International Standards on Auditing (ISA). 2022-yilgi nashr.

5. Brigham, E.F., Houston, J.F. Fundamentals of Financial Management. 15th Edition, Cengage Learning, 2022.

IQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA SANOATNING YETAKCHI TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA ILG‘OR TAJRIBALAR

Xolbozorov Muzraf Yusup o‘g‘li
Toshkent kimyo-texnologiya instituti kafedrasi mustaqil izlanuvchisi,
e-mail: muzrofxolbozorov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda sanoatning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalar tahlil qilingan. Sanoat tarmoqlari milliy iqtisodiyotning asosiy drayveri sifatida ishlab chiqarish hajmini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat siyosatini shakllantirishning samarali yo‘nalishlari o‘rganilgan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, klaster tizimini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish masalalari yoritilgan. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Natijada iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga doir xulosalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Iqtisodiy barqarorlik, sanoat tarmoqlari, yetakchi sanoat, ishlab chiqarish, iqtisodiy o‘sish, eksport salohiyati, import o‘rnini bosish, sanoat siyosati, innovatsion texnologiyalar, modernizatsiya, klaster tizimi, investitsiyalar.*

Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda sanoatning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish har qanday davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki sanoat tarmoqlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining asosiy qismini shakllantiradi, eksport salohiyatini oshiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga multiplikativ ta’sir ko‘rsatadi. Sanoat rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari nisbatan barqaror bo‘lib, ishlab chiqarish samaradorligi yuqori darajada shakllangan. Shu sababli ko‘plab davlatlar sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Sanoatning yetakchi tarmoqlari deganda iqtisodiy taraqqiyotga katta hissa qo‘shuvchi, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi va mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlovchi sohalar tushuniladi. Bunday tarmoqlarga mashinasozlik, metallurgiya, kimyo sanoati, energetika, elektrotexnika, avtomobilsozlik, axborot texnologiyalari va farmatsevtika sanoati kiradi. Ushbu tarmoqlar iqtisodiyotning texnologik rivojlanish darajasini belgilaydi hamda mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sanoat tarmoqlarining samarali rivojlanishi davlatning oqilona sanoat siyosati, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalarni kengaytirish bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, Germaniya sanoatni “Industry 4.0” konsepsiyasi asosida raqamlashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi. Janubiy Koreya yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali jahon bozorida kuchli raqobatbardoshlikka erishdi. Xitoy esa

sanoatni modernizatsiya qilish va eksportni kengaytirish orqali global ishlab chiqarish markaziga aylandi.

Ilg‘or tajribalar sanoatni rivojlantirishda innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, energiya samaradorligi va ekologik barqarorlik muhim omil ekanligini ko‘rsatmoqda. Zamonaviy sharoitda sanoatni rivojlantirish faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan cheklanmay, balki yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqarish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish tizimini yaratishni ham talab qiladi. Shu bilan birga, sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, logistika tizimini takomillashtirish hamda eksport geografiyasini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston sharoitida ham iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun sanoatning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish strategik vazifa hisoblanadi. Sanoatni modernizatsiya qilish, mahalliylashtirish darajasini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakatning sanoat salohiyatini yanada kuchaytirish mumkin. Shu sababli ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va milliy iqtisodiyotga moslashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda sanoatning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni quyidagi jadvalda tahlil qilib ko‘rsatamiz (1-jadval):

1-jadval

Sanoatni rivojlantirishning ilg‘or tajribalari

№	Davlat	Yetakchi sanoat tarmog‘i	Qo‘llangan ilg‘or tajriba	Natijasi	O‘zbekiston uchun ahamiyati
1	Germaniya	Mashinasozlik va avtomobilsozlik	“Industry 4.0” raqamli ishlab chiqarish tizimi	Ishlab chiqarish samaradorligi va eksport hajmi oshdi	Raqamli sanoat texnologiyalarini joriy etish imkoniyati
2	Janubiy Koreya	Elektrotexnika va IT sanoati	Innovatsion texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash	Yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti kengaydi	Innovatsion iqtisodiyot modelini rivojlantirish
3	Xitoy	Sanoat ishlab chiqarishi va metallurgiya	Maxsus iqtisodiy zonalar va eksportga yo‘naltirilgan siyosat	Global ishlab chiqarish markaziga aylandi	Erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish
4	Yaponiya	Robototexnika va avtomobilsozlik	Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi	Yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish kuchaydi	Sifat menejmenti tizimini joriy etish

5	AQSH	Yuqori texnologiyalar sanoati	Innovatsion startaplar va venchur kapital tizimi	Texnologik yetakchilik ta’minlandi	Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish
6	Singapur	Elektronika va logistika	Erkin savdo va logistika infratuzilmasini rivojlantirish	Investitsion jozibadorlik oshdi	Logistika tizimini modernizatsiya qilish
7	Fransiya	Aerokosmik va energetika sanoati	Davlat va xususiy sektor hamkorligi	Yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarildi	Davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish
8	BAA	Neft-kimyo va energetika	Sanoat diversifikatsiyasi va investitsiyalarni jalb qilish	Neftdan tashqari sanoat tarmoqlari rivojlandi	Sanoat diversifikatsiyasini kuchaytirish
9	Shvetsiya	Yashil energetika va ekologik sanoat	Ekologik texnologiyalarni joriy etish	Barqaror sanoat rivojlanishi ta’minlandi	“Yashil iqtisodiyot” tamoyillarini kengaytirish
10	Turkiya	To‘qimachilik va qurilish materiallari sanoati	Eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish siyosati	Tashqi savdo hajmi sezilarli oshdi	Eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda sanoatning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish muhim strategik omil hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar sanoatni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o‘sishga erishgan. Ayniqsa, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi sanoatning texnologik rivojlanishi mamlakat raqobatbardoshligini oshirishda asosiy vosita ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu davlatlarda ilmiy tadqiqotlar, raqamli texnologiyalar va ishlab chiqarish integratsiyasi yuqori samaradorlikni ta’minlagan.

Xitoy tajribasi sanoatni rivojlantirishda davlat siyosati va maxsus iqtisodiy zonalarning muhim rolini namoyon etadi. Eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish modeli, arzon ishchi kuchidan samarali foydalanish va infratuzilmani rivojlantirish orqali Xitoy qisqa muddatda global sanoat markaziga aylandi. Bu tajriba sanoat siyosatini uzoq muddatli strategik rejalashtirish asosida amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Singapur va BAA tajribasi investitsion muhitni yaxshilash va logistika tizimini rivojlantirish sanoatning barqaror o‘sishiga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

AQSH tajribasi innovatsion iqtisodiyot va yuqori texnologiyalar sanoatini rivojlantirishda venchur kapital, startap loyihalar va ilmiy markazlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Innovatsiyalarni moliyalashtirish tizimi yangi texnologiyalar yaratish va ishlab chiqarishga joriy etishda katta rol o‘ynaydi. Bu esa

sanoatning nafaqat ishlab chiqarish hajmini, balki mahsulot sifati va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Shvetsiya va Fransiya tajribasi ekologik barqarorlik hamda davlat-xususiy sheriklik asosida sanoatni rivojlantirish samarali natija berishini ko‘rsatadi. Zamonaviy iqtisodiyotda sanoatning ekologik xavfsizligi va energiya samaradorligi muhim mezonlardan biriga aylanmoqda. Shu sababli yashil texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sanoat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Turkiya tajribasi eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish siyosati orqali sanoatning tashqi bozordagi ulushini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. To‘qimachilik, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoati kabi tarmoqlarda eksport hajmining oshishi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bu esa ichki ishlab chiqarish salohiyatini xalqaro talab bilan uyg‘unlashtirish zarurligini anglatadi.

O‘zbekiston uchun ushbu ilg‘or tajribalar sanoatni modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tajribalarni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish orqali sanoat samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash mumkin. Shu jihatdan sanoatning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda sanoatning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi sanoatni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va investitsion muhitni yaxshilash yuqori samaradorlik berishini ko‘rsatmoqda. Shu sababli O‘zbekistonda ham sanoat korxonalarini raqamlashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa sanoat raqobatbardoshligini oshirib, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

10. N.Gregory Mankiw. Principles of Economics. (Textbook). Cengage Learning Publishing House, 2021. 880 p.

Annotation. This thesis scientifically analyzes the institutional and economic foundations of strengthening energy security in Uzbekistan. The study examines energy management mechanisms, state policy, investment environment, and the economic importance of developing renewable energy sources. In addition, the role of ongoing reforms in the energy sector in ensuring the stability of the national economy is evaluated.

Keywords: energy security, institutional mechanism, economic stability, energy policy, investments, renewable energy, energy infrastructure, economy of Uzbekistan.

Аннотация. В данной тезисной работе научно исследуются институциональные и экономические основы укрепления энергетической безопасности в Узбекистане. В исследовании рассматриваются механизмы управления энергетической системой, государственная политика, инвестиционная среда, а также экономическое значение развития

возобновляемых источников энергии. Кроме того, оценивается роль реформ, проводимых в энергетической сфере, в обеспечении устойчивости национальной экономики.

Ключевые слова: энергетическая безопасность, институциональный механизм, экономическая устойчивость, энергетическая политика, инвестиции, возобновляемая энергия, энергетическая инфраструктура, экономика Узбекистана.

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida energetika xavfsizligini ta’minlash har bir mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, jahon energetika bozoridagi beqarorlik hamda iqlim o‘zgarishlari energetika tizimini samarali boshqarishni talab etmoqda. O‘zbekistonda energetika xavfsizligini mustahkamlash maqsadida energetika sohasini modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatda energetika tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish, davlat boshqaruvi mexanizmlarini samarali tashkil etish hamda energetik infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda energetika xavfsizligini mustahkamlashning institutsional va iqtisodiy asoslari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Energetika xavfsizligini ta’minlash masalalari iqtisodiy barqarorlik va milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilgan. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) hisobotlarida energetika xavfsizligi energiya resurslarining uzluksiz va barqaror yetkazib berilishi bilan bog‘liq strategik omil sifatida talqin qilinadi. Ushbu tadqiqotlarda energetika tizimini diversifikatsiya qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish iqtisodiy xavflarni kamaytiruvchi asosiy yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan.[1]

Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki tadqiqotlarida energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda investitsion muhitni yaxshilash iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi omil sifatida baholangan. Tadqiqotlarda energiya ta’minotidagi uzilishlar sanoat ishlab chiqarishi samaradorligiga salbiy таъсир кўрсатиши va makroiqtisodiy beqarorlikni yuzaga keltirishi qayd etilgan.[2]

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida mamlakat energetika tizimini institutsional jihatdan rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish hamda qayta tiklanuvchi energiyamanbalarini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, energetika sohasidagi islohotlar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga xizmat qilishi ta’kidlangan.

Natijalar va tahlillar

O‘zbekistonda energetika xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha olib borilgan institutsional va iqtisodiy islohotlar so‘nggi yillarda energetika tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2020–

2024-yillar davomida mamlakatda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 66,5 mlrd kVt/soatdan 81,5 mlrd kVt/soatga oshgan. Mazkur holat iqtisodiyot tarmoqlarining energiya bilan ta’minlanish darajasi yaxshilanayotganligini ko‘rsatadi.[3]

Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 2020-yildagi 8 foizdan 2024-yilda 14,1 foizga yetgan. Bu esa davlat tomonidan “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini rivojlantirishga qaratilgan investitsion siyosat samaradorligini ifodalaydi. Xususan, quyosh va shamol elektr stansiyalariga yo‘naltirilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi energetika tarmog‘ining institutsional barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Energetika sohasiga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 2,1 mlrd AQSH dollaridan 2024-yilda 5,1 mlrd AQSH dollariga oshgan bo‘lib, bu energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish imkonini bermoqda. Natijada sanoat ishlab chiqarishining o‘sish sur’atlari 2024-yilda 6,5 foizga, YAIM o‘sishi esa 6,3 foizga yetgan. Ushbu ko‘rsatkichlar energetika xavfsizligi bilan iqtisodiy barqarorlik o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.[4]

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, energetika tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda energetika xavfsizligini mustahkamlash milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Energetika tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish, energetik infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, energetika sohasiga investitsiyalar hajmining ortishi sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini kuchaytirib, energiya ta’minotidagi uzilishlar xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada energetika xavfsizligini ta’minlash orqali iqtisodiyot tarmoqlarining uzluksiz faoliyati, investitsion jozibadorlik va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyati kengaymoqda. Shu sababli O‘zbekistonda energetika sohasidagi islohotlarni izchil davom ettirish va “yashil energetika”ni rivojlantirish ustuvor strategik yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Energy Agency (IEA). World Energy Outlook 2024. – https://www.iea.org

2. World Bank. Energy Security and Economic Development Reports. – https://www.worldbank.org

3. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi – https://minenergy.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi – https://stat.uz

CHAKANA BANK XIZMATLARI BOZORIDA YANGI BANK MAHSULOTLARINI JORIY ETISHNING MUHIM JIHATLARI

Xikmetov Nodirbek Ikromovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Tadbirkorlik iqtisodiyotning rivojlanishi va innovatsion faollikning shakllanishida markaziy o‘rin tutadi. Milliy iqtisodiyotda kichik va o‘rta biznes subyektlari ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va ish o‘rinlari yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy barqarorlik va investitsion faollikni oshirishning asosiy vositasi sifatida qaraladi.

Tijorat banklari esa moliyaviy vositachilik funksiyasini bajaruvchi institut sifatida tadbirkorlik subyektlariga mablag‘lar jalb qilish va ularni samarali taqsimlash orqali iqtisodiyotdagi likvidlik va kredit resurslarini optimallashtiradi. Mazkur jarayonda yangi kredit mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish tadbirkorlikni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtiradi.

Davlat siyosati va institutsional islohotlar ham chakana bank xizmatlari rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlash, to‘lov tizimlarini rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar bank tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish aholining bank xizmatlaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining moliyaviy vositachilik (financial intermediation) funksiyasi ortiqcha likvid resurslarga ega bo‘lgan subyektlar bilan kredit resurslariga ehtiyoji bo‘lgan subyektlar o‘rtasida mablag‘ almashuvini ta’minlashga qaratilgan. Tadbirkorlik subyektlari ko‘pincha qisqa muddatli yoki startap loyihalarni moliyalashtirish uchun an’anaviy kredit manbalariga ega bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari tomonidan maxsus mikro- va kichik kredit mahsulotlarini ishlab chiqish, ularni raqamli platformalar orqali taqdim etish tadbirkorlik sektorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmini hosil qiladi.

Mikroloyihalar odatda kichik hajmli, tezkor realizatsiyaga ega va mahalliy ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ularni moliyalashtirish orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

1. Ish o‘rinlari yaratish – kichik loyihalar yangi ish o‘rinlarini taqdim etadi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni oshiradi.
2. Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish – mikroloyihalar asosida yangi mahsulotlar va xizmatlar paydo bo‘ladi, bu esa hududiy iqtisodiy o‘sishga turtki beradi.
3. Moliyaviy inklyuziya – kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari an’anaviy moliya manbalaridan chetda qolmay, bank tizimiga integratsiyalanadi.

Yangi kredit mahsulotlarini ishlab chiqish bank faoliyatining strategik jihatlaridan biri bo‘lib, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash va mikroloyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan. Ushbu jarayon bir necha nazariy va amaliy asoslarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Birinchidan, moslashuvchan kredit shartlari kredit muddati, foiz stavkalari va to‘lov jadvalini tadbirkorlik loyihasining xususiyatlariga muvofiq belgilash

imkonini beradi. Bu startap va kichik loyihalarni moliyalashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bank va mijoz o‘rtasida barqaror moliyaviy aloqalarni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, raqamli platformalar va mobil ilovalar orqali kreditlarni taqdim etish jarayoni operatsion samaradorlikni oshiradi, inson omilini kamaytiradi va mijozlar uchun qulaylik yaratadi. Shu orqali bankning ichki resurslari samarali ishlatiladi, xizmat ko‘rsatish tezligi ortadi va chekka hududlardagi tadbirkorlar ham moliyaviy resurslarga masofadan turib ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, yangi kredit mahsulotlari turli loyihalarga taqsimlanishi orqali risklarni diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Mikroloyihalarning kichik hajmi har bir alohida loyiha riskini kamaytiradi va bank portfelining barqarorligini oshiradi. Bu printsip moliyaviy vositachilik va portfel boshqaruvi nazariyalariga asoslanadi.

To‘rtinchidan, iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari, jumladan qulay foiz stavkalari, subsidiyalangan kreditlar va garov fondlari, tadbirkorlarni kredit olishga undaydi. Bu nafaqat bankning moliyaviy samaradorligini oshiradi, balki milliy iqtisodiyotning kichik va o‘rta biznes sektorini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, yangi kredit mahsulotlarini ishlab chiqish jarayoni bankning ilmiy asoslangan strategiyasi sifatida qaraladi. Bu jarayon kredit shartlarini moslashtirish, raqamli xizmatlarni joriy etish, risklarni diversifikatsiya qilish va iqtisodiy rag‘batlantirish orqali tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Natijada banklar o‘z portfelini optimallashtiradi va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Yangi kredit mahsulotlarini joriy etishning strategik va amaliy natijalari bank tizimi va milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega. Avvalo, tijorat banklarining raqobatbardoshligi oshadi. Innovatsion kredit mahsulotlari orqali banklar mijoz bazasini kengaytiradi, tadbirkorlar bilan uzoq muddatli moliyaviy aloqalarni shakllantiradi hamda bozordagi o‘z pozitsiyasini mustahkamlaydi. Bu jarayon bank faoliyatining barqarorligini ta’minlash va moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan muhimdir.

Shuningdek, yangi kredit mahsulotlari iqtisodiyotdagi kapital oqimini optimallashtirishga xizmat qiladi. Mikroloyihalarga yo‘naltirilgan kreditlar kichik investitsion loyihalarni moliyalashtiradi, ichki bozorning faolligini oshiradi va xususiy sektorning moliyaviy resurslardan samarali foydalanishini rag‘batlantiradi. Natijada, iqtisodiyotdagi likvidlik oqimlari samarali taqsimlanadi va investitsion jarayonlar barqaror rivojlanadi.

Yangi mahsulotlarning amaliy natijalaridan biri moliyaviy inklyuziya va ijtimoiy barqarorlikni oshirishdir. Kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy tizimga jalb qilish orqali ular kredit resurslaridan foydalanish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa iqtisodiy faollikni kuchaytiradi, ish o‘rinlarini yaratadi va hududiy rivojlanishni rag‘batlantiradi, shuningdek, mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, yangi kredit mahsulotlari risklarni boshqarish va portfelni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Turli mikroloyihalarga yo‘naltirilgan kreditlar bankning umumiy kredit portfeli uchun xavfni kamaytiradi, shu bilan

bankning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi va kredit mahsulotlarini ilg‘or moliyaviy texnologiyalar orqali samarali boshqarishga imkon yaratadi. Natijada, yangi kredit mahsulotlarini joriy etish nafaqat banklar faoliyatining samaradorligini oshiradi, balki milliy iqtisodiyotning kichik va o‘rta biznes sektorini rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash va hududlar bo‘yicha moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish uchun strategik vosita sifatida xizmat qiladi.

SUG‘URTA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sherov Sanjar Radjabovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, mustaqil izlanuvchisi, PhD,
e-mail: sherovsr@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur tezisda sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalarning, jumladan sun’iy intellekt, Big Data va raqamli platformalarning boshqaruv samaradorligiga ta’siri o‘rganilgan. Natijada boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimini joriy etish va platformaviy boshqaruv modelini rivojlantirish sug‘urta institutining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘nalishlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta xizmatlari, raqamlashtirish, boshqaruv mexanizmlari, samaradorlik, InsurTech, Big Data, sun’iy intellekt, raqamli platformalar, moliyaviy texnologiyalar, boshqaruv tizimi

Zamonaviy iqtisodiy makonda xizmatlar sohasining raqamlashtirilishi boshqaruv yondashuvlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Xususan, sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish nafaqat texnologik yangilanish jarayoni, balki boshqaruv mexanizmlarining transformatsiyasini ham anglatadi. An’anaviy boshqaruv modellari asosan markazlashgan va ko‘p bosqichli qaror qabul qilish tizimlariga tayanib kelgan bo‘lsa, raqamli muhitda tezkorlik, moslashuvchanlik va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi bevosita texnologik infratuzilma, ma’lumotlar bilan ishlash darajasi va tashkilotning innovatsion salohiyati bilan belgilanadi. Ayniqsa, raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan tizimlar va analitik vositalarning keng joriy etilishi boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish bilan birga, ularni yanada murakkab va ko‘p qirrali holatga olib kelmoqda. Bu esa boshqaruv tizimlarining takomillashtirilishini zarurat darajasiga olib chiqmoqda.

Sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda alohida o‘rin egallaydi. Masalan, Marafonova va Belyaeva (2020) o‘z tadqiqotlarida raqamli transformatsiya sharoitida boshqaruv tizimlari moslashuvchan va tezkor qaror qabul qilishga yo‘naltirilishi zarurligini ta’kidlaydi [1]. Mualliflarning fikricha, raqamli texnologiyalar boshqaruv jarayonlarini markazlashuvdan chiqarib, ularni yanada dinamik va samarali qiladi.

Bundan tashqari, KPMG (2021) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda sug‘urta sektorida raqamli texnologiyalarni joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi ko‘rsatib berilgan [2]. Hisobotda qayd etilishicha, avtomatlashtirilgan tizimlar va analitik platformalar orqali qaror qabul qilish sifati yaxshilanib, operatsion jarayonlar optimallashtiriladi.

Deloitte (2022) tadqiqotida esa sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish jarayonida boshqaruv mexanizmlarining qayta tashkil etilishi zarurligi asoslab berilgan [3]. Mualliflar raqamli transformatsiya sharoitida kompaniyalar ochiq innovatsiyalar, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv va mijozga yo‘naltirilgan strategiyalarni joriy etishi lozimligini ta’kidlaydi.

Sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish zamonaviy moliyaviy tizimda boshqaruv mexanizmlarining tubdan o‘zgarishini talab qilmoqda. An’anaviy sug‘urta boshqaruv modeli ko‘p bosqichli, qog‘oz hujjatlar asosida va nisbatan sekin qaror qabul qilish jarayonlariga tayangan bo‘lsa, raqamli transformatsiya ushbu yondashuvni tezkor, moslashuvchan va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimi bilan almashtirmoqda. Natijada sug‘urta institutlari faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish muhim strategik vazifaga aylanmoqda.

Raqamlashtirish sharoitida boshqaruv samaradorligi avvalo ma’lumotlar bilan ishlash sifati va tezligiga bog‘liq. Big Data texnologiyalari sug‘urta kompaniyalariga katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish va risklarni aniq segmentlash imkonini bermoqda. Bu esa boshqaruv qarorlarini yanada asosli va prognozlash imkoniyatiga ega qilishga xizmat qiladi. Masalan, an’anaviy tizimda risk baholash umumiy statistik ma’lumotlarga asoslangan bo‘lsa, raqamli tizimda individual risk profillari shakllantiriladi.

Boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining roli ham ortib bormoqda. AI asosidagi tizimlar sug‘urta hodisalarini tezkor aniqlash, firibgarlik holatlarini oldindan prognozlash va da’volarni avtomatik qayta ishlash imkonini beradi. Bu esa inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirib, boshqaruv jarayonlarini ancha samarali qiladi. Shu bilan birga, real vaqt rejimida ishlaydigan monitoring tizimlari sug‘urta portfelining holatini doimiy nazorat qilish imkonini yaratadi.

Raqamli transformatsiya sharoitida boshqaruvning yana bir muhim yo‘nalishi – bu platformaviy boshqaruv modelining shakllanishidir. Sug‘urta kompaniyalari alohida faoliyat yurituvchi subyekt sifatida emas, balki banklar, fintech tashkilotlar, elektron tijorat platformalari va telekommunikatsiya kompaniyalari bilan integratsiyalashgan holda faoliyat olib bormoqda. Bu esa boshqaruvni faqat ichki jarayonlar bilan cheklab qo‘ymasdan, balki butun ekotizim darajasida olib borishni talab qiladi.

Platformaviy boshqaruv mexanizmi quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

- xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirish;
- mijozlarga kompleks xizmatlar ko‘rsatish;
- ma’lumotlar almashinuvini tezlashtirish;
- yangi biznes modellarning shakllanishi.

Biroq bunday model boshqaruvni murakkablashtiradi, chunki turli ishtirokchilar o‘rtasida muvofiqlashtirish talab etiladi.

Raqamlashtirish jarayonida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning yana bir muhim yo‘nalishi – bu avtomatlashtirish darajasini oshirishdir. Sug‘urta xizmatlarining asosiy jarayonlari – shartnoma tuzish, to‘lovlarni amalga oshirish, da’volarni ko‘rib chiqish va mijozlar bilan ishlash jarayonlari to‘liq yoki qisman avtomatlashtirilmoqda. Bu esa operatsion xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko‘rsatish tezligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, raqamlashtirish boshqaruv tizimiga yangi talablarni ham qo‘ymoqda. Xususan, kiberxavfsizlikni ta’minlash boshqaruvning ajralmas qismiga aylanmoqda. Raqamli tizimlar orqali katta hajmdagi moliyaviy va shaxsiy ma’lumotlar qayta ishlanishi ularni himoya qilish zaruratini kuchaytiradi. Shu sababli sug‘urta kompaniyalari boshqaruv tizimida xavfsizlik protokollarini kuchaytirishi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi lozim.

Yana bir muhim masala – bu inson kapitali bilan bog‘liq. Raqamli transformatsiya yuqori malakali IT mutaxassislar, data-analitiklar va raqamli boshqaruv sohasida bilimga ega kadrlarni talab etadi. An’anaviy boshqaruv tizimida ishlagan mutaxassislar uchun esa qayta tayyorlash va malaka oshirish zarurati yuzaga keladi. Bu esa boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishda kadrlar siyosatini muhim omilga aylantiradi.

Sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Birinchidan, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish zarur. Bu orqali qaror qabul qilish jarayonlari aniq va asosli bo‘ladi.

Ikkinchidan, platformaviy boshqaruv modelini rivojlantirish lozim. Bu sug‘urta xizmatlarini boshqa moliyaviy xizmatlar bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Uchinchidan, avtomatlashtirish darajasini oshirish orqali operatsion samaradorlikni ta’minlash mumkin.

To‘rtinchidan, kiberxavfsizlikni kuchaytirish orqali raqamli tizimlarning barqarorligini ta’minlash zarur.

Beshinchidan, kadrlar salohiyatini rivojlantirish boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Natijada, boshqaruv mexanizmlarining takomillashtirilishi sug‘urta kompaniyalarining raqamli transformatsiya jarayonida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish boshqaruv tizimiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon nafaqat texnologik yangilanishni, balki boshqaruv falsafasining o‘zgarishini ham talab qiladi. Shu sababli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish raqamli transformatsiyaning ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish sug‘urta institutining samarali rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida boshqaruv tizimi tezkor, moslashuvchan va ma’lumotlarga asoslangan modelga o‘tmoqda. Bu esa sug‘urta kompaniyalarining operatsion samaradorligini oshirish, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash hamda mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, Big Data, sun’iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanish boshqaruv qarorlarini qabul qilishda aniqlik va tezkorlikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, platformaviy boshqaruv modelining shakllanishi sug‘urta xizmatlarini kengaytirish va boshqa moliyaviy institutlar bilan integratsiyani kuchaytirish imkonini bermoqda. Natijada sug‘urta bozori raqobatbardoshligi oshib, yangi biznes modellarning rivojlanishi uchun sharoit yaratilmoqda.

Biroq, raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan kiberxavfsizlik muammolari, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va malakali kadrlar yetishmasligi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishda muayyan cheklovlarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli ushbu muammolarni bartaraf etish bilan bir qatorda boshqaruv tizimini kompleks yondashuv asosida modernizatsiya qilish zarur.

Sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish boshqaruv mexanizmlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Uni samarali tashkil etish va rivojlantirish orqali sug‘urta institutining barqaror faoliyati, iqtisodiy samaradorligi va uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlash mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Марафонова М.А., Беляева И.А. Цифровая трансформация управления в условиях цифровой экономики // Экономика и управление. – 2020. – № 5. – С. 45–52.

2. KPMG. The future of insurance: digital transformation in insurance industry [Electronic resource]. – 2021. – URL: https://home.kpmg

3. Deloitte. Insurance industry outlook: accelerating digital transformation [Electronic resource]. – 2022. – URL: https://www2.deloitte.com

YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGI VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI

Sh.K.Jumayeva, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Bugungi kunda yoshlar har qanday davlatning strategik resursi va taraqqiyot omili hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv va raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan davrda yoshlarning iqtisodiy faolligi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarning ishlab chiqarish, tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish va innovatsion faoliyatdagi ishtiroki iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirishga xizmat qiladi.

Yoshlar iqtisodiy faolligi deganda ularning mehnat bozoridagi ishtiroki, biznes yuritishi, investitsion va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishi tushuniladi. Zamonaviy iqtisodiyotda yoshlarning bilim va ko‘nikmalari, raqamli texnologiyalarni egallashi hamda yangicha fikrlashi iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda.

Yoshlarning iqtisodiy faolligi mamlakatning mehnat resurslari salohiyatini belgilab beradi. Iqtisodiy faol yoshlar:

- yangi ish o‘rinlari yaratadi;
- tadbirkorlikni rivojlantiradi;
- innovatsion loyihalarni amalga oshiradi;

- mamlakat yalpi ichki mahsuloti o‘sishiga hissa qo‘shadi.

Ayniqsa, yoshlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi ishtiroki iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda ko‘plab yoshlar startap loyihalar, elektron tijorat va IT texnologiyalar orqali iqtisodiy jarayonlarda faol qatnashmoqda.

Yoshlar iqtisodiy faolligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bandlik darajasi hisoblanadi. Mehnat bozorida yoshlarning ish bilan ta’minlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlaydi. Shu sababli ko‘plab davlatlarda yoshlar bandligini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda.

O‘zbekistonda ham yoshlarni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda:

- yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish;
- imtiyozli kreditlar ajratish;
- kasb-hunarga o‘qitish;
- IT va raqamli texnologiyalarni o‘rgatish;
- startap loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu esa yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish va ularni mustaqil daromad manbaiga ega bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Internet va zamonaviy texnologiyalar orqali yoshlar:

- masofaviy ishlash;
- frilans faoliyati;
- onlayn savdo;
- dasturlash;
- grafik dizayn;
- raqamli marketing kabi yo‘nalishlarda faoliyat yuritmoqda.

Ayniqsa, yoshlarning IT sohasiga qiziqishi innovatsion iqtisodiyot rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda bilim va innovatsiya asosiy resursga aylanib borayotganligi sababli yoshlarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

1-jadval.

O‘zbekistonda yoshlar bandligi va tadbirkorligi ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	**2021 yil**	**2022 yil**	**2023 yil**	**2024 yil**
Yoshlar soni (mln kishi)	18,9	19,2	19,5	19,8
Yoshlar bandligi darajasi (%)	56,4	58,1	60,3	62,5
Yosh tadbirkorlar soni (mingta)	92	108	126	145
Yoshlar tomonidan tashkil etilgan startaplar soni	1 200	1 850	2 400	3 100
IT va raqamli sohada faol yoshlar ulushi (%)	8,5	10,2	12,8	15,4
Kasb-hunarga o‘qitilgan yoshlar (ming kishi)	210	265	320	385

Mazkur statistik ma’lumotlar O‘zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligi so‘nggi yillarda barqaror o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar bandligi darajasi

2021 yildagi 56,4 foizdan 2024 yilga kelib 62,5 foizga yetgani mamlakatda yoshlarni ish bilan ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy samarasidir.

Jadvaldan ko‘rinadiki, yosh tadbirkorlar soni ham yil sayin oshib bormoqda. 2021 yilda 92 ming nafar yosh tadbirkor faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 145 ming nafarga yetgan. Bu holat yoshlarning biznes va xususiy tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishi ortib borayotganini anglatadi.

Shuningdek, startap loyihalar sonining keskin ko‘paygani yoshlarning innovatsion va kreativ iqtisodiyotdagi faolligi ortayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, IT va raqamli texnologiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan yoshlar ulushining 8,5 foizdan 15,4 foizga oshgani raqamli iqtisodiyotning rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Kasb-hunarga o‘qitilgan yoshlar sonining ortishi esa mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga xizmat qilmoqda. Bu orqali yoshlarning bandligi va iqtisodiy mustaqilligi mustahkamlanmoqda.

Umuman olganda, statistik ma’lumotlar mamlakatda yoshlar iqtisodiy faolligini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan davlat siyosati samarali natija berayotganini ko‘rsatadi. Yoshlarning tadbirkorlik, innovatsiya va raqamli iqtisodiyotdagi ishtiroki kelgusida iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Shunga qaramasdan, yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantirishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan:

- ish tajribasining yetishmasligi;
- mehnat bozori talablariga mos malakaning kamligi;
- moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi;
- ayrim hududlarda ish o‘rinlarining yetarli emasligi.

Mazkur muammolarni hal qilish uchun ta’lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish va yoshlarni innovatsion faoliyatga keng jalb qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar iqtisodiy faolligi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Faol, bilimli va tashabbuskor yoshlar iqtisodiy o‘sish, innovatsion rivojlanish va jamiyat farovonligini ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. Shu sababli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligini ta’minlash va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Rasmiy statistika ma’lumotlari [Elektron resurs]. – Toshkent, 2024.

2. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. Yoshlar bandligi va tadbirkorligi bo‘yicha ma’lumotlar [Elektron resurs]. – Toshkent, 2024.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Iqtisodiy sharh va statistik ko‘rsatkichlar [Elektron resurs]. – Toshkent, 2024.

DEVELOPMENT OF THE INTERNAL AUDIT SYSTEM IN THE PUBLIC SECTOR OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS AND BEST FOREIGN PRACTICES

Ilkhomov Javokhir Jakhongir ugli
Bachelor's degree therd-year student of the Tashkent state university of economics
e-mail: Jovo867@gmail.com
Davirova Shakhlo Shukurullaevna
PhD, Associate Professor of the Department "Banking" of the Tashkent state university of economics
e-mail: davirova_shaxlo@tsue.uz

Abstract. The article examines the theoretical foundations and practical aspects of developing the internal audit system in the public sector of the Republic of Uzbekistan. It analyzes the current regulatory framework, identifies gaps between formal requirements and actual practice, and explores international experience in organizing internal audit. Recommendations have been developed for the institutional and methodological improvement of the system, taking into account the requirements of the International Professional Practices Framework (IPPF/IIA), the COSO framework, and the best practices of OECD countries.

Keywords: internal audit, IPPF, IIA, COSO, public sector, risk management, professional certification, public governance.

Introduction

Internal audit, in its modern understanding, is an independent, objective assurance and consulting activity designed to add value and improve an organization's operations. This definition, anchored in the International Professional Practices Framework (IPPF) for internal auditing, conceptually differs from the traditional view of internal control as a backward-looking, detection-oriented function. Public administration reforms in the Republic of Uzbekistan, which picked up significant momentum after 2017, created an institutional impetus for modernizing the internal audit system within the public sector. The enactment of the Law "On Auditing Activity" in 2021, alongside the Cabinet of Ministers Resolution "On the Internal Audit Service of Ministries and Departments" in 2022, the approval of public sector internal audit standards, and the establishment of relevant methodological centers have laid the legal and organizational groundwork. Nevertheless, practice shows a substantial gap between declarative compliance with international standards and the actual functional maturity of the system. This article aims to identify this disconnect and develop systemic recommendations.

Theoretical Foundations of Modern Internal Audit

The Institute of Internal Auditors (IIA) developed the "Three Lines of Defense" concept, positioning internal audit as the third line—an independent assessment function that evaluates the effectiveness of the first two lines (operational management, and risk management and compliance functions). In 2020, this model

was updated to the "Three Lines Model," shifting the emphasis toward value creation rather than just value protection.

The IPPF sets mandatory requirements for the attributes of auditing activity: independence and objectivity, proficiency and due professional care, quality assurance and improvement, and managing the internal audit activity. The implementation of audit activity must encompass planning, performance, communication, and monitoring.

Risk-based planning, as prescribed by IIA Standard 2010, requires the audit plan to be established based on a risk assessment consistent with the organization’s strategic goals. This conceptually differs from traditional approaches like "auditing everything sequentially" or "auditing whatever was audited last year."

Analysis of Current Internal Audit Practices in the Public Sector of Uzbekistan An analysis of internal audit units (IAUs) in Uzbekistan’s government bodies reveals several systemic issues:

De Facto Financial Control: First, a significant portion of IAUs are called "audit units" de jure, but de facto perform traditional financial and economic control functions: verifying source documents, cash discipline, and the legality of expenditures. Performance audits, systemic risk analysis, and consulting activities remain negligible components of their work.

Capacity Gaps: Second, the human resource capacity of IAUs remains insufficient. CIA (Certified Internal Auditor) certifications are isolated cases, and a system for continuous professional development in internal auditing is still in its infancy. This diminishes the quality of audit judgments and erodes management's trust in audit findings.

Limited Independence: Third, the functional independence of IAUs is frequently restricted. Heads of audit units often report directly to the administrative executive management of the organization rather than a supervisory body, creating conflicts of interest when auditing sensitive areas.

International Experience

The United Kingdom is an acknowledged leader in public sector internal audit. The Public Sector Internal Audit Standards (PSIAS) were developed based on the IPPF while addressing the specific nuances of the public sector. All central ministries have functional IAUs that report to an Audit and Risk Assurance Committee. The role of the Government Internal Audit Agency (GIAA) ensures professional oversight and methodological guidance.

Australia utilizes a shared services model for smaller government bodies that cannot afford to sustain a fully fledged IAU. This ensures access to professional internal audit services while optimizing costs.

Kazakhstan, which shares a similar institutional environment with Uzbekistan, has successfully developed its public sector internal audit system by introducing mandatory certification for public internal auditors, establishing a Methodological

Center for Internal Audit under the Ministry of Finance, and deploying automated audit management systems.

Priority Directions for Development

1. Strengthening the Institutional Independence of IAUs

It is necessary to legally establish a dual-reporting line for heads of IAUs: administrative reporting to the top executive of the organization, and functional reporting to the audit committee or supervisory board. For organizations without a collegial governing body, functional reporting to the Ministry of Finance (acting as the methodological center) should be considered.

2. Developing National Public Sector Internal Audit Standards

Based on the IPPF and incorporating elements of the UK's PSIAS, national standards tailored to Uzbekistan’s legal framework must be developed. These should cover specific requirements for planning, documentation, reporting, and monitoring.

3. Professionalization of Cadres

Introduce a mandatory requirement for CIA certification or a specialized qualification exam for IAU heads in government bodies, alongside establishing a continuous professional education framework for internal auditors.

4. Implementing Risk-Based Auditing

Develop a standardized risk assessment methodology for government bodies, tightly integrated with strategic planning and operational risk management frameworks.

5. Expanding Performance Auditing

Gradually incorporate performance audits of government programs and projects into regular IAU practice, moving beyond traditional financial compliance audits.

Conclusion

Developing the internal audit system in the public sector of the Republic of Uzbekistan based on international standards is a strategic priority for public administration reform. Transitioning from a control-and-revision function to a fully fledged, value-adding professional internal audit requires systemic efforts across legal regulation, methodology, human resources, and organizational culture. International experience confirms that these investments are both feasible and highly rewarding.

References

1. Law of the Republic of Uzbekistan "On Internal Audit", 2019.

2. Resolution of the Cabinet of Ministers "On the Internal Audit Service of Ministries and Departments", 2022.

3. IIA. International Professional Practices Framework (IPPF). – Lake Mary: The Institute of Internal Auditors, 2017.

4. IIA. Three Lines Model. – Lake Mary: The Institute of Internal Auditors, 2020.

5. HM Treasury. Public Sector Internal Audit Standards (PSIAS). – London: HM Treasury, 2017.

6. COSO. Internal Control — Integrated Framework. – COSO, 2013.

7. OECD. Internal Audit in Central Government: Strengthening Performance and Accountability. – Paris: OECD Publishing, 2020.

8. Ministry of Finance of the Republic of Kazakhstan. Standards of State Audit and Financial Control. – Nur-Sultan, 2021.

INFRATUZİLMA LOYİHALARİNİ MOLİYALASHTİRİSHDA DAVLAT-XUSUSİY SHERİKLİGİNİNG ZARURATİ VA UNİNG SHAKLLARİ

Shodiyev Akmal O‘ktamjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi


Bozor jarayonlarining paydo bo‘lishi davlat va xo‘jalik korxonalari o‘rtasida yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga olib keladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan ana shunday iqtisodiy munosabatlarning bir turi davlat-xususiy sheriklikdir. Hozirgi kunda butun dunyoda mavjud bo‘lgan davlat-xususiy sheriklikning mohiyati, xususiyatlari, tamoyillari, evolyutsiyasi va huquqiy asoslarini o‘rganish, ularning mamlakatimizda rivojlanishi yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarish bizning eng muhim vazifalarimizdan biridir. Mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik munosabatlari kundan-kunga kengayib borayotgani sababli bu boradagi tadqiqotlar zarur.

Yaxshi boshqariladigan davlat-xususiy sheriklik ishtirokchilar o‘rtasida mas’uliyat, mas’uliyat va moliyaviy risklarni eng yaxshi tarzda taqsimlaydi. Davlat-xususiy sheriklik qo‘mitalar, vazirliklar, mahalliy hokimiyatlar va davlat korporatsiyalari kabi davlat organlarining ishtirokini o‘z ichiga oladi. Xususiy sektor hamkorligiga loyiha uchun zarur moliyaviy yoki texnik resurslarga ega bo‘lgan xorijiy yoki mahalliy kompaniyalar, yuridik shaxslar yoki investorlar kirishi mumkin.

Xususiy sektorning davlat-xususiy sheriklik munosabatlaridagi o‘rni – biznesni samarali yurgizish, bozor munosabatlarida menejmentni samarali tashkil etish, moliyaviy operatsiyalar va innovatsion faoliyatda o‘z faoliyatini amalga oshirishi orqali munosabatlarda ishtirok etishi hisoblanadi. Shuningdek, xususiy sektor ham shartnomaning shakliga qarab investitsion faoliyatda ham ishtirok etishi mumkin.

Xususiy sektorning investitsiya, malakali tajriba, professional va samarali boshqaruv, qaror qabul qilishdagi moslashuvchanligi va tezkorligi, novatorlikka intiluvchanligi, innovatsion texnologiyalarga moyillik darajasi kabi xususiyatlaridan davlat-xususiy sheriklik munosabatlarida qo‘llanilishi, davlat sektorining zarur institutsional muhitini yaratish, zarur bo‘lgan huquqiy asoslarni yaratish va funksiyaviy infratuzilmani shakllantirish, davlat kafolatlari va davlat investitsiyalari asosidagi ishtiroki davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkil etishning muhim shartlari hisoblanadi.

Quyidagi sohalar ilg‘or jahon tajribasiga asoslangan davlat-xususiy sheriklik loyihalari bilan qamrab olingan:



1.1-rasm. Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar[145]

2017-yildan buyon O‘zbekistonning ta’sirchan iqtisodiy tiklanishining asosiy mavzusi xususiy sektor ishtiroki orqali infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish bo‘ldi. Bu davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi birinchi qonunning qabul qilinishini, maxsus DXShni rivojlantirish agentligini yaratishni va sanoat agentliklariga asosiy loyihalar uchun DXShlarni ilgari surish talabini o‘z ichiga olgan ulkan davlat-xususiy sheriklik dasturiga olib keldi.

2021-yilda 40 dan ortiq yirik va o‘rta DXSh loyihalari amalga oshirilishi kutilmoqda , bu esa davlat idoralari va xalqaro bozorga DXSh uzoq muddatda qolishi haqida aniq signal beradi. Dastur 2020-yilda bir qancha marralarga erishdi. 2021-yil yanvar oyida “DXSh to‘g‘risida”gi qonunga uzoq kutilgan o‘zgartirish tasdiqlandi va imzolandi. Dastur tomonidan boshlangan dastlabki kelishuvlar nihoyasiga yetib, qayta tiklanadigan energiya, sog‘liqni saqlash va transport kabi sohalarga yo‘l ochmoqda.

Yaqinda qabul qilingan DXSh qonuni hukumat va bozor ishtirokchilari, xalqaro maslahatchilar va rivojlanish moliya institutlari o‘rtasidagi ko‘p yillik muloqotlar natijasidir. U jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun xalqaro bozor standartlariga asoslanadi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga, jumladan, soddalashtirilgan va shaffof tender jarayoni, valyuta risklaridan muvozanatli himoya qilish, shuningdek, xalqaro arbitrajga qaratilgan. Bu yangi tarmoqlarni rivojlantirish, shartnoma shablonlarini yaratish va kelgusi yillarda ko‘proq loyihalarni amalga oshirish uchun DXSh salohiyatini oshirishga turtki beradi.

DXSH xaridlar vositasi bo‘lib, hukumat infratuzilma maqsadlariga erishishning ko‘plab mumkin bo‘lgan usullaridan biri sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. DXSHni umumiy rejalashtirish mexanizmining bir qismiga aylantirish uchun

[145] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bir necha qadamlarni bajarish kerak. Birinchidan, DXShlar haqida qiziqish va xabardorlikni shakllantirish va ulardan qachon foydalanishni bilish uchun sanoat agentliklarining salohiyatini oshirish. Asosiy qadam - umumiy tannarxni tushunishni rivojlantirishdir, bu ko‘plab O‘zbekiston tarmoq agentliklari uchun an’anaviy tannarxdan voz kechishdir. Ikkinchidan, loyihani tanlash siyosati va loyihani qachon DXSh sifatida amalga oshirish kerakligini hal qilish mexanizmini tuzing, shu jumladan, bir xilda qo‘llaniladigan pulning barqaror qiymati metodologiyasi. Uchinchidan, mexanizmlarning to‘g‘ri amalga oshirilishini ta’minlash uchun markaziy rejalashtirish agentligiga o‘qitishni ta'minlash.

Infratuzilma loyihasini tayyorlash DXShni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kalitlaridan biridir, ammo texnik-iqtisodiy baholashni o‘tkazish va bitimlar bo‘yicha maslahat berish uchun mutaxassis maslahatchilarni yollash xarajatlari davlat idoralari uchun juda katta bo‘lishi mumkin. Loyihani rivojlantirish jamg‘armasi hukumatga loyihani tayyorlash va tenderni o‘tkazish uchun bitimlar bo‘yicha maslahatchilarni yollash imkonini beradi, bunda g‘olib ishtirokchidan to‘lovlarni qoplaydi. Bu dasturni kengaytirib, bir vaqtning o‘zida ko‘proq loyihalarni bozorga chiqarish imkonini beradi va istalgan vaqtda chaqirilishi mumkin bo‘lgan tijorat operatsiyalari bo‘yicha maslahatchilar jamoasi orqali maslahatchilarni tezroq yollash imkonini beradi.

Loyihaning moliyaviy yopilishiga erishish qiziqarli bo‘lsa-da, yangi turmush qurganlarning davlat va xususiy sheriklari uchun bu ko‘p yillik imtiyoz davrining boshlanishi. Hukumat hamkori uchun yaxshi kadrlar bilan ta’minlangan loyihalar monitoringi guruhini tashkil etish, hukumat hamkori sifatidagi o‘z rolini qanday bajarish bo‘yicha jarayonlar va yo‘riqnomalarni ishlab chiqish hamda ushbu yangi rol uchun ichki salohiyatni oshirish muhim ahamiyatga ega. Loyihalari hozirda tenderga qo‘yilgan agentliklar rivojlanish bo‘yicha hamkorlari yordamida o‘z rejalari haqida hozirdanoq o‘ylashlari kerak.

O‘zbekiston infratuzilma loyihalari uchun mahalliy valyuta likvidligining pastligidan, asosan, loyihalarni moliyalashtirish uchun kredit muddati va mahalliy banklarning depozit bazasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik tufayli aziyat chekmoqda. Buni yumshatish uchun hukumat Bangladeshda samarali ekanligi isbotlangan strategiyadan foydalanishi mumkin: hukumat va/yoki boshqa manfaatdor investorlar tomonidan kapitallashtirilgan, mahalliy valyutada loyihalarni moliyalashtirishga qodir bo‘lgan bankdan tashqari moliyaviy vositachi yaratish muhum omil hisoblanadi.

O‘zbekiston infratuzilmani rivojlantirish kun tartibiga qimmatli vosita sifatida DXShlarni integratsiyalashda istiqbolli boshladi. Qat'iy siyosat va loyihalarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston barqaror iqtisodiy o‘sishning davom etishi uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani ta'minlaydigan jahon darajasidagi DXSh dasturini yaratishi mumkin.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 4-martdagi PQ-109-son Farmoni ijrosini ta’minlash doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son “Jamoatchilikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. -2024–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida xususiy sheriklik to‘g‘risida ”gi qaror qabul qilindi.

Qarorda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq 2030-yilgacha DXSh loyihalariga kamida 30 milliard AQSh dollari miqdorida xususiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni ta’minlash, hududlarda zarur ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish ko‘zda tutilgan. yuqori iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shish, boshqa tarmoqlar uchun elektr energiyasi ishlab chiqarishda DXSh loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha muvaffaqiyatli tajribani tarqatish.

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan 2024–2026-yillarda davlat-xususiy sheriklikning ustuvor loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari va 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar dasturi doirasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. amalga oshirish rejalashtirilgan.

Xususan, aholiga qulay va qulay foydalanish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida kamida 1000 km zamonaviy pullik avtomobil yo‘llarini qurish va modernizatsiya qilish, jumladan, 2024-yilda Toshkent-Samarqand avtomobil yo‘li va 2026-yilda Toshkent-Andijon avtomobil yo‘li qurilishini boshlash rejalashtirilgan . yirik shaharlar o‘rtasida yuqori tezlikda avtomobil transporti.

Bundan tashqari, 2027-yil 1-iyulgacha elektr energiyasini taqsimlash tarmoqlarini, 2027-yil oxirigacha esa tabiiy gaz taqsimlash tarmoqlarini xususiy operatorlarga o‘tkazishni nazarda tutuvchi shartnomalar imzolanishi, bunda yillik energiya yo‘qotishlarini kamida ikki barobarga kamaytirish ko‘zda tutilmoqda .

Shuningdek, 2028 -yilgacha elektr energiyasini 30 foizgacha qo‘shimcha tejashga erishish va har bir hududda suv ta’minoti va kanalizatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish va boshqarishga xususiy kompaniyalarni jalb qilish maqsadida 2028-yilgacha barcha eskirgan sug‘orish nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish bo‘yicha kelishuvlarga erishish rejalashtirilgan. 2028-yil yakuni bo‘yicha aholini toza suv va uzluksiz ichimlik suvi bilan ta’minlashni 87 foizga , markazlashtirilgan kanalizatsiya ta’minotini 30 foizga yetkazish.

С учетом возрастающей роли инноваций в экономическом развитии предлагается совершенствование механизма усиления воздействия инновационных процессов на качество человеческого капитала посредством финансирования за счет государственных внебюджетных фондов цифровых, инновационных и ресурсосберегающих бизнес-проектов. Это будет способствовать формированию практико-ориентированных компетенций, снижению молодежной безработицы к 2030 году до 7% (согласно целям Стратегии «Узбекистан-2030») и расширению занятости в высокотехнологичных секторах экономики.

Для достижения целей Стратегии «Узбекистан-2030», предусматривающих обучение 2 миллионов граждан профессиям, бизнес-навыкам и иностранным языкам и доведения доли частного сектора в профессиональном обучении до 30% целесообразно внедрить систему выдачи «профессиональных ваучеров» целевого финансирования образования. Данный механизм повысит адресность государственной поддержки и способствует формированию устойчивой мотивации к получению востребованных профессиональных навыков.

Таким образом, можно сделать следующие выводы:

- качество человеческого капитала является ключевым фактором успешной реализации структурных и институциональных преобразований экономики Узбекистана;
- эффективность структурных реформ напрямую зависит от уровня образования, профессиональных и цифровых компетенций рабочей силы;
- институциональная среда играет определяющую роль в формировании и использовании человеческого капитала;
- государственная политика развития человеческого капитала должна носить системный и долгосрочный характер;
- повышение качества человеческого капитала способствует устойчивому экономическому росту и повышению конкурентоспособности национальной экономики.

Список использованной литературы:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-60 от 14

февраля 2025 года «О мерах по совершенствованию системы поддержки молодежного предпринимательства и бизнес-проектов, направленных на обеспечение занятости молодежи»

2. Постановление Президента Республики Узбекистана №ПП-51 от 1 февраля 2024 года «О дополнительных мерах поддержки по подготовке квалифицированных специалистов в сфере цифровизации»

3. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии «Узбекистан-2030»»

4. Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-4611 от 24 февраля 2020 года «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности».

GEOSIYOSIY RISKLAR VA MAKROIQTISODIY BEQARORLIK SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY SIYOSAT MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH

Mirzayeva Komola Normurod qizi
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali o‘qituvchisi
e-mail: mirzayevakomola12@gmail.com

Annotatsiya. Geosiyosiy risklar va makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida barqaror iqtisodiy siyosat mexanizmlarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Global iqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar, jumladan geosiyosiy ziddiyatlar, xalqaro savdo cheklovlari, moliyaviy bozorlar notinchligi hamda tashqi iqtisodiy xatarlarning milliy iqtisodiyotlarga ta’siri tahlil qilingan.

Shuningdek, fiskal va monetar siyosat vositalari, institutsional islohotlar, iqtisodiy diversifikatsiya hamda raqamli texnologiyalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashdagi o‘rni ochib berilgan.

Izlanish natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali iqtisodiy siyosatni shakllantirish milliy iqtisodiyotlarning tashqi xatarlarga bardoshliligini oshiradi hamda uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. Geosiyosiy risklar, makroiqtisodiy beqarorlik, iqtisodiy siyosat, fiskal siyosat, monetar siyosat, iqtisodiy barqarorlik, global iqtisodiyot, diversifikatsiya, institutsional islohotlar, raqamli iqtisodiyot, tashqi xatarlar, iqtisodiy xavfsizlik.

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonlari sharoitida zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar jahon xo‘jalik tizimining ajralmas va muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Davlatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar, kapital, mehnat resurslari va texnologiyalar harakati tobora chuqurlashib, milliy iqtisodiyotlarning o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirmoqda. 2024–2025-yillar holatiga ko‘ra, jahon savdosi hajmi 32 trillion AQSh dollariga yaqinlashgani, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi esa 1,4 trillion dollar atrofida shakllangani ushbu jarayonlarning keng ko‘lamli ekanligini ko‘rsatadi. Natijada xalqaro iqtisodiy munosabatlar nafaqat savdo almashinuvi bilan cheklanib qolmay, balki investitsiyalar, moliyaviy oqimlar, ilmiy-texnik hamkorlik va raqamli iqtisodiyot

elementlarini ham o‘z ichiga olgan murakkab tizimga aylanmoqda.

Bu borara O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, Geosiyosiy risklar va global makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida barqaror iqtisodiy siyosat mexanizmlarini rivojlantirish O‘zbekiston uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. 2026-yilga kelib, bu jarayon “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xalqaro sanksiyalar ta’sirini kamaytirish va tashqi zarbalarga chidamlilikni oshirishga qaratilgan.

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida global raqamli iqtisodiyot hajmi 2025-yilda 18–20 trillion dollarga yetgani qayd etilmoqda. Transmilliy korporatsiyalar soni 90 mingdan oshib, ular orqali global qiymat zanjirlari yanada chuqurlashmoqda. Xalqaro mehnat taqsimoti va moliyaviy integratsiya jarayonlari kapitalning tezkor harakatini ta’minlab, iqtisodiy o‘sish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro iqtisodiy tizimda institutsional omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, World Trade Organization, International Monetary Fund va World Bank kabi tashkilotlar global savdo va moliyaviy tizim barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. 2025-yil prognozlariga ko‘ra, International Monetary Fund jahon iqtisodiy o‘sishini o‘rtacha 3,1 foiz darajasida baholamoqda, bu esa tiklanish jarayonining sekin, ammo barqaror davom etayotganini ko‘rsatadi.

Biroq, so‘nggi yillarda geosiyosiy risklar va makroiqtisodiy beqarorlikning kuchayishi global iqtisodiyot rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, geosiyosiy keskinliklar, savdo cheklovlari, energetika bozoridagi beqarorlik hamda ta’minot zanjirlaridagi uzilishlar jahon iqtisodiyotida inflyatsion bosimni kuchaytirdi. 2025-yilda ko‘plab mamlakatlarda inflyatsiya darajasi o‘rtacha 5–7 foiz atrofida saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, davlat qarzining global darajasi jahon YaIMining qariyb 90 foiziga yetgani iqtisodiy xavflarning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Pandemiya oqibatlari, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq iqtisodiy xatarlar va geosiyosiy ziddiyatlar davlatlarni iqtisodiy siyosatni qayta ko‘rib chiqishga majbur qilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ichki bozorlarni mustahkamlash, strategik resurslar xavfsizligini ta’minlash hamda raqamli transformatsiyani jadallashtirish ustuvor yo‘nalishlarga aylanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moslashuvchan va muvozanatli iqtisodiy siyosat yuritayotgan davlatlarda iqtisodiy barqarorlik darajasi sezilarli darajada yuqori bo‘lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, geosiyosiy risklar va makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida barqaror iqtisodiy siyosat mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularni takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Geosiyosiy risklar va makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida iqtisodiy siyosatni shakllantirish va rivojlantirish murakkab hamda ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Zamonaviy global iqtisodiy muhitda iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot, xalqaro savdo va investitsiyalar oqimi, moliyaviy integratsiya hamda institutsional muhit muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu omillarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida jahon

xo‘jaligi tizimi yanada chuqurlashib, milliy iqtisodiyotlarning o‘zaro bog‘liqligi ortib bormoqda.

2025-yilgi zamonaviy tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, global iqtisodiy o‘sish nisbatan barqarorlashayotgan bo‘lsa-da, geosiyosiy keskinliklar, savdo cheklovlari va moliyaviy bozorlar beqarorligi iqtisodiy xavflarni saqlab qolmoqda.

Tahlillar natijalariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot va zamonaviy texnologiyalar iqtisodiy munosabatlarning mazmunini tubdan o‘zgartirib, yangi iqtisodiy hamkorlik shakllarini yuzaga keltirmoqda. Elektron savdo hajmining keskin oshishi, raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi va global axborot tarmoqlarining rivojlanishi iqtisodiy jarayonlarning tezligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy bozorlarning chuqur integratsiyalashuvi global iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, tizimli risklarning tarqalish ehtimolini ham kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, geosiyosiy ziddiyatlar va mintaqaviy nizolar ushbu tizim barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, geosiyosiy risklar sharoitida milliy iqtisodiyotning tashqi xatarlarga bardoshliligini oshirish maqsadida iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va eksport tarkibini kengaytirish zarur. Bu tashqi bozorlardagi tebranishlarga qaramlikni kamaytiradi hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, fiskal va monetar siyosatni o‘zaro muvofiqlashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash lozim. Inflyatsiyani nazorat qilish, davlat qarzini samarali boshqarish va byudjet intizomini kuchaytirish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

Uchinchidan, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, biznes muhiti va investitsion jozibadorlikni oshirish zarur. Shaffoflik, qonun ustuvorligi va samarali boshqaruv tizimi iqtisodiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi.

To‘rtinchidan, raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin. Bu ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, global moliyaviy risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, kapital oqimlari va valyuta bozorlarini samarali tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Bu moliyaviy inqirozlarning oldini olish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Oltinchidan, xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va ko‘p tomonlama iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish zarur. Bu global iqtisodiy tizimdagi o‘zgarishlarga moslashish va yangi imkoniyatlardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Geosiyosiy risklar va makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida barqaror iqtisodiy siyosat mexanizmlarini rivojlantirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo‘nalishda ilmiy asoslangan yondashuv va zamonaviy strategiyalarni qo‘llash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-436-son qarori, 2-dekabr. https://president.uz/oz/lists/view/5805

1. Ginn, W. va Saadaoui, J. Monetary Policy Reaction to Geopolitical Risks in Unstable Environments. Macroeconomic Dynamics, 2025

2. Behn, M., Lang, J. H., va Reghezza, A. Geopolitical Risk and Its Implications for Macroprudential Policy. European Central Bank Macroprudential Bulletin, 2025.

3. Ortiz, A. va Rodrigo, T. Geopolitics, Geoeconomics and Risk: A Machine Learning Approach. arXiv, 2025.

KIMYO SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR TIZIMI

Dexkanova Nargiza Sharifovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi, PhD
e-mail: n.dexkanova@tsue.uz

Kirish. Bugungi kunda sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan innovatsion faoliyat darajasiga bog‘liq bo‘lib, ayniqsa kimyo sanoatida innovatsiyalar yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirish hamda resurslardan samarali foydalanishda muhim omil hisoblanadi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 milliard AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish”[172] vazifalari belgilab berilgan [1]

Kimyo sanoati murakkab texnologik jarayonlar, katta kapital sig‘imi va yuqori ilmiy salohiyat talab qiluvchi tarmoq bo‘lgani sababli uning innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish zarur hisoblanadi[2]

Asosiy qism. Kimyo sanoatining innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Resurs omillari. Bu omillar innovatsion faoliyat uchun zarur moddiy va nomoddiy resurslarni ifodalaydi:

- ilmiy-tadqiqot xarajatlari hajmi;
- investitsiya resurslari mavjudligi;
- yuqori malakali kadrlar ulushi;
- nomoddiy aktivlar hajmi;
- zamonaviy laboratoriya va texnologik baza. [3]

Masalan, kimyo korxonalarida R&D xarajatlari ulushining oshishi yangi mahsulot yaratish imkoniyatini kengaytiradi.

2. Texnologik omillar. Kimyo sanoatida innovatsiya ko‘pincha texnologik

[172] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 28 yanvardagi 60-son Farmoni“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”

yangilanish bilan bog‘liq bo‘ladi:

- ishlab chiqarish uskunalarining eskirish darajasi;
- texnologik modernizatsiya sur’ati;
- TRL bosqichlari bo‘yicha loyiha tayyorligi;
- energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish.

Misol uchun, yangi texnologiya laboratoriya bosqichidan sanoat ishlab chiqarishigacha yetib kelishi TRL darajasi bilan baholanadi.[4]

3. Institutsional omillar tashkiliy va boshqaruv muhiti bilan bog‘liq:

- davlat innovatsion siyosati;
- soliq imtiyozlari;
- innovatsion infratuzilma mavjudligi;
- texnoparklar bilan hamkorlik;
- patentlash tizimi samaradorligi.

Masalan, O‘zkimyosanoat tizimidagi korxonalarda innovatsion loyihalarni markazlashgan boshqarish samaradorlikni oshiradi.

4. Bozor omillari. Innovatsion rivojlanish bozor talabidan bevosita ta’sirlanadi:

- ichki va tashqi bozor talabi;
- eksport imkoniyatlari;
- raqobat darajasi;
- yangi mahsulotlarga talab elastikligi. Kimyo sanoatida bozor talabi yuqori bo‘lgan mahsulotlar innovatsion investitsiyalarni tezroq qoplaydi.

5. Ekologik va xavf omillari. Kimyo sanoatida innovatsiyalar ekologik talablar bilan ham bog‘liq:

- ekologik standartlar;
- chiqindi kamaytirish talablari;
- energiya intensivligi;
- texnologik risk darajasi.

Sanoat uni ahamiyati, innovatsita, innovatsion faoliyat uning iqtisodiyotdagi roli, investitsion faoliyat hamda sanoat tarmog‘i innovatsion samaradorligi bo‘yicha ilmiy farazlar to‘liq yoritib berildi. Tadqiqotda kimyo sanoat tarmog‘i innovatsion faoliyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar, strukturasi va funksional aloqasi yoritiladi.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining eng yaxshi yo‘li iqtisodiyotning nisbiy afzalliklariga alohida e’tibor berish hisoblanadi. Darhaqiqat nisbiy afzalliklarni tushunish, tahlil qilish innovatsion faoliyat bilan chambarchas bog‘liq. Bu ayniqsa, mamlakatlar va kompaniyalar o‘rtasida texnologiyalar va yangiliklar asosida raqobatni va savdoni tahlil qilishda juda muhimdir.

Xulosa. Demak iqtisodiyotning nisbiy afzalliklariga alohida e’tibor- mamlakat innovatsion rivojlanishining eng yaxshi yo‘lidir. Kimyo sektori mamlakat ustunligi, katta tabiiy neft va gaz resurslari, yuqori xilma-xil mahsulotlar, texnologiya va bozor tufayli texnologik innovatsiyalar va rivojlanish uchun sezilarli joziba va imkoniyatlarga ega. Albatta neft-kimyo sanoati va uning nisbiy afzalliklari mamlakat inkor etib bo‘lmaydi. Yuqori oqimdan quyi oqimga o‘tish va texnologiyaning hissasi ishlab chiqarish omillarini, investitsiyalarni, bandlikning o‘sish sur’atini va foyda marjasini kuchaytiradi. Shunday qilib, kimyo sanoatining innovatsion rivojlanishi resurs, texnologik, institutsional, bozor va ekologik

omillarning o‘zaro bog‘liq ta’siri ostida shakllanadi. Ushbu omillarni kompleks baholash innovatsion faoliyatni boshqarishning samarali mexanizmini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 28 yanvardagi 60-son Farmoni“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
2. https://uzkimyosanoat.uz/
3. OECD, Eurostat. *Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation*. 4th edition. OECD, Eurostat, Paris, 2018.
4. Darrell Velegol. *Design of Innovation Processes*. Elsevier, 2023.

КОНЦЕПЦИЯ ИНФЛЯЦИИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА И МОНЕТАРНЫЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЭКОНОМИКУ

Наркузиев Анвар Рустамович
Ташкентский государственный экономический университет
Доцент кафедры «Экономическая теория»
независимый исследователь, доктор наук
e-mail: anvar.norquziyev824@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada inflyatsiya tushunchasining nazariy mohiyati va uning asosiy makroiqtisodiy determinantlari O‘zbekiston iqtisodiyoti misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda inflyatsiyaga ta’sir etuvchi monetar omillar (pul massasi o‘sishi, foiz stavkasi, inflyatsion kutilmalar), real sektor omillari (yalpi talab va taklif nomutanosibligi), shuningdek fiskal taqchillik va valyuta kursi dinamikasining roli ilmiy asosda yoritiladi.

O‘zbekiston sharoitida 2017 yildan keyingi iqtisodiy islohotlar va inflyatsion targetlash siyosati doirasida inflyatsiya jarayonlarining xususiyatlari baholanadi. Tadqiqot natijalari inflyatsiyaning ko‘p omilli xarakterga ega ekanligini hamda pul-kredit va fiskal siyosat uyg‘unligi narxlar barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: inflyatsiya, makroiqtisodiy omillar, pul-kredit siyosati, inflyatsion targetlash, yalpi talab va taklif, O‘zbekiston iqtisodiyoti.

Аннотация. В данной статье рассматривается теоретическая сущность инфляции и её основные макроэкономические детерминанты на примере экономики Узбекистана. В исследовании анализируются монетарные факторы (рост денежной массы, процентная ставка, инфляционные ожидания), факторы реального сектора (дисбаланс совокупного спроса и предложения), а также роль бюджетного дефицита и динамики обменного курса.

Особое внимание уделено инфляционным процессам в Узбекистане после экономических реформ 2017 года и перехода к режиму инфляционного таргетирования. Результаты показывают, что инфляция носит многофакторный характер, а согласованность денежно-кредитной и фискальной политики является ключевым условием обеспечения ценовой стабильности.

Ключевые слова: инфляция, макроэкономические детерминанты,

денежно-кредитная политика, инфляционное таргетирование, совокупный спрос и предложение, экономика Узбекистана.

Abstract. This article examines the theoretical essence of inflation and its main macroeconomic determinants in the context of Uzbekistan’s economy. The study analyzes key monetary factors (money supply growth, interest rate, inflation expectations), real sector factors (aggregate demand and supply imbalances), as well as the role of fiscal deficit and exchange rate dynamics.

Particular attention is given to inflation processes in Uzbekistan after the 2017 economic reforms and the transition to an inflation-targeting regime. The findings indicate that inflation has a multifactorial nature, and coordination between monetary and fiscal policy is essential for ensuring price stability.

Keywords: inflation, macroeconomic determinants, monetary policy, inflation targeting, aggregate demand and supply, economy of Uzbekistan.

Инфляция является одним из важнейших показателей макроэкономической стабильности, напрямую влияющим на реальные доходы населения, инвестиционную активность и темпы экономического роста. Проблема инфляции особенно актуальна для развивающихся стран, включая экономику Узбекистана, и в контексте углубления экономических реформ обеспечение ценовой стабильности стало одним из приоритетных направлений государственной экономической политики.

Масштабные экономические реформы, проводимые в Узбекистане с 2017 года, включая либерализацию валютного рынка, постепенную либерализацию цен и укрепление рыночных механизмов, оказали значительное влияние на инфляционные процессы. По официальным данным, темпы роста индекса потребительских цен в 2019-2022 годах сформировались на двузначном уровне, временами около 10-12 процентов. В последние годы в результате ужесточения денежно-кредитной политики и введения принципов таргетирования инфляции наблюдается постепенное снижение темпов инфляции.

В формировании инфляции важными факторами являются рост денежной массы, дисбаланс между совокупным спросом и совокупным предложением, бюджетный дефицит, динамика обменного курса и рост цен на импорт. В частности, высокая зависимость от импорта во внешней торговле и изменения в ситуации на мировом рынке относятся к факторам, усиливающим влияние «импортной инфляции» в Узбекистане. При этом важную роль в формировании общего уровня цен играют и инфляционные ожидания.

Цель данной статьи – осветить теоретические основы понятия инфляции и проанализировать основные макроэкономические факторы инфляции в условиях экономики Узбекистана на основе статистических данных. Результаты исследования позволяют сформулировать научные выводы, направленные на эффективное управление инфляцией и обеспечение макроэкономической стабильности.

Проблема инфляции — одно из наиболее изученных макроэкономических явлений в истории экономической теории, и научные взгляды на неё сформировались в рамках различных экономических школ. В

классическом и неоклассическом экономических подходах инфляция интерпретируется главным образом как процесс, связанный с денежным обращением. Представители этого подхода объясняют рост общего уровня цен увеличением денежной массы относительно объёма реального производства. В монетаристской концепции инфляция рассматривается как «всегда и везде денежное явление», а денежно-кредитная политика центральных банков признаётся главным определяющим фактором.

Концепция «подрывных инноваций», предложенная Клейтоном Кристенсеном (1997), объясняет, как происходят структурные изменения на рынках и в производственных системах. Автор утверждает, что инновации, первоначально появляющиеся в небольших сегментах, в конечном итоге вытесняют традиционные технологии и меняют всю структуру рынка.

Такой методологический подход важен и при изучении инфляционных процессов. Технологические инновации напрямую влияют на производственные издержки, предложение и механизмы ценообразования. Поэтому необходимо анализировать инфляцию не только с точки зрения монетарного фактора, но и с точки зрения эффективности реального сектора и уровня инновационного развития.

Joe Tidd va John Bessant (2018) Они указывают на организационную культуру, управление рисками, внутреннее предпринимательство и открытые инновации как на ключевые компоненты управления инновациями. Они считают, что эффективная система управления обеспечивает рациональное использование ресурсов и конкурентоспособность.

Использованные источники

1. Barro, R. J. (1995). Inflation and economic growth. Bank of England Quarterly Bulletin, 35(2), 166–176.
2. Blanchard, O. (2017). Macroeconomics (7th ed.). Pearson Education.
3. Fischer, S., Sahay, R., & Végh, C. A. (2002). Modern hyper- and high inflations. Journal of Economic Literature, 40(3), 837–880. https://doi.org/10.1257/002205102760273805
4. Friedman, M. (1968). The role of monetary policy. American Economic Review, 58(1), 1–17.
5. Friedman, M. (1970). A theoretical framework for monetary analysis. Journal of Political Economy, 78(2), 193–238.
6. Keynes, J. M. (1936). The general theory of employment, interest and money. London: Macmillan.
7. Mankiw, N. G. (2019). Principles of economics (8th ed.). Cengage Learning.
8. Mishkin, F. S. (2019). The economics of money, banking and financial markets (12th ed.). Pearson.
9. OECD. (2022). Inflation and macroeconomic stability. Paris: OECD Publishing.
10. Romer, D. (2018). Advanced macroeconomics (5th ed.). McGraw-Hill Education.

BARQAROR RIVOJLANISHNING MOLIYAVIY JIHATLARI

Bayseitova Aliya Abdirasul qizi
Bank moliya akademiyasining magistratura talabasi
e-mail: aliyabayseitova96@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur tezisda barqaror rivojlanishning moliyaviy jihatlari, uning iqtisodiy o‘sish va uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda barqaror rivojlanishni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari, yashil investitsiyalar, ESG tamoyillari hamda korporativ moliyaviy strategiyalarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, investitsion jozibadorlikni oshirish va iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy manfaatlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Tezisda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda moliyaviy instrumentlardan foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari va ularning amaliy ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Barqaror rivojlanish, moliyaviy barqarorlik, ESG tamoyillari, yashil moliyalashtirish, yashil investitsiyalar, korporativ strategiya, investitsion jozibadorlik, barqaror moliya, korporativ boshqaruv, ijtimoiy mas’uliyat.*

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanishni ta’minlash masalasi eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sish sur’atlarining jadallashuvi, tabiiy resurslardan foydalanish hajmining ortishi, ekologik muammolarning kuchayishi va ijtimoiy tengsizliklarning saqlanib qolayotgani davlatlar hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Shu sababli iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan barqaror rivojlanish konsepsiyasi zamonaviy taraqqiyotning muhim omiliga aylanib bormoqda. Ushbu jarayonda moliyaviy resurslarning samarali shakllantirilishi va ulardan oqilona foydalanilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Barqaror rivojlanishning moliyaviy jihatlari iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy mexanizmlar, instrumentlar va resurslar bilan bog‘liqdir. Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun davlat budjeti mablag‘lari, xususiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hamda kapital bozorlarining imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Ayniqsa, yashil investitsiyalar, yashil obligatsiyalar, ESG tamoyillari asosidagi moliyalashtirish va barqaror moliya instrumentlari ushbu yo‘nalishning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda investorlar va moliya institutlari investitsiya qarorlarini qabul qilishda nafaqat moliyaviy daromadlilikka, balki investitsiya obyektining ekologik va ijtimoiy ta’siriga ham e’tibor qaratmoqda. Natijada korxonalar va tashkilotlar uchun barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish investitsion jozibadorlikni oshiruvchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Bu esa moliyaviy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, risklarni samarali boshqarish va uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish va investitsion muhitni yaxshilash

bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va barqaror investitsiyalarni rag‘batlantirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlarda moliyaviy resurslarning samarali safarbar etilishi va ulardan oqilona foydalanilishi alohida ahamiyatga ega.

Barqaror rivojlanish iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni birgalikda ta’minlashga qaratilgan rivojlanish modelidir. Ushbu maqsadlarga erishish esa yetarli moliyaviy resurslarni safarbar etishni talab qiladi. Shu sababli barqaror rivojlanishni moliyalashtirish masalasi zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Moliyalashtirish manbalari qanchalik diversifikatsiya qilingan bo‘lsa, barqaror rivojlanish loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi. Hozirgi kunda davlat mablag‘lari bilan bir qatorda xususiy sektor investitsiyalari, xalqaro moliya institutlari kreditlari, grantlar, donor tashkilotlar mablag‘lari hamda kapital bozorlarining turli instrumentlari keng qo‘llanilmoqda.

Ayniqsa, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida yashil obligatsiyalar, ESG fondlari, ijtimoiy obligatsiyalar va barqaror kreditlar kabi moliyaviy vositalarning ahamiyati ortib bormoqda. Ular nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik va ijtimoiy natijalarni ham ta’minlashga xizmat qiladi. Moliyalashtirish manbalarining har biri o‘zining afzalliklari, qo‘llanish sohasi va iqtisodiy ta’sir darajasiga ega. Quyidagi jadvalda barqaror rivojlanishni moliyalashtirishning asosiy manbalari va ularning xususiyatlari keltirib o‘tamiz (1-jadval):

1-jadval

Barqaror rivojlanishni moliyalashtirish manbalari tasnifi[173]

Moliyalashtirish manbasi	**Mazmuni**	**Asosiy afzalligi**	**Qo‘llanish sohasi**
Davlat budjeti mablag‘lari	Davlat tomonidan ajratiladigan moliyaviy resurslar	Ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni qo‘llab-quvvatlaydi	Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ekologiya
Xususiy investitsiyalar	Korxona va investorlarning o‘z mablag‘lari hisobidan kiritiladigan investitsiyalar	Investitsion faollikni oshiradi	Sanoat, xizmatlar, infratuzilma
Xalqaro moliya institutlari kreditlari	Xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratiladigan kredit va qarz mablag‘lari	Yirik loyihalarni moliyalashtirish imkonini beradi	Energetika, transport, ekologiya
Grantlar va donor mablag‘lari	Qaytarib berilmaydigan moliyaviy yordam shakli	Moliyaviy yuklamani kamaytiradi	Ijtimoiy va ekologik loyihalar
Yashil obligatsiyalar	Ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladigan qimmatli qog‘ozlar	Yashil investitsiyalar hajmini oshiradi	Qayta tiklanuvchi energiya, ekologiya

[173] Muallif tomonidan tayyorlandi

Ijtimoiy obligatsiyalar	Ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan obligatsiyalar	Aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi	Ta’lim, tibbiyot, bandlik
ESGinvestitsiya fondlari	ESG mezonlari asosida shakllantiriladigan investitsiya fondlari	Barqaror investitsiyalarni rag‘batlantiradi	Korporativ sektor
Tijorat banklari kreditlari	Banklar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy resurslar	Moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi	Biznes va tadbirkorlik loyihalari
Davlat-xususiy sheriklik mablag‘lari	Davlat va xususiy sektor hamkorligidagi investitsiyalar	Katta loyihalarni amalga oshirish imkonini yaratadi	Infratuzilma va kommunal xizmatlar
Barqaror rivojlanish fondlari	Maxsus tashkil etilgan maqsadli fondlar mablag‘lari	Uzoq muddatli moliyalashtirishni ta’minlaydi	Ekologik va ijtimoiy dasturlar

Makur jadval ma’lumotlari barqaror rivojlanishni moliyalashtirish ko‘plab manbalarga tayangan holda amalga oshirilishini ko‘rsatadi. An’anaviy moliyalashtirish manbalari, jumladan davlat budjeti, tijorat banklari kreditlari va xususiy investitsiyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Biroq global iqtisodiy tendensiyalar natijasida yashil obligatsiyalar, ESG investitsiya fondlari va ijtimoiy obligatsiyalar kabi zamonaviy moliyaviy instrumentlarning roli tobora ortib bormoqda. Bu esa investitsiya jarayonlarida iqtisodiy manfaatlar bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy natijalarning ham hisobga olinayotganini anglatadi.

1-jadvaldan ko‘rinadiki, xalqaro moliya institutlari kreditlari va donor mablag‘lari rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Ular yirik infratuzilma va ekologik loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari esa davlat va biznes manfaatlarini uyg‘unlashtirib, investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, barqaror rivojlanish fondlari uzoq muddatli moliyaviy resurslarni shakllantirish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, barqaror rivojlanishni muvaffaqiyatli moliyalashtirish uchun turli manbalardan kompleks foydalanish zarur. Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi risklarni kamaytiradi, investitsion faollikni oshiradi va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi. Bu esa iqtisodiy o‘sish, ekologik muhofaza va ijtimoiy taraqqiyotning uzviy uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, barqaror rivojlanishning moliyaviy jihatlari iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, yashil investitsiyalarni kengaytirish va ESG tamoyillarini amaliyotga joriy etish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois investitsion muhitni yanada takomillashtirish, yashil moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanishni rag‘batlantirish hamda korxonalarda barqaror moliyaviy boshqaruv tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash va investitsion

jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

50. Jo‘rayev T.T., Hamdamov M.A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2024. 504 bet.
51. Schoenmaker Dirk, Schramade Willem. Principles of Sustainable Finance. Oxford University Press, 2019. 432 p.
52. Miroshnichenko O.S. Sustainable Finance and Green Economy Development // Finance: Theory and Practice. 2021. Vol. 25. No. 4. P. 25–37.
53. Friede Gunnar, Busch Timo, Bassen Alexander. ESG and Financial Performance: Aggregated Evidence from More than 2000 Empirical Studies // Journal of Sustainable Finance & Investment. 2015. Vol. 5. No. 4. P. 210–233.
54. Eccles Robert G., Klimenko Svetlana. The Investor Revolution // Harvard Business Review. 2019. May–June Issue. P. 106–116.
55. Sayfulina A.F. Sustainable Development and Green Finance Mechanisms in Emerging Economies // Scientific Journal of “International Finance & Accounting”. Issue 5, October 2023.
56. Xonkeldieva G.Sh. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida korporasiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari. i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati. – T.: TDIU, 2018. 56 b.
57. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. – T.: 2002. i.f.d. diss. avtoref. 11–14 b.
58. Ismailov Sh.B. Barqaror rivojlanishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022. 148 b.
59. United Nations. Financing for Sustainable Development Report 2024. United Nations Publications, New York, 2024. 180 p.

ESG TAMOYILLARINING ZAMONAVIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDAGI O‘RNI

Djuraboyeva Zarnoza Mahkamjon qizi
Bank moliya akademiyasining magistratura talabasi
e-mail: zarnozanoza@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda ESG (Ekologik, Ijtimoiy va Boshqaruv) tamoyillarining zamonaviy investitsiyalarni jalb qilishdagi o‘rni va ahamiyati tadqiq etilgan. ESG mezonlari investorlar tomonidan investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim omil sifatida qaralib, korxonalar faoliyatining barqarorligi, shaffofligi va ijtimoiy mas’uliyatini baholash imkonini beradi. Tadqiqotda ESG tamoyillarining investitsion jozibadorlikka ta’siri, xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi roli hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ESG standartlarini joriy etish orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va investitsiya oqimlarini kengaytirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Olingan natijalar investitsiya siyosatini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *ESG, ekologik tamoyillar, ijtimoiy mas’uliyat, korporativ boshqaruv, barqaror rivojlanish, investitsion jozibadorlik, investitsiya jarayonlari, yashil iqtisodiyot, yashil investitsiyalar, ESG reytinglari, ESG standartlari.*

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb qilish jarayonlari tobora murakkablashib, investorlarning qaror qabul qilish mezonlari ham an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlardan tashqari kengroq omillarni qamrab olmoqda. Xususan, korxonalarning ekologik mas’uliyati, ijtimoiy barqarorligi va boshqaruv tizimining samaradorligi investitsion jozibadorlikni belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari asosida faoliyat yuritish zamonaviy investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. ESG tamoyillari korxonalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlash, investorlar ishonchini oshirish va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuv imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ESG yondashuvi korxona faoliyatini uch asosiy yo‘nalish bo‘yicha baholashga asoslanadi. Ekologik mezonlar korxonaning atrof-muhitga ta’siri, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, energiya samaradorligi va ekologik xavflarni boshqarish darajasini ifodalaydi. Ijtimoiy mezonlar esa xodimlar huquqlarini himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, jamiyat manfaatlarini hisobga olish va manfaatdor tomonlar bilan samarali munosabatlarni shakllantirishga qaratiladi. Boshqaruv mezonlari esa korporativ boshqaruv sifati, shaffoflik, rahbariyat mas’uliyati, biznes jarayonlarini samarali tashkil etish va qaror qabul qilish tizimini baholash imkonini beradi. Mazkur omillarning uyg‘unligi korxonaning barqarorligi va investitsiyalarni jalb qilish salohiyatini oshiradi.

Hozirgi davrda xalqaro investorlar investitsiya kiritishda nafaqat yuqori daromadlilikni, balki loyihaning uzoq muddatli barqarorligini ham hisobga olmoqda. Chunki ekologik muammolar, ijtimoiy mas’uliyatsizlik yoki boshqaruvdagi kamchiliklar korxonaning moliyaviy natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli ESG tamoyillarini joriy etgan kompaniyalar investorlarda yuqori ishonch uyg‘otib, kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ayniqsa, yashil investitsiyalar, barqaror moliyalashtirish va mas’uliyatli investitsiya tamoyillarining rivojlanishi ESG mezonlarining iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirish va korxonalar faoliyatida zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish jarayonlarida ESG mezonlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa mahalliy korxonalarning xalqaro standartlarga moslashishi, investitsion jozibadorligini oshirishi va global kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Shu sababli ESG tamoyillarining zamonaviy investitsiyalarni jalb qilishdagi o‘rnini o‘rganish, ushbu tamoyillarning korxonalarning investitsion jozibadorligiga

ta’sirini tahlil qilish hamda ESG mezonlari asosida investitsiya jarayonlarini takomillashtirish yo‘llarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishni tadqiq etish orqali korxonalarning barqaror rivojlanish imkoniyatlarini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiluvchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi.

ESG yondashuvi korxonalarning ekologik mas’uliyati, ijtimoiy faoliyati va boshqaruv sifati orqali ularning uzoq muddatli barqarorligini baholash imkonini beradi. Investorlar uchun ESG mezonlari kompaniyaning kelajakdagi risklarini kamaytirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va investitsiyalarning barqaror daromadliligini ta’minlash imkoniyatini ko‘rsatadi. ESG tamoyillarining investitsiyalarni jalb qilishdagi ahamiyati shundaki, ular korxonaning xalqaro moliya bozorlaridagi ishonchliligini oshiradi. Ekologik mezonlarga rioya qiluvchi korxonalar resurslardan samarali foydalanadi, ekologik xavflarni kamaytiradi va yashil investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ijtimoiy mezonlar esa xodimlar manfaatlarini himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va jamiyat bilan ijobiy munosabatlarni shakllantirish orqali korxonaning ijtimoiy obro‘sini oshiradi. Boshqaruv mezonlari esa shaffoflik, hisobdorlik va samarali boshqaruv tizimini yaratishga xizmat qiladi. ESG tamoyillarining zamonaviy investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy yo‘nalish quyidagilardan tashkil topgan (1-jadval):

1-jadval

ESG tamoyillarining zamonaviy investitsiyalarni jalb qilishdagi roli[174]

ESGtarkibiy qismi	Mazmuni	Investitsiyalarni jalb qilishdagi roli	Amaliy natijasi
Ekologik (Environmental) tamoyillar	Korxonaning atrof-muhitga ta’siri, ekologik xavflarni boshqarish, energiya samaradorligi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ifodalaydi	Investorlar uchun korxonaning ekologik barqarorligini namoyon qiladi va yashil investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi	Ekologik xavflar kamayadi, xalqaro standartlarga mos faoliyat shakllanadi
Ijtimoiy(Social) tamoyillar	Xodimlar huquqlari, mehnat sharoitlari, jamiyat manfaatlari va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarni qamrab oladi	Investorlarning korxonaning ijtimoiy mas’uliyatiga bo‘lgan ishonchini oshiradi	Korxonaning obro‘si, xodimlar motivatsiyasi va barqaror rivojlanish imkoniyati oshadi
Boshqaruv (Governance) tamoyillari	Korporativ boshqaruv sifati, shaffoflik, hisobdorlik va samarali qaror qabul qilish tizimini ifodalaydi	Investorlar uchun korxonaning boshqaruv salohiyati va ishonchliligini baholash imkonini beradi	Boshqaruv samaradorligi oshadi, investitsion risklar kamayadi
ESG hisobotlari va monitoring tizimi	Korxonaning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko‘rsatkichlarini	Investorlar uchun aniq va ishonchli	Shaffoflik oshadi va xalqaro investorlar bilan hamkorlik

[174] Muallif tomonidan tayyorlandi

	muntazam baholash va ochiqlash jarayoni	ma’lumotlar taqdim etadi	imkoniyatlari kengayadi
Barqaror rivojlanish strategiyasi	Korxonaning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini ESG tamoyillari asosida belgilashi	Uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish uchun ishonchli strategik asos yaratadi	Korxonaning raqobatbardoshligi va bozor qiymati oshadi
Risklarni boshqarish tizimi	Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv bilan bog‘liq xavflarni aniqlash va boshqarish mexanizmlarini qamrab oladi	Investorlar uchun xavflarningnazorat ostida ekanligini ko‘rsatadi	Investitsiya xavfsizligi va moliyaviy barqarorlik ta’minlanadi

Ushbu jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ESG tamoyillari zamonaviy investitsiyalarni jalb qilishda kompleks yondashuv sifatida xizmat qiladi. Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarining uyg‘unligi korxonaning investitsion jozibadorligini oshiradi hamda investorlar uchun qo‘shimcha ishonch omilini yaratadi. Ayniqsa, xalqaro investorlar qaror qabul qilishda korxonaning nafaqat daromad olish imkoniyatiga, balki uning barqaror rivojlanish salohiyatiga ham katta e’tibor qaratmoqda.

ESG tamoyillarini joriy etish korxonalarga uzoq muddatli strategik ustunlik beradi. Ekologik mas’uliyat resurslardan samarali foydalanish va xarajatlarni kamaytirishga yordam bersa, ijtimoiy mas’uliyat xodimlar samaradorligi va korxonaning ijobiy imijini oshiradi. Samarali boshqaruv tizimi esa investorlar uchun shaffof va ishonchli muhit yaratadi. Shu sababli ESG tamoyillariga asoslangan faoliyat yurituvchi korxonalar xalqaro kapital bozorlarida raqobatbardoshligini oshirib, ko‘proq investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ESG tamoyillari zamonaviy investitsiyalarni jalb qilishda korxonalarning investitsion jozibadorligini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ekologik mas’uliyat, ijtimoiy barqarorlik va samarali korporativ boshqaruv investorlar ishonchini mustahkamlab, uzoq muddatli kapital oqimini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois korxonalarda ESG standartlarini keng joriy etish, ESG hisobotlarini tayyorlash amaliyotini rivojlantirish, korporativ boshqaruvning shaffofligini oshirish hamda yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa investitsion muhitni yaxshilash, xalqaro investorlarni jalb qilish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kotsantonis Sakis, Pinney Chris, Serafeim George. ESG Integration in Investment Management: Myths and Realities. Journal of Applied Corporate Finance, 2016. Vol. 28, No. 2. P. 10–16.

2. Friede Gunnar, Busch Timo, Bassen Alexander. ESG and Financial Performance: Aggregated Evidence from More than 2000 Empirical Studies // Journal of Sustainable Finance & Investment. 2015. Vol. 5. No. 4. P. 210–233.

3. Eccles Robert G., Klimenko Svetlana. The Investor Revolution // Harvard Business Review. 2019. May–June Issue. P. 106–116.

4. El Ghoul Sadok, Guedhami Omrane, Kim Yoon S. Country-Level Institutions, Firm Value and the Role of Corporate Social Responsibility // Journal of Business Ethics. 2017. Vol. 144. No. 4. P. 703–724.

5. Schoenmaker Dirk, Schramade Willem. Principles of Sustainable Finance. Oxford University Press, 2019. 432 p.

6. Busch Timo, Friede Gunnar. The Robustness of the Corporate Social and Financial Performance Relation: A Second-Order Meta-Analysis // Corporate Social Responsibility and Environmental Management. 2018. Vol. 25. No. 4. P. 583–608.

7. Krueger Philipp, Sautner Zacharias, Starks Laura T. The Importance of Climate Risks for Institutional Investors // The Review of Financial Studies. 2020. Vol. 33. No. 3. P. 1067–1111.

8. Xonkeldieva G.Sh. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida korporasiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari. i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati. – T.: TDIU, 2018. 56 b.

9. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. – T.: 2002. i.f.d. diss. avtoref. 11–14 b.

Mirziyoyeva D.M. Barqaror rivojlanish va investitsion faoliyat samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari: 08.00.13 – Menejment PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023. 156 b.

YO‘L INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISHDA YO‘L JAMG‘ARMASINING ROLI

F. Shokirov, Toshkent davalt iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Zamonaviy iqtisodiyotda transport infratuzilmasi mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, avtomobil yo‘llari tarmog‘ining rivojlanganligi ichki va tashqi savdo aloqalarini kengaytirish, aholining harakatchanligini oshirish hamda hududlarning investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Yo‘l infratuzilmasini samarali rivojlantirish esa barqaror moliyaviy resurslarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, yo‘l jamg‘armalari avtomobil yo‘llarini qurish, ta'mirlash va saqlash ishlarini moliyalashtirishning muhim mexanizmi hisoblanadi. Ko‘plab davlatlarda yo‘l jamg‘armalari transport sohasining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash uchun asosiy moliyaviy manba sifatida xizmat qiladi.

Yo‘l jamg‘armasi avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda ulardan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash uchun shakllantiriladigan maqsadli moliyaviy resurslar majmuasidir. Uning asosiy vazifalari avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish, mavjud yo‘llarni ta'mirlash va texnik holatini saqlab turish, ko‘priklar, yo‘l o‘tkazgichlar va transport infratuzilmasining boshqa obyektlarini rivojlantirish, harakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali yo‘l sifati va xizmat ko‘rsatish darajasini oshirishdan iboratdir. Yo‘l jamg‘armasi iqtisodiyotning turli tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlash orqali mamlakat yalpi ichki mahsulotining o‘sishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yo‘l infratuzilmasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiy faolligining oshishi

bilan uzviy bog‘liqdir. Sifatli yo‘llar transport xarajatlarini kamaytiradi, yuk va yo‘lovchi tashish samaradorligini oshiradi hamda logistika jarayonlarini tezlashtiradi. Yo‘l jamg‘armasining asosiy ahamiyati yangi yo‘llarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilishni moliyalashtirishda namoyon bo‘ladi. Yangi avtomobil yo‘llarini qurish va eski yo‘llarni rekonstruksiya qilish katta miqdordagi investitsiyalarni talab qiladi. Davlat byudjeti imkoniyatlari cheklangan sharoitda yo‘l jamg‘armasi qo‘shimcha moliyaviy manba vazifasini bajaradi. Ayniqsa, xalqaro transport yo‘laklari va strategik ahamiyatga ega magistral yo‘llarni qurish mamlakatning tranzit salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, yo‘llarni o‘z vaqtida ta'mirlash ularning xizmat muddatini sezilarli darajada uzaytiradi. Agar profilaktik ta'mirlash ishlari o‘z vaqtida amalga oshirilmasa, keyinchalik katta miqdordagi kapital xarajatlar talab qilinadi. Shu sababli yo‘l jamg‘armasi mablag‘larining muhim qismi mavjud yo‘llarni ekspluatatsiya qilish va saqlash ishlariga yo‘naltiriladi.

Yo‘l belgilari, svetoforlar, piyodalar o‘tish joylari va yo‘l yoritish tizimlarini yangilash harakat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari ana shunday infratuzilma obyektlarini barpo etish va modernizatsiya qilish imkonini beradi.

Transport infratuzilmasining rivojlanganligi hududlarga investitsiyalar jalb qilishda muhim omil hisoblanadi. Sifatli avtomobil yo‘llari sanoat zonalari, qishloq xo‘jaligi korxonalari va turistik obyektlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Natijada yangi ish o‘rinlari yaratiladi, hududlarning iqtisodiy faolligi ortadi va aholining turmush darajasi yaxshilanadi.

O‘zbekistonda avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda respublikada xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo‘llari rekonstruksiya qilindi, yangi ko‘priklar va transport ayirboshlash inshootlari qurildi. Yo‘l xo‘jaligini moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag‘lari bilan bir qatorda xalqaro moliya institutlari kreditlari va investitsiyalari ham muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, yo‘l jamg‘armalarining samarali faoliyati sohaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Mamlakatda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali tranzit yuk tashish hajmini oshirish va Markaziy Osiyoda muhim transport markazi sifatidagi o‘rinni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda yo‘l jamg‘armasi mablag‘laridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Yo‘l infratuzilmasini yanada rivojlantirish uchun yo‘l jamg‘armalari faoliyatini takomillashtirish zarur. Buning uchun yo‘l jamg‘armasi daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish, raqamli monitoring va nazorat tizimlarini rivojlantirish, mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda innovatsion qurilish texnologiyalarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, elektron tender tizimlaridan keng foydalanish va loyihalarning ochiqligini ta'minlash mablag‘lardan samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, yo‘l infratuzilmasi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Avtomobil yo‘llarining sifati va ularning rivojlanganlik darajasi iqtisodiy o‘sish sur'atlari, aholi turmush darajasi hamda

investitsion muhitga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Yo‘l jamg‘armasi esa mazkur sohani moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Yo‘l jamg‘armasi mablag‘laridan samarali foydalanish, yangi moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali mamlakat transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish mumkin. Natijada yo‘l infratuzilmasining rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, logistika xarajatlarini qisqartirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

СПОСОБЫ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ

А.Р.Улашов, старший преподаватель Ташкентского государственного экономического университета

Мировые инвестиции в региональную экономику страны требуют и предложения непропорционально, инвестиции в рациональное развитие развивающейся экономики страны. В результате в экономике развивающихся стран наблюдается тенденция к увеличению прямых инвестиций. По данным UniCredit Investment Trends Monitor,”рост иностранных инвестиций в 2020 году замедлится до тенденции к падению в 2019 году с 1,5 триллиона долларов (на 42%) до 859 миллиардов долларов". Последний раз такой низкий уровень наблюдался в 1990-х годах. Это самый низкий показатель после мирового финансового кризиса 2008-2009 годов. Однако, несмотря на прогнозы восстановления мировой экономики в 2021 году, ЮНКТАД пришел к выводу, что потоки иностранных инвестиций, по прогнозам, останутся низкими из-за неопределенности в отношении развития пандемии COVID-19 . В свою очередь, наличие множества проблем, связанных с повышением эффективности инвестиций, остается одним из основных факторов, определяющих необходимость совершенствования финансового управления инвестиционной деятельностью. В ходе встречи стороны выразили удовлетворение развитием сотрудничества между Таджикистаном и Китаем. Капитал капитал-это оптимальная модель, капитал, минимально признанный финансовый регулятивный капитал, основанный на бельгиланган нормотворчестве, обеспечивающий притчи комплексного подхода и глубокие научные исследования.

В международной практике особое внимание уделяется оценке инвестиционной эффективности при принятии компаниями инвестиционных решений, умению правильно выбрать механизм оценки, управлению инвестиционными проектами. Вопросы оптимального формирования структуры капитала, минимизации капиталоемкости и обеспечения финансовой устойчивости компаний на основе установленных нормативов не изучены комплексно и требуют проведения глубоких исследований. Также актуальными вопросами являются оценка эффективности инвестиционной деятельности, организация процесса стратегического управления в данном направлении, совершенствование системы управления инвестиционными рисками.

От 7 февраля 2017 года № ПФ-4947 «о стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 2 марта 2020 года № ПФ-5953 «о государственной программе по реализации стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы «указы правительства Республики Узбекистан от 14 мая 2019 года № ПФ-5717» о мерах по переходу на качественно новую систему формирования и реализации инвестиционной программы Республики Узбекистан», Служит для реализации задач, определенных постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 22 июля 2019 года № 616 «об организационных мерах по внедрению и использованию информационной системы в сфере контроля и мониторинга инвестиционных проектов», а также другими нормативными документами, относящимися к данной сфере.

В Узбекистане наращиваются объемы инвестиций в реальный сектор, на этой основе ускоряется социально-экономическое развитие, повышается уровень жизни и доходов населения, обеспечивается комплексное и эффективное использование природного, минерально-сырьевого, промышленного, сельскохозяйственного, туристического и трудового потенциалов каждого региона, ускоряется развитие районов и городов, прежде всего, за счет наращивания промышленного и экспортного потенциала. за счет развития регионов последовательно проводятся экономические реформы, направленные на сокращение различий в уровне социально-экономического развития. В стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан приоритетом является» проведение активной инвестиционной политики, направленной на модернизацию, техническое и технологическое обновление производства, реализацию проектов производственной, транспортно-коммуникационной и социальной инфраструктуры, улучшение инвестиционного климата, активное привлечение иностранных, прежде всего прямых иностранных инвестиций в отрасли и регионы экономики страны" одной из задач было определено. Обеспечение выполнения данных задач требует оптимального формирования финансовых ресурсов предприятий, а их оценка-повышения эффективности инвестиционной деятельности.

FINANCING GREEN UNIVERSITIES AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Imomov Inomiddin Abdulxamidovich, PhD
Associate professor of Tashkent State University of Economics
e-mail: imomov@tsue.uz

In the context of the 21st century, global challenges such as climate change, environmental degradation, and resource scarcity have significantly influenced the direction of economic development. As a result, the concept of sustainable development has become a central element of modern economic policy. Within this framework, the role of higher education institutions has undergone a fundamental transformation. Universities are no longer limited to their traditional functions of teaching and research; they are now expected to actively participate in addressing environmental issues and promoting sustainable practices. The New Uzbekistan

2030 Strategy emphasizes the importance of transitioning toward a green economy, increasing energy efficiency, and ensuring environmental sustainability, which directly highlights the need to reform higher education institutions accordingly .

The concept of a green university has emerged as a response to these global and national challenges. A green university is an institution that integrates environmental sustainability into its core functions, including governance, infrastructure, education, and research. This involves the implementation of energy-efficient technologies, the use of renewable energy sources, sustainable waste management systems, water conservation practices, and the promotion of environmental awareness among students and staff. Such institutions operate as micro-models of sustainable societies, demonstrating how environmental responsibility can be embedded into organizational structures.

From an economic perspective, the development of green universities offers significant advantages. One of the primary benefits is the reduction of operational costs through efficient resource utilization. Energy-saving technologies, for example, can significantly decrease electricity and heating expenses over time. Additionally, green universities have greater access to international funding opportunities, as many global organizations prioritize sustainability-oriented projects. This creates new financial channels and enhances institutional capacity. Furthermore, the implementation of green practices improves the reputation and global ranking of universities, attracting more students, researchers, and partners. This, in turn, contributes to increased revenue and long-term institutional sustainability.

Despite these advantages, the transition to a green university model requires substantial financial investment. Initial costs include the installation of renewable energy systems, modernization of existing infrastructure, implementation of smart monitoring technologies, and development of sustainable transportation systems. These investments often exceed the financial capabilities of many higher education institutions, particularly in developing countries. Moreover, the payback period for such investments can be relatively long, which further complicates decision-making processes.

Therefore, the development of effective financing mechanisms is essential for the successful implementation of green university initiatives. A diversified financing model is considered the most appropriate approach in this context. Public funding remains a critical component, particularly during the initial stages of transformation. Governments can support green campus projects through targeted grants, subsidies, and national sustainability programs. At the same time, private investment plays an increasingly important role, especially in the development of energy infrastructure and innovative technologies.

Public–private partnerships represent another effective mechanism for financing green universities. This model allows for the sharing of financial risks and responsibilities between the public and private sectors, enabling the implementation of large-scale projects that would otherwise be difficult to realize. In addition, green bonds have emerged as a powerful financial instrument for attracting investment into environmentally sustainable projects. By issuing green bonds, universities and

governments can mobilize capital specifically for projects related to renewable energy, energy efficiency, and sustainable infrastructure.

International financial institutions also play a crucial role in supporting green university initiatives. Organizations such as the World Bank, OECD, and UNEP provide grants, loans, and technical assistance for sustainability projects in developing countries. These funds are particularly important for countries like Uzbekistan, where financial resources may be limited but the need for environmental modernization is urgent.

An important aspect of green university financing is the analysis of costs and benefits. Although initial investments are high, the long-term economic returns often outweigh these costs. Reduced energy and water consumption lead to significant operational savings, while improved environmental performance enhances institutional attractiveness. Additionally, green universities can serve as centers for innovation, generating new knowledge and technologies that contribute to economic development.

However, several institutional challenges hinder the effective financing of green universities. These include limited financial autonomy of higher education institutions, lack of expertise in green finance, underdeveloped regulatory frameworks, and insufficient awareness of sustainability issues. Addressing these challenges requires comprehensive institutional reforms. Universities should be granted greater financial independence to attract and manage external funding. At the same time, governments must develop supportive policies and legal frameworks that facilitate the use of innovative financial instruments such as green bonds and PPP models.

In the context of the New Uzbekistan 2030 Strategy, several practical recommendations can be proposed. First, performance-based financing mechanisms should be introduced, where part of university funding depends on environmental indicators such as energy efficiency and waste reduction. Second, universities should establish internal green funds, allowing savings from resource efficiency to be reinvested into new sustainability projects. Third, the development of a national green finance system is essential to support long-term investment in sustainable infrastructure. Finally, international cooperation should be strengthened to attract foreign investment and share best practices.

In conclusion, the transformation of higher education institutions into green universities is a necessary step toward achieving sustainable development goals. This process requires not only technological and environmental changes but also innovative financial approaches and institutional reforms. A multi-source financing model that combines public funding, private investment, PPP mechanisms, green bonds, and international support can ensure the successful implementation of green campus initiatives. By adopting such an approach, universities can enhance their economic efficiency, environmental performance, and global competitiveness, thereby contributing to the broader objectives of sustainable development.

BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING ROLI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Rajabova Umida Umurzoqovna
Xalqaro Nordik Universiteti tayanch doktoranti
francheska50701@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonida moliyaviy texnologiyalarning (FinTech) o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli to‘lovlar, mobil banking, masofaviy bank xizmatlari, sun’iy intellekt, biometrik identifikatsiya va boshqa innovatsion texnologiyalarning bank xizmatlari samaradorligiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, FinTech texnologiyalarini joriy etish orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda banklarning raqobatbardoshligini kuchaytirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida O‘zbekistonda bank xizmatlarini raqamlashtirishni jadallashtirish va FinTech imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: bank xizmatlari, raqamlashtirish, moliyaviy texnologiyalar, FinTech, raqamli banking, mobil banking, raqamli to‘lovlar, innovatsiya, sun’iy intellekt, bank xizmatlari samaradorligi.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bank-moliya tizimida xizmat ko‘rsatish shakllarining tubdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida an’anaviy bank xizmatlari bilan bir qatorda mobil banking, internet banking, raqamli to‘lovlar, elektron hamyonlar, masofaviy identifikatsiya va boshqa innovatsion moliyaviy xizmatlar rivojlanmoqda. Mazkur jarayonda moliyaviy texnologiyalar (FinTech) bank xizmatlarini tezkor, qulay, shaffof va mijozlar ehtiyojiga mos shaklda tashkil etishning muhim vositasiga aylanmoqda. Bank xizmatlarini raqamlashtirish nafaqat mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, balki banklarning operatsion xarajatlarini optimallashtirish, xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish, yangi mijozlarni jalb etish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), biometrik identifikatsiya, bulutli texnologiyalar va blokcheyn kabi texnologiyalarning rivojlanishi bank faoliyatida yangi biznes modellarining shakllanishiga zamin yaratmoqda. O‘zbekistonda ham bank tizimini raqamli transformatsiya qilish, naqdsiz to‘lovlarni kengaytirish va aholiga masofaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Tijorat banklari tomonidan mobil ilovalar, onlayn kreditlash, elektron to‘lovlar va masofaviy bank xizmatlarining kengaytirilishi moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirmoqda. Shu bilan birga, kiberxavfsizlikni ta’minlash, mijozlarning raqamli savodxonligini oshirish, ma’lumotlarni himoya qilish va FinTech xizmatlarining ishonchliligini ta’minlash kabi masalalar ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.


Bank xizmatlarini raqamlashtirishda moliyaviy texnologiyalarning rolini aniqlash, ularning bank faoliyati samaradorligiga ta’sirini baholash hamda rivojlanish istiqbollarini belgilash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tezisda FinTech texnologiyalarining bank xizmatlarini transformatsiya qilishdagi o‘rni, mavjud imkoniyatlar va rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonida moliyaviy texnologiyalar banklarning faoliyatini tashkil etish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish mexanizmlarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. FinTech yechimlarining joriy etilishi natijasida bank xizmatlarining masofadan ko‘rsatilishi kengayib, mijozlarning bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun bank filiallariga murojaat qilish zaruriyati kamaymoqda. Ayniqsa, mobil banking, internet banking, QR-to‘lovlar va elektron to‘lov tizimlari kundalik moliyaviy operatsiyalarning tezkorligini oshirmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi uchta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda: **xizmatlarning tezkorligi va qulayligini oshirish, bank operatsion xarajatlarini optimallashtirish hamda mijozlar bazasini kengaytirish**. Raqamli kanallar orqali xizmat ko‘rsatish banklarga ko‘proq mijozlarga qisqa vaqt ichida xizmat ko‘rsatish imkonini beradi. Shu bilan birga, mobil ilovalar orqali hisobvaraqlarni boshqarish, pul o‘tkazmalari, to‘lovlar va kredit xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi mijozlar uchun qulaylik yaratmoqda. FinTech texnologiyalarining yana bir muhim yo‘nalishi — **sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish** hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlarini tahlil qilish, kredit risklarini baholash, firibgarlik holatlarini aniqlash va mijozlarga individual moliyaviy mahsulotlarni taklif qilish imkonini beradi. Natijada banklarda qaror qabul qilish jarayonining tezkorligi va ma’lumotlardan foydalanish samaradorligi oshadi.

Biroq raqamlashtirish jarayoni ayrim muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, raqamli



raqamli to‘lovlar va kontaktsiz to‘lov infratuzilmasini rivojlantirish;



infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda aholining raqamli moliyaviy savodxonligi bilan bog‘liq masalalar FinTech xizmatlarini yanada rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

1-rasm. Bank xizmatlarini raqamlashtirishda moliyaviy texnologiyalardan foydalanishning uzluksiz rivojlanish modeli.

Yuqoridagi sxemada bank xizmatlarini raqamlashtirishning o‘zaro bog‘liq va uzluksiz rivojlanib boruvchi mexanizmi aks ettirilgan. Mazkur jarayon bir nechta asosiy yo‘nalishlarning ketma-ket va o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi. Avvalo, **banklar va FinTech kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish** yangi raqamli moliyaviy mahsulotlarni yaratish uchun muhim institutsional asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday hamkorlik banklarning mavjud infratuzilmasi va FinTech kompaniyalarining innovatsion texnologiyalarini birlashtirish imkonini beradi. Keyingi bosqichda **masofaviy kreditlash va boshqa raqamli moliyaviy xizmatlarni kengaytirish** orqali mijozlarga bank xizmatlaridan istalgan vaqtda va masofadan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Bu, ayniqsa, hududlarda bank filiallari yetarli bo‘lmagan sharoitda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, **mobil va internet banking xizmatlarini yanada takomillashtirish** bank xizmatlarining tezkorligi va qulayligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Mobil ilovalar orqali to‘lovlarni amalga oshirish, hisobvaraqlarni boshqarish, pul o‘tkazish va kredit mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi mijozlarning raqamli bank xizmatlariga bo‘lgan talabini oshiradi.

Raqamlashtirishning keyingi muhim yo‘nalishi **sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish** bilan bog‘liq. Ushbu texnologiyalar mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlarini tahlil qilish, kreditga layoqatlilikni baholash, individual bank mahsulotlarini shakllantirish hamda shubhali operatsiyalarni aniqlash imkonini beradi. Natijada banklarda ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligi oshadi. Bundan tashqari, **raqamli to‘lovlar va kontaktsiz to‘lov infratuzilmasini rivojlantirish** naqd pulsiz iqtisodiyotning kengayishiga zamin yaratadi. QR-kod, NFC va boshqa kontaktsiz to‘lov texnologiyalarining ommalashuvi mijozlar uchun to‘lov jarayonlarini soddalashtirib, bank operatsiyalarining tezkorligini oshiradi. Raqamli xizmatlarning kengayishi bilan bir vaqtda **kiberxavfsizlik va mijoz ma’lumotlarini himoya qilish tizimlarini kuchaytirish** zarurati ham ortadi. Chunki raqamli bank operatsiyalari hajmining ko‘payishi ma’lumotlarning maxfiyligi va axborot xavfsizligini ta’minlashga qo‘yiladigan talablarni kuchaytiradi. Shu sababli banklarda ko‘p bosqichli autentifikatsiya, biometrik identifikatsiya, ma’lumotlarni shifrlash va firibgarlikni aniqlash texnologiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur jarayonning yana bir muhim elementi **aholining raqamli va moliyaviy savodxonligini oshirish** hisoblanadi. Foydalanuvchilarning raqamli bank xizmatlaridan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanish ko‘nikmalari qanchalik yuqori bo‘lsa, raqamli moliyaviy xizmatlarning iqtisodiy samarasi ham shunchalik ortadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bank xizmatlarini raqamlashtirishda moliyaviy texnologiyalar zamonaviy bank tizimining samaradorligini oshiruvchi muhim omil

hisoblanadi. FinTech texnologiyalarining rivojlanishi mobil va internet banking, raqamli to‘lovlar, masofaviy kreditlash hamda boshqa moliyaviy xizmatlarning kengayishiga imkon yaratmoqda. Natijada mijozlarga xizmat ko‘rsatish tezligi va qulayligi oshib, banklarning operatsion jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt, Big Data, biometrik identifikatsiya va kontaktsiz to‘lov texnologiyalaridan foydalanish bank xizmatlarini individuallashtirish, kredit risklarini baholash va moliyaviy operatsiyalar xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi kiberxavfsizlik, mijoz ma’lumotlarini himoya qilish va aholining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratishni talab etadi.

Kelgusida banklar va FinTech kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion raqamli xizmatlarni kengaytirish, sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalarini faol joriy etish hamda kiberxavfsizlik infratuzilmasini takomillashtirish bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasini yanada jadallashtiradi. Bu esa bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bank for International Settlements. (2024). *Annual economic report 2024*. Bank for International Settlements.
2. International Monetary Fund. (2024). *Financial access survey 2024*. International Monetary Fund.
3. World Bank. (2022). *The global Findex database 2021: Financial inclusion, digital payments, and resilience in the age of COVID-19*. World Bank.
4. Arner, D. W., Barberis, J., & Buckley, R. P. (2016). The evolution of FinTech: A new post-crisis paradigm? *Georgetown Journal of International Law, 47*(4), 1271–1319.
5. Gomber, P., Koch, J.-A., & Siering, M. (2017). Digital finance and FinTech: Current research and future research directions. *Journal of Business Economics, 87*(5), 537–580. https://doi.org/10.1007/s11573-017-0852-x
6. Philippon, T. (2016). *The fintech opportunity*. National Bureau of Economic Research. https://doi.org/10.3386/w22476
7. Ozili, P. K. (2018). Impact of digital finance on financial inclusion and stability. *Borsa Istanbul Review, 18*(4), 329–340. https://doi.org/10.1016/j.bir.2017.12.003
8. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S., & Hess, J. (2022). *The Global Findex Database 2021: Financial inclusion, digital payments, and resilience in the age of COVID-19*. World Bank. https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1897-4
9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). *O‘zbekiston Respublikasida to‘lov tizimlari va raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha ma’lumotlar*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida* PF-6079-son Farmon.

BANKLAR FAOLIYATIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: SAMARADORLIK VA INNOVATSION RIVOJLANISH

Sagdiyeva Maxbubaxon Rustamovna

“Agrobank” ATB Qashqadaryo viloyat boshqarmasi

Xodimlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i

+998(97) 310-30-70

Gmail: mahbubasagdiyeca@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezesda banklar faoliyatida Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning nazariy asoslari, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri hamda moliyaviy xizmatlarni modernizatsiya qilishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, intellektual tizimlar orqali risklarni boshqarish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va operatsiyalarni avtomatlashtirish masalalari ilmiy jihatdan yoritilgan.

***Kalit so‘zlar*:** sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish, raqamli bank, fintex, risk-menejment, avtomatlashtirish, Big Data.

KIRISH

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida banklar faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Sun’iy intellekt texnologiyalari bank xizmatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishda asosiy drayverlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda banklar raqobatbardoshligini ta’minlash uchun intellektual tizimlarga tayanadi.

ASOSIY QISM.

1. **Sun’iy intellektning bank tizimidagi o‘rni.**

Sun’iy intellekt- bu ma’lumotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va prognozlash jarayonlarini avtomatlashtiruvchi texnologiyalar majmuasidir. Bank tizimida u:

- Kredit berish jarayonini optimallashtiradi;
- Risklarni baholashni aniqlashtiradi;

- Mijozlar xulq-atvorini tahlil qiladi.

2. Bank faoliyatida AI qo‘llanilish yo‘nalishlari.

1. Kredit skoring tizimlari

AI algoritmlari mijozning to‘lov qobiliyatini aniq baholaydi va kredit risklarini kamaytiradi.

2. Firibgarlikni aniqlash (Fraud detection).

Intellektual tizimlar shubhali operatsiyalarni real vaqt rejimida aniqlab, moliyaviy xavflarni pasaytiradi.

3. Chat-bot va virtual assistentlar.

Mijozlarga 24/7 xizmat ko‘rsatish imkonini beradi va xizmat sifatini oshiradi.

4. Big Data tahlili.

Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash orqali individual moliyaviy mahsulotlar taklif etiladi.

3. Iqtisodiy samaradorlikka ta’siri.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish natijasida:

- operatsion xarajatlar 20-25%ga kamayadi;
- qaror qabul qilish tezligi oshadi;
- mijozlar qoniqish darajasi oshadi;
- bank daromadlari ko‘payadi.

4. Muammolar va cheklovlar

AI joriy etilishida quyidagi muammolar mavjud:

- Ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik muammolari;
- Algoritmlardagi xatoliklar (bias);
- yuqori moliyaviy xarajatlar;
- malakali kadrlar yetishmasligi;
- Regulyativ cheklovlar.

Bu muammolarni hal qilish uchun davlat va banklar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

5. Taklif etilayotgan ilmiy model.

Tadqiqot doirasida AI asosidagi raqamli bank modeli taklif etildi. U quyidagi elementlardan iborat:

- ma’lumotlar bazasi (Big Data platformasi);
- intellektual tahlil tizimi;
- avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish moduli;
- kiberxavfsizlik tizimi;
- mijoz interfeysi.

Ushbu model bank faoliyatini to‘liq raqamlashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy yangilik:

-Banklarda AI qo‘llashning kompleks samaradorlik modeli ishlab chiqildi;

- Kredit skoring va risk-menejment uchun intellektual baholash mexanizmi taklif etildi;

- Firibgarlikni aniqlashda real vaqtli adaptiv algoritmlar konsepsiyasi asoslandi.

XULOSA

Banklar faoliyatida Sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish, risklarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Kelgusida bank tizimi to‘liq intellektuallashgan raqamli ekotizimga aylanishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. World Bank.(2023) Digital Financial Services Report.Washington, DC
2. McKinsey & Company (2023) The State of AI Banking .
3. OECD.(2022).Artificial Intelligence in Finance. Paris.
4. Deloitti.(2022). AI and Banking Industry Outlook.
5. PwC.(2023) Financial Services Technology Survey.
6. O’zbekiston Respublikasi Markaziy Banki.(2023) Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish hisoboti.

ТЎҚИМАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИДА ВЕРТИКАЛ ҚИЙМАТ ЗАНЖИРИНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШ ВА ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТНИ ОШИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Шарахмедова Мамура Дамировна
ТТЕСИ, Табиий толалар технологияси ва инженеринг кафедраси доценти

Аннотация: Мазкур тезисда тўқимачилик ва енгил саноат кластерларида хом-ашё етиштиришдан тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришгача бўлган вертикал қиймат занжирини ташкил этишнинг иқтисодий механизмлари кўриб чиқилади. Занжир бўғинлари бўйича қўшилган қиймат шаклланиши таҳлил қилиниб, пахта толаси ва ип-калава экспортидан тайёр трикотаж ва тикувчилик буюмлари экспортига ўтиш самарадорлиги илмий жиҳатдан асосланади.

Калит сўзлар: Тўқимачилик саноати, вертикал интеграция, кластер, қўшилган қиймат, қиймат занжири, тайёр маҳсулот экспорти, иқтисодий самарадорлик.

Кириш ва муаммонинг долзарблиги

Миллий саноат сиёсатининг устувор мақсадларидан бири — маҳаллий хомашё ресурсларини чуқур қайта ишлаш орқали юқори қўшилган қийматли рақобатбардош тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва экспорт таркибини диверсификация қилишдир. Тўқимачилик тармоғида пахта толаси ёки бирламчи ярим тайёр маҳсулот (ип-калава) экспорти билан чекланиш миллий иқтисодиёт учун потенциал даромадларнинг бой берилишига олиб келади.

Вертикал интеграциялашган тўқимачилик кластерларининг ташкил этилиши хомашё етиштириш, бирламчи қайта ишлаш, тўқимачилик, бўяш-пардозлаш ва тикувчилик босқичларини ягона технологик ва иқтисодий тизимга бирлаштириш орқали қўшилган қийматни мамлакат ичида максимал сақлаб қолиш имконини беради.

Асосий таҳлил ва натижалар

Тўқимачилик ва енгил саноатда қиймат занжирининг иқтисодий самарадорлиги ҳар бир кейинги қайта ишлаш босқичида маҳсулот таннархига қўшиладиган янги қиймат ҳажми билан ўлчанади. Қўшилган қиймат (VA) ишлаб чиқариш натижаси ($Output$) ва оралиқ истеъмол харажатлари (IC) ўртасидаги фарқ сифатида аниқланади:

$$VA = Output - IC$$

Қиймат занжири босқичлари бўйича нарх шаклланиши ва қўшилган қиймат ўсиши нисбий таққосланганда қуйидаги мутаносиблик намоён бўлади (1-жадвал).

1-жадвал

Тўқимачилик занжири босқичлари бўйича маҳсулот қийматининг шартли ўсиш динамикаси[1]

Қиймат занжири босқичлари	**Чиқариладиган маҳсулот тури**	**Бошланғич хомашёга нисбатан нарх карраси**	**Қўшилган қиймат улуши**	**Саноат хатарлари ва капитал сиғими**
I босқич	Пахта хомашёси ва тола	1,0 × (база)	Паст (15 – 20%)	Агротехник ва об-ҳаво хатарлари
II босқич	Ип-калава (spinning)	1,8 – 2,2 ×	Ўртача (25 – 30%)	Юқори энергия ва ускуна харажатлари
III босқич	Мато ва трикотаж полотно	3,0 – 3,5 ×	Ўртача/Юқори (35 – 40%)	Тўқув ускуналари ва сифат талаби
IV босқич	Бўялган ва пардозланган мато	4,5 – 5,2 ×	Юқори (45 – 50%)	Сув, кимёвий моддалар, экологик меъёрлар
V босқич	Тайёр тикувчилик буюмлари	7,0 – 9,0 ×	Энг юқори (55 – 65%)	Меҳнат сиғими, дизайн ва бозор маркетинг

Жадвал маълумотларидан кўринадики, хомашёни бевосита экспорт қилиш

[1] Муаллиф томонидан тўқимачилик тармоғи таҳлилий маълумотлари асосида тизимлаштирилган

ўрнига, уни V босқич — тайёр тикувчилик буюмларигача қайта ишлаш маҳсулот қийматини 7–9 баробарга ошириш имконини беради.

Бироқ амалиётда кўплаб кластерлар занжирнинг фақат дастлабки икки бўғини (пахта ва ип-калава) билан чекланиб қолмоқда. Бунинг сабаблари: бўяш-пардозлаш қувватларининг етишмаслиги, халқаро экологик сертификатлар (OEKO-TEX, BCI) танқислиги ҳамда молиявий айланма маблағларнинг етишмаслигидир.

Хулоса ва амалий таклифлар

1. Занжирни мувозанатлаш: Кластерларда ип-калава ишлаб чиқариш қувватларини тўқув, бўяш ва тикув қувватлари билан пропорционал мувофиқлаштириш зарур.

2. Экспорт таркибини ўзгартириш: Ип-калава экспортидан босқичма-босқич тайёр тикув-трикотаж ва брендли маҳсулотлар экспортига ўтиш бўйича дифференциаллашган солиқ ва божхона рағбатларини кенгайтириш лозим.

3. Халқаро сертификатлаш: Кластерларда халқаро экологик ва сифат стандартларини жорий этиш орқали жаҳоннинг йирик ритейлерлари (бозор тармоқлари) билан тўғридан-тўғри шартномавий алоқаларни йўлга қўйиш тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Porter, M. E. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. *Harvard Business Review*, 76(6), 77–90.

2. Gereffi, G. (2005). The governance of global value chains. *Review of International Political Economy*, 12(1), 78–104.

3. Абдуллаев А. (2022). Тўқимачилик кластерларини ривожлантириш механизмлари. *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар*, №4, 45–52 б.

PENSIYA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH: PROAKTIV XIZMATLAR VA “YAGONA PENSIYA PROFILI”NING SAMARADORLIK MEXANIZMI

Oqiljonov Azizjon Olimjon o‘g‘li,

O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi yetakchi inspektori

Annotatsiya. Tezisda O‘zbekistonda pensiya xizmatlarini to‘liq raqamli va proaktiv shaklga o‘tkazishning iqtisodiy va boshqaruv samarasi tahlil qilinadi. 2026-yil I choragida Pensiya jamg‘armasi 884,9 mingdan ortiq interaktiv, kompozit va proaktiv xizmat ko‘rsatgan. 2027-yildan barcha pensiya xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish, “Mening pensiyam” xizmatini ishga tushirish va qog‘oz hujjatlarni qabul qilishni bekor qilish belgilangan. Muallif “yagona pensiya profili”ni xizmat kanali emas, fuqaroning ish staji, rasmiy ish haqi, ijtimoiy soliq va kutilayotgan pensiyasini birlashtiruvchi risk-monitoring vositasi sifatida ko‘rishni taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli pensiya, proaktiv xizmat, yagona pensiya profili, ma’lumotlar integratsiyasi, sun’iy intellekt, “Mening pensiyam”

Abstract. The thesis analyses the economic and administrative effects of fully digital and proactive pension services in Uzbekistan. In the first quarter of 2026 the Pension Fund delivered more than 884.9 thousand interactive, composite and proactive services. From 2027, paper documents are to be phased out and the “My Pension” service introduced. A unified pension profile is proposed as a risk-monitoring tool integrating contribution history, earnings and expected pension outcomes.

Keywords: digital pension, proactive service, unified pension profile, data integration, artificial intelligence, My Pension

Аннотация. В тезисе анализируется эффективность полной цифровизации и проактивного предоставления пенсионных услуг. В первом квартале 2026 года Пенсионный фонд оказал свыше 884,9 тыс. интерактивных, композитных и проактивных услуг. Предлагается рассматривать единый пенсионный профиль как инструмент мониторинга рисков, объединяющий стаж, официальный заработок, социальный налог и ожидаемую пенсию.

Ключевые слова: цифровая пенсия, проактивная услуга, единый пенсионный профиль, интеграция данных, искусственный интеллект

ASOSIY QISM

Pensiya xizmatlarining raqamlashtirilishi ma’muriy xarajatlarni kamaytirish bilan birga pensiya huquqini shakllantiruvchi ma’lumotlarning sifatini oshirish imkonini beradi. 2025-yilda Pensiya jamg‘armasi 26 ta vazirlik va idora bilan 79 turdagi

ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yib, 3,8 mln dan ortiq fuqaroga proaktiv va interaktiv xizmat ko‘rsatgan [1] . 2026-yil I choragida esa interaktiv, kompozit va proaktiv xizmatlar soni 884 911 tani tashkil etgan; jumladan, 31 463 ta yoshga doir pensiya proaktiv tayinlangan [2].

Shu bilan birga, 2026-yil sentabrdagi islohot materiallarida 25 ta pensiya xizmatining 7 tasida qog‘oz hujjat va inson aralashuvi saqlanib qolayotgani, ish haqi va staj ma’lumotlarini to‘liq raqamlashtirish zarurligi qayd etilgan [3].

2026-yil 28-sentabrdagi PQ-355-son qaror bilan 2027-yil 1-yanvardan “Mening pensiyam” onlayn xizmatini joriy etish va Pensiya jamg‘armasida fuqarolardan qog‘oz hujjat qabul qilish amaliyotini bekor qilish belgilangan [4].

Raqamlashtirishning keyingi bosqichi xizmatlarni elektron shaklga ko‘chirish bilan cheklanmasligi kerak. “Yagona pensiya profili” fuqaroning ish staji, rasmiy ish haqi, to‘langan ijtimoiy solig‘i, jamg‘arib boriladigan pensiya qoldig‘i va kutilayotgan pensiyasini bir ekranda ko‘rsatishi, ma’lumotdagi uzilishlarni pensiya yoshiga yetishdan ancha oldin aniqlashi lozim [5]. Bu yondashuv pensiya tayinlash vaqtida hujjat izlashdan ex ante data quality management tizimiga o‘tishni anglatadi.

Muallif uchta samaradorlik indikatorini taklif etadi. Birinchisi — “proaktivlik darajasi”: avtomatik bajarilgan xizmatlar sonining jami mos xizmatlarga nisbati. Ikkinchisi — “ma’lumotlar to‘liqligi indeksi”: fuqaroning mehnat davrlaridan elektron tasdiqqa ega oylar ulushi. Uchinchisi — “oldindan aniqlangan xato ulushi”: pensiya tayinlashdan kamida 12 oy oldin aniqlanib tuzatilgan ma’lumot kamchiliklarining jami kamchiliklarga nisbati. Ushbu indikatorlar raqamlashtirish natijasini faqat xizmatlar soni bilan emas, xatolarni oldini olish bilan o‘lchash imkonini beradi.

Sun’iy intellektni Call-markaz va fuqarolarga maslahat berishda qo‘llash taklif etilmoqda [6]. Bunda AI huquqni belgilovchi yakuniy qaror qabul qiluvchi emas,

[1] Pensiya jamg‘armasi. “Pensiya jamg‘armasi tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar hisoboti”, 2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/115180.
[2] Pensiya jamg‘armasi. “Elektron hukumat”: 2026-yil I choragi xizmatlar statistikasi. https://gov.uz/oz/pj/activity_page/e_government.
[3] Pensiya jamg‘armasi. “Pensiya xizmatlari — raqamli va proaktiv shaklga o‘tkaziladi”, 15.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/220520.
[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 28-sentabrdagi PQ-355-son qarori bo‘yicha Pensiya jamg‘armasi axboroti. https://gov.uz/oz/pj/news/view/226187.
[5] Pensiya jamg‘armasi. “Pensiya ma’lumotlari — yagona tizimda”, 18.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/223221.
[6] Pensiya jamg‘armasi. “Pensiya xizmatlari — raqamli va proaktiv shaklga o‘tkaziladi”, 15.09.2026.

qonunchilikka asoslangan tushuntirish, ariza marshrutizatsiyasi va ma’lumot anomaliyalarini aniqlash vositasi sifatida ishlatilishi lozim. Pensiya tayinlash yoki rad etish qarorining huquqiy asoslari audit izi bilan saqlanishi, fuqaro esa inson tomonidan qayta ko‘rib chiqishni talab qilish huquqiga ega bo‘lishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pensiya xizmatlarini to‘liq raqamlashtirishning asosiy iqtisodiy samarasi tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishdan tashqari, mehnat faoliyati davomida pensiya huquqining sifatini boshqarish imkoniyatidir. 2027-yildan qog‘oz hujjatlardan voz kechish va “Mening pensiyam” xizmatining ishga tushishi bunday model uchun zarur infratuzilmani yaratadi.

Taklif etiladi: (1) yagona pensiya profilida staj va badal zichligini real vaqtga yaqin ko‘rsatish; (2) ma’lumot uzilishi bo‘yicha proaktiv ogohlantirish; (3) idoralar kesimida data quality KPI joriy etish; (4) AI tizimlarida izohlanadigan algoritmlar va majburiy audit izi; (5) “proaktivlik darajasi”, “ma’lumotlar to‘liqligi indeksi” va “oldindan aniqlangan xato ulushi”ni Pensiya jamg‘armasining raqamli transformatsiya KPIlari sifatida qo‘llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pensiya jamg‘armasi. “Pensiya jamg‘armasi tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar hisoboti”, 2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/115180.

2. Pensiya jamg‘armasi. “Elektron hukumat”: 2026-yil I choragi xizmatlar statistikasi. https://gov.uz/oz/pj/activity_page/e_government.

3. Pensiya jamg‘armasi. “Pensiya xizmatlari — raqamli va proaktiv shaklga o‘tkaziladi”, 15.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/220520.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 28-sentabrdagi PQ-355-son qarori bo‘yicha Pensiya jamg‘armasi axboroti. https://gov.uz/oz/pj/news/view/226187.

5. Pensiya jamg‘armasi. “Pensiya ma’lumotlari — yagona tizimda”, 18.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/223221.

MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA’SIRI: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON AMALIYOTI

Tursunov Olimboy Panjiboy o‘g’li
TDIU Xalqaro ilmiy nashr bazalari bilan ishlash bo‘limi bosh mutaxassisi
olimtursunov02@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya, bandlik, fiskal intizom, pul-kredit siyosati va moliyaviy barqarorlikka ta’sir mexanizmlari yoritilgan. Maqola doirasida O‘zbekistonning 2020–2024-yillardagi asosiy makroiqtisodiy va raqamli rivojlanish ko‘rsatkichlari umumlashtirilib, xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli infratuzilma, elektron to‘lovlar, elektron hukumat, IT xizmatlari eksporti va axborot iqtisodiyoti kengayishi iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini oshirish, transaksion xarajatlarni kamaytirish, byudjet tushumlari bazasini kengaytirish va pul-kredit siyosati uzatish mexanizmlarini kuchaytirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik, raqamli tafovut, platforma iqtisodiyotida monopoliyalashuv va norasmiy raqamli operatsiyalar kabi xavflar samarali institutsional boshqaruvni talab etadi.
Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya, bandlik, fiskal siyosat, pul-kredit siyosati, elektron to‘lovlar, xalqaro tajriba.

KIRISH

Raqamli transformatsiya XXI asrda milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligi, davlat boshqaruvi samaradorligi va makroiqtisodiy barqarorligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylandi. Internet tarmoqlari, mobil aloqa, elektron to‘lovlar, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, elektron hukumat va katta ma’lumotlar iqtisodiy qarorlar qabul qilish tezligini oshirmoqda hamda bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi axborot almashinuvi xarajatlarini kamaytirmoqda. Shu sababli raqamli texnologiyalar faqat texnik yangilik emas, balki iqtisodiy o‘sish modeli, mehnat bozori, narxlar barqarorligi, moliyaviy tizim va davlat byudjeti boshqaruviga ta’sir etuvchi tizimli institut sifatida qaralmoqda.

Makroiqtisodiy barqarorlik odatda barqaror iqtisodiy o‘sish, nazorat qilinadigan inflyatsiya, bandlik darajasining yaxshilanishi, to‘lov balansi muvozanati, fiskal intizom va moliyaviy tizim barqarorligi orqali namoyon bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar ushbu ko‘rsatkichlarning har biriga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, ular ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, davlat xizmatlarini tezlashtiradi, soliq ma’murchiligini yaxshilaydi va moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi. Ikkinchi tomondan, raqamli bozorlarda kiberxavfsizlik tahdidlari, ma’lumotlar maxfiyligi, texnologik qaramlik va ish o‘rinlarining tarkibiy o‘zgarishi kabi xavflar yuzaga keladi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu mavzuning dolzarbligi yanada ortib bormoqda. So‘nggi yillarda mamlakatda raqamli davlat xizmatlari, bank kartalari, mobil bank ilovalari, elektron to‘lov tizimlari, IT Park rezidentlari faoliyati va IT xizmatlari eksporti tez

rivojlanmoqda. Bu jarayonlar makroiqtisodiy boshqaruv sifatini oshirish bilan bir qatorda iqtisodiy o‘sishning yangi manbalarini shakllantirmoqda. Shuning uchun maqolaning asosiy maqsadi raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’sirini xalqaro tajriba va O‘zbekiston amaliyoti asosida tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI: Ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalar iqtisodiy rivojlanishning “tezlashtiruvchi omili” sifatida talqin qilinadi. Jahon bankining “Digital Dividends” hisobotida raqamli texnologiyalar iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari va davlat xizmatlari sifatini yaxshilash imkoniyatini berishi, biroq bunday foyda faqat kuchli institutlar, raqobat muhiti, inson kapitali va huquqiy tartibga solish bilan birga shakllanishi ta’kidlanadi (World Bank, 2016). Demak, raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri faqat texnologiya mavjudligi bilan emas, balki uni boshqarish sifati bilan belgilanadi.

OECD tadqiqotlarida raqamli transformatsiyaning samaradorligi firmalarning texnologiyani qabul qilish darajasi, ma’lumotlar infratuzilmasi, raqamli ko‘nikmalar va innovatsion ekotizim rivojiga bog‘liqligi qayd etiladi (OECD, 2024a). Xususan, sun’iy intellekt va ma’lumotlarga asoslangan texnologiyalar ishlab chiqarish unumdorligini oshirishi mumkin, ammo ularning foydasi yirik korxonalarda to‘planib qolsa, kichik biznes raqobatbardoshligi pasayishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta’siri inklyuziv raqamli siyosat bilan mustahkamlanishi zarur.

Pul-kredit siyosati nuqtayi nazaridan elektron pullar, tezkor to‘lov tizimlari va fintech xizmatlari markaziy banklar uchun yangi imkoniyat va xavflarni yuzaga keltiradi. IMF tadqiqotlarida elektron pul moliyaviy inklyuziya past bo‘lgan mamlakatlarda pul-kredit siyosati uzatish mexanizmini kuchaytirishi mumkinligi ko‘rsatiladi (IMF, 2024a). Biroq nazorat yetarli bo‘lmasa, raqamli moliya moliyaviy barqarorlik, iste’molchi huquqlari va kiberxavfsizlik bo‘yicha qo‘shimcha xavflarni ham keltirib chiqaradi. Shu bois makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda raqamli moliyaviy infratuzilma bilan prudensial nazorat o‘rtasida muvozanat talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Maqolada nazariy umumlashtirish, qiyosiy tahlil, statistik dinamik tahlil va institutsional yondashuv usullaridan foydalanildi. Nazariy tahlilda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’sir kanallari aniqlanadi. Statistik tahlilda O‘zbekistonning 2020–2024-yillardagi YaIM o‘sishi, inflyatsiya, ishsizlik, bandlik, internetga ulangan abonentlar soni, axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat ulushi, AKT sektorining YaIMdagi ulushi hamda IT Park eksporti kabi ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

Qiyosiy tahlil qismida Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi tajribasining O‘zbekiston uchun ahamiyatli jihatlari ajratildi. Ushbu mamlakatlar raqamli hukumat, raqamli moliya, elektron to‘lovlar, innovatsion sanoat siyosati va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv bo‘yicha ilg‘or tajribaga ega. Maqolada statistik ma’lumotlar Jahon banki, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi,

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, IT Park hamda xalqaro tashkilotlarning ochiq ma’lumotlariga tayanib umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR: Raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri birinchi navbatda mehnat unumdorligi, innovatsiyalar va transaksion xarajatlar orqali namoyon bo‘ladi. Korxonalar raqamli boshqaruv tizimlari, elektron savdo platformalari va bulutli xizmatlardan foydalanish orqali xarajatlarni qisqartiradi, bozorga kirish tezligini oshiradi va mijozlar bazasini kengaytiradi. Davlat uchun esa raqamli monitoring tizimlari soliq tushumlari, davlat xarajatlari, subsidiyalar va ijtimoiy to‘lovlarni aniqroq boshqarish imkonini beradi.

O‘zbekiston misolida 2020–2024-yillar dinamikasi raqamli rivojlanish va makroiqtisodiy barqarorlashuv o‘rtasida muhim bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda pandemiya sharoitida YaIM o‘sishi 1,6 foizgacha pasaygan bo‘lsa, 2021–2024-yillarda iqtisodiy o‘sish tiklanib, 2024-yilda 6,7 foizga yetdi. Shu davrda inflyatsiya 2020-yildagi 12,9 foizdan 2024-yilda 9,6 foizgacha pasaydi. Mehnat bozori ko‘rsatkichlarida ham barqarorlashuv kuzatilib, ishsizlik darajasi 2020-yildagi 10,5 foizdan 2024-yilda 5,5 foizgacha kamaydi.

1-jadval. O‘zbekistonning asosiy makroiqtisodiy va raqamli ko‘rsatkichlari, 2020–2024-yillar

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
YaIM o‘sishi, %	1,6	8,2	6,1	6,3	6,7
Inflyatsiya, CPI, %	12,9	10,8	11,4	10,0	9,6
Ishsizlik darajasi, %	10,5	9,6	8,9	6,8	5,5
Bandlik darajasi, %	66,0	67,0	67,2	67,9	68,3
Internetga ulangan abonentlar, ming birlik	26 437,4	29 500,2	33 681,7	35 851,4	38 406,0
Axborot iqtisodiyoti va e-tijorat ulushi, YaIMda %	1,82	2,30	3,06	3,56	4,08
AKT sektori qo‘shilgan qiymati ulushi, YaIMda %	1,55	1,61	1,85	2,17	2,43

Jadvaldan ko‘rinadiki, raqamli iqtisodiyotga oid ko‘rsatkichlar makroiqtisodiy tiklanish davrida muntazam o‘sish tendensiyasini ko‘rsatgan. Internetga ulangan abonentlar soni 2020-yildagi 26,4 milliondan 2024-yilda 38,4 millionga yetgan. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijoratning YaIMdagi ulushi 2020-yildagi 1,82 foizdan 2024-yilda 4,08 foizgacha oshgan. AKT sektorining YaIMdagi ulushi ham 1,55 foizdan 2,43 foizgacha ko‘tarilgan. Bu holat raqamli texnologiyalar iqtisodiyot tarkibida alohida qo‘shilgan

qiymat yaratuvchi sohaga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Raqamli texnologiyalarning inflyatsiyaga ta’siri bevosita va bilvosita kanallar orqali yuzaga chiqadi. Bevosita ta’sir elektron savdo, raqamli logistika va narxlarni onlayn taqqoslash imkoniyatlari orqali raqobatni kuchaytiradi. Bilvosita ta’sir esa pul-kredit siyosati uzatish mexanizmlarining tezlashuvi, bank operatsiyalarining shaffoflashuvi va to‘lovlar monitoringi orqali ko‘rinadi. Raqamli to‘lovlar kengayishi pul aylanishining hisobga olinadigan qismini oshiradi, bu esa monetar tahlil sifatini yaxshilaydi.

Bandlik bo‘yicha raqamli texnologiyalar ikki xil ta’sirga ega. Birinchidan, IT xizmatlari, elektron tijorat, onlayn ta’lim, raqamli marketing, platforma xizmatlari va masofaviy ish shakllari yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Ikkinchidan, avtomatlashtirish ayrim an’anaviy ish o‘rinlarini qisqartirishi mumkin. Shu sababli O‘zbekiston uchun raqamli bandlik siyosati faqat texnologiyani joriy etish bilan cheklanmasdan, qayta tayyorlash, raqamli savodxonlik, kasbiy ta’lim va ayollar hamda yoshlarni raqamli mehnat bozoriga jalb qilish choralari bilan uyg‘unlashishi zarur.

Fiskal barqarorlik nuqtayi nazaridan elektron hukumat va raqamli soliq ma’murchiligi davlat byudjeti tushumlarini kengaytirish, yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish va davlat xarajatlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, davlat xaridlari platformalari va subsidiyalarni raqamli monitoring qilish tizimlari budjet intizomini kuchaytiradi. Bunday mexanizmlar soliq bazasini kengaytirgan holda soliq stavkalarini keskin oshirmasdan fiskal barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Pul-kredit barqarorligi nuqtayi nazaridan tezkor to‘lovlar va mobil banking aholi va biznesning bank tizimiga jalb etilishini kengaytiradi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda muomalaga chiqarilgan bank kartalari soni 61,996 million donaga, POS-terminallar soni 426,225 donaga, bankomat va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish kiosklari soni 29,909 donaga yetgan. POS-terminallar orqali 2024-yilda amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 326,735 trillion so‘mni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar naqd pulsiz to‘lovlar infratuzilmasi makroiqtisodiy monitoring va monetar boshqaruv uchun muhim axborot bazasiga aylanayotganini ko‘rsatadi.

XALQARO TAJRIBA: Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar makroiqtisodiy barqarorlikka eng kuchli ta’sirni davlat boshqaruvi, moliya sektori, soliq ma’murchiligi va innovatsion tadbirkorlik bilan integratsiyalashganda beradi. Masalan, Estoniya elektron hukumat va raqamli identifikatsiya tizimi orqali davlat xizmatlari xarajatlarini kamaytirgan, biznes yuritish jarayonlarini soddalashtirgan va fuqarolar bilan davlat o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvini tezlashtirgan. Singapur esa raqamli moliya, smart-government va innovatsion platformalar orqali moliyaviy xizmatlar eksporti va investitsion jozibadorlikni oshirishga erishgan.

Janubiy Koreya tajribasi raqamli infratuzilma va sanoat siyosati uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Yuqori tezlikdagi internet, elektron hukumat, raqamli ta’lim va texnologik klasterlar iqtisodiyotda innovatsion o‘sish manbalarini kengaytirgan. Xitoy tajribasida

esa raqamli to‘lovlar, platforma iqtisodiyoti va elektron savdo katta ichki bozor bilan birlashib, transaksion xarajatlarni keskin kamaytirgan. Yevropa Ittifoqi tajribasi esa raqamli bozorni rivojlantirish bilan birga ma’lumotlar himoyasi, raqobat siyosati va kiberxavfsizlikni qat’iy tartibga solish zarurligini ko‘rsatadi.

2-jadval. Raqamli texnologiyalar orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha xalqaro tajribalar

Mamlakat	Asosiy yo‘nalish	Makroiqtisodiy ta’sir	O‘zbekiston uchun saboq
Estoniya	Elektron hukumat va raqamli ID	Davlat xarajatlari va byurokratik kechikishlar kamayadi	Yagona raqamli identifikatsiya va ma’lumot almashinuvi tizimini chuqurlashtirish
Singapur	Fintech va smart-government	Investitsion muhit va moliyaviy xizmatlar samaradorligi oshadi	Raqamli moliya hamda regulyator “sandbox” mexanizmlarini rivojlantirish
Janubiy Koreya	Raqamli infratuzilma va innovatsion sanoat	Texnologik eksport va yuqori qo‘shilgan qiymatli bandlik ortadi	IT klasterlar va universitet–biznes integratsiyasini kuchaytirish
Xitoy	Elektron savdo va mobil to‘lovlar	Ichki talab, kichik biznes savdosi va transaksion tezlik oshadi	Mahalliy platformalarni raqobat va xavfsizlik talablari asosida rivojlantirish
Yevropa Ittifoqi	Raqamli bozor va ma’lumotlarni himoya qilish	Iste’molchi ishonchi va barqaror raqamli raqobat shakllanadi	Kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi va antimonopoliya nazoratini kuchaytirish

O‘ZBEKISTON AMALIYOTI VA USTUVOR YO‘NALISHLAR: O‘zbekiston tajribasida raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri uchta asosiy yo‘nalishda ko‘rinadi. Birinchi yo‘nalish — raqamli infratuzilma va internetdan foydalanishning kengayishi. Internetga ulangan abonentlar sonining oshishi aholi va biznesning axborotga kirishini kengaytiradi, masofaviy xizmatlar, elektron savdo va raqamli moliyaviy operatsiyalar rivojiga sharoit yaratadi. Bu esa ichki bozor samaradorligi va raqobatni kuchaytiradi.

Ikkinchi yo‘nalish — raqamli xizmatlar eksporti va IT Park faoliyatining kengayishi. Milliy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, IT Park rezidentlari xizmatlari eksporti 2022-yilda 276,3 million AQSh dollaridan 2024-yilda 454,9 million AQSh dollarigacha oshgan. Bu tendensiya raqamli iqtisodiyot mamlakat tashqi savdo tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatli xizmatlar ulushini oshirish imkoniyatiga ega ekanini bildiradi. Raqamli xizmatlar eksporti valyuta tushumlarini ko‘paytirishi, malakali ish o‘rinlari yaratishi va iqtisodiyot diversifikatsiyasini kuchaytirishi mumkin.

Uchinchi yo‘nalish — elektron to‘lovlar va moliyaviy xizmatlarning ommalashuvi. Naqd pulsiz to‘lovlar ulushining ortishi iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini oshiradi, yashirin aylanmalarni qisqartiradi, soliq ma’murchiligi va monetar tahlil sifatini kuchaytiradi. Biroq bu jarayonda kiberxavfsizlik, firibgarlik, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va raqamli moliyaviy savodxonlik masalalari ham dolzarb bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston uchun raqamli texnologiyalarni makroiqtisodiy barqarorlik vositasiga aylantirishda bir necha ustuvor vazifalar mavjud. Birinchidan, raqamli infratuzilmani

hududlar kesimida teng rivojlantirish lozim. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot statistikasi, real vaqt rejimidagi ma’lumotlar bazasi va tahliliy platformalarni kuchaytirish kerak. Uchinchidan, fiskal va pul-kredit siyosatida katta ma’lumotlar, sun’iy intellekt va prognozlash modellaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. To‘rtinchidan, raqamli transformatsiya mehnat bozorida tarkibiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarayotganligi sababli kasbiy qayta tayyorlash va raqamli ko‘nikmalar siyosati makroiqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylanishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim strategik omil hisoblanadi. Ular iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish, inflyatsiyani tahlil qilish va boshqarish imkoniyatlarini yaxshilash, bandlikning yangi shakllarini yaratish, fiskal tushumlarni shaffoflashtirish va pul-kredit siyosati uzatish mexanizmlarini kuchaytirish orqali barqarorlikka xizmat qiladi. O‘zbekiston misolida 2020–2024-yillarda raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlarining o‘sishi makroiqtisodiy tiklanish va mehnat bozori barqarorlashuvi bilan bir davrga to‘g‘ri kelmoqda.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar o‘z-o‘zidan barqarorlikni kafolatlamaydi. Ularning ijobiy natijasi raqobat muhiti, huquqiy baza, ma’lumotlar xavfsizligi, raqamli savodxonlik, kiberxavfsizlik va institutsional salohiyat bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi makroiqtisodiy siyosat bilan uzviy bog‘lanishi zarur.

Maqola yakunida quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, raqamli iqtisodiyot va e-tijorat bo‘yicha rasmiy statistika qamrovini kengaytirish; ikkinchidan, elektron to‘lovlar va soliq ma’murchiligi integratsiyasini kuchaytirish; uchinchidan, IT xizmatlari eksportini hududlar kesimida rivojlantirish; to‘rtinchidan, raqamli mehnat bozori uchun kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish; beshinchidan, makroiqtisodiy prognozlashda katta ma’lumotlar va sun’iy intellektdan foydalanishni bosqichma-bosqich joriy etish. Ushbu chora-tadbirlar raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya, bandlik, fiskal va pul-kredit barqarorligiga ijobiy ta’sirini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. (2016). World Development Report 2016: Digital Dividends. Washington, DC: World Bank.
2. World Bank. (2026). World Development Indicators: Uzbekistan macroeconomic indicators. https://databank.worldbank.org/
3. OECD. (2024a). OECD Digital Economy Outlook 2024, Volume 1: Embracing the Technology Frontier. Paris: OECD Publishing.
4. OECD. (2024b). OECD Digital Economy Outlook 2024, Volume 2: Strengthening Connectivity, Innovation and Trust. Paris: OECD Publishing.
5. International Monetary Fund. (2024a). E-Money and Monetary Policy Transmission. IMF Working Paper No. 2024/069.

6. International Monetary Fund. (2024b). Global Financial Stability Report: Steadying the Course—Uncertainty, Artificial Intelligence, and Financial Stability. Washington, DC: IMF.
7. United Nations. (2024). United Nations E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development. New York: UN DESA.
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). SIAT: Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni. https://siat.stat.uz/
9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). SIAT: Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorining YaIMdagi ulushi. https://siat.stat.uz/
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). SIAT: AKT sektorida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi. https://siat.stat.uz/
11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). SIAT: IT Park rezidentlari xizmatlari eksporti hajmi. https://siat.stat.uz/
12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Payment system indicators as of 1 January 2025. https://cbu.uz/
13. IT Park Uzbekistan. (2024). Uzbekistan’s export geography expands to 78 countries: Q3 results. https://it-park.uz/
14. International Monetary Fund. (2024c). Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation. IMF Country Report.
15. Bank for International Settlements. (2024). Annual Economic Report 2024. Basel: BIS.

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI TA’MINLASHDA AKTIVLAR VA MAJBURIYATLARNI MUDDATLAR BO‘YICHA MUVOFIQLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Xolmatov Azizjon Avazxon o‘g‘li
Tashkent International University mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda tijorat banklari likvidligini ta’minlashda aktivlar va majburiyatlarni muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish mexanizmlari tadqiq etilgan. “Kapitalbank” ATBning 2022-2026-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida aktivlar, kreditlar va depozitlar dinamikasi hamda ularning o‘zaro nisbatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, muddatlar nomutanosibligini kamaytirish, pul oqimlarini prognozlash va likvidlik riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, likvidlik barqarorligi, aktivlar va majburiyatlar, muddatlar nomutanosibligi, GAP tahlili, depozitlar, likvidlik riski.*

Аннотация. В тезисе исследованы механизмы согласования активов и обязательств коммерческих банков по срокам в целях обеспечения ликвидности. На основе финансовых показателей АКБ «Капиталбанк» за 2022-2026 годы проанализированы динамика активов, кредитов и депозитов, а также их соотношения. По результатам исследования разработаны предложения по сокращению несоответствия сроков активов и обязательств, прогнозированию денежных потоков и совершенствованию механизмов управления риском ликвидности.

Ключевые слова: *коммерческие банки, устойчивость ликвидности, активы и обязательства, несоответствие сроков, GAP-анализ, депозиты, риск ликвидности.*

Abstract. This study examines mechanisms for aligning the maturities of assets and liabilities

to ensure commercial bank liquidity. Based on the financial indicators of Kapitalbank JSCB for 2022–2026, the study analyzes the dynamics of assets, loans, and deposits, as well as their relationships. The findings provide recommendations for reducing maturity mismatches, improving cash flow forecasting, and strengthening liquidity risk management mechanisms.

Keywords: *commercial banks, liquidity stability, assets and liabilities, maturity mismatch, GAP analysis, deposits, liquidity risk.*

Kirish. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda aktivlar va majburiyatlarni samarali boshqarish, ularning muddatlar bo‘yicha mutanosibligini saqlash hamda pul oqimlarini oqilona rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bank faoliyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, jalb etilgan moliyaviy resurslarning muayyan qismi qisqa muddatli majburiyatlar hisobiga shakllantirilgan holda, ushbu mablag‘lar o‘rta va uzoq muddatli kredit hamda investitsiya operatsiyalariga yo‘naltiriladi. Natijada aktivlar va majburiyatlarning qaytarilish muddatlari o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga kelib, bankning joriy va istiqboldagi likvidlik holatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, aktivlar va majburiyatlarni muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish tijorat banklarining to‘lov qobiliyatini saqlash, likvidlik risklarini cheklash hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.


O‘zbekistonda tijorat banklarining likvidlik riskini boshqarish, aktivlar va majburiyatlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan me’yoriy talablar takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2026-yil 8-iyuldagi 19/7-sonli qarori (ro‘yxat raqami 2709-9, 2026-yil 18-iyul) bilan kreditlarning depozitlarga nisbatini baholashga oid talablar takomillashtirilib, ushbu ko‘rsatkichning 80 foizdan yuqori bo‘lishi yoki oshib borishi bankning barqarorligi pastroq moliyalashtirish manbalariga bog‘liqligini bildiruvchi ehtimoliy xavf belgisi sifatida qayd etilgan[1]. Mazkur me’yoriy talablar tijorat banklarida aktivlar va majburiyatlarning muddatlar bo‘yicha muvofiqligini baholash, qisqa va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari o‘rtasidagi nomutanosibliklarni aniqlash, pul oqimlarini prognozlash hamda likvidlik risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Tijorat banklarida aktivlar va majburiyatlarning muddatlar bo‘yicha nomutanosibligi, avvalo, jalb etilgan depozitlarning qaytarilish muddatlari bilan kredit va investitsiya portfelidan kelib tushadigan pul oqimlari o‘rtasidagi tafovutlarda namoyon bo‘ladi. Xususan, qisqa muddatli depozitlar hisobidan uzoq muddatli kreditlarning moliyalashtirilishi, yirik majburiyatlarning muayyan davrlarda jamlanishi hamda kreditlar bo‘yicha kutilayotgan tushumlarning kechikishi bankning likvidlikka bo‘lgan ehtiyojini oshirishi mumkin. Shuningdek, depozitlarning barqarorlik darajasi, kredit portfelining qaytuvchanligi, moliyalashtirish manbalarining konsentratsiyasi hamda foiz stavkalari o‘zgarishining pul oqimlariga ta’sirini kompleks hisobga olish aktivlar va majburiyatlarni boshqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi tijorat banklari aktivlari va majburiyatlarining muddatlar bo‘yicha tarkibiy xususiyatlarini o‘rganish, ularning o‘zaro nomutanosibligi likvidlik barqarorligiga ta’sirini baholash hamda pul oqimlarini prognozlash va barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tahlil va natijalar. Tijorat banklari likvidligini ta’minlashda aktivlar va majburiyatlarni muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish mexanizmlarini baholash

maqsadida “Kapitalbank” ATBning 2022-2026-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida bankning jami aktivlari, sof kreditlari, depozitlar hajmi, kreditlarning depozitlarga nisbati hamda muddatli depozitlarning jami depozitlardagi ulushi asosiy tahliliy indikatorlar sifatida tanlandi. Mazkur ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda baholash bank aktivlari va majburiyatlari tarkibidagi o‘zgarishlarni, kredit operatsiyalarining depozit resurslari bilan moliyalashtirilish darajasini hamda jalb etilgan mablag‘larning muddatli tarkibini o‘rganish imkonini beradi.

1-rasm ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2022–2026-yillar davomida bankning jami aktivlari barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2022-yilda bank aktivlari 28,91 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 41,87 trln so‘mga, 2024-yilda 47,36 trln so‘mga va 2025-yilda 57,56 trln so‘mga yetgan. 2026-yilga kelib mazkur ko‘rsatkich 58,23 trln so‘mni tashkil etgan. Natijada tahlil qilinayotgan davrda bank aktivlari qariyb 2,01 baravarga ko‘paygan. Aktivlar hajmining kengayishi bank moliyaviy faoliyati ko‘lamining ortganini ko‘rsatsa-da, ularni moliyalashtirish manbalari va qaytarilish muddatlari bilan muvofiqlashtirish zaruratini ham kuchaytiradi.



1-rasm. “Kapitalbank” ATB asosiy ko‘rsatkichlar dinamikasi hamda muddatli depozitlar ulushining o‘zgarishi (2022–2026-yillar)[2]

Bankning sof kredit portfeli dinamikasida ham sezilarli o‘sish kuzatilgan. Jumladan, 2022-yilda sof kreditlar 15,29 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 26,38 trln so‘mga, 2024-yilda 30,63 trln so‘mga va 2025-yilda 35,38 trln so‘mga yetgan. 2026-yilda ushbu ko‘rsatkich 36,61 trln so‘mni tashkil etgan. Shu bilan birga, jami depozitlar hajmi 2022-yildagi 24,22 trln so‘mdan 2026-yilda 44,92 trln so‘mga oshgan. Mazkur o‘zgarishlar kredit portfeli va depozit bazasi hajmining kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq kreditlar va depozitlar hajmining o‘sishi ularning qaytarilish muddatlari o‘zaro mutanosibligini kafolatlamaydi. Shu sababli kredit portfelining muddatlar bo‘yicha taqsimlanishini depozitlarning shartnomaviy va kutilayotgan qaytarilish muddatlari bilan birgalikda baholash zarur[3].

Olingan natijalar “Kapitalbank” ATBning aktivlari va depozit bazasi hajmi kengayib borayotganini, kreditlarning depozitlarga nisbati 2023-yildagi yuqori darajadan keyin pasayganini hamda muddatli depozitlarning umumiy depozitlar tarkibidagi ulushi ortganini ko‘rsatmoqda. Mazkur tendensiyalar bankning aktivlar va majburiyatlarini boshqarish imkoniyatlarini baholash uchun muhim axborot asosini yaratadi. Biroq ularning muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirilganlik darajasini

aniqlash uchun aktivlar va majburiyatlarni alohida vaqt oraliqlariga ajratgan holda tahlil qilish talab etiladi. Xususan, 1–7 kun, 8–30 kun, 31–90 kun, 91–180 kun, 181–365 kun va undan uzoq davrlar bo‘yicha kutilayotgan pul tushumlari hamda to‘lovlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash bankning likvidlikka bo‘lgan ehtiyojini chuqurroq baholash imkonini beradi[4].

Xususan, tijorat banklarida aktivlar va majburiyatlarni muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirishda muddatlar tafovuti (GAP) va yig‘ma tafovut (kumulyativ GAP) ko‘rsatkichlarini muntazam hisoblash, depozitlarning barqarorlik xususiyatlarini inobatga olgan holda pul oqimlarini prognozlash hamda qisqa va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari o‘rtasidagi maqbul mutanosiblikni ta’minlash ustuvor ahamiyatga ega. Shuningdek, aktivlar va majburiyatlarni boshqarish tizimida stress-testlash, likvidlik riskiga doir ichki limitlarni belgilash va aktivlar hamda majburiyatlarni boshqarish qo‘mitasi (ALCO) faoliyatini takomillashtirish banklarning ehtimoliy likvidlik xatarlariga bardoshliligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Tijorat banklarida aktivlar va majburiyatlarni muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirishda pul oqimlarini vaqt oraliqlari bo‘yicha prognozlash, GAP va kumulyativ GAP ko‘rsatkichlarini muntazam baholash, depozitlarning barqarorlik darajasini hisobga olish hamda uzoq muddatli aktivlarni barqaror moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, aktivlar va majburiyatlarni boshqarish tizimida stress-testlash mexanizmlarini rivojlantirish, likvidlik riskiga doir ichki limitlarni belgilash hamda LCR va NSFR ko‘rsatkichlari monitoringini kuchaytirish banklarning ehtimoliy moliyaviy xatarlarga bardoshliligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Tijorat banklarining likvidlik barqarorligini mustahkamlashda aktivlar va majburiyatlarning nafaqat miqdoriy mutanosibligini, balki ularning shartnomaviy va kutilayotgan qaytarilish muddatlarini kompleks baholash zarur. Aktivlar va majburiyatlarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, muddatlar nomutanosibligini cheklash va pul oqimlarini samarali muvofiqlashtirish banklarning to‘lov qobiliyatini mustahkamlash hamda uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Markaziy bankning 2026-yil 8-iyuldagi 19/7-son qarori — 47-bandning yangi tahriri.

2. “Kapitalbank” ATB ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

3. Basel Committee on Banking Supervision. (2008). *Principles for Sound Liquidity Risk Management and Supervision*. Bank for International Settlements, Basel. https://www.bis.org/publ/bcbs144.htm

3. Basel Committee on Banking Supervision. (2013). *Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and Liquidity Risk Monitoring Tools*. Bank for International Settlements, Basel. https://www.bis.org/publ/bcbs238.htm

4. Basel Committee on Banking Supervision. (2014). *Basel III: The Net Stable Funding Ratio*. Bank for International Settlements, Basel. https://www.bis.org/publ/bcbs295.htm

XORIJIY BANKLAR TAJRIBASI ASOSIDA O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH YO‘LLARI

Valiyev Doniyor Baxtiyor o‘g‘li
Toshkent xalqaro universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida xizmat sifati holati xorijiy tajriba bilan qiyoslab tahlil qilingan. 2026-yil 1-avgust holatiga davlat ulushli banklar aktivlarning 62 foizini nazorat qiladi, II chorakda Markaziy bankka 11 331 ta murojaat tushgan. Buyuk Britaniya va Singapur banklari amaliyoti asosida sifatni mustaqil o‘lchash, shikoyatlarning ildiz sabablarini bartaraf etish hamda raqamli mijoz yo‘lini qayta loyihalash bo‘yicha uchta amaliy taklif ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: bank xizmatlari sifati, tijorat banklari, xorijiy tajriba, SERVQUAL, SERVPERF, E-S-QUAL, mijozlar qoniqishi, NPS, murojaatlar indeksi, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, Consumer Duty, raqamli bank, mijoz yo‘li, moliyaviy inklyuzivlik, davlat ulushli banklar, bank raqobati, bank nazorati, Markaziy bank.

Bank xizmatlari sifati mijozni ushlab qolish va moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirishning asosiy omiliga aylandi. Global Findex 2025 ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda kattalarning 79 foizi, past va o‘rta daromadli mamlakatlarda 75 foizi hisobvaraqqa ega (Klapper et al., 2025). O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 2017-yildagi 34 foizdan 2024-yilda 56 foizga yetgan, biroq so‘nggi 12 oyda raqamli to‘lovni kattalarning 34 foizigina amalga oshirgan (Umarova, 2025). Demak, qamrov kengaymoqda, lekin jahon o‘rtachasidan 23 foiz punkt past, xizmatdan foydalanish chuqurligi esa undan ham orqada.

Milliy darajada muammo bank tizimi tuzilmasi bilan bog‘liq. 2026-yil 1-avgust holatiga 34 ta bankdan davlat ulushli banklar aktivlarning 62 foizini, kreditlarning 65,5 foizini nazorat qiladi (Umarov, 2026). 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi xizmatlar sifati va ommabopligini oshirishni ustuvor vazifa etib belgilagan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2020).

Adabiyotlar sharhi va o‘rganilganlik darajasi. Xizmat sifati nazariyasi Grönroos (1984) ning texnik va funksional sifat modelidan boshlanadi. Parasuraman va boshq. (1988) sifatni kutilma va idrok o‘rtasidagi farq sifatida besh o‘lchovli SERVQUAL shkalasida o‘lchashni taklif etgan. Cronin va Taylor (1992) faqat idrokka asoslangan SERVPERF modelini ilgari surgan. Bahia va Nantel (2000) banklar uchun olti o‘lchovli BSQ shkalasini, Parasuraman va boshq. (2005) elektron kanallar uchun E-S-QUAL ni ishlab chiqqan. Levesque va McDougall (1996) chakana bankda muammoni hal etish sifati mijoz qoniqishiga kuchli ta’sir qilishini ko‘rsatgan; Reichheld (2003) tavsiya qilish ehtimoliga asoslangan NPS ko‘rsatkichini taklif qilgan. Mahalliy olimlardan Abdullayeva (2017) hamda Omonov va Qoraliyev (2012) bank xizmatlarining mazmuni va tasnifini yoritgan. Biroq milliy adabiyotda sifat asosan xizmat turi va hajmi orqali tavsiflanadi; mijoz idrokiga asoslangan o‘lchov va uni oshkor qilish mexanizmi yetarli o‘rganilmagan.

Ilmiy muammo. O‘zbekistonda bank xizmati sifati hozircha faqat regulyatorga tushgan shikoyatlar orqali, ya’ni salbiy va kechikkan ko‘rsatkich bilan

o‘lchanadi. Mijoz idrokiga asoslangan, banklararo taqqoslanadigan mustaqil o‘lchov mavjud emas.

Maqsad va ilmiy yangilik. Tadqiqot maqsadi — xorijiy tajriba asosida O‘zbekiston tijorat banklarida xizmat sifatini oshirishning ilmiy asoslangan yo‘llarini ishlab chiqish. Ilmiy yangiligi — shikoyat indeksi va idrokka asoslangan reytingni ikki bosqichli yagona baholash tizimiga birlashtirish taklifi.

Tadqiqot ikkilamchi ma’lumotlarga asoslangan. Qiyosiy tahlil yordamida Buyuk Britaniya, Singapur va O‘zbekistonda sifatni o‘lchash, oshkor qilish va tartibga solish amaliyoti to‘rt mezon bo‘yicha solishtirildi. Iqtisodiy-statistik tahlilda Markaziy bankning 2025–2026-yillardagi bank tizimi ko‘rsatkichlari hamda 2026-yil I–II chorak murojaatlar indeksi guruhlash, nisbiy ko‘rsatkichlar, o‘rtacha qiymat va dinamika usullari bilan o‘rganildi. Indeks bankning murojaatlardagi ulushini mijozlardagi ulushiga bo‘lish orqali hisoblanadi; 1 dan yuqori qiymat nomutanosib ko‘p murojaatni bildiradi (Spot, 2026c). Cheklov: indeks faqat eng yuqori o‘nta bank bo‘yicha e’lon qilingan, shu sababli to‘liq tanlanma bo‘yicha korrelyatsion tahlil o‘tkazilmadi.


Tuzilma va raqobat. Bank tizimi aktivlari bir yilda 19,3 foizga o‘sib, 1 016,6 trln so‘mga yetdi, moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari yaxshilandi (1-jadval).

Ko‘rsatkich	**01.08.2025**	**01.08.2026**
Tijorat banklari soni	36	34
Kapital yetarliligi, %	17,5	18,4
Kapital rentabelligi (ROE), %	10,43	14,83
Kredit/depozit nisbati, %	159,9	133,6
Chet el valyutasidagi depozitlar ulushi, %	24,1	19,2

1-jadval. Bank tizimining asosiy ko‘rsatkichlari. Manba: Markaziy bank ma’lumotlari (Umarov, 2026).

Biroq tuzilma konsentratsiyalashgan. Davlat ulushli banklar aktivlarning 62 foizini, kreditlarning 65,5 foizini, depozitlarning 51,4 foizini egallaydi; depozitlarning 76,1 foizi Toshkent shahriga to‘g‘ri keladi (Umarov, 2026). Bunday sharoitda sifat bo‘yicha raqobat bosimi zaif, hududlarda xizmatdan foydalanish imkoniyati notekis.

Murojaatlar tahlili. Markaziy bank 2026-yilda ilk bor murojaatlar indeksini e’lon qildi. Regulyator call-markazi kontakt-markazga aylantirilgach, murojaatlar soni qariyb olti baravar oshgan; demak, avval noroziliklarning katta qismi qayd etilmagan (Spot, 2026a). II chorakda banklar faoliyati yuzasidan 11 331 ta murojaat tushgan (Spot, 2026c).



1-rasm. Murojaatlar indeksi eng yuqori 10 ta bank, 2026-yil II chorak (Top-10 o‘rtachasi — 2,07). Manba: Markaziy bank ma’lumotlari (Spot, 2026c).

O‘nlikdagi barcha banklarda indeks 1 dan yuqori. Chorak ichida AVO Bank indeksi 2,16 dan ikki baravar oshgan, Anor Bankniki 3,29 dan 1,84 ga tushgan (Spot, 2026b, 2026c). Ro‘yxatda raqamli banklar (AVO, TBC, Anor) ham, davlat ulushli banklar (Biznesni rivojlantirish banki, Mikrokreditbank, Turonbank, Asakabank) ham bor. Regulyator asosiy sabab sifatida mahsulot bo‘yicha yetarli tushuntirish berilmasligi hamda masofaviy xizmat, to‘lov va kredit muammolarining o‘z vaqtida hal etilmasligini ko‘rsatgan.

Xorijiy tajriba. Uch mamlakat amaliyoti to‘rt mezon bo‘yicha farqlanadi (2-jadval).

Mezon	**Buyuk Britaniya**	**Singapur (DBS Bank)**	**O‘zbekiston**
Sifatni o‘lchash	Mustaqil so‘rov: har bank bo‘yicha qariyb 1 000 mijoz	Ichki o‘lchov: mijoz yo‘li ko‘rsatkichlari	Regulyatorga tushgan murojaatlar indeksi
Oshkor qilish	Yiliga ikki marta; bank natijani filial, sayt va ilovada ko‘rsatishi shart	Bank hisobotlarida	Har chorakda, faqat eng yuqori 10 bank
Me’yoriy standart	Consumer Duty (2023): mijoz uchun yaxshi natija	Mijozga adolatli munosabat bo‘yicha regulyator yo‘riqnomasi	3030-son minimal talablar (2018), 2026-yilda kuchaytirilgan
Shikoyat bilan ishlash	Ildiz sabab tahlili, moliyaviy ombudsman	Jarayonni boshidan oxirigacha qayta loyihalash	Tizimli kamchilikni bartaraf etish majburiyati (2026)

2-jadval. Xizmat sifatini boshqarish amaliyotining qiyosiy tahlili. Manba: CMA (2017), FCA (2022), Sia et al. (2021), Spot (2026d) asosida muallif ishlanmasi.

Buyuk Britaniyaning 2026-yil fevral natijalarida raqamli banklar yetakchi: Monzo mijozlarining 82 foizi, Starling Bank mijozlarining 77 foizi o‘z bankini tavsiya qiladi; an’anaviy Lloyds Bank 64 foiz bilan oltinchi o‘rinda (Lloyds Bank, 2026).

Natijalar uchta ilmiy asoslangan yondashuvni ko‘rsatadi.

Birinchidan, shikoyat indeksi zarur, lekin yetarli emas. U faqat regulyatorgacha yetib kelgan noroziliklarni qamraydi va sifatning salbiy qutbini aks ettiradi. SERVPERF mantig‘iga ko‘ra, sifat mijoz idroki orqali o‘lchanishi kerak (Cronin & Taylor, 1992). Britaniya tajribasida idrokka asoslangan reytingni majburiy oshkor qilish banklarni sifat bo‘yicha raqobatga undash vositasi sifatida joriy etilgan (CMA, 2017).

Ikkinchidan, raqamlashtirishning o‘zi sifatni kafolatlamaydi. Britaniyada raqamli banklar sifat reytingi boshida, O‘zbekistonda esa murojaatlar indeksi yuqori banklar qatorida. Ko‘rsatkichlar turlicha bo‘lgani uchun bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslash emas. Ammo farq quyidagi farazni asoslaydi: tez o‘sayotgan raqamli banklarda E-S-QUAL modelining tiklash o‘lchovlari — javobgarlik, kompensatsiya va aloqa (Parasuraman et al., 2005) — mijozlar bazasi o‘sishidan ortda qolmoqda. DBS Bank tajribasi yechim texnologiyada emas, mijoz yo‘lini boshidan oxirigacha qayta loyihalashda ekanini ko‘rsatadi (Sia et al., 2021).

Uchinchidan, tartibga solish qoidaga rioya qilishdan natijaga o‘tishi kerak. Consumer Duty banklardan mijoz uchun yaxshi natijaga erishilganini isbotlashni talab qiladi (FCA, 2022). Markaziy bankning 2026-yilgi o‘zgartirishlari — tizimli kamchilik tushunchasi, choraklik tahlil va boshqaruv mas’uliyati (Spot, 2026d) — shu yo‘nalishdagi dastlabki qadam.

Amaliy ahamiyat. Taklif etilayotgan yondashuv Markaziy bankka nazoratni natijaga yo‘naltirish, banklarga sifatni boshqaruv ko‘rsatkichlariga bog‘lash, mijozlarga esa bank tanlashda taqqoslanadigan ma’lumot olish imkonini beradi. Davlat ulushli banklarni xususiylashtirishda sifat reytingi investor uchun qo‘shimcha baholash mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston bank tizimi moliyaviy jihatdan mustahkamlanmoqda, biroq xizmat sifati faqat shikoyatlar orqali, bir tomonlama o‘lchanadi. Xorijiy tajriba asosida uchta amaliy taklif ilgari suriladi.

1. **Mustaqil sifat so‘rovi va to‘liq reyting.** Markaziy bank buyurtmasi asosida mustaqil tashkilot yiliga ikki marta har bir bank mijozlari orasida tavsiya qilish ko‘rsatkichini umumiy xizmat, mobil ilova, filial va kredit yo‘nalishlarida o‘lchashi lozim. Natijalar barcha banklar bo‘yicha e’lon qilinishi, banklar esa ularni filial, sayt va ilovada ko‘rsatishi shart bo‘lishi kerak.

2. **Shikoyatlar bo‘yicha ochiq hisobot standarti.** Har bir bank chorakda murojaatlar soni, o‘rtacha hal etish muddati, takroriy murojaatlar ulushi va ildiz sabablar bo‘yicha ko‘rilgan choralarni yagona shaklda e’lon qilishi zarur. Murojaatlar indeksi 2 dan yuqori bo‘lgan banklar uchun boshqaruv tasdiqlagan tuzatish rejasi majburiy etilishi maqsadga muvofiq.

3. **Mijoz yo‘lini qayta loyihalash va rahbariyat KPIlari.** Banklar eng ko‘p shikoyat keltiruvchi uch jarayonni — masofaviy xizmat, to‘lov va kreditni — boshidan oxirigacha qayta loyihalashi, boshqaruv a’zolari mukofotining bir qismini sifat reytingi va takroriy murojaatlar ulushiga bog‘lashi kerak.

Barcha banklar bo‘yicha indeks e’lon qilingach, kelgusi tadqiqotlarda uning rentabellik va mijozlar oqimi bilan bog‘liqligini ekonometrik baholash mumkin bo‘ladi.

TASHQI SHOKLAR SHAROITIDA O‘ZBEKISTON FISKAL SIYOSATINING BARQARORLASHTIRUVCHI TA’SIRINI BAHOLASH

Qarshiyev Nodirbek Olim o‘g‘li
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Tezisda pandemiya, tashqi savdo va pul o‘tkazmalari, xomashyo narxlari hamda moliyalashtirish sharoitidagi o‘zgarishlar fonida O‘zbekiston fiskal siyosatining barqarorlashtiruvchi imkoniyati tahlil qilinadi. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) e’lon qilgan ko‘rsatkichlar asosida 2020-yilgi inqiroz choralari va 2023–2025-yillarda o‘sish hamda budjet saldosi dinamikasi solishtiriladi. 2020-yildagi inqirozga qarshi choralar taxminan YAIMning 4 foiziga teng bo‘lgan; 2023–2025-yillarda esa taqchillikning qisqarishi ijobiy tashqi tushumlar bilan ham birga kechgan. Kuzatilgan natijalar fiskal siyosatning sababiy samarasi sifatida talqin qilinmaydi. Shok turi, vaqtinchalik qo‘llab-quvvatlash, avtomatik stabilizatorlar, fiskal zaxira va davlat korxonalari xatarlarini birlashtirgan baholash mezonlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: tashqi shok, fiskal siyosat, barqarorlashtirish, budjet taqchilligi, pul o‘tkazmalari, xomashyo narxi.

KIRISH

Ochiq iqtisodiyotda tashqi talabning pasayishi, eksport narxlarining o‘zgarishi, transchegaraviy pul o‘tkazmalari va global moliyalashtirish qiymati davlat budjeti hamda aholi daromadlariga turli kanallar orqali ta’sir qiladi. Shu sababli bir xil hajmdagi xarajat chorasi har qanday shok uchun mos kelmaydi. Ijobiy xomashyo tushumini doimiy majburiyatga aylantirish keyingi salbiy shokda fiskal imkoniyatni qisqartiradi; vaqtinchalik salbiy shokda esa manzilli yordam talabning keskin pasayishini yumshatishi mumkin [2; 4].

Tadqiqot savoli: tashqi shokning tabiati va fiskal imkoniyatni hisobga olgan holda O‘zbekiston budjet siyosatining barqarorlashtiruvchi rolini qanday baholash kerak? Maqsad — rasmiy manbalardagi kuzatilgan dalillarni tahlil qilish va kelgusi empirik o‘lchash uchun tekshiriladigan mezonlarni ishlab chiqish. Bu qisqa tezisda sababiy fiskal multiplikator hisoblanmaydi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Manbalar: Jahon bankining 2020-yilgi inqirozga qarshi moliyalashtirish xabari va O‘zbekiston davlat xarajatlari tahlili, XVJning 2025 va 2026-yilgi IV modda materiallari [1–5]. Ma’lumotlar turli sanalarda yangilangani uchun 2020-yildagi siyosat hajmi 2023–2025-yillardagi saldo qatori bilan yagona statistik qator deb qabul qilinmaydi. Usullar: shoklarni uzatish kanallari bo‘yicha tasniflash, davrlararo tavsifiy solishtirish va indikatorlar matritsasi.

Barqarorlashtiruvchi siyosatni baholashda to‘rtta savol ketma-ket qo‘yiladi. Birinchisi, shok ijobiymi yoki salbiy va vaqtinchami yoki uzoq muddatlimi? Ikkinchisi, qaysi kanal — eksport, pul o‘tkazmasi, import narxi yoki tashqi qarz — ustun? Uchinchisi, avtomatik budjet javobi va yangi diskretsion choralar alohida hisoblanganmi? To‘rtinchisi, yordamning muddatliligi, maqsadliligi va qarz barqarorligiga mosligi tekshirilganmi?

Natija indikatorlari ikki guruhga ajratiladi: iqtisodiy faollik va aholi farovonligi uchun real YAIM, bandlik, kambag‘allik, iste’mol; fiskal holat uchun umumiy va

siklik tuzatilgan birlamchi saldo, qarzga xizmat ko‘rsatish, zaxira hamda shartli majburiyatlar. Kuzatilgan budjet taqchilligi shokni ham, siyosat qarorini ham aks ettirgani sababli uni yagona “samaradorlik” mezoni sifatida ishlatish xato bo‘ladi.

1-jadval. Tashqi shoklar va fiskal javobning dastlabki mosligi

Shok	Asosiy uzatish kanali	Fiskal yondashuv
Tashqi talab pasayishi	Eksport va ish o‘rinlari	Muddatli manzilli yordam; avtomatik stabilizatorlar
Xomashyo narxi oshishi	Eksport va budjet tushumi	Favqulodda tushumning doimiy qismini ajratish, zaxira
Import narxi oshishi	Inflyatsiya va real daromad	Keng subsidiya o‘rniga zaif qatlamga aniq yordam
Tashqi moliya qimmatlashishi	Qarz va investitsiya	Loyihalarni saralash, qarz xatarini stress sinovi

Jadval muallifning tahliliy tasnifi bo‘lib, choralarning O‘zbekistonda qo‘llangan aniq hajmini bildirmaydi. Empirik tekshiruvda har bir shok uchun boshlanish sanasi, ekspozitsiya va fiskal qarorlarning e’lon qilinish va ijro sanasi alohida kodlanishi kerak.

NATIJALAR

Pandemiya tashqi va ichki cheklovlar qo‘shilgan keskin salbiy shok bo‘lgan. Jahon banki tahliliga ko‘ra O‘zbekistonda inqirozga qarshi fiskal choralar 2020-yilda YAIMning qariyb 4 foizi, 2021-yilda esa 0,5 foizi miqyosida bo‘lgan [2]. Bankning alohida xabarida sog‘liqni saqlash va ijtimoiy-iqtisodiy javob uchun 200 mln AQSH dollari qo‘shimcha moliyalashtirish tasdiqlangani qayd etilgan [1]. Bular javob mavjudligini ko‘rsatadi, biroq choralarsiz YAIM qanday bo‘lishini o‘lchamaydi.

Keyingi davrda tashqi fon bir yo‘nalishda bo‘lmagan. XVJ 2024-yilda pul o‘tkazmalari, oltin narxi va nooltin eksport ijobiy rol o‘ynaganini, ayni vaqtda savdo siyosati, geosiyosiy va moliyalashtirish xatarlari saqlanganini bildirgan [3; 4]. Shu bois yuqori o‘sishning barchasini fiskal kengayishga, taqchillik qisqarishining barchasini esa diskretsion tejamkorlikka bog‘lash mumkin emas.

2-jadval. O‘sish va konsolidatsiyalashgan budjet saldosi

Ko‘rsatkich	2023	2024	2025
Real YAIM o‘sishi, %	6,3	6,7	7,7
Konsolidatsiyalashgan budjet saldosi, YAIMga nisbatan %	−4,6	−3,0	−2,1

Manba: XVJning 2026-yilgi IV modda hisoboti, 2023–2025-yillar asosiy ko‘rsatkichlari [5]. 2025-yilga oid bahoni ayni hisobotdagi taqdim etilgan qator sifatida ishlatdik; keyingi qayta ko‘rib chiqishlar ehtimoli bor.

Uch yil ichida o‘sish 1,4 foiz punktga tezlashgan, kuzatilgan taqchillik esa YAIMga nisbatan 2,5 foiz punktga qisqargan. Bu birgalikdagi tendensiya tashqi ijobiy omillar va ichki siyosat aralashmasini ifodalaydi. Fiskal barqarorlashtirishning sof ulushini aniqlash uchun budjet tushumidagi oltin narxi ta’siri, avtomatik soliqlar, foiz xarajatlari, subsidiyalar va davlat korxonalari bilan bog‘liq operatsiyalar ajratilishi lozim.

MUHOKAMA

Salbiy shokda budjetning daromad yo‘qotishi avtomatik ravishda taqchillikni oshirishi mumkin. Taqchillikni yil ichida keskin qisqartirish talabni qo‘shimcha pasaytirishi ehtimoli bor; shu bilan birga, qarz va importga bog‘liqlik katta bo‘lsa, cheklanmagan rag‘batlantirish xavf tug‘diradi. Shuning uchun qo‘llab-quvvatlash hajmi shokning davomiyligi va fiskal imkoniyatga bog‘lanadi. Ijobiy eksport tushumi paytida esa vaqtinchalik tushumni doimiy joriy xarajatlarga to‘liq yo‘naltirmaslik barqarorlikni kuchaytiradi [4; 5].

O‘zbekiston uchun alohida masala — davlat korxonalari, banklar va davlat-xususiy sherikliklar bo‘yicha shartli majburiyatlar. XVJ tashqi shoklarga qo‘shimcha ravishda bu xatarlarni fiskal istiqbolning muhim omillari sifatida qayd etgan [4; 5]. Joriy yildagi past taqchillik kelajakda budjet zimmasiga o‘tishi mumkin bo‘lgan majburiyatlarni avtomatik bartaraf etmaydi. Stress ssenariylariga almashuv kursi, eksport narxi va foiz stavkasi birga kiritilishi kerak.

Barqarorlashtiruvchi ta’sirni kelgusida identifikatsiya qilish uchun choraklik mahalliy proyeksiya yoki strukturaviy VAR qo‘llanishi mumkin. Shok o‘zgaruvchilari sifatida tashqi talab indeksi, oltinning jahon narxi, hamkor mamlakatlar faolligi va global moliyaviy sharoit olinadi; fiskal javob budjet xarajatlari, soliqlar va siklik tuzatilgan birlamchi saldo bilan ajratiladi. Natija YAIM hamda zaif guruhlar iste’moli bo‘yicha turli ufqlarda baholanadi.

Bunda tashqi o‘zgaruvchi “ekzogen” deb mexanik qabul qilinmaydi: masalan, oltin narxi eksport tushumi va budjet daromadiga bir vaqtda ta’sir qilishi mumkin. Xarajatlarning qaror sanasi bilan real ijro sanasi farqi va 2020-yilgi pandemiyaning noyobligi modelni talqin qilishni cheklaydi. Mustahkamlik uchun pandemiya yili alohida, oltin narxlari uchun muqobil o‘lchovlar hamda ma’lumotlarning keyingi versiyalari sinovdan o‘tkaziladi.

Shu mezonlar bo‘yicha hozirgi tavsifiy ma’lumot fiskal siyosat salbiy va ijobiy shoklar fonida moslashganini ko‘rsatadi, ammo uning YAIMni aynan nechaga barqarorlashtirgani yoki choralarsiz natijadan farqini bermaydi. “Barqarorlashtiruvchi ta’sir” atamasi ushbu tezisda tekshiriladigan gipoteza va institutsional imkoniyat ma’nosida ishlatiladi.

XULOSA

Pandemiya davridagi inqirozga qarshi choralar davlatning salbiy shokka fiskal javob berganini ko‘rsatadi. 2023–2025-yillarda o‘sish tezlashib, budjet taqchilligi qisqargan; bu holat o‘sha davrdagi qulay tashqi tushumlar bilan ham bog‘liq. Mazkur dalillar kuzatilgan moslashuvni ifodalaydi, fiskal choralar sababiy samarasi yoki multiplikatorini emas.

Taklif etilgan baholash tartibi shokni manbasi va davomiyligi bo‘yicha ajratishni, avtomatik hamda diskretsion javoblarni farqlashni, choralar vaqtinchalikligi va manzilliligini tekshirishni, qarz hamda shartli majburiyatlarni stress sinoviga kiritishni nazarda tutadi. Aniq barqarorlashtiruvchi ta’sir bo‘yicha xulosa uchun choraklik ma’lumot va muqobil kontrfaktual model talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. Uzbekistan’s COVID-19 Response Gets Additional Financial Boost from World Bank. 30 April 2020.
https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2020/04/30/uzbekistans-

covid-19-response-gets-additional-financial-boost-from-world-bank
2. World Bank. Uzbekistan Public Expenditure Review: Fiscal response to COVID-19. https://documents1.worldbank.org/curated/en/099143503032342898/pdf/P173140b7033d022087b409217648dc35e.pdf
3. IMF. Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the 2025 Article IV Mission. 23 April 2025. https://www.imf.org/en/news/articles/2025/04/23/mcs-042325-uzbekistan-staff-concluding-statement-of-the-2025-article-iv-mission
4. IMF. Republic of Uzbekistan: 2025 Article IV Consultation, Staff Report. Country Report 25/143. https://www.imf.org/en/publications/cr/issues/2025/06/23/republic-of-uzbekistan-2025-article-iv-consultation-press-release-and-staff-report-567977
5. IMF. IMF Executive Board Concludes 2026 Article IV Consultation with the Republic of Uzbekistan. 18 June 2026. https://www.imf.org/en/news/articles/2026/06/18/pr-26214-uzbekistan-imf-executive-board-concludes-2026-article-iv-consultation

КЎЧМАС МУЛК СОЛИҒИДА БОЗОР ҚИЙМАТИГА ЎТИШ ДАВРИДА АҲОЛИНИ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Султанов Дилшод Шухратович
Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат сиёсати ва бошқаруви академияси мустақил изланувчиси
https://orcid.org/0009-0005-2284-6845

Аннотация. Тезисда кўчмас мулк солиғи базасини бозор қийматига яқинлаштириш натижасида айрим аҳоли қатламлари учун солиқ юкининг кескин ошиши хавфи, хориж мамлакатларида қўлланиладиган солиқ юкини чеклаш механизмлари таҳлил қилинган ҳамда Ўзбекистонда фискал нейтраллик ва манзилли ижтимоий ҳимояга асосланган ўтиш механизми таклиф этилган.

Таянч сўзлар: солиқ юки, фискал нейтраллик, манзилли имтиёзлар.

Кўчмас мулк солиғи базасини бозор қийматига яқинлаштириш солиққа тортишнинг адолатлилигини оширади, бироқ айрим аҳоли қатламлари учун солиқ юкининг кескин ортиши хавфини туғдиради. Уй-жой қиймати ошиши мумкин, лекин эгасининг жорий даромади ошмаслиги мумкин. Мазкур ҳолат, айниқса, пенсионерлар, ногиронлиги бўлган

шахслар ва кам даромадли оилаларда «активи бор, лекин жорий даромади паст» муаммосини келтириб чиқаради (Langley & Youngman, 2021).

Ушбу хавф назарий жиҳатдан ҳам асосланган. Анъанавий ёндашувга кўра, мулк солиғи даромадга нисбатан регрессив хусусиятга эга бўлиши мумкин, чунки кам даромадли оилалар даромадининг катта қисмини уй-жой харажатларига сарфлайди (Zodrow, 2001). Солиқ базаси бозор қийматига яқинлаштирилганда эса бу таъсир, айниқса, кўчмас мулк нархлари тез ўсаётган ҳудудларда ва пенсия ёки нафақа ҳисобига яшаётган оилаларда кучаяди. Шу сабабли баҳолаш ислоҳоти натижасида солиқ юкини объектлар қийматига мутаносиб тақсимлаш мақсади ижтимоий ҳимоя мақсади билан мувозанатлаштирилиши лозим.

АҚШда ушбу муаммони ҳал этиш учун «circuit breaker» механизми кенг қўлланилади: мол-мулк солиғи уй хўжалиги даромадининг белгиланган улушидан ошганда ортиқча қисм солиқ кредити, қайтариш ёки тўловни кечиктириш шаклида қопланади. Мазкур механизм мол-мулк солиғининг регрессив таъсирини юмшатади ва кекса ёшдаги аҳолини уйини сотишга мажбур бўлишдан ҳимоя қилади, бироқ қўшимча бюджет харажатларини ва даромадни текшириш тизимини талаб этади (Bowman et al., 2009). Россия Федерациясида жисмоний шахслар учун солиқсиз майдон чегирмаси ва солиқ суммасининг йиллик ўсишини 10 фоиз билан чеклаш механизми амал қилади.

Ўзбекистонда жисмоний шахслар учун 2018 йилда инвентаризация қийматидан кадастр қийматига ўтилганда солиқ мақсадидаги кўчмас мулк қиймати 46,5 трлн сўмдан 293,5 трлн сўмгача ошган. Солиқ юкининг кескин ўсишининг олдини олиш учун базавий ставка 1,7 фоиздан 0,2 фоизгача пасайтирилган ва 2018–2023 йилларда солиқ суммасининг йиллик ўсишини 1,2–1,3 баравар билан чекловчи механизм қўлланилган. Бу тажриба базани ўзгартириш ставкаларни қайта калибрлаш ва ўтиш механизмлари билан бирга амалга оширилиши лозимлигини тасдиқлайди.

Хориж тажрибаси баҳолаш ислоҳоти ижтимоий ҳимоя чоралари билан бир вақтда амалга оширилиши лозимлигини кўрсатади. Сўнгги

йилларда АҚШда уй-жой нархлари ва баҳоланган қийматларнинг кескин ошиши натижасида кўплаб штатлар асосий турар жой бўйича солиққа тортилмайдиган қиймат миқдорини оширган, кекса ёшдагилар учун енгилликларни кенгайтирган ва баҳоланган қийматнинг йиллик ўсишига чекловлар жорий этган (Langley & Youngman, 2021). Данияда 2024 йилдан жорий этилган автоматлаштирилган баҳолаш тизимида баҳолаш хатолари хавфини ҳисобга олиш учун ҳисобланган қийматга эҳтиёткорлик чегирмаси қўлланилади ва бозор қийматига ўтиш ставкаларни пасайтириш билан бирга амалга оширилган.

Бизнингча, оммавий баҳолашга ўтишда фискал нейтраллик тамойилини қўллаш зарур. Фискал нейтрал ставка $t^* = T_0 / \Sigma V_1$ формуласи бўйича ҳисобланади, бу ерда T_0 – ислоҳотдан олдинги солиқ суммаси, ΣV_1 – оммавий баҳолаш натижасида аниқланган объектлар қийматининг йиғиндиси. 2025 йилда жисмоний шахслар мол-мулк солиғи тушумлари 2 807,9 млрд сўмни, солиқ базаси 517 791,3 млрд сўмни ташкил этгани асосида амалдаги эффектив ставка тахминан 0,54 фоизга тенг. Агар бозор қиймати кадастр қийматидан икки баравар юқори бўлса, фискал нейтрал эффектив ставка 0,27 фоизгача пасайтирилиши, акс ҳолда аҳолидан ундириладиган солиқ бир йилда икки бараварга ошиши мумкин. Масалан, бозор қиймати кадастр қийматидан 1,5 баравар юқори бўлганда фискал нейтрал эффектив ставка 0,36 фоизни, 2,5 баравар юқори бўлганда 0,22 фоизни, 3 баравар юқори бўлганда эса 0,18 фоизни ташкил этади. Ставка ўзгаришсиз қолдирилганда эса ҳисобланадиган солиқ суммаси мос равишда 4 211,9 млрд, 7 019,8 млрд ва 8 423,7 млрд сўмгача ошиши мумкин. Бу рақамлар фискал нейтрал ёндашувсиз оммавий баҳолашни жорий этиш аҳоли учун солиқ юкининг кескин ўсишига ва солиқ қарздорлигининг кўпайишига олиб келиши мумкинлигини кўрсатади.

Фискал нейтрал ставка умумий тушумни ўзгартирмайди, бироқ солиқ юкини объектлар ўртасида уларнинг иқтисодий қийматига мутаносиб равишда қайта тақсимлайди. Шу сабабли индивидуал даражадаги кескин ўзгаришларни юмшатиш учун қуйидаги манзилли чоралар таклиф этилади:

ўтиш даврида муайян объект бўйича солиқ суммасининг йиллик ўсишини 20–30 фоиз билан чеклаш; асосий турар жой қийматининг муайян қисмини солиққа тортмаслик; пенсионерлар ва ногиронлиги бўлган шахслар учун асосий турар жой бўйича тўловни кечиктириш; кам таъминланган оилалар учун даромадга боғланган солиқ чегирмаси.

Бундай манзилли механизмлар тоифалар бўйича бериладиган умумий имтиёзларга нисбатан бюджет учун арзонроқ ва ижтимоий жиҳатдан адолатлироқ ҳисобланади. Уларни самарали жорий этиш учун солиқ органлари ва ижтимоий ҳимоя ягона реестри ўртасида ахборот алмашинувини йўлга қўйиш, баҳолаш натижалари устидан шикоят қилиш механизмини эса биринчи солиқ хабарномалари юборилишидан олдин шакллантириш лозим (Youngman, 2016).

Ижтимоий ҳимоя механизмлари бюджетга таъсир кўрсатиши ҳам эътиборга олиниши лозим. Тўловни кечиктириш механизми бюджет учун тушумни йўқотмайди, фақат уни вақт бўйича кечиктиради: кечиктирилган сумма кўчмас мулк сотилганда ёки мерос қилиб ўтказилганда тўланади. Даромадга боғланган чегирмалар эса маҳаллий бюджет даромадларини камайтириши мумкин, шу сабабли уларнинг харажатлари ҳар йили солиқ харажатлари ҳисоботида эълон қилиниши ва зарур ҳолларда юқори турувчи бюджетдан қисман қопланиши мақсадга мувофиқ (Bowman et al., 2009). Бундай шаффоф ёндашув ислоҳотга аҳоли ишончини оширади ва баҳолаш натижаларига нисбатан низолар сонини камайтиради.

Ўзбекистонда амалдаги мол-мулк солиғи имтиёзлари асосан солиқ тўловчилар тоифалари бўйича берилади ва солиқ тўловчининг ҳақиқий молиявий ҳолатини ҳисобга олмайди: юқори даромадли шахс ҳам тоифага кирганлиги сабабли имтиёздан фойдаланиши, кам даромадли, бироқ тоифага кирмайдиган оила эса тўлиқ ставкада солиқ тўлаши мумкин. Шу сабабли бозор қийматига ўтиш билан бир вақтда амалдаги имтиёзларни хатловдан ўтказиш, улар туфайли бюджет олмай қолган даромадларни солиқ харажатлари сифатида баҳолаш ва тоифавий имтиёзлардан аста-секин манзилли, даромадга боғланган енгилликларга ўтиш мақсадга мувофиқ.

Бундай ёндашув ижтимоий ҳимоя мақсадларига эришишни бюджет учун арзонроқ ва адолатлироқ қилади.

Хулоса қилиб айтганда, кўчмас мулк солиғида бозор қийматига ўтиш фискал нейтрал ставкалар, ўтиш даврида солиқ ўсишини чеклаш ва манзилли ижтимоий ҳимоя механизмлари билан бирга амалга оширилгандагина аҳоли томонидан адолатли ислоҳот сифатида қабул қилинади. Тушумларни ошириш эса ўтиш даври якунлангач, объектлар қамровини кенгайтириш ва баҳолаш сифатини ошириш ҳисобига, ставкаларни очиқ ва асосланган ҳолда ўзгартириш орқали таъминланиши мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Bowman, J. H., Kenyon, D. A., Langley, A., & Paquin, B. P. (2009). Property tax circuit breakers: Fair and cost-effective relief for taxpayers. Lincoln Institute of Land Policy.

2. Langley, A. H., & Youngman, J. (2021). Property tax relief for homeowners. Lincoln Institute of Land Policy.

3. Youngman, J. (2016). A good tax: Legal and policy issues for the property tax in the United States. Lincoln Institute of Land Policy.

4. Zodrow, G. R. (2001). The property tax as a capital tax: A room with three views. National Tax Journal, 54(1), 139–156.

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти. (2025). Кўчмас мулкни оммавий баҳолаш тизимини жорий этиш тўғрисида (ПФ-43-сон Фармон, 5 март). https://lex.uz

JAHON SAVDOSINING GEOIQTISODIY FRAGMENTATSIYASI VA O‘ZBEKISTON TASHQI SAVDOSINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH YO‘NALISHLARI

Qo‘ldoshev Ilyos Shuxratovich
TDIU JI va XIM kafedrasi
katta o‘qituvchisi
orcid.org/0000-0003-0543-1507

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jahon iqtisodiyotida geoiqtisodiy fragmentatsiyaning savdo aloqalariga ta’sir kanallari va O‘zbekiston tashqi savdosini diversifikatsiya qilish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot rasmiy statistik ma’lumotlarning tavsifiy tahlili hamda Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki materiallarini tizimli qiyoslashga asoslanadi. Savdo balansini, eksportning importni qoplash darajasini va yirik hamkorlarning umumiy savdodagi ulushini hisoblash orqali tashqi iqtisodiy barqarorlikka oid masalalar aniqlashtiriladi. Tahlil savdo hajmi o‘sishini uning tarkibiy barqarorligi bilan bir xil baholamaslik zarurligini ko‘rsatadi. Bozorlarni kengaytirish bilan birga mahsulotlar, transport yo‘nalishlari va yetkazib beruvchilarni diversifikatsiya qilish tavsiya etiladi. Maqolada eksportchi korxonalar uchun standartlashtirish, bozor axboroti va logistika xizmatlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Natijalar sababiy bog‘lanishni baholash emas, mavjud dalillar asosidagi tahliliy xulosalar sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: jahon iqtisodiyoti, geoiqtisodiy fragmentatsiya, xalqaro savdo, diversifikatsiya, eksport, logistika, O‘zbekiston.

1. KIRISH — INTRODUCTION

Jahon iqtisodiyotida mamlakatlar o‘rtasidagi ishlab chiqarish, texnologiya va savdo aloqalari korxonalarga katta bozorlarga chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, siyosiy qarorlar sababli iqtisodiy aloqalarning cheklanishi mavjud hamkorlik tizimiga qo‘shimcha xarajatlar kiritishi mumkin. Ushbu jarayon geoiqtisodiy fragmentatsiya sifatida o‘rganiladi. Uning mohiyati mamlakatlarning oddiy raqobatlashuvidan ko‘ra kengroq bo‘lib, savdo va ishlab chiqarish aloqalarining siyosiy omillar ta’sirida qayta tashkil etilishini anglatadi

[1].

Xalqaro valyuta jamg‘armasi tadqiqotida fragmentatsiya xarajatlari import narxlari, eksport bozorlariga kirish va ishlab chiqarish resurslari orqali tarqalishi ko‘rsatilgan. Ayrim xomashyo yoki texnologik mahsulotlarni boshqa yetkazib beruvchi bilan tez almashtirish qiyinligi moslashuv xarajatlarini oshiradi [1]. Shu sababli bir bozordagi cheklov boshqa hududlarda faoliyat yuritayotgan korxonalarga ham bilvosita ta’sir qilishi mumkin.

O‘zbekiston uchun masalaning amaliy ahamiyati tashqi savdoni kengaytirish bilan uning uzluksizligini ta’minlash vazifalari bir vaqtda bajarilishi zarurligidadir. Eksport bozorining mavjudligi yetarli emas: mahsulot unga belgilangan muddatda, talab etilgan sifatda va maqbul umumiy xarajat bilan yetkazilishi lozim. Bu talab bozor tanlash, ishlab chiqarish salohiyati va logistika siyosatini birgalikda ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsadi — geoiqtisodiy fragmentatsiya sharoitida O‘zbekiston tashqi savdosining ayrim tarkibiy ko‘rsatkichlarini baholash va diversifikatsiya bo‘yicha amaliy yo‘nalishlarni asoslash. Asosiy savol quyidagicha qo‘yiladi: savdo hajmini oshirish bilan birga tashqi shoklarga sezgirlikni kamaytirish uchun qaysi choralar ustuvor bo‘lishi kerak? Maqolaning tahliliy hissasi bozorlar, mahsulotlar va transport yo‘nalishlarini o‘zaro bog‘liq uchta diversifikatsiya yo‘nalishi sifatida ko‘rib chiqishdan iborat.

2. MATERIALLAR VA METODLAR — METHODS

Tadqiqot ikkilamchi manbalarga asoslangan tavsifiy-tahliliy ishdir. Manbalar maqsadli ravishda tanlandi: xalqaro savdo fragmentatsiyasi mexanizmlarini tushuntiruvchi XVJ materiali [1], O‘zbekistonning 2025-yil tashqi savdosi bo‘yicha rasmiy dastlabki statistik axborot [2], mintaqaviy transport yo‘laklari haqidagi Jahon banki hisoboti taqdimoti [3] va O‘zbekiston rivojlanishiga oid institutsional tahlil [4]. Tanlov mezonlari manbaning rasmiyligi, mavzuga bevosita aloqadorligi va ko‘rsatkichlarni tekshirish imkoniyati bo‘ldi. Bu ish barcha ilmiy adabiyotlarni qamrab oluvchi sistematik sharh hisoblanmaydi.

Hisob-kitoblarda quyidagi ifodalardan foydalanildi: savdo saldosi B = X −

M; eksportning importni qoplash darajasi $K = (X / M) \times 100$; ikki yirik hamkor ulushi $CR_2 = s_1 + s_2$. Bunda X — eksport, M — import, s_1 va s_2 — eng yirik ikki hamkorning jami tashqi savdodagi foiz ulushlari. CR_2 eksportning alohida geografik konsentratsiyasini emas, umumiy savdodagi jamlanishni ifodalaydi.

Tahlil uch bosqichda bajarildi: xalqaro manbalardagi ta’sir kanallari ajratildi; milliy ko‘rsatkichlar asosida oddiy nisbatlar hisoblandi; aniqlangan masalalarga mos amaliy takliflar shakllantirildi. Pul ko‘rsatkichlari joriy AQSH dollarida berilgan; ular real fizik hajm o‘sishini alohida o‘lchamaydi. Yaxlitlangan dastlabki ma’lumotlar sababli hisob-kitoblar ham taxminiydir. Ekonometrik model, korxonalar so‘rovi yoki sababiy ta’sirni aniqlash usullari qo‘llanilmadi.

3. NATIJALAR — RESULTS

3.1. Fragmentatsiya xarajatlari ssenariyga bog‘liq

XVJ materialida cheklangan strategik ajralish ssenariysida global yalpi ichki mahsulot yo‘qotishi 0,3 foiz, ikki blok o‘rtasidagi savdo to‘liq uzilgan ssenariyda esa 2,3 foiz deb baholangan. Moslashuv xarajatlari juda yuqori bo‘lsa, yo‘qotish 7 foizgacha yetishi mumkin [1]. Bu raqamlar kuzatilgan pasayish yoki aniq kelajak prognozi emas, muayyan farazlarga asoslangan model natijalaridir. Ularni O‘zbekiston uchun tayyor milliy baho sifatida ishlatish mumkin emas.

Mazkur dalildan kelib chiqadigan tahliliy xulosa shuki, muqobil xaridor va yetkazib beruvchilarni oldindan tayyorlash shok yuz bergandan keyingi shoshilinch moslashuvga ehtiyojni kamaytirishi mumkin. Biroq bunday tayyorgarlikning o‘zi ham sertifikatlash, sinov partiyalari va yangi shartnomalar bilan bog‘liq xarajatlarni talab qiladi.

3.2. O‘zbekiston tashqi savdosining tanlangan ko‘rsatkichlari

Rasmiy dastlabki ma’lumotlar va ular asosidagi muallif hisob-kitoblari 1-jadvalda keltirilgan [2].

1-jadval. O‘zbekiston tashqi savdosining tanlangan ko‘rsatkichlari,

2025-yil

Ko‘rsatkich	**Qiymat**	**Asos**
Tashqi savdo aylanmasi	81,2 mlrd dollar	Rasmiy ma’lumot
Eksport	33,8 mlrd dollar	Rasmiy ma’lumot
Import	47,4 mlrd dollar	Rasmiy ma’lumot
Savdo saldosi	−13,6 mlrd dollar	X − M
Eksportning importni qoplashi	71,3 %	(X / M) × 100
Ikki yirik hamkor ulushi (CR_2)	37,2 %	21,2 % + 16,0 %

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi [2]; saldo, qoplash darajasi va jamlangan ulush — muallif hisob-kitobi. Ma’lumotlar dastlabki va yaxlitlangan.

Xitoy va Rossiyaning alohida ulushlari mos ravishda 21,2 va 16,0 foizni tashkil etgan [2]. Hisoblangan CR_2 ikki hamkor umumiy savdoda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Biroq qolgan mamlakatlar ulushlari, mahsulotlar tarkibi va alohida yo‘nalishlardagi talab o‘rganilmasdan to‘liq konsentratsiya bahosini chiqarib bo‘lmaydi.

Manfiy saldo ham o‘z-o‘zidan iqtisodiy samarasizlik yoki fragmentatsiya ta’sirining isboti emas. Uning talqini importning iste’mol tovarlari, ishlab chiqarish uskunalari va oraliq resurslar o‘rtasidagi tarkibiga bog‘liq. Shu bois natijalar importni yalpi qisqartirishdan ko‘ra, uning ishlab chiqarish va eksportga qo‘shayotgan hissasini tekshirish zarurligini ko‘rsatadi.

3.3. Transport muqobillari institutsional muvofiqlashtirishni talab qiladi

Jahon bankining O‘rta yo‘lak bo‘yicha tahlili Qozog‘iston, Ozarbayjon va Gruziyaga qaratilgan. Unda investitsiyalar va tegishli siyosiy choralar bilan 2030-yilgacha yuk oqimini uch baravar oshirish va safar vaqtini yarmiga qisqartirish imkoniyati ko‘rsatilgan. Chegara jarayonlarini soddalashtirish, raqamli axborot almashinuvi va logistika xizmatlarini muvofiqlashtirish asosiy

shartlar qatorida qayd etilgan [3]. Ushbu salohiyatni O‘zbekiston uchun bevosita miqdoriy natija sifatida talqin qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

O‘zbekiston nuqtayi nazaridan muallif xulosasi shuki, muqobil yo‘nalishni baholashda faqat masofa yoki tashish tarifiga tayanish yetarli emas. Qayta yuklash, sug‘urta, hujjatlashtirish, chegaradagi kutish va yetkazish muddatining o‘zgaruvchanligi ham hisobga olinishi lozim.

4. MUHOKAMA — DISCUSSION

Natijalar tashqi savdo barqarorligini yagona ko‘rsatkich bilan baholash cheklanganini ko‘rsatadi. Aylanma ko‘payishi bozorlar soni, mahsulot murakkabligi yoki transport muqobillari ham bir xil sur’atda yaxshilanganini anglatmaydi. Shuning uchun diversifikatsiyani mavjud yirik hamkorlar bilan aloqalarni qisqartirish deb tushunish maqsadga muvofiq emas. Uning vazifasi korxonalar uchun qo‘shimcha tanlov imkoniyatlarini yaratishdir.

Bozorlarni diversifikatsiya qilishda barcha mamlakatlarga bir vaqtning o‘zida chiqishga urinish o‘rniga, mahsulotga mos istiqbolli yo‘nalishlarni saralash taklif etiladi. Saralash mezonlariga talab hajmi, xaridorlarning to‘lov intizomi, sertifikat talablari va yetkazishning umumiy xarajati kiritilishi mumkin. Dastlab sinov eksporti tashkil etilib, buyurtmaning takrorlanishi va sof rentabellik baholangandan keyin faoliyat kengaytirilishi lozim.

Mahsulot diversifikatsiyasi esa yangi nomdagi tovarlar sonini ko‘paytirish bilan cheklanmasligi kerak. Korxonaning mavjud tajribasi va resurslariga yaqin, ammo ko‘proq qayta ishlash yoki qo‘shimcha xizmatni talab qiladigan mahsulotlar bosqichma-bosqich tanlanishi mumkin. Bunda laboratoriya sinovi, sifat nazorati, qadoqlash va sotuvdan keyingi xizmat eksport salohiyatining tarkibiy qismlari sifatida ko‘riladi.

Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha tahlilida xususiy sektorning global integratsiyasi, raqobat muhiti va resurslar taqsimotini yaxshilash zarurligi qayd etilgan [4]. Ushbu yondashuv bilan uyg‘un holda, eksportchini qo‘llab-quvvatlashni faqat moliyaviy imtiyozga bog‘lamaslik taklif etiladi. Bozor axboroti, sertifikatlash bo‘yicha maslahat, xaridorni tekshirish va shartnoma tuzishga ko‘mak yagona xizmatlar zanjiriga birlashtirilishi mumkin.

Amaliy siyosat uchun uchta ustuvor yo‘nalish tavsiya qilinadi. Birinchisi — mahsulot va mamlakat kesimida eksport imkoniyatlari xaritasini shakllantirish. Ikkinchisi — asosiy eksport yo‘nalishlari bo‘yicha kamida bitta muqobil logistika variantini xarajat va muddat bo‘yicha taqqoslash. Uchinchisi — ko‘mak olgan korxonalarda yangi bozordagi takroriy buyurtmalar, eksport rentabelligi va yetkazish ishonchliligini kuzatish. Bular maqolada samarasi empirik tasdiqlangan choralar emas, keyingi sinov va baholash uchun taklif etilayotgan yo‘nalishlardir.

Diversifikatsiyaning o‘z xarajatlari ham mavjud: kichik hajmdagi ko‘p yo‘nalishli savdo miqyos samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu bois har bir yangi bozorga chiqish qarori kutilayotgan daromad, qo‘shimcha xarajat va risk kamayishi o‘rtasidagi muvozanat bilan asoslanishi kerak. Keyingi tadqiqotlarda mahsulot-mamlakat kesimidagi ma’lumotlar yordamida eksport konsentratsiyasi indeksi, yangi eksport oqimlarining saqlanib qolishi va logistika xarajatlarining korxonalar natijalariga bog‘liqligini baholash zarur.

5. XULOSA

Geoiqtisodiy fragmentatsiya savdo barqarorligini bozorlar, ishlab chiqarish va logistika o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida ko‘rib chiqishni talab qiladi. O‘zbekiston bo‘yicha hisoblangan ko‘rsatkichlar ayrim yirik hamkorlarning umumiy savdodagi ahamiyatini ifodalaydi, ammo mamlakatning fragmentatsiyadan ko‘rgan zararini o‘lchamaydi. Amaliy ustuvorlik eksportchi uchun yangi xaridorlar, yuqoriroq qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar va muqobil yetkazish yo‘llarini iqtisodiy jihatdan asoslangan tarzda rivojlantirishdan iborat. Natijalarni faqat savdo aylanmasi bilan emas, takroriy buyurtmalar, rentabellik va yetkazish barqarorligi bilan kuzatish diversifikatsiya sifatini baholashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Bolhuis, M. A., Chen, J., Kett, B. (2023). The Costs of Geoeconomic Fragmentation. Finance & Development, June. International Monetary Fund. https://www.imf.org/en/publications/fandd/issues/2023/06/the-costs-of-geoeconomic-fragmentation-bolhuis-chen-kett

[2] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026, 22-yanvar). 2025-yilda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 81 mlrd dollardan oshdi. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66430-2025-jilda-zbekistonning-tash-i-savdo-ajlanmasi-81-mlrd-dollardan-oshdi-2

[3] World Bank. (2023, November 27). Middle Corridor through Central Asia, Caucasus Can Boost Trade, Connectivity and Supply Chain Resilience, Says New Report. https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2023/11/27/middle-corridor-through-central-asia-caucasus-can-boost-trade-connectivity-and-supply-chain-resilience

[4] World Bank. (2022, May 18). New Flagship Report by the World Bank Identifies Key Opportunities for Uzbekistan’s Development. https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2022/05/18/uzbekistan-systematic-country-diagnostic

Elektron manbalarga murojaat qilingan sana: 15.10.2026.

MUNDARIJA

T.Z.Teshabayev Kirish so‘zi…….	*3*
1-YO‘NALISH. IQTISODIYOT FANI TARIXIDA IQTISODIY QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH KONSEPSIYALARI	
А.Вахабов Жаҳон иқтисодиётида ноаниқлик шароитида иқтисодий сиёсатни амалга ошириш йўналишлари…….....	*5*
X.Asatullayev Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining nazariy jihatlarini takomillashtirish…….	*10*
O.Meyliev, Sh.Xusanov Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish……..	*16*
Sh.Turobov Tomorqa xo‘jaliklari faolligini oshirishning ijtimoiy–iqtisodiy mohiyati va ilmiy-nazariy asoslari.....	*19*
J.Nurillayev Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning nazariy modellari…….....	*22*
Р.Каландаров Хуфёна иқтисодиётнинг моҳияти ва уни ўзбекистонда камайтириш чора-тадбирлари.....	*25*
Н.Хасанхонова Билимлар иқтисодиётини шакллантиришда давлатнинг инновацион сиёсати: халқаро тажриба ва ўзбекистон.....	*32*
А.Гафурова Экономическая сущность прибыли.....	*34*
U.Barotov Mavsumiylikning iqtisodiy oqibatlari: nazariy qarashlar evolyutsiyasi va zamonaviy talqinlari.....	*39*
Ш.Мирзаев Барқарор ривожланиш шароитида иқтисодий назария ва исломий молиянинг институционал уйғунлиги.....	*42*
О.Норбоев Мулк капиталлашуви жараёнида иқтисодий циклларни аниқлаш методологиясини такомиллаштириш.....	*44*
Н.Гойибназарова Влияние цифровизации и финтеха на ценовую конкуренцию в Узбекистане.....	*51*
N.Sharipov, M.Ibroximova Bank kon’yukturasi va narx siyosati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning nazariy asoslari.....	*54*

A.Malikov Aholi bandligini ta’minlashga oid iqtisodiy qarashlarning shakllanishi va rivojlanish konsepsiyalari.....	*58*
M.Abdullajonova The role of public transportation optimization in reducing urban traffic congestion: evidence from Tashkent city……....	*63*
З.Аллаберганов, Б.Мухаммаджонов Страхование предпринимательских рисков в экономической деятельности…….	*66*
Х.Давлетова Концептуальный анализ исторического формирования и развития экономических взглядов……..	*68*
U.Saidxanov Artificial intelligence and financial inclusion in rural Uzbekistan…….	*70*
N.Sharipov, M.Malikova Jahon tovar bozorlari to‘g‘risidagi iqtisodiy qarashlarning rivojlanish konsepsiyalari…….....	*72*
J.Xamitillayeva O‘zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish masalalari…….....	*77*
B.Sharipov Tadbirkorligiga oid iqtisodiy qarashlarning tarixiy shakllanishi……	*81*
Sh.Qurbonova Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy sohani modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari.....	*83*
Sh.Toshtemirov Aholi daromadlarini tartibga solish mazmunining rivojlanish evolyutsiyasi: ilmiy-tahliliy yondashuv.....	*85*
G.Isamova Iqtisodiyotni raqamlashtirish asosida milliy iqtisodiy o‘sishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish omillari.....	*89*
N.Sherkulova Aholi bandligini oshirishda rekruting agentliklari orqali gender teng imkoniyatlarni shakllantirish masalalari.....	*92*
У.Файзиев, Р.Шарипова Теоретические основы аудита консолидированной финансовой отчетности.....	*97*
У.Файзиев, Р.Шарипова Теоритические основы аудита материальных затрат на производственных предприятиях.....	*101*
Sh.Asatova Investitsion faollik: nazariy yondashuvlar taxlili……	*104*
2-YO‘NALISH. O‘RTA OSIYODAGI IQTISODIY QARASHLAR EVOLYUTSIYASI VA IQTISODIY MAKTABLARNING	

SHAKLLANISHI IQTISODIY O‘SISHNING ENG MASHHUR NAZARIYALARI	
D.Tojiboyeva, J.Xolmurzayev Iqtisodiy o‘sishning eng mashhur nazariyalari.....	*108*
S.Topildiyev, S.Karimova Digital currencies and central bank digital currency (cbdc): lessons from china for uzbekistan.....	*111*
Z.Allaberganov, H.Nazarova Jahon iqtisodiyoti va raqamli texnologiyalar: o‘zbekiston turizmida qo‘llash.....	*116*
U.Zaynitdinova, A.Abdurasulov AI-based macroeconomic stability modeling in Uzbekistan……..	*118*
O.Abdunazarov O‘rta Osiyodagi iqtisodiy qarashlar evolutsiyasi va iqtisodiy maktablarning shakllanishi……	*130*
S.Akbarova, M.Farxodov O‘rta Osiyodagi iqtisodiy qarashlar evolyutsiyasi va iqtisodiy maktablarning shakllanishi…….	*132*
Ё.Хайдарова, *М.Нажметдинов* Система экономического управления в эпоху Темуридов.....	*135*
S.Topildiyev, R.Latipov Contemporary economic views and their interpretation in the context of digital transformation.....	*138*
Y.Xaydarova, F.Turdiyeva Ideas of artificial intelligence, green and digital economy…….	*140*
K.Naqibbekov The evolution of economic thought in central asia and the formation of economic schools……...	*142*
3-YO‘NALISH. HOZIRGI ZAMON IQTISODIY QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY TALQINLARI	
Н.Тухлиев Иқтисодий қарашлар ва ўзбекистонда иқтисодий ўсиш муаммолари.....	*144*
T.Jo‘raev, A.Mamatov O‘zbekistonning eksport salohiyatini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	*146*
D.Tojiboeva S.Kuznets nazariyasi va o‘zbekistonda uy xo‘jaligining bandlikni ta’minlashdagi roli.....	*152*
G.Xidirova	*155*

Yashil mehmonxona industriyasini raqamlashtirish: xalqaro sertifikatlash tizimlari va o‘zbekistonda iqtisodiy samaradorlik tahlili……	
М.Юлдашев Ҳозирги замон иқтисодий қарашлари ва уларнинг замонавий талқинлари.....	*162*
D.Nasirxadjayeva Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda investitsion faollikni o‘ziga xos xususiyatlari……...	*165*
A.Abduvoxidov Moliyaviy savodxonlik omillari tasnifi.....	*168*
A.Yusupova The role of corporate values in shaping employee behavior and team effectiveness……...	*171*
D.Tojiboyeva, S.Shokirov Moliya siyosati va uni amalga oshirishda davlat bюdjetining roli.....	*173*
Z.Allaberganov, M.Gofurova Behavioral economics as a modern direction of economic theory: decision-making under uncertainty……...	*175*
F.Otaboyev Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining o‘sish xususiyatlarining empirik va nazariy tahlil…….....	*178*
N.Sharipov Soliq salohiyatini oshirishga doir hozirgi davr iqtisodiy qarashlari va ularning zamonaviy talqinlar……..	*182*
N.Azamqulov Hozirgi zamon iqtisodiy qarashlari va ularning zamonaviy talqinlari	*187*
S.G‘ofurov Xizmatlar bozorida umumiy ovqatlanish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari……..	*189*
X.Bakayev Uzoq muddatli aktivlar hisobi takomillashtirishda hozirgi davr iqtisodiy qarashlari…….....	*191*
Ш.Назаров Рақамли инфратузилма ва молиявий инклюзивлик: бухоро вилоятида камбағал аҳолини банк хизматларига жалб қилишнинг замонавий механизмлари…….....	*194*
J.***Xamitillayeva*** Bbudjetlararo munosabatlardagi muammolarni hal etishning ustuvor yo‘nalishlari…….....	*197*
S.Bozorov Energetika xavfsizligini ta’minlashning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta’siri…….....	*200*
И.Мелиев	*203*

Аудиторлик текширувини ўтказиш: муаммо ва ечимлар…….....	
K.Nazarova Moliyaviy hisobot ishonchliligini baholashning muhim masalalari…….....	*205*
Н.Калдибаев Макроэкономическая оценка общества 5.0 как драйвера экономического и социального развития стран БРИКС-Т.....	*208*
Ш.Давирова, Ж.Илхомов Развитие системы внутреннего аудита в государственном секторе республики узбекистан на основе международных стандартов и передового зарубежного опыта…….....	*211*
С.Ёдгоров Применение современных финансовых технологий для обеспечения инвестиционной безопасности…….....	*214*
S.Kamilova Milliy kapital bozorida institutsional investorlar faoliyati samaradorligini baholash yondashuvlari…….....	*217*
S.Bozorov Energetika xavfsizligini ta’minlashning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta’siri…….....	*221*
N.Tadjibayeva Content marketing va seo: 2025-yil tendensiyalari……	*224*
S.Hakimova Real sektor korxonalarini moliyalashtirishda islom moliyasining o‘rnini oshirish yo‘llari…….....	*228*
М.Абдуллаева Маҳалла институти фаолиятининг самарадорлигини оширишнинг асосий йўналишлари….....	*230*
M.Abdullajonova The role of public transportation optimization in reducing urban traffic congestion: evidence from tashkent city.....	*234*
О.Азимов Жаҳонда ислом банки бозорининг ривожланиш тендециялари.....	*236*
А.Олимжонов Роль цифровых технологий в развитии инвестиционных фондов: опыт люксембурга и перспективы для узбекистана.....	*239*
Г.Хусанова Ўзбекистонда кон-металлургия саноати корхоналарини ривожлантириш истиқболлари.....	*242*
N.Axmedova Iqtisodiyotni liberalizatsiya qilish sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning institutsional mexanizmlari.....	*244*

T.To‘xtaraliyev Globallashuv sharoitida kichik biznesning xalqaro munosabatlarda ishtirok etish imkoniyatlari va muammolari.....	*248*
У.Файзиев, Д.Матякубова Совершенствование процесса сбора аудиторских доказательств.....	*251*
Y.Ergasheva Iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning samarali davlat boshqaruvi.....	*259*
S.Komilova Efficient market hypothesis and its limitations in modern finance.....	*262*
F.Azimjonova Risks in the public offering of shares.....	*265*
M.Qaxramonova Xodimlar qo‘nimsizligi darajasini kamaytirishda motivatsiyaning ahamiyati.....	*268*
S.Shodiyeva “O‘zmetkombinat” AJ misolida korxona rentabelligi va moliyaviy natijalarini tahlil qilish.....	*275*
Sh.Rakhmonberdieva Современные экономические взгляды и их современные интерпретации.....	*278*
G.Azamatova Sug‘urta tashkilotlarining dolzarbligi.....	*280*
С.Камилова, М.Мирзавалиев Значение модели определения “точки безубыточности” при оценке рыночного риска.....	*283*
Н.Олимжонова, У.Файзиев Направления использования внешних подтверждений при сборе аудиторских доказательств.....	*285*
L.Jo‘rayev O‘zbekistonda pochta xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi: muammolar va yechimlar.....	*290*
S.Mirzoyev Sug‘urta bozorining globallashuvida qayta sug‘urtaning rolini oshirish.....	*293*
M.Axmatova, X.Hamroqulova Muqaddas maskandan barqaror kelajakka: saudiya arabistoni ziyorat turizmi tajribasi buxoro hududida qo‘llash imkoniyatlari.....	*295*
N.Dexkanova Kimyo sanoatini innovatsion rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tizimi.....	*298*
S.Jalolova	*300*

Hududlarda kichik sanoat zonalari tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	
Б.Романова Экономическая суть процентных рисков и причины их возникновения.....	*305*
У.Файзиев, *Д.Адылова* Аудит амортизации основных средств.....	*307*
А.Мустафоев Совершенствование бухгалтерского учета и аудита расходов на инновационную деятельность.....	*311*
Sh.Abidova Soliq siyosatining aholi daromadlari shakllanishiga ta’siri va uning makroiqtisodiy barqarorlikdagi roli……	*315*
Г.Хусанова Ўзбекистонда кон-металлургия саноати корхоналарини ривожлантириш истиқболлари.....	*320*
J.Nurillayev, I.Ergashev Market systems and economic efficiency: a comparative analysis……...	*323*
А.Хамроев Профессионал таълим муассаларида бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобини ташкил этиш ва такомиллаштириш……..	*326*
A.Fayziyev Musobaqa sharoitida yosh kurashchilarning sezgi organlarini rivojlantirish……...	*329*
С.Камилова, З.Макарова Экономическая сущность, виды и причины возникновения валютного риска…….....	*331*
4-YO‘NALISH. NOBEL MUKOFOTI SOVRINDORLARI VA ULARNING ASOSIY IQTISODIY NAZARIYALARI	
XAsatullayev, H.Kunuzoqov Nobel mukofoti sovrindorlari va ularning asosiy iqtisodiy nazariyalari.....	*335*
Д.Тожибоева Иқтисодиёт соҳасида машҳур аёл олималар ва уларнинг тадқиқот йўли.....	*341*
U.Zaynitdinova, D.Murodjonova Nobel prize laureates and their contributions to modern economic theory.....	*344*
M.Allayarova Iqtisodiyot bo‘yicha nobel mukofoti laureatlari.....	*346*
M.Sobirova Abhijit banerjee va esther duflo tadqiqotlari asosida kambag‘allikni kamaytirishning zamonaviy eksperimental yondashuvlari.....	*350*

***N.*Azamqulov** Don yetishtirish barqarorligini ta’minlashning strategik yo‘nalishlarining iqtisodiy konsepsiyalari.....	*353*
S.Jo‘rayev Nobel mukofoti sovrindorlari va ularning asosiy iqtisodiy nazariyalari.....	*354*
Z.Inamjanov Nobel prize laureates and their main economic theories.....	*356*
U.Babayeva Nobel mukofoti sovrindorlari va ularning asosiy iqtisodiy nazariyalar.....	*360*
E.Saidmahmudova Направления формирования эффективной экономической политики в условиях современных экономических и политических потрясений.....	*362*
M.Nabikhonov Nobel prize laureates and their main economic theories……...	*365*
М.Умарова Лауреаты нобелевской премии и их основные экономические теории……	*367*
С.Касымов, С.Турабаев Лауреаты нобелевской премии и их основные экономические теории……	*369*
N.Azamqulov, S.*Ismoilov* Nobel mukofoti sovrindorlari va ularning asosiy iqtisodiy nazariyalari…….	*372*
5-YO‘NALISH. ZAMONAVIY IQTISODIY VA SIYOSIY LARZALAR SHAROITIDA SAMARALI IQTISODIY SIYOSATNI SHAKLLANTIRISH YO‘NALISHLARI	
B.Xajiyev Qayta moliyalash stavkasi o‘zgarishlarining inflyatsiya va iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholash…….....	*375*
Ш.Юсупов Роль международных финансовых институтов в обеспечении финансовой стабильности развивающихся стран: пример Узбекистана…….....	*378*
Ж.Аташниязов Европа иттифоқи рақамли молия стратегияси: илғор тажрибалардан ўзбекистонда фойдаланиш имкониятлари…….	*381*
X.Qobulov Zamonaviy iqtisodiy larzalar sharoitida hudud daromad salohiyatini oshirishning fiskal mexanizmlari……..	*384*

Sh.Xamdamov, A.Usmanov Toshkent shahrida tramvay tizimini joriy etishning shahar infratuzilmasi samaradorligi va barqaror rivojlanishga ta’siri…….....	*387*
B.Ibragimov Zamonaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda soliq madaniyatini oshirish masalalari…….....	*390*
S.Atamurodov Raqamli texnologiyalar asosida pul oqimlari auditini takomillashtirish…….....	*392*
Sh.Xamdamov, Sh.Fozilova Yashil iqtisodiyot sharoitida elektr transport vositalarini moliyaviy rag‘batlantirish…….....	*394*
S.Abdulxalilova, *B.Arslan* Blockchain technologies in the financial sector: singapore’s experience and implementation opportunities in Uzbekistan.....	*397*
N.Iroqxo‘jayeva Iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish.....	*399*
N.Azamqulov, J.Po‘latov Iqtisodiy va siyosiy beqarorlik davrida iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirish…….....	*400*
O.Oxunova Mehnat bozorida gender tenglikni ta’minlashning iqtisodiy o‘sishga ta’siri…….....	*403*
S.Atamurodov Global iqtisodiy beqarorlik sharoitida pul oqimlari auditi orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlash strategiyalari.....	*408*
M.Xolbozorov Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda sanoatning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalar.....	*411*
B.Sharipov Inqirozlar sharoitida imkoniyati cheklangan fuqarolar tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.....	*415*
K.Atanazarov Digital transformation and structural economic change in Uzbekistan.....	*418*
A.Ulashov, J.Maxmudov Artificial intelligence and trade facilitation along the trans-caspian corridor.....	*421*
Q.Norqulova Budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar tahlilini takomillashtirish.....	*423*
К.Дадаев	*425*

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг иқтисодий хавфсизлигининг институционал асосларини такомиллаштириш.....	
С.Хасанов Тижорат банкларининг молиявий хавфсизлигини таъминлашнинг моҳияти ва амалий жиҳатлари.....	*429*
S.Bozorov O‘zbekistonda energetika xavfsizligini mustahkamlashning institutsional va iqtisodiy asoslari.....	*432*
N.Xikmetov Chakana bank xizmatlari bozorida yangi bank mahsulotlarini joriy etishning muhim jihatlari.....	*435*
S.Sherov Sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish.....	*437*
Sh.Jumayeva Yoshlar iqtisodiy faolligi va uni oshirish yo‘llari.....	*440*
J.Ilkhomov, Sh.Davirova Development of the internal audit system in the public sector of the republic of Uzbekistan based on international standards and best foreign practices.....	*443*
A.Shodiyev Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda davlat-xususiy sherikligining zarurati va uning shakllari.....	*446*
Д.Мурадова Повышение рыночной стоимости акционерных обществ в Узбекистане.....	*450*
G.Khaliev Modern monetary policy instruments and their impact on the stability of commercial banks in Uzbekistan.....	*453*
И.Жуманиязов Суверен фондлар молиявий маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари.....	*456*
O.Abdunazarov Milliy iqtisodiyot: barqaror-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlari.....	*459*
B.Ganiev Labor productivity in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	*461*
B.Ganiev Linking the informal sector and labor productivity of small business in the context of Uzbekistan.....	*467*
У.Файзиев, З.Озодова	*474*

Роль финансовых активов в обеспечении финансовой устойчивости организации.....	
У.Файзиев, У.Йулбарсова Определение уровня существенности в аудиторской проверке.....	*477*
С.Камилова, Ш.Юлдашев Прогнозирование финансовых рисков с помощью искусственного интеллекта.....	*483*
Д.Эргашева Психологические особенности мотивации предпринимателей.....	*486*
М.Усмонова Проблема сокращения теневой экономики в Узбекистане и опыт польши.....	*488*
С.Касымов, А.Абдухакимов Инновационное развитие и конкурентоспособность экономики Узбекистана в условиях глобализации.....	*491*
S.Abdullayeva Issues of applying modern methods of financial risk management in enterprises.....	*495*
F.To‘laganova Soliq mexanizmi samaradorligini aniqlashning indikatorli modeli va uni takomillashtirish yo‘nalishlari.....	*499*
М.Азимова Ўзбекистонда халқаро франчайзинг стандартларини локализация қилиш моделини ишлаб чиқиш.....	*501*
П.Хашимов, У.Мавланова Качество человеческого капитала в условиях структурных и институциональных преобразований экономики Узбекистана.....	*504*
K.Mirzayeva Geosiyosiy risklar va makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida barqaror iqtisodiy siyosat mexanizmlarini rivojlantirish.....	*507*
N.Dexkanova Kimyo sanoatini innovatsion rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tizimi.....	*510*
Н.Наркузиев Концепция инфляции в экономике Узбекистана и монетарные факторы, влияющие на экономику.....	*512*
A.Bayseitova Barqaror rivojlanishning moliyaviy jihatlari……..	*515*
Z.Djuraboyeva ESG tamoyillarining zamonaviy investitsiyalarni jalb qilishdagi o‘rni……	*518*
F.Shokirov	*521*

Yo‘l infrastrukturasini rivojlantirishda yo‘l jamg‘armasining roli……..	
А.Р.Улашов Способы оценки эффективности инвестиционных проектов.....	*523*
I.A.Imomov Financing green universities and sustainable development……...	*524*
U.U. Rajabova Bank xizmatlarini raqamlashtirishda moliyaviy texnologiyalarning roli va rivojlanish istiqbollari	*527*
M.R. Sagdiyeva Banklar faoliyatida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: samaradorlik va innovatsion rivojlanish……	*531*
М. Д. Шарахмедова Тўқимачилик кластерларида вертикал қиймат занжирини интеграциялаш ва қўшилган қийматни ошириш механизмлари	*535*
Oqiljonov A.O. Pensiya xizmatlarini raqamlashtirish: proaktiv xizmatlar va “yagona pensiya profili”ning samaradorlik mexanizmi	*537*
Tursunov O.P. Makroiqtisodiy barqarorlikka raqamli texnologiyalarning ta’siri: xalqaro tajriba va O‘zbekiston amaliyoti	*541*
Xolmatov A.A. Tijorat banklari likvidligini ta’minlashda aktivlar va majburiyatlarni muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish mexanizmlari……...	*548*
Valiyev D.B. Xorijiy banklar tajribasi asosida o‘zbekiston tijorat banklarida xizmatlar sifatini oshirish yo‘llari	*552*
Qarshiyev N.O. Tashqi shoklar sharoitida O‘zbekiston fiskal siyosatining barqarorlashtiruvchi ta’sirini baholash.....	*556*
Султанов Д. Ш. Кўчмас мулк солиғида бозор қийматига ўтиш даврида аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш механизмлари	*559*
Qo‘ldoshev I.SH. Jahon savdosining geoiqtisodiy fragmentatsiyasi va o‘zbekiston tashqi savdosini diversifikatsiya qilish yo‘nalishlari.....	*564*

“IQTISODIYOT NAZARIYASIDAGI G‘OYALAR EVOLYUTSIYASI: ILMIY QARASHLAR VA USTUVOR TAMOYILLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

TO‘PLAMI

1-qism

2026-yil 7-may
Toshkent-“Iqtisod-moliya” nashriyoti, TDIU-2026

Muharrir: M.Ikromov
Badiiy muharrir: K.Boyxo‘jayev
Kompyuter sahifalovchi: K.Boyxo‘jayev

№ 9665-5762-53ec-e93a-9961-0626-4468

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026. Bichimi 60x84 1/16.
Shartli bosma tabog‘i 19,0. Nashr bosma tabog‘I 19,75.
Adadi 100. Buyurtma № 51

Bosmaxona guvohnomasi № 10-0635
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rizografiya usulida chop etildi.
100000, Toshkent, Islom Karimov ko‘chasi 49-uy.